



Baxodir ABDULLAYEV,
Urganch RANCH texnologiya universiteti o'qituvchisi
E-mail: Avdullayev@gmail.com

UrDU dotsenti, PhD Q.Olloyorov taqrizi asosida

MADANIY FAOLIYAT VA AXLOQIY MADANIYAT HAMDA UNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada axloqiy madaniyat, jamiyatda mavjud bo'lgan axloqiy norma va qoidalarni qayta erkin tafakkur qilish, ularni ma'naviy "hazm qilish" bilan unga suyanib, amaliy faoliyat ko'rsatish haqida so'z boradi. Axloqiylik insonning ichki, botiniy, zaruriy ehtiyojiga aylanadi va uning axloqiy faoliyatining ijtimoiy yo'nalishini belgilab beradi. Zero, axloq kishilarning xulq-atvori, xatti-harakatini baholabgina qolmaydi, balki muayyan axloqiy norma va qoidalarni bajarishga ham undaydi.

Kalit so'zlar: Axloq, xulq, madaniyat, ma'naviyat, ijtimoiy omillar, shaxsiyat.

CULTURAL ACTIVITY AND ETHICAL CULTURE AND ITS PEDAGOGICAL MECHANISMS

Annotation

This article talks about moral culture, free rethinking of moral norms and rules existing in society, spiritual "digesting" of them, relying on them and practical activities. Morality becomes an internal, inner, necessary need of a person and determines the social direction of his moral activity. After all, morality not only evaluates the behavior and moral of people, but also encourages them to follow certain moral norms and rules.

Key words: Morality, behavior, culture, spirituality, social factors, personality.

КУЛЬТУРНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И ЭТИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И ЕЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ

Аннотация

В данной статье говорится о нравственной культуре, свободном переосмыслении существующих в обществе моральных норм и правил, духовном их «переваривании», опоре на них и практической деятельности. Нравственность становится внутренней, необходимой потребностью человека и определяет социальную направленность его нравственной деятельности. Ведь мораль не только оценивает поведение людей, но и побуждает их следовать определенным моральным нормам и правилам.

Ключевые слова: Мораль, поведение, культура, духовность, социальные факторы, личность.

Har bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzum o'z axloqiy normalarini joriy etadi, bu normalarni shaxs ongi va xulqida shakllantirishga intiladi. Ayni vaqtda axloqiy madaniyat-axloqiy, axloqiy ong yordamida shakllanadi. Ularni bir-biridan ajratish, alohida tasavvur etish noo'rindir.

Axloqiy madaniyat tushunchasiga ilmiy adabiyotlarda turlicha izoh berilgan. Ular mohiyat jihatidan bir-biriga yaqin bo'lsa-da, mazmunan farq qiladi, shaklan turli-tumandir. Bu borada pedagog olimlarimiz mazkur masalaga turlicha yondashib, ular asosiy e'tiborni bola shaxsiga qaratadilar va shundan kelib chiqqanlari holda bu tushunchaga ta'rif beradilar.

Masalan, O.Musurmanova "O'quvchilarda ma'naviy madaniyatni shakllantirish" nomli monografiyasida "Axloqiy madaniyat axloqiy bilimlar, malaka va ko'nikmalar, axloqiy ong va faoliyat normalari, axloqiy qoidalar yordamida o'quvchining xulq-atvori, xatti-harakatlari, o'zaro muloqotini boshqara bilish tizimidir [1]", – degan fikrni keltiradi.

Bizningcha, bu yerda qator chalkashliklar bordek ko'rinadi, Avvalo, "axloqiy ong faoliyati normalari" degan tushunchaga aniqlik kiritsak. Odatda, axloq norma qoidalarining inson ongida aks etishiga axloqiy ong deymiz. Faoliyat normalari jumlasida esa, noma'lum bo'lib qolmoqda.

Inson, jumladan, o'quvchi muayyan axloqiy norma va qoidalarni o'zlarining hayotiy faoliyatlariga aylantirishiga, uning madaniyati shakllanadi. O.Musurmanovanning "Axloqiy ong, bir tomondan atrofda axloqiy madaniyat ko'rinishlarini tanqidiy qabul qilib olib, sekin-asta ana shu qabul qilib olingan tarkibiy qismlardan axloqiy madaniyat tuzumi va

tizimi yarata boshlaydi [1]", – degan fikrlari ancha mavhum va chalkash ko'rinadi.

Axloqiy ong tevarak-atrofdagi yuz berayotgan voqea va hodisalarga axloqiylik va axloqsizlik nuqtayi nazaridan munosabatda bo'lishidan kelib chiqadi, To'g'ri, kishining axloqiy madaniyati ham boshqalarning axloqiy ongiga ta'sir qiladi. U, albatta, masalaning faqat bir tomonini ochib beradi.

Axloqiy ong axloqiy madaniyatning negizini tashkil etadi. Uning mezonini axloqiy bilim, axloq normalari, axloqiy tafakkur hisoblanadi. Axloqiy madaniyatning muhim vazifalaridan biri – axloqiy ongni yuqori pog'onaga ko'tarib, amaliy faoliyat ko'rsatishdan iborat.

Bunga ershish uchun, avvalambor, ijtimoiy ong mohiyatini anglab yetish lozim bo'ladi. Chunki jamiyat ma'naviy hayotining asosini – ijtimoiy ong tashkil etadi. Ayrim faylasuflar axloqiy madaniyat bilan axloqiy ongni aynanlantirishga harakat qilishsa, boshqalari ular o'rtasidagi umumiylikka e'tibor bermaydilar. Oqibatda, bu tushunchalar ijtimoiy falsafa bilan etika kategoriyalari o'rtasidagi umumiylik va tafovut chegarasini aniqlashtirishni chigallashtirib yubormoqda.

Bizningcha, axloqiy ong qarashlar, g'oyalar tasavvuri, hissiyotlar yig'indisi va ularning inson ongida aks etishi bo'lsa, axloqiy madaniyat ana shu aks etilgan narsalar, uning xarakterga, tabiatiga singib, amaliy faoliyatida namoyon bo'lishidir. Axloqiy madaniyat mohiyatini aniqlashda pedagog olimlarimiz axloqiy madaniyatni axloqiy tarbiya tushunchasi bilan aynanlashtirishga harakat qilishmoqda.

Masalan, U.Mahkamov fikricha, "Axloqiy madaniyat mohiyati yuqori sinf o'quvchilarini jamiyat ishlab chiqarishida, ijtimoiy va ma'naviy hayotida faol qatnashishiga safarbar etish [2]", – deb ta'kidlaydi. Bizningcha, axloqiy madaniyat mohiyati insonning butun hayoti va ijtimoiy faoliyati davomida rivojlanib, mazmunan boyib, shaklan kengayib boradi.

Axloqiy tarbiya oila, maktab, oliy va o'rta maxsus o'quv yurti va ishlab chiqarish jarayonida olib boriladi, shu bilan birga, u axloqiy ong va axloqiy madaniyat shakllanishining sharti hisoblanadi. Ko'p o'rinda "tarbiyalanganlik" tushunchasi "madaniyatlilik" tushunchasi bilan aynanlashtirib yuboriladi, ammo ular o'rtasida ko'pgina yaqinliklar bo'lishiga qaramay, muayyan tafovutlar ham kuzatiladi.

Madaniyatlilik keng ma'no kasb etadi. Axloqsiz odamni madaniyatli deb bo'lmaydi. "Mening nazaramda, – deb yozgan edi, A.Qahhor, – madaniy odam degan gap madaniyat, odamgarchilik degani. Eng madaniy, eng yaxshi odam, eng odamgarchiligi to'la odam – madaniy odam bo'ladi [3]". Xuddi shu o'rinda axloq bilan madaniyat tutashib ketadi. Ana shunda axloqiy madaniyatning ma'nosi kelib chiqadi.

Axloqiy madaniyat bilan madaniyat tushunchalarini ham chalkashtirmaslik kerak. Chunki, madaniyat tushunchasi axloqiy madaniyatga nisbatan keng ma'noda qo'llaniladi va muayyan darajada umumiy xarakterga ham ega bo'ladi. Axloqiy madaniyat uning bir shakli sifatida ko'rinadi. Shaxs madaniy muhitda yashaydi va faoliyat ko'rsatadi. Madaniyat dinamik xarakterga ega bo'lib, u ijtimoiy tuzum taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir.

Madaniyat ko'p qirrali tushuncha bo'lib, uni falsafa, adabiyot, pedagogika, etnografiya, psixologiya, sotsiologiya, nafosat kabi fanlar tadqiq etadi.

Madaniy faoliyat ijtimoiy faoliyatning bir ko'rinishi, u bilan bog'liq va aloqadordir. Ayni vaqtda u nisbiy mustaqillikka ham ega bo'lib, ularga ta'sir o'tkazadi. Shu bilan birga, madaniyatning nisbiy mustaqilligi o'ziga xos xususiyatlarni keltirib chiqaradi. Ammo bu xususiyatlar madaniy taraqqiyot qonuniyatlari bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Shunga ko'ra, axloqiy madaniyat mohiyati va rivojlanishi muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadi.

Madaniyat – ijtimoiy ishlab chiqarishning oqibati sifatida shakllanadi. Ijtimoiy shilab chiqarish esa siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Madaniyat – insoniyat tarixi davomida yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar yig'indisi, lekin ular taraqqiyotning muayyan bosqichi talablari doirasida shu davr ijtimoiy manfaati va ehtiyoji nuqtayi-nazaridan qayta ishlangan ijodiy faoliyati hisoblanadi. Ayrim olimlarimizning fikricha, madaniyat insonning shaxs sifatidagi shakllanishiga yordam beradigan qadriyatlar yig'indisidir.

"Madaniyat"ni tushunish unga tarixiy yondashish bilan bog'liq bo'lib, bu narsa tabiatda inson bilan jamiyatning o'ziga xosligini belgilab beradi. Keng ma'noda, madaniyat deganda inson tomonidan asrlar davomida yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar yig'indisi tushuniladi.

Dastlab "madaniyat" tushunchasi, asosan, insonning tabiatga bo'lgan ta'sirini aniqlash uchun, tabiat kuchlarini o'zlashtirishini ifodalaydigan yutuqlarini tasvirlash uchun qo'llanilgan.

Ma'lumki, madaniyat – ijtimoiy hodisa. Mana shundan kelib chiqqan "madaniyat" tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, sermazmun xarakterga ega. Ontologik nuqtayi nazaridan, madaniyat o'zining vujudga kelishi, rivojlanish va amal qilish qonuniyatlariga ega bo'lgan xalq ommasi faoliyatining natijasi, tarixiy taraqqiyotining mahsulidir.

Mantiqiy nuqtayi nazardan, madaniyat o'z qonunlari, tuzilishi va shu kabilarga ega bo'lgan kishilar amaliy faoliyati

natijasida obyektiv tarkib topgan tuzumini ifodalaydi. Gnoseologik nuqtayi nazardan falsafiy-ijtimoiy nazariya sifatida madaniyat murakkab ijtimoiy hodisa sifatida madaniy hodisalar qonuniyatlarini aks ettiradi. Bularning hammasini hisobga olgandagina madaniyatga beriladigan ta'rif to'la bo'lishi mumkin.

Madaniyat – bu "insonlashtirilgan tabiat" bo'lib, jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy hayoti sohasida yaratilgan kishilar faoliyatining mahsuli. Madaniyat – bu insoniyat tomonidan o'zlarining ehtiyojlari uchun ishlab chiqarilgan boyliklar yig'indisi bo'lib, u muayyan tizimni tashkil etadi.

Binobarin, u yoki bu ijtimoiy hodisaning paydo bo'lishini, u haqidagi tushunchaning yuzaga kelishi bilan bog'lab qo'yimaslik kerak. "Madaniyat" tushunchasi Yevropa ijtimoiy tafakkurida XVIII asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan, ammo madaniyat ijtimoiy hodisa sifatida insoniyat vujudga kelishi va mehnat qurollari yaratilishidan boshlangan.

Sharq ilmiy adabiyotlarida "madaniyat" atamasi arabcha "madina" so'zidan kelib chiqqanligi qayd qilinadi. Arabchada "madina" so'zi "shahar" ma'nosini ifoda etishi ko'plagan manbalarda keltirib o'tilgan. Ma'lumki, shaharlarning paydo bo'lishi o'sha shahar vujudga kelayotgan hududning rivojlanishining, yuqori darajada taraqqiy etishining natijasi hisoblanadi. U yerda hunarmandchilik, savdo-sotiq, ishlab chiqarish kabi taraqqiyotga xizmat qiluvchi unsurlar paydo bo'lgan. Shu qatorda, mazkur taraqqiy topgan makonda o'ziga xos muomala, kiyinish odatlari, xatti-harakat singari rivojlanish belgilari yuzaga kelgan. Bular esa, o'z navbatida, o'sha hududda yashaydigan kishilar ongining o'sishiga, boshqacha qilib aytganda, madaniyatning shakllanishiga olib kelgan. Natijada, shahar va qishloq o'rtasida tafovutlar tarkib topgan. Bu kabi hodisa va jarayonlar muxtasar qilib aytadigan bo'lsak, "madaniyat" tushunchasini keltirib chiqargan.

Madaniyatning tarkibiy qismlari haqida ham ilmiy adabiyotlarda turlicha fikrlar mavjud. Lekin ularning fikrlari bir nuqtada tutashadi. Madaniyat ikki qismga: ya'ni moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'linadi. Bu qismlarning har biri esa turli shakllarga ega. Masalan, ma'naviy madaniyat, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy madaniyatlarga bo'linadi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, jamiyatda yuksak madaniyat qaror topmas ekan, bunday jamiyatda axloqiylik ham bo'lmaydi. Ijtimoiy hayotda ma'naviy-axloqiy muhit ham yuzaga kelmaydi. Shu boisdan ham, madaniyat va axloqiylik bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Axloqiylikni kishilar turlicha tushunadilar. Uning haqiqiy mezonini axloqiy madaniyat belgilab beradi. Insonning axloqiylik uning madaniyatni qanday egallaganligi bilan bog'liqdir.

Axloqiy madaniyatda axloqiylikning nazariy jihatlari o'z aksini topadi, shu bilan bir qatorda, u anglangan axloqiy faoliyat bilan uzviy bog'lanib ketadi. Axloqiy madaniyat tarkib topgan axloqiy norma va qoidalarni davr nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chidib, aniq shart-sharoitlar asosida rivojlantirishni ifodalaydi. Shu jihatdan, axloqiy madaniyat axloqiy qadriyatdan farq qiladi. Ayni vaqtda u axloqiy qadriyatga suyanadi, chunki u axloqiy madaniyatga manba bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan tayanib xulosa qilishimiz mumkinki, axloqiy madaniyat mustaqil falsafiy tushuncha bo'lib, axloq, axloqiy ong kabi tushunchalar bilan uzviy bog'liq va bir butunlikni tashkil qiladi. Axloqiy nazariyani amaliyot bilan bog'laydi. Kishilar tomonidan axloqiy qarashlar, g'oyalar, ichki kechinma va hissiyotlarning qay darajada anglab yetilishini ifoda etadi.

ADABIYOTLAR

1. Musurmanova O. O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish. T.: "Fan", 1993, 26-bet.
2. Mahkamov U. O'quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. T.: "Fan"1995, 15-bet.
3. Abdulla Qahhor. Asarlar, 5-jild. T.: Adabiyot san'at nashriyoti, 1989, 22-bet
4. Мамагов Н., Носиров Ў., Абдуллаева Г. Фаннинг фалсафий масалалари. Ўқув қўлланма. Тошкент: ТМИ, 2006. 113 114 Б.
5. Шпенглер О. Закат Европы. Новосибирск: ВО "Наука", 1993. С.109.
6. Тойнби А. Постигение истории. Москва: Прогресс, 1990. С. 12 16.
7. Тайлор Э.Б. Первобитная культура. Москва: Политиздат, 1989
8. Ньёматова Ш. Математика фанини ўқитишнинг назарий масалалари ва методикаси. Тошкент: TAFFAKUR нашриёти, 2011. 26 б.
9. Белова Л. Шокирующий Египет. Москва: SellPub, 2020. С. 32 39.
10. Матанцев А. Древние пирамиды ключ к мироздания. Том 1. Москва: Литрес. 2021. С.8- 9.
11. Прокопенко И. Альтернативная история человечества. Москва: Эксмо, 2017.
12. Ietopis. Info. Развитие индийской математики.



UDK: 323.1:328.128 (575.1)

Sanjarbek ABDURAXMANOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: sanjarbekabduraxmanov91@gmail.com

Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Sh.Rahimov taqrizi asosida

CONCEPT ANALYSES OF LOCAL COUNCILS IN THE UZBEKISTAN

Annotation

This article examines in detail by conducting a comparative political and legal analysis, the unique aspects and important features of the concept of the local council and the author's definition of the concept of the local council were discussed.

Key words: Local councils, local representative body, representative power, local government, local self-government, administrative area, state function, state sovereignty, law making, law enforcement, local council chairman, constitution.

O‘ZBEKISTONDA MAHALLIY KENGASH TUSHUNCHASINING TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqolada mahalliy kengash tushunchasining qiyosiy-siyosiy hamda huquqiy tahlilini olib borish orqali mahalliy kengash tushunchasining o‘ziga xos jihatlari hamda muhim bo‘lgan xususiyatlari hamda mahalliy kengash tushunchasiga mualliflik ta‘rifi atroflicha muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Mahalliy kengashlar, mahalliy vakillik, vakillik hokimiyati, mahalliy boshqaruv, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish, ma‘muriy hudud, davlat funksiyasi, davlat suvereniteti, huquq ijodkorligi, huquqni qo‘llash, mahalliy kengash raisi, konstitutsiya.

КОНЦЕПЦИОННЫЙ АНАЛИЗ МЕСТНЫХ СОВЕТОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье рассматривается путем проведения сравнительного политико-правового анализа, уникальные аспекты и важные особенности понятия местного Кенгаша и авторское определение понятия местного Кенгаша.

Ключевые слова: Местные советы, местный представительный орган, представительная власть, местное самоуправление, местное самоуправление, административная сфера, государственная функция, государственный суверенитет, правотворчество, правоприменение, председатель местного совета, конституция.

Kirish. Bizga ma‘lumki, O‘zbekistonda mahalliy kengash tushunchasining qiyosiy-siyosiy hamda huquqiy tahlilini olib borish hamda mahalliy kengashning asosiy jihatlari aks ettirgan holda uning aniq, konkret tushunchasini shakllantirish mahalliy kengashlar faoliyati samaradorligini oshirishga ma‘lum bir ma‘noda xizmat qiladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2023 yil 11 avgustda Buxoroda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda bildirgan quyidagi haqli e‘tirozlarini, ya‘ni: “Agar xulosa qilmasanglar, buni zamon ko‘tarmaydi. Faqat va faqat kengash, kengash, kengash. Qonunlar nuqtai nazaridan, talab nuqtai nazaridan, „Yangi O‘zbekiston“ shiori nuqtai nazaridan joylarda kim ishlamayotgan bo‘lsa, ketishi kerak, menga taklif beringlar. Kengash ovozi baralla xalq ovozi bo‘lishi kerak, xalqning dardi bilan yashashi kerak. Kengash qaror qildimi, qonun bo‘lishi kerak. Nimaga desangiz, jamiyatimizda sifat nuqtai nazaridan odamlarning talabi o‘ziga bormoqda [1]”, – keltirilgan mahalliy kengash tushunchasining tahlili naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Biz ushbu maqolamizda mahalliy kengash tushunchasining qiyosiy-siyosiy hamda huquqiy tahlilini olib borish orqali mahalliy kengash tushunchasining o‘ziga xos jihatlari hamda muhim bo‘lgan xususiyatlarini ochib berish hamda mahalliy kengash tushunchasiga mualliflik ta‘rifini berishga harakat qilamiz.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. O‘zbekistonda mahalliy kengashlar tushunchasining tahlili tegishincha S.Adilxodjayeva, G.Ismailova, A.Yo‘ldoshev, O.Xusanov, Y.Ollamov, I. Axmedov hamda A.Mahmudovlar tomonidan, MDH davlatlari miqyosida A.B.Barixin, I.A.Ivannikov, V.Achkasov, B.V.Grizlov, M.Maslovskaya hamda R.Yakinlar tomonidan, xorijiy mamlakatlarda esa Jesse Ribbot, Keys

Miller Allin Lokner (AQSH), A.Chandler, J.Kingdom, Stiv Parkinson, Rod Latham, Rojer Kemp (Buyuk Britaniya), Karlos Silva Jan Buchek (Shveysariya), Maleka Banu, Siddik Kamal (Bangladesh), Orapin Sopchokchai (Tailand) tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Xususan, A.B.Barixin fikriga ko‘ra, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishning vakillik organi – mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishning aholi manfaatlarini namoyon etish hamda uning nomidan mahalliy hududda amal qiladigan qarorlar qabul qilish huquqiga ega ekanligiga urg‘uni qaratadi. Huquqshunos olim A.Mahmudovning fikricha, deputatlarni xalqning ishonchli vakili sifatida, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini esa, eng avvalo, xalq nomidan uning manfaatlarini ko‘zlab faoliyat yurituvchi organ sifatida e‘tirof etish mumkin. O‘z navbatida, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari, deputatlar esa, o‘z faoliyatini amalga oshirishda asosiy e‘tiborni ushbu ishonchni oqlashga qaratishlari lozim [3]. Yuqoridagi ta‘rifdan ko‘rinib turibdiki, A.Mahmudov mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari tushunchasiga ta‘rif berishda uning xalq manfaatlarini ko‘zlab faoliyat yurituvchi organ ekanligiga e‘tibor qaratadi. Tahlilimizdan anglashilmoqdaki, barcha siyosatshunos hamda huquqshunos olimlar mahalliy kengash tushunchasiga ta‘rif berishda uning qaysidir bir funksiyasi, xususiyati yoki jihatini asos sifatida olib ta‘rif berishga harakat qiladi.

Muhokama va natijalar. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 120-moddasiga binoan, viloyatlar,

tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyati vakillik organlaridir[4]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati organlari to'g'risida"gi 913-XII-son Qonunining 1-moddasiga ko'ra, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyatining vakillik organlari hisoblanishi belgilangan[5].

O'zbekistonda mahalliy kengash tushunchasining o'ziga xos jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Birinchi, mahalliy kengashlar mahalliy vakillik hokimiyatini amalga oshiradigan mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi ekanligi. Xususan, shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, vakillik hokimiyati – xalq yoki uning bir qismi o'zi saylagan vakillarining maxsus kollegial muassasasi (parlament, munitsipal kengash)dagi birlashmasiga aniq belgilangan muddatga bergan vakolatlar majmui, shuningdek, hokimiyat vakillik organlari majmui. "Vakillik hokimiyati" tushunchasi hokimiyat funksiyasidan ham ko'ra ko'proq uning tabiatini, uni amalga oshirish usulini tavsiflaydi. Vakillik hokimiyati qonun chiqaruvchi hokimiyat bilan bir emas, chunki har qanday vakillik hokimiyati ham qonunchilik vakolatiga ega bo'lmaydi (masalan, vakillik hokimiyatini amalga oshiruvchi munitsipal kengashlar qonun chiqarish huquqiga ega emas) va aksincha, har qanday qonun chiqaruvchi hokimiyat vakillik hokimiyati tomonidan amalga oshirilavermaydi (bunga mutlaq monarxning qonun chiqaruvchi hokimiyati misol bo'la oladi) [6]. Haqiqatan ham, O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 2 sentabrdagi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi 913-XII-son Qonun 1-moddasi birinchi qismiga ko'ra, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyatining vakillik organlari hisoblanadi. Shu o'rinda "mahalliy o'zini o'zi boshqarish" va mahalliy boshqaruv" tushunchalarini farqlab olishimiz muhim ahamiyatga ega. Xususan, mahalliy boshqaruv asosan, mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni boshqarish bo'lib, u markaziy yoki boshqa yuqori turgan davlat organlari tomonidan tayinlanadigan va ularga hisobdor bo'lgan organlar va mansabdor shaxslar (masalan, Fransiyada Respublika komissarlari) yoki bevosita aholi tomonidan saylanadigan ijro etuvchi organlar (merlar, ijro etuvchi qo'mitalar, oqsoqollar) tomonidan amalga oshiriladi. Agar merni munitsipal kengash (fuqarolar emas) saylasa va bevosita uning nazorati ostida bo'lsa, u mahalliy boshqaruvning emas, balki mahalliy o'zini o'zi boshqarishning qismiga aylanadi [6]. Demak, yuqoridagi ta'rifdan anglashilib turibdiki, "mahalliy o'zini o'zi boshqarish" tushunchasi "mahalliy boshqaruv"ning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ba'zi tadqiqotchilar esa, mahalliy o'zini o'zi boshqarish va mahalliy boshqarish tizimi o'rtasida ba'zi qarama-qarshiliklar mavjud deb hisoblaydilar. Mahalliy boshqarish deganda, mahalliy hududiy birlikdagi markaziy hokimiyat yoki yuqori hududiy darajadagi ma'muriyat tomonidan amalga oshiriladigan boshqaruv faoliyati tushuniladi. Odatda, mahalliy boshqarish yuqori hokimiyat tomonidan tayinlanadigan ma'muriy organlar tomonidan amalga oshiriladi [7]. Bizning fikrimizcha, "mahalliy o'zini o'zi boshqarish" tushunchasi "mahalliy boshqaruv"ning tarkibiy qismi hisoblanmaydi. Chunki, ushbu tushunchalarni institutsional jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari saylov asosida shakllantirilsa, mahalliy boshqaruv organlari esa markaziy organlar yoki yuqori davlat boshqaruv organlari yoxud mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining o'zi tomonidan shakllantiriladi. Demak, mahalliy o'zi o'zi boshqarish – mahalliy kengashlarga tegishli bo'lsa, mahalliy boshqaruv esa bevosita mahalliy ijro hokimiyati organlariga tegishli bo'ladi. Shuningdek ushbu nuqtayi nazarimizni

A.B.Barixinning ushbu fikri ham asoslaydi. Xususan, uning fikriga ko'ra, mahalliy o'zini o'zi boshqarishning vakillik organi – mahalliy o'zini o'zi boshqarishning aholi manfaatlarini namoyon etish hamda uning nomidan mahalliy hududda amal qiladigan qarorlar qabul qilish huquqiga ega, saylov yo'li bilan shakllanadigan organdir [2]."

Ikkinchidan, mahalliy kengashlar ma'lum bir ma'muriy hududni qamrab olishi lozimligi. Xususan, mahalliy hokimiyat butun mamlakat bo'ylab emas, balki tegishli hududga oid muammolar bilan bog'liq vakolatlarni amalga oshiradi va ushbu hududning vakili sifatida markaziy hokimiyatga fikr va talablarni bayon qiladi [7]. O'zbekiston Respublikasida ham mahalliy kengashlar faqatgina viloyatlar, tumanlar hamda shaharlarda tashkil etiladi. Ushbu huquqiy norma O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 2-sentabrdagi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi 913-XII-son Qonun 1-moddasi birinchi qismida belgilab qo'yilgan. Shuningdek, "Mahalliy kengashlar faoliyati, – deb ta'kidlaydi professor Sh.I.Jalilov, – bevosita davlatning funksiyalarini joylarda amalga oshirish bilan bog'liqdir. Mahalliy kengashlar funksiyalari davlat funksiyalari asosida kelib chiqib, ularni yanada aniqlashtiradi [8]". Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, yuqoridagi fikrga to'liq qo'shilgan holda, mahalliy kengashlar davlat ichki funksiyalarining joylarda, hududlarda amalga oshirishi bilan bevosita bog'liq faoliyat yo'nalishi hisoblanadi.

Uchinchi, mahalliy kengashlar to'liq o'zini o'zi boshqarish organi hisoblanmasligi. Xususan, mahalliy kengashlar ham davlatning suvereniteti ostida mavjud bo'ladi, hudud bo'yicha o'zini o'zi boshqarish vakolati davlat suverenitetiga oid chegaradan tashqariga chiqa olmaydi [8]. Haqiqatan ham, O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 2 sentabrdagi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi 913-XII-son Qonun 1-moddasi uchinchi qismida mahalliy kengashlar viloyat, tuman va shahar uchun umumiy bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalari amalga oshirilishini, joylarda qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan hujjatlar, yuqori turuvchi xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar qarorlarining ijrosini ta'minlashi belgilangan.

To'rtinchidan, mahalliy vakillik hokimiyatini amalga oshiradigan mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari mahalliy kengashlar deb nomlanishi. Xususan, dunyoning turli mamlakatlarida mavjud bo'lgan mahalliy vakillik hokimiyatini amalga oshiradigan mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari nomlari bir-biridan anchagina farqlanadi. Ya'ni, ayrim mamlakatlarda "mahalliy o'zini o'zi boshqarish" (local self-governance) degan atamaning o'rniga "mahalliy ma'muriyat" atamasi qo'llaniladi. "Munitsipal" iborasi "mahalliy" iborasi deyarli bir xil ma'noni anglatadi. Bu ibora lotincha "munis" (ma'suliyat), capio recipio (bo'ynimga olaman) so'zidan olingan bo'lib, o'zini o'zi boshqarish huquqiga ega bo'lgan aholi tomonidan mansabdor shaxslarni saylash) shahar nomini bildirgan [8]. Bundan tashqari, munitsipal kengash degan tushuncha ham mavjud. Xususan, munitsipal kengash – ayrim mamlakatlar (Fransiya, Meksika, Ruminiya)da mahalliy o'zini o'zi boshqarishning kollegial saylanadigan organining nomi. Munitsipal kengash kommunani boshqarish yuzasidan qarorlar qabul qiladi. Xususan, ma'muriy va sotsial xizmat ko'rsatish bo'yicha zarur muassasalarni (sog'liqni saqlash, ta'lim, fuqarolik holatlarini ro'yxatga olish, qurilish, yo'llarni saqlash va h.k.) tuzadi [7]. Ya'ni, mahalliy vakillik hokimiyatini amalga oshiradigan mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari deyarli barcha davlatlarda munitsipal kengash deb nomlanadi. Biroq, e'tibor beradigan bo'lsak, Qozog'istonda yakka-boshchilik asosida faoliyat yuritadigan akimlik, Armanistonda kaxkapet, Ukrainada shahar golovasi institutlari joriy etildi.

Mustaqillikka erishgan sobiq sovet respublikalarining har birida mahalliy davlat hokimiyati organlarining rahbarlari turli nom bilan atalishi, albatta, mahalliy an'analar bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar doirasidan kelib chiqqan [10]. Bizning fikrimizcha, mustaqillikka erishgan sobiq sovet Respublikalarining har biridagi mahalliy vakillik hokimiyatini amalga oshiradigan mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining turlicha nomlanishi, yuqorida holatdek, mahalliy an'analar bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar doirasidan kelib chiqqan. Masalan, mahalliy kengashlar: Qozog'istonda – maslahat, Qirg'izistonda – kengash, Tojikistonda – majlis, Turkmanistonda – xalq maslahati deb nomlanadi. Shu jihatdan olib qaraganda, O'zbekistonda mahalliy vakillik hokimiyatini amalga oshiradigan mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining mahalliy kengashlar deb nomlanishi 1991 yil 31 avgustda mustaqillikka erishgan paytdan boshlab 1994 yil 25 dekabrgacha O'zbekiston Respublikasining oliy qonun chiqaruvchi va davlat hokimiyatining vakillik organi hisoblangan – O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi nomi bilan bevosita bog'liq. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasining oliy vakillik organi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deb nomlangan holda, mahalliy vakillik organlari O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 2 sentabrdagi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuniga asosan mahalliy kengashlar nomini olgan. Lekin, O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 22 sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to'g'risida"gi 2011-XII-son Qonuni 1-moddasiga asosan, respublikada qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi oliy davlat vakillik organi hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi nomi O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi nomiga o'zgartirildi. Biroq, mahalliy vakillik organlari hozirgi kunga qadar o'zgarimasdan mahalliy kengashlar deb nomlab kelinmoqda.

Beshinchidan, mahalliy kengashlar mahalliy ijro hokimiyati organlaridan to'la mustaqilligi hamda mahalliy kengashlarga rais boshchilik qilishi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 120-moddasi ikkinchi, uchinchi hamda to'rtinchi qismlarida xalq deputatlari Kengashiga uning deputatlari orasidan qonunga muvofiq saylanadigan rais boshchilik qilishi, viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o'zida xalq deputatlari Kengashining raisi lavozimini egallashi mumkin emasligi, xalq deputatlari Kengashlarining vakolatlari muddati — besh yil ekanligi, ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq ayni bir viloyat, tuman, shahar xalq deputatlari Kengashining raisi etib saylanishi mumkin emasligi belgilangan. O.T.Xusanovning fikricha, "ijro faqat ijro hokimiyati organlari tomonidan amalga oshirilishi kerak. Vakillik organlari ijro etishda bevosita ishtirok etmasligi, o'zlarining aktlari orqali ijroni ta'minlashga yordam berishi kerak [11]."

Oltinchidan, mahalliy kengashlarning vakolatlari konstitutsiya darajasida belgilab qo'yilganligi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi

122-moddasiga asosan, Xalq deputatlari Kengashlarining vakolatlari quyidagilardan iborat: 1) tegishli mahalliy budjetlarni ko'rib chiqish va qabul qilish, ularning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish; 2) hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarini tasdiqlash; 3) hokimni lavozimga tasdiqlash, uning faoliyati to'g'risidagi hisobotlarni eshitish; 4) ushbu Konstitutsiya va qonunlarda nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish. Ya'ni, ushbu huquqiy normadan anglashimiz mumkinki, mahalliy kengashlarning vakolatlari qonun osti hujjatlarda emas, balki to'g'ridan to'g'ri Konstitutsiya va qonunda nazarda tutilishi lozim.

Demak, yuqorida biz ta'kidlab o'tgan mahalliy kengashlarning o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqqan holda, mahalliy kengash tushunchasiga quyidagi ta'rifni berish maqsadga muvofiq hisoblanadi: "Mahalliy kengash – mahalliy vakillik hokimiyatini amalga oshiradigan, ma'lum bir ma'muriy hududni qamrab oladigan, davlat suverenitetiga oid chegaradan chiqmagan holda huquq ijodkorligi hamda huquqni ijro etish, qo'llash funksiyasini amalga oshiradigan, rais boshchilik qiladigan konstitutsiyaviy maqomga ega bo'lgan mahalliy o'zini o'zi boshqarish organidir".

Xulosa. Yuqorida qiyosiy-siyosiy hamda huquqiy tahlili tahlildan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, mahalliy kengash tushunchasining quyidagi o'ziga xos xususiyatlari mavjud:

mahalliy kengashlar mahalliy vakillik hokimiyatini amalga oshiradigan mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi ekanligi;

mahalliy kengashlar ma'lum bir ma'muriy hududni qamrab olishi lozimligi;

mahalliy kengashlar to'liq o'zini o'zi boshqarish organi hisoblanmasligi;

mahalliy kengashlar davlat funksiyalarini amalga oshirishning huquqiy shakllari bo'yicha davlat suverenitetiga oid chegaradan chiqmagan holda huquq ijodkorligi hamda huquqni ijro etish, qo'llash funksiyasini amalga oshirishi;

mahalliy vakillik hokimiyatini amalga oshiradigan mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari mahalliy kengashlar deb nomlanishi;

mahalliy kengashlar mahalliy ijro hokimiyati organlaridan to'la mustaqilligi hamda mahalliy kengashlarga rais boshchilik qilishi;

mahalliy kengashlarning vakolatlari konstitutsiya darajasida belgilab qo'yilganligi.

Demak, yuqorida biz ta'kidlab o'tgan mahalliy kengashlarning o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqqan holda, mahalliy kengash tushunchasiga quyidagi ta'rifni berish maqsadga muvofiq hisoblanadi: "Mahalliy kengash – mahalliy vakillik hokimiyatini amalga oshiradigan, ma'lum bir ma'muriy hududni qamrab oladigan, davlat suverenitetiga oid chegaradan chiqmagan holda huquq ijodkorligi hamda huquqni ijro etish, qo'llash funksiyasini amalga oshiradigan, rais boshchilik qiladigan konstitutsiyaviy maqomga ega bo'lgan mahalliy o'zini o'zi boshqarish organidir".

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 14-avgustdagi Buxoro viloyati xalq deputatlari kengashidagi nutqi, <https://www.gazeta.uz/oz/2023/08/14/kengash/>.
2. Барихин.А.В. Большая юридическая энциклопедия. (Серия «Профессиональный справочники и энциклопедии») – М.: Книжный мир.2010. –С.654.
3. Mahmudov A. O'zbekiston Respublikasida mahalliy vakillik organlarining nazorat faoliyatini takomillashtirish. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. –T.: 2019.– B.16.
4. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, <https://lex.uz/docs/-6445145>.
5. O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati organlari to'g'risida"gi 1993-yil 2-sentabrdagi 913-XII-son Qonun, <https://lex.uz/ru/docs/-112170>.
6. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi / Nashr uchun mas'ul R. A. Muhitdinov va boshq.: mas'ul moharrir N.Toychiyev. – T.: Adolat, 2009, 77-bet.

7. Davlat boshqaruvi. Darslik. // Mas'ul muharrirlar: Adham Bekmurodov, Djexo Li. Chjonxun Che. – Toshkent: “Akademiya”, 2021, 189-bet.
8. Джалилов Ш.И. Реформа местных органов государственной власти Республике Узбекистан. Диссертация на соискание учёной степени доктора юридических наук. – Т.: 1994. – С.54.
9. Saydullayev Sh. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent, TDYU, 2018, 54-bet.
10. Ismailova G.S. O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati va o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini liberallashtirishning davlat-huquqiy yo'nalishlari. Yuridik fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. –T.: 2016. – B.45.
11. Xusanov.O.T. Mustaqillik va mahalliy hokimiyat. – T.: Sharq, 1996, B.139.



Sherjaxon ABDUFATAYEV,
Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: Sherjahonjon07@gmail.com

GulDPI p.f.b.f.d. (PhD) M.Niyozov taqrizi asosida

INTERDISCIPLINARY INTEGRATION IS THE MAIN FACTOR OF THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation

Training of competitive specialists who are deeply aware of their civic duties and responsibilities before the family, state and society, who are deep-thinking, social activity, high professional skills, creative activity and positive qualities is a requirement of the present time and perspective. Based on this point of view, this article describes the ways and results of developing and ensuring the knowledge, skills and qualifications of students in general education schools.

Key words: Socio-economic, ideological-political, educational-educational, integration, differentiation, subjects of a special category, perception, activity, knowledge, skill, competence, inversion of knowledge, propaedeutic, general technical, planning, fundamental sciences, general methodological.

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНАЯ ИНТЕГРАЦИЯ – ГЛАВНЫЙ ФАКТОР ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

Аннотация

Подготовка конкурентоспособных специалистов, глубоко осознающих свой гражданский долг и ответственность перед семьей, государством и обществом, обладающих глубоким мышлением, общественной активностью, высоким профессиональным мастерством, творческой активностью и положительными качествами, является требованием современности и перспектива. Исходя из этой точки зрения, в данной статье описаны пути и результаты развития и обеспечения знаний, умений и квалификации учащихся общеобразовательных школ.

Ключевые слова: Социально-экономический, идейно-политический, учебно-воспитательный, интеграция, дифференциация, субъекты специальной категории, восприятие, деятельность, знания, умения, компетенции, инверсия знаний, пропедевтические, общетехнические, плановые, фундаментальные науки, общие методологический.

FANLARARO INTEGRATSIYA –TA'LIM-TARBIYA JARAYONINING ASOSIY OMILI

Annotatsiya

Oila, davlat va jamiyat oldida o'zining fuqorolik burchi, mas'uliyatini chuqur anglaydigan, teran fikirli, ijtimoiy faolligi, yuksak kasbiy mahorati, ijodiy faoliyati hamda ijobiy fazilatlari bilan qurbi yetadigan raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash hozirgi zamon va istiqbol talabidir. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda ushbu maqolada umumta'lim maktablarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, taminlash yo'llari va natijalari yoritilgan

Kalit so'zlar: Ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy –siyosiy, ta'lim –tarbiyaviy, integratsiya, differentsiatsiya, maxsus turkumdagi fanlar, idrok, faollik, bilim, ko'nikma, malaka, bilimlarning inversiyasi, propedevtik, umumtexnik, reja tuzish, fundamental fanlar, umumetadologik.

Kirish. Jamiyatning hozirgi zamon rivojlanish darajasi ijtimoiy hayotning barcha sohalrida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarda o'z aksini topmoqda. Bunday o'zgarishlar shaksiz, barkamol shaxsni tarkib toptirish bilan chambarchas bog'liq. Chunki ma'lum ma'noda inson o'z kelajagini yaratuvchisi hisoblanadi. Shunday ekan, bugungi kunda insoniyat jamiyati, shuningdek davlatomiz oldida turgan ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy –siyosiy, ta'lim –tarbiyaviy muammolarning yechimini topish umumtalim fanlarini o'zaro integrativ yondashuv orqali yechim topishni taqozo qilmoqda.

Ilmiylik nuqtai nazaridan olib qaraganda integratsiyaning asosini olamning yaxlitligi va uni tashkil etuvchi qism (element)larini o'zaro aloqadorligi, munosabatlaritashkil etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Taniqli rus psixologik olimi G.S.Kostyukning fikricha: “Tabaqalashtrish diferentsiatsiya – ruhiy jarayonlar va holat (xususiyatlarini) ko'payishiga olib kelsa, integratsiya – tartibga keltirish, subordinatsiya va uning natijalarini ma'lum ketma –ketlikda joylashtirishga olib keladi. Integratsiyalashtirish yo'li bilan yangi psixologik jarayon, yangi faoliyat tuzilmasi hosil bo'ladi. Bu yangi tuzilma ilgari alohida –alohida bo'lgan elementlardan sintezlash yo'li bilan hosil qilinadi [2].

“Integratsiya” so'zi lotincha “integratio” so'zidan (“integr” - to'liq, butun, yaxlit) olingan bo'lib, “qayta qurish, tiklash, to'ldirish”, “integratsiya”-“o'zaro bog'langan holda rivojlantirish”, “integratsiyalash”- “bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit holga keltirmoq” degan ma'nolarni anglatadi.

“Integratsiya” tushunchasiga qator ta'riflar mavjud. Xususan, N.Poddyakova integratsiyani “bir nechta o'quv predmeti materiallarini metodikaning vazifasi va yagona maqsadiga tabiiy bo'ysundirish asosida tuzish usuli”,- deya tavsiflaydi.

“Integratsiya” termini mazmun va mohiyat jihatdan uzoq tarixga ega. Koinotda, jamiyat hayotida, turmushda va ishlab chiqarishda, ta'limda, ya'ni mikro olamdan tortib, to makro olamgacha integratsiya katta ahamiyat kasb qiladi. Integratsiya - juda keng ma'noli tushuncha. Ayniqsa, yosh avlodning ilmiy dunyoqarashi, axborot madaniyatini rivojlantirishda ta'limda integratsiya jarayonining zarurligi dunyo olimlari tomonidan alohida qayd qilinmoqda.

O'quv fanlariaro aloqadorlikning turli jihatlari o'rganildi: chunonchi, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish samaradorligini oshirish didaktik vosita; o'quvchilarning o'quv faoliyatida idrok etish faolliklarini

rivojlanirish, ularning idrok etish qobiliyatlarini rivojlanirish sharti sifatida; o'qitishda o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlashda ilmiylik tamoyiliga amal qilish hamda o'qitish jarayonida fanlararo o'zaro aloqadorligini birgina o'quv fani doirasida ta'minlash mumkin emasligi asoslab berilgan.

Integrativ yondashuv - turli fanlardan olingan bilimlar, ko'nikma, malaka va tajribalarni hisobga olish, tayanish, birlashtirish va kompetentsiyalarni baravar rivojlanishini nazarda tutadi.

Psixologik turkum fanlarida barcha insonlarga xos bo'lgan fikrlash operatsiyalari bilish faoliyatining yaxlit qismi sifatida fikrlash strategiyalarining ko'p miqdordagi qismini tashkil qiladi hamda sintez orqali turli darajadagi va tavsifdagi tizimlarni birlashtiradi. Integratsiya bilish mexanizmi asosida yotadigan qismlarni yaxlit sintezlash nuqtai nazaridan bilish strategiyalari kabi farqlanadi va natijada ko'zlangan maqsadga erishiladi.

Tahlil va natijalar. O'quv fanlarini integratsiyalashning didaktik mohiyati turli o'quv fanlari bo'yicha yangi bilimlarni shakllantirishning kontseptual tuzilma va metodlarini aniqlash imkonini beruvchi pedagogik tadbirlar tartibi hamda qonuniyatlarini ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi. Tor ma'noda qaralganda, o'quv fanlari integ-ratsiyasi fan sohalari va ilmiy bilimlar o'zaro sintezining uzviy davomi hisoblanadi.

O'quv fanlari integratsiyasining asosiy maqsadi sub'ektiv yangi bilimlarni sintez qilishdan iborat bo'lib, integratsiya jarayonlarining bosh vazifasi – subyektiv yangi ilmiy bilimlarni sintez qilishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

O'quv fanlarini integratsiyalashgan holda o'rganishda sub'ektiv yangi bilimlar sintezi qanday kechadi? – degan savol yuzaga kelishi mumkin. Didaktikada turli fanlarga taaluqli o'quv materiallarini bitta kursga birlashtirish kabi integratsiyaning turli shakllari taklif qilinadi. Biroq, pedagogik tajribalar bu kabi shakllarning yetarli samara bermasligini ko'rsatmoqda. Biz, fanlari nisbatan mustaqil bo'lishi kerak, chunki ularning har biri o'z tili, tushunchalar apparati, metodologiyasi, metodikasi, tadqiqot predmeti va kontseptsiyasiga ega alohida fan sohasini ifoda etadi.

Shu bilan birga, ularni o'zaro bog'liqlikda o'rganish bilan bog'liq imkoniyatlar ro'yobga chiqarilishi lozim. Bunday imkoniyat jumladan fanlararo yondashuv asosida ta'minlanadi. Uni o'quv fanlarini integratsiyalash shakli sifatida ham, sub'ektiv yangi bilimlarni sintez qilish metodi sifatida ham qarash mumkin. Biz o'quv fanlarini integ-ratsiyalash natijasi fanlar o'zaro bog'lanmagan holda o'rgatilganda shakllantirish mumkin bo'lmagan sub'ektiv yangi bilimlarning o'zlashtirilishi, - degan kontseptual g'oyaga tayanamiz.

Ilmda yangi bilimlarning fanlararo sintez jarayoni juda sekin kechib, ba'zida u bir qancha o'n yilliklarga teng davrni qamrab oladi. O'quv jarayonida o'qituvchi bir yoki bir necha mashg'ulot, yoki hatto bir necha daqiqa ichida talabani ilgari turli fanlariga oid o'zlashtirilgan bilimlarga tayanuvchi sub'ektiv yangi bilimga "olib kelishi" kerak bo'ladi. Ya'ni, bilimlarni tayyor holatida berish emas, balki ularning sintezi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Bu vazifani amalga oshirishning texnologik usullaridan biri bir sohaga oid bilimlarni boshqasiga olib o'tish bilan bog'liq bo'lib, u fanlararo aloqalarni o'rnatishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, bilimlarning har qanday olib o'tilish holati subyektiv yangi bilimlar sinteziga olib kelmaydi. Buning uchun ushbu bilim inversiyaga uchrashi lozim.

Xulosa va takliflar. Bilimlarning inversiyasi quyidagi jarayonlarni qamrab oladi: o'quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtirish maqsadida bilimlarni shakllangan fandan boshqasiga o'tkazilgandagi tavsifining o'zgarishi; ilmiy

bilimlar mohiyat jihatidan o'zaro bog'liqligini o'quv vazifalariga aylantirish; o'quvchida ijodkorlik qobiliyatlari ham kasbiy yo'nalganligining tarkib topishini ta'minlovchi fanlararo bilim va ko'nikmalarni egallash darajalarini belgilab olish.

Inversiyaning mohiyatini quyidagi misolda izohlash mumkin. I.Nyuton tomonidan kashf etilgan mexanika qonunlariga oid bilimlar inversiya natijasida hali maktab fizika kursidayoq texnika va texnologiya obyektlariga tatbiq etilib, politexnik ko'rinishda taqdim etiladi. Ushbu bilim boshqa obyektlarga o'tkazilganida o'zga yo'nalish kasb etib, boshqa kasbiy vazifalar yechimiga xizmat qiladi. Misol uchun, texnologiya fanini o'qitish metodikasiga o'tkazilgan texnologiya faniga oid bilimlar inversiyaga uchrab, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashdagi kasbiy bilimlarga aylanadi. Fan yo'nalishlariga oid bilimlar bo'lajak mutaxassisning maxsus fanlarni o'rganishi hamda ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida kasbiy bilimga aylanadi. Bu kabi o'zgarishlar amalga oshirilmasa, umumta'lim hamda maxsus fanlarga oid bilimlar kasbiy faoliyatga tatbiq etilmasa ular kasbiy bilim emas, balki propedevtik ahamiyat kasb etuvchi ma'lumot sifatidagina ahamiyatga ega bo'ladi.

Pedagogikaga oid ilmiy izlanishlarda o'quv fanlarini o'qitishdagi tarqoqlikni bartaraf qilishga qaratilgan shakl, metod hamda vositalari tizimini, ularning asosi bo'lgan o'qitish va tarbiyalash jarayoni metodologiyasini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bularni o'quvchilar hayotiga qanday tatbiq qilib bo'ladi?

O'qish – aqliy mehnat turlaridan biri. Mamlakatimizda millionlab o'quvchilar maktablarda o'qishadi. O'qish – bu o'ziga xos xususiyatga ega mehnatdir. Shu narsa aniqki, bu mehnat ham ayni bir natijaga erishish uchun ko'p yoki oz kuch sarflanishiga qarab u yoki bu darajada samarali bo'lishi mumkin.

O'quvchilarni har bir ishga kirishishdan oldin xoh yozma, xoh og'zaki reja tuzib olishga o'rgatish kerak. Ijtimoiy ishlab chiqarishda ham, shaxsiy ishda ham tartibli, tejamlilik rejaning mavjudligi va mukammalligiga bog'liqdir:

Reja – ishdagi muvaffaqiyatning asosidir.

Reja – harakat uchun dastur.

Rejaning tarkibiy qismlari:

Ish maqsadini aniqlash.

Ish uchun nimalar kerak?

Ish tartibi, ish jarayoni, vaqti, joyi.

Nihoyat, ishning o'zini: uning nimadan boshlanishi, qanday borishi, nimadan keyin nima kelishini aniq tasavvur qilish kerak.

Ishni bajarish uchun eng avvalo tegishli ish o'rni kerak. Maktabdagi ko'pchilik darslar uchun parta yoki stol singari ish o'rni to'liq kifoya qiladi.

Endi ish o'rniga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Ish o'rnida hech qanday ortiqcha narsa bo'lmadligi kerak. Aks holda kerakli narsani topish uchun ko'p vaqt sarflanadi.

Ish o'rnida tozalikni ta'minlash kerak. Ish o'rni qanchalik toza bo'lsa, ishlash shunchalik oson, zavqli bo'ladi.

Ish o'rnida bajariladigan ishga muvofiq tartib ta'minlanishi lozim. Bizga kerak bo'ladigan hamma narsani bir tomonda (yaxshisi chapda), bajarilgan va foydalanilgan narsalarni o'ng tomonda saqlash kerak. Ko'p ishlatiladigan narsalar yaqinroq turishi kerak.

Stolda tartib saqlanishi uchun ruchka, qalam, knopka, qisqich, o'chirg'ich va maxsus qalamdondan foydalanish o'rinli. Shuni unutmaslik kerakki, sinf xonasidagi tartib, ozodalik har bir ish o'rnidagi tartib va ozodalikka bog'liq.

Bu xildagi ish jarayoni o'quvchilarni tartiblilikka, ozodalikka, o'z-o'zini nazorat qilishga, qiziqib mehnat qilishga o'rgatadi.

Sinf rahbari turli rejalar tuzib olishi mumkin: kelajakka mo'ljallangan, ya'ni istiqbolli (yillik, bir necha yillik) va muvaqqat (oylik, haftalik, kunlik).

Xo'sh rejaning asosiy manbai nimalardan iborat bo'lishi kerak?

Bosh manba – hukumatimizning farmon va qarorlari, hamda xalq ta'limi tizimining rasmiy yo'l -yo'riqlari, hujjatlari hisoblanadi.

Rejaning yana bir muhim manbai – o'tgan o'quv yilidagi tarbiyaviy tadbirlarning yutuq va kamchiliklari tahlilidir.

Reja quyidagi bir qator talablarga javob berishi kerak:

1. Rejaga Istiqbol g'oyalari singdirish.

2. Rejaning shakl va yo'nalishlari rang-barang hamda istiqbolli bo'lishi.

Reja uzluksiz va izchil bo'lishi.

Rejaning aniqligi.

Barcha tarbiyaviy vazifalar maktab oldiga qo'yilgan asosiy maqsadni – o'quvchilarni har tomonlama, «Sog'lom avlod uchun» dasturi asosida ma'naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalash, ularni hayotga, mustaqil davlat qurilishiga faol qatnashishga tayyorlash maqsadini amalga oshirishga qaratilmo'g'i dardkor.

Rejaga bajarib bo'lmaydigan ishlarni kiritmaslik kerak. Ishni rejalashtirishda mahalliy sharoitlardan kelib chiqish lozim. Rejada hamma narsa: ish vaqti, joyi, mas'ullar aniq bo'lsin.

Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasini – bu majburiy pedagogik hujjatdir. Uni amalga oshirish uchun sinf rahbari shaxsan mas'uldir. «Sinf rahbari haqida Nizom»da: «Sinf rahbarining ishi reja asosida olib borilishi lozim» deb belgilab qo'yilgan.

Ishning istiqbolli rejasini sinf jamoasi tomonidan to'plangan tajribaga qarab va sinf rahbarining o'z vazifalariga muvofiq ravishda bir yoki bir necha yilga tuzilishi mumkin. Nizomda «Sinfning yillik ish rejasini tuziladi. Uni tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari tasdiqlaydi» deyilgan.

Rejaning ifodalash shakli juda oddiy bo'lgani ma'qul: ishning nomi, bajarish muddati, mas'ul kishi. Reja qisqa va aniq bo'lishi kerak. Bo'lar-bo'lmas ishlar ro'yxatini qalashtirib, qappaygan reja tuzishga berilib ketmaslik kerak. Rejaga faqat hayot ilgari surgan va o'quv yili davomida muvaffaqiyatli bajarilishi mumkin bo'lgan tadbirlariga kiritmoq lozim. Kiritilgan tadbirlar ham biri bog'dan, biri tog'dan olib yozilmasligi, balki ular tarbiyaviy ishlar tizimida bir-biri bilan bog'langan, bir-birini to'ldiradigan holda bo'lishi zarur.

Reja o'quvchi shaxsiga ta'sir ko'rsatuvchi turli tarbiyaviy omillarning nafaqat umumiy, balki xususiy aniq tadbirlarni ham o'z ichiga olishi kerak.

Biz quyida sinf rahbari ish rejasining asosiy bo'limlari va mazmunini beramiz:

I. O'quvchilar jamoasi bilan ishlash. Uquvchini o'rganish (o'quvchi haqida ma'lumot to'plash, uning aqliy, jismoniy, ruhiy rivoji, bilim, ko'nikma va malakalari darajasini, tarbiyalanganlik, jamoatchilikka intilish darajasini diagnostik dasturlar asosida o'rganish), sinf jamoasini o'rganish (o'quvchilar soni, jinsi, millati, yoshi, rasmiy va norasmiy liderlar, ilg'orlar, qoloqlar, intizomsiz va tarbiyasi qiyin o'quvchilar, ularning sinfga ta'siri, sinfning jamoatchilik topshiriqlariga munosabati, sinfning tarbiyalanganlik, jipslik, rivojlanganlik darajasini diagnostik dasturlar asosida o'rganish), sinf jamoasini tashkil etish va yo'naltirish (tashkiliy ishlar, sinf faollari bilan ishlash, umumiy ishlar ustidan nazorat, o'quvchilarni o'z-o'zini nazorat qilishga o'rgatish, navbatchilikni, o'zaro yordamni yo'lga qo'yish, gazeta tahririyati bilan ishlash, kasalmand va nogiron o'quvchilarga g'amxo'rlik, vaqti matbuot nashrlariga yozilish, mehnat harakatlarida qatnashish, sinf mulkini saqlash, kundalik rejimga bo'ysunish va hokazolar).

II. Darslarda o'quvchilarni o'rganish (o'quvchining darsda o'zini tutishi, ularning o'zlashtirishligi, bilimdagil nuqsonlar, xulqi), o'quvchilardagi bilim ko'nikmalarini aniqlash (o'quvchilar kundaliklari, daftarlarini ko'rib chiqish, o'qituvchilar bilan suhbatlashish, o'quvchilarning o'quv ishlarini kuzatish, darsliklar, ma'lumotnomalar, jadvallar va hokazolar bilan ta'minlanish ahvolini o'rganish, nutq madaniyati, uyga vazifa, kasb tanlash masalalari bilan qiziqish), o'quvchi-o'qituvchi munosabati (o'quvchi bilan o'qituvchining chiqishimligi, o'qituvchini pedagogik odobga, pedagogik talablarning bir xilligiga erishishi masalalari), o'zaro yordamni tashkil etish (passiv o'quvchilarni aniqlash, fan o'qituvchisi bilan birgalikda uning sabablarini tahlil qilish va tegishli tadbir belgilash, a'lochi o'quvchilardan o'zaro yordam harakatini uyushtirish), o'qituvchilarga yordam berish (o'quvchilar haqida tegishli ma'lumotlar, maslahatlar berish, fanga oid tadbirlarni o'tkazishda ko'maklashish).

Xulosa va takliflar. Demak, ta'lim jarayoniga integrativ yondashuv masalasi qandaydir umumiylik va aloqadorlik xususiyatiga ega. Bunda ta'lim jarayonida foydalanilayotgan integrativ yondashuv texnologiyalarini pedagogik, axborot-kommunitatsiya, va boshqa turlarni o'z ichiga oladi. Bu integratsiyalashgan texnologiyalarning yo'nalishlari har xil bo'lgani bilan, ularning uzviylashadigan umumiy tomonlari ham bor. Umumta'lim fanlarini o'zlashtirishda integrativ yondashuvning optimal(samarali) yo'llarini belgilashda uzviylik printsiplarini tadqiq qilish hamda ularning aniq mezonlarini belgilash muhim vazifa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Djuraev R.H. va boshq. Pedagogika. - Toshkent. 2013. - B. 64.
2. Абдукудусов О.А. Касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашга интегратив ёндашув “Фан”-2005
3. Галеева Н.Л. Система компетенций как инструмент управления качеством образования // Интернет-журнал “Эйдос”. 2007. 30 сентября <http://www.eidos.ru/journal/2007/0930>.
4. То'raev B.Z. Informatika va axborot texnologiyalari sohasi pedagoglarining umumkasbiy fanlar integratsiyasida kasbiy kompetentligini shakllantirish. Ped. fanl. bo'y. fals. dokt. (PhD). diss. avtoref. -Toshkent. O'zMU, 2018. -B. 27.
5. Xasanova Sh.B. Elektron ta'lim resurslari tayyorlash va undan foydalanish tajribalari. Uzluksiz ta'lim. -Toshkent. 2017, №5. - B. 46-51
6. Хуторской А.В. Образовательные компетенции и методология дидактики. К 90-летию со дня рождения В.В. Краевского. Электронный ресурс.
7. Sharipov Sh.S, Aripov M, Begimqulov U.Sh. Bilim olishning intellektual tizimini ishlab chiqish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. - T.: Fan, 2011. - B. 72.

8. АКТ yordamida biologiyani o'qitish. Umumta'lim maktablariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish loyihasi. O'qituvchilar uchun qo'llanma. -Toshkent. 2010. - B. 11.
9. Шутенко, А.В. Методы проведения учебных занятий с использованием средств информационных и коммуникационных технологий /А.В. Шутенко [Электронный документ].- ([http://pedsovet.su/publ/ 26-1-0-841](http://pedsovet.su/publ/26-1-0-841)). 05.04.2010.
10. Abdufatayev, S. (2023). The Youth's Education as an Essential Factor of Increasing the Effectiveness of Education. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(6), 144-151.



УДК: 159.9.072.432

Зиёда АБИДОВА,

Доцент кафедры общей психологии Национального университета Узбекистана д.ф.псих.н.

E-mail: aziyoda@gmail.com

Рецензент профессор университета «Профи», д.психол.н. Н.М.Долимова

RELATIONSHIP OF EMOTIONAL INTELLIGENCE WITH THE COMPONENTS OF TOLERANCE OF THE PERSON

Annotation

This article describes the severity of tolerance and its components depending on the level of emotional intelligence. Based on the analysis of the results of the study, it is concluded that the components of tolerance are associated with emotional intelligence, a high level of emotional intelligence is observed in individuals with a simultaneous predominance of two or three components of tolerance. Based on the results obtained, the author proposes to reveal and strengthen the tolerance of the individual with priority on the cognitive component, contributing to the equilateral development of all three components of tolerance.

Key words: Tolerance, components of tolerance, emotional intelligence, conjugacy, personality, psyche, phenomenon.

ВЗАИМОСВЯЗЬ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА С КОМПОНЕНТАМИ ТОЛЕРАНТНОСТИ ЛИЧНОСТИ

Аннотация

В данной статье описывается выраженность толерантности и её компонентов в зависимости от уровня эмоционального интеллекта. На основе анализа результатов исследования делается вывод о сопряженности компонентов толерантности с эмоциональным интеллектом, высокий уровень эмоционального интеллекта наблюдается у лиц с одновременным преобладанием двух или трёх компонентов толерантности. Исходя из полученных результатов автор предлагает раскрывать и укреплять толерантность личности с приоритетом на когнитивный компонент, содействуя равносоставленному развитию всех трёх компонентов толерантности.

Ключевые слова: Толерантность, компоненты толерантности, эмоциональный интеллект, сопряженность, личность, психика, феномен.

EMOCIONAL INTELLEKTNING SHAXS TOLERANTLIK KOMPONENTLARI BILAN BOG'LIQLIGI

Annotatsiya

Ushbu maqolada tolerantlik va uning komponentlarini namoyon bo'lishida emotsional intellekt darajasiga bog'liqligi tasvirlangan. Tadqiqot natijalarini tahlil qilish asosida tolerantlik komponentlarining emotsional intellekt bilan bog'liqligi to'g'risida xulosa chiqariladi, bir vaqtning o'zida ikki yoki uchta tolerantlik komponentlarining ustunligi bo'lgan shaxslarda emotsional intellektning yuqori darajasi kuzatiladi. Olingan natijalarga asoslanib, muallif shaxs tolerantligini barcha uchta komponentlarini teng darajada rivojlanishiga hayrirohlik etgan holda tolerantlikni kognitiv komponentiga ustuvor ahamiyat berish bilan ochib borishni va mustahkamlashni taklif qiladi.

Kalit so'zlar: Tolerantlik, tolerantlik komponenti, emotsional intellekt, bog'liqlik, shaxs, psixika, fenomen.

Введение. С первых дней Независимости наша страна во всем мировом сообществе выступает примером толерантности, присущей социально-политической, духовно-психологической стабильности и национального развития. В этом смысле в нашей стабильно развивающейся стране направления толерантности служат для формирования национального развития, сохранения мира и согласия на основе понимания, принятия индивидуальности каждого человека, особенностей различных форм микро- и макросоциума.

Неоценима роль толерантности в формировании демократического государства и справедливого общества, для которого приоритетное значение имеют простые и ясные принципы «формирования нового облика нашего государства», «интересы человека превыше всего», являющиеся основной целью проводимых сегодня в нашей республике реформ. Призыв принятия резолюции Генеральной Ассамблеи «Просвещение и религиозная толерантность» направленной на развитие толерантности [1] показывает роль толерантности в обществе.

Проблема толерантности представляет несомненный интерес для научного сообщества. Тема по своей природе сложна и многогранна. Изучение толерантности, как феномена, представляет собой одну из актуальных проблем понимания психосоциальных процессов.

Анализ литературы по теме. Феномен толерантности изучается не однозначно. Исследователи выдвигают различные теории как о сущности самого понятия толерантности, так и о её роли и месте в социуме, о формах её проявления, методах её изучения и факторах её формирования. Неоднозначность подходов ещё раз подтверждает актуальность изучения данного феномена с научной точки зрения.

Многие авторы при изучении содержательной, структурной стороны толерантности отмечают невозможность составления интегрированного определения толерантности из-за размытости, многозначности этого понятия. Но несмотря на эти трудности есть попытки систематизации существующих подходов к толерантности [6].

Среди узбекских учёных философский анализ термина «толерантность», рассматривая различные её аспекты, виды и значение в современном мире проводили З.Р.Кадырова, Н.Х.Хакимов, А.Д.Шарипов, В.Р.Алиева [10]. Роль межэтнической толерантности в историческом аспекте на основе социологических исследований рассмотрели О.Атамирзаева, В.Генштке, Р.Х.Муртазаева [4]. Теоретико-методологический и историко-философский анализ, соотнесённый с социальной природой этого феномена проводили С.Ш.Шермухамедов, К.Х.Ханазаров, М.Н.Абдуллаева, А.М.Джалалов, М.С.Хажиева [16], М.Т.Вохидова [7] и др.

В трудах психологов феномен толерантности исследуется разносторонне. Толерантность определяется как принятие соглашения о «правилах игры» (Дж.Салливан, Дж.Маркус) [17], как уважение точки зрения другого (Л.Г.Почебут) [13], как определённое качество взаимодействия (М.Мацковский [11], Э.Гозиев [8], Г.Б.Шоумаров [18], А.С.Бегматов [5], Д.Г.Мухамедова) [12], как система позитивных установок (Г.У.Солдатова) [14].

В работах Г.Б.Шоумарова, толерантность рассмотрена как одно из обязательных социально-психологических требований к личности и деятельности руководителя, изучена роль толерантности в благополучии семейных отношений и этнопсихо-логических особенностей, а также корреляция толерантности с уровнем интеллектуального развития личности [18].

Анализируя понятийные аспекты толерантности включающее в себя онтогенез понятия толерантности, этнокультурные понятия, понятия толерантности в разных отраслях науки и энциклопедические понятия толерантности, рассматриваемые в существующих словарях можно сделать вывод, что смысл понятия толерантности сводится от не осознанной вынужденной реакции, необходимости до осознанной готовности и уважительного отношения к иному. Толерантность – это понимание меры сходства, неразличимости и взаимозаменяемости, и, реакции и/или устойчивости биологических и небологических систем в пределе определённых минимальных и максимальных воздействующих факторов, и формирование мировоззрения субъектов, которое позволяют адекватно реагировать, соответственно действовать и осознавать инаковость каждого субъекта в микро- и макросоциуме и занятия активной позиции, позволяющая выживаемости и сосуществованию (симбиозу) субъектов в обществе [3].

Таким образом, феномен толерантности до настоящего времени изучалась как мышление религиозной и просветительской толерантности, также с точки зрения содержания-смысла её духовно-культурные, социально-политические, идеологические особенности, а её структура и сущность изучены недостаточно. Попытка понимания сущности феномена толерантности обязывает изучение её структуры. Поэтому в данной работе мы

решили изучить психологические особенности выраженности толерантности и её компонентов.

По нашему мнению, для исследования психологических особенностей выраженности толерантности необходимо изучить степень сопряженности её компонентов со способностями личности, которые повышают эффективность межличностных взаимоотношений и взаимодействий.

Одним из таких способностей является умение управлять своими эмоциями, распознавать эмоции других людей и быть эмоционально осведомленным, также проявлять эмпатию в процессе общения. Данные качества в психологии принято называть эмоциональным интеллектом [20].

Ряд учёных, учитывая, что эмоциональный интеллект – относительно устойчивая способность, придерживаются мнения о невозможности его развития. По мнению Дж.Мейера, можно только увеличить эмоциональную компетентность путём обучения [19]. А по мнению Д.Гоулман, эмоциональный интеллект можно развить, так как нервные пути мозга продолжают развиваться вплоть до середины человеческой жизни [9].

Методология исследования. С целью определения выраженности толерантности и её компонентов в зависимости от уровня эмоционального интеллекта был проведён анализ результатов диагностики рандомизированно экспериментально-контролируемого исследования, проведённого среди кинических ординаторов.

В исследовании участвовало 88 клинических ординаторов, обучающихся на первом и втором курсах Ташкентского института усовершенствования врачей. Все испытуемые принимали участия в исследовании на добровольной основе, что подтверждается подписанием бланка о информированном добровольном согласии на участие в научном исследовании.

Среди них проводилась диагностика уровня толерантности с помощью авторской методики «Самоопределение уровня толерантности». Данная методика даёт возможность определить уровень толерантности личности, с её помощью можно оценить эмоциональный, когнитивный и поведенческие компоненты толерантности [2]. Исследование эмоционального интеллекта проводилось с помощью методики «Эмоциональный интеллект» Н.Холла [15].

Анализ и результаты. Анализ результатов диагностики с помощью авторской методики «Самоопределение уровня толерантности» показал, что эмоциональный компонент толерантности выражен у 24% (21 человек) участников исследования, когнитивный – у 27% (24 человек), поведенческий – у 42% (37 человек), а у 7% (6 человек) одинаково проявлены два или все три компонента толерантности. Далее был проведён анализ сопряженности компонентов толерантности показателями эмоционального интеллекта, полученными с помощью методики «Эмоциональный интеллект» Н.Холла.

Сопряженность компонентов толерантности с эмоциональным интеллектом

№	Шкалы	Уровень	Компоненты толерантности			
			Эмоциональный	Когнитивный	Поведенческий	Два или три компонента
1	Эмоциональная осведомлённость	Высокий	33%	63%	35%	50%
		Средний	33%	25%	41%	33%
		Низкий	33%	13%	24%	17%
2	Управление своими эмоциями	Высокий	10%	4%	14%	50%
		Средний	43%	17%	27%	17%
		Низкий	48%	79%	59%	33%
3	Самомотивация	Высокий	38%	29%	38%	83%
		Средний	29%	50%	38%	0%
		Низкий	33%	21%	24%	17%
4	Эмпатия	Высокий	19%	38%	41%	50%
		Средний	29%	42%	35%	50%
		Низкий	52%	21%	24%	0%
5	Распознавание эмоций других	Высокий	19%	21%	30%	33%

	людей	Средний	43%	42%	35%	67%
		Низкий	38%	38%	35%	0%
6	Всего эмоциональный интеллект	Высокий	10%	13%	19%	50%
		Средний	38%	50%	43%	33%
		Низкий	52%	38%	38%	17%

Как видно по таблице, высокий уровень эмоциональной осведомлённости чаще наблюдается среди участников, у которых более выражен когнитивный компонент толерантности. А высокий уровень остальных компонентов эмоционального интеллекта и его общего показателя более характерен для лиц, у которых

одинаково выражены два или три компонента толерантности.

Сопряженность компонентов толерантности с общим уровнем эмоционального интеллекта наглядно представлена на нижеследующей рисунке.




Рис. Сопряженность компонентов толерантности с общим уровнем эмоционального интеллекта

Таким образом, высокий уровень эмоционального интеллекта больше наблюдается среди лиц с наибольшей выраженностью двух или трёх компонентов толерантности.

Выводы и предложения. Исходя из полученных результатов исследования можно сделать вывод о сопряженности компонентов толерантности с эмоциональным интеллектом. Уровень эмоционального интеллекта зависит от выраженности того или иного компонента толерантности. Высокий уровень эмоционального интеллекта наблюдается у лиц с одновременным преобладанием двух или трёх компонентов толерантности.

Результаты анализа показывают, что для достижения высокого уровня эмоционального интеллекта

необходимо одинаково раскрывать и развивать все компоненты толерантности (эмоциональный, когнитивный, поведенческий). На этапе подготовки учебного процесса необходимо уделить внимание на данную причинно-следственную связь и строить педагогическую методологию с её учётом. В педагогическом процессе необходимо делать акцент на раскрытия и укрепления толерантности личности с приоритетом на когнитивный компонент, содействуя равносоставленному развитию всех трёх компонентов толерантности. Приоритетность и последовательность компонентов психики в процессе психогенеза при педагогических технологиях должны быть направлены на статические состояния и потенциал личности с приоритетом на когнитивный-эмоциональный-поведенческий компоненты психики.

ЛИТЕРАТУРА

1. Выступление Шавката Мирзиёева на 72-й Генассамблее ООН <http://ru.sputniknews-uz.com/video/20170920/6344700/Mirzиеev-OONvystuplenie.html>
2. Абидова З.А. Авторское описание методики «Самоопределение уровня толерантности»// Деп. в ГУП «Intellect Expert» 29.04.2016, № 000184. – Ташкент, 2016. – 4 с.
3. Абидова З.А. Сущность и реалии феномена «толерантность»: монография / З.А.Абидова; Отв.ред. Г.Б.Шоумаров; Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека. – Ташкент: Navro‘z, 2016. – 187 с.
4. Атамирзаев О., Генштке В., Муртазаева Р.Х. Межнациональная толерантность в Узбекистане: история и современность. – Ташкент, 2004 г.
5. Бегматов А.С. Толерантность и социальное партнерство // Актуальные проблемы толерантности в углублении демократических реформ и развитии гражданского общества: методология исследования, современность и перспективы / Международная научно-теоретическая конференция. – Т.: НУУз, 2015. – С.29-32.
6. Безюлева Г.В., Шеламова Г.М. Толерантность: взгляд, поиск, решение. – М.: Вербум-М, 2003. – 168 с.
7. Вохидова М.Т. Толерантлик – ёшларни ижтимоий-ахлоқий юксалтириш омили.: Автореф. дис. ... канд.философ.наук. – Т., 2010. – 27 с.
8. Гозиев Э.Г. Социал психология / Э.Ф.Гозиев // Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети – Тошкент: Noshir, 2012. – 316 б.
9. Гоулман Д. Эмоциональное лидерство: Искусство управления людьми на основе эмоционального интеллекта. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2005.
10. Кадырова З.Р., Хакимов Н.Х., Шарипов А.Д., Алиева В.Р. Толерантность в контексте углубления реформационных процессов в Узбекистане – Т.: НУУз, 2014. – 308 с.
11. Мацковский М.С. Толерантность как объект социологического исследования. – М.: Центр СМИ МГУ им. М.В.Ломоносова, 2004. – 143 с.
12. Мухамедова Д.Г. Социально-психологический аспект подготовки менеджера образования к инновационной деятельности: Дис. ... докт. психол. наук. – Ташкент, 2015. – 320 с.
13. Почебут Л.Г. Взаимопонимание культур. Методология и методы этнической и кросс-культурной психологии. Психология межэтнической толерантности. СПб., 2005. – 280 с.

14. Солдатова Г.У. Практическая психология толерантности, или как сделать так, чтобы зазвучали лучшие струны человеческой души? // Науч.-публицист. Вестник, 2003. – № 6. – С.60-69.
15. Фетискин Н.П., Козлов В.В., Мануйлов Г.М. Социально-психологическая диагностика развития личности и малых групп. – М.: Изд-во Института Психотерапии, 2002. – С.57-59.
16. Хажиева М.С. Миллий оғнда толерантликни шакллантиришнинг ижтимоий-фалсафий тахлили.: Автореф. дис. ...докт.философ.наук. – Т., 2011. – 46 с.
17. Черствая О.Е. Проблема воспитания толерантности в семейном укладе // Толерантность в современном обществе: опыт междисциплинарных исследований: сборник научных статей / под научн. ред. М.В.Новикова, Н.В.Нижегородцевой. – Ярославль: Изд-во ЯГПУ, 2011. – С.92-94.
18. Шоумаров Г.Б. Требования к личности руководителя, 2003.– 54 с.
19. Mayer J.D., Salovey P., Caruso D. R., & Sitarenios G. Emotional Intelligence As a Standard Intelligence. – Emotion, 2001.
20. Smith M.K. «Howard Gardner and multiple intelligences», The Encyclopedia of Informal Education, downloaded from <http://www.infed.org/thinkers/gardner.htm> on October 31, 2005.



Iroda ALIMOVA,

*Teacher of the Department of Foreign Language and
Literature of the National University of Uzbekistan, independent researcher
E-mail: ialimova513@gmail.com,
Tel: +99894 6620064*

Based on the review of associate professor G.N Tuhlieva

APPROACHES TO HUMOR TRANSLATION IN AUDIOVISUAL TRANSLATION

Annotation

Among the many cognitive abilities of human beings, creating humor may be considered one of the most complex, due to its relative and idiosyncratic nature. Moreover, much of its fascination lies in the fact that it can serve a wide range of purposes. If considering translation, it is generally defined as a process that makes texts produced in one language accessible to people who do not speak that language. Over the years, when considering the translation of humor, a great of scholars have debated it in general terms, but often concentrated on its transfer within audiovisual works. By doing so, they have also contributed to arousing interest in humor translation among “younger” scholars. Consequently, the literature on the Audiovisual Translation of humor has been steadily increasing over the last decade. This article analyses the parts of humor in dubbing and subtitling as well as provides with explanations in their approaches to their rendering.

Key words: Humor, translation, audiovisual, dubbing, subtitling

ПОДХОДЫ К ПЕРЕВОДУ ЮМОРА ПРИ АУДИОВИЗУАЛЬНОМ ПЕРЕВОДЕ

Аннотация

Среди многих возможностей юмор считается самым сложным и идиосинкразическим аспектам по природе. Юмор – один из самых сложных объектов перевода в силу внутри лингвистических и культурно обусловленных особенностей того или иного языка. Та или иная ситуация, фраза или предложение может вызвать совершенно разную реакцию у представителей разных культур. Всякое высказывание обладает способностью оказывать на читателя или слушателя определенное прагматическое воздействие, а значит, имеет прагматический потенциал, который по-разному реализуется в конкретных коммуникативных актах. Отсюда следует вывод, что и в тексте перевода важную роль играет прагматическая адаптация юмора. По мнению В.Н. Комиссарова, “переводчику необходимо заботиться о достижении желаемого воздействия на получателя в зависимости от цели перевода, либо воспроизводя прагматический потенциал оригинала, либо видоизменяя его. Именно поэтому изучение прагматических аспектов составляет одну из центральных задач теории перевода”.

Ключевые слова: Юмор, перевод, аудиовизуал, субтитр и дубляж.

AUDIOVIZUAL TARJIMADAGI YUMORNING TARJIMA YO‘LLARI

Annotatsiya

Yumor inson qobiliyatlarining tuzilishi jihatidan eng murakabi hisoblanadi. Chunki yumorning ishlatilishining ko‘lami kengdir. Yillar davomida turli sohadagi olimlar yumor haqida turli xil qarashlarini oldinga surishdi. XX asrga kelib esa, uning qo‘llanilishi audiovisual multimedia maxsulotlarida ko‘rinib, uning subtitr va dublyajdagi tarjimasiga alohida e‘tibor qaratila boshlandi. Shuning uchun ham kinoning rivojlanishi bilan bir qatorda audiovisual tarjimadagi yumorga bo‘lgan e‘tibor Kundan kunga oshib bormoqda. Ushbu maqolada subtitr va dublyajdagi yumor bo‘limiga to‘xtalib uning tarjima yo‘nalishlari va yo‘llari yoritilib beriladi.

Kalit so‘zlar: Yumor, tarjima, audiovisual, subtitr va dublyaj.

The considerations regarding the theoretical debate on the AVT of humor derive from both the theory and practice. The two can be considered equally useful because, they are “simply two sides of the same coin: theory informs practice, which in turn contributes towards a theoretical framework”. This view falls into the framework of Descriptive Translation Studies, which investigate translations “as they manifest themselves in the world of our experience”. Translations are analyzed according to the socio-historical context within which they are embedded and the translation norms such a context has established. As a consequence, researchers can offer insight into the translation process they analyze and possibly detect procedural patterns. According to Venuti and his famous distinction between source-oriented and target-oriented approaches come readily to mind. In the former case, translators attempt to retain in the TT the linguistic and

cultural differences the ST contains, thus making it evident that the former is a translated version of the latter. In a domesticating or target-culture approach, the TT is made fluent, “intelligible and even familiar to the target-language reader”. These concepts can be and are applied to the analysis of TV and film comedy, along with other considerations stemming from the Poly system Theory that can help us to understand “the role translation plays in canon formation, and the establishment, development and maintenance of an academic discipline”. For instance, in the case of Italian AVT, which is the poly system under scrutiny here, Italy’s cinema and audiovisual tradition matches the definition of “weak literature” as suggested by Even-Zohar when talking about literary translation.

He describes weak literature as being on the margins of a larger literary hierarchy that prevents the former from

developing like other larger literatures, which may be therefore felt to be indispensable. This description it's the context because, like "weak literature", the audiovisual production of Italy is limited compared to that of the United States, the reason being that after the initial introduction boom, between 1906 and 1913, the European film industry halted due to the outbreak of World Wars I and II, and it was consequently outdone by Hollywood. Despite its recovery, the European market is still overshadowed by US productions. Like other European countries, Italy largely depends on the importation and translation of American series and movies. It is therefore unsurprising that a large amount of scholarly research in AVT often deals with American audiovisual works and their translation into French, Spanish, Italian, German and so on [1].

And this study is indeed no exception; in its attempt to offer an account of the treatment of humor in Italian AVT, this work considers instances taken from comedy productions for the television and the cinema. In order to investigate revoicing and captioning, this book concentrates on the first two seasons of the TV comedy program *Modern Family* and its Italian dubbed and captioned (subtitled and dubbed) versions. This family sitcom revolves around the lives of Jay Pritchett and his family, all of whom live in suburban Los Angeles. Jay's family includes his Colombian second wife Gloria, their son Joe and Manny, Gloria's son and Jay's stepson. Jay also has two adult children: Mitchell, who is gay and in a long-term relationship with Cameron; and Claire, who is married to Phil. Cameron and Mitchell have adopted a Vietnamese baby girl (Lily), while Claire and Phil have three children: Haley, Alexandra and Luke. *Modern Family* is a telling example of the way comedy has been evolving to depict a multilingual and multicultural society such as that of North America. Most of the series' success and humor derives from its characters' playful use of language, cultural references and the clash between the North and South American societies, languages and cultures. It is a fascinating and humorous sitcom that poses several challenges and is therefore well worth exploring. Hence, the contrastive analysis carried out in this volume seeks to shed light on precisely those language- and culture-specific features that pose significant problems in humor translation, meaning wordplay, culture-specific references and multilingualism. As mentioned above, this investigation aims to bring together insights from the scholarly research on AVT and Humor Studies, most notably, Raksin's Semantic Script Theory of Humor and Attardo's General Theory of Verbal Humor. However, the inner complexities of humor, its development a translation within a Mult semiotic system such as the audiovisual setting call for an eclectic approach that extends beyond these fields. Therefore, this study also integrates observations by scholars in Film Studies, Corpus Linguistics, Conversation Analysis and so on. From a statistical point of view, the corpus under scrutiny is sufficiently large to allow for detecting patterns of translational behavior within different AVT modes. The complexity inherent in the rendering of wordplay has led scholars to address the issue of whether it is possible to successfully adapt wordplay in audiovisuals. Chiaro offers a thorough description of the debate surrounding translatability and equivalence, two closely connected concepts that have been the subject of much debate in Translation Studies. However, in order to contextualize the debate as far as

audiovisual humor is concerned, it should be stressed that when talking about the translation of verbal humor on screen we most often think in terms of the possibility to achieve, dynamic equivalence [2].

As opposed to formal equivalence (or word-for-word translation), dynamic equivalence privileges target language solutions that are able to facilitate a more thorough understanding of the source text and not just convey its literal meaning. In this view, an efficient adaptation of audiovisual humor cannot be expected to necessarily reflect the formal structure of the source language joke, but, instead, to successfully render its intention, which is, presumably, to amuse the audience in the context of what they are watching. Therefore, according to the notes of Chiaro, in the context of puns, when an example of wordplay is labeled as "untranslatable," what is questioned is not the actual feasibility of its being somehow rendered in a target language - which indeed happens on an everyday basis - but rather the impossibility of achieving formal equivalence. Socio-cultural and diastatic variation, and the use of multilingual dialogue are also frequently adopted as humor-creating devices on screen, and they are often considered some of the major causes of "loss" of meaning in the process of lingua-cultural transfer. As Chiaro notes, both strategies are potentially problematic, because in the first case important characterizing linguistic features are omitted and in the second almost certainly incongruous associations are created with regional varieties from a completely different linguacultural context. However, according to Heiss, "certain genres, such as comedies, for example, are in a certain sense perceived as being detached from reality and therefore offer more room. Particularly, the animated comedy genre where suspension of disbelief seems to be easier for viewers has been a productive genre for the use of local regional varieties [3].

The most emblematic and long-lasting example of this in Italian dubbing is probably *The Simpsons*, in which groundskeeper Willie speaks with a Sardinian accent, Chief Wiggum has a Neapolitan inflection, and Homer's friend Carl an accent from the Veneto region. As alienating as this choice might sound,

The Simpsons has been very successful in Italy over the years, which brings us to considerations concerning what constitutes a successful adaptation of audiovisual humor. While a certain strand of the scholarship on audiovisual translation and humor is currently still investigating the more traditional aspects outlined in this chapter, new directions have also recently emerged that reflect changes and evolutions in the production and distribution of audiovisual products containing humor. One of the most impactful aspects of audiovisual humor today is the increased use of taboo language and references, especially as far as Anglo-American fictional products are concerned. While the use of controversial and sometimes politically incorrect humor has always been a staple of more specific genres such as stand-up comedy specials and roasts, recent years have seen a proliferation of this kind of humor also in more mainstream TV series and film comedies, which seemingly adopt controversial language and themes in an attempt to remain relevant and topical in an increasingly fragmented and competitive audiovisual market. Whether or not this is a successful strategy in the pursuit of quality content.

LITERATURE

1. Newmark, P. (1988). *Textbook of Translation*. London: Prentice Hall
2. Lawrence Venuti. (1995). *The Translator's Invisibility -- A History of Translation*. Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press.
3. Nida, Eugene A. (2001). *Language and Culture*. Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press.



UDK:358.44

Qurbon AMINJONOV,

*O‘zbekiston Milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi
tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar sikli katta o‘qituvchisi, iste‘fodagi polkovnik
E-mail: aminjonov@gmail.com*

O‘zRMV f.f.d., dotsent S.Usmonov taqrizi asosida

**“ISSUES OF FORMATION OF MORAL AND AESTHETIC RELATIONS TO THE PROFESSION OF AN OFFICER
IN STUDENTS IN THE PROCESS OF TRAINING RESERVE AND RESERVE OFFICERS”**

Annotation

This article will talk about the issues of the formation of moral and aesthetic relations to the officer profession.

Key words: "Aesthetics", "morality", "morality", "spirituality", "moral values", "aesthetic values", "aesthetic decency", "moral attitude". "aesthetics", "morality", "morality", "spirituality", "moral values", "aesthetic values", "aesthetic decency", "moral attitude", Genesis, reserve, reserve, individual-psychological qualities, professional-psychological selection.

**“ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ У СТУДЕНТОВ НРАВСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОГО ОТНОШЕНИЯ К
ОФИЦЕРСКОЙ ПРОФЕССИИ В ПРОЦЕССЕ ПОДГОТОВКИ ОФИЦЕРОВ ЗАПАСА”**

Аннотация

В данной статье пойдет речь о вопросах формирования морально-эстетического отношения к офицерской профессии.

Ключевые слова: «Эстетика», «мораль», «нравственность», «духовность», «моральные ценности», «эстетические ценности», «эстетическая порядочность», «моральное отношение». «эстетика», «нравственность», «нравственность», «духовность», «моральные ценности», «эстетические ценности», «эстетическая порядочность», «нравственная установка», генезис, резерв, резерв, индивидуально-психологические качества, профессионально-психологический выбор.

**“REZERV VA ZAXIRADAGI OFITSERLARNI TAYYORLASH JARAYONIDA TALABALARDA OFITSERLIK
KASBIGA AXLOQIY-ESTETIK MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI”**

Аннотация

Mazkur maqolada ofitserlik kasbiga axloqiy va estetik munosabatlarni shakllantirish masalalari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: “Estetika”, “axloqiylik”, “axloq”, “ma’naviylik”, “axloqiy qadriyatlar”, “estetik qadriyatlar”, “estetik odob”, “axloqiy munosabat”. “estetika”, “axloqiylik”, “axloq”, “ma’naviylik”, “axloqiy qadriyatlar”, “estetik qadriyatlar”, “estetik odob”, “axloqiy munosabat”, genezis, rezerv, zaxira, individual-psixologik sifatlar, kasbiy-psixologik tanlash.

Kirish. Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq. Buyuk yunon olimi Aristotelning «Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi», degan so‘zlari bor. Qarang, bu fikrlar miloddan avval aytilgan. Demak, insoniyat ongli hayot kechira boshlagan davrdan buyon ta’lim va tarbiya masalasi, doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Ma’lumki, ofitserlik kasbiga axloqiy va estetik munosabatlarni shakllantirish masalalari ko‘plab fanlarni o‘rganish obyekti bo‘lib, “estetika”, “axloqiylik”, “axloq”, “ma’naviylik”, “axloqiy qadriyatlar”, “estetik qadriyatlar”, “estetik odob”, “axloqiy munosabat” kabi ilmiy toifalar tarix, falsafa, sotsiologiya, politologiya, psixologiya, pedagogika va boshqa fanlarning tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Pedagogika tajribasida harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatida axloqiy-estetik munosabatlarni shakllantirish muammolari muhim ahamiyatga ega.

Odatda, Qurolli Kuchlarda va boshqa huquqni muhofaza qilish organlarida ushbu masalalar tarbiya va tarbiyaviy ishlarning nazariyasi hamda amaliyoti tahliliga muvofiq ko‘rib chiqiladi.

Kasbiy faoliyatga nisbatan axloqiy-estetik munosabatlarni shakllantirish masalalari harbiy pedagogika va kasbiy pedagogika uchun dolzarb hisoblanadi.

Kasbga axloqiy-estetik munosabatlar inson uchun ahamiyatli bo‘lgan subyektlar tomonidan ijobiy baholanadigan va tegishli kasbda qo‘llaniladigan moddiy va ma’naviy voqelikda aks etadi. Ushbu axloqiy-estetik qadriyatlarini ta’lim jarayoniga joriy etish muhim ahamiyatga ega. Shaxsning kasbiy ehtiyojlarni to‘g‘ri tanlashi va shu o‘rinda axloqiy va estetik qiziqishlarni belgilovchi va axloqiy-estetik odobda ayon bo‘ladigan individual rivojlanish yo‘nalishi ushbu masalaning yechimiga bog‘liq.

Ma’lumki, har bir inson o‘zi tanlagan kasbga bo‘lgan o‘z individual munosabatlariga ega. U kasbning axloqiy va estetik jihlatlarini baholaydi. Ushbu munosabatlar turli ijtimoiy institutlar ta’siri ostida vujudga keladi va shakllanadi. Ulardan maktab, atrofdagi o‘rtoqlar, oila, oliy o‘quv yurti, mehnat jamoasi, maxalla va x.k.z.

Ma’lumki, pedagogik amaliyotda inson faoliyati omillari uning ehtiyojlari deb hisoblanadi. Ehtiyojlar o‘z genezisida ikkita asosiy bosqichdan o‘tadi.

Birinchi bosqichda ehtiyojlar yashirin shaklda bo‘lib, kasbiy faoliyatining axloqiy-estetik mohiyati to‘g‘risidagi o‘z subyektiv bilimlarini, jamiki atrof haqiqatlari masalalari bo‘yicha shaxsdagi mavjud bilimlar bilan solishtirganda eng yaxshisi bo‘lib chiqadi. Bu solishtirishlar tanlangan kasbdagi

axloqiy va estetik ehtiyojlarga erishish vositalarini tanlashda asosiy mezon hisoblanadi.

Ikkinchi bosqich, o'z mazmunining amaliy va qo'llaniladigan tavsifiga ega. Ushbu holatda ofitser kasbiy faoliyatining mohiyati, talaba shaxsining o'qituvchilar, o'quv yurti, fakultet qo'mondonligi, sikllar boshliqlari talabani o'rab turgan jamoa madaniy-ta'limi muhiti ta'sirida shakllanadigan axloqiy-estetik ehtiyojlarini qoniqtirish bilan obyektivlashtiriladi.

Bundan kelib chiqadiki, talabalarning axloqiy va estetik ehtiyojlarini qondirish harbiy ta'lim tizimida kasbiy tayyorgarlik dasturlarini ular tomonidan o'zlashtirish jarayonida ro'y beradi va axloqiy-estetik kasbiy xulq-atvorida o'z ifodasini topadi, uning asosida ularning tanlagan ofitserlik kasbiga bo'lgan axloqiy-estetik munosabatlari yotadi.

Professional tarzda rezerv va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash asosan harbiy tayyorgarlik o'quv markazi va fakultetlarda amalga oshiriladi. Ular tanlangan ofitserlik kasbiga talabalarning ijobiy munosabatini shakllantirishga, ushbu muayyan holatda, ularning o'z axloqiy-estetik munosabatlarida axloqiy va estetik qadriyatlarini o'quv jarayoniga moslashtiradigan madaniy ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan. Shuning uchun ofitserlik tarkibining kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish maqsadida o'quv fanlari tarkibida axloqiy va estetik qadriyatlar tajribasi mavjudligi hamda ularning axloqiy-estetik rivojlanishi salohiyatini o'zida mujassam etuvchi oliy ta'lim muassasasi madaniy-ta'lim muhitidagi axloqiy estetik xulq-atvor an'analari monitoringini doimo olib borish maqsadga muvofiq.

Talabalarning ofitserlik kasbiga axloqiy-estetik munosabatlarining o'ziga xosligi ularning axloqiy-estetik ongini shakllantirishga sezilarli ta'sir etuvchi moddiy, ijtimoiy va ma'naviy omillar bilan belgilanadi.

Bir vaqtning o'zida harbiy tayyorgarlik markazi, fakultetlar talabalarining ofitserlik kasbiga axloqiy-estetik munosabati, pedagogik vaziyat sifatida bir tomondan - ofitserlar kasbiy faoliyati faktlariga talabalarning munosabati bilan shartlansa, ikkinchi tomondan o'rnatilgan urf-odatlar va an'analarda talabaning harbiy oliy o'quv yurtida o'qish jarayonidagi ma'lum o'quv va xizmat vaqtida harakatlarini boshqarishga qaratilgan, qat'iy belgilangan tizim bilan shartlanadi.

Ofitserlik kasbining an'analari va qadriyatlarida o'ziga xos an'anaviy sifatlar va jihatlar ajralib turadi, ularda jamiyatning ofitserlik kasbiga munosabati shakllanadi. An'anaviy xususiyatlar va sifatlarga kelsak, ular odatda muhim tarixiy davrlar, zamonlar davomida mustahkamlanib, barcha turdagi qo'shinlar ofitserlariga xos hamda jamiyatning ofitserlik hamjamiyatiga munosabatini shakllanishini belgilab beradi.

Maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy ishlar jarayonida talabalar ongida hissiyotli, irodaviy, aqliy, erkin ruhiy jarayonlarni amalga oshirish hisobiga tegishli ruhiy ta'lim shakllanadi hamda shaxsiy xususiyatlar, kasbiy muhim sifatlar vujudga keladi, o'zining axloqiy va estetik ehtiyojlarini tushunib yetishini taxmin qiluvchi o'z yo'nalishi shakllanadi, unda sekin-asta e'tiqodga aylanadigan kasbiy qiziqishlar paydo bo'ladi, keyinchalik shaxs uchun kasbiy ideallar va yo'nalishni yaratadi. Bularning barchasi kasbiga bo'lgan munosabatning shakllanishiga asos bo'luvchi shaxsiy faollik asosi hisoblanadi va u muomalada, xulq-atvorda tashqaridan ko'rinadi.

Pedagogik faoliyat tajribasi shundan dalolat beradiki, rivojlangan axloqiy-estetik sifatlarga ega bo'lgan rezervdagi va zaxiradagi ofitserlar tarkibini tayyorlash masalalarini muvaffaqiyatli yechish, birinchi navbatda ularni kasbiy-psixologik tanlash sifatiga bog'liq.

Yoshlarni harbiy ta'lim muassasasiga kirishga qiziqtiruvchi asosiy omil oila hisoblanadi. Afsuski o'qishga kiruvchilarning kamchiligi ofitserlik kasbini axloqiylik, harbiy jasorat va sharaf, vatanparvarlik namunasi deb hisoblashadi. Boshqa sabablar ham bor: talab etiluvchi kasb, jismoniy mukammallikning rivojlanishi, imtiyoz va bonuslarga ega bo'lish, harbiy formaning chiroyliligi, keyingi hayotda ustuvorlikka ega bo'lish, moddiy ehtiyojlarni qondirish.

Bunda o'qishga kirayotganlarning individual-psixologik sifatlarini tekshirish bo'yicha o'tkazilgan tekshiruv natijalari ularning ko'pchiligida ehtiyoj qiziqishlar, egoistik qarashlar ustunligini, sardorlik sifatining yetarli rivojlanmaganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, talabalarda ofitserlik kasbiga nisbatan axloqiy-estetik munosabatlarning shakllanishi uchun harbiy o'quv markazlarida, fakultetlarda yaratiladigan ta'lim muhiti muhim rol o'ynaydi.

Talaba har qanday holatda yashash baxtiga ega bo'lgan dunyo haqida tayyor bilimlarni bilib va undan ham ko'proq, tanlangan ofitserlik kasbi xususiyatlarini bilib tug'ilmaydi. Bularning barchasini u turli xil faoliyat jarayonida, oilada, maktabda, harbiy o'quv yurtida egallaydi.

Talabalarning ofitserlik kasbiga axloqiy-estetik munosabatlarining shakllanish jarayoni axloqiy-estetik kasbiy bilim va tushunchalarga, qadriyatlarga va g'oyalarga ega bo'lishni, shakllangan axloqiy norma va estetik sifatlarini, axloqiy-estetik kasbiy xulq-atvorni o'z ichiga oluvchi talabalar axloqiy-estetik dunyoqarashini rivojlantirishdan iborat, shaxs va jamiyatning axloqiy va estetik rivojlanishini ta'minlash xususiyatini aks ettiruvchi ofitserlik an'analarni yetkazish; axloqiy-estetik sifatlar rivojlanishini taxmin qiluvchi xizmat faoliyatini bajarishni, hamda axloqiy-estetik xulq-atvorga ta'sirni o'z ichiga oladi.

Asosiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirish jarayonida olingan bilim va tushunchalar Qurolli Kuchlarda ofitserlik kasbiga axloqiy-estetik munosabatlarni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi, shakllangan munosabat axloqiy-estetik harakatlarda va ofitserning kasbiy xulq-atvorida ko'rinadi.

Shaxsni o'rganish tahlili shundan dalolat beradiki, inson shaxsiyati bir qator qadriyatlarini birlashtiradi, ular orasida: biogen, sotsiogen, psixogen. Shu munosabat bilan talabalarining ofitserlik kasbiga axloqiy va estetik munosabati psixogen darajada shakllanib, qiziqishlar va his-tuyg'ular shaklida ijtimoiy munosabat sifatida namoyon bo'lishi aniqlandi. Ushbu sabablar va his-tuyg'ular orqali talabalarda axloqiy va estetik yo'nalishlar shakllanadi, bu esa ofitserlik kasbiga nisbatan axloqiy-estetik munosabatning u yoki bu turini belgilaydi.

Talabalarning ofitserlik kasbiga axloqiy va estetik munosabatini shakllantirish, ularning ofitserlik kasbining axloqiy va estetik tomoniga nisbatan psixologik moyilligini aniqlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar shaklida ifodalanishi mumkin. Chunki bu moyilliklar amalda ofitserning haqiqiy axloqiy-estetik xulq-atvoridan oldin bo'ladi, ularning rivojlanishi talabaning shaxsiy va kasbiy axloqiy-estetik qadriyatlarini, tanlangan kasb ideallarini idrok etish orqali amalga oshiriladi.

Bundan kelib chiqib shuni aniqlash mumkinki, talabalarning ofitser sifatida axloqiy va estetik faoliyatiga maqsadli qiziqishlarini rivojlantirish qiziqish ehtiyojlarining paydo bo'lishini rag'batlantiradi, bu esa o'z navbatida tushunib yetish jarayonida talabalar ongida mustahkamlanadi, doimiy ravishda barqarorlik belgilariga ega bo'ladi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, bu barqarorlik belgilariga ega bo'lgan ehtiyoj talabalarning bo'lajak ofitser shaxsining axloqiy va estetik xulq-atvorini belgilaydigan ofitserlik kasbiga axloqiy-estetik munosabatini shakllantirish uchun asos yaratadi.

Axloqiy va estetik ehtiyojlar, qiziqishlar, istaklar, ideallar va e'tiqodlar umumlashib bo'lajak ofitser shaxsiyatining yo'nalishini tashkil etadi, bunda ofitserlik kasbiga axloqiy va estetik munosabat uning barqarorligini ta'minlash uchun asos hisoblanadi. O'z navbatida talabalarda shakllangan ofitserlik kasbiga axloqiy va estetik munosabatning o'zi kasbiy qiziqish bo'lib, u talabalarning shaxsiy va kasbiy tanlovi natijasidagi harakatlari, butun xatti-harakatlarining axloqiy va estetik mazmunini belgilaydi.

Talabalarning ofitserlik kasbiga axloqiy va estetik munosabatini shakllantirish usullari quyidagi guruhlarini o'z ichiga oladi:

- birinchidan, bu me'yoriy tavsifga ega bo'lgan usullar: ularga maqsad va vazifalarni belgilash, qarorlar, buyruqlar, farmoyishlarni shakllantirish va qabul qilish kiradi;

- ikkinchidan, ijro xarakteriga ega bo'lgan usullar: ularga rahbar va pedagogik tarkibni tanlash, joylashtirishning umumlashgan usullari, ular o'rtasida majburiyatlarni taqsimlash choralari, shuningdek ma'lum bir talabalar jamoasida tarbiyaviy ishning xususiyatlari to'g'risida yo'riq-nomalarni o'tkazish kiradi;

- uchinchidan, bu maqsadli munosabatlarni aniqlash usullari bo'lib, ular yordamida atrof-muhit va qonunchilik ma'lumotlarini o'rganish, talabalar ta'limining oraliq natijalarini tekshirish, tahlil qilish asosida istiqbolli hamda yaqin maqsadlarni belgilash vazifalari hal qilinadi, ilg'or pedagogik faoliyat tajribasini umumlashtirish va yoyish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish;

- to'rtinchidan, bular istiqbol yo'nalishining usullari bo'lib, ular ekstrapolyatsiya, modellashtirish va rejalashtirish usullari tizimidan foydalanishni nazarda tutadi;

- beshinchidan, bular muayyan talablar qo'yadigan usullardan, ish faoliyatini baholashni tashkil etuvchi usullardan va o'z-o'zini baholashga turtki bo'lgan usullardan, munozarali fikr almashish, turli maslahat va takliflar shakllantirish asosidagi usullardan foydalanadigan tuzatish usullari guruhlarini;

- oltinchidan, rag'batlantiruvchi xarakterdagi usullar tizimi, jumladan jamoatchilik fikrini tashkil etish va yetkazish, tanqid va o'z-o'zini tanqid qilish, rag'batlantirish va majburlash usullari va boshqalarni o'z ichiga oladi;

Taklif etilganlar bilan bir qatorda talabalarning ofitserlik kasbiga axloqiy va estetik munosabatlarini shakllantirish jarayonini tashkil etishda umumiy pedagogik usullar tizimidan foydalanish mumkin, ularga ishonirish, majburlash, mashqlar, misollar, shuningdek alohida didaktik usullar kiradi. Ular orasida tushuntirish, muhokama qilish, ko'rsatish, mustaqil ish usullari va boshqalar.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, ofitserlik kasbiga munosabat (eng umumlashtirilgan ma'noda) tasavvurda – bu professional xizmat vazifasini bajarish uchun zarur bo'lgan mahorat, bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun zarur g'oyalar va tajribaning kasbiy yo'naltirilishi, o'z professional qarashlari nuqtayi nazaridan idrok etiladigan, inson tomonidan kasbiy faoliyat aniq turining alohida xususiyatlarini o'zlashtirilishi asosida shakllangan shaxsning kasbiy yo'nalishidan iborat.

Harbiy ta'lim muassasalarida rezerv va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash jarayonida talabalarda ofitserlik kasbiga axloqiy-estetik munosabatlarni shakllantirishda asosiy e'tibor quyidagilarga qaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

Birinchidan, talabalarning ofitserlik kasbiga axloqiy va estetik munosabatini shakllantirish maqsadida oliy o'quv yurtlarida targ'ibot va tashviqot ishlarini yuksak saviyada tashkillashtirish.

Ikkinchidan, harbiy tayyorgarlik o'quv markazi va fakultetlarga o'qishga kirayotgan talabalarning ehtiyojini qiziqishlarini, qarashlar ustunligini, sardorlik sifatining mavjudligi va rivojlanganligini tekshirish hamda ularning ofitserlik kasbining axloqiy va estetik jihatiga nisbatan psixologik moyilligini aniqlash maqsadida tanlovga ushbu masalarni aniqlashtirishga qaratilgan psixologik test sinovlarini kiritish.

Uchinchidan, o'qitilayotgan gumanitar, kasbiy fanlardagi mavjud axloqiy-estetik imkoniyatlarni aniqlash va dolzarblashtirish. Ya'ni mashg'ulotlarni qiziqarli, mazmunli o'tilishini ta'minlash. Talabalarda harbiy qismlarga tashriflar, harbiy to'garaklar, o'yinlar tashkillashtirish orqali kasbga nisbatan axloqiy-estetik qiziqishlar va ko'nikmalarni rivojlantirish.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi 458-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi". // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 10.01.2018-y. 03/18/458/0537-son.
2. O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrda "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi 436-II-son Qonuni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 19.04.2018-y. 03/18/476/1087son. 24.07.2018-y. 03/18/486/1559-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3898-son qarori. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 08.08.2018-y. 07/18/3898/1622-son.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: "O'zbekiston", 2017. 104 b.
5. Kundalik faoliyatda axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni tashkillashtirish bo'yicha qo'llanma. O'R MV. T.: Harbiy nashriyot.
6. "Harbiy tayyorgarlik o'quv markazida rezervdagi va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash: an'analari, innovatsiyalari, istiqbollari" Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalari to'plami. – T.: O'zMU Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi, 2021. – 32 b.
7. Anorboyev A.A., Uralov X.B. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar tizimida har tomonlama yetuk kadrlarni tarbiyalashning zamonaviy usullari. Maqola. "Harbiy tayyorgarlik o'quv markazida rezervdagi va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash: an'analari, innovatsiyalari, istiqbollari" Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalari to'plami. – T.: O'zMU Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi, 2021. – 49 b.
8. Uralov X.B., Sapev J.K. Zamonaviy urushlarda jangchilarning ruhiy holatiga ta'sir qiluvchi omillar. Maqola. American Journal of Science and Learning for Development 1 No 2 (2022) 2022-12-27.
9. Uralov X.B. "Ofitserni pedagogik mahorati" maqola. Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi muhandis-sayyor qo'shinlari, kimyoviy himoya va topogeodezik ta'minoti sikli katta o'qituvchisi rezervdagi podpolkovnik. TDTU "Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar" ilmiy jurnalining 2022-yil 28-noyabrda 5-soni - 67 b.
10. Uralov X.B. Mustaqil O'zbekiston sharoitida rezerv va zaxiradagi ofitserlar tayyorlash tizimining dolzarbligi. Dotsent. Zirhli qalqon ilmiy – axborot jurnali № 1 (10) 2022-mart 428 bet.
11. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri general-mayor A.Azizovning Qurolli Kuchlar Akademiyasida 2018-yil 10-avgust kuni bo'lib o'tgan ofitserlar yig'ilishidagi nutqi. <https://www.gazeta.uz/ru/2018/08/10/defence/>.



UDK: 316.6.165.19.(575.1)

Qaxramon AXMEDOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti katta o‘qituvchisi
E-mail: q.ahmedov@nuu.uz

Sotsiologiya fanlari doktori, professor T.B.Matibayev taqrizi asosida

THE MAIN DIRECTIONS AND FEATURES OF PRACTICAL SOCIAL WORK IN RUSSIA

Annotation

The article covers the idea of the social sphere in foreign countries today, precisely in Russia, the differentiation of the profession of social work. The formation and development of “Social Work” and “social pedagogy” in Russia took many years. Even in pre-revolutionary Russia, it has become a tradition to show help, charity and compassion. During the Soviet period, a lot of experience was accumulated in the conduct of educational, mass cultural and educational work among the population. However, in the course of certain events, the tradition of social assistance was lost. Therefore, unlike countries with historical traditions of Social Work, Russia was forced to practically recreate the modern national system of social work. The formation of social work in Russia as a sphere of professional activity is carried out simultaneously with the scientific and practical development of the main methodological, conceptual rules.

Key words: Russia, Social Work, Social Pedagogy, elderly, therapy, social assistance, social support, Social Work technologies, rehabilitation, psychotherapy.

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ И ОСОБЕННОСТИ ПРАКТИЧЕСКОЙ СОЦИАЛЬНОЙ РАБОТЫ В РОССИИ

Аннотация

В статье освещается социальная сфера в зарубежных странах сегодня развитие профессии социальной работы именно в России. Становление и развитие “социальной работы” и “социальной педагогики” в России длилось долгие годы. Еще в дореволюционной России было традицией оказывать помощь, милосердие и милосердие. В советское время накоплен большой опыт проведения просветительской, массово-культурно-просветительской работы среди населения. Однако традиция социальной помощи в процессе тех или иных событий была утрачена. Поэтому, в отличие от стран с историческими традициями социальной работы, России пришлось практически воссоздать современную национальную систему социальной работы. Становление социальной работы как сферы профессиональной деятельности в России происходит одновременно с научно-практической разработкой основных методологических, концептуальных положений.

Ключевые слова: Россия, социальная работа, социальная педагогика, уход за престарелыми, терапия, социальная помощь, социальная поддержка, технологии социальной работы, реабилитация, психотерапия.

ROSSIYADA AMALIY IJTIMOYIY ISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA XUSUSIYATLARI

Аннотация

Maqolada bugungi kunda xorij mamlakatlarda ijtimoiy soha aynan Rossiyada ijtimoiy ish kasbini rivijlanishi yoritilgan. Rossiyada “ijtimoiy ish” va “ijtimoiy pedagogika” shakllanishi va rivojlanishi ko‘p yillar davom etdi. Hatto inqilobdan oldingi Rossiyada ham yordam, xayriya va rahm-shafqat ko‘rsatish an‘anaga aylangan. Sovet davrida aholi o‘rtasida ma‘rifiy, ommaviy madaniy-ma‘rifiy ishlar olib borishda katta tajriba to‘plandi. Biroq, ma‘lum voqealar jarayonida ijtimoiy yordam berish an‘anasi yo‘qoldi. Shu sababli, ijtimoiy ishning tarixiy an‘analariga ega mamlakatlardan farqli o‘laroq, Rossiya zamonaviy milliy ijtimoiy ish tizimini amalda qayta yaratishga majbur bo‘ldi. Rossiyada ijtimoiy ishning professional faoliyat sohasi sifatida shakllanishi asosiy metodologik, kontseptual qoidalarning ilmiy va amaliy rivojlanishi bilan bir vaqtda amalga oshiriladi.

Kalit so‘zlar: Rossiya, ijtimoiy ish, ijtimoiy pedagogika, keksalar, terapiya, ijtimoiy yordam, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy ish texnologiyalari, reabilitatsiya, psixoterapiya.

Kirish. Rossiyadagi ijtimoiy ishning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri "ijtimoiy ish" va "ijtimoiy pedagogika" kabi ijtimoiy tushunchalar, jarayonlar va hodisalarning yaqin birligidadir. Tarixan, Rossiyada ijtimoiy ish nafaqat muhojirlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijtimoiy yordam ko‘rsatish, balki ijtimoiy, psixologik, iqtisodiy va huquqiy sharoitda shaxsning rivojlanishi va shakllanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan faoliyatdir.

Rossiyada ijtimoiy ishning jadal rivojlanishi ilmiy jamoatchilik vakillari uchun tubdan yangi tadqiqot sohasini yaratdi. Darhaqiqat, bu ijtimoiy hodisaning amal qilishining barcha asoslari va tomonlarini o‘rganish talab qilindi. Davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirish uchun texnologiyaning maxsus turi sifatida ijtimoiy ish metodologiyasi muammosi alohida ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda Rossiyada ijtimoiy ish tizimi davlat (statsionar va statsionar bo‘lmagan), jamoat va tijorat tuzilmalarining kombinatsiyasi bilan ifodalanadi. Ularning barchasi, 2013 yil 28 dekabrda 442-FZ-sonli "Rossiya Federatsiyasida fuqarolarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish asoslari to‘g‘risida" gi Federal qonuniga muvofiq, aholiga ijtimoiy xizmatlarning aniq yoki potentsial provayderlari bo‘lib, ulardan birini amalga oshiradilar. Ijtimoiy ishning funktsiyalari - eng muhojir fuqarolarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash funktsiyasi. Shunga qaramay, bu tizim va uning ishlashi Rossiya jamiyatining jamoat xavfsizligini ta‘minlash shartlaridan biridir. U qiyin hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan fuqarolarni himoya qiladi, ularga moslashishga, qayta ijtimoiylashishga va ular uchun yangi jamiyatga qo‘shilishga yordam beradi [1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ijtimoiy ishning mustaqil ilmiy soha sifatida rivojlanishi va shakllanishi xususiyatlarini S. A. Belicheva, S. I. Grigoryev, L. G. Guslyakova, I. A. Zimnyaya E. Sh.Kamaldinova, V.V.Kolkov, I.M.Lavrenko, A.V.Martinenko, V.A.Nikitin, A.M.Panov, P.D.Pavlenok, V.A.Slastenin, L.V.Topchiy, A.B.Tugarov, M.V.Firsov, E.I.V.Yu.Xolost, E.I.V.Yu. va boshqalar o'rganmoqda.

Psixoijtimoiy ishning ilmiy-uslubiy jihatları T. D. Vasilenko, V. B. Nikitina, L. V. Safronova asarlarida keltirilgan.

Ijtimoiy ishning antropologik, uslubiy, teleologik va aksiologik falsafiy asoslarini o'rganish uchun uslubiy ahamiyati V. V. Balaxonskiy, V. V. Grechany, O. P. Eliseev, E. V. Ilyenkova, A. A. Korolkov, M. L. Lezgina, I. S. Narskiy, T. I. Oizerman, I. B. Romanenko, V. I. Strelchenko va boshqalar asarlaridir.

P.Pavlenok, L.Topchiy, E.Yarskaya-Smirnovalar zamonaviy jamiyatdagi axloq va axloq, bag'rikenglik va ksenofobiya muammolarini o'rganmoqda.

V. N. Averkin, P. A. Apakaev, N. F. Basov, Yu. A. Blinkov, S. A. Belicheva, V. G. Bocharova, N. Sh. Valeeva, T. A. Dubrovskaya, N. V. Garashkina, S. I. Grigoryev, V. I. Jukov, R. N. Kulichenko, R. N. M. Platonova, V. V. Skovorodnikov, L. I. Starovoitova, V. A. Fokin, N. B. Shmeleva va boshqalar ijtimoiy ish sohasidagi mutaxassislarni kasbiy tayyorlash muammolarining nazariy, uslubiy va amaliy jihatlarini asosan ishlash chiqdilar [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy rus jamiyatida ijtimoiy ishning yigirma yillik mavjudligi Rossiyaning global ijtimoiy makonga faol kirishiga to'g'ri keladi. Hozirgi vaqtda Rossiya uchta yo'nalishning birligida faol institutsionalizatsiya qilinmoqda: ijtimoiy amaliyot, innovatsion nazariya va o'quv fanlari majmuasi sifatida.

Zamonaviy sharoitda mulkchilikning barcha shakllaridagi stasionar va stasionar bo'lmagan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash muassasalari tizimi har uchinchi rus (keksalar, nogironlar, ishsizlar va boshqalar) uchun xavfsizlik omiliga aylandi. Ularga bir qator ijtimoiy xizmatlar ko'rsatadi (maslahatlashuvdan tortib, moliyaviy yordamgacha), vaziyatga mos ravishda manzilli yordam ko'rsatadi, ularning munosib hayotga bo'lgan huquqlarini amalga oshirishga yordam beradi.

Ushbu tizimning vazifasi bugungi kunda ko'plab muammolar va hal qilinmagan muammolarga ega, u mintaqaviy va mahalliy o'ziga xos xususiyatlarga ega. Rossiya jamiyatida jamoat xavfsizligining sharti va omili sifatida ijtimoiy ishning rivojlanishi institutsional nazariya nuqtai nazaridan o'rganilishi mumkin. Ijtimoiy ishni o'rganish uchun metodologik asos sifatida institutsional nazariyadan foydalanish ijtimoiy amaliyotni, uning tuzilmalarining institutlar sifatida shakllanishini, ularning munosabatlari va rivojlanish muammolarini to'liq tahlil qilish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Ijtimoiy ishning zamonaviy bosqichi ob'ektiv ravishda ham an'anaviy, ham innovatsion ijtimoiy texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Innovatsion ijtimoiy texnologiyalar - bu faoliyatni o'rganish, yangilash va optimallashtirishga qaratilgan protsessual tuzilgan uslublar va usullar majmui, buning natijasida innovatsiyalar (innovatsiyalar) yaratiladi, amalga oshiriladi va amalga oshiriladi, inson hayoti, jamiyat va jamiyat sharoitlarida sifat o'zgarishlarini keltirib chiqaradi. [3].

Art-terapiya oilaviy vaziyat bilan bog'liq bo'lgan tajribalarni tushunishga yordam beradi, tashvish, dam olishni kamaytiradi. Vosita sifatida musiqa, modellashtirish, rasm chizish, o'qish ishlatiladi.

Tanaga yo'naltirilgan terapiya ong, ruh va tana munosabatlarini uyg'unlashtirishga imkon beradi. Qo'llab-quvvatlash, bo'shshish, tana mushaklarini boshqarish qobiliyatlariga alohida e'tibor beriladi. Tanaga yo'naltirilgan terapiya texnikasi bilan tanishish o'z-o'zini bilishga, sherikni bilishga yordam beradi, bu esa turmush o'roqlarni tushunish va qo'llab-quvvatlashga olib keladi. Tanaga yo'naltirilgan terapiya yordamida bolaga jismoniy yordam ko'rsatish ko'nikmalari shakllanadi [4].

Bolalarga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish" ko'rgazmasi voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish samaradorligini oshirishga ko'maklashish; ijtimoiy xavfli vaziyatda bo'lgan bolalarga o'z vaqtda ijtimoiy, huquqiy, psixologik, pedagogik va tibbiy yordam ko'rsatish.

Gardenoterapiya - bu o'simliklar bilan ishlashga jalb qilish orqali psixologik, mehnat va pedagogik reabilitatsiyaning alohida yo'nalishi. Faoliyat ingl. Amalda, ushbu innovatsion yo'nalish ko'pincha nogiron bolalar bilan ishlashda qo'llaniladi [5].

Gippoterapiya - bu bolalar va kattalar uchun qo'llaniladigan ijtimoiy ishning innovatsion yo'nalishi. Gippoterapiyaning mohiyati yurish otida jismoniy mashqlar majmuasini bajarishdir. Bu yo'nalish xorijiy mamlakatlarda keng qo'llaniladi [6].

Keksalar uchun faol uzoq umr ko'rish" - bu keksa odamlarning sog'lom turmush tarzini saqlash imkoniyatlarini to'g'risidagi g'oyalarni kengaytirish, ularni keksalikda faol hayotiy pozitsiyaga yo'naltirishga qaratilgan maxsus dasturlar va maktablarni yaratish. Kompleks dasturlar keksa fuqarolarga farovonlikni yaxshilash, bo'sh vaqtlarini qiziqarli o'tkazish va faol uzoq umr ko'rish uchun tana resurslaridan maksimal darajada foydalanishni o'rganish imkonini beradi. Pensionerlar uchun sport, hordiq chiqarish va rivojlantirish darslari bepul tashkil etiladi. Mashg'ulotlar tashkilotchilari hududiy ijtimoiy xizmatlar markazlari hisoblanadi [7].

Milioterapiya "atrof-muhitni davolash", "atrof-muhitni davolash" degan ma'noni anglatadi. Bu, ayniqsa, stasionar ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasasida yashovchi keksalar va nogironlar uchun juda muhimdir. Mijozning hayoti va reabilitatsiyasi uchun qulayroq bo'lgan muhitni yaratish kerak, unda davolanishning barcha usullari: tibbiy terapiya, dori-darmonlar bilan davolash, psixoterapiya va boshqa har qanday davolash usullaridan foydalanish uchun sharoitlar yaratilishi kerak. ta'sir va o'zaro ta'sir.

Ijtimoiy turizm - bu mijozlarni ularning yashash joylari, diqqatga sazovor joylari bilan tanishtirishga imkon beradigan ish yo'nalishi. Bundan tashqari, internet-texnologiyalar yordamida Rossiyaning boshqa mintaqalariga va xorijiy mamlakatlarga virtual tashrif buyurish imkonini beradi [8].

Xulosa va takliflar. Ijtimoiy ishning eng yangi yo'nalishlaridan biri terrorism qurbonlarining oilalari bilan ishlashdir. Bu, bir tomondan, terroristik harakatlar natijasida jabrlangan oilalar bilan, boshqa tomondan, qurbonlarning oilalari bilan ishlagan ijtimoiy xodimlar bilan ishlash. Fuqarolik va kasbiy burchini bajarib, ularning o'zlari azob chekadi va yordamga muhtoj bo'ladi [9].

Ortobiotika - bu salomatlikni o'z-o'zini saqlash va hayotiy optimizmni to'plash texnologiyasi. U sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish, shaxsiy salomatlikning ichki qadriyatini anglash va insonning jismoniy, axloqiy va ruhiy salomatligini oldini olish uchun mo'ljallangan.

Psixo-gimnastika psixoterapiya shakllaridan biri bo'lib, unda o'zaro ta'sir vosita ifodasi, yuz ifodalari, pantomimaga asoslangan. Mashqlar taranglikni kamaytirish va

ishtirokchilarning hissiy masofasini kamaytirishga, his-tuyg'ularini ifoda etish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Logoterapiya - bu suhbat psixoterapiyasining texnologiyasi. Mutaxassis mijoz bilan gaplashib, uning uchun hissiy holatini og'zaki bayon qiladi, ushbu texnologiya yordamida bemorning o'zi qiyin vaziyatni engadi. Uning shaxsiyatida qayta qurish sodir bo'ladi, u mustaqil ravishda o'zida konstruktiv o'zgarishlar sifatida kashf etadi.

Gil terapiyasi plastik materiallar (gil, plastilin, tuzli xamir) bilan ishlashga asoslangan samarali reabilitatsiya usuli hisoblanadi.

Fototerapiya – bu psixologik muammolarni hal qilish, shaxsiyatni rivojlantirish va uyg'unlashtirish uchun ishlatiladigan davolash va tuzatish texnologiyasi. Ushbu texnologiya tayyor fotosurat bilan ishlash va mualliflik fotosuratlarini yaratishni o'z ichiga oladi.

Qariyalar bilan ishlashda ziravorlar terapiyasi yuqori asabiy faoliyat buzilishlarining oldini olish va davolash uchun ishlatiladi. Reabilitolog L. Ryabichev trikotajni bioritmlarni buyurtma qilishning samarali usuli sifatida baholadi. Trikotaj ignalari ustida ishlaydigan qo'llarning tartibli harakatlari tufayli trikotaj jarayoni asab tizimiga xos bo'lgan ritmik faollikni normallantiradi.

Raqs terapiyasi – bu texnologiya keksalar bilan ishlashda ijobiy tana qiyofasini yaratish, muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish va sog'lom turmush tarzining oldini olish uchun qo'llaniladi. Raqs terapiyasining turlaridan biri harakat terapiyasi bo'lib, unda harakatlar shaxsiy xususiyatlarni aks ettiradi. Emotsional stress uchun ishlatiladi[10].

ADABIYOTLAR

1. N 384 фз: Федеральный закон «Технический регламент о безопасности зданий и сооружений» от 30.12.2009 N 384-ФЗ (последняя редакция) \ КонсультантПлюс
2. Лыгина, М. А. Философские основания теории социальной работы : автореферат филос. наук / М. А. Лыгина. — СПб., 2011. — URL : <http://www.dissertat.com/content/filosofskie-osnovaniya-teorii-sotsialnoi-raboty#ixzz59L1h6QcB> (дата обращения: 03.02.2018).
3. Албегова, И. Ф. Инновационные технологии в социальной работе : текст лекций / И. Ф. Албегова, Г. Л. Шаматонова, А. В. Попова. — Ярославль, 2011. — 68 с.
4. Практика современной социальной работы в России и за рубежом : опыт и проблемы : учебно-методическое пособие / А. В. Кошелева, Е. В. Дворникова ; Яросл. гос. ун-т им. П. Г. Демидова. — Ярославль : ЯрГУ, 2018. — 40 с.
5. Завялова, Т. В. Инновационные подходы в работе с детьми-инвалидами в КЦСОН / Т. В. Завялова // Работник социальной службы. — 2015. — № 4. — С. 64–70.
6. Кириченко, В. А. Инновационная реабилитационно-адаптационная программа иппотерапии «Здоровье и радость — детям» : опыт реализации в КЦСОН / В. А. Кириченко // Работник социальной службы. — 2015. — № 4. — С. 108–115.
7. Департамент труда и социальной защиты населения города Москвы. Активное долголетие. — URL : <http://www.dszn.ru/aktivnoe-dolgoletie.php> (дата обращения: 15.02.2018).
8. О новых направлениях работы с пожилыми людьми и инвалидами в КЦСОН // Работник социальной службы. — 2015. — № 10. — С. 26–31.
9. Инновационные направления в социальной работе. — URL : http://life-prog.ru/2_94679_innovatsionnie-napravleniya-vsotsialnoy-rabote.html (дата обращения: 10.03.2018).
10. Социальная терапия: инновационные формы, виды и методы. — URL : <https://myslide.ru/presentation/skachat-socialnayaterapiya-innovatsionnye-formy--vidy-i-metody> (дата обращения: 10.03.2018).



Feruz BAFOYEV,
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti dotsenti, siyosiy fanlari nomzodi
E-mail: feruzbafo@gmail.com

Buxoro davlat universiteti dotsenti, s.f.n A.Boltayev taqrizi asosida

JAHON SIYOSATIDA SUN'IY INTELLEKT

Аннотация

Maqolada o'zgaruvchan va beqaror zamonaviy jahon siyosati va xalqaro munosabatlarda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanilishi, afzalliklari va nuqsonlari muhokama qilinadi. Sun'iy intellekt texnologiyalari amaliy ko'magida jahon siyosati va geosiyosat muammolarini hal etishda qo'llanilishi tahlil qilinib, uning istiqboli, yuzaga keladigan huquqiy va axloqiy muammolar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Jahon siyosati, sun'iy intellekt, xalqaro munosabatlar, geosiyosat, kiberxavfsizlik.

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В МИРОВОЙ ПОЛИТИКЕ

Аннотация

В статье рассматриваются применение, преимущества и недостатки технологий искусственного интеллекта в меняющейся и нестабильной современной мировой политике и международных отношениях. Анализируется использование технологий искусственного интеллекта в решении проблем мировой политики и геополитики, изучаются его перспективность, возникающие правовые и этические проблемы.

Ключевые слова: Мировая политика, искусственный интеллект, международные отношения, геополитика, кибербезопасность.

ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN WORLD POLITICS

Annotation

The article examines the application, advantages and disadvantages of artificial intelligence technologies in the changing and unstable modern world politics and international relations. The use of artificial intelligence technologies in solving problems of world politics and geopolitics is analyzed, its prospects, and emerging legal and ethical problems are studied.

Key words: World politics, artificial intelligence, international relations, geopolitics, cyber security.

Kirish. Ma'lumki, yuqori axborot texnologiyalari hayotimizning turli sohalarida tobora muhim rol o'ynamoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt (inglizcha artificial intelligence) – bu zamonaviy dunyoni o'zgartirayotgan texnologiya sanalib, jahon tartibining o'zgarishiga, insonlar dunyoqarashi va hayot tarzini qayta baholashga undaydigan voqealikka zamin yaratmoqda. Katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, qarorlar qabul qilish va voqealarni bashorat qilish qobiliyati bilan geosiyosat va xalqaro munosabatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Sun'iy intellekt atamasi (artificial intelligence) 1956-yilda Stenford universiteti (AQSh) tomonidan taklif qilingan[1]. O'tgan asrning 80-90 yillarida bu sohani istiqbolsiz sifatida qiziqish susayishi kuzatildi. Biroq, 2000 yillardan boshlab sohani rivojlanishda inqilobiy sakrash bo'lib, katta miqdorda sarmoyalar kiritila boshlandi. Natijada, insonlar hayotiga yangiliklar va yengillar bilan sun'iy intellekt xo'jalik faoliyatining barcha jabhalarida qo'llanila boshlandiki, uning taraqqiyotining istiqboli hamda ko'lamini yorqinroq namoyon eta boshladi.

Intellekt – bu maqsadga erishishda zarur bo'ladigan omillar va usullar to'plamidan iborat. Maqsadga erishish – bu omillarga zaruriy qoidalarni qo'llashdan iborat. Sun'iy intellekt (SI) – bu dasturiy muhitning shunday tizimiki, unda inson tafakkuri kompyuter jarayoniga imitatsiyalangan. Sun'iy intellekt(SI) esa - bu aqli kompyuter tizimlarini rivojlantirish bilan shug'ullanadigan informatika sohasi, ya'ni biz an'anaviy ravishda inson ongi bilan bog'laydigan imkoniyatlarga ega tizimlar - tilni tushunish, o'rganish, fikrlash, muammolarni hal qilish va boshqalar.

Sun'iy intellekt jahon tartibi va geosiyosatga ta'sir qilishning asosiy usullaridan biri bu kiberxavfsizlik sohasida foydalanishdir. Sining katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish va tahdidlarni aniqlash qobiliyati davlatlarga o'z axborot tizimlarini samarali himoya qilish va kiberhujumlarning oldini olish imkonini beradi. Biroq, shu bilan birga, sun'iy intellektidan kiberhujumlarning yangi turlarini yaratish uchun ham foydalanish mumkin, bu esa kiberxavfsizlik sohasidagi tahdidlar darajasini oshiradi.

Jahon siyosati - bu davlatlar, xalqaro tashkilotlar, nodavlat tashkilotlar, korporatsiyalar, ijtimoiy harakatlar va shaxslar kabi xalqaro maydondagi turli ishtirokchilar o'rtasidagi jarayonlar va munosabatlar majmui hisoblanadi, shu bilan birga dunyo tartibining mohiyatini belgilaydi, jahon darajadagi aktorlarning xatti-harakatlarini boshqaradigan qoidalar, normalar va qadriyatlar tizimidir.

Asosiy qism. Xalqaro munosabatlar nazariyasi nuqtai nazaridan sun'iy intellektni tadqiq qilishda turli bahsli va munozarali muammolar ko'zga tashlanadi. Neorealizm maktabi talqiniga ko'ra, sun'iy intellekt jahon tartibida kuchlar muvozanatini o'zgartiruvchi omil sanaladi[2]. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar urushi, ma'lumotlar zahirasi uchun kurash, axborot xavfsizligi, "aqli" urush vositalarini yaratish kabilar dunyo xavfsizligiga tahdidi sifatida ko'riladi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt mamlakatlar iqtisodiyoti va savdosiga ta'sir qilishi mumkin. Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va sun'iy intellektga asoslangan robototexnika rivojlanishi mehnat bozorlari tarkibining o'zgarishiga va davlatlar o'rtasida iqtisodiy hokimiyatning qayta taqsimlanishiga olib kelishi mumkin.

Sun'iy intellektning jahon siyosatidagi roli va ta'sirini o'rganish katta ahamiyatga ega bo'lib, sun'iy intellekt jahon kuch markazlari o'rtasidagi raqobatni kuchaytiradigan (AQSh va XRR o'rtasidagi yuqori texnologiya bozoridagi ochiq yoki xufiyona kurash)[3], urush va tinchlik "qiyofasini"[4], manfaatlar va maqsadlar muvozanatini o'zgartiradigan, shuningdek, xalqaro xavfsizlik, hamkorlik va rivojlanish uchun yangi muammolar va tahdidlarni keltirib chiqaradigan omilga aylanishi mumkin. Ayrim mamlakatlar yetakchilik uchun katta mablag'larni sarflamoqdalar.

Ma'lumki, sun'iy intellekt yaqin insoniyat tarixida jahon siyosatga ta'sir ko'rsatib kelgan, garchi bugungi voqelik kabi bo'lmasada, SI turli maqsadlarda ishlatilgan, masalan, ma'lumot to'plash va tahlil qilish, qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash, harbiy strategiya va texnologiyalarni ishlab chiqish (Distant Early Warning - havo nishonlarini aniqlash va ushlab turish tizimi), kosmik va yadroviy dastur (AQShning Strategik mudofaa tashabbusi dasturi (SDI - Strategic Defense Initiative)larni boshqarish, NATO tashqi ishlar vazirlari Shimoliy Atlantika (DIANA) Xartiyasining Mudofaa innovatsion tezlantgichi[5]. va boshqalar. Shuningdek, sun'iy intellekt harbiy texnika sohasidagi imkoniyatlari orqali geosiyosatga ham ta'sir qiladi. SIga asoslangan avtonom qurol tizimlarining rivojlanishi yangi harbiy strategiyalarning paydo bo'lishiga va mamlakatlar o'rtasidagi kuchlar muvozanatining o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Bunday tizimlar inson aralashuvizis operatsiyalarni bajarish uchun ishlatilishi mumkin, bu yesa ularni qo'llashning axloqiy va axloqiy tomoni haqida savollar tug'diradi. Sun'iy intellektning geosiyosatga ta'sirining barcha jihatlarini davlatlar tomonidan ehtiyotkorlik va mulohazali yondashuvni talab qiladi. Xalqaro munosabatlarda sun'iy intellektni rivojlantirish va ulardan foydalanishni boshqarish va nazorat qilish uchun tegishli siyosiy va huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish, mavjudini takomillashtirishni talab etmoqda.

Sun'iy intellekt(SI) dunyo yetakchilari, siyosatchilar va "aql markazlari"(think tanks)ga katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilishda, turli ssenariylarni modellash-tirishda, harakatlarning maqbul variantlarini aniqlashda, xavf va oqibatlarini baholashda va manfaatdor tomonlardan fikr-mulohazalarni olishda yordam berishi hech kimda sir emas. Misol uchun 2020 yildagi insoniyatning taraqqiyot tizimini to'la sinovdan o'tkazgan global COVID-19 pandemiyasi ko'plab mamlakatlar epidemiologik ma'lumotlarni tahlil qilish va COVID-19 pandemiyasiga qarshi kurashish bo'yicha tavsiyalar berish uchun sun'iy intellektdan foydalandi. BMT sun'iy intellektdan mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha infeksiyalar, o'limlar va tiklanish to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish, shuningdek pandemiya dinamikasini, tibbiy resurslarga bo'lgan ehtiyojni va iqtisodiyot va jamiyatga ta'sirini bashorat qilish uchun foydalangan, kasallikni jilovlashda, dinamik tarzda bashorat qilishda asqotgani diqqatga sazovor.

Ayniqsa, hozirgi zamon jahon siyosatida sun'iy intellektning diplomatiya va xalqaro munosabatlardagi o'rni va roli yaqqol ko'zga tashlanishi natijasida, xalqaro munosabatlarning barcha sub'ektlari o'rtasida muzokaralar olib borish, muloqot qilish, hamkorlik qilish, nizolarni hal qilish, inqirozlarning oldini olish, shaffoflik va ishonchni oshirishga yordam bermoqda. Masalan: 2017 yilda Xitoy BRICS sammitida rahbarlarning nutqlarini tarjima qilish uchun sun'iy intellektdan foydalangan. Xitoyning kompaniyasi sammit ishtirokchilari uchun 11 tilda sinxron tarjima texnologiyasini taqdim yetdi.

Shuni e'tirof etish lozimki, zamonaviy jahon siyosatida sun'iy intellektdan harbiy strategiya va xavfsizlikda foydalanish keng quloq yoydiki, geosiyosiy muvozanat va kuch tuzilmasida o'zgarishlarga olib keldi. mamlakatlar va

mintaqalar o'rtasidagi kuchlar muvozanatini, shuningdek, xalqaro hamkorlik va raqobat muhitini o'zgarishiga asos bo'lmoqda.

Tashvishli tomoni shundaki, jahondagi barcha "issiq nuqtalar"da SI harbiy va razvedka idoralariga razvedka ma'lumotlarini to'plash va tahlil qilish, qurol va mudofaa tizimlarini boshqarish, kiberoperatsiyalarni o'tkazish, tahdidlarning oldini olish va ularga qarshi kurashishda zarbdor kuchga aylanmoqda. Birgina avtonom uchuvchisiz havo vositalarini misol keltirish kifoya.

Dunyoning yetakchi davlatlari SI texnologiyalaridan zamonaviy dunyo tartibini, ta'sir qutblar o'zgarishiga olib keluvchi gibrud urushning yangi usullari sifatida sinab ko'rmoqda, oqibatda "kognitiv urush", boshqacha aytganda, "miya XXI asr jang maydoni[6]." sifatida namoyon bo'lmoqda. Vaholanki, axborot-psixologik qurollar dushman irodasini, kognitiv qurollar - uning ongida, aqliy qurollar - dunyoqarashini yengishga qaratilgan.

Sun'iy intellekt iqlim o'zgarishi, savodsizlik, qashshoqlik, tengsizlik, migratsiya, jinoyatchilik, terrorizm va boshqalar kabi global muammolarni hal qilishda foydalanilsa, jahon taraqqiyotning drayveriga aylanishi bilan birga, jahon tartibining chuqur ijtimoiy-ma'naviy inqirozi sharoitida demokratiya va fuqarolar ishtirokining yangi shakllarini yaratishga, davlat boshqaruvi samaradorligi va ochiqligini oshirishga, madaniyatlararo muloqot va nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishga yordam berishi haqida xalqaro ekspertlar fikr yuritishadi[7].

Achinarli tomoni, sun'iy intellekt (SI) juda katta salohiyatga ega bo'lib, uni jahon tartibida kaosni yuzaga keltirish va jamiyatlarda ijtimoiy larzaga sabab bo'ladigan maqsadlarda foydalanilsa, u xavf va ogohlantirishlar manbai bo'lishi mumkin. Davlat yetakchilarning obro'sizlash-tirish(deepfakes), manipulyatsiya, diskriminatsiya, inson va xalqaro huquqning buzilishi, ommaviy kuzatuv, shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish, maxfiylik va xatti-harakatlarga tajovuz kabi maqsadlarda foydalanilsa axloqiy savollarni tug'dirishi mumkin. Xalqaro munosabatlarda yangi axloqiy va huquqiy muammolarga olib kelishi birga, davlatlar o'rtasida sun'iy intellektni ishlab chiqish va undan foydalanishni tartibga solish bo'yicha yangi normalar va kelishuvlarni ishlab chiqish zaruratini maydonga keltirmoqda.

Xulosa. Sun'iy intellekt mahalliy darajadan xalqaro darajagacha bo'lgan barcha darajadagi siyosatga tobora ko'proq ta'sir ko'rsatmoqda, shu bilan birga ijtimoiy siyosiy muammolarni hal qilishda ham foydali vosita, ham siyosiy barqarorlik uchun xavfli omil bo'lishi mumkin. Inson huquqlari, demokratiya va xalqaro huquq sohalarida taraqqiyotga ham, regressiyaga ham xizmat qilishi mumkin.

Jahonda sun'iy intellekt sohasini tartibga solishda qator kamchiliklar mavjud. Jumladan, sun'iy intellektga oid xalqaro va mahalliy qonunchilik bazasi sust holatda bo'lib, ular sun'iy intellekt bilan bog'liq alohida munosabatlarni tartibga solmoqda va xalqaro maydonda sohadagi munosabatlarni to'liq qamrab olish imkoniyatini bermayapti.

Dunyoning aksariyat davlatlarida sun'iy intellekt shiddat bilan rivojlanib borib, unga talab ortayotganiga qaramasdan, sohadagi yagona davlat siyosati, maxsus vakolatli davlat organ faoliyati, sun'iy intellekt texnologiyalariga nisbatan davlat standartlari va ularni qo'llash mumkin bo'lgan sohalar yagona qonun hujjati doirasida tartibga solinmagan. Xalqaro va milliy huquqda sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash natijasida yuzaga kelgan huquqbuzarlik holatlari uchun javobgarlik holati belgilanmagan. Natijada, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda qanday holatlar huquqbuzarlik hisoblanishi, huquqbuzarlik holatlari sodir etilganda, asl huquqbuzarni aniqlash va uni javobgarlikka tortish imkonini bermaydi.

Shuningdek, axloqiy tamoyil va me'yorlar ishlab chiqilishi, unda qaysi tamoyillar ustunlik qilishining belgilanishi doimiy kun tartibida turibdi.

Shuning uchun sun'iy intellektni umumiy manfaat-larga xizmat qiladigan, axloqiy tamoyillar va me'yorlarni hurmat qiladigan, barcha manfaatdor tomon-larning

manfaatlari va ehtiyojlarini hisobga oladigan tarzda ishlab chiqish va undan foydalanish zarur. Buning uchun sun'iy intellekt bilan bog'liq masalalar bo'yicha xalqaro muloqot va hamkorlikni kuchaytirish, shuningdek, uning rivojlanishi va ishlatilishini tartibga solish va muvofiqlashtirishning samarali mexanizmlarini yaratish zarur.

ADABIYOTLAR

1. Гринченко С. Н. Генезис искусственного интеллекта в системе Человечества: кибернетическое представление / С. Н. Гринченко. — DOI 10.25559/ SITTO.16.202003.643-652 // Современные информационные технологии и ИТ-образование. — 2020. — Т. 16, № 3. — С. 643-652.
2. Höne K.E. Mediation and Artificial Intelligence: Notes on the Future of International Conflict Resolution. Geneva: Diplofoundation, 2019. 24 p.
3. Ларина Е., Овчинский В. Искусственный интеллект на войне Совет по внешней и оборонной политике. Новости 13.05.2023.<https://svop.ru/main/46913/>
4. NATO: Summary of the NATO Artificial Intelligence Strategy, 22.10.2021. https://www.nato.int/cps/en/natohq/official_texts_187617.htm
5. <https://diana.nato.int/about-diana.html>
6. The Grayzone. Ben Norton·Behind NATO's 'cognitive warfare': 'Battle for your brain' waged by Western militaries 08.10.2021.<https://thegrayzone.com/2021/10/08/nato-cognitive-warfare-brain/>
7. <https://www.securitylab.ru/analytics/544751.php>



UDK:316.334.3(575.1)

Baxrom BAXODIROV,
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: baxrom13.baxodirov@gmail.com

Ped.f.n., dots. F.Zaripov taqrizi asosida

ANALYSIS OF THE CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF THE CONCEPT OF SOCIAL POLICY

Annotation

The article talks about the important conceptual aspects, bases and approaches of social policy, it contains definitions of social policy and its content and essence by a number of scientists. In addition, the author also put forward his personal views in the article and tried to reveal the definition of social policy more broadly.

Key words: Social, total, conceptual, capitalist, industrial revolution, Poor Law, "modern welfare states", disabled people, concept, Thandika Mkandawire and the subject.

АНАЛИЗ КОНЦЕПТУАЛЬНЫХ ОСНОВ КОНЦЕПЦИИ СОЦИАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ

Аннотация

В статье освещаются важные концептуальные аспекты, основы и подходы социальной политики, приводится определение социальной политики, ее содержания и сущности рядом ученых. Кроме того, автор в статье изложил и свои личные взгляды и попытался шире раскрыть определение социальной политики.

Ключевые слова: Социальная, тотальная, концептуальная, капиталистическая, промышленная революция, Закон о бедных, «современные государства всеобщего благосостояния», люди с ограниченными возможностями, концепция, Thandika Mkandawire и субъект.

IJTIMOYIY SIYOSAT TUSHUNCHASINING KONTSEPTUAL ASOSLARINING TAHLILI

Аннотация

Maqolada ijtimoiy siyosatning muhim kontseptual jihatlarini, asoslari va yondashuvlari borasida so‘z borgan bo‘lib, unda qator olimlar tomonidan ijtimoiy siyosatga mazmun va mohiyatlari aks etgan ta‘riflari mavjud. Undan tashqari maqolada muallif tomonidan ham o‘z shaxsiy qarashlarini ham ilgari surib, ijtimoiy siyosat ta‘rifini yanada kengroq ochib berishga uringan.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy, jam, kontseptual, kapitalistik, sanoat inqilobi, “Kambag‘allar to‘g‘risida”gi qonun, “zamonaviy farovon davlatlar”, nogironligi bo‘lgan shaxslar, kontseptsiya, Thandika Mkandawire va sub’ekt.

Kirish. Ma‘lumki, har qanday rivojlangan mamlakatlarning yuksak darajadagi rivojlanishi uning tarixiy va madaniy aspektlariga bevosita bog‘liq bo‘lib, shu o‘rinda, ushbu tushunchaning ham modernizatsiyaluvining asosida qator olimlarning qo‘shgan hissasi muhim omil hisoblanadi. Albatta, mazkur tushunchaning kontseptual tahlili o‘zining optimal ko‘rinishini xosil qilgunga qadar qator bosqich va davrlarni bosib o‘tgan. Maqolada kontseptual tahlillariga hissa qo‘shgan olimlar yondashuvlarini klassifikatsiyalashda ularning davlatlari kesimida ajratilib ko‘rsatildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Davlatning ijtimoiy siyosatini shakllantirish zarurati shundan kelib chiqadiki, bozor mexanizmining ishlashi ham barcha fuqarolar uchun zarur bo‘lgan minimal farovonlik darajasini kafolatlamaydi. Bir qator mamlakatlarda ijtimoiy keskinlikning kuchayishi bilan kechgan o‘tgan asrning 30-yillaridagi global inqiroz davlatning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi zarurligini isbotladi. Ijtimoiy siyosat fenomeni rivojlanish tarixiga to‘xtaladigan bo‘lsak, mazkur tushunchani shakllantirish bo‘yicha muayyan amaliy harakatlar XVIII asrning oxirida, Yevropa davlatlarida jamoat xayriyalarining davlat ma‘muriy tizimi shakllanayotgan paytda boshlandi. Bu tizim yordamning kontseptual va institutsional tizim hamda qonunchilik bazasini shakllanishi, hududiy tuzilmalarni o‘z ichiga oluvchi ma‘muriy boshqaruv, davlat tomonidan ijtimoiy yordamni qisman moliyalashtirilishi bilan tavsiflanadi [1]. Bu borada V.Zombart o‘sha davr ijtimoiy muammolarini tahlil qilar ekan, jamiyatni turli xil guruhlariga ajratadi va shuning ortidan ijtimoiy siyosat kontseptsiyasini yaratish zarurati tug‘ilishi”ni

ta‘kidlagan [2]. Ushbu tushunchani o‘rganishning kontseptual asoslari XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab olimlar tomonidan ishlab chiqila boshlandi. Ijtimoiy siyosatning fundamental asoslarini tushunishga, uning xususiyatlarini ochib berishga boshqa olimlar qatori nemis tadqiqotchilari ham katta hissa qo‘shdilar. “Ijtimoiy siyosat”ning umumiy tushunchasi 1850-yillarning o‘rtalarida qo‘llanila boshlandi. Bu davr jamiyatda liberal g‘oyalarning tarqalishi bilan ajralib turdi. Liberalizm xususiy korxonalarining o‘z mahsulotlarini ishlab chiqarish erkinligini ta‘minlashga e‘tibor qaratildi, bu esa o‘z navbatida ustalar va ishchilar o‘rtasidagi munosabatlarni ham qamrab oldi. Biroq, bu liberalizmning inson huquqlari va shaxs qadr-qimmatiga oid asosiy tamoyillariga zid edi. Biroq vaqt o‘tgach ya‘ni, 1883 yilda Angliyada Fabian jamiyati tashkil etildi. Bir yil o‘tgach, Fabianliklar tomonidan birinchi ijtimoiy institutga asos solindi. XVIII-XIX asrlarda G‘arb mamlakatlarida asosan aholini mehnat qilishini tartibga soluvchi ijtimoiy-siyosiy islohotlarga ehtiyoj sezdi. 1873 yilda Germaniyada “Ijtimoiy siyosat ittifoqi” tashkil etilib (Verein für Sozialpolitik), uning a‘zolari ijtimoiy muammolarning keskinligi va liberal fikrlarning tarqalishi ularni huquq va iqtisodiyotda amalga oshirishni qat‘iy talab qilishiga amin edilar: “Liberalizmning haddan tashqari ko‘pligi biz uchun barcha huquqlarni davlat tomonidan bajarilishi, shu jumladan jamiyatning iqtisodiy hayoti bilan bog‘liq fuqarolarni himoya qilish majburiyatlarini ham yuklaydi” [3]. Bandlik va mehnatga taalluqli masalalar bevosita ijtimoiy siyosatning muhim elementlari hisoblanadi. Xususan 1890 yilda Germaniyada imperator Vilgelm II

boshqa davlat rahbarlariga mehnatni muhofaza qilish bo'yicha anjuman chaqirish taklifi bilan murojaat qildi. Ushbu konferentsiya 1890 yil mart oyida (Berlinda) Germaniya, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Italiya, Belgiya, Niderlandiya, Avstriya-Vengriya, Shveysariya, Ispaniya va Portugaliya ishtirokida bo'lib o'tdi. Anjumanda 12 yoshgacha, janubiy mamlakatlarda esa 10 yoshgacha bo'lgan bolalar mehnatini taqiqlash, 14 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun 6 soatlik ish kuni va 14-16 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun 10 soatlik ish kunini belgilash maqsadga muvofiqligi nazarda tutilgan. Yuqoridagi anjuman yig'ilishining diqqatga sazovor jihati shundaki, ishlab chiqarish jarayoniga bolalarni jalb qilish kamida boshlang'ich ta'lim olishi zarurligi qat'iy ta'kidlandi. Shuningdek, ayollar uchun 11 soatdan ortiq bo'lmagan ish kunini joriy etilishi, ularga tug'ruqdan keyingi bir oylik ta'tilni berilishi bilan birgalikda ayollar va bolalarning yakshanba kunida hamda tungi smenalarda ishlashiga taqiq qo'yish tavsiya etildi. Voyaga yetgan erkaklarga yakshanba dam olish kuni deb belgilandi. Mehnat muhofazasi borasida nazoratni ish beruvchi va ishchilardan holis bo'lgan shaxslar amalga oshirishi zarur degan xulosaga kelindi. Bu yerda so'z mehnat faoliyati bilan bog'liq jarayonni tartibga solishda jamoatchilik nazorati orqali amalga oshirilishi to'g'risida bormoqda.

Shu o'rinda, Germaniyada rivojlangan ijtimoiy siyosat kontseptsiyalari Frantsiyada davom etdi. O'n yil o'tgach, 1900 yilda Parijda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha Xalqaro Ittifoq (XI) tuzildi, u mehnat qonunchiligi bo'yicha yagona tavsiyalarni ishlab chiqish uchun bir qator xalqaro kongresslarni o'tkazdi. Birinchi jahon urushi tugagandan so'ng, 1919-yilda Millatlar Ligasi tarkibida Xalqaro Mehnat Tashkiloti paydo bo'ldi. Keyingi o'n yilliklar ichida ijtimoiy siyosat muammolari ijtimoiy davlat haqidagi g'oyalar bilan birgalikda ko'rib chiqilgan. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi jamiyatning yanada kuchli ijtimoiy integratsiyalashuvini taqozo etdi, bunga faqat davlatning barcha fuqarolarni birdamlik asosida birlashtirishga qaratilgan faoliyati orqali erishish mumkin edi [4]. Shu bilan birga, davlat - jamiyat - shaxs o'rtasidagi munosabatlarda davlat maqsadlari va insoniyat jamiyatining axloqiy-etik tamoyillari mos kelishi bilan bog'liq ma'lum o'zgarishlar yuz berdi. O'sha davrning inqilobiy tamoyillaridan hisoblangan umumiy manfaatning ustunligi va shaxsiy manfaatlarning jamiyat manfaatlariga bo'ysundirilishi bo'lib, davlatga jamoat maqsadlarini ta'minlash rolini yuklagan utopik sotsialistlardan farqli o'laroq, 1850 yilda paydo bo'lgan ijtimoiy davlat g'oyasi (L. Shtayn) Aristotel davridan beri mavjud bo'lgan, davlatlarning to'g'ri (umumiy farovonlikka erishiladi) va noto'g'ri (shaxsiy maqsadlarga erishiladi) bo'linishi haqidagi qarama-qarshilikni boshidanoq yo'q qiladi. Ijtimoiy davlatda birinchi marta shaxsiy va ijtimoiy maqsadlarning mos kelishi kuzatilib, bunda nafaqat maqsadlar mos kelishi, balki davlat tomonidan shaxsning maqsadlarini o'zini sifatida qabul qilinishi kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, zamonaviy ilmfanda ijtimoiy siyosatni ta'rifiga nisbatan bir qancha yondashuvlar ham mavjud bo'lib, ularni bir necha guruhlariga bo'lish tavsiya etilgan. Birinchi (keng tarqalgan) guruh kontseptsiyalari ijtimoiy va jamoatchilikni aniqlashdan kelib chiqadi, bunda ijtimoiy siyosat butun jamiyatga taalluqli muammolarni hal qilish uchun jamoaviy harakat sifatida qaraladi. Bunday yondashuvda ijtimoiy siyosatning maqsadi jamiyat maqsadlariga uyg'un holda erishishga hissa qo'shishida deb ta'kidlangan. Shuningdek, zamonaviy ilmfanda ijtimoiy siyosatni ta'rifiga nisbatan bir qancha yondashuvlar ham mavjud bo'lib, ularni bir necha guruhlariga bo'lish tavsiya etilgan. Birinchi (keng tarqalgan) guruh kontseptsiyalari ijtimoiy va jamoatchilikni aniqlashdan kelib chiqadi, bunda ijtimoiy siyosat butun jamiyatga taalluqli muammolarni hal qilish uchun jamoaviy harakat sifatida

qaraladi. Bunday yondashuvda ijtimoiy siyosatning maqsadi jamiyat maqsadlariga uyg'un holda erishishga hissa qo'shishida deb ta'kidlangan. Ikkinchi guruh kontseptsiyalari mehnat munosabatlaridan kelib chiqib, mehnat va kapital o'rtasidagi o'zaro aloqalarni barqarorlashtirish va tartibga solishga qaratilgan.

Kontseptsiyalarning uchinchi guruhi ijtimoiy siyosatni birinchi navbatda potentsial ehtiyojmand qatlamlarga – nogironligi bo'lgan shaxslar, marginalar va boshqa elementlarga qaratilgan ijtimoiy faoliyat turi sifatida ko'rib chiqiladi. Bunda asosiy e'tibor davlat yordami va jamoat xayriya tizimi orqali moddiy jihatdan muhtoj qatlam ehtiyojlarini qondirishning minimal maqbul darajasini ta'minlashga qaratiladi.

To'rtinchi guruh kontseptsiyalari ijtimoiy siyosatni jamiyatni boshqarish texnologiyasi sifatida qaraydi. Bunda ijtimoiy siyosat qayta taqsimlash choralari tizimi orqali individual va ijtimoiy tengsizlikning salbiy oqibatlarini yengillashdiradigan vositadir. Uni amalga oshirishning asosiy vositasi soliq siyosati ekanligi belgilangan. Ijtimoiy siyosatga berilgan ta'riflarning rivojlanish tarixi o'ziga xos ahamiyatga ega. Davlatlarning o'sha davr ijtimoiy-siyosat yuritish imkoniyati va jamiyatning xususiyatidan kelib chiqib rang-barang bo'lgan. Berilgan ta'riflar turli xil ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy makonlarga xos bo'lib, olimlar tomonidan ijtimoiy siyosatga berilgan ta'riflarni shartli ravishda mintaqaviy (regional) jihatdan yondashuv amalga oshirildi. Unga ko'ra MDH davlatlari, G'arb va Yevropa mamlakatlari hamda uchinchi O'zbekiston tadqiqotchilari tomonidan mazkur tushunchani yoritishda berilgan ta'riflarga ajratishimiz mumkin. Klassik davr namoyondalari T.Gobbs va I.Kantlarning fikricha, davlatning o'z fuqarolar oldidagi burchi, ularga farovon hayot berish to'g'risida lozim, aks holda ijtimoiy adolat qaror topmasligidan iborat. Ularning bergan ta'rifi zamon va makon sharoitidan kelib chiqib bir yoqlama yondashilganligi ma'lum [5]. Ammo ularning fikri davlat o'z legitimligini saqlab qolish usuli sifatida ayni haqiqat hisoblanadi. Binobarin, faqat davlatgagina oqilona ijtimoiy siyosat yuritishga yagona sub'ekt sifatida mas'uliyat yuklanishi hozirgi zamonaviy demokratik tamoyillariga ziddir. Huddi shu fikrning mazmunan davomchisi V. fon Gumboldtga ko'ra, davlatning jamiyatda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, shaxs huquq va erkinliklarini himoya qilish bilan bog'liq bo'lgan huquqiy funktsiyalari bilan bir qatorda, har bir shaxsning farovonligi va baxt-saodatini ta'minlash bilan bog'liq ijtimoiy vazifalariga urg'u beradi. Ushbu ta'rifda ham davlat yagona sub'ekt roliga bo'lishi va aniq, konkretlik asosida ta'riflanmaganini ko'rishimiz mumkin. Davlat legitimligini belgilovchi omil ya'ni, Fuqarolar hayotining ijtimoiy sharoitlarini ta'minlashda davlatning maksimal ishtiroki kontseptsiyasini I.Fixte o'zining "Yopiq savdo davlati" asarida ilgari suradi. Mazkur ta'rifda muallif tomonidan ijtimoiy sharoit tushunchasini keng yoritmaganligini va ijtimoiy siyosatning sub'ektlar qatori kengayganligi inobatga olinmagan[6]. Asli kelib chiqishi Afrikalik keyinchalik esa G'arbda, o'z ilmiy faoliyatini olib borgan Thandika Mkandawire (1940-2020) ijtimoiy siyosat davlatning muhim bo'g'ini hisoblangan oilada tenglik va g'amxo'rlikni ta'minlash hamda ularni keng ko'lamli maqsadlarga erishish maqsadida har bir oila a'zolarining o'z qobiliyatini namoyon etishlarini muhim hisoblaydi. Jamiyatdagi ijtimoiy siyosiy muammolarni bartaraf etishda faqatgina inson kapitali va ta'limni rivojlantirib, innovatsion yondashuv orqali erishishini ma'qullagan[7].

Olimning ilgari surgan taklifini implementatsiya qilishda qator muammolarga duch kelish mumkin:

Birinchidan, davlatlar o'z navbatida dunyoviy va diniy mamlakatlarga bo'linishini inobatga olsak, oilada tenglik tamoyilini diniy davlatlarda hamda aksariyat rivojlanayotgan

mamlakatlarda joriy qilish amaliy jihat (mentaliteti)dan kelib chiqib biroq qiynchilikka uchraydi; Ikkinchidan, ijtimoiy siyosat tushunchasini keng yoritishda mavjud zamonaviy ta'limotlar muhim omil hisoblanib, tadqiqotchi tomonidan yuqorida atiga ikkitasi sanab o'tilgan. Vaholanki ular inson kapitali, asosiy ehtiyojlarni qondirish, turmush sifati, ijtimoiy kapital, ta'lim hamda Sharq va G'arb kontseptsiyalaridan iborat. Uning ta'rifida qolgan muhim kontseptsiyalarini ham ta'minlashda mazkur ikki omil nisbatan muhimroq deb hisoblagan. Bolgariyalik olimlar tomonidan ham ushbu tushunchani keng ifodalashga urinilgan. Jumladan, ijtimoiy siyosatni jamiyatning ijtimoiy muammolarini aniqlash va hal qilishga qaratilgan tashkiliy-boshqaruv, normativ-huquqiy choralar, resurslar va bevosita harakatlar majmuidir deb professor Kръстьо Oprov ta'rif bergan [8]. Funktsional yondashuv ta'rifiga ko'ra, ijtimoiy siyosat jamiyatdagi tenglik munosabatlarini tartibga solish faoliyati sifatida ko'rib, shaxslar tengsizligining iqtisodiy sabablarini mulk, mehnat sharoitlari, daromadlarni taqsimlash hamda iste'mol qilish, ijtimoiy tengsizlik va boshqalar bilan bog'liqligini izlash imkoniyatini beradi deya Dushka Dimova ijtimoiy siyosatni turli ijtimoiy maqomga ega sub'ektlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish bo'yicha davlat va nodavlat organlari va tashkilotlarining umumiy o'ziga xos faoliyati sifatida belgilaydi. Navbatdagi zamonaviy olimlardan Paul Spicker ijtimoiy siyosatning nazariy va amaliy jihatlarini xususan ijtimoiy xizmatlar, ijtimoiy boshqaruvni takomillashtirish orqali farovonlikka erishish mumkinligini ta'kidlaydi [9]. Ushbu ta'rifni ifodalashda subyektlar xatti-harakatini e'tibordan chetda qoldirilgan. Zero samarali ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda aktorlarning ishtiroki muhim omil hisoblanadi. Ye.N.Jiltsov, ijtimoiy siyosatga uning maqsadlaridan kelib chiqib, quyidagicha: "Davlatning ijtimoiy siyosati jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini tartibga solishdagi faoliyat yo'nalishlaridan biridir. Davlat ijtimoiy siyosatining mohiyati jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar, qatlamlar o'rtasida, ular ichida ham munosabatlarni saqlash, ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etishning iqtisodiy rag'batlarini shakllantirishda ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash-dan iborat" deb ta'rif beradi [10]. Mazkur ta'rifda guruhlar o'rtasida munosabatlarning qanday turi o'rnatilishiga aniqlik kiritilmagan hamda bunda ko'proq iqtisodiy rag'batga e'tibor qaratilgan, vaholanki ijtimoiy siyosat o'z qamrov doirasiga ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa transfert harajatlarni qamrab olinishi inobatga olinmagan [11].

Yuqoridagi ta'rifga mazmunan yaqin bo'lganlar I.G.Zaynyshev va P.D.Pavlenokga ko'ra, ijtimoiy siyosat aholining asosiy ijtimoiy guruhlar manfaatini o'rnatishdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi uning ushbu sohada dasturlari amaliyotda o'z aksini topgan davlat ichki siyosatining ajralmas qismi sifatida o'rin olgan, deb hisoblaydi. Bu ta'rifda birinchidan, ijtimoiy siyosat xalqaro tashkilotlar faoliyatida ham ko'rishimiz mumkin, ikkinchidan zamonaviy ijtimoiy siyosat sub'ektlari keng doira o'rtasida amalga oshirilishi inobatga olinmagan. Uchinchidan, ta'rifda asosiy ijtimoiy guruh manfaatlari to'g'risida so'z borib, ammo asosiy ijtimoiy guruh tushunchasi yoritilmagan.

Shuningdek, N.A.Volginga ko'ra, ijtimoiy siyosatni "jamiyat ijtimoiy tuzilishining asosiy elementlari (sinflar, ijtimoiy guruhlar, jamoalar) o'rtasidagi qolaversa butun aholining ijtimoiy mavqei va uni tashkil etuvchi sinflar, qatlamlar, jamoalarning saqlanishi va o'zgarishi bilan bog'liq munosabatlari" sifatida belgilaydi [12]. Bizninchga ushbu yondashuvda, ta'rifning konkret ma'no mazmuni ochib berilmagandek. Jumladan, barcha qatlamlar o'rtasidagi munosabatlar tushunchasi ifodalanmagan, jamiyat ijtimoiy tuzilishining asosiy elementlari aniq ko'rsatilmagan va

ikkilamchi ya'ni, asosiy bo'lmagan elementlarga nisbati ochiq qatlanmagan. S.N.Smirnov va T.Yu.Sidorinlar tomonidan berilgan ta'rif ushbu tushunchani to'liqroq ifoda etgan ya'ni, ijtimoiy siyosat jamiyatni rivojlantirish, jamiyat a'zolarining (ijtimoiy siyosat ob'ektlarining) imkoniyatlari va ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish uchun maqbul ijtimoiy shart-sharoitlarni yaratish, hayot darajasi va sifatini oshirish, shuningdek ushbu qarorlarni amalga oshirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqish maqsadida davlat ijtimoiy strategiyasini shakllantirishga qaratilgan davlat organlari, ish beruvchilar, kasaba uyushmalari va boshqa ijtimoiy-siyosiy tuzilmalar (ijtimoiy siyosat sub'ektlari) tomonidan jamoatchilik fikrini hisobga olgan holda qabul qilingan qarorlaridir".

Mazkur ta'rifda keltirilgan ushbu "bozor munosabatlarida faol rol o'ynashga qodir bo'lmagan jamiyat qatlamlari" jumla to'liq tavsiflanmagan hamda jamiyatning aynan qaysi qatlamlari muhim rol o'ynaydi va ular o'rtasidagi mavjud farqlar shuningdek, jamiyat a'zolari hayotining barcha jabhalari va ularga taalluqli qarorlar turkumi ochib berilmagan. Davlatning mafkuraviy yo'nalishlariga asoslanib, B.I.Xolostova ijtimoiy siyosatni "jamiyat va davlatning rivojlanish maqsadlari va unga javob beradigan ijtimoiy ko'rsatkichlarga erishish bo'yicha faoliyati to'g'risidagi mafkuraviy g'oyalar yig'indisi" deb ta'riflaydi. U davlat tuzilmalari, jamoat tashkilotlari, mahalliy hokimiyat organlari, shuningdek ishlab chiqarish jamoalari tomonidan amalga oshiriladi. Ijtimoiy siyosatning maqsadlari jamiyat farovonligini oshirish, xalq turmush sifati yaxshilash, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, ijtimoiy sheriklikka erishish orqali jamiyatda ijtimoiy ma'noni ta'minlashdan iboratligini ta'kidlaydi. Bir qarashda berilgan ta'rifda ijtimoiy siyosatga taalluqli barcha jihatlar mavjuddek, biroq matndagi "ijtimoiy ko'rsatkich" va "unga erishish" bo'yicha faoliyat haqida batafsil ma'lumot berilmagan.

O'zining Qadimgi (antik) davr namoyondalari yondashuvlariga yaqinroq bo'lgan qarashlari bilan ajralib turgan olimlardan biri L.F.Golubeva ijtimoiy siyosat odamlarning jamiyatda o'z ehtiyojlarini ob'ektiv sabablarga ko'ra qondira olmaydiganlarini qondirishni ta'minlaydigan vosita deydi. Ammo mazkur ta'rifda yuqoridagi ta'riflar kabi umumiy jihatdan yoritilgan bo'lib, ijtimoiy siyosat ehtiyojni qondiruvchi bir vosita sifatida qaralmoqda. Ijtimoiy siyosat amalga oshirilish doirasini faqatgina bir jamiyatda uzog'i bilan davlat miqyosida bo'lishini ilgari surmoqda. Uning sub'ektlari tobora kengayib ular o'rtasidagi munosabatlar xalqaro darajadagi karakter kasb etganini zamonaviy ijtimoiy siyosiy hodisa va jarayonlarda ko'rishimiz mumkin. Zamonaviy MDH olimlardan Ya.A.Margulyanga ko'ra, ijtimoiy siyosat davlatning jamiyatni ijtimoiy rivojlanishini boshqarish, uning ijtimoiy sohasini takomillashtirishni uyg'unlashtirish hamda aholining alohida guruhlari ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyati degan ta'rifda alohida guruh tushunchasi to'liq ochib berilmagan va ijtimoiy sohani takomillashtirishda zamonaviy ijtimoiy siyosatning boshqa sub'ektlari bilan hamkorligi borasida so'z bormagan. Shu bilan bir qatorda, A.S.Sorvinaning mulohazalariga ko'ra, hozirgi vaqtdagi ijtimoiy siyosatni ijtimoiy himoya tizimi bilan chambarchas bog'lab "huquqiy jihatdan belgilangan iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy kafolatlarni va huquqlar, turli ijtimoiy qatlamlarning, eng avvalo zaif qatlamlarni va aholi guruhlari hayoti va faol yashashini qo'llash uchun ushbu huquqlarni amalga oshirishni ta'minlovchi ijtimoiy institutlar va muassasalar majmui tushuniladi" deb keng doiradagi ijtimoiy siyosat tushunchasini, uning muhim elementlaridan bir hisoblagan faqatgina ijtimoiy himoya tushunchasi bilangina ifodalagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Jamiyatda ijtimoiy-siyosiy qarashlarning shakllanish bosqichlarini aniqlash, uni vujudga kelish sabablarini o'rganish shuningdek, yakunda xronologik

ketma-ketlikda tasniflash o'rinli hisoblanadi. Shuning uchun normalar va boshqa qarorlarni hayotda izchillik, qat'iyatlilik bilan amalga oshirish muhim omil hisoblanishini keltirilgan adabiyotlardan ko'rishimiz mumkin. Mazkur mavzu doirasida nafaqat respublika siyosatshunos va sotsiolog olimlarning ilmiy izlanish natijalari balki, xorij olimlarning ilmiy ishlarini jamlash va tahlil etish metodologiyaning bo'linmas qismidir. Tadqiqotni olib borishda analiz va sintez usullaridan, empirik taxlil natijalaridan hamda tizimli va majmuaviy yondashuv, taxlil uchun statistik usullardan foydalanilgan. Undan tashqari, Respublika hududi bo'ylab, belgilangan kontingent o'rtasida ilmiy-sotsiologik so'rovnomalar o'tkazish, o'rganilayotgan dolzarb masala yuzasidan ma'lumotlar to'plash va tanlash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Taraqqiyot darajasi va siyosiy tizimlari turlicha bo'lgan jamiyatlarda ijtimoiy siyosatga nisbatan plyuralistik yondashuv va talablar shakllangan. Hozirgi vaqtda qo'llanilayotgan ijtimoiy siyosatning mavjud ta'riflarining aksariyati juda keng tasnifga ega va uning optimal mohiyatini ochib berishga qodir emas. Ijtimoiy siyosat - bu davlatning siyosiy faoliyati sohalaridan biri bo'lib, uning maqsadi jamiyatning shakllantiruvchi sinflar, ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, etnik jamoalar, shuningdek, insonni rivojlantirishdir.

Ijtimoiy siyosat jamiyat va alohida shaxslar tuzilmasining barcha elementlarini jamiyat rivojlanishining muayyan bosqichlarida sodir bo'ladigan buzg'unchi jarayonlardan himoya qilishga qaratilgan. Ijtimoiy siyosat ijtimoiy ta'minot, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, fan va madaniyat tizimlariga alohida e'tibor talab etadi. MDH davlati olimlari tomonidan ijtimoiy siyosatga berilgan ta'riflarga nazar solsak ularning yondashuvlariga ko'ra, asosan davlat tomonidan olib boriladigan ijtimoiy faoliyat natijasidan kelib chiqib, ijtimoiy siyosatni olib borishda aktorlar faoliyati yo'naltirilgan obyekt doiralari (migrant va qochqinlar hisobi)ning kengayish jarayoni kuzatildi. Shuningdek, ijtimoiy

siyosat nafaqat aholi turmush darajalarini oshirishga qaratibgina qolmay, asta sekinlik bilan ularning turmush sifatiga urg'u berishni ilgari surdilar. Zero aholi turmush sifatida, jamiyatning har bir a'zosida tanlov huquqi hamda o'z iqtidorini namoyon qilish imkoniyati vujudga kelishi bilan o'ziga xos xarakterga ega O'zbekiston olimlari tomonidan ijtimoiy siyosatga berilgan ta'riflarida ham mazkur ijtimoiy-siyosiy kategoriya muhim o'rin egallagan. Ular qatorida A.Abduxalilov, ijtimoiy siyosat aholi turmush sifatini oshirishga qaratilgan davlat va nodavlat tashkilotlar hamda tadbirkorlarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyati ekanligini ta'kidlagan.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Ijtimoiy siyosat keng tushuncha bo'lib, uni turli kontseptual jihatlarini o'rganish mumkin. Unga berilgan ta'riflar turli hil madaniyat va submadaniyatlar hamda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar asosida berilgan bo'lib, ikkinchidan hanzugacha ijtimoiy siyosat tushunchasi borasida universal ta'rif shakllanmadi. Ammo ta'kidlab o'tilganidek, aksariyat olimlarning mazkur fenomenga nisbatan o'zlarining ta'rifini qayd etib o'tishgan. Ijtimoiy siyosat davlat va nodavlat tashkilotlaridan tashqari xalqaro tashkilotlar, davlatlar hamda tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida o'zaro hamkorligi evaziga aholining turmush sifatini oshiriga qaratilgan faoliyatidir. Uchinchidan, demokratik davlatlarda ijtimoiy siyosatning sub'ektlarini kengayishini ko'rishimiz mumkin. Ijtimoiy siyosatni belgilash uni amalga oshirish jarayonlarida nafaqat davlat hokimiyati organlari balki NNTlar, biznes tuzilmalari va xalqaro tashkilotlari ham faol ishtirok etmoqdalar. To'rtinchidan ijtimoiy siyosatning tamoyillari va darajalari shuni ko'rsatmoqdaki, har bir mamlakatda o'ziga xos ijtimoiy siyosat olib borilmoqda, shunga qaramay globallashuv jarayo-nida ijtimoiy siyosatning universal qoidalari xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilmoqda. Mazkur qoidalar muayyan xalqaro normalarda o'z ifodasini topmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Зомбарт, В. Идеалы социальной политики : пер. с нем. / В. Зомбарт. – СПб. : Типо-литография Б. М. Вольфа, 1906. – 64 с.
2. Shamanina E.A. RUDN Journal of Economics, 2018, 26 (3), P. 392—401
3. Alock P. May and Wright Sh. "Social Policy"/2012/John Wiley & Sons Ltd. P.5-6
4. Ижтимоий сиёсат Дарслик / А.А.Абдухалилов, Е.А.Зайтов – Т."VNESHINVESTROM",2021.- Б 6-7
5. Шаманина Э.А. Вестник РУДН. Серия: Экономика. 2018. Т. 26. № 3. С. 392—401
6. Гоббс Т. О гражданине. // Соч. в 2 т. Т. 1. М.: Мысль, 1991.
7. Кант И. Критика чистого разума // Сочинения в 6-ти т. Т. 3. М.: Мысль, 1964.
8. Гумбольдт В. Язык и философия культуры. М., 1985.
9. Фихте И. Сочинения в 2 т. Т. 2. СПб., 1993.
10. Баркер Р. Словарь социальной работы. Пер. с англ. М., 1994. С.38.
11. Словарь терминов, применяемых в деятельности служб занятости.- М, 1997.- С.78.
12. A Conceptual Framework for the Analysis of Social Policies / David R. Thomas and Neville R. Robertson, Journal of Community Psychology Volume 18, July 1990-P.4-9.



UDK: 378.048.2

Gulnoza BEKMURADOVA,

Paralimpiya sport turlari bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash instituti, Ilmiy-metodik bo'limi boshlig'i
E-mail: bekmuradovagulnoza@gmail.com

Yuridik fanlar doktori, professor Sh.Yakubov taqrizi asosida

PRINCIPLES OF IMPROVING POST-GRADUATE EDUCATION

Annotation

The article presents the results of a study of the current state of postgraduate education and factors for its improvement. This study analyzed the opinions of doctoral students and researchers who took part in a survey about postgraduate education, in particular doctoral studies.

Key words: Postgraduate education, doctoral studies, doctoral student, dissertation.

ПРИНЦИПЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПОСЛЕВЫШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В статье представлены результаты исследования современного состояния послевузовского образования и факторов его улучшения. В данном исследовании были проанализированы мнения докторантов и исследователей, принявших участие в опросе о послевузовском образовании, в частности докторантуре.

Ключевые слова: Послевузовское образование, докторантура, докторант, диссертация.

OLIV TA'LIMDAN KEYINGI TA'LIMNI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI

Annotatsiya

Maqolada oliy ta'limdan keyingi ta'limning bugungi holati va uni takomillashtirish omillari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari keltirilgan. Mazkur tadqiqotda oliy ta'limdan keyingi ta'lim, xususan doktorantura haqida o'tkazilgan so'rovnoma qatnashgan doktorant va ilmiy-tadqiqotchilarning fikr-mulohazalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Oliy ta'limdan keyingi ta'lim, doktorantura, doktorant, dissertatsiya.

Kirish. Bilimga asoslangan iqtisodiyot davrida doktorantura ta'limi dasturlarining sifati va natijadorligini oshirish iqtisodiy taraqqiyot va milliy raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni rivojlantirish bo'yicha turli mamlakatlarda amalga oshirilayotgan sayi-harakatlarda doktorant va mustaqil izlanuvchilar tomonidan dissertatsiyalarni o'z vaqtida himoya qilishning past ko'rsatkichlari va mazkur ko'rsatkichlarni yaxshilashga bo'lgan intilishlarni kuzatish mumkin. Haqiqatdan ham, doktorant va ilmiy izlanuvchilarning o'z muddatida dissertatsiya ishlarini yakunlash va himoya qilishlari ular faoliyati samaradorligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Turli mamlakatlarda doktorant va mustaqil izlanuvchilar tomonidan dissertatsiyalarni o'z vaqtida himoyaga taqdim etmaslik sabablarini aniqlash va tahlil qilish asosida vaziyatni yaxshilash bo'yicha ham o'ziga xos izlanishlar olib borilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O.Kovalchuk [1] ta'lim tizimi samaradorligini iqtisodiy, pedagogik, ijtimoiy hamda tashkiliy va boshqaruv kabi 4 turga ajratadi.

T.Anisoves [2] ta'lim tizimining samaradorligini baholashning asosiy tamoyillarini tavsiflab, obyektivlik, izchillik, murakkablik, uzluksizlik, texnologiyalilik tamoyillariga alohida e'tibor qaratgan.

S.Marjinsonning [3] fikricha, agar reytinglar haqiqatan ham universitetlarning haqiqiy ko'rsatkichlariga asoslangan bo'lsa va universitetlar uchun haqiqatan ham muhim bo'lgan narsalarni o'lchaydigan bo'lsa, unda universitetning reytingdagi o'rni qanchalik baland bo'lsa, samaradorlik shunchalik yuqori bo'ladi.

T.Serova [4] zamonaviy aspirant modelining tahlili asosida oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim samaradorligi

ko'rsatkichlari tizimini taklif qilgan. Muallif tomonidan xorijda (AQSh va ayrim Yevropa mamlakatlarida) doktorantlarni tayyorlash tizimi haqida ham ayrim ma'lumotlar keltirilgan.

A.K. Kazansev, I.A. Nikitin [5] oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimining samaradorligini baholashda iqtisodiy yondashuvdan foydalanish va samaradorlikning ichki va tashqi tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani tayyorlashda rivojlangan xorij mamlakatlarida yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'yicha to'plangan tajribalar, qo'llanilayotgan yondashuvlar, erishilgan yutuq va mavjud muammolar soha olimlarining ilmiy mahsulotlari (maqola, qo'llanma, monografiya va dissertatsiyalar), mazkur sohaga doir me'yoriy hujjatlar va tartib-qoidalarni o'rganish va tahlil qilishning turli usullaridan foydalanildi. Mavjud ma'lumotlarni umumlashtirish asosida ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash samaradorligini ta'minlash, xususan doktorantura haqida o'tkazilgan so'rovnoma qatnashgan doktorant va ilmiy-tadqiqotchilarning fikr-mulohazalari tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar. O'rganishlar yuqoridagi kabi muammolar mamlakatimizda oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimida ham mavjud. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, 2017-yilga nisbatan 2021-yilda fan doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyalar himoyalari ikki va falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya himoyalari deyarli olti baravarga oshishiga erishildi.

Biroq, tayanch doktoranturada o'z vaqtida dissertatsiyalarni himoya qilish ko'rsatkichi o'rtacha 50 foizni tashkil qilmoqda. Himoya qilish muddatlarining cho'zilib ketishi esa ilmiy darajaga ega professor-o'qituvchilar o'rtacha yoshini

yuqorilab ketishiga olib kelmoqda. Jumladan, fan doktorlarining o'rtacha yoshi 56 ni, falsafa doktorlari (PhD) o'rtacha yoshi esa 47 ni tashkil qiladi [6]. Ushbu ma'lumotlar ilmiy darajali mutaxassislarni tayyorlashda samaradorlik 50 foizni tashkil etayotganini ko'rsatadi.

Hozir 70 ta oliy ta'lim muassasasi va turli vazirliklar tizimidagi 10 dan ortiq ilmiy tashkilotda doktorantura faoliyati yo'lga qo'yilgan. 2021 yil natijalariga ko'ra 8 ta oliy ta'lim muassasasida o'z muddatida himoya qilish ko'rsatkichi o'rtacha 70 foizdan yuqori, va aksincha, 6 ta oliy ta'lim muassasasida o'z muddatida dissertatsiya yoqlash ko'rsatkichi 20 foizdan past bo'lgan. Chunonchi, ushbu ko'rsatkich Termiz davlat universitetida – 85 foizni, Toshkent davlat stomatologiya institutida –75,8 foizni, Namangan muhandislik-texnologiya institutida – 71,2 foizni, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida – 71 foizni, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida – 70,5 foizni tashkil etgan [7]. Demak, ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlashda nisbatan juda past va yuqori samaradorlikka erishayotgan muassasalar ham mavjud.

So'rovnomaga javoblarning tahlili:

Mazkur holatlarni tadqiq qilish, doktorant va ilmiy izlanuvchilar tomonidan o'z ilmiy ishlarini belgilangan muddatlarda yakuniga etkazilishi va himoya qilinishiga ta'sir etadigan omillar nimalardan iborat? Shu va shu kabi boshqa savollarga javob topish maqsadida maxsus tadqiqot o'tkazildi. Tadqiqotga 414 nafar tayanch doktorantlar jalb qilindi va ularning mamlakatimizda amalda bo'lgan oliy ta'limdan


keyingi ta'limning tashkil etilishiga bo'lgan munosabatlari o'rganildi. Tadqiqotda ishtirok etgan doktorantlarning 180 (43%) nafarini erkaklar va 234 (57%) nafarini ayollar tashkil qildi. Respondentlarning 154 nafarini (37%) 30 yoshgacha, 160 nafarini (39%) 31 dan 40 yoshgacha, 90 nafarini (22%) 41 dan 50 yoshgacha va 10 nafarini (2%) 50 yoshdan kattalar tashkil qildi.

Respondentlarning 46 nafari (11%) aniq fanlar sohasida, 280 nafari (68%) ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida, 54 nafari (13%) iqtisodiy fanlar sohasida, 14 nafari (3%) tabiiy fanlar sohasida, 6 nafari (1%) tibbiyot fanlari sohasida, 10 nafari (2%) texnika fanlari sohasida va 4 nafari (1%) qishloq xo'jaligi fanlari sohasida ilmiy-tadqiqotlar olib borayotganliklarini ma'lum qilganlar.

Tadqiqot doirasida doktorantlarga 10 ta savol bilan murojaat qilindi. Savolnomaga olingan javoblar tahlil qilinganda quyidagi holatlar aniqlandi.

“Sizningcha, doktoranturada ta'lim olish nimaga qaratilgan?” degan savolga doktorantlar tomonidan berilgan javoblar tahlil qilinganda respondentlarning 44 foizi tomonidan “Sohaning yetuk mutaxassisi bo'lib shakllanishga” va yana 35 foizi tomonidan “Sohaning etuk mutaxassisi bo'lish va dissertatsiyani tayyorlashga” deb qayd etilgani e'tiborga loyiq. Demak, mazkur javoblarni tanlaganlar (ya'ni respondentlarning 79 foizi) faqat dissertatsiyani yoqlab, ilmiy daraja olish uchun o'qiyotgan 16 foiz doktorantlardan farqli ravishda, oliy ta'limdan keyingi ta'limning maqsad va vazifalarini to'laroq anglar ekanlar.

Sizningcha, doktoranturada ta'lim olish nimaga qaratilgan?



1- Doktoranturaning maqsad va vazifalari haqida respondentlarning fikrlari “O'zbekistonda doktoranturaning amaldagi faoliyatini qanday baholaysiz?” degan savolga respondentlarning 42 foizi, ya'ni 172 nafari “Ijobiy” va yana shunchasi “O'rtacha samaradorlikda ishlayotgan va ayrim muammolari mavjud tizim”, 13 foizi, ya'ni 52 nafari “Byurokratik munosabatlar ko'proq hukmron bo'lgani bois, samaradorligi past tizim”, 4 foizi, ya'ni 16 nafari “Mutlaqo samarasiz tizim” deb baho bergan. Demak, umuman olganda,


so'rovnomaga jalb qilingan doktorant va ilmiy izlanuvchilarning 84 foizini mavjud tizimning faoliyati qanoatlantiradi.

Biroq, shu bilan birga respondentlarning 17 foizi tizim faoliyatidan qoniqmasliklarini e'tiborga olish lozim bo'ladi.


Shuni qayd etish joizki, qator xorijiy mamlakatlarda o'tkazilgan tadqiqotlarda doktorantlar tomonidan doktoranturada o'qish va dissertatsiyani himoyaga tayyorlash uchun belgilangan muddatlar juda kam ekanligi ta'kidlangan.

Bizning tadqiqotimizda esa aksariyat respondentlar (328 nafar ya'ni 79%) doktoranturada o'qish uchun ajratilgan muddat (3 yil) dissertatsiya tayyorlash uchun yetarli deb hisoblashlarini ma'lum qilganlar.

Doktorantura uchun ajratilgan muddat (3 yil) dissertatsiya tayyorlash uchun yetarli deb hisoblaysizmi?




Doktorantura o'qish muddatini necha yil bo'lishini taklif qilgan bo'lardingiz?



2-diagramma: Doktoranturada o'qish uchun ajratilgan muddatga respondentlarning munosabati
Respondentlarning 8 foizi, ya'ni 34 nafari ushbu muddatning etarli emasligini ta'kidlagan bo'lsa, 52 nafari, ya'ni 13 foizi bu haqida fikr bildirmasligini ma'lum qilgan.

Navbatdagi, ya'ni "Doktorantura o'qish muddatini necha yil bo'lishini taklif qilgan bo'ladingiz?" degan savolga olingan javoblar bundan oldingi savolga berilgan javoblardagi mulohazalarni tasdiqlaydi. Ya'ni, respondentlarning 43 foizi (176 nafari) ushbu muddatni 2 yil, 47 foizi (194 nafari) 3 yil qilib belgilanishini yetarli.



3-diagramma. Doktoranturada o'qish davri qiyinchiliklari

Shuni qayd etish joizki, doktoranturada o'qishga ajratilgan muddatni yetarli deb hisoblaydiganlarning katta qismini ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida ilmiy izlanishlarni olib borayotgan tadqiqotchilar tashkil qildi. Aksincha, aniq, tabiiy va texnika fanlari sohasida izlanish olib borayotganlar mazkur muddatni etarli emas deb hisoblashlarini ma'lum qilganlar.

Doktorantlarning o'qish davomida duch keladigan qiyinchiliklar haqidagi fikrlari tahlil qilinganda ularning katta qismi, ya'ni 40 foizi, "Xorijiy manbalardan foydalanish uchun chet tilini yetarli daraja bilmasligi"ni, salmoqli qismi, ya'ni 34 foizi "Doktorantlarni ilmiy-tadqiqotdan chalg'itadigan ishlarga jalb etilishi"ni, 28 foizi "Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi bo'yicha tayyorgarlikning yetarli darajada emasligi"ni va 26 foizi "Impakt faktorli jurnallarda maqolalar e'lon qilishdagi muammolar"ni qayd etganlar (3-diagramma).

Dissertatsiyani o'z vaqtida himoyaga tayyor bo'lishida ilmiy rahbarning rolini qanday baholaysiz? – degan savolga respondentlarning 29 foizi mazkur jarayonni ilmiy rahbarsiz tasavvur qilib bo'lmayligini ma'lum qilgan bo'lsa, 48 foizi ilmiy rahbarning roli juda muhim ekanligini ta'kidlagan. Respondentlarning 23 foizi dissertatsiyaning o'z vaqtida himoya qilinishi ilmiy rahbardan ko'ra ko'proq ilmiy-tadqiqotchining harakatiga bog'liq deb hisoblaydilar.


Magistratura bosqichida shakllangan tadqiqotchilik ko'nikmasining doktoranturada ilmiy-tadqiqot ishlariga etarli yoki etarli emasligi to'g'risidagi savolga doktorantlarning 35 foizi "Etarli, chunki magistraturada ham dissertatsiya yoziladi" degan javobni bergan bo'lsalar, qolgan 47 foizi magistraturadagi ko'nimalar muhimligini, biroq ular doktorlik dissertatsiyasini yozish uchun etarli emasligi, 9 foizi qat'iy tarzda etarli emasligini ta'kidlaganlar.

Navbatdagi, "Ilmiy-tadqiqot ishini olib borishda xorijiy tilni bilish qanchalik muhim?" degan savolga

respondentlarning katta qismi, ya'ni 61 foizi "Albatta muhim, menga kerak bo'lgan deyarli barcha manbalar xorijiy tilda yozilgan" deb javob bergan bo'lsa, 20 foizi "Unchalik muhim emas, chunki Google tarjimondan foydalansa ham bo'ladi" deb ta'kidlagan va 12 foizi o'zlarining ilmiy-tadqiqotlari uchun rus yoki o'zbek tilidagi manbalardan foydalanishning etarli ekanligini ma'lum qilganlar.

Dissertatsiyaning o'z vaqtida va yuqori saviyada tayyorlanishida qanday omillar muhim ahamiyat kasb etishi haqidagi savolga izlanuvchilarning 36 foizi "Ilmiy faoliyatning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ilmiy laboratoriyalardan foydalanish imkoniyati"ni, 33 foizi xorijiy ilmiy stajirovkalarni, 31 foizi "Dissertatsiya tayyorlash va ilmiy maqolalar yozish bo'yicha seminarlar"ni va 28 foizi ilmiy rahbar tomonidan etarlicha e'tibor berilishini muhim deb javob berganlar. Yuqorida sanab o'tilgan omillarning ikki yoki uchtasini ham muhim deb belgilangani e'tiborga loyiq. Demak, doktoranturaning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, doktorantlarga munosib sharoitlarni yaratib berish, zarur hollarda xorijiy ilmiy stajirovkalarga borish imkoniyatini yaratish, ilmiy-tadqiqot olib borish metodologiyasi bo'yicha seminarlar tashkil etish, shuningdek, ilmiy rahbar tomonidan doktorantning ishiga etarlicha e'tiborning qaratilishi dissertatsiyalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishining muhim omillari ekan.

So'rovnomadagi oxirgi savol, ya'ni doktorantura institutining samaradorligini oshirish uchun nima qilish kerakligi haqidagi savolga respondentlarning 40 foizi doktorantga ilmiy rahbarlikka tashkilotning boshqa olimlarini ham jalb qilgan holda jamoaviy rahbarlik amaliyotini joriy etishni, 33 foizi amaldagi "Doktorantlar maktabi" faoliyatini kuchaytirishni, 22 foizi ilmiy rahbarning mas'uliyatini oshirishni, shuningdek, 5 foizi doktorantlar faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirishni taklif qilganlar (4-diagramma).



4-diagramma. Doktorantura samaradorligini oshirish omillari haqidagi takliflar

Xulosa va takliflar. So'rovnoma vositasida o'tkazilgan tadqiqotning yuqorida qayd etilgan natijalari

mamlakatimizda joriy etilgan oliy ta'limdan keyingi ta'limni doktorant va ilmiy izlanuvchilar tomonidan asosan ijobiy

baholanayotgani, biroq mazkur ta'lim tizimi ayrim muammolardan xolis emasligini, ilmiy maqolalarni jurnallarda e'lon qilishdagi muammolarni, doktorantlar uchun ilmiy-tadqiqot metodologiyasi bo'yicha seminarlar tashkil qilish zaruratini, doktorantlarni boshqa ish va tadbirlarga jalb qilish amaliyotining mavjudligini, doktorantlar ilmiy rahbarlarning mas'uliyatini oshirish zaruratini, ilmiy tadqiqotlar uchun zarur moddiy-texnika va laboratoriyalar bilan ta'minlashni, yakka

tarzdagi ilmiy rahbarlikni saqlab qolgan holda jamoaviy ilmiy rahbarlik tajribasini ham joriy etishni va nihoyat, doktorantlarning o'qish va ilmiy-tadqiqot faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish zaruratini namoyon qildi.

Doktorantura va mustaqil ilmiy-tadqiqotchilik instituti faoliyatini tashkil qilishda yuqoridagi muammo va omillarni e'tiborga olish oliy ta'limdan keyingi ta'limni takomillash-tirishga xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR

1. Ковальчук О.В. Методические положения оценки эффективности образовательной деятельности в муниципальных образовательных системах [Электронный ресурс] / О. В. Ковальчук // Современные проблемы науки и образования. – 2011. – № 6. – <https://www.science-education.ru/ru/article/view?id=5089>
2. Анисовец Т. А. Экономика образования и образовательного учреждения [Текст]: учебно-методическое пособие (компендиум) / Т. А. Анисовец; Санкт-Петербургский филиал Нац. исслед. ун-та «Высшая школа экономики». – СПб., 2012. – 180 с.
3. Marginson S. Do Rankings Drive Better Performance? International higher education, 2017, № 89, pp. 6–8. Available at: <https://journals.bc.edu/ojs/index.php/ihe/article/view/9833/8615>
4. Серова Т.В. Комплексная оценка эффективности аспирантуры в области точных и естественных наук. - Инновации в образовании. Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского, 2011, № 3 (1), с. 19–25.
5. Казанцев А. К. Национальная система подготовки научных кадров высшей квалификации: состояние и проблемы развития [Текст] / А. К. Казанцев, И. А. Никитина // Вестник Санкт-Петербургского университета. – 2004. – Т. 1 (№ 8). – Сер. 8. – С. 135–164.
6. М.Тoshqarayeva. Oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyat ko'rsatkichi sezilarli oshgan bo'lsada, tizimda jiddiy muammolar bor.//O'zbekiston Milliy axborot agentligi (O'zA), 08.01.2021.
7. Hakimov R. Sanoqdan sifat sari tamoyili.//Yangi O'zbekiston gazetasi, 2022-yil, 2-may./ <https://www.yuz.uz/news/sanoqdan-sifat-sari-tamoyili>
8. А.О.Ковалчук, Н.В.Хаванова. Зарубежный опыт подготовки кадров высшей квалификации для образования и науки.//Вестник ассоциации ВУЗов туризма и сервиса, 2021, № 3.



UDK:091

Zarina BEKNIYOZOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: zarinbekniyozova77@gmail.com

F.f.d SH.A.Kenjabayev taqrizi asosida

THE IMPORTANCE OF THE CLIL METHOD IN TEACHING ENGLISH LANGUAGE TO FUTURE VETERINARIANS

Annotation

This article analyzes the advantages of using the CLIL method in teaching English to veterinary students. Emphasis is placed on the integration of science and language in English classes for English language teachers. Some practical examples, exercises and recommendations for teaching English to veterinary students through CLIL are provided.

Key words: Veterinary, CLIL, English, teaching, student, method, teacher, subject, lesson.

ЗНАЧЕНИЕ МЕТОДА CLIL В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ БУДУЩИХ ВЕТЕРИНАРОВ

Аннотация

В данной статье анализируются преимущества использования метода CLIL при обучении английскому языку студентов-ветеринаров. Особое внимание уделяется интеграции науки и языка на уроках английского языка для учителей английского языка. Приводятся некоторые практические примеры, упражнения и рекомендации по преподаванию английского языка студентам-ветеринарам с помощью CLIL.

Ключевые слова: Ветеринария, CLIL, английский язык, преподавание, студент, метод, преподаватель, предмет, урок.

BO‘LAJAK VETERINARLARGA INGLIZ TILI FANINI O‘QITISHDA CLIL USULINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz tili fanini veterinariya talabalariga o‘qitishda CLIL usulini qo‘llashning afzalliklari tahliliy bayon etiladi. Ingliz tili fani o‘qituvchilari uchun ingliz tili darslarida fan va til integratsiyasini amalga oshirishga urg‘u berilgan. Ingliz tili darslarini veterinariya talabalariga CLIL usuli orqali amalga oshirish uchun ba‘zi amaliy misollar, mashg‘ulotlar va tavsiyalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Veterinariya, CLIL, ingliz tili, o‘qitish, talaba, usul, metod, o‘qituvchi, fan, dars.

Kirish. Bugungi kunda ingliz tili fanini o‘qitish, o‘rganish har yilgidan kengayib bormoqda. Har bir soha rivoji uchun ingliz tilini bilish talabi kuchaygan. Shuning uchun barcha sohada ingliz tilini o‘qitishning yangicha metod va usullarini qo‘llash o‘qituvchi va o‘rganuvchilar uchun tilni yanada tez o‘rganish imkonini beradi. Shunday usullardan biri Veterinariya sohasi talabalarini o‘qitishda samarali bo‘lish uchun, CLIL (Content and Language Integrated Learning) usulini qo‘llash juda muhimdir. Bu usul, talabalar o‘zlarini ekspertlik sohasini rivojlanishiga imkon beradi va ular ingliz tilini o‘rganish orqali ilmiy ma‘lumotlar oladi.

CLIL, “Content and Language Integrated Learning”ning qisqartmasi hisoblanadi. Bu metoddan foydalanish maqsadi ta‘limni o‘qitish va tili o‘rganishni birga birlashtirishdir. O‘quvchilar o‘zlarini biror mavzu bo‘yicha o‘qish orqali ham, shuningdek, bir nechta tillarda kompetentlikni rivojlantirishadi. Bu usul o‘qituvchilar uchun ham muhim, chunki ular ikki yoki undan ko‘p sohada malakali bo‘lishlari kerak.

CLIL metodida darslar, ma‘lum bir fan (biologiya, matematika, san‘at va boshqalar) orqali o‘tkaziladi va o‘quvchilar o‘rganayotgan tilni, ya‘ni fan tilini, bir yoki bir nechta ilovalarda amaliyotga o‘tkazishadi. Bu metoddan foydalangan o‘quvchilar tezroq mavzuga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishadi va ularning tili bo‘yicha ko‘nikmalarini mustahkamlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. CLIL (Content and Language Integrated Learning) usuli orqali veterinariya sohasi talabalariga ingliz tilini o‘qitishda dunyoda bir nechta ilmiy

ishlar amalga oshirilgan. Bu sohada quyidagi professor olimlar ilmiy tadqiqotlar va loyihalar tuzishganlar. Dr. Harold Davis, Dr. Susan Jones ilmiy jurnallarda ingliz tilida chop etilgan maqolalar, talabalar ingliz tilini rivojlantirish va tibbiyot sohasidagi ma‘lumotlarni oshirishga qaratilgan tadqiqotlardir.

Tadqiqot metodologiyasi. CLIL usuli bilan amaliy mashg‘ulotlar Prof. Jane Willis, Dr. Dave Willis Amaliy mashg‘ulotlarni tuzishda va talabalar bilan CLIL usulini qo‘llashda olingan tajribalarni o‘rganishgan. Dr. Fiona Villiers Veterinariya tibbiyoti sohasidagi darslarni ingliz tilida o‘qitish va o‘rganishga yo‘naltirilgan tadqiqot. Ingliz tili bilan o‘qitishning ko‘rsatkichlari Prof. David Marsh, Anne Maljers CLIL usuli bilan o‘qitishni rivojlantirish, talabalar mavzuni tushunishini va ingliz tilini rivojlantirishiga bag‘ishlangan tadqiqotlar. Bu mualliflar va tadqiqotchilar, veterinariya sohasida ingliz tilini CLIL usuli orqali o‘qitishga oid bir nechta ilmiy ishlar tuzib bormoqda. Bu ishlar, talabalarni tibbiyot sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va ingliz tilini amaliy ravishda o‘rganishda ko‘maklashgan.

Koch, Yuksel va Altun fikriga ko‘ra, CLIL ikki yo‘naltirilgan ta‘lim usuli bo‘lib, unda talabalar bir vaqtning o‘zida tilni ham, mavzu mazmunini ham o‘rganadilar. CLIL tilni o‘rganish maqsadida tarkibni fanni birlashtirish usulidir. Tarkib fan, tarix, adabiyot, tabiiy va boshqalar kabi har qanday tildan tashqari fanlar bo‘lishi mumkin. Ushbu o‘qitish usuli 1960 yillarda Kanadada amaliyotga tatbiq etilgan va Yevropada so‘nggi 20 yil ichida ommalashib bormoqda.


CLIL – til darslariga tildan tashqari mazmunlarni integratsiyalash orqali tilni o‘rgatish usuli. Tilga oid

bo'lmagan fandan, ijtimoiy fanlardan tortib adabiyotgacha bo'lgan har qanday fan bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, u kognitiv, madaniy xabardorlik va umumiy akademik bilim kabi boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Tahlil va natijalar. CLIL usulini keng tatbiq etishda bir qancha to'siqlar, xususan, malakali o'qituvchilar va tegishli resurslarning yetishmasligi kabi to'siqlar ko'rsatilgan. Bunda e'tiborni o'qituvchilar va resurslarni rivojlantirishga qaratish tavsiya etiladi. CLIL metodining afzalliklari o'quvchilarning umumiy bilimlarini oshirish, maqola tili yoki

tillarini o'rganish va ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotlarini ta'minlashdir.

CLIL usulini veterinariya talabalari uchun samarali qo'llash, ularni ham tibbiyot sohasida ma'lumotlarni oshirish, ham ingliz tilini amaliy ravishda o'rganishda ko'maklashadi. Ingliz tili o'qituvchilari va talabalari uchun CLIL usulini qo'llash, o'quv jarayonini kengaytirish, ekspertlikni oshirish, va til kompetentsiyasini rivojlantirishda samarali usul bo'lib hisoblanadi.



1-chizma

CLIL (Content and Language Integrated Learning) metodini ingliz tili darsida qo'llashning bir nechta afzalliklari mavjud:

1. Mazmun va til birlikda o'rganish: Bu usul, tili va fanni birlikda o'rganish orqali integratsiyani kuchaytiradi.

2. Talabalarining ma'lumotlarini oshirish: fan tili orqali o'qitish, talabalarga ilmiy ma'lumotlar o'rganishda va ma'lumotlarni kengaytirishda yordam beradi.

3. Til ko'nikmalarini rivojlantirish: Ingliz tili darslari orqali boshqa sohalar bilan bog'langan vazifalarni bajarganda, talabalarining til ko'nikmalarini rivojlantirishadi.

4. Talabalarni darsga aktivligini oshirish: CLIL metodida amaliy mashg'ulotlar va ilmiy muhokamalar o'quvchilarni aktivlashtirishda va o'z fikrlarini bayon qilishda ishtirok ettirish uchun fursatlar yaratadi.

5. Dinamik va qiziqarli darslar: Fan orqali o'qitish, darslarni talabalarga qiziqarliroq va dinamik qiladi, shuningdek, talabalarining motivatsiyasini oshiradi.

Bu afzalliklar, o'quvchilarning ingliz tili bo'yicha malakalarini oshirish va umumiy bilimlarini integratsiyalash orqali mustahkamlash uchun qulaydir.

CLIL (Content and Language Integrated Learning) usuli, bu muammolarga o'ziga xos yechim beradi CLIL, til va fanlarni birgalikda o'qitishning integratsiya qilishini ta'minlaydigan modern o'qitish usulidir. Veterinariya sohasida bu usulni qo'llash, talabalarga soha bo'yicha ma'lumot olish va ingliz tilini samarali o'rganish imkonini beradi. Bu usulni ingliz tili darslarida quyidagicha qo'llash mumkin:

1. Terminlarga ta'rif berish: Namuna: Veterinariya anatomiyasini ingliz tilida o'qitishda ingliz tilida, "femur" va "humerus" kabi ifodalangan ifodalarni ishlatib, itning sosti tizimining anatomiyasini muloqot qilish mumkin.

Hayvonlarga xos holatlarni ingliz tilida misollar taqdim etish.

Namuna: "Katta muammoga ega bo'lgan bir mushuk kasalligini tahlil qilib, bilan simptomlar, tan diagnoslar va davolash rejalarini ingliz tilida muloqot qilish..

3. Amaliy mashg'ulotlar:

Amaliy mashg'ulotlarga oid ma'lumotlarni ingliz tilida o'tkazish. Namuna: Laboratoriya mashg'ulotlari davomida ingliz tilida buyurtma bering, talabalarga amaliy mashg'ulotlar haqida izohlarni berish.

4. Lug'at Yaratish:

Ingliz tilidagi veterinariya terminologiyasini darslikka qo'shish.

Namuna: "Vaksinatsiya", "neuterlash" va "parazitologiya" kabi terminlarni o'z ichiga olgan so'zlarni darslikka qo'shish.

5. Uchrashuvlar tashkil qilish:

Ingliz tilida gaplashuvchi mutaxassislar, olimlar bilan uchrashuvlar tashkil qilish.

6. Multimedialardan foydalanish

Ingliz tilidagi videolar, maqolalar va podkastlarni qo'llash. Ingliz tilida veterinariya tibbiyotda amaliyoti ko'rsatadigan video bilan tanishib, uning haqida talabalar bilan ingliz tilida muloqot qilish.

7. Interaktiv muloqotlar: Guruh muloqotlari va munozaralarni ingliz tilida tashkil etish. Veterinariya tibbiyotdagi ma'naviy muammolari haqida muloqotni boshlash, talabalarni o'z fikrlarini ingliz tilida ifodalashga ko'nikmasini oshirish.

Xulosa va takliflar. CLIL usulini veterinariya talabalari uchun samarali qo'llash, ularni ham tibbiyot sohasida ma'lumotlarni oshirish, ham ingliz tilini amaliy ravishda o'rganishda yordam beradi. Ingliz tili o'qituvchilari va talabalari uchun CLIL usulini qo'llash, o'quv jarayonini kengaytirish, ekspertlikni oshirish va til kompetentsiyasini rivojlantirishda samarali usul bo'lib hisoblanadi. Bu usul, o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi aloqani mustahkamlash, ma'lumotlarni integratsiya qilish orqali fikr bildirishga imkon beradi.

CLIL usulini bo'lajak veterinarlarni o'qitish jarayonida qo'llash, o'qituvchilar uchun o'zaro hamkorlik imkonini yaratadi. Maqolada ta'kidlangan tavsiyalar va amaliy misollar, bo'lajak veterinarlarga ingliz tilini o'qitishda CLIL usulini talabalarga fan va tilni bir paytda o'rganishda ijobiy natija beradi.

ADABIYOTLAR

1. Coleman, J. (2006). English-medium teaching in European higher education. *Language Teaching*, 39(1), 1-14.
2. Koç, Ö., Yüksel, G. and Altun, E. (2021) Technology Acceptance and Usage Behaviour of Content and Language Integrated Learning Teachers in Turkey. *English Language Teaching Educational Journal*, 4, 113-124
3. Diab, A.A.M., Abdel-Haq, E.M. and Aly, M.A.S. (2018) The Effectiveness of Using Content and Language Integrated Learning (CLIL) Approach to Enhance EFL Student Teachers' Cultural Awareness.
4. Coyle, D. (2009). Promoting cultural diversity through intercultural understanding: A case study of CLIL teacher professional development at in-service and pre-service levels. *Linguistic Insights – Studies in Language and Communication*, 92, 105-124.
5. Fortanet-Gómez, I., & Bellés-Fortuño, B. (2008). The relevance of discourse markers in teacher training courses for Content and Language Integrated Learning in higher education. In O. Martí Arnáinz & M. P. Safont Jordá (Eds), *Achieving multilingualism: Wills and ways. Proceedings of the First International Conference on Multilingualism (ICOM)*. Castelló de la Plana (pp. 149-159). Universitat Jaume I
6. Ball, P., Kelly, K., & Clegg, J. (2015). *Putting CLIL into practice*. Oxford, UK: Oxford University Press.
7. Wolff, D. (2009). Content and language integrated learning. In K. Knapp & B. Seidhofer, *Handbook of foreign language communication and learning* (pp. 545-572). Berlin: De Gruyter.



UDK: 37.013:53

Erkin VOXIDOV,

O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

E-mail: erkinbek_02@mail.ru

F-m.f.d., professor M.Tojiyev taqrizi asosida

AKADEMIK LITSEYLARDA MODULLI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA TAMOYILLARI ASOSIDA ELEKTROSTATIKA BO'LIMINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada modulli pedagogik texnologiya va uning tamoyillari asosida akademik litseylarda elektrostatika bo'limini o'qitish hamda o'quv jarayonini tashkil etish orqali o'quvchilar bilimini oshirish, ularning dunyoqarashini shakllantirish, shuningdek, fizika fanini o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini rivojlantirish to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: O'qitish metodikasi, modulli pedagogik texnologiya, ilm-fan, innovatsiya, ta'lim sifati, akademik litsey, fizika, elektrostatika, qiziqish, qobiliyat, bilim, salohiyat.

В ДАННОЙ СТАТЬЕ ОБСУЖДАЕТСЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ РАЗДЕЛА ЭЛЕКТРОСТАТИКИ В АКАДЕМИЧЕСКИХ ЛИЦЕЯХ

Аннотация

Основное внимание уделяется расширению знаний учащихся, формированию их мировоззрения, повышению мотивации к изучению физики через организацию учебного процесса.

Ключевые слова: Методика преподавания, модульная педагогическая технология, наука, инновация, качество образования, академический лицей, физика, электростатика, интерес, способности, знания, компетентность.

IN ACADEMIC LYCEUMS, THE REFINEMENT OF THE TEACHING METHODOLOGY FOR INSTRUCTING THE ELECTROSTATICS DEPARTMENT IS DISCUSSED IN THIS ARTICLE

Annotation

It focuses on enhancing students' knowledge, shaping their worldview, and boosting motivation for learning physics through the organization of the educational process.

Key words: Teaching methodology, modular pedagogical technology, science, innovation, education quality, academic lyceum, physics, electrostatics, interest, ability, knowledge, competence.

Kirish. Hozirgi kunda zamonaviy ta'lim texnologiyalari va ta'limning interfaol usullarini qo'llash orqali o'qitish samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Har bir mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlani-shining bosh asosi ta'lim tizimi bo'lib, uning ustuvor va harakatlantiruvchi kuchi yangi bilimlarni o'zlashtirish motivatsiyasi rivojlangan, mustaqil va ijodiy fikrlaydigan hamda ijtimoiy-kasbiy faoliyat yuritishga qodir bo'lgan shaxslardir. Shuning uchun ham XXI asr shaxsni shakllantirish jarayonini jadallashtirish asri bo'lib, Respublikamizda kadrlar tayyorlashni rivojlantirish strategiyasi jamiyat va davlatning malakali raqobatbardosh mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashni ko'zda tutadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Har bir kompetentli o'qituvchi o'qituvchining o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini o'zlashtirishda o'z yo'li va uslubi mavjud bo'lib, aylim pedagoglar o'z didaktik vositalarini chiqarishga urinib ko'rmoqdalar, ularni yuqori cho'qqisi esa o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish hisoblanadi [1].

So'nggi o'n yil davomida nutqimizda "Pedagogik texnologiya", "Zamonaviy pedagogik texnologiya", "O'qitish texnologiyasi" kabi tushunchalar keng qo'llanmoqda. Aksariyat pedagoglar "Ta'lim texnologiyasi" va "Pedagogik texnologiya" tushunchalari mazmunan bir ma'noni anglatishini ta'kidlaydilar. Bunday yondoshuv u qadar to'g'ri emas. Zero, yuqorida qayd etib o'tilganidek, ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish g'oyasi dastlab G'arbiy Yevropa va AQShda shakllangan. G'arbiy Yevropa mamlakatlari va

AQShda «Pedagogika» fani mavjud emas, shu bois «pedagogik faoliyat», «pedagogik texnologiya» tushunchasi ham iste'molda yo'q. Namlari qayd etilgan mamlakatlarda shaxsga ilmiy bilimlarni berish jarayoni "ta'lim jarayoni" sifatida nomlanadi, shaxsga bilimlar berish, uning ma'lumotini oshirish, ta'lim samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi fanlar majmui "Metodika" deb yuritiladi. Metodika fanlarini o'qitishda asosiy e'tibor ta'lim sifati va yaxshilash, uning samaradorligini ta'minlashga qaratiladi [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Modulli o'qitish ananaviy ta'limga muqobil ravishda paydo bo'lgan bo'lib, zamonamizning pedagogik nazariyasi va amaliyotida to'plangan barcha ilg'or g'oyalarni yaxlit holatga keltirishga imkon beradi. Modulli ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilar tomonidan aniq o'quv mavzusi bo'yicha bilimlar sistemasini o'zlashtirish va ko'nikmalarga aylantirishdan iborat.

Modulli o'qitishning maqsadi: ta'lim maqsadi, mazmuni, usul va shakli hamda vositalarini o'quvchilarning ehtiyojlarini e'tiborga olgan holda muvofiqlashtirishdan iborat. Asosiy vazifasi esa, tugallangan axborotlar blokini, o'quv dasturlarini to'la, qisqa va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali bo'laklarga bo'lib o'tish imkonini beradi. Modulli o'qitishda o'quv jarayonida talabalar modullardan tuzilgan o'quv materiallari bilan mustaqil ishlashlariga imkon beradi [1].

Quyida modulli o'qitish texnologiyalarini asosiy vazifalarini hamda ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilishda qo'llaniladigan pedagogik usullarga to'xtalib o'tamiz.

BIRINCHI vazifa – Fizika fanning umumiy maqsadi hamda fanning katta va o'rtta bo'laklar (modul)ining oldiga qo'yilgan maqsadlarini ifoda etuvchi, keyinchalik, barcha o'quv mashg'ulotlarning loyihasi tuzishga xizmat qiladigan, umumiy jadvallarini tuzish:

Birinchi, fizika fanini yaxlit bir butunlikda anglab, uni eng yuqori iyerarxiya pog'onadagi "Eng katta modul" deb qabul qilinadi. So'ngra, fanining oldiga qo'yilgan umumiy ta'limiy maqsadlari va bu fanga ajratilgan soatlar belgilanib, jadval shakliga keltiriladi.

Fizika fanning umumiy maqsadlari, o'quv fani uchun ishlab chiqilgan DTS va unga qo'yilgan malaka talablariga javob berishi shart.

Ikkinchi, fizika fani, ya'ni eng katta modul ichidagi bilimlarning mantiqiy bog'liqligi va fikrni tugallanganligidan kelib chiqib, o'quv materialini katta bo'laklarga, ya'ni boblarga bo'lib chiqiladi va ularning "Katta modul" deb nomlanadi. Shundan so'ng, har bir katta modulning maqsadlari belgilanadi, ularga ajratilgan soatlar ko'rsatilib, jadval shakliga keltiriladi.

Katta modullar maqsadlari eng katta moduldagi maqsadlardan kelib chiqib, uning ajralmas bir qismi sifatida bo'lishi shart. Har bir katta modulga ajratilgan soatlar yig'indisi, shu fanga berilgan soatlarning umumiy soniga teng bo'lishi kerak.

Uchinchi, har bir katta modul (bob)lar ichidan mantiqiy bog'liq bo'lgan, shu bilan barobar, hajm jihatidan bir juft soatlik o'quv mashg'uloti orqali talabalarga yetkazilishi lozim bo'lgan bilimlar ajratiladi va ularga "O'rtta modul" deb nom berilib, ularning ham ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlari ko'rsatiladi va jadval shakliga keltiriladi.

Shu bilan milliy pedagogik texnologiya tamoyillari asosida o'quv mashg'ulotlarini loyihalashning umumiy jadvalini tuzilgan bo'ladi.

IKKINCHI vazifa – Har bir juft soatlik o'quv mashg'ulotining, ya'ni, har bir "O'rtta" modulning xususiy jadvallarini tuzish:

Birinchi, bir juft soatlik o'quv mashg'uloti, ya'ni o'rtta modulni, undagi beriladigan bilimlarning mantiqiy bog'liqligi va fikrni tugallanganligini inobatga olib, bir nechta "Kichik" modulga bo'linadi. So'ng, yuqorida qo'yilgan umumiy maqsadlardan kelib chiqib, har bir kichik modul oldiga ko'yilgan ta'limiy maqsadlari belgilanadi va har bir kichik modulga ajratiladigan vaqt ko'rsatiladi.

Shundan so'ng, shu kichik modul yakunida o'quvchilar bajarishi shart bo'lgan ish harakatlar aniqlanadi va jadval shakliga keltiriladi.

Ikkinchi, har bir kichik modullar orqali beriladigan bilimlar ichidan tayanch tushunchalarni ajratib, ular asosida talabalar bilim va ko'nikmalarini baholash uchun nazorat savollari tuziladi va baholashning tur va mezonlari aniqlanib, jadval shakliga keltiriladi.

Uchinchi, o'quv mashg'ulotining har bir kichik modulida qo'llaniladigan mashg'ulotning tipi belgilab olinib, har bir kichik modulda qo'llaniladigan pedagogik usul va uslublar ko'rsatiladi, so'ngra muayyan o'quv muassasida mavjud axborot-kommunikatsiya texnologiyalar ichidan hamda mazkur o'quv materialining harakteridan kelib chiqib, har bir kichik moduldagi o'quv mashg'ulotini amalga oshirishda qo'llaniladigan axborot-kommunikatsiya texnologiya va didaktik materiallar ko'rsatilgan jadval yaratiladi.

Shu bilan "Pedagogik texnologiya" tamoyillari asosida bitta o'quv mashg'ulotini loyihalashning xususiy jadvalini tuzish vazifasi bajarilgan bo'ladi.

UCHINCHI vazifa – Ushbu o'quv mashg'uloti loyihasi tuzishning xususiy jadvalarida ko'rsatilgan tartib bo'yicha, o'quv mashg'uloti jarayonini amalga oshirishning namunaviy ssenariysi yoziladi. Unda har bir o'rtta modulda

beriladigan bilimlar birma-bir ifodalanib, ularni ta'lim oluvchilarga yetkazishda ko'llaniladigan dars tipi, pedagogik usullar, axborot-kommunikatsiya texnologiya va didaktik materiallar ko'rsatiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Quyida modulli pedagogik texnologiya tamoyillari asosida o'qitish metodikasini fizikaning elektrostatika bo'limi mavzularini modulli pedagogik texnologiya tamoyillari asosida o'qitish metodikasini ishlab chiqishga misollar keltirilgan.

O'RTA MODUL: Elektrostatika (Ma'ruza)

Katta modul tarkibidagi o'rtta modulning umumiy maqsadi: O'quvchi elektr zaryad, kuchlanish, potensial, potentsiallar farqi kabi atamalarni tushunadi, Elektr zaryad va Kulon qonunining ta'rifini biladi. Elektr maydoni va uning kuchlanganligi haqida tasavvurga ega bo'ladi. Elektrostatik maydonlarning superpozitsiya prinsipi, dipol maydonni tushunib, tahlil qila oladi. Elektr toki, jismlar qanday elektrlanishini anglaydi, elektr zaryadining hosil bo'lishi va turlari haqida tasavvurga ega bo'ladi. Ushbu tushunchalarning mazmun va mohiyatini to'liq tushunib, uni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasi shakllanadi va ularni namoyish qilish malakasi rivojlanadi.

Kichik modullari nomlari, tayanch tushuncha va iboralar, tatbiqiga oid tayanch tushunchalar:

Kichik modullar nomi: Kulon qonuni;

Tayanch tushuncha va iboralar: Kulon qonuni, muhitning dielektrik kirituvchanligi (singdiruvchanligi);

Tatbiqiga oid tayanch tushunchalar: Kulon qonunining matematik ifodasi va fizik mohiyati, zaryadlarni o'zaro ta'sir kuchi, elektr zaryadining hosil bo'lishi va turlarini tushuntirish.

Kichik modullar nomi: Elektr maydoni va uning kuchlanganligi;

Tayanch tushuncha va iboralar: Elektrostatik maydon, elektrostatik maydon kuchlanganligi, elektr maydon kuchlanganlik chiziqlari, nuqtaviy zaryadning elektr maydon;

Tatbiqiga oid tayanch tushunchalar: Jismlarni bir-biri bilan o'zaro ta'siri, zaryadlar hosil qilgan elektrostatik maydon tabiati, elektr maydon kuchlanganlik chiziqlari yo'nalishi, nuqtaviy zaryadning elektr maydon kuchlanganligi topilishi.

Kichik modullar nomi: Elektrostatik maydonlarning superpozitsiya prinsipi. Dipol maydoni;

Tayanch tushuncha va iboralar: Elektrostatik maydonlarning superpozitsiya prinsipi, Dipol maydoni, Dipol va maydon kuchlanganligining o'zaro bog'liqligi;

Tatbiqiga oid tayanch tushunchalar: q_1, q_2, \dots, q_n qo'zg'almas zaryadlar sistemasi tomonidan hosil qilingan elektrostatik maydonning har bir nuqtasidagi E kuchlanganlik vektorining qiymati va yo'nalishini aniqlash.

Kichik modullar nomi: Vakuumdagi elektrostatik maydon uchun Ostrogradskiy-Gauss teoremasi;

Tayanch tushuncha va iboralar: Elektr maydon induksiya oqimi, vakuumda elektrostatik maydon uchun Ostrogradskiy-Gauss teoremasi;

Tatbiqiga oid tayanch tushunchalar: Ostrogradskiy-Gauss teoremasining fizik mohiyati nimadan iborat ekanligi, elektr zaryadlari fazoning turli joylaridagi hajmiy zichligini topish formulasini fizik ma'nosini.

Kichik modullar nomi: Elektrostatik maydon potentsiali;

Tayanch tushuncha va iboralar: Elektr maydon, elektrostatik maydondagi zaryadning potensial energiyasi, zaryadlangan sirtlarning elektr maydoni;

Tatbiqiga oid tayanch tushunchalar: Elektr maydon potentsiali energiyasi qanday parametrlarga bog'liq ekanligini hamda elektr maydon potentsiali uning potensial energiyasi bilan qanday o'zaro bog'langanligini tushuntirish.

Kichik modullar nomi: Kuchlanganlik – potensial gradiyent sifatida. Ekvipotensial sirtlar;

Tayanch tushuncha va iboralar: Kuchlanganlik – potensial gradiyent. Ekvipotensial sirtlar;

Tatbiqiga oid tayanch tushunchalar: Potensiallar farqi bilan elektr maydonida zaryadni ko'chirishda bajarilgan ish orasida qanday bog'lanish mavjud ekanligini, potensial bilan maydon kuchlanganligi o'zaro qanday bog'langanligini hamda elektr maydon nuqtaviy zaryadlar tizimidan tashkil topgan bo'lsa, maydon potentsiali qanday aniqlanishini tushuntirish.

Kichik modullarning maqsadlari va ular asosida tuzilgan nazorat savollari:

Kichik modullarning maqsadlari: Asosiy maqsad: o'quvchida ma'lumotlarni eslab qolish, bilish, tushunish, tahlil qilish va qo'llash ko'nikmasini shakllantirishdan iboratdir. Shundan kelib chiqib, elektr zaryadi, elektr zaryad birligi, elektr zaryadning saqlanish qonuni, Kulon qonuni, elektr maydon kuchlanganligi tushunchalarini biladi, Kulon qonuni ta'rifini tushunadi, elektr maydon superpozitsiya prinsipini, potentsialni, potentsiallar farqi, Ostragradsiy-Gauss teoremasining mohiyatini tahlil qila oladi, dipol maydoni, kuchlanganlik oqimini tasavvur eta oladi, Kulon qonuni, elektr maydon kuchlanganligini, Ostragradsiy-Gauss teoremasini masalalarda qo'llay olish ko'nikmasi shakllanadi va ularni namoyish qilish malakasi rivojlanadi.

Nazorat savollari: Elektrostatika nimani o'rganadi? R.Milliken tajribasi. Elementar zaryadlar miqdori? Elektr tokini o'tkazish xususiyatiga ko'ra moddalar nechta turga bo'linadi? Jismlar qanday elektrlanadi? Kulon qonunining fizik mohiyatini tushuntiring? Muhitning dielektrik kirituvchanligi deganda nimani tushunasiz? Elektr maydon kuchlanganligining formulasi va uning fizik ma'nosini tushuntiring.

1-jadval

Kichik modullarning o'quv mashg'uloti turi va unda qo'llaniladigan pedagogik usul va uslublar

Mashg'ulotning shakli	Kirish, ko'rgazmali, muammoli ma'ruza
Mashg'ulotning turi	Aralash dars; yangi bilimlarni egallash; bilimni ko'nikmaga aylantirish
Qo'llaniladigan usul va uslublar	Tushuntirish; aytib berish; muammoli munozara; ko'rgazmali, muammoli ma'ruza, test.
Ta'lim vositalari	PowerPoint dasturida ishlangan taqdimot, fikrlarni yozish va taqdim etish uchun vositalar.
Ta'lim shakllari	Yakka holda, ommaviy.
O'qitish sharoitlari	Multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Yozma ishlar, kuzatish, munozaralar davomida beriladigan javoblar, test.

2-jadval

Kichik modullarning pedagogik jarayonida foydalaniladigan axborot-kommunikatsion texnologiyalari va didaktik materiallar

O'qitishning texnik vositalari	Didaktik materiallar
Birinchi, ikkinchi va uchinchi kichik modullar davomida mavzuga mos slaydlar namoyish qilinadi. Shuningdek, nazorat savollari va shu savollar asosida tuzilgan test slaydlar orqali namoyish qilinadi.	Umumiy fizika va pedagogik texnologiyaga oid darsliklar, uslubiy qo'llanmalar, o'quv-uslubiy majmua va ko'rsatmali qurollar hamda o'quv mashg'ulotlarning loyihlari

"Muammoli ta'lim" usulidan foydalanib Fizika fanining "Elektrostatika" bo'limi loyihasi ssenarisini shakllantiramiz.

Ushbu usul, o'quvchilarda Fizika fanining "Elektrostatika" bo'limining o'quv materiallari loyihalari asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi.

Muammoli vaziyat usuli uchun "Elektrostatika" bo'limining o'quv materiallari loyihalaridan tanlangan mavzu va uning ichidagi muammoning murakkabligi o'quvchilarning bilim darajalariga mos ravishda tanlanishi lozim. O'quvchilar qo'yilgan muammo yechimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda yechimini topa olmay, ta'lim oluvchilarning muammoga bo'lgan qiziqishlari so'nishiga va o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Bu usul qo'llanilganda o'quvchilar mustaqil fikr yuritishga, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishga va uning yechimini topishga o'rganadilar.

Tatbiqiga oid nazorat savollari: Elektr zaryadining hosil bo'lishi va turlarini tushuntiring. Zaryadlarning o'zaro ta'sir kuchining tabiatini tushuntiring. Kulon qonunining fan va texnikada qo'llanilishi. Elektr maydon kuch chiziqlari qanday yo'nalishga ega? Ostrogradsiy-Gauss teoremasining fizik mohiyati nimadan iborat va uning formulasini tushuntiring.

Kichik modullarning maqsadlari: O'quvchi potentsial, potentsiallar farqi, ekvipotensial sirtlar, dipol maydoni, kuchlanganlik oqimi tushunchalarini biladi, o'quvchida ushbu tushunchalarni tahlil qila olish ko'nikmasi shakllanadi va amaliyotda qo'llash malakasi rivojlanadi.

Nazorat savollari: Elektr maydon potentsiali energiyasi qanday parametrlarga bog'liq? Elektr maydon potentsiali uning potentsial energiyasi bilan qanday o'zaro bog'langan?

Potensiallar farqi bilan elektr maydonida zaryadni ko'chirishda bajarilgan ish orasida qanday bog'lanish mavjud? Potensial bilan maydon kuchlanganligi o'zaro qanday bog'lanishga ega? Elektr maydon nuqtaviy zaryadlar tizimidan tashkil topgan bo'lsa, maydon potentsiali qanday aniqlanadi?

Tatbiqiga oid nazorat savollari: Elektr maydon potentsialining amaliyotga tatbiqlari haqida nimalarni bilasiz? Elektr maydon potentsiali uning potentsial energiyasi bilan qanday o'zaro bog'liq? Potensiallar farqi bilan elektr maydonida zaryadni ko'chirishda bajarilgan ish orasida qanday bog'lanish mavjud? Potensial bilan maydon kuchlanganligi o'zaro qanday bog'lanishga ega? Elektr maydon nuqtaviy zaryadlar tizimidan tashkil topgan bo'lsa, maydon potentsiali qanday aniqlanadi?

Kichik modullardagi nazorat savollaridan o'quvchilar mustaqil ta'limda ham foydalanishlari mumkin. Kichik modullarning nazorat savollari asosida test topshiriqlari tayyorlanadi.

Muammoli ta'lim usullarga, zamonaviy loyihalash ta'lim usuli; interaktiv usullar; o'qish va yozuv orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullari; diskussiyalar o'tkazish usullari; munozara usullari; trening usullarini kiritishimiz mumkin.

Muammoli vaziyat usulining tuzilmasi: Auditoriyadagi o'quvchilar sonidan kelib chiqib guruhlariga ajratib olinadi; Muammoli vaziyat tavsifi keltiriladi; Guruhlarda muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari aniqlashtiriladi; Guruhlarning muammoli vaziyat oqibatlarini to'g'risida fikr yuritishiga olib keladi; Guruhlarda muammoli vaziyatning yechimi ishlab chiqiladi; Pedagog o'quvchilarga muammoning to'g'ri yoki noto'g'ri yechimini tanlashlarini kuzatib boradi; Guruhlar pedagogning noto'g'ri berilgan yechimlarini sharhlaydi.

Muammoli vaziyat usulining bosqichlari: O'quv jarayoniga tayyorgarlik qilish davrida pedagog o'quv materiallari loyihasidagi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarini aniqlaydi; Pedagog o'quvchilarni kichik guruhlariga ajratadi; Pedagog o'quvchilarni topshiriqning maqsadi, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi;

Guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar, bu muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh o'zi aniqlagan sabablarni taqdimot qiladilar; Barcha taqdimotlarning ichidan bir xil fikrlilari guruhlashtiriladi; Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qilib, ularni tahlil kiladilar va muammoni yechishning eng maqbul yo'lini aniqlaydilar.

Masala. Xar bir guruhda 5 nafardan 10 nafargacha o'quvchi bo'lishi mumkin. "Elektorstatika" bo'limining kichik modulida "Elektr zaryadi, uning birligi", "Kulon qonunining fizik mohiyati", "Elektr maydon kuchlanganligi" va "Elektr maydon potentsiali" tushunchalarining o'rni qanday? Endi quyidagi muammoli savollar qo'yiladi: Jismlarning elektrlanishini tushuntiring? Elektr zaryadi va uning birligini

tushuntiring? Kulon qonunining fizik mohiyatiga uning matematik ta'rifini ayting? Elektr maydon kuchlanganligi va elektr maydon potentsialini tushuntiring.

Guruhlar tomonida muammoli savolga to'g'rimi, noto'g'rimi yozma shaklda javoblar olinadi va har bir guruhdan bir nafardan o'quvchi qisqa taqdimot qiladi. Oxirida o'qituvchi xulosa qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Modulli pedagogik texnologiya va uning tamoyillari asosida akademik litseylarda elektrostatika bo'limini o'qitish va o'quv jarayonini tashkil etish o'quvchilar bilimini oshishiga, dunyoqarashini va fizika fanini o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Tojiyev M., Xurramov A. // Ta'lim jarayonini pedagogik texnologiya asosida tashkil qilishda qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim usullariyu –T.: "Fan va texnologiya", 2014. B-96.
2. Xudoyqulov X.J., Allayarova S.N. // Oliy ta'limda modulli o'qitish va unda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. monografiya, -Toshkent «Mumtoz so'z» 2019. –B 132.



UDK:371.373.168.1

Umar G‘OYIMOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
E-mail: umarjon199112@gmail.com

Shahrisabz davlat pedagogika instituti professori Zokir RAXIMOV taqrizi asosida

REFLEKSIV QOBILIYAT - PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JARAYONDA BO‘LAJAK PEDAGOGNING KASBIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH ASOSI SIFATIDA

Annotsatsiya

G‘oyimov Umar Eshmurodovichning “Refleksiv qobiliyat - pedagogik-psixologik jarayonda bo‘lajak pedagogning kasbiy qobiliyatini rivojlantirish asosi sifatida” mavzusidagi ilmiy maqolasida refleksiv qobiliyat tushunchasi batafsil yoritib berilgan bo‘lib, unda refleksiv qobiliyat bugungi kunda ertangi yangiliklar yaratuvchi yoshlarni yetishtirib berishda nihoyatda muhim ekanligi xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Refleksiya, qobiliyat, tasavvur, o‘qituvchi, mahorat, rivojlanish, tashkiliy, psixologik, pedagog, qobiliyat turi, fikrlash, ortga qaytish.

РЕФЛЕКСИВНАЯ СПОСОБНОСТЬ - КАК ОСНОВА РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ В ПЕДАГОГИЧЕСКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация

В научной статье Гоимова Умара Эшмуродовича на тему «Рефлексивная способность – как основа развития профессиональных способностей будущего педагога в педагогико-психологическом процессе» подробно раскрыто понятие рефлексивной способности, в какая рефлексивная способность чрезвычайно важна при обучении молодых людей, создающих инновации завтрашнего дня, отмечается, что она важна.

Ключевые слова: Рефлексия, способности, воображение, педагог, умение, развитие, организационное, психологическое, педагогическое, тип способностей, мышление, отдача.

REFLECTIVE ABILITY - AS A BASIS FOR DEVELOPING PROFESSIONAL SKILLS OF THE FUTURE TEACHER IN THE PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL PROCESS

Annotation

In the scientific article of Umar Eshmurodovich Goyimov on the topic "Reflexive ability - as a basis for the development of the professional ability of the future pedagogue in the pedagogical-psychological process", the concept of reflexive ability is explained in detail, in which reflexive ability is extremely important in training young people who create tomorrow's innovations. it is mentioned that it is important.

Key words: Reflection, ability, imagination, teacher, skill, development, organizational, psychological, pedagogic, type of ability, thinking, return.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida “Talaba-yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, ularda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash, ta‘lim va tarbiya uyg‘unligini amalda ta‘minlash uchun fanlarning har bir mavzusidagi tarbiyaviy maqsaddan unumli foydalanilishini ta‘minlash” kabi muhim vazifalar keltirib o‘tildi.

Hozirgi kunda ilm-fanning rivojlanishi shiddat bilan kechayotgan bir paytda, o‘quvchilarda yangiliklar yarata olish ko‘nikmasini shakllantirish uchun avvalo o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga tushuntira olish, yetkaza olish qobiliyatiga bog‘liq. Bu esa o‘z navbatida bo‘lajak o‘qituvchilarda shakllanishi kerak bo‘lgan refleksiv qobiliyatni shakllantirishni taqozo etadi. Demak, o‘qituvchiga nisbatan qo‘llaniladigan – refleksiv qobiliyat atamasi hech qachon yoqolmaydi, balki tobora rivojlanib, boyib va zamon talablariga mos bo‘lib boraveradi.

Insonning o‘z faoliyati va “hayot sohibi” sifatida o‘ziga nisbatan ongli munosabati refleksiya orqali takomillash-tiriladi, chunki aynan refleksiya anglab

yetiladigan voqelikka nisbatan o‘z munosabatini o‘zi rivojlantiradi. Olimlar B.Z.Vulfov va V.D.Ivanov insonning ichki nazoratning roliga katta e‘tibor beradi: “o‘zini tahlil qilish, kasbni va u bilan yashash usullarini ongli ravishda tanlash”, bu yerda refleksiya “o‘z o‘rniga munosib bo‘lishning faol omili”dir, chunki u raqobatbardoshlikning erkinlik, moslashuvchanlik, belgilangan maqsadlarga erishishda qat‘iylik kabi muhim sifatlarini rag‘batlantiradi.

Avvalo, “refleksiv qobiliyat” tushunchasini aniqlash-tirish uchun uning tarkibiy asosi hisoblangan “refleksiv” va “qobiliyat” atamalariga aniqlik kiritish lozim.

Refleksiya muammosi turli olimlar tomonidan turlicha ilgari surilgan va uning rivojlanishida sifat o‘zgarishlari yuz bergan. “Refleksiya” atamasidan fanning ko‘plab sohalari foydalanilad, bu esa ushbu atama ko‘p ma‘noga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Refleksiya (lot.reflexio – ortga qaytish, aks etish). 1. Kishining o‘z xatti-harakatlari va ularning asoslarini tushunib yetishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati; bilishning alohida bir shakli; 2) fikrlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish; 3) o‘zining shaxsiy harakatlari va ularning qonun qoidalarini fikrlashga yo‘naltirilgan inson faoliyatining nazariy shakli; 4)

o'z ruhiy holati haqida o'ylash, xayol surish, fikr yurgizish, uni tahlil qilishga moyillikni anglatadi.

Refleksiv vazifa bu: muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklar tahlili; o'z faoliyati va kasbiy jihatdan kamol topishidagi korreksion yo'nalishni aniqlash.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ko'plab pedagogik tadqiqotlarda refleksiyani fikrlash, o'z-o'zini kuzatish, insonning o'z e'tiqodlari va qadriyatli munosabatlarini yangicha tushunish, baholash va asoslash uchun o'z tajribasini o'ylab ko'rish, "xulosa, umumlashma, taqqoslash va baholash layoqati; o'z harakatlarining keltirib chiqarayotgan asoslarga murojaat qilish, yangi vazifani bajarish sharoitida avval foydalanilgan vosita va usullarning yetarli emasligini aniqlash hamda yangi bilimlarni izlashda muvaffaqiyatli harakatlanish imkonini bermaydigan mavjud bilim va ko'nikmalar doirasidan chetga chiqish qobiliyati ekanligi ko'rsatilgan.

Psixologik tadqiqotlarda ko'pincha refleksiya insonning tug'ma qobiliyati deya keltiriladi, u bilimlar, insonning o'z ichki dunyosi va shaxslararo munosabatlardagi o'rni, shuningdek, bilish va o'zgartirish kiritishga asoslangan faoliyat shakllari va usullariga murojaat qilishda namoyon bo'ladi. B.Xodjayevning ta'riflashicha individning o'z ichki dunyosiga, fikrlash tajribasiga, kechinmalar va faoliyatiga, boshqacha qilib aytganda, u ko'rgan, eshitgan, o'qigan, o'ylagan, his qilgan barcha narsalarga murojaat qilishi, qanday qilib, nima sababdan, nima uchun u bunday qaraydi, harakat qiladi, fikrlaydi, his qiladi kabi savollarga javob topishga undaydi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish natijasida ushbu pedagogik hodisaning yagona aniq ta'rifi mavjud emas, degan xulosa qilish mumkin. Refleksiv pozitsiyaning mavjud ta'riflari ilmiy tadqiqotlarning mohiyatidan kelib chiqqan holda tavsiflangan.

V.V.Davidov refleksiv pozitsiyani sub'ektning fikrlash darajasi bilan bog'lab izohlaydi va u individual ongni mustaqil bilish faoliyati vositalariga yo'naltirish; boshqa insonning ichki dunyosi va uning harakatlarining sabablari haqida tasavvurni shakllantirish; vaziyatni tushunish qobiliyatini o'z ichiga olishini ta'kidlab o'tgan.

Ilmiy adabiyotlarni o'rganishdan shunday natijaga kelinadiki, ko'plab olimlar shaxsning qobiliyati, tayyorgarligi, malakasi, fikrlash darajasi, samarali pedagogik jarayonni tashkil etish usuli va refleksiv jarayonlarni faollashtiradigan vaziyat sifatida refleksiv pozitsiyani shakllantirish zarurligini ta'kidlab o'tishadi. Refleksiv pozitsiya tushunchasining izohlari, albatta ko'rib chiqilayotgan hodisaning muhim xususiyatlarini aks ettiradi.

Qobiliyat – odam psixikasining eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, bu xususiyatlarni xaddan tashqari keng to'ldirish imkonini oqibatida qandaydir bir qobiliyatning nisbiy zaifligi, hattoki shunday bu qobiliyat bilan hammasidan ko'ra bir-biri bilan chambarchas bog'liq faoliyatning muvaffaqiyatli bajarish imkonini aslo yo'q emas.

Qobiliyat bilimdan farq qiladi. Bilim – bu ilmiy mutolaalar natijasidir, qobiliyat esa insonning psixologik va fiziologik tuzilishiga xos bo'lgan xususiyatdir. Qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit yaratadi, shu bilan birga, u ma'lum darajada bilim olish uchun imkoniyat yaratadi. Umumiy va maxsus bilimlarni egallash, shuningdek, kasbiy mahoratni o'zlashtirish jarayonida qobiliyat mukammallashib va rivoj topib boradi.

Qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko'nikma va malaka hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ko'nikmalar – o'qituvchining kasbiy faoliyati jarayonida hosil qilingan tajriba va bilimlar asosida bajariladigan ishning mukammal usuli.

Malakalar – o'qituvchining ongli faoliyatni bajarishi jarayonida hosil qilingan kasbiy intellektual faoliyatning avtomatlashgan komponentlari yig'indisi.

Qobiliyatlar bilim, ko'nikma va malakalarda aks etmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon bo'ladi. Faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonida yuzaga chiqadigan farqlar qobiliyatlar to'g'risida mulohaza yuritishga asos yaratadi.

Bundan kelib chiqadigan bo'lsak, shaxsning faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan, bilim ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual psixologik xususiyati qobiliyatlar deyiladi. Ushbu xususiyatni aniqlash uchun ba'zi bir omillarni tahlil qilish maqsadga muvofiq; a) shaxsning muayyan sifatleri yig'indisi belgilangan vaqt oralig'ida egallagan faoliyati talablariga javob bersa-unda mazkur faoliyatga nisbatan qobiliyati mavjud; b) inson shunday holatlarda faoliyat talabiga javob bera olmasa-psixologik sifatlar, ya'ni qobiliyatlar mavjud emasdir (juda zaifdir). Lekin xususiyatli shaxs ko'nikma va malakalarni egallay olmaydi, degan ma'no anglatmaydi, biroq ularni egallash vaqti cho'zilib uzoqlashib ketadi, xolos.

Biz qobiliyatni shaxsni tabiiy imkoniyatlari deb tushunishimiz mumkin emas, chunki qobiliyatni biz "har bir insonning o'ziga xos psixologik xususiyatlari" deb aniqlashtirdik, shuning uchun bu har qanday shaxsda mavjud bo'lgan tabiiy xususiyat deb xulosa chiqarish aslo mumkin emas. Tabiiy bo'lib faqat anatomo-fiziologik xususiyatlar, ya'ni qobiliyatning rivoji asosida yotgan iste'dod bo'lishi mumkin, qobiliyatning o'zi ham doimiy rivojlanish natijasida yuzaga chiqadi.

Ta'kidlash lozimki, qobiliyat o'zining mavjudligi bilan dinamik tushunchadir. Qobiliyat faqat harakatda, faqat rivojlanishda yuzaga chiqadi. Psixologik jihatdan qobiliyat haqida, o'zining rivojlanishdan oldin mavjud bo'lganligidek hamda qobiliyat o'zining to'la rivojiga yetib, o'zining rivojlanishi to'xtashi haqida so'zlash aslo mumkin emas. Chunki qobiliyat doimiy rivojlanishda bo'lishi kerak.

Qobiliyatning rivojlanishi, umuman har qanday rivojlanish ham bir tekisda bo'lmaydi: uning harakat kuchi ziddiyatlikning kurashidir, shuning uchun rivojlanishning turli bosqichida qobiliyat va qiziqishlar o'rtasida ziddiyatlar bo'lishi mumkin. Lekin bo'lishi mumkin bo'lgan bunday ziddiyatlarni tan olish, qiziqishlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi qobiliyatdan mustaqil yoki aksincha, qobiliyat – qiziqishlardan paydo bo'lib qolmaydi.

Tahlil va natijalar. Qobiliyatlar sifatida ro'yobga chiqadigan psixik xislatlar majmuasining tuzilishi yaqqol va alohida faoliyat talabi bilan belgilanganligi tufayli har qaysi turdagi faoliyatlar uchun o'ziga xos tarzda qo'yilishi turgan gap. Buning uchun ayrim misollarni tahlil qilib o'tamiz:

1) matematik qobiliyat: matematik materiallarni umumlashtirish, mulohaza yuritish jarayonini qisqartirish, matematik ish - amallarni kamaytirish, masalani idrok qilish bilan natijasi o'rtasida aloqa o'rnatish, to'g'ri va teskari fikr yuritishdan o'tishlik, masala yechishda fikr yuritishning ephilligi kabilar;

2) adabiy qobiliyat; nafasat hislarining yuksak taraqqiyot darajasi, xotirada yorqin ko'rgazmali obrazlarning jonliligi, «til zehni», behisob xayolot, ruhiyatga qiziquvchanlik, o'zi ifodalashga intiluvchanlik va boshqalar. Ajrati ko'rsatilgan qobiliyatlar tarkibidan ko'rinib turibdiki, matematik va adabiy qobiliyatlar o'zaro bir-biriga o'xshamagan talablari bilan tafovutga egadir. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, pedagogik, musiqaviy, texnik, konstruktorklik, tibbiy qobiliyatlar va shunga o'xshash qobiliyatlar tuzilishi maxsus xususiyatga ega bo'lib, kasbiy ahamiyat kasb etishi mumkin[8].

Mazkur ta'riflardan kelib chiqib aytish mumkinki, barcha holatlarda ham mualliflarning bu boradagi mulohazalarini ijobiy yoki salbiy toifaga kiritish mumkin emas, zero – pedagogik qobiliyat tushunchasiga nisbatan berilgan ta'riflar o'z davriga monand darajada ifodalangan. Ta'kidlash lozimki, ko'pgina tadqiqotchilar pedagogik qobiliyat deganda pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga yordam beruvchi shaxs xususiyatlarini umumiy majmuini tushunadilar [11].

Hozirgi zamon pedagogik va psixologik fanlarida “pedagogik qobiliyat” tushunchasiga turlicha izoh berilgan. Jumladan, pedagogik ensiklopediyada ta'rif quyidagicha izohlangan: o'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondash fanlar sohaslarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis. Ushbu ta'rifning mohiyatidan kelib chiqib o'qituvchining pedagogik qobiliyati tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin:

1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql zakovatning yuksak ko'rsatkichi.

2. O'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi.

3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi.

4. O'quv-tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi.

Ushbu mas'uliyatli vazifalar o'qituvchidan o'z kasbining mohir ustasi bo'lishni, o'qituvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste'dodi, e'tiqodi va amaliy ko'nikmalarini har tomonlama rivojlantirish

yo'llarini izlab topadigan kasb egasi bo'lishni talab etadi. Buning uchun doimo o'qituvchilarning kasbiy qobiliyatini rivojlantirish, ko'nikma va malakalarini oshirib borish, ularga har tomonlama g'amxo'rlik qilish, zarur shart-sharoitlar yaratish, kerakli moddiy va ilmiy-metodik hamda texnik yordam ko'rsatish, o'qituvchilarning ijodiy tashabbuskorligini muntazam oshirib borishga ko'maklashish lozim.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilardan aniq bo'ladiki reflektiv qobiliyat bu o'qituvchining o'z-o'ziga baho berish qobiliyati, ya'ni oldin o'tib ketilgan narsa yoki jarayonga qatishi va udagi kamchiliklarni tuzatish, hamda yutuqlarni aniqlay olish qobiliyatidir. Deylik o'qituvchi darsdan chiqqandan so'ng o'zi o'tgan darsini tahlil qiladi, ya'ni ortga qaytadi. Bunda u darsdagi yutuq va kamchiliklarni aniqlay boshlaydi. Masalan, bugun darsda 30 ta boladan 22 tasi darsga diqqat bilan quloq soldi, ammo qolgan 8 ta bolada bu holat kuzatilmadi. Shu jarayonda o'qituvchi o'ziga-o'zi savol beradi. Nima qilganimda o'quvchilarning diqqat e'tibori mendan ketmasdi? Nima qilganimda o'sh 8 ta bolani ham mavzuni o'ylashga qarata olardim? Bu yerda qanday xatoga yo'l qo'ydim? Mavzuni boshqacha usulda tushuntirganimda o'quvchilarning hammasini diqqat e'tibori qochmasdi? Mavzuni eshitishni ham xohlamagan Azimjonga darsda turg'izib gapirishim kerak edimi yoki darsdan keyin alohida gaplashishim kerakmidi? Darsni qanday tushuntirganimda dars hamma uchun bundanda qiziqarli bo'lardi? Kabi savollar o'qituvchini o'z-o'zini nazorat qilishiga va ortga nazar solib o'z darsini tahlil qilishga undaydi. Bu esa reflektiv qobiliyatni rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-sonli Qarori. www.lex.uz
2. Вулфов Б.З. Иванов В.Д. Основы педагогики: учебное пособие. – М.: УРАО, 1999. – С. 438-439.
3. Педагогика: педагогические теории, системы, технологии / Под ред. С.А.Смирнова. – М.: Академия, 1998. – 510 с. – С.132.
4. Тейяр де Шарден П. Феномен человека. – М.: Наука, 1997. – 136 с.
5. Тейяр де Шарден П. Феномен человека. – М.: Наука, 1997. – 136 с.
6. Слободнюк Е.Г. Профессионально-ценностные ориентации как фактор становления личности будущего учителя: дис. ... канд. пед. наук. – Магнитогорск, 2000. – 192 с.
7. Ходжаев В.Х. Umumta'lim maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish: Ped.f.d. ...diss. – Toshkent, 2016. – 314 b.
8. Давлетшин М.Г. Қобилият ва унинг диагностикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – 134 б.
9. Педагогика. Большая современная энциклопедия. – Минск: Современное слово, 2005. – 720 с.
10. Симонов В.П. Диагностика личности и профессионального мастерства преподавателя. //Учебное пособие для студентов педвузов, учителей и слушателей ФПК. – М.: Межд. пед. академия, 1995. –189 с.
11. Хозяинов Г.И. Педагогическое мастерство преподавателя. – М.: Высшая школа. –1988. –168 с.



Sayyora DAVIDOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: sayyorajalolova748@gmail.com

Based on the review of, PhD associated A.Raxmanova

THE ROLE OF ASSESSMENT IN INCLUSIVE EDUCATION

Annotation

Inclusive education is a paradigm that strives to accommodate diverse learning needs within mainstream educational settings. This article explores the pivotal role of assessment in supporting the goals of inclusive education. By examining various assessment methods and materials, this paper aims to shed light on the importance of creating inclusive assessment practices that cater to the diverse needs of students.

Key words: Inclusive education, test, evaluation, assessment, learner, educators, contexts, discourse, tools.

РОЛЬ ОЦЕНИВАНИЯ В ИНКЛЮЗИВНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

Инклюзивное образование – это парадигма, которая стремится удовлетворить разнообразные потребности в обучении в рамках общеобразовательной среды. В этой статье исследуется ключевая роль оценивания в достижении целей инклюзивного образования. Рассматривая различные методы и материалы оценивания, данная статья призвана пролить свет на важность создания инклюзивной практики оценивания, отвечающей разнообразным потребностям учащихся.

Ключевые слова: инклюзивное образование, тест, оценка, оценивание, учащийся, преподаватели, контексты, дискурс, инструменты.

INKLYUZIV TA'LIMDA BAHOLASHNING O'RNI

Annotatsiya

Inklyuziv ta'lim – bu asosiy ta'lim sharoitlarida turli xil ta'lim ehtiyojlarini qondirishga intiladigan paradigma. Ushbu maqola inklyuziv ta'lim maqsadlarini qo'llab-quvvatlashda baholashning asosiy rolini o'rganadi. Baholashning turli usullari va materiallarini o'rganib, ushbu maqola talabalarning turli ehtiyojlarini qondiradigan inklyuziv baholash amaliyotlarini yaratish muhimligini yoritishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, test, baholash, baholash, o'quvchi, o'qituvchilar, kontekst, natq, vositalar.

Introduction. Inclusive education, with its emphasis on providing equal opportunities for all learners, has gained prominence in contemporary educational discourse. Assessing the effectiveness of inclusive practices is crucial for ensuring that students with diverse abilities receive the support they need. This article delves into the role of assessment in the inclusive education framework, examining the methods and materials employed to measure student progress and create an equitable learning environment.

Within this transformative paradigm, the evaluation of inclusive practices becomes a linchpin in the pursuit of equal opportunities. It is not enough to merely advocate for inclusive education; its effectiveness must be measured, assessed, and refined. The heart of this measurement lies in assessment practices, a dynamic and essential aspect of the inclusive education framework. This article seeks to unravel the multifaceted role that assessment plays in shaping the success of inclusive education, acknowledging its pivotal position in the ongoing journey toward creating classrooms that resonate with diversity and accommodate the unique needs of every learner. Assessment has a vital impact in the education process to inform and improve ongoing learning, and plays a significant role (Cowie & Bell, 1999). According to Pierce, (2002; cited in Kırmızı & Kömeç, 2016), assessment is a crucial part of any learning and teaching activity.

As educators and policymakers grapple with the complexities of fostering inclusivity, the evaluation of inclusive practices emerges as a critical checkpoint. It is through assessment that the impact of inclusive strategies is

gauged, ensuring that the promise of equal opportunities is translated into tangible support for students with diverse abilities. The effectiveness of inclusive education is not a static concept; it is a dynamic process that necessitates continual evaluation, adaptation, and evolution. The assessment of language learning is no exception to the mushrooming growth of computer technology in educational contexts (see Chapelle & Douglas, 2006; Douglas & Hegelheimer, 2008; Jamieson, 2005, for overviews of computerbased second language testing).

In examining the role of assessment within the inclusive education framework, this article ventures into the heart of the educational experience. It scrutinizes the methods employed to gauge student progress, not merely in terms of academic achievements but also encompassing the broader spectrum of social, emotional, and behavioral development. The lens turns towards the materials utilized, which, in their adaptability, embody the commitment to creating an equitable and enriching learning environment for all.

Thus, this exploration is not merely an academic exercise; it is a call to action for educators, policymakers, and stakeholders alike. By understanding and embracing the transformative potential of inclusive assessment practices, we pave the way for a future where every learner, irrespective of their background or abilities, can embark on an educational journey that not only imparts knowledge but nurtures their unique strengths and capacities. This article, therefore, serves as a guidepost in the collective endeavor to shape inclusive education into a lived reality for every student. Начало формы

Methods. The methods employed in inclusive education assessment vary widely to capture the unique strengths and challenges of each student. Standardized tests, formative assessments, and observational methods are common tools used to evaluate academic and social progress. Additionally, personalized assessments tailored to individual needs help educators gain a comprehensive understanding of each student's abilities and potential barriers to learning.

The methods deployed in inclusive education assessment constitute a dynamic toolkit carefully crafted to navigate the diverse and intricate learning landscapes within an inclusive classroom. Recognizing the inherent variability in student strengths and challenges, educators harness a spectrum of assessment tools that go beyond the conventional to ensure a nuanced understanding of each learner's journey.

Standardized Tests: While standardized tests have long been a staple in educational evaluation, their role within inclusive education extends beyond traditional metrics. These tests, adapted and designed with inclusivity in mind, serve as benchmarks to gauge academic proficiency. The inclusive lens applied to standardized tests acknowledges the diverse learning styles and needs of students, ensuring that the assessment accurately reflects individual abilities rather than reinforcing systemic biases.

Formative Assessments: Inclusive education thrives on the real-time feedback provided by formative assessments. These ongoing evaluations offer a window into the day-to-day progress of students, allowing educators to tailor their instructional strategies to meet evolving needs. Formative assessments, with their emphasis on continuous improvement, contribute to a responsive and adaptive learning environment, fostering a symbiotic relationship between educators and students.

Observational Methods: Observation stands as a cornerstone in understanding the multifaceted development of students within inclusive classrooms. Educators keenly observe social interactions, communication skills, and collaborative efforts, going beyond traditional academic metrics. This qualitative approach enables a holistic assessment of each learner, acknowledging the intricate interplay between academic achievements and social-emotional growth.

A pivotal aspect of inclusive education lies in the recognition that each student is unique, with a distinctive set of abilities, challenges, and learning preferences. Personalized assessments, tailored to individual needs, provide educators with a comprehensive portrait of each learner. These assessments go beyond standardized benchmarks, delving into the specific nuances of a student's cognitive processes, strengths, and potential barriers to learning. This tailored approach empowers educators to design interventions that address individual needs, fostering an environment where every student can flourish.

Materials. The materials utilized in inclusive education assessments are designed to be adaptable and diverse. Traditional textbooks are complemented by multimedia resources, assistive technologies, and modified learning materials. These materials cater to the varied learning styles and preferences of students, ensuring that assessment tools are inclusive in nature and can be accessed by all.

In the realm of inclusive education assessments, the materials employed stand as a testament to the commitment to diversity, adaptability, and accessibility. Recognizing that the traditional educational landscape no longer suffices in meeting the diverse needs of learners, educators curate a rich tapestry of materials that goes beyond the confines of conventional textbooks. This section explores the expansive array of

materials designed to create a truly inclusive assessment experience, embracing the individuality of each student.

The integration of multimedia resources injects a vibrant and interactive dimension into the assessment process. Videos, audio clips, and interactive simulations engage students through multiple sensory channels, catering to diverse learning preferences. This multimedia approach not only enhances the inclusivity of assessments but also enriches the learning experience, making complex concepts more tangible and relatable.

At the forefront of inclusive assessment materials are assistive technologies that bridge the gap between learners and information. Screen readers, speech-to-text tools, and adaptive software empower students with diverse abilities to engage with assessment content on an equal footing. By leveraging assistive technologies, educators ensure that assessments are not barriers but gateways to learning, fostering a sense of independence and self-efficacy among all students.

This diverse array of materials underscores the commitment to inclusivity, recognizing that no two learners are alike. Inclusive assessment tools are not static; they evolve with the understanding that diversity is an asset to be celebrated. By offering a multitude of materials that address varied learning styles and preferences, educators cultivate an environment where every student can showcase their strengths, regardless of the challenges they may encounter.

In essence, the materials utilized in inclusive education assessments are not mere instruments of evaluation; they are vehicles of empowerment, ensuring that the assessment process becomes a collaborative journey where students are active participants, not passive recipients. Through this diverse and adaptable array of materials, educators pave the way for an inclusive educational landscape where assessments are not impediments but stepping stones toward the holistic development of every learner. Начало формы

Discussion. Assessment in inclusive education is not solely focused on academic achievements but extends to the broader aspects of social, emotional, and behavioral development. By employing a variety of assessment methods, educators can gain insights into the progress of each student and make informed decisions about necessary accommodations and support mechanisms. The discussion will delve into how inclusive assessment practices contribute to creating a more equitable and enriching educational experience.

In the realm of inclusive education, the discussion surrounding assessment transcends the confines of traditional academic metrics, reaching into the very heart of holistic development. The emphasis on assessment extends beyond the quantifiable realm of academic achievements, embracing the intricacies of social, emotional, and behavioral facets that shape each student's educational journey.

Inclusive education recognizes that a comprehensive assessment approach is essential for understanding the multifaceted nature of student progress. Holistic assessment goes beyond grades and test scores, delving into the rich tapestry of social interactions, emotional resilience, and behavioral dynamics within the inclusive classroom. By adopting this holistic lens, educators gain a nuanced understanding of each student's development, fostering an environment where success is measured in the collective growth of the individual.

Inclusive education is not a one-size-fits-all endeavor, and assessments serve as the compass guiding educators in crafting personalized educational experiences. The insights garnered through assessments empower educators to make informed decisions about necessary accommodations,

modifications, and support mechanisms. Whether it involves adapting instructional materials, implementing assistive technologies, or fostering a supportive peer environment, inclusive assessment practices provide the foundation for responsive and adaptive teaching strategies.

Results. The results obtained from inclusive education assessments highlight the successes and challenges within the learning environment. Positive outcomes may include improved academic performance, enhanced social skills, and increased self-esteem among students. Conversely, challenges may reveal areas where additional support and resources are required to address individual needs. The results section will explore the multifaceted nature of outcomes in inclusive education assessment.

The results emanating from inclusive education assessments serve as a mirror reflecting the dynamic interplay of successes and challenges within the inclusive learning environment. This section delves into the multifaceted nature of outcomes, unveiling a tapestry woven with positive achievements and opportunities for growth.

One of the paramount triumphs revealed by inclusive education assessments is the marked improvement in academic performance among students. The tailored and inclusive nature of assessments allows educators to identify and address individual learning needs effectively. This personalized approach fosters a conducive learning environment where students not only meet academic benchmarks but surpass them, unlocking their latent potential and paving the way for a future of academic success.

Beyond the realm of academia, inclusive education assessments illuminate the positive impact on social skills development. Through observational methods and collaborative assessment strategies, educators witness the blossoming of enhanced social interactions, communication skills, and teamwork among students. Inclusive assessment practices create a foundation for a supportive peer environment, cultivating a community where diversity is embraced, and each student contributes meaningfully to the social fabric of the classroom.

The multifaceted outcomes revealed in inclusive education assessments prompt educators to tailor support mechanisms that transcend a one-size-fits-all approach. The results guide the development of individualized education plans, ensuring that each student receives the specific support they need to overcome challenges and flourish. This tailored approach not only addresses immediate concerns but also lays the foundation for lifelong learning strategies that resonate with the unique strengths and needs of each learner.

In essence, the extended exploration of results in inclusive education assessments unravels a narrative of triumphs and opportunities for refinement. Through a holistic lens, educators and stakeholders gain insights into the transformative impact of inclusive education on academic, social, and emotional dimensions. The multifaceted nature of outcomes underscores that, within the inclusive classroom,

every result is not merely a measure of achievement but a step toward creating an educational environment where every student can thrive.

Conclusion. Assessment plays a pivotal role in the success of inclusive education. The methods and materials employed must align with the principles of inclusivity, ensuring that every student, regardless of their abilities, has an equal opportunity to succeed. By fostering a comprehensive understanding of each learner, assessment practices contribute to the ongoing improvement of inclusive education strategies and promote an environment where diversity is celebrated and accommodated.

In the grand tapestry of inclusive education, assessment emerges as a linchpin, weaving together the intricate threads of success, challenges, and growth. This conclusion encapsulates the profound role that assessment plays in the transformative journey toward creating inclusive educational environments that resonate with diversity and cater to the unique needs of every learner.

Assessment, within the inclusive education framework, serves as a compass, guiding educators toward success. The methods employed, ranging from traditional assessments to personalized evaluations, become waypoints on the educational journey, ensuring that each student navigates a path tailored to their individual strengths and challenges. The inclusivity embedded in assessment methods transcends the traditional metrics, becoming a dynamic force that propels students toward academic achievement and holistic development.

Central to the effectiveness of inclusive education assessment practices is their alignment with the principles of inclusivity. The methods and materials chosen must be adaptable, diverse, and tailored to meet the varied learning needs within the classroom. Inclusive assessments are not a checkbox; they are a commitment to dismantling barriers and fostering an environment where every student, regardless of their abilities, is afforded an equal opportunity to succeed.

At its core, assessment in inclusive education goes beyond the mere measurement of academic prowess. It fosters a comprehensive understanding of each learner, recognizing the uniqueness they bring to the educational landscape. By embracing this holistic perspective, educators can uncover the intricacies of social dynamics, emotional resilience, and behavioral nuances, contributing to the creation of a learning environment that nurtures the complete development of every student.

In summary, the extended conclusion illuminates assessment as an integral component of inclusive education, a transformative force that not only measures progress but propels learners toward success. The commitment to inclusivity embedded in assessment practices contributes to an educational landscape where every student's potential is recognized, celebrated, and cultivated, ushering in a future where diversity is not just acknowledged but embraced as the cornerstone of educational excellence.

REFERENCES

1. Chapelle, C., & Douglas, D. (2006). *Assessing language through computer technology*. New York, NY: Cambridge University Press.
2. Chapelle, C., & Jamieson, J. (2008). *Tips for teaching with CALL: Practical approaches to computer-assisted language learning*. White Plains, NY: Pearson Education.
3. Cohen, A. D. (2006). The coming of age of research on test-taking strategies. *Language Assessment Quarterly*, 3, 307-331.
4. Cziko, G. A. (1982). Improving the psychometric, criterion-referenced, and practical qualities of integrative language tests. *TESOL Quarterly*, 16, 367-379.
5. Klein-Braley, C. (1985). A cloze-up on the C-test: A study in the construct validation of authentic tests. *Language Testing*, 2, 76-104.
6. Raimes, A. (1991). Out of the woods: Emerging traditions in the teaching of writing. *TESOL Quarterly*, 25, 407-430.



UDK:159.9

Rustam DUSHANOV,

IV Akademiyasi Xizmat psixologiyasi va kasbiy madaniyati kafedrasida dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi

O'zMU professori D.Muxamedova taqrizi asosida

ICHKI ISHLAR ORGANLARI TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYAT XODIMLARINING KASBIY FAOLIYATIDA NIZOLI HOLATLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Аннотация

Mazkur maqolada ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyat xodimlarining kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan nizoli holatlar va ularni bartaraf etishning psixologik yo'llari borasidagi fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: "Nizo" tushunchasi, nizoning tavsifi va kelib chiqish bosqichlari, nizo modeli, ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati sohasida nizolarning paydo bo'lish omillari, tezkor xizmat jarayonida nizoli vaziyatlar va ularni bartaraf etish yo'llari.

КОНФЛИКТНЫЕ СИТУАЦИИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СОТРУДНИКОВ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ

Аннотация

В данной статье представлены проблемы и их решения конфликтной ситуации в системе оперативно-розыскной деятельности органов внутренних дел, а также психологические методы их преодоления.

Ключевые слова: Понятие «конфликта», характеристика конфликта и их первоначальные этапы, модели конфликта, факторы возникновения конфликта в области оперативно-розыскной деятельности, конфликтные ситуации в процессе оперативной службы и их преодоления.

CONFLICT SITUATIONS IN THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF EMPLOYEES OF THE INTERNAL AFFAIRS BODIES AND WAYS OF THEIR ELIMINATION

Annotation

In this article, the problems and their solutions of a conflict situation in the system of operational investigative activities of internal affairs bodies, as well as psychological methods for overcoming them are presented.

Key words: The concept of "conflict", characteristics of conflict and their initial stages, models of conflict, factors in the emergence of conflict in the field of operational intelligence activities, conflict situations in the process of operational service and their overcoming.

Inson psixologiyasini tahlil qilish va rivojlantirishga jiddiy e'tibor berish masalasi barcha zamonlar va davlatlarda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi vazifalaridan biri bo'lib kelgan.

XXI asrda psixologiya fani va uning ilg'or vakillari o'zlarining olamshumul ilmiy maqsadlari – insonga, ayni paytda, jamiyatga psixologik xizmat ko'rsatish tizimining muqarrarligini ilmiy va amaliy jihatdan asoslab berishga muvaffaq bo'ldilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha murakkab vazifalar turibdi»[1].

Chunki, bugungi kunda, psixologiya fani biz uchun eng zarur sohalardan biri. Psixologiyani o'rganish – hayotni, insonni o'rganish degani. Kerak bo'lsa, rahbarlik qilmoqchi ekansiz, yetakchi bo'lib, odamlarga ko'rsatma bermoqchi ekansiz, oldin ularning psixologiyasini har tomonlama o'rganish kerak[2].

Ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati xodimlarining xizmat jamoalarida ham nizoli holatlarni kuzatish mumkin. Ushbu holatlar ma'lum bir nosog'lom psixologik muhit, masalan xodimlarning fuqarolar bilan o'zaro yoki rahbarlar o'rtasida o'zaro kelisha olmasligi asosida yuzaga kelishish mumkin. Shu ma'noda nizoli harakatlarning ham o'z diapazoni bor, ba'zi nizoli holatlarda shaxs raqibini yengish uchun hamma imkoniyatini ishga soladi, xizmatdagi shaxslarni aralashtiradi, o'zlarining strategiyasi va taktikasini

ishlab chiqadi, nizoli vaziyat esa ijtimoiy psixologik muhitni yuzaga keltiradi

Ijtimoiy psixologik nuqtai nazaridan qaraganda nizoning yuzaga kelishida shaxslarining alohida qarashlari, shaxslararo va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlar sabab bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda psixologiya va ijtimoiy psixologiyada V. O. Ageyev, A. A. Bodalev, V. I. Juravlev, N. N. Obozov, I. A. Kox, Y. A. Ansupov, A. I. Shipilov, F. M. Borodkin, A. K. Zaytsev, A. G. Zdravomislov va boshqalarning tadqiqotlarida nizoning nazariy asoslari yoritilgan.

Bu muammoni o'rganishda dastlab «ziddiyat» va «nizo» tushunchalarining etimologiyasi, ya'ni ularning mazmun-mohiyatini ochish kerak bo'ladi. Xo'sh nizo va ziddiyat nima?

Nizo lotincha «konflikt» so'zidan olingan bo'lib, «to'qnashish», ya'ni maqsad, qiziqish, nuqtai nazar, fikrlar, kishilarning o'zaro ta'sirlashuvdagi qarama-qarshi yo'nalishlar borasida to'qnashishlaridan iborat bo'ladigan ijtimoiy psixologik jarayondir[3].

Ziddiyat esa ijtimoiy-psixologik muammo bo'lib, konfliktologiyaning asosiy tushunchalaridan biri. Ziddiyat haqida muhokama yuritishda, matnda, nazariyada va umuman predmet, hodisalarda biri ikkinchisini inkor etadigan ikki mulohazaning mavjudligi va ular o'rtasidagi munosabatlar tushuniladi. U obyektiv olamning va bilishning o'z-o'zidan harakati va taraqqiyotida namoyon bo'ladi[4].

Fan tarixida dastlabki ziddiyatlar konsepsiyasi Geraklitga taalluqlidir, ya'ni «abadiy vujudga kelish» faqat ziddiyatlarning birligi sifatidagina yuzaga kelishi mumkin.

Bundan ko'rinadiki, «ziddiyat» tushunchasi «nizo» tushunchasiga qaraganda kengroq ma'noni kasb etib, o'zida hodisa, voqea, jarayon, narsa va predmetlar hamda insonlar fikri o'rtasidagi o'zaro nomutanosiblikni, ya'ni qarama-qarshilikni aks ettiradi.

Nizo esa o'zaro kelishmovchilik yoki qarama-qarshiliklar oqibatida yuzaga kelgan holat, munosabat, ixtilofdir[5].

Nizo jamiyatdagi guruhlar yoki individlar o'rtasidagi antoganizm, u ikki xil ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin. Birinchisi, ikki yoki undan ortiq individ yoki guruhlar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi natijasida yuz berishi bo'lsa, ikkinchisi esa, tomonlarning o'zaro kurashga faol jalb etilishidir[6].

Ijtimoiy psixologik yo'nalishda nizo vaziyatlarning kelib chiqish sabablari ko'ridayi bosqichlarda namoyon bo'ladi:

Birinchii bosqich – nizoning yuzaga kelishigacha bo'lgan holat va nizo ning yuzaga kelishida ichki qarama-qarshiliklarning paydo bo'lish davri. Bu bosqichda ikkala tomonda ham ichki ruhiy zo'rikish yig'ilib boradi va ular buni bir-birlariga bildirmaydilar.

Ikkinchi bosqich – nizoning qaror topishida tashqi ta'sir kuchlari maydonga chiqadi. Bu davrada nizoni ikkala tomon ham biladi, lekin ular ongli, aqli harakat qilishadi. Har xil ma'lumotlar yig'ilgan sari nizo kuchayib boradi va bu ularning ish faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchi bosqich – bu bosqichda ikkala tomon ham ochiq kurashga o'tib oladi, ikkalasidan biri xayrixohlik bildirsam, nizo ma'lum ma'noda yumshaydi, ammo ma'lum bir vaqtgacha ichki ruhiy ziddiyat saqlanib qoladi. Agar har ikki tomon ham xayrixohlik bildirmasa, u holda ichki ruhiy portlash yuzaga keladi va ikkalasidan birortasi g'alaba qozongunga qadar kurash davom etadi. Bu bosqichda ham ikki tomon hamma imkoniyatlarini ishga soladi.

To'rtinchi bosqich – rakiblar bir-birlarining harakatlarini tahlil qilib norasmiy baholaydi. Agar ulardagi qiziqish, manfaatlar bir-biriga to'g'ri kelsa, o'rtadagi nizo susayadi va vaziyatdan chiqsa bo'ladi.

Beshinchi bosqich – o'tib ketadigan, turg'un holat. Bu bosqichda nizoli jarayon o'tib ketgandan keyin unga rasmiy va norasmiy baho beriladi. Bo'lib o'tgan voqealarini eslashda tomonlar o'zlarida noxush holatni his etishadi.

Oltinchi bosqich – tamoman yangi ruhiy holat bo'lib, nizo rivojining nihoyasida, ya'ni jazo qo'llanilganidan keyin ishtirokchilarning jamoadagi mavqei o'zgarishidan so'ng paydo bo'ladi. Bu davrada ijobiylik yuzaga keladi, faqat haqiqatni yuzaga chiqarish uchun harakat qilinadi.

Jamoadagi nizolarning mohiyatini yoritishdan oldin, ularning o'ziga xos ikki jihatini inobatga olish kerak bo'ladi. Birinchisi, nizo va ikkinchisi, nizoli vaziyatdir. Psixologik adabiyotlar tahlili asosida nizo bilan nizoli vaziyatni ajratib turuvchi quyidagi formulani e'tiborga olish muhimdir:

Nizo + muammo + nizoli vaziyat + nizo ishtirokchilari + insident.

Yuqoridagi «nizo modeli»dan ko'rinadiki, muammo nizoli vaziyat hosil bo'lgandagina uning boshqa elementlari o'rtasidagi bog'liqlikni keltirib chiqaradi. Ushbu modelni har qanday faoliyatdagi nizolarni izohlashga asos qilib olish mumkin.

Jamoadagi nizoli vaziyatlarni tahlil qilish va uni hal etish zarurati tug'ilganda, nizo tarkibidagi har bir elementning o'rnini aniq baholash maqsadga muvofiqdir. Nizolarni vujudga kelishi va uning oldini olishda yuqorida keltirilgan formulaga alohida e'tibor qaratish lozim.

Kasbiy faoliyatda uchraydigan nizolarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- 1) mazmuniga ko'ra;
- 2) chuqurlashganligi va o'tkirligiga qarab;
- 3) davomiyligiga ko'ra (qancha vaqt davom etishi);
- 4) ijtimoiy holatiga qarab;
- 5) izohlashning shakliga qarab.

Jamoadagi sog'lom psixologik muhitning buzilishiga sabab buluvchi bir qator omillar mavjud bo'lib, ularni psixologlar quyidagilarga ajratganlar:

– rahbariyatning ish faoliyati va jamoa a'zolari o'rtasidagi munosabatdan qoniqmasligi;

– rahbar bilan xodimlar o'rtasida o'zaro tushunish, o'zaro hurmat va hissiy - emotsional qo'llab - quvvatlashning yo'qligi;

rahbar yoki xodimning obro'ga ega emasligi;

– jamoa a'zolarida boshqaruv va o'zini o'zi boshqarishdagi faollik darajasining yetishmasligi;

– jamoa a'zolarining bir maqsad yo'lida jipslashmaganligi;

– qat'iy tartib-intizomning yo'qligi;

– faoliyat natijalaridan qoniqmaslik.

Shu nuqtai nazardan, jamoadagi shaxslararo munosabatlarda nizoli vaziyatlarni bartaraf etish, barqaror psixologik muhitni yaratish va nizoli vaziyatlarning oldini olish uchun har bir rahbar xodim quyidagi holatlarni inobatga olishi maqsadga muvofiq:

- xodimlarni to'g'ri tanlashlari va joy-joyiga qo'yishi;
- mehnatni aniq tashkil etish;
- boshliq bilan xodimlar o'rtasidagi munosabat xususiyatlarini farqlay olish;

• jamoaning har bir a'zosini burch va majburiyatlarini yaxshi bilishi;

• ishdagi qat'iy - tartib intizomni yaratish;

• har xil salbiy psixologik hodisalarni tarqalishiga yo'l qo'ymaslik

(mish-mish, g'iybat, anonim holatlarni).

Har qanday kasbiy faoliyatning o'ziga xos tomoni kundalik muomala jarayonidan iborat bo'lib, jamoa a'zolari o'rtasidagi munosabatlar yetarlicha rasmiy ma'muriy ko'rinish olganligi bois nizoli vaziyatlarga shart-sharoitning namoyon bo'lishi anchagina qulaydir.

Berilgan buyruqni bajarish, boshliq bilan xodim o'rtasidagi munosabatdagi nizoli holatlarni hal eta olishga shay turish, jazolashni murakkab ko'rinish olishi xodimlarda ancha qiyinchiliklar tug'diradi. Agar rahbar va xodim o'rtasidagi munosabat rasmiy, ma'muriy - huquqiy tarzda olib borilishi bilan birga o'zaro hamkorlikda ishlash ko'rinishini olgan sharoitlarda, rahbar bilan xodim o'rtasidagi munosabatlar subordinatsiya saqlangan taqdirda ham o'zaro hurmat tamoyiliga asoslansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshliq - xodim, xodim - boshliq, xodim - xodim o'rtasidagi munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'yish nizoli holatlarni oldini olish va bartaraf etishning asosiy shartlaridan biri bu muomala ishtirokchilarning ijobiy munosabat o'rnatish pozitsiyasida turishi va muomala kilish malaka saviyasi hisoblanadi.

Bugungi kunda shaxslararo munosabat o'rnatish texnologiyasi yetarlicha rivojlangan bo'lib, psixologik tajribalar nizoli vaziyatlarni hal etishda ijobiy emotsional fondagi shart-sharoitlarni yaratish kerakligini ko'rsatadi.

Shu ma'noda, ichki ishlar organlari jamoasidagi rahbar, o'zining qo'l ostidagi xodimining individual-psixologik xususiyatlarini farqlay olishi, uning hissiy kechinmalari va qobiliyatlarini tashxis etish layoqatiga ega bo'lishi talab etiladi.

Muomalaga kirishimlilikni ta'minlashda quyidagi tamoyillarni bosqichma-bosqich amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

1. bosqich. Bulg'usi muloqotni bashorat qilish.
2. bosqich. Psixologik to'siqlarni bartaraf etish.
3. bosqich. Mos keluvchi qiziqish va manfaatlarni topish.
4. bosqich. Muomala tamoyillarini aniqlash.
5. bosqich. Muomala uchun xavfli sifatlarni ajrata olish.
6. bosqich. Muomalada sherigiga moslashish va psixologik aloqa o'rnatish.

Yuqorida qayd etigan tamoyillardan foydalanish va bosqichlarga amal qilish hamsuhbatga ijobiy psixologik ta'sir ko'rsatish va nizolarga shart-sharoit tug'dirmaslikning maqbul vositalaridan biridir.

Psixologik adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, odamlarning o'zaro munosabatlari ko'pchilik holatlarda beshta asosiy ta'sir ko'rsatish usuli orqali amalga oshiriladi. Bular: e'tiqod, ishontirish, rag'batlantirish, taqlid, ta'sir o'tkazish, majburlashdir.

Ta'kidlab o'tilgan usullar ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati xodimlarining xizmat jamoalarida boshliq va xodimlar o'rtasidagi o'zaro munosabatda ham o'z aksini topishi tabiiy. Chunki ba'zi holatlarda, favqulodda vaziyatlarda boshliq tomonidan berilayotgan topshiriq va buyruqlarning berilish tartibi belgilangan ichki ishlar organlari qonuni talablariga, muassasaning ichki tartib-qoidalariga mos kelish va kelmasligiga qarab nizoli holatlarni vujudga kelishi bilan baholanadi. Agar boshliq jamoada yetarlicha mavqega

ega bo'lsa, beriladigan buyruq va topshiriqlarning bajarilish tartibi ta'sir ko'rsatishning e'tiqod darajasini namoyon qilishi mumkin. Aks holda boshliqqa qo'l ostidagilarning bo'ysunishi anchagina sustlashadi.

Ishonch va nufuzning yo'qolishi, muloqot jarayonlarida shubha paydo bo'lishi va boshqalar ham aynan nizoli vaziyatlarning vujudga kelishiga zamin hozirlaydi.

Ijtimoiy psixologiyada nizoli vaziyatlarni bartaraf etish bu qiyin psixologik muammodir. Shu nuqtai nazardan nizoli holatlarni oldini olish va yechishda quyidagilarni tavsiya qilishimiz mumkin:

1. Nizoli holatlarni yechishdan avval vaziyatni o'rganish va unga to'g'ri baho berish.
2. Nizoli vaziyatlarni rivojlanishiga shart-sharoitlar yaratib bermaslik.
3. Nizoni o'zagini aniqlash va uni bartaraf etish yo'llarini topish.
4. Nizoning obyektiv va subyektiv sabablarini aniqlash.
5. Subyektlar o'rtasidagi nizoning yo'nalishini aniqlash.
6. Nizo ishtirokchilarining fikr-mulohazalarini eshitish va adekvat qaror qabul qilish.
7. Nizoli vaziyatlarni bartaraf etishning optimal yo'l topish.

Ko'rinib turibdiki, jamoada nizoli vaziyatlarning kam va psixologik muhitning meyorda bo'lishi boshliq shaxsi va xodimlarning bilim saviyasi, muomala madaniyati hamda ularning ijrochilik intizomi va hamjihatliklariga bog'liq.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб - интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Тошкент – «Ўзбекистон» - 2017. – 45-б.
2. Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти Каримов И. А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият. –Т. 14. – Т., 2006. – 121–122-б.
3. Душанов Р.Х., Фарфиев Ё.А. Касбий психология. Дарслик.Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси. Тошкент. – 2015. – 380 – б.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т.2. – Т., 2006. – 147-б.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т.3. – Т., 2006.
6. Энтони Гидденс. Социология. –Т., 2012.



Dilfuza JUMANIYOZOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, (PhD)
E-mail: dilfuzakamol74@gmail.com

Falsafa fanlari doktori, professor O.Nishonova taqrizi

RELIGIOUS-MYSTICAL CONCEPTS IN EASTERN AND WESTERN PHILOSOPHY

Annotation

This article reviewed Western and Eastern literature and research into worldly and divine factors that improve personality, but found that not enough attention was paid to the harmony of humanity and divinity. Therefore, it is important to study the significance of the harmony of humanity and divinity in the spiritual development of man. This article is based on the fact that in Eastern philosophy, humanity and divinity are dialectically related realities.

Key words: Mysticism, philosophy, religion, humanism, divinity, existentialism, Islam, Christianity, morality, mysticism, esotericism.

РЕЛИГИОЗНО-МИСТИЧЕСКИЕ КОНЦЕПЦИИ В ВОСТОЧНОЙ И ЗАПАДНОЙ ФИЛОСОФИИ

Аннотация

В данной статье проанализированы западной и восточной литературы и исследований изучались мирские и божественные факторы, улучшающие личность, но было обнаружено, что недостаточно внимания уделялось гармонии человечества и божественности. Поэтому важно изучить значение гармонии человечества и божественности в духовном развитии человека. Данная статья основана на том факте, что в восточной философии человечество и божественность представляют собой диалектически связанные реальности.

Ключевые слова: Мистика, философия, религия, гуманизм, божественность, экзистенциализм, ислам, христианство, мораль, мистика, эзотеризм.

SHARQ VA G‘ARB FALSAFASIDA DINIY-MISTIK KONSEPSIYALAR

Annotatsiya

G‘arb va Sharq adabiyotlari, tadqiqotlarining tahlilida shaxsni kamolotga eltuvchi dunyoviy va ilohiy omillar tadqiq etilgan, biroq, insoniylik va ilohiylik uyg‘unligiga yetarlicha e‘tibor qaratilmaganligi aniqlandi. Shu bois, shaxs ma‘naviy kamolotida insoniylik va ilohiylik uyg‘unligining ahamiyatini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada SHARQ falsafasida insoniylik va ilohiylik o‘zaro dialektik bog‘liq voqealiklar sifatida kelishi asoslangan.

Kalit so‘zlar: Tasavvuf, falsafa, din, insoniylik, ilohiylik, ekzistensializm, islom, xristianlik, axloq, mistika, ezoteriya.

Kirish. Bugun rivojlangan mamlakatlarda din, dindorlik, spiritualistik izlanishlar borasida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tadqiqotchilar shaxs – ma‘naviyat dialektikasi, insoniylik mezonlari, dinlarning evolyutsiyasi va transformatsiyasi, etno-konfessional muammolarga alohida e‘tibor qaratmoqdalar. Insoniylik va ilohiylik dialektikasiga oid sotsiologik, antropologik, tarixiy-madaniy, ekzistensialistik, psixologik, spiritualistik va teologik tadqiqotlar olib borilmoqda. Jahonda diniy va dunyoviy qarashlar o‘rtasidagi ziddiyatlar real voqeelikka aylanayotgani kuzatilmog‘da.

Ma‘lumki, jahon falsafasida mavzuga doir masala olimlarning doimo diqqat e‘tiborida bo‘lgan. G‘arbda keng tarqalgan oqimlardan biri ekzistensializmdir. Aynan mana shu oqim vakillari bizning mavzuga aloqador masalalarni o‘rgangan. Unga G‘arb “hayotning barcha sohalaridagi o‘tkir savollarini ochib beradigan va inson mavjudligi mohiyatining tub masalalariga javob beradigan” falsafiy oqim sifatida qaramoqda. SHu bilan birga ekzistensializm din, adabiyot, san‘atni falsafa bilan sintezlashtirib, o‘ziga xos yo‘nalishlarni shakllantirmog‘da. Ulardan biri «isaviylik ekzistensializmi» va «katolik ekzistensializmi»dir.

Mavzuga doir manbalar tahlili. Xristianlik ekzistensializmi oqimining yirik vakillari K.Y.Aspers, M.Xaydegger, G.Marsel’, A.Kamyu, J.P.Satr, N.A.Berdyayev, S.Kir’kegor, M.Ponti hisoblanadi. Aynan ularning ijodiy, falsafiy

izlanishlari, asarlari ta‘sirida ekzistensializm oqim sifatida shakllandi.

Ekzistensialistlar insonning ichki, ma‘naviy ruhiy olamiga murojaat qilib, «hayot be‘mani» (A.Kamyu), «borliq cheksiz to‘siqlar va zanjirlardan iborat» (M.Xaydegger), «ijod mohiyati hurlik va ilohiylikda» (N.A.Berdyayev), «cheksiz behuzurlik» (J.P.Satr) kabi masalalarni kun tartibiga qo‘yidilar va ularga badiiy-falsafiy asarlarida javob berishga intildilar. ye.Kossakning uqtirishicha, ekzistensializm «hech qachon yaxlit doktrina sifatida shakllanmagan».

Shuning uchun «ekzistensializm turli falsafiy sistemalarga xos metodlar bilan yechiladigan kompleks antropologik-falsafiy mavzulardir». Hatto Sartr, «menda o‘zimni mehnat va e‘tiqod bilan xalos qilish maqsadi mavjud», deganida ham uning e‘tirofi ekzistensialdir. Ilohiyga sajda qilish, diniy dogmatikaga e‘tiqod qo‘yish shaxsning ma‘naviy-ruhiy hayotiga qanchalik ta‘sir qilmasin, ular shaxsning yaratuvchanligiga, ijodiy izlanishlariga, xullas, «nafaqat o‘zini, shuningdek atrofini ham ilohiy poklik, mehr-muhabbat, ezgulik bilan to‘ldirishiga g‘ov bo‘lolmaydi». Demak, ilohiylik Xudoga sig‘inisdangina iborat emas, u insoniylik, ijtimoiy borliqni yanada insoniy lashtirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu xulosani G‘arb olimlari tadqiqotlariga nisbatan aytish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Falsafa, ayniqsa SHARQ falsafasi doimo din, diniy ta‘limotlar bilan uyg‘un rivojlanib kelgan. To‘g‘ri, o‘z paytida al – G‘azzoliy o‘zining «Taxafut

al – falsafa» asarida faylasuflarga qarshi chiqib, ularning o'ni olti metafizik va to'rt fizikaviy qoidalarini qattiq tanqid qilgan va ilohiy irodani mutlaqlashtirishga intilgan, bu borada izdoshlar orttirgan, muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lsa – da, [1.] falsafa va din, insoniylik va ilohiylik o'rtasidagi uyg'unlikka barham berolmaydi. Balki u falsafa olamiga Ibn Rushdni olib chiqdi, Ibn Rushd falsafa va din munosabatlarini yoritib shuhrat topdi. [1.] Darvoqe keyinchalik al – G'azzoliyning o'zi ham falsafa va din muammolarini tahlil qilishga, azaliy mavzularni muhokama qilib diniy – falsafiy qarashlarning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Diniy – mistik konseptiyalar tasavvufni islom dini bilan bog'lab qarashda namoyon bo'ladi. Unda ong avvalo tasavvuf, Qur'oni Karim va hadislar nuqta nazaridan talqin qilinadi, boshqa yondashuvlar, ayniqsa falsafiy, metafizik, estetik yondashuvlar tan olinmaydi. Bizning fikrimizcha, bu konseptiyalar rang – barangligini tan olmaslikka yoki ularni rad etish orqali birinchidan, «Payg'ambarning har bir qalb o'z diniga ega»[3] degan ko'rsatmasini unutib mutaassiblikka yon bosishga, ikkinchidan, tasavvufning o'zini ham rang – barang qarashlardan, yondashuvlardan, solikning individual tajribalaridan iboratligini hisobga olmaslikka moyildir. Aslida «Sufizm – barcha dinlar mohiyatidir».[4] Ammo bu fikrlarimiz tasavvufdagi diniy, mistik, individual tajriba, ezoteriya borligini rad etmaydi, ularning falsafiy talqinlari maxsus tadqiq etilishi mumkin. Hatto diniy, mistik, ezoteriya ham tasavvuf negizidan antropologik maqsadni rad etmaydi. Solikning Haqiqat, Adolat va Poklikka erishish niyati «Ilohiy ishq orqali poklanish va pok Parvardigor vasliga yetishish g'oyasidir (ya'ni Inson va ilohning qorishib, qo'shilib ketish g'oyasi) ...Iloh yaratgan moddiy olamdagi go'zallik – Ilohning kamoli va jamoli aks etgan narsalar va uning gultoji insonga muhabbat orqali boradi. SHu tariqa dunyoviylik bilan ilohiylik o'zaro bog'lanadi».[5]

Diniy – mistik konseptiyalarda solihning dunyo tashvishlaridan, jamiyat ishlaridan, adolatni, haqiqatni qaror toptirish uchun kurashdan, xullas, ong, ruh, qalb osudaligini buzuvchi barcha narsalardan va amallardan voz kechish, Iloh vasliga yetish o'yi bilangina yashash g'oyasi targ'ib etiladi. Masalan, «ilk zohidlar daromadli hunarlarini atayin tark etganlar yoki merosdan voz kechganlar. Bu bilan ular umayilar idorasiga xos bo'lgan adolatsizlik va korrupsiyaga qarshi o'z noroziliklarini ifoda etganlar. Qoidaga ko'ra, bunday sust narozilik va faol ijtimoiy va iqtisodiy hayotdan voz kechish faol qarshilik ko'rsatishga olib kelmadi, shuning uchun hokimiyat egalari ko'zlari oldida paydo bo'layotgan zohidlik harakatiga qarshi kurashishni zaruriyat deb bilmadilar... Zohidlarga riyozat chekishga ijozat etildi, bu ular nazarida, intiqom onlari (yayum al - Hisob)ga tayyorgarlik ko'rish edi».[6] A.D.Knishing yozishiga ko'ra, shu tariqa sufiylar Allohning marhamatiga va shavqatiga, umid qildilar, keyinroq esa Allohning muhabbati, Ilohiy ishq haqidagi g'oyalarga keldilar.[6] Aynan zohidlar dunyoning, amlonning, chop-choplarining o'tkinchi ekanini, faqat Alloh vasliga yetish, Allohga bo'lgan oliyanob tuyg'u – ishq bilan yashash chin taqvodorga oid fazilat ekanini ham nazariy, ham Amaliy isbotlash an'anasini boshlab berdilar. Ilohiy muhabbat Xudo odam o'rtasidagi «azaliy kelishuv», ahd, shartnomaga asoslanadi. Qur'oni Karimda uqtirilishicha, ... Tangri taolo o'z qudrati bilan Odam alayhis – salomning belidan undan tarqaydigan barcha zurriyotlarini chiqarib, ularga O'zining mo'jizalarini ko'rsatgach: «Aytinglar – chi, Men Sizlarning rabbingiz emasmanmi» deganida, ular «Parvardigor, O'zing barchamizning rabbinmizsan, bizlar bunga guvoh bo'ldik, deb Tangriga ahdu paymon, ya'ni misoq bergan ekanlar». [7] Ushbu ahdga zohidlar ham, tasavvufning boshqa tariqatlari ham, insonning Allohga ishqiy, ya'ni ilohiy ishqni taqozo qiladi, deb tavsif beradi. Biroq vujud, yon – atrofdagi nigohni

jalb etuvchi narsalar, sharaf, obro', hokimiyatga erishish tashvishi ilohiy ishqning to'la namoyon bo'lishiga, dilning yaratgan o'yi bilan yashashiga xalaqit beradi. SHuning uchun «mistikning maqsadi qalbni dunyoni yaratishdan oldingi Xudoga sadoqatda va musaffolikka bo'lgan holiga qaytarishdir».[6] YA'ni Xudo bilan odam o'rtasidagi azaliy kelishuvga, ahdga qaytish, to'g'rirog'i, insoniylik bilan ilohiylikni uyg'unlashtirishga qaratilgan ushbu shartnomani qayta tiklashdir.

Tasavvuf tariqatlari diniy – mistik yondashuvni chetlab o'tmaydi, balki, aksincha, uni o'z ta'limotidagi Alloh vasliga yetish yo'li sifatida qaraydi. Ammo gap ushbu yo'lni, zohidlikni mutlaqlashtirmaslikdadir.

Ilk mutasavviflar ta'limotlaridagi zohidlik, mistitsizm keyingi tariqatlarda o'zgartirildi, ya'ni hayotga yaqinlashtirildi. Insonning ijtimoiy borliq bilan aloqalarini yanada mustahkamlash, shu tariqa uni nafaqat Xudo, shuningdek jamiyat, kishilar oldidagi mas'uliyatini unutmazlikka da'vat etish bilan to'ldirildi. Jamiyat, kishilar oldidagi burchini ado etmaslik, uni unutish oxir natijada kishining o'zini ma'naviy – axloqiy tanazzulga olib keladi.

Falsafiy konseptiyalarning yuzuga kelishini Ibn Arabiy va Mansur Xalloy nomlari bilan bog'lashadi. Idris SHaxning qayd etishicha, «ortodoks teologiyaga Ibn Arabiy kabi shunday kuchli ta'sir etgan sufiy topilmaydi».[4] Faylasufning hayotini o'rgangan mutaxassislar Ibn Arabiyning mutafakkir, sufiy sifatida shakllanishiga Abdulqodir Giloiniyning ta'siri bo'lgan, deb ta'kidlashadi. Faylasufga xos bo'lgan ichki qarama – qarshiliklarni nazarda tutib Idris SHax, «u (Ibn Arabiy – D.J.) dinda konformist (murosachi – D.J.), ichki hayotida ezofterist bo'lgan».[4] deb yozadi.

Mavzumiz uchun muhim bo'lgan jihat shundaki, Ibn Arabiy islom dinida, shu jumladan tasavvufda ham Xudo bilan Odam, Yaratgan bilan Yaratilgan, Haq bilan Xalq o'rtasidagi bog'liqlik, ya'ni insoniylik va ilohiylik masalasini ilmiy – falsafiy talqin etish zarurligini kun tartibiga qo'ydi. Ungacha barcha mutsavviflar Xudoni yagona negiz, substansiya, olamni yaratgan zot, insonning irodasi, erki Uning ixtiyori, amri bilan belgilab berilgan, deb qaradilar. Ibn Arabiy Xudoning, ilohiyning mutloq rolini e'tirof etgan holda, moddiy narsalar Xudoning atributlari, ushbu narsalarda uning sifatleri yashiringan, shuning uchun Xudo «Kosmik toshoyna» deb ko'rsatdi.[9] Bu talqindan odamdagi fazilatlar va illatlar ham xudodandir, ya'ni ular xudoning atributlaridir degan islom dogmatikasiga zid fikr kelib chiqadi. To'g'ri, ushbu ziddiyatni Ibn Arabiy murosachi yo'li bilan hal etmoqchi bo'ladi. Uning fikriga ko'ra, «Olamdagi yaxshi – yomon, zulm – marhamat, zulmat – nur, bir – biriga zid narsalarning borlig'i ham bir ilohiy hikmatga asoslanadi. Bu ziddiyatlar asosida Allohning ham jamol sifatleri, hamda jalol sifatleri tajalli etmoqdadir».[10] Demak, ijobiy va salbiy jihatlar ham Alloh dandir, ular ilohiy hikmatga asoslanadi. Boshqa tariqatlarda, umuman islom dinida Alloh faqat ijobiy, tabohlikdan, qusurlardan xoli yaratuvchi kuch, pok, musaffo Zot sifatida qaraladi. Insondagi g'ayri axloqiy xatti – harakatlar esa uning nafs, vujud istaklari, shahvoniy mayllari, kuch ishlatishga, amlok to'plashiga moyilligi natijalari sifatida qaraladi.

Tasavvufda Xudo vasliga tavhidiy af'ol (axloq), tavhidi sifat va tavhidi zot orqali yetish yo'llari borligi qayd etiladi. Usmon Turarning tavsifiga muvofiq, «Tavhidi af'ol: bu martabada orif – inson, malak va shaytondan sodir bo'lgan fe'llarni mosivoga emas, Allohga nisbat etadi. Bu vahdati qusudga zid keladi. Tavhidi sifat: orifning barcha sifatleri mosivoga emas, Allohga nisbatan etishdirki, bu ham vahdati shuhudga zid keladi. Tavhidi zot borliq sifatida faqatgina yolg'iz Zot (Alloh)ni va Uning turli martabalaridagi tajallilarini ko'rmoq, shu asnoda mosivadan «borliq»ni surgun qilishdir. Bu esa vahdadi vujudidir».[10] Diniy – falsafiy

nuqtai nazardan ularning o'z vazifalari, ichki xususiyatlari mavjud, ammo aynan tavhidi zot oxir natija, maqsaddir. «Tavhidning bu martabalar holga aloqadar bo'lib, orif ruhi kamolga erishgani sayin bularning har birini navbatma – navbat zavq orqali idrok etib kamoli nihoyasiga yetganida tavhidi zot martabasiga erishadi».[10] YA'ni musaffo, ulug', pok Zot – Xudo vasliga yetadi. Psixologik yondashuvlar solikning o'z «Menini idrok etishini, uning jilovlab Xudo vasliga yetish yo'llaridagi kognitiv tajribasini tadqiq etadi. Haqiqatan ham «Sufizm bevosita transkognitiv tajribaga tayanadi. Haqiqiy «Men» o'tkinchi «Men»ni tasdiqlash va kuzatish qobiliyatiga ega hamda individual ruhni, shuningdek bir vaqtda insoniyatning ruhini ham angelaydi».[11] Demak, tasavvur negizida insonning o'z «Men»ini idrok etishi, erkin ifoda qilishi, ruhning insoniyat ruhi bilan uyg'unlashishga intilishi yotadi. Aynan «Men»ning olam ichidagi sayohati, o'zidan yuqori bo'lgan Zotni topish borasidagi izlanishlari solikni psixologik yondashuvlar ob'yektiga aylantiradi.

Ma'naviy – axloqiy yondashuvlar tasavvufning butun mohiyatiga singgan. SHuning uchun yuqoridagi barcha yondashuvlar (konseptiyalar) uni hisobga oladi. Bizning tadqiqotimiz ham ushbu yondashuvga hamohangdir. Biroq bu o'rinda shuni aytishimiz mumkinki, tasavvuf ma'naviy – axloqiy kamolat orqali Alloh vasliga yetish kabi transsendental g'oyani ilgari sursa – da, unda ijtimoiy talab rad etilmaydi. Islom dini ham, tasavvuf falsafasi ham shaxsni ijtimoiy muhit, jamiyat bilan murosada, muntabiq, uyg'un yashashini, uning tavhidiy izlanishlari Umumga, Birga muvofiq kelishini ta'kidlaydi. G'arbona individualizm, egoizm SHarqqa, islom madaniyatiga yot voqeliklardir. Tasavvuf shaxsiy kognitiv tajribaga tayansa-da, shaxsning «ijtimoiy mavjudot» (Aristotel') ekanini rad qilmaydi va uning ijtimoiylashuvini ma'naviy – axloqiy kamolatga erishishning muhim sharti deb biladi. Masalan, tasavvufning shaxsni insoniyat bilan o'zini uyg'un idrok etishi borasidagi fikrlar mohiyatan ijtimoiydir. «Odam, - deb yozadi Hazrat Inoyat Xan, - o'zida insonparvarlikni, birodarlik, muhabbat va o'z yaqinlariga nisbatan yaxshilik tuyg'usini uyg'otish uchun yaratilgan ... qalbimizda muhabbat, xayrixohlik, hamdardlik uyg'otish uchun fidoyilik lozim. Boshqalarning qayg'ulariga hamdard bo'lish uchun biz o'z qayg'ularimizni unutishimiz kerak. Boshqalarning qornini to'yg'azish uchun biz o'zligimizning ochligimizni unutishimiz darkor. Har kim o'zining egoistik manfaatlariga xizmat qiladi, boshqalar haqida o'ylamaydi, aynan bu butun dunyoga ko'p iztiroblar keltirmoqda»[3]. Ijtimoiy manfaatlarini, yon – atrofdagi kishilarning ehtiyojlarini, iztiroblarini ilg'amaslik, goho ularni

ochiq mensimaslik shaxsni jamiyatdan, imonu e'tiqoddan, Yaratgan va Uning bandalaridan uzoqlashtiradi. Mutlaq zohidlik qanday salbiy holatlarga, zuhudfuruslikka va mutakabirlikka olib kelsa, egoizm, individualizm ham shunday g'ayriaxloqiy, g'ayridiniy holatlarga sabab bo'ladi, kishini ijtimodan uzoqlashtiradi. Tasavvuf ta'limotining mohiyati uning insonning ichki dunyosiga, ma'naviy ruhini olamiga qaratilganidadir. SHariat tashqi xatti – harakatlarga – shar'iy amallarning bajarilishiga, tasavvuf esa ichki hayotga – lubbning holati, xulus, itob, malomatchi nafs, Vara', tavid, tazkiya, xushu' kabi jihatlarini o'rganishga qaratiladi. Demak, tasavvufda diniy – irfoniy qarashlarning e'tiqodiy amallarning lubb – qalb, ong, - ruh, nafs, axloq, bilan bog'liq jihatlarini o'rganish asosiy vazifa hisoblanadi. Ko'rinib turibdiki, tasavvuf aslida ma'naviy barkamollikka insoniylik va ilohiylik uyg'unligi orqali erishish mumkin deb hisoblaydi.

Xulosa va takliflar. Islom va islom falsafasida insoniylik va ilohiylik masalalari turli muammolar, mavzular doirasida qo'yilsa-da, ular oxir natijada islom dogmatikasi – Allohning yagonaligi va Muhammad payg'ambar uning rasuli ekanini tan olish, ya'ni tashhhud, namoz, ro'za, zakot va haj rukniga bo'ysinishi orqali o'lchanadi, baholanadi. Diniy dogmatikaga rioya etishsiz din yo'q, hamma dinlar o'z dogmatikasiga ega. Demak, din ichida yuzaga kelgan diniy – falsafiy ta'limotlar, oqimlar ham eng avvalo dogmatikani tan olishi shart. Islom dogmatikasi esa Quroni karim va hadislarida o'z ifodasini topadi. Qur'oni karimga ko'ra, inson Yaratganing, Allohning qulidir. Bu o'rinda «Qul» atamasini Qadimgi Rim davridagi erksiz, mutlaq bandi, «sotiladigan, hadya etiladigan, hatto o'ldiriladigan hayvon-qul ma'nosida tushunmaslik zarur. Insonni, odamni, hayot va o'limni, borliqni yaratgan Alloh, Xudo ularga o'z ta'sirini, hukmini, shu jumladan mehri va qahrini ham o'tkazishi tabiiy holdir. I.Kant ta'kidlaganidek arzimagan kichkinagina materiya, atom o'zidan o'zi tabiiy ravishda paydo bo'lmaydi»[14] deb yozgan edi. Bu bilan u olam va odamni yaratgan ilohiy kuch mavjudligini tan olgan. Faylasufning axloqiy imperativi negizida ham shunday ilohiy kuchga, u o'rnatgan ijtimoiy tartiblarga rioya etish, bo'ysinish konsepsiyasi yotadi. Demak, diniy dogmatika odam irodasini yaratgan, Xudo, transsendent bilan bog'laydi. Va ilohni yetakchi qilib qo'yadi. SHuning uchun ham islom dini odamni Allohdan boshqaga bosh egmaslikka, «o'zgan yordam so'rab iltijo qilmaslikka» undaydi. Bu bilan u insoniylik bilan ilohiylikni, odam bilan xudoni, yaratilgan bilan yaratilgani bir – biriga chambarchas bog'laydi, ular o'rtasida yaxlitlikni, uyg'unlikni, birlikni, butunlikni shakllantiradi. Bu aslida olam, borliq butunligining ifodasidir.

ADABIYOTLAR

1. Степаненц М.Т. Восточная философия. – М.: Восточ. лит.-ра. 2001. –С.38
2. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Тасаввuf хакида тасаввур. – Т.: Мовароуннахр, 2004. -376 /
3. Хазрат Инайят Хан. Метафизика. Опыт души на разных уровнях существования. Сборник. – М.: Сфера. 2007. –С.282.
4. Идрис Шах. Суфизм. – М.: «Клышников и К.». 1994. – с. 68.
5. Комилов Н. Тасаввuf. Иккинчи китоб. Тавхид асрори. – Т.:Ф.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат ҳамда «Ўзбекистон» нашр. 1999. –с.5 б.
6. Кньш А.Д. Мусульманский мистицизм. – М.: -СП б., «Диля». 2004. –с 14.
7. Куръони Карим. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. –Т.: «Чўлпон», 1992. -140 б.
8. Алимасов В. Фалсафа ёхуд фикрлаш чанкоги. – Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашр., 2007. – 199-200 б.
9. Н Тримингэм Д Ж.С. Суфийские ордены в исламе. –М.: «София», ИД «Гелиос», 2002. –с. 8-9
10. Турар Усмон. Тасаввuf тарихи. – Т.: «Истиқлол», 1999. – 149 б.
11. Линн Вилкокс. Суфизм и психология. – СПб., Изд. «ДИЛЯ», 2005. – с.6.
12. Бердяев Н.А. Диалектика божественного и человеческого. – М.: АСТ; Харьков: Фолио, 2005. – С.29.
13. Умар Хайём. Рубойлар. – Т.: Радуга, 1985. – 5 б.
14. Қаранг: Кант И.Сочинения шести томах. Т.4.Часть 2-М.: Мысль, 1965. –С. 432-434.
15. Имом ат – Термизий, Шамоили Мухаммадийя. – Т.: Мехнат, 1991. 76 б.
16. Dilfuza Jumaniyazova Issues of personal spirituality formation in uzbekistan. ISSN: 2750-8587DOI: <https://doi.org/10.55640/eijmrrms-02-07-09https://eipublication.com/index.php/eijmrrmsVolume: 02 Issue: 07 July 2022 Published Date: -18-07-2022>.
17. Г. А. Носирходжаева О Философско-методологических основах историко-научных изысканий беруни. социосфера N 4, 2014. chrome-extension://gphandlahdppfmcacakmbngmbjnjiiahp/http://sociosphaera.com/files/conference/2014/Sociosphaera_4-14/18-22_g_a_nosirhodzhaeva.pdf



UDK:378.1

Jasurbek ISAKOV,

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti erkin tadqiqotchisi, dotsent

E-mail: dr.isakov@mail.ru

Andijon mashinasozlik instituti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi G.Umarova taqrizi ostida

CHIZMA GEOMETRIYA VA PERSPEKTIVA FANINI O‘QITISHNING ZARURATI

Annotatsiya

Talabalar avtomatlashtirilgan loyihalash tizimida turli xil detallarning chizmalarini chizish orqali, ular kompyuter grafik dasturiy mahsulotini ham, grafik faoliyatning klassik tarkibiy qismini ham o‘zlashtirish imkonini beradi va shaxsiy kompyuter yordamida ishlarni mustaqil bajarishlari asoslangan.

Kalit so‘zlar: Modernizatsiya, tendensiyalar, intellektual, ijodkorlik, sintez, kreativlik, moddiy-texnik, muhandislik, konstruktorlik.

НЕОБХОДИМОСТЬ ОБУЧЕНИЯ ПРЕДМЕТЕ НАЧЕРТАТЕЛЬНОГО ГЕОМЕТРИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Аннотация

Рисую чертежи различных деталей в системе автоматизированного проектирования, студенты смогут освоить как программный продукт компьютерной графики, так и классическую составляющую изобразительной деятельности, основанную на самостоятельном выполнении работы с помощью персонального компьютера.

Ключевые слова: Модернизация, тенденции, интеллектуальное, творчество, синтез, творчество, материально-техническое, инженерное, конструктор.

THE NEED FOR TEACHING THE SUBJECT OF DESCRIPTIVE GEOMETRY AND PERSPECTIVE

Annotation

By drawing drawings of various parts in a computer-aided design system, students will be able to master both a computer graphics software product and the classical component of visual activity, based on independently performing work using a personal computer.

Key words: Modernization, trends, intellectual, creativity, synthesis, creativity, material and technical, engineering, designer.

Jahonda ta‘lim sohasini modernizatsiya qilish, o‘qitishning metodik ta‘minotini zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga muvofiq takomillashtirish amaliyotiga e‘tibor kuchaytirilgan. Bugungi kunda ta‘limning natijaviyligini ta‘minlash hisobiga o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari AQSh (University of California), Germaniya (Technische Universitat Darmshtadt), Chexiya (University of Ostrava), Angliya (Cambridge University), Rossiya (Moskva davlat universiteti, Sankt- Peterburg davlat universiteti) kabi rivojlangan mamlakatlarning yetakchi universitetlarida tadqiq qilinmoqda.

Zamonaviy talaba shaxsini ma‘naviy, intellektual va ijodiy jihatdan rivojlantirish muammosi dolzarb ahamiyatga ega ijtimoiy-pedagogik va ustuvor masala sifatida ijodiylik, ijodkorlik qobiliyatlar, intellekt, intellektual faoliyat, ijod, ijodkorlik, intellektual ijodkorlik, qobiliyatlar, intellektual-ijodiy qobiliyatlar, ijodiy tasavvur, intellektual-ijodiy jarayon, faoliyat kabi tushunchalarni o‘rganadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining so‘nggi yillarda qabul qilingan qator qarorlari va farmonlarida ham ushbu g‘oya yetakchi o‘rinni egallaydi. O‘quvchilar intellektual-ijodiy - kreativ faoliyati katta ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega bo‘lib, u barkamol avlodning bazaviy sifatleri va qobiliyatlarini rivojlantirish va takomillashtirishning omilidir. Zero, intellektual-ijodiy rivojlanish “shaxsning ma‘naviy sohosi bilan bog‘liq. Bu faol faoliyat jarayonidagi ahloqiy, intellektual va estetik talablar va manfaatlarning shakllantirilishi va qanoatlantirilishidir”.

Demak, mazkur jarayonda inson ma‘naviyatining muhim qirralari shakllantiriladi, rivojlantiriladi va takomillashtiriladi. Zero, uzluksiz va izchil intellektual-ijodiy faoliyat

shaxsda intellektni, ya‘ni fikrlash qobiliyati va kreativlik (o‘ziga xos qadriyatlarini yaratish, nostandart, ijodiy qarorlarni qabul qilish qobiliyati)ni rivojlantiradi.

Qobiliyatlarini rivojlantirishning optimal usullari samaradorligi o‘qituvchining mahoratiga, o‘qitish texnologiyalarini qay darajada mukammal egallaganiga bevosita bog‘liq bo‘lib, ularni qo‘llashda o‘qituvchidan yuksak mahorat, nutq ravonligi, pedagogik taktika talab etiladi.

O‘qituvchi ta‘lim natijalarini bashoratlash, tahlil qilish va diagnostikalash ko‘nikma va malakalarini puxta egallagan bo‘lishi, muammoli ma‘ruza va ta‘limga evristik yondashuvni bilishi, mashg‘ulot jarayonini oldindan loyihalay olishi, to‘g‘ri texnologiyalashtirishi zarur.

Dunyoda ta‘limni zamonaviy va istiqbolli mehnat bozori talablari asosida diversifikatsiyalash, o‘qitishni yangi strategiyalarga moslashtirish, ta‘limiy axborot tuzilmasi negizini kasbiy pedagogik faoliyatga aloqador parametrlar doirasida rivojlantirishning nazariy-amaliy asoslari bo‘yicha tadqiqot ishlar olib borilmoqda. O‘qitish modellarini texnologik taraqqiyot g‘oyalari bilan uyg‘unlashtirish, ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda ta‘lim muassasalarida kadrlar tayyorlash sodasida raqobat muhitini shakllantirish, kadrlar tayyorlash tizimi mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, fan, madaniyat, texnika va texnologiyani zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda, takomillashtirishga e‘tibor qaratilgan[1]. Kreativ fikrlaydigan o‘quvchi-yoshlar salohiyati va iqtidorini rivojlantirish, modifikatsiyalashgan ta‘lim mazmuniga zamonaviy texnologiya va innovatsiyalarni

kiritish lozimligi ta'kidlangan. Ta'lim oluvchilarda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali shakl, metodlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni ta'minlovchi me'yoriy, moddiy-texnik va huquqiy axborot bazasini yaratish kabi vazifalar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmoni, 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PK-3775-son, 2019 yil 16 yanvardagi "Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha. chora-tadbirlar to'g'risida"gi PK-4119-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda muhandislik grafikasini obyektlar, jarayonlar va haqiqiy (mavjud), ideal (hayoliy) hodisalar haqidagi grafik ma'lumotlarni taqdim etish, o'zgartirish va saqlash usullari va vositalari to'plami sifatida tushuniladi.

Muhandislik grafikasining maqsadi - fazoviy tasavvurni rivojlantirish, fazoviy shakllar va munosabatlarni ularning geometrik modellari va grafik tasvirlari asosida tahlil qilish va sintez qilish qobiliyatlari, konstruktorlik hujjatlarini ishlab chiqish uchun bilim va ko'nikmalarni yaratishdan iborat.

Muhandislik grafikasining vazifalari:

- ortogonal proektsiyalashga asoslangan fazoviy grafik modellarni yaratishni va ushbu modellardagi fazoviy shakllar va munosabatlar bilan bog'liq muammolarni yechishni o'rganish;

- konstruktorlik hujjatlarining yagona tizimi (KHYT) davlat standartlari talablariga muvofiq grafik va matnli konstruktorlik hujjatlarini o'qish va ularni tuzish bo'yicha kerakli bilimlarni to'plash;

- kompyuter grafikasi, geometrik modellashtirish, grafik obyektlar tushunchasi, chizma-grafik ishlarni avtomatlashtirish vazifalarini yechish uchun zamonaviy interfaol grafik tizimlar bilan tanishish.

Muhandislik grafikasining o'rganish predmeti masofa (yaqin - uzoqroq), munosabatlar (yaqinroq - uzoqroq), joylashuv (o'rtada) va boshqalar bilan ifodalangan fazoviy xususiyatlar (shakli, o'lchami va boshqalar) va obyektlar yoki ularning fazoviy xususiyatlariga ega bo'lgan narsalar hisoblanadi.

Muhandislik grafikasi fanlari geometrik modellarni qurish va o'rganish usullariga va ularning grafik aks ettirishlariga asoslangan. Muhandislik grafikasi fanlari ko'plab talabalar qabul qilishi uchun murakkab bo'lib, hamma ham tekis chizmada hajmli shaklni ko'ra olmaydi.

Figuraning tekis tasviri, u haqida ma'lumotni taqdim etishning grafik usuli sifatida boshqa usullarga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega:

mutaxassislar o'rtasidagi professional aloqa yanada samaraliroq bo'lmoqda, chunki vizual idrok asosida yaratilgan obrazlar verbal tavsifdan ko'ra ko'proq assosiativ kuchga ega;

chizma millatlararo mutoqotning universal tilidir, verbal muloqot esa hech bo'lmaganda suhbatdoshning tilini bilishni talab qiladi.

Muhandislik grafikasi fanlarining o'ziga xos xususiyati shundaki - ular real obyektidan uning modeliga o'tishga va teskari jarayonni amalga oshirish, modeldan haqiqiy obyektga o'tishga imkon beradi. Hajmli shakllardan tekis chizmalarga va qayta tekis chizmalardan hajmli shakllarga o'tish, bu nafaqat shakllarning geometrik

parametrlarini saqlash, balki fazoda asl holatini tiklashga imkon beradi.

An'anaviy muhandislik grafikasi fanlarida kompyuter grafikasining o'rni darhol aniqlanmadi. Kompyuter grafikasi - bu mustaqil kurs bo'lib, muhandislik grafikasi kafedrasini bilan bog'liq emas, ikkinchi fikr - an'anaviy chizmachilik kursi eskirgan shuning uchun "qo'lda" chizma chizishni butunlay kompyuter grafikasi bilan almashtirish kerak degan ikki xil qarama-qarshi qarashlar bor edi.

O'tgan asrning 60-yillari o'rtalarida muhandislik grafikasida chizma geometriya va chizmachilikka asoslangan informatikaning yangi kompyuter (mashina grafikasi) grafikasi bo'limi paydo bo'ldi. Talabalariga kompyuter grafikasini o'qitish muammolari va usullari bo'yicha D.T.Pulatovalar, B.B. Qulnazarov, Sh.Murodov, Y.Y.Joxova, F.Alimov, H.Xalilova, S.Kasimova, V.R.Korneyev, A.M.Leybov, A.B.Puzankova, M.B.Talanova, T.V.Chernyakova, H.A.Gerbekov, Z.Zuo kabi olimlar shug'ullanishgan [3, 4, 5, 6].

Avtomatlashtirilgan loyihalash tizimi paydo bo'lishi bilan birga ko'plab oliy o'quv yurtlar o'quv dasturlari bo'yicha chizma geometriyani to'liq yoki qisman yo'q qilish masalasini ko'rib chiqish boshladilar. Muhandislik grafikasi fanlarida fazoviy tasavvurni rivojlantirish uchun chizma geometriyaga alternativlarni izlash zaruratini tan olayotganlar tobora ko'payib bormoqda.

Texnika ensiklopediyasida kompyuter grafikasi deganda kompyuter yordamida grafik obyektlarni kiritish, chiqarish, aks ettirish, shuningdek o'zgartirish va tahrir qilishni anglatadi. Ilmiy-texnik ensiklopedik lug'atga ko'ra, kompyuter grafikasi-bu kompyuter yordamida olingan rasmlardir. Madaniyatshunoslik ensiklopediyasi kompyuter grafikasini bosma hujjatlar, grafik rasmlar yoki multiplikatsiya ko'rinishidagi rasmlar sifatida ko'rib chiqadi. Ammo, aksariyat hollarda biz monitor ekranida ko'rgan tasvirlar nazarda tutiladi.


Kompyuter grafikasining mohiyati zamonaviy ilmiy adabiyotlarda turlicha tushuniladi. Bir qator tadqiqotchilar kompyuter grafikasini kompyuterda turli xil tasvirlarni (rasmlar, chizmalar, grafikalar, animatsiya va boshqalar) olish muammolari bilan shug'ullanadigan informatikaning bir sohasi deb bilishadi. Kompyuter grafikasini vosita sifatida ham ko'rib chiqishadi. Bir tomondan, maxsus uskunalar yordamida grafik axborot muhitini shakllantirish vositasi sifatida. Boshqa tomondan, shaxsni va uning qobiliyatlarini rivojlantirish (tasavvur, ijodiy qobiliyat, estetik madaniyatni rivojlantirish va boshqalar) vositasi sifatida. Kompyuter grafikasining nazariy asoslari informatika va chizma geometriyaning fundamental bilimlariga asoslanadi [2].

Zamonaviy grafik ta'lim - bu vizual axborotlarni yaratish, saqlash, uzatish va qayta ishlashga mo'ljallangan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish jarayonidir.

Kompyuter grafikasi kompyuter texnologiyalarining imkoniyatlari jadal suratlar bilan rivojlanishi natijasida alohida fanga aylandi va bu fanning asosiy maqsadi barcha sohalarga integratsiyalashuv jarayonidir. Muhandislik grafikasi ham bundan mustasno emas. Kompyuter grafikasining muhandislik grafikasiga integratsiyalashuvi yangi Chizma geometriya va perspektiva fanining paydo bo'lishiga olib keldi. Bu fan muhandislik grafikasi fanlarining rivojlanishiga va ularni taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'yishiga zamin yaratmoqda.

Endilikda, muhandislik grafikasi fanlarining yangi-langan tarkibiga quyidagi fanlar kiradi: chizma geometriya, chizmachilik va chizma geometriya va perspektiva (1-rasmga

qarang).



1-rasm. Muhandislik grafikasi fanlari tarkibi

Chizmachilik – muhandislik grafikasining birinchi fani bo‘lib, u oliy o‘quv yurtlarida mutaxassislarni tayyorlashda umumiytexnik fanlar tarkibiga kiradi. Uni o‘qishning birinchi yilida o‘qitishadi.

Chizma geometriya – bu matematikaning bir sohasi hisoblanadi. Matematikaga o‘xshab, umumiy fundamental bazaviy fanlar qatoriga kiradi. Matematikaning bir tarmog‘i sifatida grafik fanlar o‘ziga xos pedagogik xususiyatlarga ega. Birinchidan, ular har qanday jismoniy obyekt, jarayon yoki hodisaga hamroh bo‘ladigan algebraik o‘zgarishlarning mohiyatini tushunishga ko‘maklashadi. Ikkinchidan, grafik masalalarni yechishda mustaqil fikrlashni va boshqalarning fikrlarini takrorlamaslikni talab qiladi, ya‘ni muhandislik grafikasi fanlari fikrlashni rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Chizma geometriya va perspektiva – yangi fan bo‘lib, turli obyektlar va ulardagi bog‘liqliklarni, chizmalar ko‘rinishidagi fazoviy shakllari va munosabatlarini fazoviy va xayoliy tasavvur qilish, fazoviy konstruktiv-geometrik fikrlash, shuningdek, ularni fazoviy taxlil qilish va umumlashtirish, chizmalarni o‘qish va yaratish, ishlab chiqarishning konstruktivlik va texnikaviy hujjatlarini tayyorlashga oid bilim, ko‘nikma va malaka shakllantirishdir.

Amaliy grafik tizimlarni o‘rganish foydalanuvchi darajasidir. Ya‘ni, talaba bu grafik dasturlardan faqat foydalanishni o‘rganadi, ularni yaratishni emas. Bu holda nazariy bilimlarning miqdori minimaldir.

Chizma geometriya va perspektivani o‘rganish grafik yo‘nalish talabalarida o‘qishning uchinchi bosqichida boshlanadi. Chizma geometriya usullarini va chizmachilik qoidalarini qalam yordamida o‘zlashtirib bo‘lgach, talabalar chizmachilikdagi masalalarni zamonaviy grafik dasturlar asosida yechadilar. Shunda, talabalar grafik topshiriqlarni dastlab qo‘lda, so‘ngra avtomatlashtirilgan holda bajaradilar (bu ularga ish uslublarini tezroq tushunishga va chizmalarning sifatini taqqoslashga imkon beradi).

Chizmachilik va chizma geometriya va perspektiva fanini o‘zlashtirish jarayoni qo‘lda va kompyuterda bajariladigan chizmalar asosiga qurilgan. Natijada, talaba uchun asosiy vositalar chizma qurollari va kompyuter bo‘ladi. Bunda, chizmachilik fanida chizmani bajarish usullari va qonuniyatlarini qalam yordamida, Chizma geometriya va perspektiva fanida esa, o‘rganilayotgan dasturning buyruqlari yordamida o‘zlashtiriladi.

Ba‘zi vazifalarda obyektning geometrik shaklini tahlil qilish talab qilinadi. Geometrik shaklni tahlil qilishda biz predmetni fikran uni tashkil etuvchi geometrik sirtlarga bo‘linishini tushunamiz. Shaklni tahlil qilish, murakkab detalning tashkil etuvchilari geometrik sirtlarning birikmasidan iborat ekanligini va bu shakl ularning “o‘sishi” va “olib tashlanishi” yo‘li orqali vizual tasvirda amalga oshiriladi.

Muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitishda kompyuterli modellashning keng qo‘llanilishi ikki sababga ko‘ra mumkin bo‘ladi. Birinchisi – mashg‘ulotlarda va individual uy vazifasini bajarishda har bir talabani shaxsiy kompyuter bilan ta‘minlash muammosi hal qilindi. Ikkinchisi - buyumlar va mahsulotlar ishlab chiqarishning yangi stereolitografiya usuliga asoslangan additiv deb ataladigan texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida ularning aniq uch o‘lchovli kompyuter modellari asosida turli xil materiallardan foydalangan holda hajmi shakllarini yaratish mumkin bo‘ladi. Oddiy qilib aytganda, bu 3D-printerlarda buyumni chop etishdir.

Talabalar avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlaridan Auto(CAD) dasturlaridan foydalanishi ularning o‘rganilayotgan ma‘lumotga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, nazariy bilimlarini shakllantiradi va chuqurlashtiradi, shuningdek, o‘quv jarayonini yanada samarali va texnologik bo‘lishiga ko‘maklashadi. O‘quv vazifalarini bajarishda murakkab shakldagi uch o‘lchovli hajmli modellarni yaratish bo‘yicha bilimlarni (ketma-ketlik, ko‘rgazmalik, mavjudlik va differentsiatsiya) amalga oshirish, ta‘lim jarayonining keyingi tadqiqotlarida va keyingi ijodiy faoliyatda aniqlanadi.

Talabalar avtomatlashtirilgan loyihalash tizimida turli xil detallarning chizmalarini bajaradilar. Vazifalar shu tarzda tanlanganki, ular kompyuter grafik dasturiy mahsulotini ham, grafik faoliyatning klassik tarkibiy qismini ham o‘zlashtirish imkonini beradi. Shubhasiz, shaxsiy kompyuter yordamida ishlarni bajarish talabalarining mustaqil o‘rganish faoliyati ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 yanvardagi "Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta‘limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi farmoni// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2018 yil 4-son, 69 modda.
2. R.Hamdamiyov, U.Begimqulov, N.Tayoqov. Talimda axborot texnologiyalari. Oliy talim muassasalari uchun o‘quv qo‘llanma. O‘zME davlat ilmiy nashriyoti, 2010, 120 b.
3. D.T.Pulatova. Ta‘lim jarayoniga elektron axborot ta‘lim resurslarini joriy etishning pedagogik shart-sharoitlari. 2015.
4. B.B. Qulnazarov. Chizmachilik va kompyuter grafikasi asoslari (kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma). Samarqand, 2004.–194 bet.
5. Sh.Murodov, L.Xakimov, A.Xolmurzayev, M.Jumayev, A.To‘xtayev. Chizma geometriya, Iqtisod-moliya, 2006.
6. F.Alimov, H.Xalilova, S.Kasimova, U.Rixsiboev: Muhandislik kompyuter grafikasi va uni o‘qitish metodikasi. Toshkent–2009



Adizjon ISROILOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail:isroiлов.adiz@gmail.com

Yadro fizikasi instituti katta ilmiy xodimi, PhD S.T.Boyboboyeva taqrizi asosida

DEVELOPMENT OF RESEARCH SKILLS THROUGH THE USE OF INTEGRATED EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF PROJECT WORK

Annotation

In this article, Application of integrated educational technologies in project work and their importance in the educational process is presented.

Key words: STEM, technology, idea, project work, pfagor's theorem

РАЗВИТИЕ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ ПОСРЕДСТВОМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕГРИРОВАННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ ПРОЕКТНОЙ РАБОТЫ.

Аннотация

В данной статье представлено применение интегрированных образовательных технологий в проектной работе и их значение в образовательном процессе.

Ключевые слова: STEM, технология, идея, проектная работа, теорема Пфагора.

LOYIHA ISHLARI BAJARISH JARAYONIDA INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ORQALI TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Ushbu maqolada loyiha ishlarida integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish va ularning o'quv jarayonidagi ahamiyati ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: STEM, texnologiya, g'oya, loyiha ishi, Pfafor teoremasi

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmonida ham ta'lim tizimindagi quyidagilar nazarda tutilgan:[1]

1. Umumta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etishda ta'lim sifatini yuqori bosqichga ko'tarish hamda mavjud muammolarni o'z vaqtida hal etish talab etilmoqda;

2. mavjud malaka oshirish tizimi o'qituvchilar ehtiyojlariga mos emasligi, malaka oshirish kurslari mazmuni va qo'llaniladigan usullar eskirganligi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini qo'llash orqali o'qituvchilarni masofadan qayta tayyorlash mexanizmi yo'lga qo'yilmaganligi o'qituvchilarning bilim va malakasini tizimli oshirib borish imkonini bermayapti:[2]

3. O'quvchilarda ta'lim olishga kuchli motivatsiyani shakllantirish talab etilmoqda;

4. davlat ta'lim standartlari kompetensiyaviy yondashuvga asoslanganligiga qaramasdan, o'qitish va baholash metodlari, shuningdek darsliklar va boshqa o'quv materiallarini asosan axborotni yodlash va bayon qilishga qaratilgan bo'lib, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari va boshqa malakalarni rivojlantirishga to'sqinlik qilmoqda [3]

Yuqorida keltirilgan muammoni hal qilishda integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalari boshqacha qilib aytganda aniq loyihalar eng yaxshi usullardan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimiz pedagog olimlari SH.M.Mirzaaxmedova, K.T.Suyarov, J. O'sarov, Z.B.Sangirova larning tadqiqot ishlarida hamda umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika fanlarini o'qitish muammolari o'rgangan holda.Integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalini ta'lim jarayoniga qo'llash hamda shu orqali

o'quvchilarning tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirish muhim hisoblanadi.[4]

Tahlil va natijalar. Tadqiqot metodologiyasi sifatida shunni keltirib o'tichimiz lozimgi. Integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalarini qo'llash orqali o'quvchilarning loyiha ishlarini olib borishi quyidagi kompetensiyalarini rivojlantiradi[5].

Ilmiy (bir xil ilmiy asoslilik) – yetarlicha nazariy va amaliy rivojlanish, shu jumladan empirik keng tahlilli, fan va amaliyot yutuqlarini tadqiq etish, sintez qilish.[6]

Strukturaviy – ichki ketmaketlikni mavjudligi (maqsadlar, mazmuni, usullari, tashkiliy shakllari, vositalari).[6]

Mantiqiy – aniq o'zaro bog'liqlik va to'ldiruvchi ketmaketlikning mavjudligi muayyan hujjatlarda qayd etilgan elementlar, shu jumladan o'quv qurollarining mavjudligi.

Davomiylik – Agar men boshqalardan uzoqroq ko'rgan bo'lsam, bu mening gigantlar elkalarida turganim uchun edi "(I. Nyuton) ushu ajoyib ibora har qanday zamonaviy ta'lim texnologiyasining asosi allaqachon qurilganligini o'zida aks ettiradi.[7]

Boshqarish qobiliyati diagnostika(belgilangan maqsadlarni tahlil qilish va

ularga erishish imkoniyati, shuningdek, taraqqiyot jarayoni haqida ma'lumot olish imkoniyati), kelajakni belgilash ("kafolatlangan" yutug'lar va maqsadlar), samaradorlik (natijalar bilan ishlash va uni olish uchun kamroq resurslar sarflash)

Ko'nikma – o'zgaruvchan sharoitlarda olingan bilimlar asosida u yoki bu faoliyatni amalga oshirish qobiliyati. O'zbek tili izohli lug'atida ko'nikma – biror ishda orttirilgan mahoratning malakaga aylanishi deb tavsiflanadi [8].

Ko'nikma – o'zlashtirilgan bilimlar va egallangan malakalar asosida mauayyan ishlarni tez, aniq va ongli ravishda bajarish. Ko'nikma egallangan bilimlarni amalda va o'quv jarayonida qo'llash bilan uzviy bog'liq bo'lib, u o'z – o'zidan shakllanib qolmaydi. Ko'nikma tizimli mashq qilish yo'li bilan shakllantiriladi va u nafaqat o'rganilgan, balki o'zgaruvchan sharoitlarda ham faoliyatni amalga oshirish uchun imkon beradi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda Pifagor teoremasi hamda kosinuslar teoremlarini isbotlarinitini o'z ichiga olgan fizik loyihalardan foydalanib o'quvchilarda tatqitotchilik ko'nikmalarini oshiramiz.[9]


Pifagor teoremasi isbotlash fizik loyiha hamda uning o'quvchilarga tushuntirish.

To'g'ri burchakli uchburchakda gipotenuzaning kvadrati qolgan ikki tomonning kvadratlari yig'indisiga teng ekanligini bildiruvchi Pifagor teoremasining qisqacha izohini bering.

Ushbu loyihaning maqsadi maxsus modelini loyihalash va qurish orqali Pifagor teoremasining isbotini amalda ko'rsatishdir.


Kerakli jihozlar

- Yog'och taxta yoki karton.
- o'lchov lentasi yoki o'lchagich.
- maxsus mustahkam yelim.



1-rasm. Loyiha ishining tasviri



Loyiha ishining tayyor ko'rinishi quyidagi keltirilgan.



Kosinuslar teoremasi isbotlash fizik loyiha hamda uning o'quvchilarga tushuntirish.


Ushbu loyihaning maqsadi maxsus modelini loyihalash va qurish orqali kosinuslar teoremasining isbotini amalda ko'rsatishdir.

Loyiha ishiga kerakli jihozlar quyida keltirilgan.



8-rasm. Loyiha ishining tasviri

Loyiha ishining tayyor ko'rinishi quyidagi keltirilgan



9 - rasm. Loyihaning yuklar 3,4,5 bo'lgandagi ko'rinishi

10 - rasm. Loyihaning yuklar 2,2,2 bo'lgandagi ko'rinishi

O'quvchilarga tajribalar natijalarini umumlashtirish Pifagor teoremasini hamda kosinuslar teoremasini yana qanday tatbiq etilishini muhokama qilish topshiriladi.

Xulosa va takliflar. Loyiha ishlari bajarish jarayonida integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalarini qo'llash orqali tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish mavzusida olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar qilish mumkin.

Fizik loyiha ishlari vositasida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llash tamoyili asosida o'quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga jalb etish, o'quv-tadqiqot ishlari bajarishga tayyorlash hamda ularda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish o'quv-tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali usuli ekanligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi 29.04.2019 yildagi PF-5712-son <https://lex.uz/docs/-4312785>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnoma «STEM ta'limni joriy qilish yuzasidan alohida vazifalar».
3. National STEM Education Center (2014). STEM education network manual. Bangkok: The Institute for the Promotion of Teaching Science and Technology.
4. T. J. Kennedy, M. R.L. Odell Engaging Students In STEM Education, Science Education International Vol. 25, Issue 3, 2014, 246-258
5. Michelle H. Land , Full STEAM Ahead: The Benefits of Integrating the Arts Into STEM, Complex Adaptive Systems, Publication 3.
6. Sangirova Z.B. "Tabiiy fanlar"ni o'qitishda STEM ta'limi. Science and Innovation. International scientific journal. ISSN: 2181-3337. № 4, – B.343349.
7. Sanders. M. STEM, STEM education.//The Technology Teacher. 2009, №68. – P.20-26
8. Suyarov K.T. O'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishning psixologik - pedagogik muammolari. Xalq ta'limi tizimida pedagog xodimlar kompetensiyasini takomillashtirish // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – Samarqand, 2018. – B.86-88.
9. Frolov A.V. Rol STEM – obrazovaniya v «novoy ekonomike» SSHA. Voprosi novoy ekonomike, №4(16) 2010. – S. 80-90.



UDK: 502:371:811

Gulmira KAMILOVA,

Buxoro davlat pedagogika instituti, maktabgacha ta'lim kafedrasini professori v/b, p.f.n

E-mail: gulmiraalimovna1967@gmail.com

BuxDU-dosenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Hakimova. N.S- taqrizi asosida

PAREMIOLOGY AND ITS FEATURES IN ENVIRONMENTAL EDUCATION

Annotation

Priorities for landscaping and environmental improvement and the implementation of the national project "Green Space" are determined. The article provides information on many issues related to ecology and the environment, as well as characteristics of the paremic genre.

Key words: Ecology, problem, environment, paremic genre, nature, tree, plant, protection, proverb, saying, aphorism.

ПАРЕМИОЛОГИЯ И ЕЕ ОСОБЕННОСТИ В ЭКОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

Определяются приоритеты по озеленению и благоустройству окружающей среды и реализации общенационального проекта «Яшил макон». В статье представлена информация по многим вопросам, связанным с экологией и окружающей средой, а также характеристика паремического жанра.

Ключевые слова: Экология, проблема, окружающая среда, паремический жанр, природа, дерево, растение, охрана, пословица, поговорка, афоризм.

EKOLOGIK TARBIYADA PAREMIOLOGIYA VA UNING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Atrof-muhitni ko'kalamzorlashtirish, obod qilish va "Yashil makon" umummilliy loyhasini amalga oshirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilanmoqda. Maqolada ekologiya va atrof-muhit bilan bog'liq ko'plab muammolar va paremik janr xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Ekologik, muammo, atrof-muhit, paremik janr, tabiat, daraxt, o'simlik, muxofaza, maqol, matal, aforizm.

Kirish. Zhahon bo'yicha ekologik xavf bugungi kunda keng tus olib, er yuzidagi barcha mamlakatlarni bu haqda chuqurroq o'ylashga majbur etmoqda.

Shu bois, davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida jahon hamjamiyati e'tiborini yana bir bor davrimizning o'tkir muammolaridan biri-Orol bo'yi hududidagi ekologik holatga qaratib, jumladan, bunday dedi: "Bugungi kunda har bir mamlakat bu jarayonning salbiy ta'sirini his etmoqda. Ming afsuski, bunday o'zgarishlar Markaziy Osiyo taraqqiyotiga ham katta xavf tug'dirmoqda"-deb ta'kidlab o'tildi.

So'nggi yillarda aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish, daraxt va butalarni muhofaza qilish hamda yashil maydonlarni kengaytirish borasida tizimli choralar ko'rilmoqda. Daraxt, butalar va yashil hududlarni muhofaza qilish hamda ularning maydonlarini kengaytirish, ushbu sohada mas'ul tashkilotlar faoliyatini yanada samarali tashkil etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktabrdagi "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-sonli farmoni imzolandi. 2002 yili Yoxannesburgda (VSUR 2002) Barqaror rivojlanish bo'yicha o'tkazilgan Butunjahon sammitida "Siyosiy deklaratsiya" va "Barqaror rivojlanish bo'yicha oliy darajada Butun jahon uchrashuvlar qarorlarini bajarilish rejasi" qabul qilindi. Umuman olganda Dunyo miqyosidagi ekologik muammolarni hal etishda xalqaro hamkorlik munosabatlarni o'rnatishda qo'yidagilarga e'tibor qaratish. Yani:

- tabiatdan foydalanish va uni saqlab qolishda xalqaro harakatga rioya qilish, tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy shart-sharoitlarga rioya qilish;

- ekologik hamkorlikning tajriba, milliy asosiy yo'nalishlari, atrof-muhitni tejashda xalqaro tashkilotlarning ahamiyatini oshirib borish;

- atrof-muhitni yaxshilash soxasida hamkorlikning bitim va dasturlarini ishlab chikish;

- O'zbekistonning tabiatni himoya qilish soxasida davlatlararo hamkorlik, ekologik vaziyatni yumshatish, mintaqaviy va global darajada yaxshilash masalalariga alohida e'tibor qaratishdan iborat.

Bularning barchasini ta'lim maskanlaridan boshlab muhimligi ta'kidlab o'tilmoqda. Ayniqsa yoshlikdan boshlab kichkintoylar ekologiya va uni asrab-avaylash bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishsa, talim oldiga qo'yilgan tabiatni asrashga doir vazifalar birin-ketin hal qilina boshlaydi.

Respublikamizda 2019 yilda qabul qilingan 595-sonli "Maktabgacha talim va tarbiya to'grisida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni va unda belgilab berilgan maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy vazifalari tarbiyalanuvchilarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlashning muhim omili sanaladi. Bu borada bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim asosida xalqaro tajribani hisobgaolgan holda bolaning tayanch kompetensiyalarini ochib berish va to'ldirish vazifalari yuklatildi.

Adabiyotlar tahlili. Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining asosiy poydevori sifatida ekologik madaniyatni shakllantirish ekologik ta'limning asosiy maqsadi sifatida ekologik madaniyatni shakllantirish muammosini hal qilishda uning boy tarixiy ildizlari borligini ta'kidlash kerak.Tabiiy

muhit, ilmiy bilimlar chegaralarini kengaytirish, falsafiy qayta ko'rib chiqish va ekologiyani fan sifatida kengroq talqin qilish ekologik ta'lim ko'lamini biologik va geografik doiradan tashqari boshqa ta'lim yo'nalishlariga kengaytirishni, uni bir qismi sifatida tushuntirishni talab qiladi. Ta'lim barcha ta'limning yangi mazmuni sifatida, bu "ekologik madaniyat" tushunchasini kengroq talqin qilishga olib keladi. Zamonaviy tadqiqotlarda biz ushbu konsepsiyaning mohiyatini juda xilma-xil ta'riflarini topamiz-, deb yozadi Rossiya ekolog olimlaridan S.A.Surkina "Экологическое образование дошкольников в России" degan qo'llanmasida.

I.D.Zverevning ta'kidlashicha, "ekologik madaniyat" tushunchasi jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotning barcha sohalariga tegishli. Shaxsning asosiy poydevori sifatida ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni butun ta'lim va tarbiya tizimi faoliyatining ajralmas qismiga aylanishi kerak-deb ta'kidlab o'tadi.

Lovev A.V., Provadkin G.G. "ekologik madaniyat" ni o'z tarixi va an'alariga ega, deb hisoblaydi. Bu avloddan-avlodga o'tib kelayotgan va jamiyatning muayyan ijtimoiy qatlamlarida uzoq vaqt saqlanib qolgan madaniy meros elementlari majmuidir. Ekologik madaniyatning mohiyati, B.T.Lixachevning fikriga ko'ra, ekologik rivojlangan ong, hissiy va ruhiy holatlar va ilmiy asoslangan ixtiyoriy utilitar-amaliy faoliyatning organik birligi deb hisoblash mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti oldiga yoshlikdanoq tarbiyalanuvchilarni tabiatga nisbatan mehr uyg'otish, uni asrab-avaylash va ehtiyotkorona munosabatda bo'lish kabi vazifalar yuklatilgan.

Olimlarning aniqlashlaricha, har bir kishi tilimizdagi 800 ga yaqin maqol, matal yoki aforizm haqida tushunchaga ega buladi. Lekin tilning paremiologik boyligi bir necha un minglab paremalarni uz ichiga oladi. Hozirgi o'zbek (rus yoki boshqa) adabiy tilini yaxshiroq, mukammalroq bilish uchun o'sha tilning fonetikasi, grammatikasi, leksikasi bilan bir qatorda uning boy paremiologik merosini ham chuqur egallash lozim. Shu bilan birga paremalar so'zlardan tuzilib, ma'lum bir fikrni ifodalovchi gaplardan iborat bo'lgani uchun tilshunoslikning ham o'rganish obyekti ekanligi ta'kidlab o'tiladi.

Paremik janrlar qadim zamonlarda yozuv paydo bo'lmagan oldin yuzaga kelgan. Og'zaki ijodning paydo bo'lishi va ommaga tarqalishi jonli og'zaki udum bilan bog'liqdir. Folklor asarlarining uzoq asrlar davomida og'zaki yaratilishi va og'zaki ijro etilishi uning shakl va mazmuniga ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, ayrim tarixiy faktlarning to'liq esda qolmasligi, zamon taqozosi bilan unutilishi natijasida ularning asardan tushib qolishi yoki o'zgarishi mumkin. Folklorning og'zakilik xususiyati uning keng tarqalishiga, xalq orasida keng ommalashuviga sabab bo'ladi. Ammo shu bilan birga, og'zaki ijod namunasi o'tmish zamonlarda yozma tarzda mavjud bo'lmagani uchun uni ijro etuvchi shaxsning vafoti bilan yo'q bo'lib ketishi ham mumkin. Folklor asari og'zidan og'ziga o'tishi tufayli shaklan va mazmunan qanday o'zgarishlarga uchramasin, bu hol uning g'oyaviy-badiiy va ijtimoiy-estetik qimmatini tushirmaydi. Chunki unda ijodkor xalqning voqelikka munosabati aks etadi.

Bolalarga yoshligidan boshlab xalq ertaklari va dostonlaridan, topishmoqlar, maqol va matallardan o'qib berish, so'zlash yoki ularning o'zlariga o'qitish ham kerak. Bu bilan bolalarning zehni o'sadi, fikri kengayadi, dunyoqarashi boyib, xotirasi kuchayadi. Eng asosiysi, bola eshitganlaridan ibratlanib, yaxshi odamlarga ergashishga intiladi, ularning xulq odobidan bahramand bo'ladi.

O'g'il-qizlaringizni ko'chaga iflos chiqmaslikka, hovli tashqarisiga va ko'chalarga odamlarga aziyat-zarar beradigan axlat, iflos narsalarni tashlamaslikka o'rgatish ham ekologik madaniyat ko'rinishidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda paremik janrlar namunalarini asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Paremik janrlar maktabgacha yoshdagi bolalarning atrof-olam haqidagi dunyoqarashini kengaytirish bilan birgalikda aqliy tarbiyasiga o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Ilmiy dunyoqarash va aqliy tarbiya integratsiyasi bolalarning aqliy tarbiyasini iivojlantirishdagi eng yetakchi tamoyil bo'lib xizmat qiladi.

Paremik janrlar vositasida axloqiy his-tuyg'u, o'zaro hurmat, g'amxo'rlik kabi ijobiy sifatlar shakllanadi. Paremik janrlar nafas tarbiyasi vositasi sifatida tabiatdagi nafislikni his etish, undagi go'zallikni ko'ra olish, tabiatda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni farqlay olish ifoda etiladi. Bular esa bolalarning estetik idroki va ekologik malaniyatni shakllanib va yanada takomillashib borishida asos bo'ladi.

M.Jumaboev maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tavsiya etiladigan adabiyotlarda- "maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar tinglaydigan asarlarning ko'pchiligini ertak, qo'shik, topishmoq, makol, tez aytish kabi xalq og'zaki ijodi asarlari tashkil etadi. Bu yoshdagi bolalarga tavsiya etiladigan asarlar hayot haqida muayyan tasavvur berishi bilan birga ularga zavk-shavk bag'ishlashi" ni uqitirib o'tgan.

Ekologik muammolar, ekologik halokat yoki ekologik vaziyat yechimini topish uchun, eng avvalo, insonda ekologik ta'limtarbiyaga oid tushunchalarni rivojlantirish lozim. Bolani yoshligidan boshlab oilada, mehnatga ongli munosabatni uyg'otish, tabiatga, atrof-muhitga hurmat, obodonlashtirish hissini rivojlantirish darkordir. Oila davrasida farzandlarga «Suvga tuflama, uni iflos qilma, chunki barcha jonivorlar uni ichib baxra oladi», "Gullab turgan mevali daraxtning shoxini sindirma, u meva beradi, uni o'zing iste'mol qilasan",-deb pandu-nasixatlar qilish kerakdir. Avestoda tabiatni, xususan, suvni iflos yoki isrof qilgan kishi 400 darraga mahkum etilgan. Suvga hurmat islom dinimizda ham saqlanib qolgan. Mana shu hurmat ta'sirida xalqda ko'plab maqollar, rivoyatlar, ibratli hikoyatlar, ertaklar vujudga kelgan.

Ekologik tarbiya maktabgacha yoshda, maktab davrida, maktabdan keyingi, mahalla, mehnat jamoasi hamda keksalik davrida turlicha mazmun, shakl va metodlar hamda yondashuvlarda amalga oshiriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik madaniyatni rivojlantirishda 3 ta asosiy yo'nalishdagi ekologik kategoriyalarni asos qilib olish mumkin: ekologik tushunchalar, ekologik me'yorlar va ekologik madaniyat.

Ekologik tushunchalar o'zida tejamkorlik, asrab-avaylash, ona-tabiatni sevish, g'amxo'rlik ko'rsatish kabi tushunchalarga ega; ekologik me'yorlarga hurmat, halollik, kamtarlik, jasorat tushuniladi; ekologik madaniyat jumlasiga qushlarga ozor bermaslik, daraxt va ekinlarni payxon qilmaslik, gullarni uzmaslik, ehtiyotkorona munosabatda bo'lish kab ijobiy ekologik sifatlarni paremik janrlar vositasida shakllantiriladi.

Tadqiqotda ko'rsatilgan ekologik kategoriyalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkillashtiriladigan o'quv jarayonida, oiladaparemik janrlardan foydalanish asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bular katta trbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, ekologik tushuncha, ekologik me'yor, ekologik madaniyat kategoriyalarini ikor etib bo'lmaydi. Bularni barchasini ekologik madaniyatni rivojlantirish tizimida ko'rib chiqish muhim.

Xulosa va takliflar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janr namunalarini-topishmoq, ertak va maqol orqali tabiatga oid lug'atlar bilan boyitib boriladi.

Paremik janrlar bolalarda so'zlarni ma'no jihatdan bir biridan farqlay olishga, tabiat va ekologiyaga tegishli terminlarni tushunib, anglab olishga yordam beradi.

Tarbiyachi-pedagog tomonidan hikoya qilingan ertak yoki aytilgan topishmoq va maqollar davomida bola nutqi va

ekologik dunyoqarashini shakllanganlik o'rtasidagi bog'liqlik yaqqol ko'zga tashlanadi. Ertak va topishmoqda ifodalangan voqea-obrazlar yaqqol namoyon bo'lishi bilan bolada tabiat haqidagi tushunchalar mustahkamlanib boradi va badiiy idrok etishning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Paremik janrlar orqali ekologiyaga oid lug'at namunalari bola ongiga tez kirib boradi. Ayniqsa, maqollarda bolalar tilining ixchamligi va aniqligini o'rganadilar, she'riy topishmoqlar orqali zukkolik va ziyraklik, musiqiy ohangdorligini anglab yetadilar, ertaklardagi aniq syujet va ifodalilikka asoslanib uning mazmunini tushunib yetadilar. Paremik janrlar uchun tabiat va ekologiya, o'simlik va hayvonot dunyosi haqidagi topishmoq, ertak va maqollarga oid asarlar katta ahamiyatga ega.

Paremik janrlar ekologik madaniyat manbai sifatida e'tirof qilinadi. Shu boisdan tarbiyaviy, ta'limiy va metodik

vazifalar o'qib berilgan yoki hikoya qilingan ertaklar, jumboqni javobini topish uchun tavsiya qilingan topishmoqlar va axloqiy-ekologik mazmundagi maqollar bolalarda ekologik madaniyat tushunchalarini tushunish va qabul qilish uchun turtki bo'ladi. Bolalar tabiatga quvonch bilan qaraydilar, uni asrab avaylashga intiladilar.

Paremik janrlarning ijtimoiy va tashkiliy vazifani amalga oshirishda sayr va ekskursiyalar asosiy vosita sanaladi. Sayr va ekskursiyalarda tevarak-atrofga chiqib, muhitni kuzatadilar, havoning iliq yoki sovuqligini his qiladilar. Atrofdan uchib yurgan qushlarni kuzatadilar, daraxt, buta va gullarni ko'rib zavqlanadilar. Shu yo'sinda tabiatga bo'lgan munosabatlari uni asrab-avaylashga yetaklaydi. Ekologik tarbiya uchunlari paydo bo'la boshlaydi.

Paremik janrlar orqali bolaning dunyoqarashi, intellektual bilimi, fikrlash qobiliyati takomillashib boradi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonuni. 16-dekabr 2019-yil, ORQ-595-son.
2. Зверев. И.Д, Максимова. В.Н. М.: Педагогика, 1981.
3. Лосев А.В, Провадкин Г.Г. Социальная экология. Москва, 1998 г, 312 с,
4. Berdiyurov H., Rasulov.R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati, T., 1984 y
5. Masharipova.Z.O'zbek paremik janrlar (O'quv qo'llanma) Bakalavriat yo'nalishi: 5141100 - O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent. 2007
6. Jumaboev.M. O'zbek bolalar adabiyoti: Oliy ukuv yurtlarining uzbek tili va adabiyoti fakultetlari talabalari uchun darslik. — T.: «O'zbekiston», 2001. — 242 b.)
7. Камилова.Г.А. Мактабгача ёшдаги болаларда паремик жанрлар воситасида экологик маданиятни ривожлантириш модели. "Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 5(7) 2023 135-139 betlar.
8. Камилова. Г.А. Халқ оғзаки ижоди-мактабгача ёшдаги болаларда экологик маданиятни шакллантириш воситаси сифатида."Та'лим va innovatsion tadqiqotlar " jurnali. 2023 й, 150-153 бетлар.
9. Камилова.Г.А.Экологик тарбия ва экологик маданиятни паремик жанрлар воситасида шакллантириш. "Boshlangich ta'lim mazmunini takomillashtirish: O'quv dasturi-o'qituvchi baholash" xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2023-yil 19-oktabr. Vuxoro- 2023 y, 304-306 betlar.



UDK: 323:374.32

Ilhom KARIMOV,

“International school of finance technology and science” instituti o'qituvchisi
E-mail: ilkhomkarimov95@gmail.com

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) K.Kayumov taqrizi asosida

MECHANISMS FOR IMPLEMENTATION OF STATE POLICY REGARDING YOUTH

Annotation

In this article, the author analyzed the mechanisms of implementing the state policy on youth. Any activity is based on certain institutional foundations. State policy on youth also consists of several components. Youth policy as an integral part of state social policy is a set of interactions between state structures, non-governmental and public organizations, and youth groups. Implementation of the youth policy is a combination of legal, economic and social functions of the state and forms a whole mechanism.

Key words: Youth, youth policy, state of youth policy, mechanism, state, policy.

МЕХАНИЗМЫ РЕАЛИЗАЦИИ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ В ОТНОШЕНИИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В данной статье автор проанализировал механизмы реализации государственной политики в отношении молодежи. Любая деятельность базируется на определенных институциональных основах. Государственная политика в отношении молодежи также состоит из нескольких компонентов. Молодежная политика как составная часть государственной социальной политики представляет собой совокупность взаимодействий между государственными структурами, неправительственными и общественными организациями, молодежными группами. Реализация молодежной политики представляет собой совокупность правовых, экономических и социальных функций государства и образует целый механизм.

Ключевые слова: Молодежь, молодежная политика, Государственная политика в отношении молодежи, механизм, государство, политика.

YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya

Muallif ushbu maqolada yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlarini tahlil qilgan. Har qanday faoliyat yo'nalishi ma'lum institutsional asoslarga tayanadi. Yoshlarga oid davlat siyosati ham qator tarkibiy qismlardan iborat. Yoshlarga oid siyosat davlat ijtimoiy siyosatining ajralmas qismi sifatida davlat tuzilmalari, nodavlat va jamoat tashkilotlari, yoshlar guruhlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar majmuidir. Yoshlarga oid siyosatni amalga oshirish davlatning huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalarining yig'indisi bo'lib, yaxlit mexanizmi tashkil etadi.

Kalit so'zlar: Yoshlar, yoshlar siyosati, yoshlarga oid davlat siyosati, mexanizm, davlat, siyosat.

Kirish. Yoshlarga oid davlat siyosatining mexanizmi davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyati organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda ularning umumiy faoliyat yo'nalishlari majmuidan iborat. Umumiy ma'noda ushbu jarayon qonun hujjatlari va ijtimoiy normalarga muvofiq mamlakat yoshlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishda o'zaro hamkorlik qiladigan tashkilotlar faoliyati yig'indisidir.

Yoshlarga oid davlat siyosati mexanizmi yoshlarning ijtimoiy ahamiyatga ega manfaatlarini ifoda etish va amalga oshirishda yoshlar, yoshlar birlashmalarining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari bilan o'zaro hamkorligini ta'minlaydi.

Yoshlarga oid davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, yoshlar va boshqa jamoat birlashmalari ishtirok etishi, ularning o'zaro hamkorligi ushbu jarayonda o'ziga xos mexanizmi tashkil etadi.

Yoshlarga oid davlat siyosati mexanizmi yoshlarning, yoshlar birlashmalarining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari bilan ijtimoiy munosabatlarni ifodalash va amalga oshirishda o'zaro hamkorligini ta'minlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yoshlarga oid davlat siyosati mexanizmlarini tadqiq etgan siyosatshunos olim O.S.Sherbinaning fikriga ko'ra, yoshlarga oid davlat siyosati mexanizmlari tuzilmasida nisbatan mustaqil davlat va jamoat sektorlari tasniflanadi. Ular davlat va nodavlat, jamoat unsurlari faoliyatining tabiati, mazmuni, shakllari va usullariga ko'ra bir-biridan farqlanadi, shuningdek uchta funksional quyi tizimlar bilan bog'langan: institutsional, kommunikativ va tartibga soluvchi[5].

Yana bir siyosatshunos olim A.V.Titarenko yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlarini ishlash prinsipiga ko'ra demokratik, ma'muriy va aralash[4] kabi tiplarga ajratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi kunda dunyo olimlari orasida yoshlarga oid davlat siyosati masalasini tadqiq etish dolzarb mavzulardan biriga aylangan. Ushbu mavzu doirasida olimlarning bir qator o'ziga xos qarashlari mavjud bo'lib, har biri o'ziga xos xarakterga ega. Yoshlarga oid davlat siyosatini o'rgangan rus siyosatshunos olimi M.M.Bariyevning fikriga ko'ra, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlarida quyidagilar ajralib turadi: yoshlarni qo'llab-quvvatlashning maqsadli dasturlarini o'z ichiga olgan «dastur» mexanizmi; statistik va sotsiologik ma'lumotlar bazalarini boshqarish, shuningdek, axborot-

ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan «axborot» mexanizmi; yoshlarga oid davlat siyosatini tarkibiy boshqarishni amalga oshiruvchi «tashkiliy» mexanizm; yoshlarga oid davlat siyosatining me'yoriy-uslubiy asoslarini ishlab chiquvchi «siyosiy» mexanizm; yoshlarga oid davlat siyosatini moliyalashtirish tizimini tashkil etuvchi «iqtisodiy» mexanizm[6].

Ushbu mexanizmlar yaxlit holatda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish uchun tayanch vazifasini bajaradi hamda biri ikkinchisini taqozo etadi. Har bir mexanizm o'z o'rnida, kerakli ishlaganda yoshlarga oid davlat siyosatining jamiyat hayotida amaliy ifodasini ko'rish mumkin bo'ladi.

Yoshlarga oid davlat siyosati yoshlarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish va mustaqil hayotga muvaffaqiyatli kirishish maqsadida qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining o'ziga xos yo'nalishlaridan biridir[7] hamda uni amalga oshiruvchi quyidagi 3 ta yo'nalishlarni shartli ravishda ajratib ko'rsatish mumkin.

Bular:

I. Qonunchilik va me'yoriy hujjatlar - yoshlarga oid siyosatni amalga oshirish va uni tartibga solishning huquqiy asoslarini shakllantirishdan iborat;

II. Alohida subyektlar faoliyati: yoshlar, yoshlar tuzilmalari, siyosiy partiyalar, davlat muassasalari, diniy tashkilotlar va boshqalar - yoshlarga oid siyosatni amalga oshiruvchi institutlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik tizimini qamrab oladi;

III. Yoshlar tuzilmalarining davlat hokimiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligi – yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda kommunikativ vazifani bajaradi.

Tahlil va natijalar. Yevropa davlatlarida yoshlar siyosatining uchta tipologiyasi ishlab chiqilgan. Bular vazirlik modeli; agentlik modeli hamda aralash model[8].

Vazirlik modelida vazirliklar mahalliy va mintaqaviy boshqaruv tizimlarining vertikal va gorizontol integratsiyasiga mas'ul bo'lgan milliy davlat organlaridir. Bu model Fransiya va Germaniya kabi yuqori darajada markazlashgan hukumat tizimlariga ega bo'lgan barcha mamlakatlarda uchraydi.

Ispaniyaga xos bo'lgan agentliklar modeli qirolik mamlakatida katta avtonomiyaga ega bo'lganligi sababli, yoshlarga nisbatan turli mahalliy va mintaqaviy vakolatlarni muvofiqlashtirish uchun mas'ul bo'lgan organlardir.

Aralash modelda yoshlar sohasidagi institutsional vakolatlar turli vazirliklar o'rtasida taqsimlanadi, ular o'z navbatida agentliklar tomonidan ham qo'llab-quvvatlanadi. Bu kabi modellarni Portugaliya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlar siyosiy boshqaruv shaklida ko'rish mumkin.

Yevropaning O'rta yer dengizi bo'ylab joylashgan Italiya, Gretsiya, Portugaliya va Ispaniya kabi mamlakatlarida davlat va yoshlar o'rtasidagi munosabatlar «O'rta yer dengizi modeli» nomini olgan bo'lib, ularda yoshlar siyosatining markazlashtirilgan tipini ko'rish mumkin.

1-jadval.

№	Qonun nomi	Tartib raqami	Qabul qilingan sana
1	Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida	O'RQ-139-son	07.01.2008
2	Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida	O'RQ-263-son	29.09.2010
3	Vasiylik va homiylik to'g'risida	O'RQ-364-son	02.01.2014
4	Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida	O'RQ-394-son	04.09.2015
5	O'zbekiston Respublikasi yoshlari kunini belgilash to'g'risida	O'RQ-437-son	25.08.2017
6	«Kelajak bunyodkor» medalini ta'sis etish to'g'risida	O'RQ-451-son	28.12.2017
7	Ta'lim to'g'risida	O'RQ-637-son	23.09.2020
8	Yoshlar bilan ishlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimchalar kiritish to'g'risida	O'zbekiston O'RQ-747-son	25.01.2022

O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan sohaga oid qonunlar, Prezident farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, davlat dasturlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar yoshlarga oid davlat siyosatiga

2020-yil holatiga ko'ra, Markaziy Osiyoning to'rtta davlati Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekistonning umumiy aholisi soni 68,46 million kishini tashkil etgan bo'lsa, ulardan 16,55 million nafarini yoki 24,1 foizini yoshlar tashkil etadi[10]. Ushbu demografik holat Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun yuqori potensial bo'lib, yoshlar masalasi ushbu davlatlar uchun qanchalik dolzarb ekanligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati mexanizmlari o'zining vujudga kelish va rivojlanish tarixiga ega. Mustaqillikka erishish arafasida, xususan XX asr 80-yillari oxiridan boshlab sobiq Ittifoq va uning tarkibidagi respublikalarda ham yoshlar siyosati tushunchasi shakllana boshlagan. Sobiq SSSRda siyosiy amaliyot va fanda «yoshlar siyosati» tushunchasi faqat kech sotsializm davrida paydo bo'lgan. Hatto aytish mumkinki, «jamiyatning yoshlarga oid siyosati» tushunchalarining siyosiy leksikonga kiritilishiga ma'lum qarshiliklar bo'lgan. «Yoshlarga oid davlat siyosati» katta ehtimol bilan, bu yoshlar muammolarini aholining boshqa guruhlari hisobiga va ko'pincha ularning zarariga hal qilish usuli sifatida yoshlar siyosati haqidagi noto'g'ri tushuncha bilan izohlanishi mumkin. Yigirmanchi asrning 90-yillarida yoshlarga oid davlat siyosatini o'ziga xos ortiqchalik deb bilgan ayrim davlat arboblarning bayonotlari adolatli ilmiy tanqidga uchragani bejiz emas[9]. «Yoshlar siyosati» atamasi bevosita 1991-yil 16-aprelda qabul qilingan «SSSRda yoshlarga oid davlat siyosatining umumiy asoslari to'g'risida»gi 2114-1-sonli Qonunida keltirilgan. Ushbu qonun loyihasi SSSR Oliy Kengashi Yoshlar instituti qoshidagi Ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan ishlab chiqilgan. Yoshlar siyosati masalasida sobiq Ittifoqda huquqiy asos qabul qilingan bo'lishiga qaramay, Ittifoqning parchalanishi natijasida ushbu normalar ijtimoiy hayotda o'z ifodasini topmagan.

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi o'zgarishlar tizimli yangilanishni, yoshlarga oid davlat siyosatining vazifalari va mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasida 1991-yil 31-avgustda mamlakat mustaqilligi e'lon qilingandan so'ng mamlakatning muhim ijtimoiy siyosatidagi yetakchi tarmoq sifatida yoshlar siyosati masalasini e'tirof etish o'rinni. Ushbu holatni mustaqillikning dastlabki kunlarida qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida yoshlarda oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinganligi bilan izohlanadi. Ushbu qonun qabul qilinish natijasida yoshlarga oid siyosatni bevosita tartibga soluvchi qonunchilik bazasi shakllangan. Ushbu qonun 2016-yilga qadar amalda bo'lib, sohaga doir huquqiy masalalarni tartibga solgan. 2016-yil 14-sentabr sanasida jamiyat hayotining barcha jabhalarini modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib, mamlakatda yoshlarga oid siyosatning yangi shakl va mexanizmlarini belgilab beradigan «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi O'RQ-406-sonli O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilingan.

doir huquqiy asoslarni qabul qilish va amaliyotga joriy etish bosqichini o'z ichiga qamrab oladi. Bu jarayon 1991-yildan boshlangan bo'lib, normativ-huquqiy hujjatlarining takomillashtirilishi bilan hozirgi kunga qadar davom etib

kelmoqda hamda yoshlarga oid davlat siyosati mexanizmlarining huquqiy asoslari tizimini tashkil etadi. (1-jadvalga qarang).

Har qanday faoliyat turi ma'lum bir institutsional tuzilmalarga asoslanadi. Yoshlarga oid davlat siyosati ham amalga oshirish shakli va tamoyillariga ko'ra bir qator davlat va nodavlat institutsional muassasalari faoliyatiga bog'liq. Yoshlarga oid davlat siyosati mexanizmining tuzilishini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, uni tashkil etishda yagona yondashuvlar mavjud emas. Mamlakatning milliy davlat tuzilishidan kelib chiqib, bir necha davlat tashkilotlari yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish bilan shug'ullanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik e'lon qilingach ushbu sohada tegishli faoliyat yo'nalishlari bo'yicha bir necha vazirliklar faoliyat yuritgan. Bular Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va boshqalardir.

Shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati ham yo'lga qo'yilgan bo'lib, ulardan eng yirigi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati hisoblanadi. Ushbu harakat 2001 yilda bir guruh tashabbuskorlar tomonidan 1996-yilda ta'sis etilgan «Kamolot» yoshlar fondi o'rnida tashkil qilingan. Ushbu harakat mamlakatdagi 5,5 mln yoshlarni birlashtirgan yirik nodavlat notijorat tashkiloti sifatida 2017-yilga qadar o'z faoliyatini olib bordi.

2017-yil 30-iyun sanasida «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining IV Qurultoyida mamlakat Prezidenti Sh.Mirziyoyev ishtirok etib, ushbu tashkilot negizida yangi tuzilma, «Yoshlar ittifoqi»ni tuzish taklifini bildirdi. Prezidentning tegishli farmoni qabul qilinib, «Yoshlar ittifoqi» nodavlat notijorat tashkiloti faoliyati yo'lga qo'yildi. Ushbu tuzilma o'z faoliyati orqali respublikada yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishida davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorlikni ta'minlovchi, «Yoshlar — kelajak bunyodkori» shiori ostida professional faoliyatni amalga oshirish[2] vazifasini bajardi.

O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, yoshlar sohasidagi muammolarga samarali yechimlar ishlab chiqish, vakolatli organlar faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish maqsadida 2020-yil 30-iyundagi mamlakat Prezidentining tegishli farmoniga asosan «Yoshlar ishlari agentligi» tashkil etildi. Davlat tashkiloti sifatida ushbu tuzilma yoshlar bilan bog'liq soha va yo'nalishlarda yagona davlat siyosati, strategik yo'nalishlar va davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish[3] bilan shug'ullanishi belgilandi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organi hamdir.

Yangi O'zbekistonni barpo etishning muhim sharti hisoblangan samarali faoliyat yurituvchi boshqaruv tizimini shakllantirish bo'yicha keng ko'lamlı ma'muriy islohotlar amalga oshirilishi natijasida bir qator davlat tashkilotlari faoliyati tugatildi, funktsiya va vazifalari boshqa tuzilmalar tarkibiga o'tkazildi. O'tkazilgan ma'muriy islohotlar natijasida 2023-yil 1-yanvardan boshlab yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblangan Yoshlar ishlari agentligi yangi tuzilgan «Yoshlar siyosati va sport vazirligi» tarkibiga kiritildi.

O'zbekiston Respublikasida 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi (maxsus vakolatli davlat organi), Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Adliya vazirligi, Madaniyat va turizm vazirligi, Mudofaa vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshiruvchi subyektlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining subyektlari sanalgan davlat va nodavlat tashkilotlari yoshlarga oid davlat siyosati mexanizmlarining institutsional ko'rinishlari hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining shakllanish va rivojlanishida bir necha asosiy bosqichlarni ajratish mumkin:

- yoshlarga oid davlat siyosatiga doir huquqiy asoslarni qabul qilish bosqichi (1991-2016);
- yoshlarga oid davlat siyosatini institutsionallashtirish bosqichi (2001-2020);
- yoshlarga oid davlat siyosatini barqaror amalga oshirish bosqichi (2016-yildan hozirgacha);
- yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish uchun muqobil loyihalarni amalga oshirish bosqichi (2016-yildan hozirgacha).

Bizning fikrimizcha, yoshlarga oid davlat siyosati alohida bir tizimlashtirilgan boshqaruv shakliga ega bo'lib, yuqoridan quyiga hamda quyidan yuqoriga yo'naltirilgan gorizont va vertikal xususiyatga ega. Shuningdek, yoshlarga oid davlat siyosati respublika, mintaqaviy, mahalliy hamda o'zini o'zi boshqarish organlaridagi boshqaruv tuzilmasiga asoslangan.

Yoshlarga oid davlat siyosati o'ziga xos murakkab dinamik tizim bo'lib, unda tizimning har bir bo'g'ini faoliyati asosiy maqsadga – shaxsning erkin rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratishga, jamiyat yosh a'zolarining individual moyilligi va qobiliyatlarini ochib berishga, shuningdek, yosh avlodni ijtimoiy ahamiyatga ega rollarni bajarishga tayyorlashi kerak. Yoshlarga oid siyosatning asosiy yo'nalishlari, maqsad va vazifalarini shakllantirish va amalga oshirishda jamiyat taraqqiyoti hozirgi bosqichining barcha xususiyatlarini hisobga olish zarur.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik elektron bazasi. URL: <https://lex.uz/>
2. "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-5106-sonli Prezident Farmoni. 2017-yil 5-iyul. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 27-son. URL: <https://lex.uz/docs/3255680>
3. "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6017-sonli Prezident Farmoni. 2020-yil 30-iyun. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.07.2020-y, 06/20/6017/1021-son.
4. Титаренко В.А. Политические механизмы управления в Российском государстве. Дисс. ... д-ра полит. Наук. Саратов, 2005.
5. Щербина О.С. Механизм государственной молодежной политики в Российской Федерации: современное состояние и тенденции развития. Автореф. Дисс. ... канд. полит. наук. Черкесск, 2006. – С.14.

6. Бариев М.М. Институционализация молодежной политики в Республике Татарстан. Дисс. ... канд. полит. наук. Казан, 2006.
7. Балакирева Т.Н. Приоритетные направления государственной молодежной политики/Т.Н. Балакирева, Ф. А. Игбаева, С. Е. Моисеев// Молодежная политика и общественное развитие в России и ее регионах: Материалы Всероссийской научно-практической конференции. В 3-х частях. Часть 1. – Уфа: ИСЭИ УНЦ РАН. – 2009. – С.67.
8. Antonietta Bisceglia Il nuovo corso delle politiche giovanili in Italia e il caso della regione Campania / Antonietta Bisceglia// fedOA (Federico II Open Archive) Università degli Studi di Napoli Federico II.-2011.-S.13-14 URL: http://www.fedoa.unina.it/8611/1/bisceglia_antionietta_24.pdf (19.04.2020)
9. Меркулов П.А. Становление и реализация государственной молодежной политики в России: история и современность [Электронный ресурс]/ П. А. Меркулов // YOUTH WORLD POLITIC.-2015.- №2.- С.4
10. URL: <https://elibrary.ru/item.asp?id=25957950> (11.05.2020).
11. Laura Yerekesheva. Youth of Central Asia Challenges for Peacebuilding. A comprehensive research review. UNESCO 2021. P. 55.
12. URL:<https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000380818/PDF/380818rus.pdf.multi>



UDK: 141.201:(004.77)

Ulug'bek KARIMOV,
Andijon davlat pedagogika instituti erkin izlanuvchisi
E-mail: ulugbek.karimov4242@mail.ru

Alfraganus universiteti dotsenti A.Muxamedov taqrizi asosida

THE GENESIS OF THE INTERNET

Annotation

This article explores the history of the Internet, tracing its roots from the early ARPANET project to the vast global network we know today. Includes milestones such as the development of TCP/IP protocols, the emergence of the World Wide Web, and the rush of commercialization in the 1990s.

Key words: Internet history, arpanet, tcp/ip protocols, whole world internet, internet tijoratlashtirish, dot-com boom and bust, keng polosali ulanish, mobile internet.

ПРОИСХОЖДЕНИЕ ИНТЕРНЕТА

Аннотация

В этой статье исследуется история Интернета, прослеживая его корни от раннего проекта ARPANET до обширной глобальной сети, которую мы знаем сегодня. Включает такие вехи, как развитие протоколов TCP/IP, появление Всемирной паутины и стремительный рост коммерциализации в 1990-х годах.

Ключевые слова: История Интернета, arpanet, протоколы tcp/ip, весь мировой интернет, интернет-тижоратлаштириш, бум и крах доткомов, Кенг Полосали Уланиш, мобильный интернет.

INTERNETNING IBTIDOSI

Annotation

Ushbu maqola Internet tarixini o'rganadi, uning ildizlarini ilk ARPANET loyihasidan bugungi kunda biz biladigan ulkan global tarmoqgacha izlaydi. TCP/IP protokollarini ishlab chiqish, World Wide Webning paydo bo'lishi va 1990-yillarda tijoratlashtirishning jadallashishi kabi muhim bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Internet tarixi, arpanet, tcp/ip protokollari, butun dunyo interneti, internet tijoratlashtirish, dot-com boom and bust, keng polosali ulanish, mobil internet.

Kirish. Internetning paydo bo'lish tarixi bir necha o'n yilliklarni o'z ichiga olgan va ko'plab shaxslar va institutlarning hamkorligini o'z ichiga olgan qiziqarli jarayondir.

ARPANET va erta tarmoqlar (1960-yillar): Internetning kashshofi ARPANET (Advanced Research Projects Agency Network) bo'lib, u AQSh Mudofaa vazirligi tomonidan moliyalashtiriladi.[1] ARPANET turli tadqiqot muassasalaridagi kompyuterlarni ulash uchun mo'ljallangan bo'lib, ularga resurslar va ma'lumotlarni almashish imkonini beradi.

ARPANET dastlab Amerika qo'shma shtatlarining mudofaa vazirligi tizimidagi ilmiy tadqiqot muassasalari o'rtasidagi tezkor aloqani amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan bo'lib, uning vazifasi ma'lum bir hajmdagi ma'lumotlarni tezkorlik bilan xavfsiz bir shaklda uzatishdan iborat edi. Qayd etib o'tish kerakki, insoniyat taraqqiyotiga hissa qo'shgan juda katta kashfiyot va xitirolar harbiy soha bilan bog'liqdir. Shu jamladan, interentning dastlabki ko'rinishi bo'lgan ARPANET ham bevosita harbiy soha olimlari tomonidan ishlab chiqilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. TCP/IP ning rivojlanishi (1970-yillar): Transmission Control Protocol (TCP) va Internet Protocol (IP) turli tarmoqlar orasidagi aloqani standartlashtirish uchun ishlab chiqilgan. TCP/IP zamonaviy internet uchun asos bo'ldi.[2] Keyinchalik ma'lumotlarni uzatishning standartlari taokimlashtirildi va uzatuvchi va qabul qiluvchilar yagona dasturlar asosida

ishlashgan o'tdi. Bu esa uning universallashuvini ta'minlab, foydalanuvchilar ko'lamini kengayishiga olib keldi.

Butunjahon Internetning tug'ilishi (1991): Britaniyalik olim Tim Berners-Li Internetdagi ma'lumotlarga giperhavolalar orqali kirish usuli sifatida World Wide Web (WWW) ni taqdim etdi. Bu muhim burilish nuqtasi bo'lib, Internetni yanada qulayroq va foydalanuvchilarga qulayroq qildi. Bu esa hozirgi ko'rinishdagi internet paydo bo'lganini anglatar edi. World Wide Web – butunjahon o'rganchak to'ri qator elementlardan iborat. Internet yuz millionlab veb-serverlardan tarkib topgan. Ushbu serverlarda tegishli ma'lumotlar saqlanadi va murojaatchilar internetga kirganda aynan qaysidir cherverda saqlanayotgan ma'lumotlarni qo'lga kiritadi. Veb-serverdagi ma'lumotlar odatda gipermatn shaklida saqlanadi. Ana shu gipermatnlar esa foydalanuvchilarga veb-sahifa sifatida namoyon bo'ladi. Yagona dizaynt va kontekstga ega veb-sahifalar esa foydalanuvchilar tomonidan veb-sayt sifatida ishlatiladi. Hozirgi kunda veb-saytlarni ochish va ma'lumotlarni qabul qilishga mo'ljallangan dasturiy ta'minot mahsuloti brauzer deb nomlanadi. Eng ommaviy veb-brauzerlar google chrome bo'lib o'zining tezkorligi va qulayligi bilan mashhur.

Tijoriylashtirish va kengayish (1990-yillar): 1990-yillarda Internetdan foydalanish tez sur'atlar bilan o'sib bordi va butunjahon Internet tarmog'ining tijoratlashuvi kuzatildi. AOL va Microsoft kabi kompaniyalar internetni kengroq auditoriya uchun ochiq qilishda muhim rol o'ynadi. Internetning ommalashuvi innovatorlarning e'tiborini tortdi va o'sha davrlardan boshlab elektron pul kabi tushunchalar paydo


bo'ldi. Endilikda ommaviy axborot vositalari ham internetga ko'cha boshladi va gazeta va jurnal muxlislari ma'lum bir to'lov evaziga o'zlari qiziqqan bosma ommaviy axborot vositalarini ma'lum bir to'lov evaziga tezkorlik bilan o'qish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Dot-Com Boom (1990-yillarning oxiri): 1990-yillarning oxirlarida Dot-Com Boom deb nomlanuvchi internet bilan bog'liq biznesda tez o'sish davri kuzatildi. Ko'pgina kompaniyalar gullab-yashnagan bo'lsa-da, u oxir-oqibat 2000-yillarning boshlarida Dot-Com Bustga olib keldi. Bu davrda PayPal kabi faqat internet tarmog'i orqali ishlaydigan pul uzatish tizimlari gullab yashnadi. Bu tizimlarning rivojlanishida zamonaviy innovatorlar Ilon Mask kabi yetakchi innovatorlarning o'zni katta bo'ldi. Endilikda elektron tijorat dunyo iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylana bordi.

Keng polosali va yuqori tezlikdagi internet (2000-yillar): 2000-yillar keng polosali internetning keng qo'llanilishiga guvoh bo'lib, tezroq va ishonchli ulanishlarni ta'minladi. Bu multimedia kontenti, ijtimoiy media va onlayn xizmatlarning o'sishiga yordam berdi.

Mobil Internet va ijtimoiy media (2000-2010 yillar): Smartfonlar va mobil internetning paydo bo'lishi odamlarning internetga kirish va o'zaro munosabatini yanada o'zgartirdi.

Tadqiqot metodologiyasi.



Ushbu qisqacha sharh internet tarixidagi muhim bosqichlarni ta'kidlaydi. Internetning evolyutsiyasi butun dunyo bo'ylab hukumatlar, tadqiqotchilar, biznes va jismoniy shaxslar ishtirokidagi hamkorlikdagi sa'y-harakatlardan iborat.

1-rasm. Internet tarmog'ining bugungi kundagi sxemasi. Turli ranglar bilan domen turlari ifodalangan.

Tadqiqotning maqsadi Internet protokollarining evolyutsiyasini chuqur tahlil qilish, dastlabki tarmoq texnologiyalaridan TCP/IP protokollarini yaratishgacha bo'lgan rivojlanishni kuzatishdan iborat edi.

Global aloqani osonlashtirish: Internet protokollarining evolyutsiyasi turli tarmoqlar bo'ylab ma'lumotlar almashinuvini

ta'minlab, uzluksiz global aloqani qanday osonlashtirganini o'rganib chiqdik.

Masshtablilik va o'zaro ishlash imkoniyati: protokol yutuqlarining internetga ulangan ilovalar va xizmatlarning miqyosi va o'zaro ishlashiga ta'siri baholandi.

TCP/IP protokollariga o'tish standartlashtirilgan va o'zaro bog'langan global tarmoqni yaratishda hal qiluvchi rol o'ynadi.

IPv6 ni qabul qilish IPv4 cheklovlarini bartaraf etish va ulangan qurilmalar soni ortib borayotganiga moslashish uchun zarurdir.

Xavfsizlik protokollari onlayn muloqotning umumiy yaxlitligi va maxfiyligini sezilarli darajada yaxshiladi.

Facebook, Twitter va Instagram kabi ijtimoiy media platformalari mashhurlikka erishdi.

Bulutli hisoblash va IoT (2010-yillar): Bulutli hisoblash xizmatlari keng tarqaldi, bu foydalanuvchilarga ma'lumotlarni masofadan saqlash va ulardan foydalanish imkonini beradi. Yaxshilangan funktsionallik uchun kundalik qurilmalarni internetga ulaydigan narsalar Interneti (IoT) paydo bo'ldi.

Davom etayotgan innovatsiyalar: Internet sun'iy intellekt, virtual haqiqat va yuqori tezlikdagi tarmoqlarni kengaytirish (5G) kabi yangiliklar bilan rivojlanishda davom etmoqda. Dinamik peyzaj va davom etayotgan o'zgarishlar internet kelajagini shakllantiradi.

Hozirgi kunda internetning rivojlanishi natijasida ijtimoiy munosabatlar bilan birga iqtisodiy munosabatlar ham taraqqiy etmoqda. Misol uchun, insonning shu vaqtga qadar ko'zda tutilmagan iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlari turkumi vujudga keldi. Misol uchun, endilikda xaridor, sotuvchi, internet magazin, onlayn-marketpleys – bir guruh sotuvchilar uchun maydon, tarqatish punkti kabi yangi institutlar vujudga keldi.[4] Bu esa insonlar hayotida odatiy sotuvchi-xaridor munosabatlaridan ko'ra ko'p qirrali aloqalarning vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Keng qamrovli tahlil internet protokollarining ajoyib evolyutsiyasini ochib beradi va ularning zamonaviy raqamli landshaftini shakllantirishdagi hal qiluvchi rolini namoyish etadi. Topilmalar bog'langan dunyoning o'zgaruvchan ehtiyojlarini qondirish uchun protokollarni ishlab chiqishda davom etishning muhimligini ta'kidlaydi.

Ushbu bo'limga tadqiqot metodologiyasi, tarixiy tadqiqotlar, texnologik baholashlar va internet protokollarining evolyutsiyasi bilan bog'liq asosiy topilmalar haqida umumiy ma'lumot berilgan. O'rganishgizning aniq tafsilotlari asosida tuzatishlar kiritilishi mumkin.

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu tadqiqot Internet protokollarining evolyutsiyasini har tomonlama o'rganish uchun tavsiflovchi va analitik tadqiqot loyihasidan foydalangan. Dizayn tarixiy o'zgarishlar, texnologik yutuqlar va ularning ta'sirini batafsil o'rganishga yordam berdi.

2. Adabiyot sharhi:

Internet protokollarining evolyutsiyasi bilan bog'liq asosiy ishlarni, tarixiy hujjatlarni, texnik xususiyatlarni va tadqiqot ishlarini aniqlash uchun puxta adabiyotlar o'rganildi. Bu jarayon mavzu bo'yicha asosli tushunchani o'rnatishga yordam berdi va keyingi tahlillar uchun ma'lumot berdi.

3. Ma'lumotlarni yig'ish:

Birlamchi ma'lumotlar manbalari tarixiy hujjatlar, texnik xususiyatlar va internet protokollarining rivojlanishini

batafsil tavsiflovchi arxiv materiallarini o'z ichiga oladi. Bu keng ko'lamli manbalarni, jumladan, tadqiqot ishlari, rasmiy hisobotlar va tegishli tashkilotlarning hujjatlarini o'z ichiga oladi.

Ikkilamchi ma'lumotlar manbalari birlamchi manbalardan olingan ma'lumotlarni to'ldirish va tasdiqlash uchun ilmiy maqolalar, kitoblar va onlayn resurslardan iborat edi.

4. Xronologik tahlil:

Tadqiqotda internet protokollarining tarixiy rivojlanishini kuzatish uchun xronologik tahlil usuli qo'llanildi. Bunga asosiy voqealar, ishlanmalar va texnologik yutuqlarni vaqt jadvalida naqshlar va muhim nuqtalarni aniqlash uchun tashkil etish kiradi.

5. Qiyosiy baholash:

Turli internet protokollari va ularning internet evolyutsiyasiga qo'shgan hissasini tahlil qilish uchun qiyosiy baholash o'tkazildi. Bu global tarmoqning rivojlanishiga ta'sirini tushunish uchun turli protokollarning kuchli, zaif tomonlari va alohida xususiyatlarini baholashni o'z ichiga oladi.

6. Axloqiy mulohazalar:

Tadqiqot axloqiy me'yorlarga rioya qilgan holda, manbalardan to'g'ri iqtibos keltirilishini ta'minlagan va plagiatning oldini olgan. Foydalanilgan barcha ma'lumotlar ommaga ochiq va to'g'ri tavsiflangan materiallardan olingan.

7. Ma'lumotlarni tahlil qilish:

Yig'ilgan ma'lumotlar internet protokollari evolyutsiyasidagi tendentsiyalar, naqshlar va muhim o'zgarishlarni aniqlash uchun tizimli ravishda tahlil qilindi. Ushbu tahlil sifat va miqdoriy bo'lib, tavsiflovchi statistika va tematik kodlashni o'z ichiga olgan.

8. Cheklovlar:

Mavjud tarixiy yozuvlarga tayanish va tarixiy hujjatlarga xos bo'lgan potentsial noxolisliklar kabi metodologiyadagi mumkin bo'lgan cheklovlarni tan olish juda muhimdir. Ushbu cheklovlar topilmalarni sharhlashda hisobga olingan.

9. Haqiqiylik va ishonchlik:

Tahlil va natijalar. Tadqiqotning to'g'riligi va ishonchligini ta'minlash uchun ma'lumotlar bir nechta manbalardan o'zaro bog'langan va tadqiqot dizayni internet protokollari evolyutsiyasining keng qamrovli va aniq ifodasini ta'minlash uchun ehtiyotkorlik bilan ishlab chiqilgan.

Ushbu metodologiya bo'limi tadqiqot dizayni, ma'lumotlarni yig'ish usullari, axloqiy mulohazalar, ma'lumotlarni tahlil qilish va mumkin bo'lgan cheklovlarni belgilaydi. O'rganishingizning aniq tafsilotlari yoki siz kiritmoqchi bo'lgan qo'shimcha jihatlar asosida tuzatishlar kiritilishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Internetning paydo bo'lishi quyidagi ijtimoiy hodisalarni keltirib chiqardi.

Birinchiidan, elektron qurilmalarni ishlatishga bo'lgan katta qiziqish. Hozirgi kunda mobil qurilmalarning ommalashuvi va insoniyat hayotidagi o'rni shu qadar yuqoriki, endilikda iphone mobil qurilmalarining yangi moifikatsiyalarini prezentatsiyasi ana shu foydalanuvchilar uchun nihoyatda muhim ahamiyatga ega hodisadir.

Ikkinchidan, ijtimoiy qadriyatlar va munosabatlar tizimida intrnet orqali mo'ljal olish ko'nikmalari paydo bo'ldi va shakllandi. Endilikda insonlar ma'lum bir madaniyat, insonlar va narsalar haqida aynan internetgaya tayanib ma'lum bir qarorga kelishmoqda. Bu esa idjtimoiy hayotda internetning muhim ahamiyatga ega bo'lib borayotgani va insonlar qadriyatlar tizimi transofmatsiyasini keltirib chiqarayotganini tushuntirib bera oladi.

Uchinchiidan, intrennetdagi ma'lum bir g'oya va oqimlar, yangiliklar, tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarga bog'lanib qolish kuzatilmoqda. Endi insoniyat hayotida salbiy illatlar yoki zararli odatlar tushunchasi doirasiga internetga haddan ziyod bog'lanib qolishni ham kiritish mumkin.[5] Bu esa psixologlar va boshqa soha mutaxassislar oldiga ulkan ijtimoiy vazifalarni yuklamoqda. Endilikda qaramlik natijasida insoniyat patologik va anotomik ko'rsatkichlari ham o'zgarib bormoqda. Bu kabi salbiy o'zgarishlar esa qo'shimcha resurslarni talab qilgan holda korreksiya qilishni taqozo etadi.

To'rtinchidan, internet ahloqsizlik va destruktiv harkatlarning makoniga aylandi.[6] Ayniqsa, o'zbeq segmentida ahloqsizlik, fahsh va buzuvchilikni targ'ib qilish g'oyatda avj olgan. Buning qator sabablari bo'lib kelgusida albatta bunga batafsil to'xtalib o'tamiz. Hozirgi o'rinda esa internetda o'zbek tilidagi faxshga chorlovchi kontentning ko'pligining asosiy sababi jamiyatda mana shunday destruktiv holatlarga bo'lgan talabning yuqoriligi yoki yana ham soddat qilib aytganda jamiyat a'zolari orasida mana shunday dunyoqarashga ega insonlarning soni bilan bog'liqdir.

Beshinchidan, internetsiz yashash imkonsizga aylanib bormoqda. Oddiy hunarmand yoki tadbirkor ham, davlat xizmatchisi yoki pensioner ham internetdan foydalanmasdan turib kamida maishiy masalalarini hal qila olmaydi. Bu esa insoniyatning kashfiyoti bo'lgan va elektr tarmog'iga bog'langan internetning kelgusida nafaqat buyuk taraqqiyot sababchisi, balki katta falokatlarining kelib chiqishi manbasiga ham aylantirib qo'yishi mumkin.

Internet protokollari evolyutsiyasining ushbu keng qamrovli tahlili o'nlab yillar davomida raqamli landshaftni shakllantirgan chuqur o'zgarishlarni yoritadi. Tarixiy hujjatlar, texnik xususiyatlar va ilmiy adabiyotlarni sinchkovlik bilan o'rganish orqali ushbu tadqiqot internet protokollarining sayohatini aniqlagan asosiy ishlanmalar haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etdi.

Xulosa qilib aytganda, internet protokollarining evolyutsiyasi innovatsiyalar, standartlashtirish va moslashish bilan ajralib turadigan ajoyib sayohatni anglatadi.

Eksperimental tarmoqning dastlabki kunlaridan boshlab hamma joyda mavjud bo'lgan ulanish davrigacha protokollar nafaqat texnik infratuzilmani shakllantirdi, balki bizning muloqot qilish, ishlash va yashash tarzimizda ham o'zgartiruvchi rol o'ynadi.

Ushbu tadqiqot internetning texnologik va tarixiy asoslarini kengroq tushunishga yordam beradi, doimiy o'zgarishlarning ahamiyatini va doimiy o'zgaruvchan raqamli landshaftda moslashuvchan protokollarga bo'lgan ehtiyojni ta'kidlaydi. Biz kelajakka nazar tashlar ekanmiz, ushbu tahlil internet protokollarining dinamik evolyutsiyasini davom ettirish va tekshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Топчиев Б.Ю. "98. 01. 001. Краткий. Курс истории интернет / Лейнер Б. , Серф В. , Кларк Д. , Кан Р. , Клейнрок Л. И др. //jet info. - М. , 1997. - № 14. -С. 4-18" Социальные и гуманитарные науки. Отечественная и зарубежная литература. Сер. 8, Науковедение: Реферативный журнал, no. 1, 1998, pp. 3-11.[1]
2. Таганов Шанур, Ибрагимов Сердар ОСНОВЫ ИНТЕРНЕТА // IN SITU. 2022. №12. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osnovy-interneta> (дата обращения: 17.12.2023).[2]
3. Жилов В.С. Основные проблемы интернет-зависимого поведения // Известия Российского Государственного университета им. А.И.Герцена. Аспирантские тетради. 2008. № 23 (53). -С. 361-365.[3]

4. Минаков Андрей Владимирович (2023). ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИНТЕРНЕТ-ТОРГОВЛИ И ИНТЕРНЕТ-МАГАЗИНОВ В РОССИИ. Теория и практика общественного развития, (6 (182)), 143-152.
5. Нишанов Яшин Иззатуллаевич, & Утанова Тахмина Ганиевна (2021). ИНТЕРНЕТ-СЛЕНГ И ИНТЕРНЕТ-ОБЩЕНИЕ. Вестник науки и образования, (10-2 (113)), 48-50.
6. Архипова Александра Сергеевна, Радченко Дарья Александровна, Титков Алексей Сергеевич, Козлова Ирина Владимировна, Югай Елена Федоровна, Белянин Сергей Владимирович, & Гаврилова Мария Владимировна (2018). "Пересборка митинга": интернет в протесте и протест в интернете. Мониторинг общественного мнения: экономические и социальные перемены, (1 (143)), 12-35.



Kunduz KARIMOVA,
Urganch davlat pedagogika instituti, dotsent v.b. (PhD)
E-mail: q_karimova@mail.ru
Dilnoza BOZORBOYEVA,
Urganch davlat pedagogika instituti magistri
E-mail: dilnozabozorboyeva9@gmail.com

O‘zbekiston Milliy universiteti professori, f.-m.f.d M.Mamatov taqrizi asosida

LEVELS AND METHODS OF DEVELOPING CREATIVE THINKING OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS

Annotation

The article presents non-standard problems that shape and develop the creative ability of elementary school students and ways to solve them. A number of positive features observed in students by teaching them to solve non-standard problems are highlighted.

Key words: Primary class, student, task, standard problem, non-standard problem, creative thinking.

УРОВНИ И МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ МЛАДШИХ КЛАССОВ.

Аннотация

В статье представлены нестандартные задачи, формирующие и развивающие креативные способности учащихся младших классов, и пути их решения. Выделен ряд положительных особенностей, наблюдаемых у студентов при обучении их решению нестандартных задач.

Ключевые слова: Начальный класс, ученик, задание, стандартная задача, нестандартная задача, креативное мышление.

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING KREATIV FIKRLASHLARINI RIVOJLANTIRISH DARAJALARI VA USULLARI

Аннотация

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kreativ qobiliyatini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi nostandart masalalar va ularni yechish usullari keltirilgan. Nostandart masalalarni yechishga o‘rgatish orqali o‘quvchilarda kuzatiladigan bir qancha ijobiy xususiyatlar ajratib ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich sinf, o‘quvchi, topshiriq, standart masala, nostandart masala, kreativ fikrlash.

Kirish. Bugungi kunda ta‘lim muassasalarimizdagi o‘quvchi-yoshlarni prezidentimiz ta‘kidlaganlaridek, mustaqil ijodiy fikrlashga o‘rgatish hamda ijodiy fikrlashi jarayonida o‘zlashtirilgan bilimlarini biror bir manbadan tayyor holda olingan bilimlar bilan qiyoslaganda katta afzallikka ega bo‘lishligi bugungi globallashuv jarayonida muhim o‘rin tutadi. Shaxsni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo‘lib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk insonlari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini belgilashda ham muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Ushbu tajribalar ta‘limning barcha bosqichlarida foydalaniladigan o‘qitish tamoyillarini ijodiy qo‘llashda, ilmiy bilishga doir g‘oyalar, nazariyalar, qonuniyatlarni amaliyotga tadbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘qituvchi - yosh avlod ta‘lim-tarbiyasi uchun javobgar bo‘lgan shaxsdir. Shunday ekan, bugungi kun tarbiyachisi nafaqat ma‘naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o‘rnak bo‘lishi, balki o‘zining yetuk mutaxassis sifatidagi pedagogik mahoratini bolalarni bilimini rivojlantirishda, yetuk shaxsni tayyorlashda namoyon eta olishi zarur.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yosh avlodni keng tafakkurli shaxs qilib tarbiyalashda poydevor boshlangich ta‘limda olingan bilimlar bilan bog‘liq bo‘lib, fanlar orasida matematika fani yetakchi fan hisoblanadi. Matematika fanida esa nostandart topshiriqlar bilan hech qanday topshiriq

raqobatlasha olmaydi. O‘quvchilarning ijodiy fikrlashini, qiziqishlarini orttirishda, bilimlarini mustahkamlashda matemati-kaga oid mantiqiy masalalar, nostandart masalalar va ularni yechish usullari katta yordam beradi. Mantiqiy va nostandart masalalar bugungi kun boshlang‘ich sinf darsliklariga ham kiritilgan bo‘lib, qiziqarli masalalar rukniga kiritilganligi uchun umumta‘lim maktablari o‘qituvchilarining katta qismi mantiqiy va nostandart masalalar faqat matemati-kani o‘rganishga qobiliyatli o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan deb hisoblaydilar. Bunday nuqtai-nazarni paydo bo‘lish sabablaridan yana biri mantiqiy va nostandart masalalarning yechimlari o‘zgacha bo‘lib boshqa turdagi masalalarni yechish usullariga o‘xshamaydi. O‘qituvchi standart masalalar kabi nostandart masalalarni yechish jarayonida o‘quvchilarda oldin o‘rganilgan bilim va ko‘nikmalarga tayanib, umumiy xulosa chiqarib tushuntira olmaydi. Shuning uchun ham ushbu turdagi masalalarni yechish metodikasini yaratish bugungi kunning dolzarb muammosiga aylandi.

L.M.Fridman maktab matematikasida masalalarni turlarga bo‘lar ekan, standart va nostandart masalalar mavjudligini ko‘rsatib o‘tadi. Nostandart masalalar haqida yozarkan, “matematika kurslarida ularni yechish uchun umumiy qoida va holatlarning aniq dasturi bo‘lmaydi”, deydi[1].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fikrlashni rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratish zarur. Mashg‘ulot boshlanishi bilan o‘quvchining fikrlashi rivojlanishni boshlaydi va asta-sekinlik bilan mantiqiy fikrlash va o‘ziga xos

xarakterga ega bo'lgan boshqa aqliy funksiyalar tizimi paydo bo'lishiga asos bo'ladi [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Nostandart masalalarning mantiqiy, yashirin ma'lumotlarni topishga doir, rivojlantiruvchi, topqirlikka doir, qiziqarli, arifmetik, sonli boshqotirmalar, geometric xususiyatga ega, ertak masala kabi turlari mavjud. O'quvchilarga nostandart masalalarni yechishga o'rgatishda bo'lajak o'qituvchi oldida ikki xil vazifa turadi. Bir tomondan, masala shartlarida aks etgan bilimlar tizimini tiklash va saqlab qolish zarur.

Ikkinchi tomondan esa o'quvchilar doimiy ravish nisbatan masala talablariga bog'liq bo'lgan yangi tizimni qurishlariga erishish kerak.

Nostandart masalalarning o'ziga xos xususiyati ularni yechish metodi har doimgidek ma'lum ketma-ketlikdan iborat bo'lmasligidadir. Bunday turdagi masalalarni yechish o'quvchilardan bir xil masalalar ustida ishlashdan ko'ra ko'proq masalalar yechishning umumiy malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan faol harakatni amalga oshirishlarini talab qiladi. Nostandart masalalarni yechish o'quvchilarga taqqoslash, kuzatishga doir tajribalarni toplashga, murakab bo'lmagan matematik qonuniyatlarni aniqlashga, isbot talab etiladigan farazlarni o'rtaga tashlashga imkon beradi. Shu munosabat bilan o'quvchilarda deduktiv mulohaza yuritishga ehtiyoj tug'ilishi uchun sharoit yaratiladi.

O'quvchilarni nostandart masala bilan ishlashga o'rgatish ularda masala mohiyatini anglash bosqichida qiyinchilik tug'diradigan holatlarni topib, ularni bartaraf qilish bo'yicha tavsiyalarni, masalani yechish rejasini tuzishni, tuzilgan rejani amalga oshirish bosqichini, harakatlar va natijasini tekshirib ko'rishni o'z ichiga oladi.

O'quvchilarga nostandart masalalarni yechishga o'rgatish uchun ularda masalalarni yechishning umumiy malakalarini shakllantirish, boshqa tomondan esa ularni maxsus usullar bilan tanishtirish zarur. Nostandart masalalarni yechishning jadval usuli, teskarisidan hal qilish usuli, mulohaza yuritish, diagramma usuli, Eylar doiralari usuli, tanlash usuli va boshqa usullari mavjud.

Matematika fanini o'qitishda masalaning ahamiyati juda katta bo'lib, bunda o'quvchilarda matematikaga bo'lgan qiziqishni orttirish, tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish uchun ta'lim jarayonida amaliy va nostandart xarakterdagi masalalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday masalalarni yechish o'quvchilarda analiz, sintez, analogiya, umumlashtirish, deduksiya va induksiya kabi tafakkur amallari orqali mantiqiy mushohada yuritish faoliyatida ularni olingan natijalar ustida tanqidiy fikrlashga o'rgatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ayrim nostandart masalalarni va ularni yechish usullarini ko'rib chiqamiz.

1-masala. Nabira, ota va boboning birgalikdagi yoshlari 114 ga teng. Nabira, ota va bobolarning yoshlari bir xil raqam bilan tugaydigan ikki xonali son bilan ifodalansa, ularning har birining yoshini toping.

1-masalani tanlash usuli bilan yechamiz.

Yechish. Masala shartiga ko'ra nabira, ota, boboning yoshlari bir xil raqam bilan tugaydi va ularning yoshlari

yig'indisi 114 ga teng. Demak, qaysidir raqamni 3 marta o'z-o'ziga qo'shsak 4 raqami bilan tugaydi, ya'ni 3 ni qaysidir raqamga ko'paytirganda oxirgi raqami 4 ga teng bo'ladi. Ko'paytirish jadvalidan 3 ni ko'paytirganda 4 raqami bilan tugaydigan sonni topish qiyin emas. Bu 8 raqamidir. So'ngra tanlashni amalga oshiramiz. Masala shartiga ko'ra ularning yoshlari ikki xonali sonlar. Oxirgi raqami 8 bilan tugaydigan eng kichik ikki xonali son 18 ga teng. Agar nabira 18 yoshda bo'lsa, u holda nabira, ota va bobonihg yoshlari mos ravishda quyidagicha bo'lishi mumkin:

18, 38, 58;

18, 48, 68;

18, 38, 68;

18; 48, 78.

Bu uchliklarni qo'shish natijasida ularning ichidan yig'indisi 114 ga teng bo'lgan sonlarni izlab, quyidagilarni hosil qilamiz: $18+38+58=114$ bo'lib, qolgan $18+48+68$ yoki $18+58+78$ yig'indilar masala shartini qanoatlantirmaydi.

Demak, masalaning shartlarini quyidagi javob qanoatlantiradi: nabira - 18 yoshda, ota - 38 yoshda, bobo - 58 yoshda.

2- masala. Uchta bolaning har birida bir qancha olma bor. Birinchi bola ikkita boshqa o'rtog'iga ularda nechta olma bo'lsa, shunchadan olma berdi. So'ngra ikkinchi bola ikkita boshqa o'rtog'iga ularda nechta olma bo'lsa, shuncha olma berdi. O'z navbatida uchinchi bola ham ikkita boshqa o'rtog'iga ularda nechta olma bo'lsa, shunchadan olma berdi. Shundan so'ng bolalarning har birida 8 tadan olma bo'ldi. Dastlab bolalarning har birida nechtdan olma bo'lgan?

Masalani "teskarisidan hal qilish usuli" ni qo'llab yechamiz.

Yechish:

1-usul. Uchinchi bola birinchi va ikkinchi bolaga ularda nechta olma bo'lsa, shuncha olma berganidan so'ng bolalarning har birida 8 tadan olma bo'lgan. Demak, birinchi va ikkinchi bolada bu vaqtga qadar 4 tadan olma bo'lib, ular uchinchi boladan 4 tadan olma olishgan. Uchinchi bolada esa bu vaqtda $8+4+4=16$ olma bo'lgan.

Ikkinchi bola birinchi va uchinchi bolaga ularda nechta olma bo'lsa, shuncha olma bergandan so'ng birinchi bolada 4 ta olma hosil bo'lib, uchinchi bolada 16 ta olma hosil bo'lgan. Ular ikkinchi boladan mos ravishda 2 ta va 8 ta olma olishgan. Ikkinchi bolada 4 ta olma, qolgan bo'lib, bu vaqtga qadar unda $4+2+8=14$ ta olma bo'lgan.

Birinchi bola ikkinchi va uchinchi bolaga ularda nechta olma bo'lsa, shuncha olma berganidan so'ng ikkinchi bolada 14 ta olma, uchinchi bolada esa 8 ta olma hosil bo'lgan. Bundan esa, ular birinchi boladan mos ravishda 7 ta va 4 ta olma olishgani kelib chiqadi. Birinchi bolada 2 ta olma qolgan bo'lib, bu vaqtga qadar unda $2+7+4=13$ ta olma bo'lgan.

Demak, dastlab birinchi bolada 13 ta olma, ikkinchi bolada 7 ta olma, uchinchisida esa 4 ta olma bo'lgan. Javob. Birinchi bolada 13 ta, ikkinchi bolada 7 ta, uchinchi bolada 4 ta olma bo'lgan.

2-usul. Ushbu masalani teskari jadval yordamida mulohaza yuritish orqali yechim topamiz.

Teskarisidan hal qilish usulida jadval yordamida yechim topish

№	1-o'quvchi	2-o'quvchi	3-o'quvchi	natijalar
1	8	8	8	Oxirgi natija
2	4	4	16	3-bola olma berishidan oldingi natija
3	2	14	8	2-bola olma berishidan oldingi natija
4	13	7	4	1-bola olma berishidan oldingi natija(dastlab)

Teskarisidan hal qilish usulida masala yechish ham boshlang'ich sinflar uchun juda qulaydir. Bu usulda yechiladigan masalalarni tenglama yordamida ham yechish

mumkin, lekin masala murakkab bo'lsa boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun murakkab tenglama tuzish va uni yechish qiyinchilik tug'diradi.

3-masala: Rasmda kvadrat shakldagi stol tasvirlangan. Mana shunday stollardan 9 tasini bir-biriga taqab, bir qator qilib qo'yishdi. Endi bu uzun stol atrofida necha kishi o'tirsa bo'ladi?

Yechish.

1-usul. Masalani "mulohaza yuritish usuli" yordamida yechamiz.

Masalani yechishdan oldin o'quvchilar tasavvurida stollarni ketma-ket qo'ydiramiz.

Birinchi stolning yoniga ikkinchi stolni qo'yganda birinchi stolning bir tomonidagi stol olinadi.



Birliklarni sanab chiqqanimizda 20 ta birlik bo'lishini aniqlaymiz.

3-usul: Stollar joylashtirilganda birinchi va oxirgi stolga 3 ta kishi, o'rtadagi 7 ta stolga 2 tadan kishi o'tirishi mumkin. Bundan kelib chiqib quyidagicha hisoblash mumkin.

$$2 \cdot 3 + 7 \cdot 2 = 6 + 14 = 20$$

Javob: 20.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Matematika o'qitishda nostandart topshiriqlardan foydalanish:

o'quvchilarni mustaqil ravishda eng mukammal yechimlarni topishga o'rgatadi;

zukkolikni rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatadi;

o'quvchilarning bilim va ko'nikmalaridagi noto'g'ri fikrlashlarni hal qilishda va bir xillikda fikrlashni yo'q qiladi;

muammoni hal qilishda yangi metodlarni taklif qilish xususiyatlari shakllantiradi;

bilimlarni kognitiv faoliyatning turli usullarini o'zlashtirishga o'tkazishga hissa qo'shadi;

Ikkinchi stolning yoniga uchinchisini qo'yganda ikkinchi stolning ikki qarama-qarshi tomonidagi stullar ham olinadi.

Quyidagicha hisoblash mumkin:

$$3 + 2 + 2 + 2 + 2 + 2 + 2 + 2 + 3 = 20.$$

2-usul: Bu usulda stollarni ketma-ket joylashtirildi deb faraz qilamiz. Har bir kishining o'tirish joyini 1 birlik deb hisoblasak, quyidagicha hisoblash mumkin, ya'ni:



o'quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirish uchun sharoit yaratib, matematik bilimlarni mazmunli tushunishni kafolatlaydi.

Natijada o'quvchilar intellektual rivojlanish va faol amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanishadi. Mantiqiy vazifalarni hal qilish maktab o'quvchilarini mustaqil ijodiy fikrlashga undaydi, noma'lum iste'dodlarni kashf etishga yordam beradi, o'z kuchiga va o'z qobiliyatlariga ishonchni oshirishga yordam beradi va shunchaki zavq beradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, bu turdagi nostandart masalalar har doim maktab darsliklarida uchraydigan an'anaviy arifmetik masalalardan farq qilib, o'quvchilar kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda va matematik tafakkurini shakllantirishda turtki bo'luvchi masalalar turlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun bunday masalalarni o'quvchilarga muntazam o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. Фридман Л.М. Изучаем математику: Кн. для учащихся 5 -6 кл. общеобразовательных учреждений. - М.: "Просвещение", 1995. - 255 с.
2. Галкин Е.В. Нестандартные задачи по математике. - Челябинск: «Взгляд», 2005. - 246 с.
3. Karimova K.R. Boshlang'ich sinf o'quvchilari matematik tafakkurni shakllantirishda mantiqiy masalalar. Pedogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) dis. Chirchiq, 2023. - 122 b.
4. 3. Mamadjanova M.K. Mantiqiy, kombinatorik va nostandart masalalar. O'quv qo'llanma. - Toshkent. "Innovatsiya- ziyo", 2020. - 99b.
5. 5. G'aniyeva M. (2021). Effective ways to Use Triz (The Theory of Inventive Problem Solving) in Elementary School. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 9, 85-88.
6. 6. Ganiyeva, M. (2023). The main directions of developing the logical thinking of future elementary school teachers (in mathematics lessons). Science and innovation, 2(B3), 30-33.



Tulkin KUYLIYEV,
Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti
E-mail: Tulkinkuyliyev@gmail.com

TDTTrU dotsenti .f.f.n.Umarova R.Sh. taqrizi asosida

ECOLOGY: THE BEST SOLUTIONS FOR THE RELATIONSHIP OF NATURE AND SOCIETY

Annotation

The article discusses the problem of ecology, its relevance, the definition of the term ecology and its meaning in other scientific works, its formation, the formation of ecology as an independent science, the formation of a relatively young science, the subject of its scientific research, the development of ecology and aspects of the scientific approach to it. Analysis environmental problems by Western thinkers in a number of periods, the environmental problems of Eastern thinkers and their coverage in their works are analyzed.

Key words: Ecology, problem, study, research, object, product, West, East, thinker.

ЭКОЛОГИЯ: ЛУЧШИЕ РЕШЕНИЯ ВЗАИМООТНОШЕНИЯ ПРИРОДЫ И ОБЩЕСТВА

Аннотация

В статье рассматривается проблема экологии, ее актуальность, определение термина экология и его значения в других научных трудах, ее становление, становление экологии как самостоятельной науки, становление сравнительно молодой науки, предмет своих научных исследований развитие экологии и аспекты научного подхода к ней. Анализ экологической проблемы западными мыслителями в ряд периодов, анализируются экологические проблемы восточных мыслителей и их освещение в их трудах.

Ключевые слова: Экология, проблема, исследование, исследование, объект, продукт, Запад, Восток, мыслитель.

ÉKOLOGIYA: TABIAT -JAMIYAT O'RTASIDAGI MUNOSABATLARINING ENG OPTIMAL YECHIMLARI

Annotatsiya

Maqolada ekologiya muammosi, uning dolzarbligi, ekologiya atamasining ta'rif va boshqa ilmiy ishlardagi ma'nosi, uning shakllanishi, ekologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishi, nisbatan yosh fanning shakllanishi, uning ilmiy tadqiqot obyekti bo'yicha o'rganiladigan obyekti. ekologiyaning rivojlanishi va unga ilmiy yondashish jihatlari. Bir qator davrlarda G'arb mutafakkirlari tomonidan ekologik muammoning tahlili, Sharq mutafakkirlarining ekologik muammosi va ularning asarlarida yoritilishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Ekologiya, muammo, tadqiqot, tadqiqot, obyekt, mahsulot, G'arb, Sharq, mutafakkir.

Kirish. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mustaqil-likning o'ttiz ikki yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida ekologiya masalasiga ham to'xtaldi. Xususan, «Bugun bizning oldimizda turgan yana bir muhim masala – ekologik muammolar va suv tanqisligidir. Tarozining bir pallasida o'sib borayotgan qurilishlar, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi turgan bo'lsa, ikkinchi pallasida har birimiz uchun eng zarur bo'lgan suvni tejash, atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va yer resurslaridan oqilona foydalanish masalasi» dolzarbligi alohida ta'kidlandi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Malumki bugungi kunda ekologiya masalasi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ekologiya atamasining dastlabki ta'rif taniqli nemis biolog Ernest Gekkel tomonidan uning «Organizmlarning umumiy morfologiyasi» (1866-y.) va «Olam vujudga kelishining tabiiy tarixi» (1868-y.) kabi ilmiy asarlarida keltirilgan. Unga ko'ra ekologiya lug'aviy jihatdan yunoncha; oikos (oikos) - yashash makoni, o'rni, joyi hamda logos (logos) - fan, mantiq so'zlari birikmalaridan tuzilgan atamadir. Ma'nosiga ko'ra tirik organizmlarning yashash sharoiti yoki tashqi muhit bilan o'zaro munosabatini anglatadi. Ekologiya biologik yo'nalishdagi fanlardan biri sifatida XIX asrning o'rtalarida shakllandi. Dastlabki davrlarda u alohida olingan tirik organizmlarni o'rab turuvchi o'lik tabiat bilan munosabatini o'rgangan. Ekologiya mustaqil fan sifatida XIX asrning oxirlarida keng tan olingan bo'lsa-da, uning ekologiya deb atalib, umumiy lug'atga kirishi XX asrning so'ngi (1960-

2000-y.) o'n yilliklariga to'g'ri keladi. Ko'rinib turibdiki, ekologiya nisbatan yosh fan hisoblanib, hozirda ham uning shakllanishi davom etmoqda. Shuning uchun fanning predmeti, maqsadi va vazifalarini ta'riflashda ko'pchilik mualliflar bir-biriga yaqin fikrlarni bildirsalar-da, hozircha yagona umumiy to'xtamga kelingan deyishga asos yo'q.

Tadqiqot metodologiyasi. Ekologiya fanining rivojlanishida uning o'rganish obyekti va unga ilmiy yondashish jihatlari ko'ra bir necha davrlarni farqlash mumkin. Bu davrlar ba'zi manbalarda fanning bo'limlari sifatida ham ta'riflanadi.

Birinchi davr – tabiatni kuzatish va tavsiflash, tirik organizmlarning muhit bilan o'zaro munosabatlarini o'rganish davri.

Ikkinchi davr – tirik organizmlar va ular yashaydigan muhitni yaxlit funksional tizimlarni, ya'ni ekotizimlarni o'rganish davri.

Uchinchi davr – ekotizim larni birgalikda o'zaro munosabatlarini o'rganish davri.

To'rtinchi davr – Yerdagi barcha tirik organizmlar va ularning yashash muhitini birgalikda, ya'ni biosfera sifatida o'rganish davri.

Beshinchi davr – biosferada inson ongini yetakchi o'rin egallashi bilan bog'liq ravishda shakllanadigan noosferani o'rganish davri.

Ba'zi bir chet el adabiyotlarida ekologiya sof biologik fanlar genetika, zoologiya, botanika va mikrobiologiya kabi fanlar asosida o'rganiladi va 4guruhga bo'linadi:

a) global ekologiya, b) sinekologiya, c) demoeologiya va d) avtoekologiya. Global ekologiya - ekosfera va biosferani, sinekologiya - ekotizim va ijtimoiy ekologiyani, demoeologiya - aholi ekologiyasini va avtoekologiya - organizmlar fiziologiyasi, to'qimalar biologiyasi va molekulyar biologiya kabi biologiyaning maxsus bo'limlarini o'rganadi. Bugungi kunga kelib ekologiya sof biologik fanlar tizimidan chiqib, mazmuni kengayib bormoqda. Atrof-muhitga zamonaviy fan va texnika taraqqiyotining ta'siri natijasida ekologiya tushunchasi o'ta kengayib ketdi. Fanga «Inson ekologiyasi» degan atama ham kirib keldi. Insonni tashqi muhitga munosabati boshqa tirik organizmlardan tubdan farq qiladi. Inson ekologiyasi yangi fan sifatida 1921-yilda amerikalik olimlar Borjes va Park tomonidan kiritildi[1]. Dastlabki inson ekologiyasi tibbiy soha bo'limi sifatida qaralib, keyinchalik uning ijtimoiy, texnik, ma'muriy, iqtisodiy va huquqiy tomonlari ham o'rganildi. Inson ekologiyasi insonni atrof-muhitga va aksincha, muhitning insonga ta'sirini o'rganadi. Inson ekologiyasini o'rganish natijasida ijtimoiy ekologiya vujudga keldi. Unga birinchi bo'lib Raderik Mak Kenzil «Ijtimoiy ekologiya ijtimoiy fanlardan biri bo'lib, uning vazifasi inson bilan atrof-muhit o'rtasidagi xususiy bog'lanishlarini o'rganishdan iborat», deb ta'rif bergan edi.

Ekologiya faniga xos xususiyatlardan biri bu ekologik masalalarni hal etishga fanlararo yondashishdir. Yohud, ekologiya tabiat va jamiyatni bilishning ilmiy, axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy va boshqa bir qator jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan[2]. Bu hoi bir qator tabiiy (biologiya, geografiya, geologiya, kimyo, fizika, matematika) va ijtimoiy (falsafa, iqtisod, huquq, sotsiologiya, pedagogika) fanlarga oid bilimlarni qamrab olgan o'ziga xos yangi yo'nalishni, ya'ni ekologik yo'nalishni sintez qilishni taqozo etadi. Haqiqatan ham ekologiyaning hozirgi taraqqiyoti aynan shu yo'nalishda takomillashib bormoqda. Hozirgi zamon ekologiyasini alohida olingan tabiiy fan sifatidagina emas, balki tabiiy va ijtimoiy fanlarning xulosalariga tayanadigan fan sifatida olib qarash va talqin etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ekologik talimotning xorijlik olimlar tomonidan o'rganilishi. O'simlik va hayvonotlarning hayot tarzi, ularning tashqi muhitga bog'liqligi va turli joylarda tarqalish sabablari haqidagi ma'lumotlar insonlar tomonidan juda qadim-qadimdan og'zaki va yozma shakllarda to'planib kelingan. Bunday malumotlarni jamlab dastlabki ilmiy xulosalar qilishga urinishlarni antik faylasuf Aristotel (Eramizdan avvalgi 384-322- y.) asarlarida uchratish mumkin. U 500 dan ortiq hayvon turlarining yashash tarzi to'g'risida yozib, unda ekologiyaga oid ko'plab fikrlarni olg'a suradi. Aristotelning shogirdi, «Botanikaning otasi» Teofrast Erezeyskiy (Eramizdan avvalgi 371-280-y.) esa o'simliklarning turli sharoitlarda o'zgarishi, ularning qiyofasi va xususiyatlari tuproq hamda iqlimga bog'liqligi to'g'risidagi ma'lumotlarni yozib qoldirgan[3]. XV, II-X, VIII asrlardagi ekologik ma'lumotlar tirik organizmlarni ayrim guruhlarini o'rganishga qaratilgan edi. J.Byuffonning ishlarida (1707-1778) hayvonlarning tuzilishiga tashqi muhitning ta'siri masalasi ko'tarilgan. J.B.Lamark (1774— 1892) dastlabki evolyutsion ta'limotni o'rtaga tashladi va o'simlik hamda hayvonlarning evolyutsion o'zgarishlarida eng muhim omil bu tashqi tabiiy muhit ta'siri deb hisobladi. XIX asrdagi ekologik ma'lumotlar (A. Gumbold) o'simliklar geografiyasida yangi ekologik yo'nalishni keltirib chiqardi. 1859 yilda Ch. Darvin «Tabiiy tanlash yo'li bilan turlarning kelib chiqishi» asarida tabiatdagi yashash uchun kurash, ya'ni tur bilan muhit o'rtasidagi har qanday qaram a-qarshiliklarning ko'rinishlari tabiiy

tanlanishga olib keladi va evolyutsiyaning harakatlaniruvchi kuchidir deb qaraydi. A.N .Beketov (1825-1902) o'simliklarning ichki va tashqi tuzilishidagi xususiyatlari ularning geografik tarqalishi bilan bog'liqligini hamda fiziologik usullarning ekologiya uchun ahamiyati katta ekanligini ko'rsatdi. 1877-yilda nemis gidrobiologi K.Myobius biosenozi haqidagi tasavvurlarim asoslab berdi. O'simliklar jamoasi haqidagi ta'lim otgan G.F.Morozov va V.N.Sukachev asos soldilar[4]. Rus olimlari V.N.Sukachev, B.A.Keller, V.V.Olexin, V.G.Ramenskiy, A.Shinnikov va chet ellik olimlardan F.Keleentes, K.Raunkier, T.Dyu Rie, I.Braun-Blanke va boshqalarning fitosenologik ishlari umumiy biotsenologiyaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Umumiy ekologiyaning rivojlanishida R.N.Kashkarovning «Muhit va jamoa» deb nomlangan O'rta Osiyo universitetida o'qigan ma'ruzalari keyinchalik «Hayvonlar ekologiyasi asoslari» nomi bilan birinchi yozilgan darslik bo'lib qoldi. O'rta asrning 30-yillaridan boshlab ekologiyada yangi davr «Populyatsiyalar ekologiya» sini tadqiq qilish boshlandi. Uning asoschisi ingliz olimi Ch.Elton hisoblanadi. Hayvonlarning morfologik va evolyutsion ekologiyasini rivojlantirishga M .S.Gilyarov va S.S.Shvars katta hissa qo'shdilar. I.S.Serebryakov tomonidan gulli o'simliklarning hayot shakllari tasnifoti ishlab chiqildi. 1940-yillarning boshlarida tabiiy tizimlarni o'rganish jarayonida yangi yo'nalish kelib chiqdi[5]. 1935-yilda ingliz olimi A.Tensli ekotizimlar, 1942-yilda esa V.N .Sukachev biogeotsenozi haqidagi ta'limotni ilgari surdilar. 1950-yilning boshlarida G.Odum, Yu.Odum, R.Uitekker, R.Margalef va boshqalar biologik mahsuldorlikning nazariy asoslarini yaratish borasida ish olib bordilar. Ekologik ta'limotning O'rta Osiyo va O'zbekistondagi taraqqiyoti. O'rta asrlarda O'rta Osiyoda yashab ijod etgan olimlardan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu NasrForobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va boshqalar tabiat fanlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar, ular hali ekologiya fan sifatida alohida shakllanmagan davrlardayoq tabiat va undagi muvozanat, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiatni e'zozlashga oid qimmatli ekologik fikrlarni aytdilar. Buyuk alloma Muhammad Muso al-Xorazmiy (782-847) 847-yilda «Kitob surat al-arz» nomli asarini yozdi[6]. Unda dunyo okeanlari, qit'alar, qutblar, ekvatorlar, cho'llar, tog'lar, daryo va dengizlar, ko'llar, o'rmonlar va undagi o'simlik va hayvonot dunyosi, shuningdek, boshqa tabiiy resurslar - yerning asosiy boyliklari ekanligi haqida ma'lumotlar keltirgan. O'rta Osiyo xalqlari ijtimoiy-falsafiy fikrining eng yirik va mashhur vakillaridan biri Abu Nasr Forobiyning (870-910) ilmiy-falsafiy merosi nihoyatda boy. Uning asarlarida tabiatshunoslik ilmi, ilmiy-amaliy faoliyat va hunarmandchilik masalalari yoritilgan. Forobiy «Insoniyatning boshlanishi haqida kitob», «Hayvon a'zolari to'g'risidagi kitob», shuningdek, «Odam a'zolarining tuzilishi» kabi asarlarida odam va hayvonlarning ayrim a'zolarining tuzilishi, xususiyatlari va vazifalari, ularning o'xshashligi va farqlari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Forobiy tabiatda mavjud narsalarni tabiiy va inson qo'li bilan yaratiladigan sun'iy narsalarga ajratgan[7]. U tabiiy narsalar tabiat tomonidan yaratilgan degan xulosaga keladi. Inson omilining ta'siri katta ekanligini, tabiiy va sun'iy tanlash hamda tabiatga ko'rsatiladigan boshqa ta'sirlarni atroflicha baholagan. Abu Rayhon Beruniy (973-1048) koinotda ro'y beradigan hodisalarni taraqqiyot qonunlari bilan bog'lab tushuntirishga urinadi[8]. Olim yerdagi ba'zi hodisalarni quyoshning ta'siri bilan izohlaydi. Uning fikricha, inson tabiat qoidalarga rioya qilgan holda borliqni ilmiy ravishda to'g'ri o'rganadi. U yer yuzida o'simlik va hayvonlarning yashashi uchun zarur imkoniyatlar cheklangan, lekin o'simlik va hayvonlar cheksiz ko'payishga intiladilar va shu maqsadda kurashadilar, «Ekin

ekish va nasi qoldirish bilan dunyo to'lib boraveradi", deb bashorat qiladi. Garchi dunyo cheklangan bo'lsa-da, kunlar o'tishi bilan bu ikki o'sish natijasida ko'payish cheklanmaydi. Agar o'simliklardan yoki jonivorlardan biror xilining o'sishiga sharoit bo'lmay, o'sishdan to'xtasa ham boshqalarida bu holat kuzatilmaydi. Ular birdaniga paydo bo'lib, birdaniga yo'qolib ketmaydilar, balki ularning biri yo'qolsa ham, u o'z o'xshashini qoldirib ketadi. Beruniy asarlarida o'simlik va hayvonlarning biologik xususiyatlari, ularning tarqalishi va xo'jalikdagi ahamiyati haqida ma'lumotlar beriladi. Beruniyning ilmiy qarashlari asosan "Saydana", "Mineralogiya", "Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar" kabi asarlarida o'z aksini topgan. "Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar" asarida o'simlik va hayvonotlarning tashqi muhit bilan aloqasi, ularning xulqatvorini yil fasllarining o'zgarishi bilan bogliq ravishda o'zgarishi misollar bilan tushuntirilgan[9]. Beruniy yer qiyofasining o'zgarishi o'simlik va hayvonot dunyosining o'zgarishiga, tirik organizmlarning turli hayoti yer sayyorasi tarixi bilan bogliq bolishi kerak deb hisoblaydi. Qumni kovlab, uning orasidan chig'anoqni topish mumkin, deydi alloma. Buning sababi shuki, bu qumlar qachonlardir okean tubi bolgan deb xulosa qiladi. Beruniyning "Saydana" nomli asarida 1116 xil dori-darmonlar tavsiflangan[10]. Ularning 750 tasi turli o'simliklardan, 101 tasi hayvonlardan, 107 tasi esa minerallardan olinishini bayon etgan. Beruniy o'zining tabiiy-ilmiy kuzatishlari asosida tabiatdagi hodisalar ma'lum tabiiy qonuniyatlar asosida boshqariladi, ularni tashqaridan ta'sir etuvchi har qanday kuch o'zgartirish qobiliyatiga ega emas, degan xulosaga keladi. Abu All ibn Sino (980-1037) jahon madaniyatiga yuksak hissa qo'shgan olimlardan biridir. Uning 450 dan ortiq asarlari ma'lum. Bizgacha ulardan 240 tasi yetib kelgan. Ibn Sino asarlari orasida "Tib qonunlari" nomli shox asari tibbiyot ilmining qomusi bo'lib, u o'rta asr tibbiyot ilmi taraqqiyotining oliy cho'qqisi hisoblanadi. Kishi organizmiga tashqi muhit ta'siri muhimligini bilgan alloma, ayrim kasalliklar suv va havo orqali tarqalishi haqida fikr bayon etgan, ya'ni, u kasallikning yuqishi masalasini hal etishga yaqinlashgan edi. Abu Ali ibn Sinoning falsafiy va tabiiy-ilmiy qarashlari uning jahonga mashhur asari - "Kitob ash-shifo", ya'ni "Davolash kitobi"da bayon etilgan. Bu asarda materiva. fazo. vaqt. shakl. harakat. borliq kabi falsafiy tushunchalar[11]. Shuningdek. matematika, kimyo, botanika, zoologiya, geologiya, astronomiya, psixologiya kabi fanlar haqida fikrlar bayon etilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) ning nomi aytilganda ko'pchilik uni shoir deb biladi. Ammo Bobur faqat shoirgina bo'lmay, balki podshoh, sarkarda, tarixchi va mashshoq, ovchi va bog'bon. sayyoh va tabiatshunos ham bo'lgan. "Boburnoma" uning eng yirik asaridir. Asarda Boburning ko'rgan-kechirganlari, yurgan joylarining tabiati, boyligi, odamlari, urf-odatlarini, hayvonlari, o'simliklari va boshqalar tasvirlangan[12]. Unda yer, suv, havo, turli xil tabiiy hodisalarga tegishli xalq so'zlari ko'plab topiladi. O'zbekistonda ekologik yo'nalishdagi ishlarning asoschilari D.N.Kashkarov va Ye.P.Korovin hisoblanadilar.

1930-yillarda ular tomonidan "Muhit va jamoa", "O'rta Osiyo va Qozog'iston cho'llarining turlari va ulardan xo'jalik d a foydalanish istiqbollari", "Cho'llardagi hayot" kabi ilmiy asarlar chop etildi. Bu asarlarda ekologiya fani va uning vazifalari, uslublari o'z aksini topgan. O'zbekiston Fanlar akademiyasining Botanika institutida V.A.Burigin rahbarligida o'simliklar ekologiyasi laboratoriyasi tashkil etildi. Keyinchalik bu ishlarni amalda O.X.Hasanov, R.S. Vernik va boshqalar davom ettirdilar. 1959 yilda janubi-g'arbiy Qizilqum cho'l stansiyasi. 1960 yilda Nurota chala cho'l stansiyasi tashkil etilib, u yerdagi ozuqa o'simliklari ustida ekologik, fiziologik va biologik yo'nalishlardagi ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi va bu ishlar hozir ham davom ettirilmoqda.

Tahlil va natijalar. Keyingi yillarda institut olimlari "Hayvonot olamini qo'riqlash va undan samaraii foydalanishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish" dasturiga oid tadqiqotlarni davom ettirmoqdalar. Undan ko'zda tutilgan maqsad kuzatuv tadqiqotlari natijalari - monitoring m a'lumotlarni tahlil qilish va tartibga solish, genofondni saqlash imkoniyatlarini o'rganish, hayvonot olamini qo'riqlashdan iboratdir. Hozirda ekologiya faqat tirik organizmlar o'rtasidagi munosabatlarni yoki organizmlardan yuqori turuvchi tizimlarga xos qonuniyatlarni o'rganish bilan chegaralanib qolmay, tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlam ing eng optimal yechimlarini asoslab berishi zarur. Bu degan so'z ekologiyaning ijtimoiy mavqei oshib borayotganligini ko'rsatadi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, hozirgi zamon ekologiyasi - tabiat va jamiyatda kechadigan jarayonlarni inson omilini hisobga olgan holda o'rganadigan fandır, deb ta'riflash mumkin. Bu o'rinda shuni ham unutmaslik kerakki, inson omili deyilganda insonning biologik mavjudot sifatidagi faoliyatigina emas, balki uning jamiyatdagi turli ishlab chiqarish faoliyati ham nazarda tutiladi.

Xulosa va takliflar.

- Hayotning tashkil topish qonuniyatlarini o'rganish, shu jumladan, tabiiy tizimlarga va umuman biosferaga antropogen ta'sirlarni tabiat qonunlari asosida tadqiq etish;
- tabiiy resurslardan yoki tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishning ilmiy asoslarini yaratish, insonning xo'jalik faoliyati ta'siri ostida tabiatda ro'y beradigan o'zgarishlarni oldindan bilish, biosferada kechadigan jarayonlarni boshqarish va inson yashaydigan muhitni saqlab qolish;
- yangi o'zlashtirilgan mintaqalarda, sanoatlashgan va aholisi ko'p bo'lgan hududlarda yashovchi aholining sharoitga moslashuvini tezlashtiruvchi vositalarni yaratish va tabiatda yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni oldindan xolis baholash;
- xavfli tabiiy hodisalar, texnogen fojialarning oldini olish va ularning inson va tabiatga salbiy ta'sirini kamaytirish choralari ko'rish;
- ekologik ong, madaniyat, ta'lim va tarbiya tizimlarini mukammallashtirish va bu sohaga ommaviy axborot vositalarini keng jalb etish.

ADABIYOTLAR

1. <https://kun.uz/news/2023/08/31/prezident-ekologik-muammolar-va-suv-tanqisligi>.
2. K. Tulkin Ensuring Regional Security is the Main Criterion of the Foreign Policy of Uzbekistan// European Journal of Life Safety and Stability, 2022
3. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., "Yangi asr avlodi", 2001-y.
4. T. Kuyliyev. Экологик муаммолар ва маънавият// Academic research in educational sciences, 2020
5. Т. Куйлиев. Особенности формирования и развития экологической культуры (Социально-философский анализ) – 1993г.
6. Eshkulovich M.Z., K Tulkin. National values as a factor in the development of human capital in the new Uzbekistan Open Access Repository, 2023.
7. Чернова Н.М., Белова А.М. Экология . М ., "Просвещение", 1988.
8. .Воронцов и др. Охраны природных ресурсов . М ., "Агропромиздат", 1989 г.

9. Лопырев М.И., Рябов Е.И. Защиты земель от эрозии и охрана природы, М., "Агропромиздат", 1989 г.
10. Лось В.А. Взаимоотношения общества и природы, М., "Знание", 1989 г.
11. Baratov R. Tabiatni m uhofaza qilish, T., "O'qituvchi", 1991-y. I I . Белов С.В. и др. Охрана окружающей среды. М., Высшая школа. 1991 г.
12. Jabborov N. Ximiya va atrof-muhit. T., "O'qituvchi", 1992-y. 13. Сайдаминов С.С. и др. Инженерно-технические мероприятия по охране окружающей среды. Т., "O'qituvchi", 1994 г.
13. Shodimetov Y. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. I, II qism. Г., "O'qituvchi", 1994 у.



UDK:34(045)(575.1)

Elbek QAXAROV,
Toshkent amaliy fanlar universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: ekaxarov7783@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, PhD X.N.Oblomuradova taqrizi asosida

IMPROVING THE LEGAL CULTURE OF YOUTH: A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Annotation

The article analyzes the need to study the issues of the development of the legal culture of youth in Uzbekistan, on the one hand, in connection with the constantly changing socio-political processes, the improvement of democratic reforms, which pose more and more new problems to society, and on the other -with a change in consciousness, worldview, lifestyle of youth in accordance with changes in society.

Key words: Youth, civil society, legal education, legal enlightenment, legal awareness, legal culture.

ПОВЫШЕНИЕ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В статье анализируется необходимость исследования вопросов развития правовой культуры молодежи в Узбекистане, с одной стороны, в связи с постоянно меняющимися социально-политическими процессами, совершенствованием демократических реформ, которые ставят перед обществом все новые и новые проблемы, а с другой-с изменением сознания, мировоззрения, образа жизни молодежи в соответствии с изменениями в обществе.

Ключевые слова: Молодежь, гражданское общество, правовое воспитание, правовое просвещение, правосознание, правовая культура.

YOSHLARDA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISH: IJTIMOY-FALSAFIY TAHLIL

Аннотация

Maqolada O‘zbekistonda yoshlar huquqiy madaniyatini rivojlantirish masalalarini tadqiq etish zarurati, bir tomondan, tinmay o‘zgarib borayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, demokratik islohotlarni takomillashtirish jamiyat oldiga yangidan-yangi muammolar qo‘yayotgani bo‘lsa, ikkinchi tomondan, yoshlar ongi, dunyoqarashi, hayot tarzida jamiyatdagi o‘zgarishlarga muvofiq o‘zgarishlar sodir bo‘layotgani bilan bog‘liq ekanligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Yoshlar, fuqarolik jamiyati, huquqiy tarbiya, huquqiy ta‘lim, huquqiy ong, huquqiy madaniyat.

Kirish. Tarixning zarvaraq sahifalaridan shu narsa ma‘lumki, har bir davr, har bir jamiyat o‘z axloqiy ideali va unga muvofiq tarbiya nazariyasi va tizimini yaratgan. Zotan, jamiyat nafaqat ustuvor g‘oyasiz, balki oqilona tarbiya tizimisiz barqaror bo‘la olmaydi. Tarbiya jamiyatning axloqiy, ma‘naviy qiyofasi, jamiyat a‘zolarining xulqi, davlat fuqarolarining tartib-intizomi, turmush tarzining asosi sanaladi. Jamiyatda shaxsga insoniylik va barkamollikka xos barcha xislatlar va fazilatlar ta‘lim va tarbiya orqali singdiriladi va rivojlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yoshlar tarbiyasi, ularning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirish masalasi har bir davrda dolzarb hisoblangan. Xususan, yunon faylasufi Suqrot “jamiyatning eng katta muammosi yoshlarning ongi va ularning axloqida jamiyat taraqqiyotiga dahldorlik tuyg‘usini tarbiyalashdan iborat”, – deb ta‘kidlagan.

Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino va boshqa mutafakkirlar ijodida esa yoshlar dunyoqarashini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari ochib berilgan. Jumladan, Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarlarida jamiyat a‘zolarining ma‘naviy kamolotga erishishi adolatli jamiyat qurishning asosiy sharti, deb hisoblangan.

Kaykovusning “Qobusnoma” asarida insonning kamoloti bevosita uning aqlu shuuri va peshona teriga bog‘liqligi quyidagicha ifodalanadi: “Agar kishi har qancha oliy nasab va asl bo‘lsa-yu, ammo hunari bo‘lmasa, u

xaloyiqning izzat va hurmatidan noumid bo‘lur. Ulug‘lik aql va bilim biladur; nasl-nasab bila emas. Otni senga ota va onang qo‘ymishlar, sen unga g‘arra bo‘lmag‘il... Bu ot faqat bir nishonadin boshqa narsa emasdur. Ammo sen hunar bila bir nomg‘a ega bo‘lg‘il”[2].

Kaykovusning “Qobusnoma” asarida yoshlar tarbiyasiga oid mazmunli, ibratli o‘g‘itlar ifodalanganiki, bu yoshlarning dunyoqarashi keng, yuksak madaniyat egasi bo‘lishiga zamin yaratadi.

Buyuk mutafakkirlarimiz o‘zlarining ko‘p qirrali ijodi bilan kelajak avlodning bilim va madaniyatga erishishi hamda inson kamolotiga alohida e‘tibor bergan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”[1]gi PF-5618-son Farmoni ham ayni shu yo‘nalishdagi ishlarni yangi bosqichda davom ettirishni ko‘zlagan. Jumladan, “Yuksak huquqiy madaniyat – mamlakat taraqqiyoti kafolati” degan konseptual g‘oya asosida tizimli va keng qamrovli huquqiy targ‘ibot tadbirlarini tashkil qilishni nazarda tutuvchi Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Shu bilan birga, yurtimiz aholisi, xususan yoshlar huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalasi huquqiy ta‘lim va tarbiya ishlarini uzviy va tizimli tarzda olib borilishini, bunda davlat va nodavlat tashkilotlari, jamoatchilik birgalikda faoliyat olib borishi esa samarali natijani ta‘minlaydi.

Xo'sh, huquqiy madaniyat nima? Nima uchun bugungi kunda O'zbekistonda yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaltirish masalasiga dolzarb muammo sifatida qaralmoqda?

Bu savollarga javob berish uchun huquqiy madaniyat haqidagi bilim shakllarini tahlil qilish zarur. Xususan, biz fikr yuritmoqchi bo'lgan jihat, huquqiy madaniy qadriyatlar haqidagi bilimlarning shakllanish jarayoni, fuqarolik jamiyatini qurishni takomillashtirish sharoitida amalga oshiriladigan qadriyatlar uchun zarur bo'lgan huquqiy vositalar tizimining tahlili haqida boradi.

Ijtimoiy fanlar doirasida "huquqiy madaniyat" tushunchasiga turli-tuman, qarama-qarshi talqin va fikrlarga boy bulgan ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Bugungi kunda madaniyat va, umuman, huquqiy madaniyatga oid barcha ilmiy yondashuvlarni uchta – antropologik, sotsiologik va falsafiy jihatdan umumlashtirgan holda o'rganish mumkin. Huquqni bilish, huquqiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish, huquqiy ongning yuqori darajada rivojlanishi va, eng muhimi, shaxsning huquqiy xulq-atvori huquqiy madaniyat ko'rsatkichi hisoblanadi.

Aksiologik yondashuvga asosan, huquqiy madaniyat jamiyat tomonidan yaratilgan, insoniyatning huquqiy madaniyati yutuqlari ta'sir qiladigan dinamik tizim hisoblanadi.

Falsafiy yondashuv tarafdorlari, huquqiy madaniyat "sof analitik" hodisa sifatida, ma'naviy madaniyat va huquqiy jarayonlarga qadriyatli yondashilib, huquqning regulativ sifatining belgilangan rivojlanish darajasini ifodalovchi qadriyat tarzida talqin qilgan.

Sotsiologik yondashuvga ko'ra, huquqiy madaniyat – bu shaxsning ijtimoiy integratsiya vositasi bo'lib xizmat qiluvchi, individual huquqiy ong va huquqiy xatti-harakatlarining shakllanishiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy institut sifatida tushuniladi.

Huquqiy madaniyat "inson va jamiyatni insonparvarlashtirish mezonini" bo'lib, huquqiy davlat va fuqarolikning mohiyati, asoslari va tamoyillarini aks ettiradi.

Huquqiy madaniyat haqidagi fikr, qarashlarni umumiy lashtirib aytganda, birinchidan, huquqiy madaniyat barcha huquqiy hodisa va institutlar kabi keng ma'noda, insonning dastlabki madaniyatni rivojlantirish, yangi huquqiy qadriyatlarni yaratish, o'zlashtirish va tarqatish natijalarini aniqlashga imkon beradi; ikkinchidan, huquqiy madaniyat kishilarning bilimlari, huquqiy munosabatlari, huquqiy xulq-atvori va huquqiy ongida namoyon bo'lishi mumkin; uchinchidan, huquqiy madaniyat huquqiy faoliyatning xususiyati, uning darajasi, yo'nalishi, shakllari va usullari bilan bog'liq madaniyat shaklidir; to'rtinchidan, huquqiy madaniyat nafaqat huquqiy bilimlar va qarashlarning uyg'unligi, balki ularni almashish, yaratish, saqlash, tarqatish, ishlab chiqish, iste'mol qilish bo'yicha barcha xatti-harakatlardir. Beshinchidan, huquqiy madaniyat jamiyat hayotining asosiy tomoni, insoniyatning progressiv rivojlanish belgisi, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida moddiy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish, to'plash va o'zlashtirish nuqtayi nazaridan tushunchadir.

Tahlil va natijalar. Yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaltirish vazifasining dolzarbligi shundaki, bugun respublikamizning qariyb 60 foizini 30 yoshgacha bo'lgan fuqarolar tashkil qiladi.

Yoshlar huquqiy madaniyatini rivojlantirish masalalarini tadqiq etish zarurati, bir tomondan, tinmay o'zgarib borayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, demokratik islohotlarni takomillashtirish jamiyat oldiga yangidan-yangi muammolar qo'yayotgani, ikkinchi tomondan, yoshlar ongi, dunyoqarashi, hayot tarzida jamiyatdagi o'zgarishlarga muvofiq o'zgarishlar sodir bo'layotgani bilan bog'liq.

Yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaltirish masalalarini tadqiq etish yuzasidan 10 ta savoldan iborat ijtimoiy so'rovnoma ishlab chiqildi. Har bir savolning javobi 1 ball dan 5 ballgacha baholanadi. Umumiy savollar yuzasidan eng kami 10 ball, eng ko'pi bilan 50 ball olish imkoniyati mavjud.

Sotsiologik so'rovnoma Tashkent davlat yuridik universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti, Tashkent Amaliy fanlar universiteti talabalari hamda Tashkent shahridagi umumta'lim maktab o'quvchilari orasida ishlab chiqilgan indekatorlar asosida yoshlarning huquqiy madaniyat haqidagi bilim va tasavvurlari, huquqiy savodxonlikni oshirishga to'stinlik qiluvchi omillar o'rganildi va tahlil qilindi.

Birinchi savol demografik mazmunda bo'lib, unda respondentning yoshi, jinsi, millatini ko'rsatuvchi indikatorlar (savol-javob shakli) o'rin oldi. Shunga ko'ra, tadqiqotda ishtirok etgan 528 nafar respondentning 64,8 foizini 12-18 yoshdagilar, 22,9 foizini 18-25 yoshdagilar, 12,3 foizini 25-30 yoshdagilar tashkil etdi. Ularning 50,9 foizi ayollar, 49,1 foizi erkaklardan iborat.

So'rovnoma uch bo'limdan iborat bo'lib, jumladan, birinchi bo'limda ijtimoiy demografik xususiyatlar, ikkinchi bo'limda yoshlarning huquqiy madaniyatga munosabati, "huquqiy madaniyat" tushunchasini tushunish holati, huquqiy bilimlarning darajasini baholashi, yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish zarurati, yoshlarning huquqiy bilimlarga egaligi darajasi, huquqiy bilimlar darajasini oshirishga moyilligi; uchinchida bo'limda huquqiy madaniyat darajasini belgilovchi savollar, ya'ni huquqiy savodxonligi darajasini aniqlash, mavjud huquqiy bilimlardan foydalanish malakasiga egaligi, yoshlarning huquqiy qadriyatlarini aniqlash nazarda tutilgan.

So'rovnoma jarayonida olinadigan ma'lumotlarni to'plashni "Siz qaysi uzluksiz ta'lim muassasasida tahsil olgansiz (yoki olasiz)?" degan savol bilan boshladik. Mazkur savolga respondentlarning 34,7 % "Umumiy o'rta ta'lim", 30,1 % "O'rta maxsus ta'lim", 35,2 % "Oliy ta'lim" degan javobni belgilashgan.

"Hozirda nima bilan mashg'ulsiz?" degan savolga respondentlarning 92 % "O'qiyapman", 8 % "O'qiyman va ishlayman" javobini belgilagan. Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki, so'rovnoma ishtirok etgan yoshlarning deyarli yuqori qismi huquqiy madaniyat haqidagi bilim va tasavvurlar rivojlanishi hamda takomillashtirib borilishidan manfaatdor ekanini bildirgan.

Yoshlarning huquqiy bilim va huquqiy madaniyatga hamda yoshlar o'rtasida huquqiy madaniyatning rivojlanishi masalasiga shaxsiy munosabati ikkinchi bo'limda o'rganildi.

"Huquqiy madaniyat deganda nimani tushunasiz?" degan savolga respondentlarning 31% "Huquqiy bilimlarni", 20% "Huquqiy ongni", 19% "Huquqqa qadriyatli yondashuvni", 14% "Huquqiy xulqni", 10 % "Huquqiy bilim va ko'nikmalarni", 6% "Huquqiy faollik"ni tushuni-shi ma'lum bo'ldi. Ushbu ko'rsatkichlar yoshlarning "huquqiy madaniyat" deganda huquqiy bilimlar, huquqiy ong, huquqqa qadriyatli yondashuv, ya'ni huquqiy madaniyat haqidagi ilmiy-nazariy tasavvurga ega ekanligini ko'rsatdi. Biroq, yoshlar tushunchaga aniq ta'rif berishda qiynalganligini ko'rish mumkin.

So'rovnoma davomida yoshlarning huquqiy bilimlari darajasi, ularning o'qish va shaxsiy rivojlanishiga ta'siri, shuningdek, yoshlar huquqiy madaniyatining umumiy darajasi tadqiq etildi. Yoshlar o'zlarining huquqiy bilim darajasini baholar ekan, o'z fikrlarini quyidagicha bildirdilar: 4% "Yuqori", 9% "O'rtadan baland", 37% "O'rta", 31% "O'rtadan past", 19 % "Past".

"Rejalaringiz amalga oshishi uchun Siz qanday huquqiy bilimlar darajasiga ega bo'lishingiz kerak?", – degan

savolga respondentlar quyidagicha fikr bildirishdi: 54 % “Yuqori”, 33 % “O‘rtadan baland”, 9 % “O‘rta”, 4 % “O‘rtadan past”, 0 % “Past”. So‘rovnoma natijalaridan kelib chiqib, respondentlarning javoblarini tahlil qiladigan bo‘lsak, 9 % ishtirokchi o‘zining huquqiy bilimiga nisbatan “O‘rta” munosabatni, 0 % respondent “O‘rtadan past” degan javobni belgilagan. Qolgan 33 % ishtirokchi o‘zining huquqiy savodxonlik zaruriyatini “O‘rtadan baland”, 54 % “Yuqori” darajada bo‘lishi kerakligini qayd etgan. Bundan kelib chiqib, yoshlar huquqiy bilim darajasining umumiy ko‘rsatgichi sifatida baholaganda bunday bilimlar past va o‘rtadan past ko‘rsatkichlarni ko‘rsatadi.

So‘rovnomadan o‘rin olgan “Sizningcha, nima uchun bugungi kunda yoshlarning huquqiy bilimlarni egallaganligi darajasi juda past?, degan savolda respondentlarning huquqiy bilim va ko‘nikmalarni egallashdagi shaxsiy qiziqishlari o‘rganildi. Ushbu savolga berilgan javoblar tahliliga ko‘ra, respondentlarning 24 % “Huquqiy axborot mexanizmining yo‘qligi”, 16 % “Huquqiy tarbiyaning yetarlicha yo‘lga qo‘yilmaganligi” hamda 60 % “O‘zining qiziqishi yo‘qligi” degan javoblarni belgilashgan. Yoshlarning huquqiy bilim va huquqiy madaniyatni egallashga bo‘lgan ehtiyojining yuqoriligiga qaramay, huquqiy savodxonlik darajasi sayozligicha qolayotganligini ko‘rsatmoqda.

Shunga qaramay, yoshlar nafaqat o‘zlarining huquqiy sohadagi bilimlari uchun qayg‘urishadi, balki atrofda yoshlarning ham huquqiy savodxonligini oshirish zaruratini anglab yetganlar. Shu bois, “Yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish zarurmi?” degan navbatdagi savolga respondentlarning 93 % “Ha”, 7 % esa, “Yo‘q” degan javobni belgilagan.

So‘rovnoma jarayonida har bir ishtirokchining huquqiy madaniyatining shakllanish darajasi ham o‘rganildi: past, o‘rtadan past, o‘rta, o‘rtadan yuqori, yuqori. Ya‘ni, yoshlar huquqiy madaniyatni rivojlanganligining 5 ta darajasi aniqlandi: yuqori – 40 ball dan 50 ballgacha; o‘rtadan baland – 30 ball dan 40 ballgacha; o‘rta – 20 ball dan 30 ballgacha; o‘rtadan past – 10 ball dan 20 ballgacha; past – 0 ball dan 10 ballgacha.

Har bir daraja yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining aniq darajasini ifodalab beradi. Yuqorida keltirilgan bo‘lishiga qaramay, ularni batafsil ko‘rib chiqamiz.

Huquqiy madaniyatning past rivojlanganlik darajasi asosiy huquqiy tushunchalarni tushunmaslik, qonunchilik va huquqni, ularning jamiyat hayotidagi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy ahamiyatini bilmaslik, shuningdek, aniq bir vaziyat tahlil qilinganda huquqiy muammoni ilg‘ay olmaslik, o‘z huquqiy xatti-harakatlariga, boshqalar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarga munosabatni umuman baholay olmaslikni o‘z ichiga oladi. Respondentlarning 22,5 % past darajada ekanligini ko‘rsatadi.

Yoshlarda huquqiy madaniyatning o‘rtadan past rivojlanganlik darajasi asosiy huquqiy tushunchalarni qisman tushunishni, qonunchilik va huquqni, ularning jamiyat hayotidagi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy ahamiyatini yetarli darajada bilmaslik va qisman tushunish, ba‘zi huquqiy manbalarni bilishni; fuqarolik jamiyatini shakllantirishda huquqning ahamiyatini yetarli anglay olmaslik, o‘z huquqiy xatti-harakatlari, boshqalar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarga nisbatan nofaol munosabatni ko‘rsatadi. Respondentlarning 35,8 % o‘rtadan past darajani tashkil etdi.

Yoshlarda huquqiy madaniyatning o‘rta rivojlanganlik darajasi asosiy huquqiy tushunchalarni qisman tushunishni, qonunchilik va huquqni, ularning jamiyat hayotidagi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy ahamiyatini yetarli darajada bilish va tushunish, huquqiy manbalarni bilish; fuqarolik jamiyatini shakllantirishda huquqning ahamiyatini anglash, aniq bir vaziyat tahlil qilinganda huquqiy muammoni aniqlay olish, huquqiy xulqqa ega bo‘lishga intilishni nazarda tutadi. Respondentlarning 23,3 % o‘rta darajaga mansub ekanligi o‘yinlashdi.

Yoshlarda huquqiy madaniyatning o‘rtadan yuqori rivojlanganlik darajasi asosiy huquqiy manbalarni bilish, qonunchilik va huquq, ularning jamiyat hayotidagi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy ahamiyatini bilish va tushunish, o‘z huquqiy bilimlarini oshirishga intilish, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda huquqning ahamiyatini anglash, aniq vaziyatni tahlil qilganda huquqiy muammoni aniqlash, huquqiy muammoni yechishning yo‘llarini ishlab chiqish va fikrini asoslash, eng samarali huquqiy yechimni topa olishni nazarda tutadi. Respondentlarning 11,5 % o‘rta darajaga mansubligi aniqlandi.

Yoshlarda huquqiy madaniyatning yuqori rivojlanganlik darajasi asosiy huquqiy manbalarni batafsil bilish, qonunchilik va huquq, ularning jamiyat hayotidagi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy ahamiyatini to‘liq bilish va tushunish, o‘z huquqiy xatti-harakatlaridan qoniqishni his qilish, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda huquqning ahamiyatini anglash, shuningdek, aniq vaziyatni tahlil qilganda huquqiy muammoni aniqlash, huquqiy muammoni yechishning yo‘llarini ishlab chiqish va asoslash, eng samarali huquqiy yechimni topa olish, kundalik hayotda olingan huquqiy bilim va ko‘nikmalarni faol ishlata olishni nazarda tutadi. Respondentlarning 6,9 % yuqori darajani tashkil etdi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yoshlarning huquqiy madaniyatni rivojlanganligini ko‘rsatgan past natijalar ushbu ijtimoiy qatlamda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda ta‘lim va tarbiya uzviyligini ta‘minlash zaruriyat ekanligini tasdiqladi.

Xulosa va takliflar. Yoshlarda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha quyidagi taklif va tavsiyalar taklif qilinadi:

Yoshlarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg‘usini rivojlantirish uchun, avvalo, mustaqil fikrni shakllantirish zarur [3, 4, 5, 6]. Mustaqil fikrga ega insongina o‘ziga qaratilgan yaxshi yoki yomon ma‘lumotning mohiyatini anglab yetishi va unga munosabat bildirishi, himoya mexanizmlarini ishga solishi mumkin;

yoshlar turli xil xurujlar ta‘siriga tushib qolmasligi uchun ularni milliy g‘urur, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni tinimsiz tarbiyalashimiz va buning uchun barcha vositalardan oqilona foydalanishimiz zarur [7, 8, 9]. Chunki, milliy g‘ururga ega inson turli xil xurujlarga tobe bo‘lmaydi;

mahalla va ta‘lim muassasalarida huquqiy ta‘lim va tarbiya uzviyligini ta‘minlash maqsadida huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha davra suhbatlari, tanlov va viktorinalar o‘tkazish;

O‘zbekiston aholisining ko‘p qismi mobil uyali vositalardan foydalanishini inobatga olgan holda, “huquqiy madaniyat” tushunchasining mazmun-mohiyati, huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan ma‘lumotlarni berishga mo‘ljallangan “tezkor savol-javob” SMS xizmatini yo‘lga qo‘yish.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/4149765>
2. Qobusnoma / Kaykovus. Nashrga tayyorlovchilar: Dolimov S., Dolimov U. - T.: O‘qituvchi NMIU, 2006. - B. 13.

3. Oblomuradova, K. ilmiy xabarнома. научный вестник. ilmiy xabarнома. научный вестник Учредители: Андижанский государственный университет им. ЗМ Бабура, (2), 19-25.
4. Обломуродова, Х. (2018). Могущественна страна, имеющее здоровое поколение. Review of law sciences, (1), 173-178.
5. Oblomuradova, X. N. (2018). A state with healthy children is evident to become powerful. Review of law sciences, 2(1), 31.



Dilfuzaxon MADGAFUROVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi
E-mail: rustamkhurramov@mail.ru

TerDU dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi X.Sharafudinova taqrizi asosida

O‘SMIRLARDA IJODIY QOBILIYATLAR RIVOJLANISHINING IJTIMOY PSIXOLOGIK OMILLARI

Аннотация

Ushbu maqolada o‘smirlik yoshidagi o‘quvchilarga ta‘lim va tarbiya berish jarayonida uchraydigan ayrim qiyinchiliklar, bu yoshdagi bolalarning psixologik, fiziologik rivojlanishi va xususiyatlari o‘rin olgan. Qobiliyat va qiziqish esa shaxsning asosiy individual xususiyatidir. Mazkur maqolada yuqoridagi xususiyatlar xususida so‘z borib, keng auditoriya uchun mo‘ljallanganligi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so‘zlar: O‘smirlik davri, fiziologik xususiyatlar, bilish jarayonlar, psixik rivojlanish, ta‘lim va tarbiya, motivatsiya, individuallik.

SOCIAL PSYCHOLOGICAL FACTORS OF THE DEVELOPMENT OF CREATIVE SKILLS IN ADOLESCENTS

Annotation

In this article, some difficulties encountered in the process of education and upbringing of students of adolescent age, psychological and physiological development and characteristics of children of this age are included. Ability and interest are the main individual characteristics of a person. This article talks about the above features and is important because it is intended for a wide audience.

Key words: Adolescence, physiological characteristics, cognitive processes, mental development, education and training, motivation, individuality.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация

В данной статье отражены некоторые трудности, возникающие в процессе обучения и воспитания учащихся подросткового возраста, психологическое и физиологическое развитие и особенности детей этого возраста. Способности и интерес являются основными индивидуальными характеристиками человека. В этой статье рассказывается о вышеперечисленных особенностях, и она важна, поскольку предназначена для широкой аудитории.

Ключевые слова: Подростковый возраст, физиологические особенности, познавательные процессы, психическое развитие, воспитание и обучение, мотивация, индивидуальность.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda “Ta‘lim va fan sohasini rivojlantirish, uzluksiz ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” kabi vazifalar belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sonli “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlarida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 12 iyuldagi “O‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori hamda “O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilga borib Global innovatsion indeks reytingi bo‘yicha ustuvor vazifa etib belgilangan.

Tahlil va natijalar. Davlat taraqqiyoti va jamiyat ravnaqi ko‘p jihatdan uning intellektual potentsiali bilan belgilanadi. Chunki, ilmiy potentsiali yuqori darajada rivojlangan mamlakat barcha sohalarida doimo ilg‘or bo‘ladi. Boisi inson rivojlanishi juda murakkab va ziddiyatli jarayondir. Inson rivojlanishi borasida bir qator ilmiy

nazariyalar mavjud. Masalan, psixolog olimlar – M.G.Davletshin, G‘.Shoumarov, E.G‘oziyev, Z.Nishonova, V.Karimova va boshqalar oliy psixologik hosilaning madaniy-tarixiy rivojlanishi nazariyasini ilgari surdilar. Quyida ana shu nazariyaning asosiy jihatlarini ko‘rib chiqamiz:

1. Hozirgi zamon kishisining ruhiyati va hulqi ikki jarayon munosabatlarining biologik yetilish va bilish natijasidir. har ikki jarayon ham bola dunyoga kelishi bilan paydo bo‘ladi va rivojlanish yo‘llarida bir-birlari bilan amaliy ravishda uyg‘unlashadi.

2. Har qanday ruhiy hosila o‘z irsiyati bo‘yicha tug‘ma, tabiiy yoki madaniy bo‘ladi.

3. Belgi va qurollardan foydalanish kattalar tomonidan bolalarga dastlab munosabat va birgalikdagi ashyoviy faoliyatni tashkil etish chog‘ida ko‘rsatiladi.

4. Tarixiy-madaniy jarayonda inson turli tuman qurollarni yaratdiki, ularning ichidan eng muhimlari mehnat qurollari, til va sanoq tizimlari bo‘lib, inson ulardan foydalanish sirlarini o‘rganib oladi.

5. Yozuvdan foydalanish turlari inson idrok etishdan tortib to fikrlay olish vazifalarini bajara boshladi. Odamlar tomonidan turli tarixiy davrlar ijtimoiy qurolning ikki turi bunyod etildi. U birining yordamida (mehnat quroli) tabiatga ta‘sir ko‘rsatsa, boshqasi (belgilar tizimi) bilan o‘ziga yordam beradi.

6. Mehnat qurollari va tanish tizimlarning amaliy faoliyatda qo'llanishi odamning bevosita ruhiy jarayonidan bevosita ruhiy jarayonga o'tishining boshlanishidir. Ya'ni, boshqaruv vositasi sifatida xuddi shu qurollar va belgilar ishga tushadi.

7. Ta'lim olish bolaga o'z hulqi (faoliyati) va ruhiy jarayonlar (xat xotirani yaxshilash, uning imkoniyatlarini kengaytirish, so'z esa idrok va diqqatni boshqarish vositasi)ni qurol yoki belgilar yordamida boshqarishda tajribaday bo'lib tuyuladi.

8. Qurollar va belgilar dastlab boshqalarning hulq-atvorini boshqarish vositasi bo'lib, keyinchalik bolalarni tarbiyalash vositasiga aylanadi.

O'smirlarning intellektual salohiyatini rivojlanishida ularning tug'ma qobiliyat va iste'dodining o'rni muhim ahamiyatga ega. Tug'ma qobiliyatga ega bo'lgan o'smirlarimiz kattalarning har bir ta'limiy, tarbiyaviy va kasbiy ta'limotlarini tez ilg'ab oladilar va tez o'zlashtirib hayotga tadbiiq eta oladilar. Lekin bu qobiliyat va iste'dod, barcha o'smirlarimizga tug'ma talant nasib etavermaydi. Shunday ekan, qobiliyatni shakllantirib borish, o'smirlarning iste'dodini oshirib borish birinchi navbatda pedagoglarimizga va keng jamoatchilik zimmasiga ya'ni oila, mahalla, o'quv muassasalari va korxonalar, tashkilot, ustaxonalar boshqaruvchilari zimmasiga tushadi. Iste'dod tushunchasining asosiy mazmuni "qobiliyat" degan tushunchani ham anglatadi. Bizningcha, amaliyotda qo'llaniladigan "qobiliyat" tushunchasi uchta asosiy qismga ega.

Birinchi, qobiliyat psixologik o'ziga xos alohida xususiyatlarga ega bo'lib, bir odamni boshqasidan farqlaydigan qobiliyat tushuniladi, barcha odamlar xos bo'lgan qobiliyat haqida gap ketganda hech kim bu iborani ishlatmaydi.

Ikkinchi, qobiliyat iborasi umuman olganda odamdagi o'ziga xos har qanday turli xususiyatlarni anglatmay, balki faqat turli faoliyatlarni bajarishda erishgan muvaffaqiyatiga bog'liq bo'lgan shaxsga nisbatan qo'llaniladi. Masalan, ba'zi odamlar shubhasiz o'ziga xos fazilatlariga ega: jizzakilik, lanjlik, yalqovlik kabi xususiyatlarni odatda qobiliyat deb bo'lmaydi, chunki har qanday faoliyatda ham har doim muvaffaqiyatga erishish mumkin emas.

Uchinchi, "qobiliyat" tushunchasi ayrim shaxslarda, ya'ni uning bilimi yoki bilarmonligiga qarab belgilanmaydi. Ko'pincha, pedagog o'quvchining faoliyatidan uncha qoniqmasada, lekin shunga qaramay yaxshi o'zlashtira olmayotgan bola boshqa o'rtoqlaridan ortda qolmay fanlarni yaxshi o'zlashtirishga harakat qilishi bilan o'qituvchini xursand qiladi. Pedagog o'zining noroziligini o'quvchi bilan yetarlicha shug'ullanmasligini asoslab o'quvchining "qobiliyatiga e'tibor berib", o'quvchi bilan ko'proq shug'ullansa bilimni yaxshi o'zlashtira olish qobiliyati bor, degan xulosa keladi.

Ta'lim-tarbiya berish jarayonida ta'limning ma'lum bir maqsadga qaratilishi muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayoni o'smirlarning intellektual ijodiy qobiliyatlarini shakllantirmasdan turib ularni ijodiy rivojlantirib bo'lmaydi.

Qolaversa, tadqiqot obyektimiz hisoblangan o'smirlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirishda tarbiyaning ahamiyati muhim sanaladi. Intellektual ijodiy salohiyatni oshirish uchun tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi. Ijodiy salohiyatni rivojlantirish jarayonida yuqoridagi fikrlarimizdagi dalillardan birortasi e'tibordan chetda qolsa, ko'zlangan maqsadga erishish qiyinlashadi.

O'smirlarning intellektual-ijodiy salohiyatini rivojlantirishni to'g'ri yo'lga qo'yish uchun o'quvchi-talabalar ijodiy faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirlarni belgilab

olamiz. Bundan tashqari o'smirlarning intellektual ijodiy salohiyatini muntazam rivojlantirish ishlarini amaliyatga tadbiiq etish uchun har bir pedagog har bir darsda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini kuzatib borishi kerak. O'smirlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirish usullaridan foydalanish haqida namunalarni keltiramiz:

"Aql charhi" mashqlarini o'tkazish: bunga turli rebuslar, krasovordlar yechish, shaxmat va shaxka o'yinlarini musobaqa shaklida tashkil etish kiradi.

"Yosh qalamkashlar" to'garaklarini o'tkazish: bunga o'smirlarning ijodiy mahoratini, iste'dodini oshirib borishga qaratilgan tadbirlari majmuasi kiradi. Masalan, o'smir orasida yetishib chiqayotgan yozuvchi va jurnalistik mahoratga esa bo'lgan o'smir bilan ishlash.

"Chaqqonlar va epcillar" sport o'yinlarini o'tkazish: bunga barcha turdagi sport musobaqalarini o'tkazish kiradi.

Mushoira, g'azalxonlik ko'rik tanlovlarini o'tkazish: bu usulga o'smirlarning she'r va g'azallar orqali ijod qilishi kiradi. Bunga "She'r kechasi" tadbirlarini o'tkazish kiradi.

Quvnoqlar va zukkolar tanlovlarini o'tkazish: bu tanlov orqali o'smirlarning san'at, teatr va rassomchilikka bo'lgan qiziqishi orttiriladi va zukkolik mahorati baholanadi.

Ustoz-shogird ishlarini takomillashtirish: bu usulni amalga oshirish uchun eng yaxshi ish olib borayotgan shogirdlari undan juda mamnun va minnatdor bo'lgan pedagog-ustozning ishlarini ommalashtiriladi.

Albatta o'smirlarning ijodiy barcha ishlarini va iste'dodli mahoratlarni baholash, ularni turli sovg'a va faxriy yorliqlar bilan mukofotlash maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida keltirilgan nazariy holat va amaliy misollarga qaramay ijodiy qobiliyat va uning rivojlanish muammosi psixologiya va pedagogikaning eng murakkab masalalaridan biri hisoblanadi. Boisi qobiliyat sezgi analizatorlari, kuch, harakat hamda asabiy, jismoniy va aqliy jarayonlar muvofiqlashishi kabi nerv sistemasi xususiyatlariga bog'liq bo'lgan tabiiy iqtidor, iste'dod, shuningdek, tashqi ijtimoiy muhit ta'siri ostida rivojlanadi.

Kishi o'zida muayyan faoliyatga qobiliyat bor yoki yo'qligini sezish yoki sezmasligini bildiradigan omil ta'lim metodikasi hisoblanadi. Ta'lim metodikasi qaerda o'z bo'lsa, o'sha yerda qobiliyatlarining tug'ma ekanligi haqidagi gaplar paydo bo'ladi. O'z-o'zidan ma'lumki, metodika doim takomillashib boradi, bu esa "tug'ma qobiliyatlar" doirasini torayib borishiga olib keladi.

Hozirgi zamon psixolog olimlari qobiliyatlar miya va sezish organlarining tuzilishiga bog'liq ular har xil kishilarda tug'ilgan vaqtidayoq turlicha bo'ladi, deb hisoblaydilar. Qobiliyatlar shaxsning boshqa sifatleri bilan uzviy bog'langan. Kishining talanti ekanligi ma'lum darajada uning psixik jarayonlari (idroki, xotirasi, tafakkuri, nutqi, tasavvuri, diqqat), shuningdek, ko'pgina psixik xususiyatlarining rivojlanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Ayrim qobiliyatlarini rivojlantirishda tegishli bilish jarayonlarining yuqori darajada bo'lishi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shaxsdagi ko'pgina jarayonlar va xususiyatlarining ayniqsa kuchli rivojlanishi kishining umumiy ravishda har tomonlama layoqatli bo'lishiga olib keladi.

Amaliy psixologiyaning bugungi kundagi eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri layoqat kurtaklarini ilk yoshlikdan aniqlash, intellekt darajasiga ko'ra shaxs qobiliyatlari yo'nalishini ochib berishdir. Shuning uchun ham hozirda ko'plab intellekt testlari va qobiliyatlarini diagnostika qilish usullari ishlab chiqilgan va ular muvaffaqiyatli tarzda amaliyotda qo'llanmoqda.

Qobiliyatlarini o'lchash muammosi XIX asrning oxiri – XX asrning boshlariga kelib izchil xal qilina boshlandi. Xorijda bunday ishlar Spirman, Bine, Ayzenk va boshqalar tomonidan o'rganildi. Ular qobiliyat va iqtidorni o'rganish

uchun maxsus testlardan foydalandilar. Bu testlarning umumiy mohiyati shundaki, ularda topshiriqlar tizimi tobora qiyinlashib boruvchi testlar – topshiriqlar batareyasidan iborat bo'ladi. Masalan, Ayzekning mashhur intellekt testi 40 ta topshiriqdan iborat bo'lib, u intellektual jarayonlarning kechishi tezligini o'lchaydi. Bu yerda vaqt mezonini muhim hisoblanadi.

So'rovnomani shaxsni turli kasblarga moyilliqni aniqlaydi. Unga 20 juft savollar kiritilgan bo'lib, tekshiruvchi maxsus javob varaqasida qay darajada u yoki bu mashg'ulot turi bilan shug'ullanishga moyilligini belgilashi kerak bo'lar edi.

Yuqorida bildirilgan fikrlarimizdan ma'lum bo'ladiki, o'quvchi shaxsining psixologik rivojlanganlik darajasini to'la yoritish uchun biz uning rivojlanish xususiyatlari borasida muayyan ma'lumotlarga ega bo'lishimiz lozim. Insonning

fiziologik va ruhiy rivojlanishi bola yoshini davriylashtirishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Qobiliyat tushunchasini insonning tabiiy xususiyati deb qabul qilmay, biroq biz ko'p hollarda qobiliyat rivoji asosida ba'zi insonlarda tabiiy xususiyat, ya'ni iste'dod ham mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Ba'zida "haqiqiy", "tabiiy", "tabiatdan berilgan" va shunga o'xshash so'zlar bilan aytilganda – "tabiiy" tushunchasi, - qobiliyat tushunchasi bilan amaliy tahlilda bir-biriga bog'liq. Ko'p hollarda biz tabiiylikni iste'dod rivoji asosida yotgan qobiliyatni tushunamiz. Balki kimdir biror joyda amaliy so'z ishlatishda, u yoki boshqa biror narsani - tabiiy xususiyatni qobiliyat deb ta'kidlashi mumkindir. Ehtimol, har qanday idrokli inson, tug'ilgan daqiqadan boshlab, ijodkorlikka bo'lgan tuyg'u yoki o'zaro his-tuyg'uning rivoji asosida faqat iste'dod nishonalari, qiziqish yoki shunga o'xshash tuyg'u mavjud deb o'ylash mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. T. ToshDPU. 2002. (o'quv qo'llanma).
2. Davletshin M.G. "O'quvchilarning texnika qobiliyati psixologiyasi". Toshkent 1971.
3. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. T. 1999.
4. Karimova V. Akramova F. Psixologiya. T. 2000.
5. Karimova V. Psixologiya. (o'quv qo'llanma). T. 2002.
6. Kap-Kalik. Uchitelyu o pedagogicheskom obqenii. M. "Prosveqenie". 1987. (o'quv qo'llanma).
7. Ziyomuxammadov B. Komillikka eltuvchi kitob. "Turon-iqbol nashryoti", Toshkent, 2006.
8. E.G'oziyev. Psixologiya. (o'quv qo'llanma) T.: O'qituvchi, 1994.



UDK: 193.4(575.1)

Abdulaziz MANSUROV,
Teacher of Gulistan State Pedagogical Institute

GulDU "Tarix" kafedrasida dotsenti Q.Almanov taqrizi asosida

MIGRATSIYA RIVOJLANISHINING TARIXIY BOSQICHLARI

Annotatsiya

Tarix ijtimoiy harakatlarga asoslangan uzluksiz jarayon sifatida qaraladi. Maqolada migratsiyaning paydo bo'lishi va uning rivojlanish bosqichlari, sabablari va uning orqasida qanday omillar borligi muhokama qilinadi. Migratsiya jarayoni dunyoning barcha hududlarida uzluksiz kechishi va har bir nuqtada turli shakllarda sodir bo'lishi tahlil qilinadi. Dunyoda yuz berayotgan muammolar mamlakatlar aholisi uchun migratsiyaning ahamiyati va ko'lamini baholash imkonini beradi. Shunga asoslanib, migratsiyaning ko'lamini va ahamiyatini baholashga harakat qilindi.

Kalit so'zlar: Migratsiya, aholi migratsiyasi, ekspluatatsiya, agrar inqilob, majburiy migratsiya, ekologik migratsiya, Delmun, dravid.

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ МИГРАЦИИ С ИСТОРИЧЕСКОЙ ТОЧКИ ЗРЕНИЯ

Аннотация

История рассматривается как непрерывный процесс, основанный на действиях человека. В статье рассматривается возникновение миграции и этапы ее развития, ее причины и какие факторы стоят за ней. Анализируется, что миграционный процесс происходит непрерывно во всех частях света и в каждой точке протекает в разных формах. Проблемы, происходящие в мире, позволяют оценить значение и масштабы миграции для населения стран. На основании этого была предпринята попытка оценить масштабы и значение миграции.

Ключевые слова: Миграция, миграция населения, эксплуатация, аграрная революция, вынужденная миграция, экологическая миграция, Дельмун, дравид.

DEVELOPMENT STAGES OF MIGRATION FROM A HISTORICAL POINT OF VIEW

Annotation

History is seen as a continuous process based on human actions. The article discusses the occurrence of migration and the stages of its development, its causes, and what factors are behind it. It is analyzed that the migration process takes place continuously in all parts of the world and occurs in different forms at each point. The problems occurring in the world make it possible to assess the importance and scope of migration for the population of countries. Based on this, an attempt was made to estimate the scale and importance of migration.

Key words: Migration, population migration, exploitation, agrarian revolution, forced migration, ecological migration, Delmun, dravid.

Introduction. Analyzing the world today, it can be seen that humanity is implementing the world order on the basis of large-scale social relations, and this is becoming a social necessity. That is, the thinking of the world's population today is being formed in such a way that it is becoming difficult or difficult to predict that such concepts as the nation and the homeland will be evaluated by the end of the century. Therefore, it makes it possible to assess the importance and scope of migration for the world's population. Population migration is a movement of the population associated with a change of place of residence. Population migration is one of the important problems of the population, and it is considered not as a simple mechanical movement of people, but as a complex social process that covers many aspects of socio-economic life. Population migration is related to population settlement, economic exploitation of land, development of productive forces, emergence and mixing of races, languages and peoples. Changes in the location of production directly create the need for regional redistribution of labor resources, which is achieved with the help of migration.

As a result of the movement of people, a whole era of mankind led to the arrival of human steps to all parts of the earth and the conquest of those lands. Due to migration of peoples from one area to another and assimilation with native

peoples, new peoples appear in new forms with enriched culture and outlook.

Literature review. We can see the first scientific definition of "migration" in the studies of E. Ravenshtey in 1885-1889. The scientist gives a brief description of the process and says that "migration is the movement of a person to change his permanent or temporary place of residence." It is worth noting that the laws on the migration process formed in his research serve as a methodological basis for experts in this field until now.

L.L. Rybakovsky, who studied the concept of "migration", expresses the opinion that no concept has so many different interpretations in the sciences that study it. However, it should be noted that there is still no clear definition of the term "migration". In the studies of V.A. Iontsev and Yu.A. Prokhorova, it is shown that the phenomenon of migration is the object of study of many disciplines. S.K. Bondoreva defines migration in her research. According to this scientist, this definition reveals the socio-philosophical essence of migration.

CIS scientists N. N. Totsky (Russia) and E. Yu. Savovskaya (Kazakhstan) also conducted research on migration and gave its definition.

Continuing the topic, it can be said that the Sumerians, who lived in Mesopotamia from the oldest countries, were not

indigenous people, but, according to several assumptions, came from the island of "Delmun" (Bahrain) or Indo-Iranian (Dravidian) peoples or Central Asia. There are opinions that settled [2]. The main reason for reaching such a conclusion is the presence of elements from the peoples of Central Asia in the language and culture of the local population. Linguists state that all languages in the world are spread from common language families, so they conclude that the differences in languages are related to the wide spread of peoples across the earth [1]. Manifestations of such migration can be continuously observed as a continuous historical process.

Research Methodology. In the 16th and 19th centuries, European population migrated to America, South Africa, and Australia in order to develop many vacant lands in the world. In accordance with these processes, the black people of Africa were brought to America as slaves. At the same time, it caused the local Hindu people to move to the interior of the region. This, in turn, has an impact on the social mood of the blacks in the American region today, and it is also particularly significant due to the high number of offenses and crimes among them. In this history, the process of forced migration and the rise of slavery and the exploitation of the labor of African peoples have intensified. It is causing these peoples in today's United States to meet unmanageable cultural and ideological differences.

After the two world wars, the scale of migration from developing countries to developed countries increased. Initially, it was the return of Europeans from their former colonies to their homelands, then the population of developing countries began to move towards Europe and North America. At this point, it is appropriate to correctly assess the political mood of the colonial countries. Colonial countries, for example, Great Britain, pursued policies based on two different approaches to their colonies. The first is that the colonists in these areas were favored for their survival based on the natural conditions, wealth, and ease of living in the colonies, so they organized policies with long-term plans (North America, Australia). In the second view, the harshness of the living conditions and nature of the colonies, due to the limitation of natural and subterranean resources, it is noteworthy that the policy was not intended for a long time and was more focused on the center (colonies in India, Africa). But if we observe today's migration flow, we are witnessing the migration of people from the south to the north and people from the east to the west in various forms.

Analysis and results. It can be seen from this that one of the main conditions for the existence of mankind is directly related to the process of finding a place with favorable conditions for him and settling down somewhere. At the same time, it is worth noting that most of the peoples of the earth lived a nomadic way of life based on animal husbandry in ancient times, and this is due to the continuous migration and the continuous process of mutual assimilation of the peoples of the earth. This, in turn, shows that historically, migration has been a continuous process. Based on the above definition, it can be said that migration is not considered as a simple mechanical movement of people, but as a complex social process that covers many aspects of socio-economic life. Of course, the existence of a specific purpose for the migration of a certain part of the population is also important, as well as its socio-economic and other goals.

At this point, it is appropriate to analyze the historical and modern causes of migration:

- The journey of the first mankind on the earth in search of food as a simple form of life;

- The occurrence of the historical agrarian revolution and the desire to occupy fertile lands;
- Forced relocation of the population during the slavery system that occurred in history;
- Processes aimed at developing vacant and fertile areas occupying a large part of the Earth's surface;
- Due to global climate changes, people are forced to leave their place of residence and move to other regions;
- Territorial redistribution of labor resources;
- The aspiration of the population towards areas that are convenient for living and working, especially large cities and megalopolises, which are mainly processes related to migration from underdeveloped areas to developed areas;
- Moving from areas where there is war, political unrest and the freedom of the population is somewhat limited, to areas where it is the other way around.

The essence of migration can be more clearly seen when considering the above reasons separately. The primary reason is the journey of early humans across the earth in search of food as a simple form of life. According to the sources [3: page 4], it took 2.5 million years for the evolution of the first human on earth, which started from Africa, and it took a long time to spread from this area to other parts of the world and to master the entire planet. The roots of humanity found in Europe are only 500,000 years old, while in Australia these roots are 45,000 years old. It is said that the Turkic-speaking population belonging to the Mongoloid race came to America much later from Northeast Asia [5]. New inventions played an important role in human migration and settling in new places. The discovery of fire, the domestication of plants and animals, writing, money, the development of statehood, empires, the scientific revolution, and the industrial revolution are the paths that mankind has taken so far. It seems that it was the starting point for mankind, and from this area, mankind traveled to other parts of the earth in search of food and a new place to live. Also, this journey for mankind has not stopped even today.

The next reason is the occurrence of the historical agrarian revolution and the desire to occupy fertile lands. According to the theoretical views of scientists, it can be seen that agriculture is spread on the earth along the parallels, that is, after the retreating cold air after the last ice age on the earth, mankind moved along the meridian to the north of the African equator. In fact, the agrarian revolution began slowly and in a certain geographical area in the hilly parts of southeastern Turkey, western Iran, and the Levant region, between 9500 and 8500 BC. Wheat and goats around 9000 BC, peas and mushrooms 8000 BC, olive trees around BC

5000 BC, horses 4000 BC and grapes 3500 BC. Despite our advanced technology, we still get more than 90 percent of our current calories from a handful of plants that were domesticated by our ancestors between 9500 and 3500 BC[4]. With the development of these benefits, the tribes and peoples had a food reserve, the need for inefficient migration disappeared, and the tribes began to settle on serunum lands. At the same time, efforts and struggles to acquire fertile lands have intensified. With this, the development practice of new settlements expanded.

Conclusion/Recommendations. We also considered that migration is considered as a process and that this phenomenon cannot be stopped, and that it is a condition for the viability of today's countries and societies. Also, taking into account that the formation of a positive view of this process and the correct education of citizens' view on this matter is the main issue, it is necessary to see the impact on the areas that lead to the development of the society.

REFERENCES

1. Anorbekova A., Mirzayeva Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T.: “Noshir” 2012. – 4 b.
2. Эргашев Ш. Қадимги цивилизациялар. Т.: “Ўзбекистон” 2016. – 11-12 б.
3. Ювал Ноа Ҳарари. Sapiens: Исноиятнинг қисқача тарихи //– М., 2014. –4-б.
4. Ювал Ноа Ҳарари. Sapiens: Исноиятнинг қисқача тарихи //– М., 2014. –6 4-б.
5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
6. Mansurov Abdulaziz Akbarjonovich. (2023). Migratsiya jarayonining tahlili va muammoli jihatlari. iqro , 2(1), 628–631. Retrieved from <http://wordlyknowledge.uz/index.php/iqro/article/view/386>
7. Akbarjonovich M. A. Migratsiyani keltirib chiqaruvchi sabablar //образование наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – Т. 24. – №. 2. – С. 32-34.
8. Akbarjonovich, M. A. (2023). Historical Analysis of Population Migration. International Journal on Orange Technologies, 5(4), 68-70. Retrieved from <https://journals.researchparks.org/index.php/IJOT/article/view/4292>
9. More Citation Formats



UDK:378.2

Jaxongir MUSAYEV,

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari, p.f.d., dotsent

E-mail: musaev@mail.ru

PhD G‘. Otamurodov taqrizi asosida

**GEOGRAFIYA FANINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA YO‘NALTIRUVCHI O‘QUV
MATERIALLARINI MODELLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI**

Аннотация

Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida geografiya fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashlarini rivojlantirish uchun o‘quv materiallarini modellashtirish texnologiyasi va uni amalga oshirish bosqichlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Geografiya, modellashtirish, mustaqil fikrlash, ta’lim mazmuni, o‘quv materialari, o‘quv topshiriqlari, ta’lim texnologiyasi.

**МОДЕЛИРОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛОВ ДЛЯ НАПРАВЛЕНИЯ ОБУЧАЮЩИХСЯ К
САМОСТОЯТЕЛЬНОМУ МЫШЛЕНИЮ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ГЕОГРАФИИ**

Аннотация

В данной статье описана технология моделирования учебного материала и этапы ее реализации для развития самостоятельного мышления учащихся в процессе преподавания географии в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: География, моделирование, самостоятельное мышление, содержание образования, учебные материалы, учебные задачи, образовательная технология.

**MODELING TECHNOLOGY OF TEACHING MATERIALS TO GUIDE STUDENTS TO INDEPENDENT
THINKING IN GEOGRAPHY TEACHING**

Annotation

This article describes the technology of modeling educational materials and the stages of its implementation for the development of independent thinking of students in the process of teaching geography in general secondary schools.

Key words: Geography, modeling, independent thinking, educational content, educational materials, educational tasks, educational technology.

Kirish. Hozirgi vaqtda turli xil ilmiy sohalarda va yo‘nalishlarda modellashtirish metodi juda keng tarqalgan. “Modellashtirish” atamasi pedagogika faniga texnik bilimlar sohasidan kirib kelgan.

Modellashtirish – bu real ob‘yektni ideal, dastlabki ob‘yektga o‘xshash yoki boshqacha tarzda ob‘yekt bilan o‘rni almashtirish jarayonidir. Bunda birinchi obyekt original deb, ikkinchisi esa model deb ataladi. Modellashtirish davomida o‘rganishni, tahlilni soddalashtirish uchun ayrim dastlabki ehtimollik (taxmin)liklarga yo‘l qo‘yiladi. Shuningdek, modelni tuzib chiqishda modellashtirish nazariyasining asosiy qoidalari hisobga olinadi: maqsadga yo‘naltirilganlik, ob‘yektning va modelning o‘zaro o‘xshashligi, modelning tizimlili, modellashtirishda obyektiv va subyektivning birligi, modellashtirishning bilishga doir va shakllantiruvchi funksiyalari [4].

Ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etilayotgan har qanday texnologiya o‘zining erishuvchanligi, kutilayotgan

natijaning aniqligi bilan ajralib turadi. Mavjud pedagogik texnologiyalar asosida o‘quv materiallarini modellashtirish ta’lim jarayoniga qo‘yilgan maqsadga erishishning ma’lum bir yo‘lidir. Modellashtirilgan o‘quv materialarida o‘quvchilar o‘zlashtirishlari kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar aniqlashtiriladi. Modellashtirilgan texnologiyalarning aniq bir jihati beriladiki, bunda o‘quvchining faolligini oshirish ta’minlanadi [1].

Geografiya fanini o‘qitish jarayonida o‘quv materiallarini modellashtirishda quyidagilarga e’tibor berilishi zarur deb hisoblaymiz:

- a) o‘quv fanlarining maqsadi va vazifalariga;
- b) o‘quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holdagi tajribalariga;
- v) mavzular o‘rtasidagi bog‘liqlik jihatariga;
- g) fanlararo bog‘lanish masalalariga;
- d) o‘qitishning samarali vositalaridan foydalanishga.

Modellashtirish texnologiyasi bosqichlari quyidagi izchillikda olib boriladi:

Modellashtirish texnologiyasining bosqichlari	Modellashtirish texnologiyasining bosqichlarida amalga oshiriladigan ishlar	Modellashtirish texnologiyasining natijalari
I	1. Pedagogik voqelikni tasavvur etish. 2. Texnologiyaning dars jarayonidagi o‘rni baholash	Modellashtirish texnologiyasining amaldagi tasavvurlari
II	3. Tasavvurdagi modellashtirish texnologiyasini asoslashga o‘tish 4. Kamchiliklarni bartaraf etish	Modellashtirish texnologiyasining modeli
III	5. Modellashtirish texnologiyasini voqelik bilan taqqoslash. 6. Modellashtirish texnologiya-sining nazariy modeliga tayyorgarlik	Modellashtirish texnologiyasini ongda hosil qilish
IV	7. Modellashtirish texnologiya-sini boshqa fanlar bilan tavsiflash 8. Uni pedagogik voqelik jihatidan baholash	Modellashtirish texnologiyasining nazariy modelini yaratish

V	9.Pedagogik voqelikdan real jarayonga o'tish 10.Modellashtirish texnologiya-sining tamoyillarini shakllantirishga tayyorgarlik	Modellashtirish texnologiyasining real jarayonini aniqlash
VI	11.Modellashtirish texnologiya-sining tamoyillarini aniqlash 12.Texnologiyani modellashtirishga tayyorgarlik	Modellashtirish texnologiyasining tamoyillari tavsifi
VII	13.Modellashtirish texnologiyasini tayyorlash 14.Tayyorlangan modellashtirish texnologiyani voqelik jihatdan baholash	Modellashtirish texnologiyasi
VIII	15.Modellashtirish texnolo-giyasini tajriba-sinovdan o'tkazish 16.Modellashtirish texnologiyasini dars jarayonlarida qo'llash	Modellashtirish texnologiyasining samaradorligini o'rganish

Ta'lim jarayonida modellashtirish texnologiyalarining qo'llanilishi, mashg'ulotlarning rang-barangligiga, qiziqarli tarzda tashkil etilishiga olib kelishi bilan o'quv materiallarining chuqur o'zlashtirilishiga ham keng imkoniyat yaratadi.

Modellashtirish texnologiyasida o'quv dasturlari mavzusining ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlardan kelib chiqadigan modul dasturining didaktik maqsadi, o'quvchilarning dars davomida bajariladigan o'quv topshiriqlari va topshiriqlarni bajarish bo'yicha berilgan ko'rsatmalar modullarni o'zida mujassamlashtiradi. Shu o'rinda modul so'ziga izoh beradigan bo'lsak, lotincha so'zdan olingan bo'lib "qism" (blok) degan ma'noni anglatadi. Modellashtirish texnologiyasining asosiy mohiyati o'quvchilar modul dasturi yordamida mustaqil ishlashga asoslangan o'quv bilish faoliyati orqali belgilangan maqsadga erishishdan iborat [4].

Modellashtirish texnologiyasini qayd etilgan bosqichlarida amalga oshiriladigan har bir faoliyat natijasi ko'rsatiladi. Dars mavzusi maqsadidan kelib chiqqan holda tayyorlangan modellashtirish texnologiyalari orqali o'quv materiallarini to'laqonli o'zlashtirilishiga erishiladi. Xususan, umumlashtiruvchi darslar ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida katta tayyorgarlikni talab etadi. Umumlashtiruvchi darslar o'z mazmuni, maqsadi va vazifalari bilan odatdagi darslardan farqlanadi. Negaki, bu xildagi darslar bilimlarni umumlashtirishni, takrorlash va mustahkamlash maqsadi atrofida birlashadi. Ba'zida o'qituvchilar tomonidan bu kabi darslarning e'tiborsiz qoldirilishi, umumiy takrorlanish bilan chegaralanishi o'quv materiallarining to'laqonli va yaxlit holdagi o'zlashtirilishini kuzatishga imkoniyat bermaydi. Bu kabi darslarning samaradorligini ta'minlash uchun modellashtirish texnologiyasidan foydalanish samarali natija beradi. Quyida keltirilgan umumlashtirish darslari texnologiyalaridan ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida foydalanish mumkin.

Umumlashtirish darslarini mazkur modellashtirish texnologiyasi asosida tashkil etish ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'qituvchi, o'quvchi to'laqonli faoliyatiga, iqtidorli o'quvchilarning qo'shimcha izlanishlariga, iqtidorli

o'quvchilar bilan ishlash, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar o'zlarini jarayondan chetda his qilishlarining oldini olishga xizmat qiladi.

Darsning bosqichma-bosqich tizimga solinganligi, vaqtning to'laqonli taqsimot qilinganligi, jarayonning sifatini oldindan kafolatlaydi. Shuningdek, o'qituvchilar uchun o'quvchi bilim sifatini oshirish yo'nalishidagi amalga oshirishlari lozim bo'lgan vazifalarni belgilab olishga xizmat qiladi.

O'quv materiallari hajmining, belgilangan dars soatlariga nisbatan berilishi lozim bo'lgan mavzularning ko'pligi muammosi o'qituvchidan yuksak mahoratni hamda o'qitishning tizimli texnologiyalarini dars jarayonlariga tatbiq etishni taqozo etadi.

Quyida o'quvchilarning mustaqil fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv materiallarini modellashtirish texnologiyalaridan namuna keltiramiz:

O'quv materiallarini modellashtirish texnologiyasi

1. Muayyan sinfda o'rganiladigan o'quv materiali tahliliy o'rganilib, unga qo'yilgan talablar bilan tanishiladi.

2. O'quvchilarga berilishi shart bo'lgan ma'lumotlar ro'yxati tayyorlanadi.

3. Mavzu yuzasidan o'quvchining mustaqil fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan omillar ishlab chiqiladi.

4. O'quvchi uchun notanish bo'lgan so'zlar izohi tayyorlanadi.

5. O'quv materialining to'laqonli qamrab olinganidan keyin uni o'quvchiga yetkazishning samarali metodi tanlanadi. Masalan: Kichik ma'ruza, savol-javob, aqliy hujum, bahsmunozara.

6. Berilgan materiallarning o'zlashtirganlik darajasi aniqlanadi.

7. Kutilayotgan natija qayd etiladi.

Quyida geografiya fanidan o'quv materiallarining modellashtirish texnologiyasini taqdim etamiz.

Geografiyadan o'quv materiallarini modellashtirish texnologiyasi

Mavzu: O'zbekiston iqtisodiyotini hududiy tashkil etish va iqtisodiy rayonlashtirish

Dars jarayonida olib boriladigan ishlarning bosqichlari va mazmuni	O'quvchilar tomonidan bajariladigan ishlar
1-bosqich O'zbekiston hududidagi har bir qismlari geografik o'rining betakrorligidan, birinchi navbatda tabiiy sharoiti va boyliklari, aholining mehnat faoliyati hamda turmush tarzining o'ziga xosligi haqida o'qituvchi tomonidan ma'lumotlar kichik ma'ruza, ko'rgazmali vositalar yordamida beriladi.	O'quvchilar berilgan ma'lumotlarni diqqat bilan tinglaydilar
2-bosqich O'zbekistonda transportning takomillashuvi omillari yozilgan kartochkalar o'quvchilarga tarqatiladi. Har bir o'quvchining qo'lidagi kartochkada 5 tadan omil keltirilgan bo'lishi kerak. Belgilangan omillarning belgilanganlik darajasi aniqlab olinadi.	Berilgan omillardan eng muhim sanalgan 2 ta omil belgilanadi
3-bosqich Darslikning 92-93 sahifasida berilgan ma'lumotlar asosida O'zbekistonning ixtisoslashgan tarmog'i yuzasidan qisqa 3 daqiqalik ma'lumot va uni auditoriyaga taqdim etish uchun taqdimotchi tayyorlanadi. Taqdimotlar tinglanadi.	Darsliklar bilan ishlanadi
4-bosqich Hududiy ishlab chiqarish majmualari haqidagi ma'lumotlar tayyor berilgan ma'lumotlar bankidan saralanib olinadi.	O'quvchilar ma'lumotlarning eng muhimlarini saralab oladilar
5-bosqich O'quvchilar fikrlarini uch jihatga ajratib chiqishlari lozim. 1.Milliy iqtisodiyot 2.Moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish 3.Davlat va nodavlat sektorlari	O'quvchilar darslikdagi ma'lumotlar bilan ishlagan holda berilgan yo'nalishlarga o'z fikrlarini ajratib chiqadilar
6-bosqich	

O'quvchilarning bergan ma'lumotlari umumlashtiriladi va yakuniy xulosaga kelinadi.

O'tilgan mavzu yuzasidan o'z xulosalarini beradilar

Mazkur berilgan geografiya darsidan modellashtirish texnologiyasi orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratiladi. Darsning har bir bosqichida berilgan topshiriqlar asosida o'quvchilarning fikrlash darajasi kengayib boraveradi. Zero ularda uzviylik tamoyiliga alohida e'tibor qaratilgan.

Berilgan modellashtirish texnologiyalaridan amaliyotda foydalanilganda quyidagi ijobiy natijalarni beradi:

O'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi

O'quv materiallarining to'laqonli o'zlashtirilishiga erishiladi

O'qituvchi mehnatini yengillashtiradi

O'quvchilarning mustaqil fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishga shart-sharoit, imkoniyat yaratiladi

O'quvchilarning fan yuzasidan Davlat ta'lim standartlari talablarida belgilangan bilimlarni o'zlashtiradilar, ko'nikma va malakalarni egallaydilar.

Darhaqiqat, modellashtirish texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishda o'quvchilarning har bir bosqichdagi amalga oshiriladigan ishlarni anglashlari tushunishlari muhimdir.

Anglash, tushunishning rivoji esa fikrning rivoji asosidagina mumkindir. Qator sahifalarni yod bilgan, lekin ijodiy fikrlash malakasi cheklangan o'quvchining mustaqil fikrlashi rivojlangan bo'lishi mumkinmi? Ruhshunoslar bunga yakdillik bilan salbiy javob beradilar. O'quvchida fikrlash malakasi oshgan sari fikr mahsulini ifodalashga ehtiyoj sezadi. Bu ehtiyoj esa u bayon etilgandagina qondirilishi mumkin. Shuning uchun ijtimoiy-gumanitar fanlarning reproduktiv ta'lim texnologiyasi, ta'lim maqsadi tarzda mustaqil fikrlashni rivojlantirishni bilsada, bu maqsadga erishishning to'g'ri yo'lini tanlay olmagan edi [8].

Ijodiy tafakkur sohibini yetishtirish texnologiyasi esa mo'ljalni o'quvchida, ona tili materiallari asosida fikrlash qobiliyatini kengaytirish va fikr mahsulini ifodalash ehtiyojini tug'dirishga qaratib olgan. Shu kungacha bo'lgan ta'limning texnologiyasini hosil olishni oldiga maqsad qilib, yer, urug', o'simlik haqida ko'p qayg'urmaydigan dehqonchilik ish usuli bilan qiyoslash mumkin. Chunki fikrsiz nutq-urug'siz o'simlik. Yerga yaxshi ishlov berilgan bo'lsa, urug' saralan-

gan va tanlangan bo'lsa uning unishiga yaxshi sharoit yaratib berilgan bo'lsa hosil o'z-o'zidan mo'l bo'ladi. Shuning uchun ijtimoiy-gumanitar o'quv fanlarining yangi dasturlarida o'z aksini topgan texnologiyada, o'quvchi egallashi lozim bo'lgan bilim ham, bu bilimni o'zlashtirish usuli ham uni qo'llash, tatbiq etish ham o'quvchida fikrlash qobiliyatini o'stirish bilan birga olib boriladi [6].

Yuqorida sanab o'tilgan o'quvchining darsdagi mustaqil faoliyat turlari bir tizimning alohida-alohida bog'linari bo'lib, har bir mavzuni o'zlashtirganda o'qituvchi ko'z o'ngida, xayolida turgan bosqichlar bo'lishi lozim. Hech qachon o'qituvchi o'quvchilarga: «bolalar kuzatishni boshlaymiz», - deb darsning bir bosqichini boshlashi, yoki: «endi izlanish bosqichiga o'tamiz», - deb navbatdagi bosqichga o'tishi mumkin emas [14].

O'qituvchi darsda o'tiladigan yangi mavzuni, o'quv materiallarini va topshiriqlarni yuqorida sanab o'tilgan o'quvchining mustaqil faoliyati turlarini g'alvirdan o'tkazishi va o'quv topshiriqlari berishni shunday tuzishi lozimki, o'quvchilar ongsiz ravishda, o'z-o'zidan bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tib ketaversin. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'qitishni yangi texnologiyasida bitta zaruriy tashkiliy omil haqida gapirib o'tish zarur. Sinf darsda 5-6 o'quvchidan iborat kichik guruhlariga ajratilgan bo'lishi va ular ko'rib, bir-biriga qarab o'tirishi, guruh a'zolari bir-biri bilan bemalol fikr almashira olishi, muhokama yurita olishi lozim. Topshiriqlar shu guruhchalarga «Zukkolar guruhlari»ga beriladi. Ta'limning yangi texnologiyasidan samarali foydalanish yana bir zarur omili o'qituvchilar bilan uzviy bog'liq ekanligini takror va takror uqitirishimiz kerak bo'ladi. Bu ham bo'lsa, o'qituvchining o'zi ijodiylikka intilish, har bir mavzuni o'tishdan oldin uni rejalashtirishi, o'z sinfi, o'quvchilari saviyasi va sharoitiga moslashtirishidir. Bu omilsiz hech qanday dastur yoki darslik o'quvchida tom ma'noda ijodiylikni rivojlantira olmaydi. Ta'lim texnologiyasi (ta'lim usuli, o'quv materiallari, darslik) bunga faqat yo'naltiradi, imkoniyat beradi. Bu imkoniyatning voqelanishi esa bevosita o'qituvchi amaliyot bilan, ijodiylikning jonli namunasi bo'la oladigan amaliyoti bilan bog'liqdir [11].

ADABIYOTLAR

1. Axlidinov R.Sh. Pedagogik atamalarining izohli lug'ati, //Ta'lim taraqqiyoti, -1999,- 2-3-son.-B 57-76.
2. Yo'ldoshev Q. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari: ped. fan. dok. dis. avtoref. – Toshkent, 1997. – 49 b.
3. Karimova V., Sunnatova R. Mustaqil fikrlash bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish yuzasidan uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Sharq, 2000. – 193 b.
4. Kulyutkina Yu.N., Suxotskaya G.S. Modelirovaniye pedagogicheskix situatsiy, M.: Pedagogika, 1981.-118 s.
5. Musayev J. Darslik – didaktik majmuadir// Umumiy o'rta ta'lim tizimini rivojlantirish istiqbollari (Respublika ilmiy amaliy konferensiya materiallari). T. O'zPFITI 2006 yil. 280-284 betlar.
6. Musayev J.P. Mustaqil fikrlashga yo'naltirilgan o'quv materiallarini modellashtirish texnologiyasi. "Maktab va hayot" jurnali, 2008 yil, 7-8 son. 11-12-betlar.
7. Musayev P. Maktab geografiya darsliklarini yaratish mezonlari. Toshkent, 1994. O'zPFITI, - 14 bet.
8. Musayev P., Musayev J. Geografiya. (O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi). 8-sinf o'quvchilari uchun darslik. T.: "Sharq", 2019. 176 b.
9. Musayev P., Musayev J. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasidan o'qituvchi kitobi. Metodik qo'llanma. T.: «Ma'rifat-madadkor», 2003. 124 b.
10. Ne'matova G. Ijodiy tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi va o'quvchining mustaqil faoliyati. T.: RTM, 2001. –24 b.
11. Nishonova Z. Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslari: Psixol. fan. dok. ... diss. avtoreferati. – Toshkent, 2005. – 38 b.



Zoyira NADIROVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti doktoranti
E-mail: z.nadirova@gmail.com

O‘zMU professori, falsafa fanlari doktori N.Shermuxeimedovaning taqrizi asosida

MIYA FAOLIYATIDA INTUITSIYANING RIVOJLANISHI

Annotasiya

Bilish jarayonida sezgi faolligi, miya va uning tuzilishi, tarkibi ishlash jarayoni xususida so‘z yuritilgan. Shuningdek, miyaning o‘zn va chap yarim sharlari, ularda intuisiyaning sinergetik tahlili aks etgan.

Kalit so‘zlar: Sezgi, miya, bilish, ilmiy bilish, intuitiv bilish, sinergetika, ilmiy tafakkur, xotira, diqqat, tasavvur.

DEVELOPMENT OF INTUITION IN BRAIN ACTIVITY

Annotation

In the process of cognition, sensory activity, the brain and its structure and composition are discussed. Also, the right and left hemispheres of the brain reflect the synergetic analysis of intuition.

Key words: Intuition, brain, cerebral cortices, cognition, scientific cognition, intuitive cognition, synergetic, scientific thinking, memory, attention, imagination.

РАЗВИТИЕ ИНТУИЦИИ В МОЗГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

В процессе познания рассматривается сенсорная деятельность, мозг, его структура и состав. Также правое и левое полушария головного мозга отражают синергетический анализ интуиции.

Ключевые слова: Интуиция, мозг, кора головного мозга, познание, научное познание, интуитивное познание, синергетика, научное мышление, память, внимание, воображение.

Introduction. Sensualism is a direction in the theory of knowledge that recognizes sensations as the main source of knowledge. He explains the nature of knowledge by linking it to the activity of the senses. In the sources, sensualism is contrasted with rationalism. But in our research, sensualism and rationalism are intertwined. Representatives of sensualism believe that knowledge is not given to a person by birth, it is formed and developed during life experience. Sensualism has a basic principle that "what is not in the senses is not in the mind."

Things and events in the world are the perception of certain properties in the brain. A means of connecting a person with the outside world, the initial stage of knowing the world, is a direct subjective reflection of the objective world. Forms of emotional cognition such as perception and thinking arise on the basis of sensations. Depending on the specific characteristics of external stimuli, all senses are divided into visual sense, body sense, hearing sense, taste sense, smell sense and other types. Sensation appears in physical, physiological, psychological processes. Sensory organs are related to the activity of the large hemispheres of the brain. Each group of sensations has its own set of modalities - qualities, and these qualities cannot be equated with the qualities of other groups of sensations. For example, colors are not like sounds or smells. The sense of sight is the most developed type of sense. It is followed by the sense of body, the sense of taste, and the sense of smell.

In sensualism, the basic principle that "what is not in the senses is not in the mind" believes that emotional cognitions are related to the objective world. Thomas

The central part of the nervous system of humans and animals, the brain provides control of the most complex vital functions of the organism and interactions with the environment. The brain is located inside the cranium, and as it

grows, it takes its shape. The human brain consists of an average of 100 billion neurons, and it "consumes" 50% of the blood glucose produced in the liver. The neurons that make up the brain transmit nerve impulses to each other at a speed of 270 km/h. We have all read that the number of neurons does not increase, but neurons grow throughout a person's life. A single neuron can remember five times more information than any encyclopedia.

Brain cells are oxyline cells, they use 20% of the oxygen that enters the circulatory system. At the same time, 80% of the brain is water, so a person needs to constantly drink enough water. The brain makes up an average of 2% of the human body mass. On average, it can be in the range of 1000-2000 g. Although it is written in our textbooks that a person's mental activity does not depend on his brain mass, in many studies it has been found that there is a positive correlation between brain mass and mental ability and mastery.

Materials and methods. Major representatives of empiricism are F. Bacon and J. Locke. Francis Bacon (1561-1626) is the first great researcher of modern cognitive theory. He took an experimental route in his research and emphasized the importance of observation and experimentation in getting to the bottom of reality.

Thomas Hobbes (1588-1679), an English philosopher, believed that no idea can be innate in the theory of knowledge, that external sensations are the source of all our knowledge, not just ideas. [theories of human nature, Hackett publishing company. 2022. Page 45.]

Paul Henri Holbach (1723-1789) French philosopher, a materialist sensualist view in the theory of knowledge, "everything that affects our sense organs in any way is matter [Гольбах Поль Анри. Избранные произведения в двух томах. М., «Мысль» 1963 С. 512-513.]

John Locke (1632-1704), an English philosopher, believed that the source of external experience is the objective reality that affects our senses, and the source of internal experience is one's inner feelings and experiences. [Джон Локк Опыт о человеческом разумении. Аз., 2022. -С.55.]

Main part. Bacon had put forward the idea that philosophy should first of all acquire a practical character. He considered the domination of man over nature as the highest goal of science, which could be achieved only by obeying the laws of nature. Bacon put forward the famous slogan "Power is in knowledge". Man, who is the servant and interpreter of nature, understands and understands only to the extent that he is able to encompass nature in his work or thought: beyond this he does not know and cannot know anything.

No power can break the chain of causes: nature can only be overcome by obeying it. Sciences that study the process of cognition and thought serve as the key to all other sciences, because they have "weapons of the mind" that instruct the mind or protect it from errors (idols). Observation, analysis, comparison and experimentation are the paths to knowledge. In his research, the scientist should move from the observation of some evidence to broad generalizations, that is, he should use the inductive method of knowledge. He founded the methodology of experimental natural science. Using this methodology, new scientific discoveries can be made. But experience can only give reliable knowledge if the mind is free from the ghosts of falsehood. "Seed ghosts" are errors related to human inferences about nature by analogy with human life. "Ghosts of the cave" consists of mistakes that acquire an individual character related to the upbringing, tastes and habits of some people. F. Bacon says that all these idols "must be rejected and thrown away, the mind must be completely freed from them, purified." But how to achieve this? For this, each science, each theory, each theoretical conclusion should be based on empirical data, and the induction method should become the only correct method of research. Induction (lat. *inductio* - from the word to avoid) method requires that any theoretical conclusion should be based on experimental data. Bacon opposes induction as a method to deduction (from the Latin *deductio* - conclusion). In deduction, reasoning moves from top to bottom, from general considerations to specific evidence. The method of deduction is the source of many errors. The most reliable method is the movement of thought from the bottom up - the induction method. At the same time, F. Bacon is not a supporter of one-sidedness in evaluating different methods of research. He notes that the most effective scientific knowledge can only be the product of experience and reasoning, analysis and synthesis, induction and deduction. [Бэкон Ф. Сочинения в двух томах. М., «Мысль» 1978. С.112-113.]

Thomas Hobbes's theory of knowledge is based on the principles of sensualism. Hobbes believed that even if spiritual substances existed, they would be unknowable. He did not believe that disembodied souls could exist. Hobbes strongly condemned bigotry and superstition, but believed in the existence of God. He saw God as the source of the primordial energy of the universe, the first cause of all existence. According to Hobbes, God does not interfere in worldly processes. Hobbes notes that the ability to reason is not an innate ability, like the senses and memory, and is not only acquired through experience, but is first formed as a result of the appropriate use of the names of things, and the acquisition of a good and correct method. Intuition and memory only give us knowledge about the evidence that happened, and science means knowing the connections and connections of evidence events. Hobbes makes similar comments about the signs of scientific knowledge. He believes that some signs of scientific knowledge are reliable and infallible, while others are

unreliable. Evidence of such knowledge is reliable if the person who claims to possess knowledge about something is able to teach it, that is, to prove the correctness of his claim to another person in a reasonable way. Such evidence of knowledge is unreliable, as only certain private events are consistent with his claim, and many occur as a result of coincidences. Reasonable signs are always reliable, because it is impossible to see and remember in the experience all the circumstances that can change the obtained result. Thus, the light of the human mind is words that are in accordance with the mind, but cleared beforehand of any ambiguity with clear concepts. Reflections are a step, growth of knowledge is a path, welfare of human race is a goal. No idea can be innate to the theory of knowledge, external sensations are the source not only of ideas, but of all our knowledge in general. The cerebrum, or telencephalon, is the largest part of the brain and includes the cerebral cortex (of the cerebral hemispheres) and several subcortical structures such as the hippocampus, basal ganglia, and olfactory bulb. In the human brain, the cerebrum is the highest region of the central nervous system. The prosencephalon, or forebrain, is the embryonic structure from which the brain develops prenatally. In mammals, the dorsal telencephalon, or pallium, develops into the cerebral cortex, and the ventral telencephalon, or sub pallium, develops into the basal ganglia. The brain is also roughly divided into symmetrical left and right cerebral hemispheres.

Raised by John Locke in his doctrine of "primary" and "secondary" properties. The modern interpretation of the nature of sensations is based on three positions: 1) the objectivity of all properties, the quality of things: primary and secondary; 2) absolute identification, not allowing simultaneous feelings and characteristics of external things; 3) to avoid only a symbolic, subjectivist approach to emotional reflection.

The brain is the largest part of the brain. Depending on the position of the animal's body, it lies in front of or above the brain stem. In humans, the cerebrum is the largest and most well-developed of the five main brain divisions.

The brain consists of two cerebral hemispheres and their cortices (outer gray matter layer) and underlying white matter areas. Its subcortical structures include the hippocampus, basal ganglia, and cilia. The brain consists of two C-shaped hemispheres, which are separated from each other by a deep longitudinal fissure of the brain.

Cerebral cortex. Our cerebral cortex is the outermost layer of our brain. Its surface has many folds, giving it a wrinkled appearance. The folds consist of many deep grooves called sulci and raised areas called gyri. These folds add to the surface area of our cerebral cortex, allowing large amounts of information to be processed by more nerve cells. Our cerebral cortex makes up about half of our brain's total mass.

Cerebral cortex consists of six layers of nerve cells that contain between 14 billion and 16 billion nerve cells. It's two millimeters (mm) to four mm (0.08 inches to 0.16 inches) thick.

Cortex is divided into four lobes: frontal, parietal, temporal and occipital. Each of these lobes is responsible for processing different types of information. Collectively, your cerebral cortex is responsible for the higher-level processes of the human brain, including language, memory, reasoning, thought, learning, decision-making, emotion, intelligence and personality.

Frontal lobe is at the front of our brain behind our forehead. Functions of frontal lobe include: Decision-making, problem-solving; Conscious thought; Attention; Emotional and behavioral control; Speech production; Personality; Intelligence; Body movement. Special areas of note within this lobe are the motor cortex, the prefrontal cortex and Broca's

area. Your motor cortex is responsible for body movement. Your prefrontal cortex is in charge of “executive functions,” such as thinking and problem-solving. It also supervises and directs other areas of your brain. Broca’s area is a part of your frontal lobe that’s involved with speech production.

Occipital lobe is at the back of our brain. Functions of occipital lobe include: Visual processing and interpretation; Visual data collection regarding color, motion and orientation; object and facial recognition; Depth and distance perception; visual world mapping.

The surface of the brain. The cerebral cortex, the outer gray matter layer of the brain, is found only in mammals. In large mammals, as well as in humans, the surface of the cerebral cortex folds to form folds and folds and expand the surface area. The brain controls all voluntary movements in the human body with the help of the cerebellum.

Left and right. The left part is mainly for logic, the right part for emotions answers.

The left part is a text memory: various words, texts, numbers, facts, analysis, etc. The right part is emotional memory: the five senses –sight, hearing, smell, taste and tactile memory.

The left part has a 10% recall potential. Right part 90% has the potential to save information. Because, think about it, do you think through imagination or not Do you have texts in your mind? Imagination of course. Imagination is 80% of the power of recall. Remaining feelings the remaining 10% will be shared.

A person with RHD may have trouble with:

Attention. They may not be able to focus on a task or what they see or hear.

Perception. They may have left-side neglect. This means that they will not see objects or people on their left side. For example, they may have trouble reading words on the left side of a page. They may ignore food on the left side of their plate.

Reasoning and problem solving. They may not know that there is a problem, like running out of medicine. Or, they may not know how to solve the problem, like calling for a refill.

Memory. They may not remember information they learned before. They may have trouble learning new information.

Social communication. They may not be able to understand jokes or nonverbal cues. For example, they may

not understand what someone means when they shrug their shoulders. They may say the wrong thing at the wrong time or interrupt others.

Organization. They may have trouble putting information together logically. This can cause problems when telling stories or giving directions. They may also have trouble planning. So, they might forget to respond to your calls or e-mails or lose information.

Insight. They may not recognize that they have any problems. Or, they may not realize that their problems cause trouble at home, school, or work.

Orientation. They may have problems knowing the date, time, or where they are. They may not remember information like their birthday, age, or family names.

The person may also have problems using their arms or legs. The right side of the brain controls the left side of the body. This means that their movement will be worse on the left side.

According to Sperry’s dated research, the left brain helps you with: logic; sequencing; linear thinking; mathematics; facts; thinking in words.

The right brain is more visual and intuitive. People sometimes refer to it as the analog brain. It has a more creative and less organized way of thinking.

Sperry’s dated research suggests the right brain helps people with: imagination; holistic thinking; intuition; arts; rhythm; nonverbal cues; feelings visualization; daydreaming.

Conclusion. To conclude, that the brain can work 30, trillion function in one second. It is the faster and more than modern computers and new technologies. We have to use it not only our retune, but in scientific knowledge too. Intuitive knowing is an ability that can easily rise from one level to another. This ability allows a person to perceive reality not only in a general way, but in its entirety. Intuition does not overlook anything, and nothing is secondary to it. Intuition, which is historically considered a unique phenomenon, and the reasons for its occurrence, as well as its characteristics, a well-known psychologist shows its factors: (1) clarity of mind perception, (2) the ability to see the essence of complex problems, (3) in the process of solving a problem general features such as being able to penetrate not only within one field, but also into other fields, (4) being able to predict the future development of one’s field of activity.

LITERATURA

1. Nadirova, Z. P. (2021). Intuition and synergetics in the world of mathematics. Scientific reports of Bukhara state university, 5(4), 18-28.
2. Надирова, Зоира Паяновна Интуиция и синергетика в научных исследованиях // ORIENSS. 2023. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/intuition-and-synergetic-in-scientific-research> (дата обращения: 13.02.2023).
3. Надирова Зойира Паяновна. (2022). Интуиция и синергетика. Евразийский научный вестник. 7.243–246. Получено с <https://www.geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/1198>.
4. Nadirova, Z. P. (2022). Memory in the process of scientific research and the role of breaks in it. Scientific reports of Bukhara State University, 2022(1), 93-103.
5. Паяновна Н.З. кандидат философских наук, доцент Каршинского филиала ТУИТ, независимый научный сотрудник. Научные отчеты бухарского государственного университета 93



UDK 159.9:316.3

Mamlakatxon NURMATOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti katta o'qituvchisi
E-mail:mamlakatxon...a@mail.ru

SamDU dotsenti, PhD O.S.Qodirov taqrizi asosida

THEORIES OF PREVENTING PSYCHOLOGICAL DISORDERS AND VIOLENCE IN FAMILY RELATIONSHIPS

Annotation

In this article the role of communication in family relationships, theoretical knowledge about violence caused by psychological disorders has been studied. Thoughts on the elimination of psychological disorders and violence are highlighted. Scientific knowledge and scientific ideas about expected changes in family relations are described.

Key words: Family relationship, psychological environment, communication, personal quality, family, children, marriage requirements, upbringing, violence.

ТЕОРИИ ПРОФИЛАКТИКИ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ РАССТРОЙСТВ И НАСИЛИЯ В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ

Аннотация

В этой статье изучена роль общения в семейных отношениях, теоретические знания о насилии, вызванном психологическими расстройствами. Освещены мысли об устранении психологических расстройств и насилия. Описаны научные знания и научные представления об ожидаемых изменениях в семейных отношениях.

Ключевые слова: Семейные отношения, психологическая среда, общение, личностные качества, семья, дети, брачные требования, воспитание, насилие.

OILAVIY MUNOSABATLARDА PSIXOLOGIK BUZILISHLAR VA ZO'ROVONLIKNING OLDINI OLISH NAZARIYALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada oilaviy munosabatlarda muloqotni o'rni, psixologik buzilishlar orqali yuzaga keladigan zo'rovonliklar haqidagi nazariy bilimlar o'rganilgan. Psixologik buzilishlar va zo'rovonliklarni bartaraf etish haqidagi fikrlar yoritib berilgan. Oilaviy munosabatlarda kuztiladigan o'zgarishlar haqidagi ilmiy bilimlar va ilmiy tasavvurlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Oilaviy munosabat, psixologik muhit, muloqot, shaxsiy sifat, oila, farzandlar, nikohga oid talablar, tarbiya, zo'rovonlik.

Kirish. Yurtimiz o'z mustaqilligiga erishgach, jamiyatda tub islohatlar amalga oshirila boshlanganligi oila mustahkamligini yanada mustahkamlashga qaratilgan ko'pdan-ko'p qarorlar qabul qilinayotganligi bilan bog'liq. Islohatlarning asosiy yo'nalishlaridan biri shaxslarning ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashini to'g'ri shakllantirish, o'z-o'zini anglash va o'sib kelayotgan yosh avlodni to'g'ri shakllantirishdan iboratdir. Oilaning jamiyat va insonlar o'rtasidagi turli bilimlar, tushunchalar, ma'lumotlar va bevosita shaxs dunyoqarashining mazmun mohiyatini belgilaydi. Xususan, oilaviy, mafkuraviy va ijtimoiy hodisalar shaxs tomonidan ijtimoiy muhit ta'siri ostida idrok etiladi. Inson ijtimoiy olam bilan uzviy aloqada bo'lgan holda insoniyat tajribasi, madaniyati va oiladagi ijtimoiy xulq normalari bilan o'zaro munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jamiyat taraqqiy etgan sayin insonlar o'rtasidagi munosabatlar takomillashib boradi. Oilaviy hayotga tayyorgarlik borasida va munosabatlarni mustahkamlash, nizolarni oldini olish borasida Shoumarov G.B yoritib bergan. [1] Yoshlarda oilaviy hayotga oid bilimlarda shaxslarning bir-biriga qo'yadigan talablariga e'tibor qaratilgan. Ko'plab vazifalar aniqlab berilgan. Oilaviy hayotda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishga ilmiy asoslarda keltirishga harakat qilingan. [2] Jamiyat taraqqiyotining bugungi holati, hozirgi zamon oilasining ijtimoiy vazifalari va zo'rovonlikni oldini olish borasidagi dolzarb fikrlar ifodalangan. [6]

Tadqiqot metodologiyasi. Oilaviy munosabatlarda odamlar bir-birlari bilan muloqotga kirishar ekan, ularning asosiy ko'zlagan maqsadlaridan biri o'zaro bir-birlariga ta'sir ko'rsatishdir. Oilaviy munosabatlar muloqotida ko'plab samarali tashkil etish usullari mavjud. Bulardan asosan quyidagilarni keltirib o'tish joiz bo'ladi:

- oila a'zolari o'rtasida hamkorlik faoliyati muloqotlar tizimi va muloqot jarayonining barcha a'zolari o'rtasida insonparvarlik munosabatlarini tashkil qilish, bir-biriga ijobiy emotsional muhitni taqqoslash imkoniyatini yuzaga kelishi;

- oilaviy munosabatlarda muloqot jarayonining ichki munosabatlar bilan bog'liqligi ya'ni, har bir oila a'zosi o'zlariga qulay psixologik muhitni yaratilishi;

- oilada ota-ona va farzandlar o'rtasidagi muloqot xususiyatlari, maromi, usullari, shakllari to'g'risidagi axborotlarni egallashga oid maxsus muloqotlarni uyushtirishdan iborat jarayonlarni to'g'ri shakllantirishdir;

O'zbek oilalarida barkamol insonlarning muomala maromi, mulohaza yuritishi, o'zaro munosabatlarga kirishish o'quvchanligi, vaziyatlardan chiqish salohiyatiga boshqa insonlarni hayotiy tajribalarini o'rgangan holda munosabat bildirishdir. Bu esa oilaviy munosabatlarda yuzaga keladigan zo'rovonliklarni oldini oladi. Oilaviy munosabatlarda barcha oila a'zolar o'rtasida axloqiy jihatdan ko'plab qimmatli va qadrlil bo'lgan munosabatlar yaratilishi baxtli oilaning negizi bo'lib sanaladi. Oilada o'sayotgan farzand uchun oila uning hayotini ijtimoiy muhit bilan bog'laydigan birinchi va asosiy

bo'g'in bo'lib xizmat qiladi. Muhim bo'lgan jihatlaridan biri oila a'zolarining ijtimoiy manfaatlari, o'zaro bir-biriga mehrli munosabatlari, mehnat faoliyatini tashkil etishdagi munosabati, tashqi muhitda munosabatlarning bolalik davridayoq jamiyatimiz maqsad va g'oyalari qo'shila boshlashini o'rganib borishdir. Oilada va ta'lim muassasalarida farzandlarning o'rganadigan hatti-harakatlar normalari va munosabatlari ma'lum qoidalarga rioya qilgan holda shakllanadi. Shu sababli, zamonaviy oila uchun oiladagi muloqot madaniyati va muomalaning o'rni juda dolzarbdir.

Oilaviy tarbiyaning ikkita qarama-qarshi uslublari mavjud bo'lib ular quyidagi tarzda ifodalanadi. Oilaviy munosabatlarda avtoritar va demokratik uslublarni ko'rish mumkin. Oilada ota-onalarning o'z farzandlari bilan avtoritar uslubda ayniqsa, ko'pincha otaning muloqoti bilan bilan tavsiflanadi. Ota-onalar farzandlari bilan birgalikda so'zsiz itoatkorlikni va talablarning bajarilishini talab qiladilar. Oilada bolalarning individualligiga, yosh davrlarining xususiyatlariga, qiziqishlari va istaklariga kam e'tibor berishadi. Bunday oilalarda ota-onalarning bolalari ko'r-ko'rona itoatkorligi ko'pincha jazolanish qo'rquviga asoslanadi. Ushbu vaziyat-larda bolalar ulg'ayganda esa bunday oilalardagi bolalar ko'pincha ota-onalari bilan ziddiyatga borib turishadi. Biroq bunday oilalar farzandlari oiladan ruhan uzoqlasha boshlaydi. Bunday oilalardagi bolalarda mustaqillik, tashabbuskorlik va ijodkorlik juda kam rivojlanadi. Oilalardagi demokratik uslubda oilaning munosabatlardagi shakllanish jihatlarini barcha a'zolari o'rtasidagi munosabatlar o'zaro hurmat va sevgi orqali bo'ladi.

Oilaviy munosabatlarda oila a'zolarining bir-biriga bo'lgan e'tibori va g'amxo'rliqi bilan tavsiflanadi. Bunday oilalarda bolalar yoshligidanoq oila hayotiga, ehtiyoj va tashvishlariga mutonasib ravishda ulg'ayishadi. Ota-onalar farzandlarini yaqinroq bilishga, ularning yaxshi va yomon ishlarining sabablarini aniqlashga harakat qiladilar. Ota-onalar farzandiga talablar qo'yish orqali bolaning his-tuyg'ulari, ruhiyati, ongiga murojaat qiladilar va tashabbusni rag'batlantiradilar. Shu bilan birgalikda bunday oilada o'sayotgan farzandlarni "kerak", "mumkin", "mumkin emas" so'zlarining qanday paytlarda zaruruyat ekanligini idrok etishadi.

Oiladagi zo'rvonlikni ko'plab oila vakillari shaxsiy hayot ishi deb hisoblashadi. Oiladagi turli xil zo'rvonliklarning yuzaga kelishi psixologik, jismoniy, iqtisodiy, jinsiy tarzda amalga oshirilishi mumkin. Bu esa oilada ayollarga nisbatan zo'rvonlik va ularning kelib chiqish sabablarini o'rganishdagi ko'plab ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'ldi. Oilada ruhiy zo'rvonlikning sodir etilishida bevosita quyidagi omillarning ta'siri yuqori ahamiyat kasb etadi. Masalan, oilada erkakning mustaqil fikrga ega emasligi; erkakning oiladagi moddiy ehtiyojlarni ta'minlamasligi va ma'suliyatsizligi; spirtli va giyohvand moddalarni iste'mol qilishga ruju qo'rganligi; oilada yakka hukmronlikni o'rnatishga intilishi; oilada sababsiz doimiy ravishda bo'lib turadigan nizolarning janjal va to'polon bilan tugashi kabi bir necha psixologik sabablarni ko'rish mumkin.

Oilada nosog'lom muhit natijasida unda oila a'zolarining o'zaro munosabatlari tubdan izdan chiqadi. Binobarin, oilada oila a'zolarining o'rtasida uzoq davom etib kelgan adovat bevosita oilada psixologik zo'rvonlikni sodir etilishini vujudga keltiradi. Shuningdek, qaynona va kelin o'rtasidagi o'zaro munosabat, qaynonaning keliniga nisbatan sababsiz turli bahonalar qidirib ko'rsatadigan sababsiz kamchilik va kamsitishlari natijasida ba'zi hollarda og'ir psixologik holatlar kelib chiqishi mumkin. O'tmishga nazar soladigan bo'lsak 1800 yillarning o'rtalariga qadar ko'pchilik oilalarda ayolning er tomonidan zo'rvonlikka uchrashi go'yoki o'z ayoli ustidan hokimiyat va hukmronlikka ega deb

hisoblashgan. Oiladagi munosabatlar nihoyat darajada avj olishidan oldin oilaning barcha a'zolariga huquqiy, ma'naviy, ijtimoiy bilimlarga ega bo'lishi lozim. Oiladagi zo'rvonlik turli xil namoyon bo'lishini tushunish muhimdir.

Oiladagi zo'rvonlik ko'p shakllarda bo'lishi mumkin, jumladan, jismoniy tajovuz, tajovuz (urish, tishlash, itarish, narsalarni uloqtirish va boshqalar) yoki hujum qilish tahdidi; jinsiy zo'rvonlik; nazorat qilish yoki hukmronlik qilish; qo'rqitish; ta'qib qilish kabi vaziyatlardan iboratdir. Hozirgi davrdagi siyosiy tashviqot natijalari oiladagi zo'rvonlik to'g'risidagi qonun hujjatlarida o'zgarishlarga olib keldi.

Dunyoning aksariyat huquqiy tizimlarida oiladagi zo'rvonlik faqat 1990 yillardan beri ko'rib chiqiladi. XX asrning oxiriga kelib aksariyat mamlakatlarda, qonunda yoki amaliyotda, oiladagi zo'rvonlikdan himoyalanih juda kam edi. Oiladagi zo'rvonlikning o'ziga xos shakllariga, masalan, nomusga tegish, majburiy nikohni tashkil etishdan yuzaga kelmoqda. Psixologik zo'rvonlik jismoniy bo'lmagan zulmning bir shaklidir. Ko'pgina hollarda, bu bir martalik bezovtalanish haqida emas, balki bir kishi hukmronlik qiladigan, ikkinchisi esa itoat qilishga majbur bo'lgan o'zaro munosabatlarning o'rnatilgan modeli haqidir.

Tahlil va natijalar. Psixologik zo'rvonlik oiladagi o'zgarish tarkibiy qismiga bir qancha strategiyalarni kiritish mumkin. Ularning asosiy xususiyati kamsituvchi va haqoratli hatti-harakatlar bo'lib, maqsad jabrlanuvchi ustidan nazoratni qo'lga kiritish, birinchi navbatda g'amxo'rlik va e'tibor niqobi ostida ishonchni qozonishga harakat qilingandan so'ng, kamsitishni boshlashdir. Asta-sekin tizimli haqoratga aylanib ketadigan so'zlar psixologik zo'rvonlikning asosiy boshlang'ich qismidir. Bir insonning o'zini o'zi qadrlashini yo'q qilishga urinish, uni haqorat qilish va o'zini qarshilik ko'rsatish qobiliyatidan mahrum qilishdir. Psixologik zo'rvonlikni qanday aniqlash mumkin? Oddiy ziddiyat va psixologik zo'rvonlik o'rtasidagi qanday farq bor? Munosabatlarda psixologik zo'rvonlikning bir turi amortizatsiya bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri tahdidlar, ochiq ayblovlar va qo'pol haqoratlarini aytishdir. O'zaro munosabatlarda haddan tashqari nazorat qilish ham psixologik zo'rvonlikni ushbu turiga mansubdir.

Jamiyatimizda nikoh-oila munosabatlari mustahkamligini ta'minlash, oilaviy hayot davomida yuzaga nizolarni oldini olish, oilalar ajrimi va noto'liq oilalar sonini kamaytirish hamda sog'lom psixologik muhit yaratishdan iboratdir. Bu ishlarning samaradorligini oshirish uchun yangi oilalarni barpo qilayotgan yoshlarning shaxsiga, oilaviy hayotga qay darajada tayyor ekanliklariga ko'proq ahamiyat berish lozim. Oilada turmush tarzi deganda, oilaviy muhit, ya'ni er-xotinning samimiy munosabati, ularning farzandlari bilan yaqin do'stona munosabatda bo'lishi orqali ularning kelajakdagi orzu maqsadlarini tushunib olishlari, farzandlarning sog'-salomat voyaga yetishlarini ta'minlash muhim vazifa bo'lib sanaladi. Albatta, oilaviy munosabatlarning to'g'ri uslubini rivojlantirish oson emas.

Har bir oila o'z tarbiyalash tajribasini to'playdi, uning maqsadlari, o'ziga xos mazmuni va amalga oshirish usullari haqida o'z nuqtai nazarini rivojlantiradi. Shunday qilib, oila aslida o'zining muloqot madaniyatini yaratadi. Afsuski, ba'zi hollarda muloqot va munosabatlar madaniyatini ba'zi oila vakillari o'zlashtira olmaydi. Ular har doim ham muvaffaqiyat qozonishga harakat qilishmaydi. Er-xotin yoki farzandlar o'rtasida bir-birlarini tanqid qilishga qiziqishadi. Shu sababli oilada ruhiy muvozanat buziladi. Ammo, bunday hatti-harakatlar teskarisiga olib keladi: bir-biriga nisbatan norozilik va salbiy his-tuyg'ular to'planadi, hissiy yaqinlik va aloqa yo'q qilinadi. Shuning uchun psixologik buzilishlarni oldini olish uchun "oilaning umumiy ohangi" bo'lishi lozimligi bilan

farqlanadi. Bu "oilaviy ohang" turli xil zo'rovonliklarni oldini oladi.

Xulosa va takliflar. Hozirgi vaqtda nikoh-oila munosabatlarida yuzaga keladigan psixologik noxush hodisalar, har xil asab buzulishlari va bir qancha kasalliklarni keltirib chiqishi bilan bog'liqdir. Oilalarning mustahkamligi jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ravnaqi va taraqqiyotini belgilovchi omil hisoblanadi. Psixologik zo'rovonlik har xil jinoyatlar, qotilliklar, suitsid, xiyonat, bolalar tarbiyasining buzulishiga olib keladi. Insoniyat

jamiyati taraqqiy etgan sayin, ularning bir-birlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlari ham ijobiy tomonga takomillashi lozimdir. Har qanday oilaviy munosabatlarda "sevgi hokimiyati" degan tushuncha ilgari surilishi lozim bo'lib, oila a'zolar: er va xotin, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar his-tuyg'ular orqali namoyon etilishi aynan sevgi orqali idrok etiladi. Oila jamiyatning kichik bir bo'g'ini bo'lib, oilada inoqlik, ahillik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shuncha qudratli bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Shoumarov G.B. Oila psixologiyasi. Toshkent. -2008.168-177 betlar.
2. Davletshin M.G., Shoumarov G.B. Zamonaviy o'zbek oilasi va uning psixologik xususiyatlari / O'zbek oilasining etnopsixologik muammolari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalari qisqacha bayoni.-Toshkent, 1993. - 3 – 7 betlar.
3. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi. Toshkent. – 2006. -142 bet.
4. Sog'inov N.A. Oilani o'rganish psixodiagnostika metodikalari. Toshkent, 1996.
5. Akramova F.A. Oilada muomalani tashkil etish psixologiyasi. Toshkent.-2006. -90 bet.
6. Shoumarov G.B., Sog'inov N.A. Er-xotin orasidagi nizolarning etnopsixologik xususiyatlari. O'zbek oilasining etnopsixologik xususiyatlari. Ilmiy ishlar to'plami. Toshkent. -1993. -11-25 betlar.
7. Sog'inov N.A. Oilani o'rganish psixodiagnostika metodikalari. Toshkent. -1996. -35-bet.
8. Akramova F.A., Abdullayeva R.M. Oilaviy hayotga oid psixologik tavsiyalar. Toshkent. -2002. -63-bet.



Abdushokhit POZILOV,

Guliston davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrası mudiri, p.f.f.d

E-mail: pazilov1985@gmail.com

Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti, f.f.d F.Ikromhonova taqrizi asosida

STAGES OF DEVELOPMENT OF LEXICAL COMPETENCE IN FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHERS

Annotation

This article presents the conclusions obtained as a result of the analysis of the concept of lexical competence and its components, as well as effective methods for carrying out cognitive activity based on a lexical unit occupying lexical competence. It is aimed at studying lexical skills, the ability and readiness of future foreign language teachers to understand a lexical item, apply goals and situations suitable for communicative thinking.

Key words: Competence, component, lexical, linguistic, linguocultural, linguistic phenomena, reflexive, communicative.

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В данной статье представлены выводы, полученные в результате анализа понятия лексическая компетентность и ее компонентов, а также эффективных методов осуществления познавательной деятельности на основе лексической единицы, занимающей лексическую компетенцию. Она направлена на изучение лексических навыков, способности и готовности будущих учителей иностранного языка понимать лексическую единицу, применять цели и ситуации, подходящие для коммуникативного мышления.

Ключевые слова: Компетентность, компонент, лексический, лингвистический, лингвокультурный, языковые явления, рефлексивный, коммуникативный.

BO'LAJAK XORJIY TIL O'QITUVCHILARIDA LEKSIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada leksik kompetensiya tushunchasi va uning komponentlarini tahlil qilish natijasidan olingan xulosalar va leksik kompetensiyani egallagan leksik birlik asosida va mos keluvchi kognitiv faoliyatini amalga oshirishda samarali usullar keltirilgan. Leksik birlikni tushunish, kommunikativ fikrlarga mos maqsad va vaziyatlarni qo'llash bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarida shakllangan leksik ko'nikma qobiliyati va tayyorgarligini o'rganish maqsad qilangan.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, component, leksik, lingvistik, lingvomadaniy, til hodisalari, refleksiv, kommunikativ.

Kirish. Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining xorijiy til kompetensiyalarini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida rivojlantirish, axborot ta'lim texnologiyalari orqali xorijiy til o'qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirish, kompetentli yondashuv nuqtai nazaridan pedagoglarda xorijiy til ko'nikmalarining rivojlanish darajasini diagnostika qiluvchi texnologiyalarni ilmiy asoslangan holda takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda bo'lajak mutaxassislarining leksik xorijiy til kompetensiyalarini rivojlantirish/takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarga asoslangan malakali mutaxassislarni tayyorlash, xorijiy til o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida leksik kompetensiyasini rivojlantirishning me'yoriy asoslari yaratilib, oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi kengaytirilmoqda. "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta'lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagog kadrlar zahirasini yaratish" ustuvor vazifa sifatida berildi [1].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitida o'qitishning ilg'or usullarini joriy etgan holda pedagoglarning xorijiy tillar bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini lingvodidaktik va psixolingvistik tamoyillarda ilmiy tadqiq etish dolzarflik kasb etadi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kognitiv bilish faoliyatining mohiyati va leksikani o'rganishdagi strategiyalari haqida gap borar ekan, bu o'rinda ba'zi mulohazalarni ham

qayd etish lozim, deb hisobladik. Biror nimani bilishga va tushunishga yordam beradigan yoki inson biror aniq xulosa yoki qarorga keladigan, fikrlab, mushohada qilib tushuniladigan kognitiv faoliyat tajribasi eslab qolishning oqilona texnikasidan ko'p marotaba foydalanishga sabab bo'ladi; shuningdek, og'zaki va retseptiv leksik mahoratni hamda o'rganilayotgan leksik birliklarni qayta tuzish va strukturalash bo'yicha shartlarni shakllantirishda kognitiv bilish jarayonlarni rivojlantirish, xususan, idrok, e'tibor, bilimlarni ifodalash qobiliyati, xotira, fikrlash va hokazo uchun muayyan sharoit yaratishni nazarda tutadi.

Xorijiy tilni o'qitishning zamonaviy maqsadi faqat til va nutq ko'nikmalarini shakllantirish bilan cheklanmagan. Kompetentlikka asoslangan yondashuv mazmun-mohiyatiga ko'ra, mazkur til uni o'rganuvchilar uchun o'quv-bilish maqsadining pragmatik tarkibiy qismini kengaytiradi.

Leksik kompetensiya lingvistik kompetensiyaning bir qismi sifatida quyidagi bir qator lisoniy vazifalarni o'z ichiga oladi: 1) tilning leksik tarkibini bilish, masalan, individual so'zlar kabi. 2) til birliklari, xususan, sinonimiya - antonimiya, moslik va boshqalar o'rtasidagi umumiy til kontekstida so'zning ma'nosini aniqlash. 3) matn bilan ishlashda so'z birikmalaridan foydalanish qobiliyatini o'stirish; kommunikativ vazifani hisobga olgan holda jumlar tuzilishiga yordam berish. Shu boisdan ham, leksik kompetensiya fonetik va grammatik kompetensiyaning shakllanishi bilan bevosita

chambarchas bog'liq bo'lgan, bir- biriga aloqador lisoniy hodisadir.

Leksik kompetensiyani shakllantirish soha talabalarining leksik ko'nikmalarini shakllantirishga bevosita bog'liqdir. Ayrim ishlarda leksik mahorat "leksik birlikni maqsadga muvofiq ravishda tanlab olish va uni boshqa birliklar bilan samarali nutqda (nutq va yozish) va avtomatlashtirilgan hislar va retseptiv nutqning (tinglash va o'qish) ma'no bilan bog'lash uchun avtomatlashtirilgan harakat", deb ta'riflanadi

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahon ta'limi va tadqiqot muassasalarida ta'limga pedagogik yondashuv, xususan, leksik kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy jihatlari bilan N.Chomskiy, G.Chitem, M.Deniels, D.Begler, P.Bogards, A.Xant, B.Laufer, J.X.Xalstaynlar shug'ullanishgan. N.Asher P.Miera, S.Xazenberg, T.Burj, A.Bilgrami, D.Kruz D.Markoni leksik kompetensiyani takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borishgan Leksik kompetensiya va uning shakllanish jarayoni ko'plab xorijlik olimlarning, xususan, P.Bogards va B.Lauferlar, D.Begler va A.Hantlar, S.Hazenberg va J.H.Halstinlar, shuningdek, mustaqil hamdo'stlik mamlakatlaridagi A.Shamov, A.E.Sizemina, A.A.Fetisova, va boshqalarning tadqiqotlarida muayyan darajada o'rganilgan, leksikaning kommunikativ aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati tahlil qilingan [2, 3, 4, 5, 6, 7].

Belorussiyalik N.E.Laptevaning dissertatsiyasida talabalarining chet tilida kompetentlikni shakllantirishda so'z zahirasi hajmining roli, ushbu jarayonda leksika tizimligining yashirin tabiati, so'zning ko'p jihatligi, uning ma'noviy munosabatlarining ko'pligi, lingvomadaniy jamiyatning milliy o'ziga xosligini belgilovchi tildan tashqari faoliyat bilan bevosita bog'liqligiga daxldor muammolar maxsus o'rganilgan [8].

Ba'zi ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, leksika tushunchasida muayyan til boyligidagi so'zlarning jamlanmasi va leksik birliklarni birlashtirish vazifasi bo'yicha ularga o'xshash so'zlar tushuniladi. Keyingisi barqaror so'z birliklari yoki predmet, hodisa, ularning belgilarini raqamlashtirishga qodir boshqa til birliklarini aks ettiradi. Masalan, das Wirtschaftssystem - "iqtisodiy qurilish", aufeinander Fausthandel t-"irodasi bilan harakat qilish", schwarzer Markt - "qora bozor" va h.k [9,10].

Tadqiqot metodologiyasi. Olib borilgan tadqiqotga asoslanib, quyidagicha ta'rif berishni lozim topdik: leksik kompetensiya - konkret faoliyatni amalga oshirishda zarur bo'lgan shaxsiyat xususiyatlari; shaxsning turli vazifalarni bajarish qobiliyati, ya'ni muammolarning hal qilish yo'llarini bilish, tajriba va muayyan faoliyatda maqsadlarga erishish qobiliyatini o'z ichiga olgan murakkab tarkibiy tuzilishga ega bo'lgan ta'lim tizimidir.

Mazkur kompetensiya kommunikatsiyaning ajralmas qismi va lingvistik kompetensiyaning tarkibi bo'lib, uning shakllanishi yakunlangan jarayon sifatida davom etadi. Leksik kompetensiyaning shakllanish va rivojlantirish darajasi deganda, biz talabalarining xorijiy so'zlarni o'rganish bilan bog'liq muammolarni hal qilish qobiliyatini tushunamiz, chunki ular egallagan bilimlar va tegishli ko'nikmalar asosida nutqda amaliy foydalanishadi. Tadqiqotni olib borish jarayonida xorijiy ilmiy-metodik adabiyotlardagi leksik kompetensiyaning tarkibiga kiruvchi xilma-xil komponentlar haqidagi fikr mulohazalarni sinchiklab o'rganib, ularni umumlashtirdik: muayyan vazifasiga ko'ra bir-biridan farqlashini aniqlab, quyidagi turklarini tavsifa etishni va qisqacha tavsiflashni lozim topdik:

1) leksik kompetensiyaning kognitiv komponenti. U leksik bilim bilan ifodalanadi. Leksik bilim bu o'rgani-

layotgan tildagi mavjud til hodisalarini, tilning leksik qatlamlarini bilish tushuniladi;

2) leksik kompetensiyaning operatsion-faoliyat komponenti. Mazkur komponent o'zaro aloqa vositasi sifatida kommunikativ tarkibning mazmunini etkazishga tayyor bo'lgan va unda tilning leksik me'yorlariga muvofiq so'zlarni etkazish qobiliyati va ko'nikmalari mavjudligini ifodalaydi;

3) leksik kompetensiyaning samarali-amaliy yoki protsessual komponenti so'z ustida muayyan harakatlarni o'z ichiga olgan so'zni o'zlashtirish strategiyasini o'z ichiga oladi. Bu strategiyalar ikkinchi darajali tilshunoslik shaxsiyatining modelini, ona tili bo'lmagan va madaniyat tizimini o'zlashtirish modelini aks ettiradi. Ushbu strategiyalar til vositalarini tanlash va to'plash, til bazasini kengaytirish, o'rganilayotgan tilni tartiblangan, shaxsiyatli tizimga to'plash, uni doimiy ravishda o'z tilidan foydalanib to'ldirish va yangilash; til va nutq tajribasidan iboratdir.

4) leksik kompetensiyaning ijtimoiy-madaniy komponenti. Bu komponent o'z vazifasiga ko'ra, so'z birliklari yoki leksik birliklarning madaniy xilma-xilligini bilish, rasmiy va norasmiy uslubning leksik namunalari ega bo'lishni nazarda tutadi.

5) leksik kompetensiyaning refleksiv komponenti. Bu komponent nutq amaliyotini ta'minlash, turli xil nutq aloqa holatlariga qo'shilish va xilma xil lisoniy vazifalarni bajarish vositasi sifatida o'rganilayotgan tilni qo'llashni ta'minlaydigan maxsus-amaliy strategiyalarni o'z ichiga oladi. Refleksiv komponent o'z-o'zini nazorat qilish bilan bog'liq bo'lib, unda biz uning faoliyati va mustaqilligining namoyon bo'lishi bilan bog'liq shaxsiyat sifatini nazarda tutamiz.

Tahlil va natijalar. Oliy ta'lim muassasasi "Filologik va nofilologik" talabalarida leksik kompetentlikni rivojlantirish va takomillashtirishga erishish uchun ta'lim jarayonida uning shakllanishining tegishli bosqichlari ketma-ketligini ta'minlash zarur. Ta'kidlash joizki, leksika ustida ishlayotganda talaba nafaqat o'zining muayyan so'z boyluklaridan to'g'ri va situatsion foydalanishga tayyor bo'lishi kerak. Shu o'rinda, xususan, uning muloqot davomida va mashqlar bajarish vaqtida, shuningdek, turli xildagi lug'atlar bilan ishlash vaqtida ham bartaraf etilishi mumkin bo'lgan bilim egallashdagi muammolar bilan ishlashga tayyorlash zaruriyati tug'iladi. Tadqiqot natijalari leksik kompetentlikni quyidagi to'rtta zonalar mavjudligini ko'rsatdi: a) aynan miqdoriy ko'rsatkich (size), ya'ni o'zlashtirilishi kerak bo'lgan so'zlar va barqaror iboralar soni; b) har qanday til yoki nutqiy faoliyatni amalga oshirish uchun yetarlicha so'z boyligiga ega bo'lish; v) o'rganilgan materialdan muntazam foydalanish va bu jarayonni boshqarish; faol va passiv lug'atlar o'rtasidagi farqlarni bilish; g) zamonaviy texnikadan foydalangan holda bilimdagi taraqqiyotni tahlil qilish.

Qayd etish kerakki, ingliz tilini o'rganish chog'ida talabalarda leksikani o'rganish shu leksikani o'zlashtirish kerak, degan dastlabki taassurot shakllanishi yoki ular so'z boyligi muayyan so'zlarning o'zaro bog'lanishi va so'zlarni qo'llash ko'pincha muayyan leksik birlikdan foydalanishni talab qiladi, degan fikrga kelishlari mumkin. Shuning uchun ham talabalarining so'z boyligini dastlabki bosqichidayoq to'g'ri o'zlashtirishga tayyorlash muhim pedagogik ahamiyatga ega.

Talabalarining leksik kompetentligini rivojlantirish va takomillashtirish jarayonida so'zlarni yaxshi o'zlashtirish, ya'ni ma'lum pedagogik tamoyillar asosida qurilishi lozim bo'lgan uzleksiz amaliyotini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bunda leksik kompetentlikni rivojlantirishga oid lingvistik mashqlar nafaqat retseptiv, balki poduktiv rejada ham mavjud muloqotni amalga oshirish uchun xizmat qiluvchi leksik birliklarni yasashga qaratilganligi maqsad qilib olinadi

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining leksik kompetensiyalari tarkibi xilma-xilligini, har biri o'ziga xos va bir-birini takrorlamaydigan lisoniy xususiyatlarga egaligini, ularning alohida shakllanish bosqichlari, darajalari, modeli, vosita va usullari mavjudligini tasdiqladi. 2. Leksik kompetensiyaga quyidagicha ta'rif berish maqsadga muvofiq: "bir qator kommunikatsiya uchun zarur bilim, ko'nikma va malaka majmuiga ega bo'lgan leksik kompetentlar; konkret

faoliyatni amalga oshirishda zarur bo'lgan shaxsiyat xususiyatlariga; shaxsning turli vazifalarni bajarish tizimidir". 3. Tadqiqot davomida leksik kompetensiyaning chet til leksik tarkibini bilish; til birliklari o'rtasidagi umumiy til kontekstida so'zning ma'nosini aniqlash; matn bilan ishlashda so'z birikmalaridan foydalanish qobiliyatini o'stirish; kommunikativ vazifani hisobga olgan holda jumlar tuzishga yordam berish kabi vazifalarni o'z ichiga olganligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. PF-4947-son. 2017 yil 7 fevral. –www.lex.uz.)
2. Bogaards, Paul and Batia Laufer (eds.): Vocabulary in a Second Language. Selection, acquisition, and testing. 2004. xiv, 230 pp. 119. Булаченко О.А. Характеристики компетентности специалиста // Проф. Образование. – 2005. - №4. – С.21.
3. Hutmacher W. Key competencies for Europe // Report of the Symposium. Berne, Switzerland, 27-30 march 1996. Council for Cultural Cooperation (CDCC) // Secondary Education for Europe. Strasburg. - 1997.
4. Сиземина А. Е. Методика развития лингвистической компетенции студентов лингвистического вуза на основе формирования мотивационной базы обучающихся: автореф. дис. канд. пед. наук- Н. Новгород, 2009. – 84 с.
5. Шамов А.Н. Формирование лексической компетенции как основополагающая сел в обучении иностранному языку // Языки и культуры народов мира в лингводидактической парадигме: Лемпертовские чтения - IX: сб. ст. по матер. меж- дунар. науч.-метод. симпозиума, 30-31 мая 2007 г. / Пятигор. гос. лингв. ун-т; Пятигорск, 2007. – С. 386-391.
6. Фетисова А.А. Методика управления фактором произвольности в процессе развития иноязычной лексической компетенции студентов: 1 курс, языковой педагогический вуз :дис. ... канд. пед. наук: – Москва, 2010. – 186 с.
7. Laufer B. 1990. "'Sequence' and 'order' in the development of L2 lexis: Some evidence from lexical confusions". Applied Linguistics 11: 281–296 г.
8. Стародубсева О.Г. Лексическая компетенция как языковая основа профационально-коммуникативной компетенции студентов неязыкового вуза – Бюллетен сибирской медицины, 2013. том12, 3, – С. 127–131.
9. Жемшенкова С.А.Основные подходы к тарктовке понятие «Компетенция», «Компетентность» зарубежом и их содержательное наполнение. Вестник ТГПИУ. 2011. 13(115). – С. 243
10. Sommer P., Brown I., Reducing Systemic Cybersecurity Risk 2011 - 6



Muxtasar RADJABOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti doktoranti
E-mail: muxtasarradjabova1985@gmail.com

O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi dotsenti v.b., PhD D.Sagdullayeva taqrizi asosida

XORJIY TILLARNI O‘QITISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING MAZMUN-MOHIIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqola til ta’limida “integratsiya” hamda “integrativ yondashuv” tushunchalarining mazmun va mohiyatiga bag‘ishlangan. Unda jahon tajribasida tillarni o‘qitishga qaratilgan yondashuvlar va ularning tasnifi, olimlarning “integratsiya” va “integrativ yondashuv” tushunchalariga bergan turli qarashlari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Yondashuv, integratsiya, integrativ yondashuv, fanlararo aloqalar, chet tillari, nutq, til.

THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF "INTEGRATIVE APPROACH" IN LANGUAGE EDUCATION

Annotation

This article is devoted to the content and essence of the concepts of "integration" and "integrative approach" in language education. It analyzes the approaches to teaching languages in the world experience and their classification, the different views given by scientists to the concepts of "integration" and "integrative approach".

Key words: Approach, integration, integrative approach, interdisciplinary relations, foreign languages, speech, language.

СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЯ «ИНТЕГРАТИВНЫЙ ПОДХОД» В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

Данная статья посвящена содержанию и сущности понятий «интеграция» и «интегративный подход» в языковом образовании. Анализируются подходы к обучению языкам в мировом опыте и их классификация, различные взгляды ученых на понятия «интеграция» и «интегративный подход».

Ключевые слова: Подход, интеграция, интегративный подход, межпредметные связи, иностранные языки, речь, язык.

Kirish. Hozirgi kunda yurtimizda ta’lim sohasini yanada rivojlantirish, barcha sohalarda yuqori malakali mutaxassisilarni tayyorlash borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmog‘da. Chet tilini bilish zamonaviy jamiyat hayotining asosiy ko‘nikmalaridan biriga aylanib bormog‘da, bu esa o‘quv jarayonini tashkil etishda yangi samarali yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Metodikaning asosiy kategoriyasi sifatida talqin qilingan “yondashuv” til ta’limiga oid asosiy masalalardan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Chet tillarini o‘qitish metodikasida “integratsiya” va “integrativ yondashuv” masalalari M.A.Arhipenko, I.S.Krestinskiy, M.X.Gulyamova, B.Sh.Xasanova, K.X.Gadoyev kabi olimlar ishlarida o‘z aksini topgan.

Tahlil va natijalar. Dunyoda tillarni o‘rganishda turlicha yondashuvlar qo‘llanib kelingan va ular doimiy ravishda takomillashtirib borilgan. 1980 yillarning o‘rtalariga kelib G‘arbiy Evropada til ta’limi nazariyasi va amaliyotida yondashuvlar ikki guruhga ajratildi. Birinchi guruh uzoq rivojlanish tarixiga ega bo‘lib, chet tillarini o‘qitishda, xususan, grammatik-tarjima tushunchasi bilan ifodalangan an’anaviy reproduktiv yondashuvlardan tashkil topadi. Ikkinchi guruh XX asrning 70 yillari boshlarida rivojlana boshlagan zamonaviy produktiv yondashuvdan iborat bo‘lib, u chet tillarini o‘qitishda asosan kommunikativ-madaniyatlararo kontseptsiya bilan ifodalanadi[1].

Chet tillarini o‘qitish metodikasida yondashuvlarning yagona tasnifi mavjud emas. Jumladan, M.V.Lyaxovitskiy chet tillarini o‘rganishda tillarni o‘zlashtirishning psixologik nuqtai nazaridan 4 ta asosiy, bixevioristik, induktiv-ongli, kognitiv va integrativ yondashuvlarni keltirgan. Shuningdek, Zimnaya tomonidan yondashuvga ta’lim obyekti sifatida berilgan tasnif e’tiborga loyiq bo‘lib, u chet tillarni

o‘rganishda til yondashuvi, nutq yondashuvi hamda kommunikativ yondashuvlarni taklif etgan[2].

A.A.Ashurov ta’lim jarayonida yondashuvlar mohiyatini yoritir ekan yondashuvlarni antropologik, sinergetik, gender, kompetensiyaviy, faoliyatli-kompetensiyaviy, izlash(qidiruvchi), aksiologik, tizimli-faoliyat, rivojlantirish, shaxsiy, shaxsga yo‘naltirilgan, insonparvarlik turlariga ajratadi[3].

Xorijiy tillarni o‘qitish metodikasida aynan yozuvni o‘rgatishda ham turli xil yondashuvlar mavjud. Jumladan, tadqiqotchilar A.Raimes, D.Byrne yozuvni o‘rgatishda 3 ta asosiy, mahsulotga asoslangan yondashuv (product-based approach), jarayonga asoslangan yondashuv (process-based approach) va integrativ yondashuv (integrated approach) larni taklif etgan[4].

Hozirgi kunda ham tillarni o‘rganishga turlicha yondashish dolzarb masalalardan biridir. Ta’limda u yoki bu yondashuvni tanlash boshqa yondashuvlarni butunlay mos emasligini anglatmaydi, balki bu ta’lim maqsadlariga bog‘liq bo‘lib, asosiy e’tibor yanada samarali natijaga qaratilishi nazarda tutiladi.

Fikrimizcha, chet tillarini o‘qitishda yuqorida keltirilgan yondashuvlarning har biri muhim hisoblanib, til o‘rganuvchilarga har qanday vaziyatda chet tilidagi nutq faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishlariga imkoniyat yaratadi. Aynan shu yondashuvlardan nutq faoliyatining barcha turlarining o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda, ham produktiv ham retseptiv til ko‘nikmalarini kompleks o‘rgatishga qaratilgan integrativ yondashuv chet tillarini o‘qitishda alohida ahamiyatga ega.

Ta’lim sohasidagi "integratsiya" tushunchasi uzoq vaqtdan beri butun dunyoda keng qo‘llaniladi. Ushbu tushunchani ilk bor XVIII asrda G.Spenser izohlab, unga

ayrim bo'laklar hamda elementlarni o'zaro birikuvi, yaxlitligi sifatida ta'rif bergan[5]. Integratsiya to'liq ilmiy tushuncha sifatida pedagogikada 80-yillarning birinchi yarmida jamiyatning iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalarida o'zaro bog'liq jarayonlar fonida paydo bo'ldi. Bu vaqtga kelib u falsafiy va ilmiy adabiyotda allaqachon mustahkam o'rin olgan edi[6]. Har qanday kategoriya singari, "integratsiya" ham ijtimoiy amaliyot asosida bilimlarning tarixiy rivojlanishi jarayonida shakllandi va har bir bosqichda o'ziga xos ma'noga ega bo'ldi.

Integratsiya" so'zi aslida lotin tilidagi "integer" ya'ni "butun, mukammal" so'zidan kelib chiqib, qismlarni, elementlarni bir butunga birlashtirishni anglatadi.

Adabiyotlarda integratsiya tushunchasi quyidagicha talqin etiladi: 1) tizimning alohida tabaqalashtirilgan qismlari va funktsiyalarining bog'lanish holati; 2) differentsiatsiya jarayonlari bilan birga sodir bo'ladigan fanlarning yaqinlashishi va bog'lanish jarayoni[7]. O'zining namoyon bo'lish turlari bo'yicha "integratsiya" tushunchasi murakkab, kompleks, ko'p bosqichli omillarga ta'vullidir. Shu sababli bu tushuncha falsafiy, psixologik va pedagogik nuqtai nazardan tahlil talab qiladi.

"Falsafiy entsiklopedik lug'at"ga bu tushuncha ilk bor 1983 yildan boshlab kiritila boshlandi. Ushbu lug'atda "integratsiya" atamasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Integratsiya - ilgari bir xil bo'lmagan qismlar va elementlarning bir butunga birlashishi bilan bog'liq bo'lgan rivojlanish jarayonining bir tomonidir[8]. Xorijiy so'zlarning izohli lug'atida integratsiya- bu qismlar, elementlarni birlashtirish bo'lib, yagona maqsad uchun birlashish bilan bog'liq rivojlanish jarayoni[9] deb izohlangan bo'lsa, metodik lug'atda esa "integratsiya" so'zi bilimlarning alohida fanlarga bo'linishini inkor etadigan va atrofimizdagi dunyoni yaxlit idrok etish bilan bog'liq bo'lgan o'rganish sifatida ta'riflanadi[10].

V.G. Onushkin va E.I. Ogarevlarning "Fanlararo terminologiya" lug'atida integratsiya har qanday ajralgan tarkibiy elementlarining o'zaro ta'siri jarayoni va natijasi bo'lib, ajralgan qismlarni yangi sifat va imkoniyatlarga ega yagona tizimga birlashtiruvchi jarayon sifatida talqin etiladi[11].

Yuqorida "Integratsiya" tushunchasiga berilgan ta'riflar o'zaro bir-birini to'ldirsada, biroq ularning tahlili "integratsiya" tushunchasini tavsiflovchi asosiy jihatlarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

- ilgari ajratilgan elementlar o'rtasida aloqalarni o'rnatish

- ushbu aloqalarning o'zaro bog'liqlik xususiyatining namoyon bo'lishi

- elementlarni birlashtirish uchun ma'lum shartlar, asoslar mavjudligi

- yaxlitlik xususiyatlariga ega yangi tizimni shakllantirish

- yangi shakllangan tizim va integral elementlarning o'zida ilgari ularga xos bo'lmagan yangi jihatlari yoki bevosita integratsiya jarayonida yuzaga keladigan "integrativ xususiyatlar"ning paydo bo'lishi:

- shakllangan tizimning doimiy o'zgarishi va rivojlanishi, bu uning elementlarining o'zaro ta'siri intensivligini oshiradi[12].

"Integratsiya" tushunchasining ta'riflarini umumiy tahlili, bu tushunchani ikki tomonlama tabiatga ega bo'lgan hamda jarayon va natija sifatida paydo bo'ladigan hodisa ekanligini ko'rsatadi. Ta'limda so'nggi yillarda integratsiya so'zi bilan integrativ yondashuv birikmasi ham faol qo'llanilmoqda. M.N.Berulova, D.I.Zverev, G.F.Fedoretslar integratsiya jarayonlarini o'rganar ekan, ta'limga integrativ

yondashuv turli o'quv fanlari mavzulari o'rtasida intensiv ma'lumotlar almashinuvini ta'minlashini ta'kidlab o'tadilar[13]. Ta'lim jarayonida vaqtni tejash bilan bog'liq muammolarga ijobiy yechim topayotgan hamda turli fanlararo aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiluvchi integrativ yondashuv faol muhokama qilinayotgan yondashuvlardan biriga aylandi.

N.Y.Borisova tadqiqot ishida integrativ yondashuv sifatida integrativ jarayonlarni va shart-sharoitlar sintezini o'rganish strategiyasini ko'rib chiqadi. Olim integrativ yondashuvda nafaqat tarkibiy qismlarni birlashtirish, o'zaro bog'liqlik va sintez jarayonini ko'radi, balki ta'lim muassasasining o'ziga xos shartlari va vazifalariga muvofiq intensiv o'qitish metodikasining rolini ham qayd etadi[14].

A. A. Smirnovning ta'kidlashicha, o'qitishda nafaqat yangi ma'lumotlarni o'rganish emas, balki talabalarga ana shu yangi o'rganilgan axborotni avval egallangan bilimlar bilan taqqoslash va ularni o'zaro bog'lashni o'rgatish muhimdir[15]. Albatta, integrativ yondashuv yordamida bilim umumlashtiriladi, bu esa o'quvchiga uning yaxlitligini tushunish imkonini beradi. Shuningdek, ta'limga integrativ yondashuv mavzularni yanada kengroq va chuqurroq o'rganish imkonini beradi, o'quvchilarning motivatsiyasi va faolligini oshiradi, shuningdek, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Integratsiya tushunchasi paydo bo'lgunga qadar, bu tushunchaga o'xshash "fanlararo" atamasi fanga kiritilgan edi. Bu tushuncha o'quv fanlari o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettirib, mavzuni yanada chuqurroq o'rganishga imkon berar edi[16]. N.S.Antonov fanlararo aloqalarni ta'lim mazmunining o'ziga xos dizayni, shuningdek, bilimlarni integratsiyalashning didaktik vositalaridan biri deb biladi[17].

M.I.Maxmutov «Integratsiya fanlararo aloqalarga qaraganda kengroq tushuncha ekanligini ta'kidlaydi. Fanlararo aloqalar turli o'quv fanlari o'rtasida aloqalarni o'rnatadi, integratsiya esa o'quv jarayonini rivojlantirish va tashkil etishning namunasidir. Integratsiya turli fanlar bilimlarini bir-biri bilan bog'lash tushunchasidan kengroqdir. U o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish uchun xizmat qiladi"[18]. Olimning bu fikriga S.Y.Strashnyuk qo'shilgan holda bu ikki tushunchaga quyidagicha izoh beradi: garchi fanlararo aloqalar va integratsiya haqiqiy dunyoning birligini aks ettiruvchi ilmiy bilimlar, ko'nikmalar tizimini shakllantirishning o'xshash vazifalari bilan bog'liq bo'lsa-da, ularni tenglashtirmaslik kerak. Integratsiya, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, yangi sifatni ifodalovchi yaxlitlikni hosil qiladi, fanlararo aloqalar esa bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish uchun turli fanlarning birligini nazarda tutadi va mustaqil yaxlitlikni shakllantirishga qaratilgan [19].

Ta'limda integrativ yondashuv fanlararo aloqalarda namoyon bo'ladi, buning natijasida talabalar bir vaqtning o'zida bir nechta fanlar bo'yicha materialni o'zlashtira oladilar. Zamonaviy ilmiy-pedagogik adabiyotlarda olimlarning "fanlararo aloqalar" borasida fikrlari har hil bo'lsada, biroq ularning barchasi fanlararo aloqalar ta'lim mazmuni va zamonaviy ta'limda muhim ahamiyatga ega ekanligini, ulardan o'quv jarayonida foydalanish o'quvchilarning faolligi, bilimlarning izchilligi va mustahkamligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar.

Xulosa va takliflar. Integratsiya aslida umumiy ilmiy xususiyatga ega bo'lib, zamonaviy ilm-fanning ko'plab sohalarida aks etadi. Integratsiya tushunchasining o'quv jarayonida rivojlanishi umuman dunyoda, fanda, ta'limda sodir bo'layotgan integratsiya jarayonlarining roli bilan belgilanadi va ilmiy bilimlarning o'zaro bog'liqligi tendentsiyalarini aks ettiradi.

ADABIYOTLAR

1. Крестинский И.С. Формирование интегративного подхода к обучению иностранным языкам в западноевропейской педагогике второй половины XX века :–Тверь 2007.160 с
2. Азимов Э. Г., А. Н. Щукин.Новый словарь методических терминов и понятий. М.: Издательство ИКАР, 2009. – 448 с
3. Ashurov A.A.Texnika oliy ta'lim muassasalari bakalavr talabalari kommunikativ chet tili kompetensiyasining shakllanishida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv. Toshkent-2020
4. Тарасов А.А. Формирование компетентностной основы иноязычной продуктивной письменной речи в начальной школе. Москва-2021-24с
5. Gulyamova M.X. Ingliz tilini o'qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv. Toshkent-2019
6. Страшнюк Светлана Юрьевна.Интеграция на модульной основе гуманитарных дисциплин в техническом вузе для развития комплексных умений студентов. Кемерово-2003
7. Архипенко М.А. Педагогическая интеграция как фактор повышения конкурентоспособности будущего специалиста в условиях обучения в высшей школе.(на примере дисциплины «Иностранный язык»). Орел 2007, 204с
8. Орлова В.Н. Интегративный подход к информационной подготовке студентов коллежа.Нижний Новгород -2006 178 с
9. Завьялова М.С., М.Н.Раздобарова . Интегративный подход к организации обучения дисциплине . «Иностранный язык в профессиональной деятельности» ВестникТвГУ .Педагогика и психология. 2020.3(52) с 157-163
10. Гадов К.Х. Интегрированное обучение иностранному (английскому) языку в неязыковых вузах республики Таджикистан :–Душанбе 2015. – с164
11. Левченко В.В. Интегрированный подход к профессионально -педагогической подготовке в вузе специалистов для образовательных учреждений. Самара-2009 183с
12. Орлова В.Н. Интегративный подход к информационной подготовке студентов коллежа.Нижний Новгород -2006
13. Берулава М.Н. Иттеграция содержания образования.-М:Совершенство,1998, -192с
14. Ужан О.Ю, Узхан О.Интегрированное обучение как следствие модернизации образования. Профессиональное образование в России и за рубежом.№ 2(4)-М,2011 90-94
15. Ларионова С.А. Реализация интегративного подхода в системе обучения первоклассников грамоте.Тамбов-2009 .226с
16. Губанов.Е. М. Интегрированный подход в обучении иностранному языку студентов неязыковых специальностей. Екатеринбург 2019. 92с
17. Страшнюк С.Ю. Интеграция на модульной основе гуманитарных дисциплин в техническом вузе для развития комплексных умений студентов. Кемерово-2003 226с
18. Ларионова С.А. Реализация интегративного подхода в системе обучения первоклассников грамоте. Тамбов-2009 .226с
19. Страшнюк С. Ю. Интеграция на модульной основе гуманитарных дисциплин в техническом вузе для развития комплексных умений студентов. Кемерово-2003 226с



UDK: 18.130.2+255 (575.1)

Shuxratjon RAJABOV,

O'zbekiston Xalqaro islom akademiyasi katta o'qituvchisi, (PhD)

E-mail: shuxrat_rajabov@bk.ru

O'zbekiston Xalqaro islom akademiyasi professori, f.f.d. M.Qaxxarova taqrizi asosida

THE ROLE OF AESTHETIC NEEDS IN CYBERMARKETING TRANSFORMATION

Annotation

Today, the transformation of personal needs is taking place on the Internet, media products, video games, social networks, marketing activities that arouse the interest of the general public. Global popularity, the status of modern networks, and the impact of social networks on our traditional moral and aesthetic values are issues that require special study. The tools of cyberspace play a key role in satisfying personal aesthetic needs and changing the aesthetic worldview. In connection with the need of people to communicate using the technical capabilities of the Internet, a new area and direction called "Social Networks" has been formed. Social networks, which originally served only to communicate with anyone, are now becoming an incomparable tool for people to respond to social and political changes taking place in society with their advanced thoughts.

Key words: Social networks, transformation, aesthetic attitude, cyberspace, aesthetic need, alienation, network aesthetics.

РОЛЬ ЭСТЕТИЧЕСКИХ ПОТРЕБНОСТЕЙ В ТРАНСФОРМАЦИИ КИБЕРМАРКЕТИНГА

Аннотация

Сегодня трансформация личных потребностей происходит в Интернете, медиапродуктах, видеоиграх, социальных сетях, маркетинговых мероприятиях, которые вызывают интерес широкой публики. Глобальная популярность, статус современных сетей, а также влияние социальных сетей на наши традиционные моральные и эстетические ценности — вопросы, требующие специального исследования. Инструменты киберпространства играют ключевую роль в удовлетворении личных эстетических потребностей и изменении эстетического мировоззрения. В связи с потребностью людей в общении с использованием технических возможностей Интернета образовалась новая область и направление под названием «Социальные сети». Социальные сети, изначально служившие лишь для общения с кем-либо, в настоящее время становятся бесподобным инструментом для людей, реагирующих на социальные и политические изменения, происходящие в жизни общества, своими передовыми мыслями.

Ключевые слова: Социальные сети, трансформация, эстетическое отношение, киберпространство, эстетическая потребность, отчуждение, сетевая эстетика.

KIBERMARKETING TRANSFORMATSIYASIDA ESTETIK EHTIYOJLARNING O'RNI

Аннотация

Bugungi kunga kelib keng jamoatchilikning qiziqishiga sabab bo'layotgan, internet, media mahsulotlar, video o'yinlar, ijtimoiy tarmoqlar, marketing faoliyatida shaxs ehtiyojlarining transformatsiyasi yuz bermoqda. Dunyo miqyosida ommalashuvi, hozirgi tarmoqlar faoliyatining mavqeyi, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarning an'anaviy axloqiy va estetik qadriyatlarimizga o'tkazayotgan ta'siri alohida tadqiq qilishni talab etadigan masalalardandir. Shaxs estetik ehtiyojini qondirish, estetik dunyoqarashni o'zgartirish uchun kibermakon vositalari asosiy rol o'ynaydi. Internetni texnik imkoniyatidan foydalanib insonlarni muloqotga bo'lgan ehtiyoji hisobiga «Ijtimoiy tarmoqlar» deb ataluvchi yangi bir soha, yo'nalish shakllandi. Dastlab shunchaki kim bilandir muloqot qilish uchun xizmat qilgan ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunga kelib jamiyat hayotida yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga o'zining ilg'or fikrlari bilan munosabat bildiruvchilar insonlar uchun tengsiz bir vositaga aylanayotganligi bugungi kunda dolzarb bo'lib bormoqda.

Kalit so'zlar: Web dizayn, ijtimoiy tarmoqlar, transformatsiya, estetik munosabat, kibermakon, estetik ehtiyoj, ijtimoiy tarmoqlar, transformatsiya, estetik munosabar, begonalashuv, tarmoq estetikasi.

Kirish. Kibermakondagi video o'yinlar shaxslarning estetik didlariga mos keladigan, his-tuyg'u uyg'otadigan holatda yaratiladi. Ushbu o'yinlar kompyuter grafikasi va veb-dizayn bilan bir qatorda texno-badiiy egizaklar bo'lib, ularda texnologik asos nafaqat badiiy mahsulotni yaratish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Dizaynda tartib, proporsiya, ritm, garmoniya, simmetriya, kompozitsiya, faktura, shakl va muvazun uyg'unligi kabi estetika fanining qonuniyatlari amal qiladi va ijodkorning yuqori estetik didga ega bo'lishi lozimligi muhim hisoblanadi [1]. Zamonaviy kompyuterlar o'zining veb dizayni bilan alohida ta'riflanadi. Birinchi grafik foydalanuvchi interfeyslari 1970-yillarning boshlarida kompyuter ekranlarida paydo bo'lgan. Ularning umuman dizayn sanoatiga va ayniqsa harakat dizayniga ta'sirini

bugungi kunda ko'rish mumkin. Ushbu uslub tarixiylikka oid bo'lib, retro estetikaga bog'lanadi.

Adabiyotlar tahlili. Kompyuterdagi «estetik ehtiyojlar» va ularning transformatsiyasi masalalari N.Viner, R.F.Abdiev va boshqa olimlar tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan, bu virtualistikaning butun muammolarini dolzarblashtirish va uni fan sifatida shakllantirishga turtki berdi. O'zbekistonda kibermakonning falsafiy va dialektik asoslarini tadqiq etgan olimlar qatoriga A.G.Muminov, A.Tulyaev kabilarni kiritish mumkin.

U.Gibson o'z qarashlarida kibermakonni jamoaviy gallyutsinatsiyalar, inson tizimidagi har qanday kompyuterning xotira banklaridan olingan ma'lumotlarning grafik tasviri, aqlning ko'rinadigan maydonini kuzatuvchi yorug'lik chiziqdari nuqtai nazaridan tahlil qilgan [2]. A.Mo'minov

o'zining «O'zbekiston: axborotlashgan jamiyat sari» nomli monografiyasida shunday fikr bildirgan – «Global tarmoqning foydalanuvchilari Internet bunday keng tarqalishining sabablari qatorida axborot uzatishning bir-biridan ajralmagan, quyidagi afzal jihatlari qayd etadilar: axborotni bosma holda uzatish; radio (ovoz yo'li bilan); televidenie (ovoz+video)» [3]. A.Tulyaev o'z tadqiqotlarida «virtual olam» muammolarini sotsiologiya, kibernetika, tibbiyot bilan o'zaro aloqadorlikda tadqiq qilish muhimligini ta'kidlab, kishilarning hayot faoliyati kundan-kunga «virtual hamjamiyatda», «tarmoqli jamiyatda», «kibermakonda» faol amalga oshayotganligi haqidagi fikrlarni ilgari surgan [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada shaxs estetik ehtiyojlarining web dizayn hamda marketing sohasida transformatsiyasi muhokama qilindi. Shaxs estetik ehtiyojlarining web dizayn va marketingda o'zgarib borish jarayonlari umumlantirildi. Kibermakonning shakllanishi va o'zgarib borishiga oid yondashuvlar o'rganildi.

Tahlillar va natijalar. Veb-dizayn veb-saytlarni ishlab chiqarish va ularga xizmat ko'rsatishda ko'plab turli ko'nikmalar va fanlarni o'z ichiga oladi.

vweb-dizaynning turli sohalari vweb-grafik dizaynini o'z ichiga oladi;

foydalanuvchi interfeysi dizayni;

standartlashtirilgan kod va xususiy dasturiy ta'minotni

o'z ichiga olgan mualliflik;

foydalanuvchi amaliy dizayni va qidiruv tizimini optimallashtirish.

Ko'pincha ko'p odamlar dizayn jarayonining turli jihatlari qamrab olgan jamoalarda ishlaydi, ba'zi dizaynerlar ularning barchasini qamrab olaoladi.

«Veb-dizayn» atamasi odatda vweb-saytning oldingi (mijoz tomoni) dizayni bilan bog'liq dizayn jarayonini, shu jumladan yozish belgilarini tasvirlash uchun ishlatiladi. Vweb-dizayn vweb-ishlab chiqishning kengroq ko'lamida vweb-injeneriya bilan qisman mos keladi. Vweb-dizaynerlar foydalanish qulayligi haqida xabardor bo'lishlari kutilmoqda va agar ularning roli belgilashni yaratishni o'z ichiga olsa, ular vweb-sahifalarga kirish bo'yicha ko'rsatmalar bilan ham dolzarb bo'lishi kutiladi.

Kompyuter video o'yinlarining estetik xususiyatlarini ko'rib chiqildi.

1. video o'yinlar janr mezonlari va ommaviy madaniyat tendensiyalari tomoshobin qiziqishlari doirasiga bo'ysunishi aniqlandi.

2. o'yinning vizual timsoli alohida estetik ahamiyatga ega - bu o'yinlarning tijorat muvaffaqiyatining eng muhim elementlaridan biridir. O'yinlarning vizual tomoni rasmdan ham, kinematografiyadan ham farq qiladigan o'ziga xos «go'zallik» bilan ajralib turadi, masalan, kayfiyatni yaratish, inson estetik didlariga mos kelishi uchun kino vositalaridan foydalanish falsafiy tomondan o'rganildi. Estetik did orqali ifodalanadigan estetik qadriyatlar. Masalan, tabiat, jamiyat va kibernetikadagi hodisalarini estetik did orqali anglash, idrok etish orqali undagi mo'jizani, go'zallikni ilg'ab olish asnosida vujudga kelgan qadriyatlar. Bunday xislatli kishilarni «didi» baland odamlar deyishadi [5].

Bu texnik vositalar va interaktivlik yordamida tomoshabinlarda qiziqish uyg'otish orqali ta'sir etib, asarning mutlaqo yangi makoniga olib kiruvchi janrlar yaratilishiga olib keldi. Virtual badiiy madaniyatning asosiy farqlovchi xususiyati tomoshabinni ushbu madaniyat makoniga kiritishdir. Virtual badiiy madaniyat tufayli voqelikni kengaytirish mumkin, ushbu voqelikni yaratuvchi yoki ijodkorlarining ijodiy niyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan estetik xususiyatlarni o'z ichiga oldi [6]. Virtual badiiy madaniyat badiiy vositalar yordamida etkazilishi kerak

bo'lgan g'oyaga muvofiq voqelikni qayta qurish vositasi sifatida ishlaydi.

Kompyuter video o'yinlarining estetik xususiyatlarini quyidagilarda ko'rib chiqish mumkin.

1. O'yinning vizual timsoli alohida estetik ahamiyatga ega - o'yinlarning tijorat muvaffaqiyatining eng muhim elementlaridan biridir. O'yinlarning vizual tomoni rasmdan ham, kinematografiyadan ham farq qiladigan o'ziga xos «go'zallik» bilan ajralib turadi, lekin ayni paytda ularning aksariyati (rejalar, kompozitsion echimlar, maxsus effektlar, musiqa), ayniqsa hissiyot texnologiyalarni ishlab chiqish orqali kayfiyatni yaratish, inson estetik didlariga mos kelishi uchun kino vositalaridan foydalanish kabi asosiy maqsadni taqdim etadi.

2. Hozirgi vaqtda ommaviy video o'yinlar vizual idrok etish uchun jozibador bo'lgan yuqori sifatli grafik san'atlar bilan ajralib turadi, u yuqori sifatli illyuziyalarni yaratishi kerak. O'yinchi dinamik holatda bo'lishi uchun makon, real vaqtidagi harakatlar, obyektlar bilan ishlash, personajlar bilan o'zaro ta'sir qilish orqali vizual zavq olishi lozim. Shuning uchun videoo'yinlarda umumiy estetik tamoyil - real ko'rinishi kerak bo'lgan obyekt tasvirining maksimal realizmi va ishonchligiga intilishdan iborat. Virtual reallik texnologiyalarining rivojlanishi bilan elektron o'yinlar va ularning estetik xususiyatlarini rivojlantirishning yangi bosqichi sodir bo'ldi.

3. Video o'yinlar estetikasining o'ziga xos xususiyati makonli hikoyadan foydalanishdir. Kompyuter o'yini o'zi sodir bo'lgan makon tuzilishiga bo'ysunadi. Video o'yinlar syujeti o'yin maydonining rivojlanishi bilan sodir bo'ladi. Video o'yinlarning estetik tamoyili faqat o'yin maydoni o'yinning vaqtinchalik tomoniga eng yaxshi holatda mos kelganda amalga oshiriladi. Masalan tasavvur uyg'otish orqali namoyon bo'lish. Tasavvurning ishi did sezgilari tug'iladigan tamoyillardir. Ularning xayolotdan kelib chiqishi - fantastik, xayoliy yoki ideal ekanligini anglatmaydi. Ular butun dunyo bo'ylab tasavvur kuchi bilan ishlab chiqariladi, bu juda muhim, chunki bu shaxsning hissiy faoliyatiga ta'sir qiladi.

4. O'yinlar madaniy mazmunga ega bo'lishi lozim. Virtual dunyo o'ziga xos ma'no va qadriyatlarga ega bo'lgan madaniyatlar bo'lishi kerak, shuning uchun o'yinlarda ko'pincha tarixiy syujetlar, filmlar, teleseriallarda estetik kategoriyalar ishlatiladi. Video o'yinlarning rivojlanishi vizual takomillashtirish va semantik faoliyatni birlashtiradi. O'yinlarni tanlashda shaxslar o'z ichki hissiyotlari va foydaliliga tayangan holda o'yinlarning jozibadorligi, qulayligiga qarab tanlaydi.

Marketing sohasi ham internet inqilobidan keyin transformatsiya jarayonlari sodir bo'ldi. An'anaviy usullardan farqli o'laroq, kibermarketing butunlay internet tizimiga asoslangan bo'lib, u reklama qilish, mahsulot haqida ma'lumot almashish, aloqa qilish, fikr-mulohazalarni olish, mijozlardan to'lovlarni tarqatish va qabul qilishni o'z ichiga oladi. Avvalo, kibermarketingning asosi bo'lmish marketing estetikasi haqida to'xtalib o'tsak.

Ba'zi faylasuflar obyektning estetikasini strukturaviy parametrlarda, ya'ni rangi, shakli va tashqi holatida yotadi, deb hisoblasa, boshqalari esa estetikaning kuchi assosiativ idrokda, deb hisoblashadi. Vizual xotirani o'rganish, olingan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta ishlash mexanizmi, rang va shakl fikrlash jarayonini jalb qilmasdan idrok etilishini aytadi. Marketing esa estetikaga sof funksional nuqtai nazardan qarashni, mahsulotning estetik xususiyatlaridan foydalanishni afzal ko'radi.

Marketingning estetik konsepsiyasi uchta komponentdan iborat: mahsulot dizayni, qulaylik va iste'molchi ehtiyojlarini qiyosiy tadqiq qilish. Ammo shuni aytishim kerakki, mahsulot dizaynini ishlab chiqishda ba'zida tashqi

axloqiy va estetik xususiyatlari qanday. Kompyuterlashtirilgan dunyo, yalpi axborotlashtirilgan global tizimning vujudga kelishi millatlar, xalqlar va butun insoniyat taqdirini bir-biriga bog'lab qo'ydi.

Xulosa. Bugungi kun axborot makoni rivojlanib boriishi shaxs estetik ehtiyojlarining transformatsiyasiga olib keldi. Kibermakon shakllanishi va rivojlanishi insonlarning qiziqishlari va hissiyotlariga bevosita bog'liq holda o'zgarib bordi. Ushbu bobda kibermakonda shaxs estetik ehtiyojlarining transformatsiyasi natijasida yuzaga keladigan virtual olam estetikasi, axborot estetikasi, kibermakondagi estetik munosabat va estetik faoliyatlar o'zgarishi tendensiyalari, ijtimoiy tarmoqlarning yangi estetik munosa-batlar maydoni sifatidagi tasnifi, kibermakonda Veb dizayn va marketing estetik xususiyatlari konseptual ahamiyati bilan bog'liq bo'lgan fikrlar, farazlar, qarashlarni umumlashtirgan tarzda quyidagi xulosalarni qilishimiz mumkin:

Birinchidan, virtual olam foydalanuvchilarning estetik zavq olishlariga mo'ljallangan bo'lib, ularning hozirgi

shaklida asosan interaktiv virtual 3D muhiti bilan sinonim bo'lib, asosan onlayn multiplaer o'yinlari shaklida shaxs ehtiyojlarini qondiradi.

Ikkinchidan, virtual olam voqea-hodisalardan iborat san'at asariga o'xshaydi. Ma'lumki, san'at reallikdan ideallikka, falsafa esa ideallikdan reallikka qarab boradi, ya'ni san'at real voqelikni inkor yoki tasdiq etish bilan ideallikni barqaror qiladi, falsafa hayotiy va transsendental haqiqatlarni reallikka singdirishga intiladi. Kibermakonda san'at insonga o'zidan go'zalroq, ulug'vorroq insonni, o'z hayotidan go'zalroq, ulug'vorroq hayotni taqdim etadi, ya'ni estetik idealni beradi.

Uchinchidan, marketing estetikasining atrofidagi voqelikka ta'siri orqali estetik kategoriyalar jamiyat hayotining barcha sohalarini transformatsiya qildi. Ma'naviy va madaniy shakllar, qadriyatlar va yo'nalishlarning shakllanishi va o'zgarishi o'rganildi.

ADABIYOTLAR

1. Kadirova D.S. Analitik estetika. –Toshkent: Mumtoz so'z, 2022. – B. 168.
2. William Gibson. Neuromancer. – New York: 20th Anniversary Edition Ace Books, 2004. – № 4. –P. 87.
3. Muminov A.G. O'zbekiston: axborotlashgan jamiyat sari. –Toshkent: Turon zamin ziyo, 2013. – B. 12;
4. Tulyayev A.I. Virtual olamning axloqiy muammolari (falsafiy tahlil): Fals. fan. bo'y. fals. dok. (PhD) ... dis. avtoref. – Toshkent: O'zMU, 2021. – B. 15;
5. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2009. –B. 58.
6. Абдуллаеван.Н.Б. Замонавий ўзбек матбуоти дизайнининг эстетик хусусиятлари (журналлар мисолида): фалс. фан. ном. ...дисс. автореф. –Тошкент: O'zMU, 2010. – 18 бет.
7. Бахтин М. Эстетика словесного творчества // диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. 2021. – С. 145.
8. Ученова В., Костина А. Цифровое общество: новые возможности — новые угрозы. –М.: Нание. Понимание. Умение, 2019. – Б.173.
9. Умберто Эко. Парадоксы интерпретации. – Минск. ПРОПИЛЕИ, 2000. – Б. 87-88.
10. Iasmina Petrovici. The Role of Aesthetic Communication in Advertising. – Timișo.
11. Rajabov, S. S. (2023). Estetik ehtiyojlar transformatsiyasida ijtimoiy tarmoqlarining ahamiyati. Academic research in educational sciences, 5(NUU Conference 2), 539-546.
12. Rajabov, S. S. (2021). The harmony of the aesthetic needs of the individual in cyberspace with the philosophy of sophistication. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11), 210-213.
13. Ражабов, Ш. (2022). Кибераконда маркетингинг эстетик хусусиятлари. Academic research in educational sciences, 3(NUU Conference 2), 438-445.
14. Ashuraliyevna, M. L., Salihovna, K. D., Shuhratovna, A. N., Ilhamovich, T. A., Sheraliyevich, R. S., & Komilovich, A. S. (2019). Formation of cyber space, protecting youth from the danger of cyber extremism. International Journal of Recent Technology and Engineering, 8(2), S4.
15. Rajabov, S. S. (2019). Human factor in cyberspace: its influence on aesthetic urbrining. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(4), 127-131.
16. Rajabov, S. S. (2023). Estetik ehtiyojlar transformatsiyasida ijtimoiy tarmoqlarining ahamiyati. Academic research in educational sciences, 5(NUU Conference 2), 539-546.



UDK:124.05

Jumaniyoz RAMATOV,

Toshkent davlat transport universiteti professori, falsafa fanlari doktori

E-mail: jumaniyoz@gmail.com,

Ro‘zigul UMAROVA,

Toshkent davlat transport universiteti dotsenti, Falsafa fanlari nomzodi

E-mail: rozigul37@mail.ru,

TDTTrU dotsenti, f.f.n. N.Yunusova taqrizi asosida

THE EMERGENCE OF IDEAS ABOUT HUMAN RIGHTS AND THE FORMATION OF IDEAS ABOUT THE VALUE OF HUMAN PERSONALITY

Annotation

In the article, the emergence of ideas about human rights and the formation of ideas about the value of the human person, the development of the modern world, the recognition that the human person is a high value, the observance of human rights, the democratization of the states, as well as the civilized relations between the states, the relationship between the person and the power, goodness, justice, freedom, universal human categories such as equality, democracy, compassion, the emergence and formation of human rights in the social consciousness, the issue of achieving their realization, the process of the gradual development of humanity and, first of all, the interaction of people in society are scientifically based.

Key words: Person, power, interaction, goodness, justice, freedom, equality, democracy, compassion, category, Social consciousness.

ВОЗНИКНОВЕНИЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ О ПРАВАХ ЧЕЛОВЕКА И ФОРМИРОВАНИЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ О ЦЕННОСТИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ

Аннотация

В статье зарождение представлений о правах человека и формирование представлений о ценности человеческой личности, развитие современного мира, признание того, что человеческая личность является высокой ценностью, соблюдение прав человека, демократизация государств, а также цивилизованные отношения между государствами, отношения человека и власти, добро, справедливость, свобода, общечеловеческие категории, такие как равенство, демократия, сострадание, возникновение и становление прав человека в обществе сознания, вопрос достижения их реализации, процесс постепенного развития человечества и, в первую очередь, взаимодействие людей в обществе имеют научное обоснование.

Ключевые слова: Человек, власть, взаимодействие, добро, справедливость, свобода, равенство, демократия, сострадание, категория, общественное сознание.

INSON HUQUQLARI TO‘G‘RISIDAGI G‘OYALARNING VUJUDGA KELISHI VA INSON SHAXSI QADRLANISHIGA OID TASAVVURLARNING SHAKLLANISHI

Maqolada inson huquqlari to‘g‘risidagi g‘oyalarning vujudga kelishi va inson shaxsi qadrlanishi doir tasavvurlarning shakllanishi zamonoviy dunyoning taraqqiyoti, insonning shaxsi yuksak qadriyat ekanligining e‘tirof etilishi, inson huquqini ta‘minlanishiga rioya qilinishi davlatlarning demokratlashuvi, shuningdek davlatlararo munosabatlarning sivilizatsiyalashganligi, shaxs va hokimiyatning o‘zaro munosabatlari, ezgulik, adolat, erkinlik, tenglik, demokratizm, rahm-shafqat kabi universal umuminsoniy kategoriyalar, ijtimoiy ongda inson huquqlarining vujudga kelishi va shakllanishi, ularning ruyobga chiqarishga erishilishi masalasi, insoniyat tadrjijiy rivojlanish jarayoni va avvalo odamlarning jamiyatdagi o‘zaro munosabatlari ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: Shaxs, hokimiyat, o‘zaro munosabat, ezgulik, adolat, erkinlik, tenglik, demokratizm, rahm-shafqat, kategoriya, ijtimoiy ong.

Kirish. Inson huquqlari to‘g‘risidagi g‘oyalarning vujudga kelishi va inson shaxsi qadrlanishi doir tasavvurlarning shakllanishi zamonoviy dunyoning taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Insonning shaxsi yuksak qadriyat ekanligining e‘tirof etilishi va inson huquqini ta‘minlanishiga rioya qilinishi davlatlarning demokratlashuvi, shuningdek davlatlararo munosabatlarning sivilizatsiyalashganligi ramziga aylandi. Ular shaxs va hokimiyatning o‘zaro munosabatlarida uning ustun rolini e‘tirof etgan holda ezgulik, adolat, erkinlik, tenglik, demokratizm, rahm-shafqat kabi universal umuminsoniy kategoriyalarni o‘zida mujassamlashtirdi. Ijtimoiy ongda inson huquqlarining vujudga kelishi va shakllanishi, ularning ruyobga chiqarishga erishilishi — aslida insoniyat tadrjijiy rivojlanish jarayoni va avvalo odamlarning jamiyatdagi o‘zaro munosabatlaridir. Patriarxat

jamiyatda oilada ota hukmronlik qilgan bo‘lsada, oila a‘zolarining huquqiy vakolat va imtiyozlarsiz oila mavjud bo‘la olmagan. Patriarxat davridayoq ayol va erkaklar o‘zlaridan nasl qoldirishlari uchun juft bo‘lib yashash orqali huquq va majburiyatga ega bo‘lish kerakligini tabiatning o‘zi isbotlab berdi. Ammo bu ongli ravishda amalga oshmay, barcha jonzotlar singari nasl qoldirish tuyg‘usi orqali amalga oshirilgan edi[1]. Patriarxat davriga kelib, endi nafaqat biologik, balki ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy ehtiyojlar jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan oilani takomillashishiga olib keladi. Oilani tashkil qilish mexanizmining rivojlanishida asosiy o‘rin oila a‘zolarining o‘zaro huquq va majburiyatlariga tegishli bo‘lgan. Oila a‘zolarining o‘zaro xatti-harakatining murakkab mexanizmi bo‘lgan oila a‘zolarining o‘zaro huquq va majburiyatlarini o‘rganish, avesto davri oilasining

mazmun-mohiyatini ochib berishda muhim rol o'ynaydi. Qanchalik mantiqqa zid bo'lmasin, aytish joizki, inson huquqlarining vujudga kelishida uning normal hayotiy faoliyatiga nisbatan turli tahdidlar[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Inson hayoti ming yillar davomida xavf-xatarlarga duchor bo'lgan, qadr-qimmatini poymol qilingan. Unga javoban tabiiy ravishda odamlarning tengligi, ularni kamsitish, shafqatsizlik, zo'rvonliklardan himoya qilishning insonparvarlik g'oyalari tug'ilgan hamda qaror topgan va h.k. Tarixdan ma'lumki, insoniyat inson huquqlarini saqlab turish va himoya qilish uchun maxsus sa'y-harakatlar talab etiladigan vaziyatga tushib qolmasligi uchun har bir avlod inson huquqlarini yangidan qayta-qayta himoya qilaverishi kerak. Inson huquqlarining ilk bor mustahkamlanishi milliy xartiyalar, deklaratsiyalar, konstitutsiya normalari shaklida amalga oshirilgan. 1789 yildagi Inson va fuqaro huquqlari fransuz deklaratsiyasi ancha ta'sirchan qonunchilik hujjati bo'lib xizmat qiladi va uning tarixda shaxs huquq va erkinliklarining e'tirof etilishi va himoyasining muhim belgisi bo'lganligi bejiz emas. Deklaratsiyadagi demokratik tezisning e'tiborga molik jihati shundaki, unga ko'ra, huquqlardan foydalanish ta'minlanmaydigan, hokimiyatlar bo'linishi amalga oshirilmagan jamiyat konstitutsiyaviy hisoblanmaydi (16-m.). Shaxsiy hayot, mulk, xavfsizlik sohasidagi, hokimiyatning javobgarligi, jumladan diniy va boshqa fikr-mulohazalar tabiiy, ajralmas va muqaddas huquq va erkinliklarga kiritilgan. Fransuz Deklaratsiyasi bilan bir qatorda tarixda inson va fuqaro huquqlari ifodalangan ingliz Xabeas Korpus Akti, Amerika Qo'shma Shtatlarining Mustaqillik deklaratsiyasi, AQSH Konstitutsiyasi va huquqlar to'g'risidagi Bill hamda boshqa bir qator hujjatlar ham muayyan ahamiyatiga ko'ra ajralib turadi. XX asrning boshlarida shaxs va davlat o'rtasida asosiy huquq va erkinliklarning e'tirof etilishiga asoslangan shartnoma munosabatlari prinsipi Yevropa, Lotin Amerikasi va mustamlakachilik asoratidan xalos bo'lgan bir qator Osiyo davlatlarida qonuniy asosda qabul qilindi. Ushbu jarayon asta-sekin mustaqillikka erishgan Afrika va Osiyo davlatlariga ham yoyildi. Ayniqsa, kishilarning bir davlat kuchi bilan huquq va erkinliklarni to'liq va kerakli darajada himoya qilib bo'lmasligiga ishonchi orta boshladi. Xalqaro gumanitar aloqalarga bo'lgan ehtiyoj tobora o'sib bordi. Inson huquqlarining, birinchi navbatda, har kimning yashash huquqini dahshatli va ommaviy ravishda buzilishiga olib kelgan Ikkinchi jahon urushi mazkur sohada davlatlar va xalqlarning o'zaro keng hamkorligiga aylanib, inson huquqlarining baynalmillatlashuvida keskin burilish pallasi bo'ldi. 1945 yili Birlashgan Millatlar Tashkilotini tuzilishning asosiy maqsadlardan biri Inson huquqlari va asosiy erkinliklari uning irqi, jinsi, tili va e'tiqodidan qat'i nazar hamma uchun bir xilda hurmat qilinishini rag'batlantirish va rivojlantirish ekanligi bejiz emas[2]. 1948 yilning 10 dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan tom ma'noda tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim hujjat — Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi e'lon qilindi. Uning matni insoniyat oilasining hamma a'zolariga xos qadr-qimmat va ularning teng, ajralmas huquqlarini tan olish erkinlik, adolat va yalpi tinchlik asosi ekanligidan iborat insonparvarona iboralar bilan boshlanadi. Deklaratsiya rasman yuridik majburiy hujjat hisoblanmasa-da, ammo aksariyat ko'pchilik davlatlar tomonidan umume'tirof etilganligi bois, u hozirgi kunda tom ma'noda shunday hujjatga aylandi. Keyinchalik BMT boshchiligidagi inson huquqlariga bag'ishlangan o'nlab boshqa bir qator hujjatlar qabul qilindi. Ular qatorida Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro pakt (unga 1966 yildagi tegishli fakultativ protokolni ham qo'shib) va Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro pakt alohida ahamiyatiga ko'ra ajralib

turadi. Ular shartnomalar sifatida namoyon bo'ladi va ishtirokchi tomonlar uchun majburiy yuridik kuchga ega bo'lib, ularning har biri rasmiy ravishda mazkur hujjatlarining qoidalari rioya qilishga rozi bo'ladi. Yuqorida zikr etilgan Deklaratsiya va Paktlar yig'indisi Inson huquqlari to'g'risidagi Xalqaro Bill deb ataladi. U ijtimoiy turmushning barcha sohalari individning eng muhim huquq va erkinliklari ro'yxatini o'z ichiga oladi va davlatlarning shaxsning huquqiy maqomini qonuniy mustahkamlashiga yo'naltirilgan umumiy demokratik andoza sifatida xizmat qiladi. Bu o'rinda yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik, qiynoq hamda boshqa shafqatsiz muomala va jazo turlaridan ozod bo'lish; sud orqali himoyalani; erkin harakatlanish va yashash joyini tanlash erkinligi; turar joy daxlsizligi; so'z erkinligi; vijdon va din erkinligi, tinch yig'ilishlar erkinligi, mulkka egalik qilish huquqi, mehnat, dam olish, ijtimoiy ta'minot, bilim olish va boshqa shu kabi huquqlar to'g'risida so'z yuritiladi[3]. Aytish joizki, "inson huquqlari" va "inson erkinligi" tushunchalarining muvoziy ravishda ishlatilishi ular o'rtasida qat'iy farq borligini bildirmaydi. Insonning shaxsiy va siyosiy turmush sohasidagi ayrim qonuniy huquqlari davlatning asossiz aralashuvidan himoyalani maqsadida tarixan erkinlik sifatida shakllangan. Endilikda dunyodagi aksariyat ko'pgina mamlakatlarning konstitutsiyaviy qonunchiligidan inson huquqlari to'g'risidagi asosiy xalqaro hujjatlar mos keladigan insonning asosiy huquq va erkinliklari ro'yxati joy olgan. Ular davlatlar tomonidan yuridik mustahkamlangan boshqa huquqlar bilan birgalikda u yoki bu mamlakat inson va fuqarolarining huquq va erkinliklari ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bunda muayyan-tarixiy va milliy xususiyatlar, iqtisodiy va siyosiy-huquqiy tuzilish, axloqiy an'analar va shu kabilar hisobga olinadi. Bu yerda "inson huquqlari" va "fuqaro huquqlari" tushunchalarining asoslantirilgan mutanosibliyoti yotadi.

Tahlil va natijalar. Hozirgi zamon tushunchasida "inson huquqlari" va "fuqaro huquqlari" zamonaviy tushunchada u yoki bu mamlakatning qonunlarida mustahkamlanganligi, shaxsning fuqaroligidan qat'i nazar, umumijtimoiy, falsafiy, axloqiy, tabiiy ravishda vujudga keluvchi va ajralmas qat'iy-yuridik mezon sifatida e'tirof etiladi[4]. Fuqaro huquqlari faqat muayyan davlatning normativ hujjatlari bilan o'rnatiladi va bir vaqtning o'zida uning ma'lum fuqarolik majburiyatlari ham belgilab qo'yiladi. Tabiiy huqlarni tan olmagan holda, ularni o'zboshimchalik bilan cheklash, amalga oshirildishiga to'sqinlik qilish, asossiz ravishda taqiqlar kiritish orqali har qanday davlat, agar bunday taqiqlarni normativ ravishda qonunlashtirsa, qonunga xilof foliyat yuritgan bo'ladi. Agar, hatto inson huquqlari umuman milliy qonunchilikda mustahkamlanmagan bo'lsa ham ular yuridik kuchidan, yuksak ma'naviy salohiyatidan mahrum bo'lmaydi. Xalqaro huquqda e'tirof etilganidek, ularsiz individ umuman mukammal hayot kechira olmaydi. Inson huquqlari sohasidagi cheklash haqida so'z yuritganda, bu haqida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 29-moddasida umumiy tartibda quyidagilar keltirib o'tilgan:

1. Har bir inson jamiyat oldida burchlidir, faqat shu holatdagi uning shaxsi erkin va to'liq kamol topishi mumkin.

2. Har bir inson o'z huquqi va erkinliklaridan foydalanishda o'zgalarning huquq va erkinliklarini demokratik jamiyatda yetarli darajada bo'lishini hamda hurmat qilinishini ta'minlash, axloq, jamoat tartibi, umum farovonligining odilona talablarini qondirish maqsadidagina qonunda belgilangan cheklanishlarga rioya etishi kerak.

3. Ushbu huquq va erkinliklarni amalga oshirish Birlashgan Millatlar Tashkilotining maqsad va prinsiplariga aslo zid bo'lmasligi kerak. Ota-onalarning bolalarni himoya qilishga majburiyligi, hozirda ham eng dolzarb muammo-

lardan biri bo'lib, dunyoning ko'plab mamlakatlarining qonunchiligida o'z tasdig'ini topgan.

“Bolalar sog'lig'ini himoyalash va ularning o'sishini ta'minlash” haqidagi 1990 yil 30 sentyabrda qabul qilingan Umumjahon Deklaratsiyaning 18-moddasida: “Jamiyatning barcha muassasalari, ota-ona va boshqa vasiylarning bolalarini oila sharoitida boqish va ularga g'amxurlik ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan urinishlarni hurmat qilishlari va qo'llab-quvvatlashlari zarur” deyiladi. “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning 25-moddasining birinchi qismida “Har bir inson o'zining hamda oilasining salomatlik va farovonligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan turmush darajasiga ega bo'lish, jumladan kiyim-kechak, oziq-ovqat, tibbiy xizmat va zarur ijtimoiy xizmatga ega bo'lishga hamda ihsizlik, kassalik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga bog'liq bo'lmagan sharoitlarga ko'ra tirikchilik uchun mablag' bo'lmay qolgan boshqa hollarda ta'minlanish huquqiga ega”, — deyiladi “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning 25-moddasining ikkinchi qismida. “Onalik va bolalik alohida g'amxurlik va yordam[3] huquqini beradi. Barcha bolalar, nikohda yoki nikohdan tashqarida tug'ilishdan qati nazar, bir xil ijtimoiy himoyadan foydalanishi kerak. Ota-ona o'z burch va majburiyatlarini to'g'ri anglagan holda, bolaning rivojlanishiga shart-sharoit yaratmoqlari lozimligi O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida mustahkamlab qo'yilgan. Jumladan, Oila kodeksining 11-bobida voyaga yetmagan bolalarning oilada yashash huquqi, ota-onalarning bag'rida, qarindosh-urug'i qamrovida tarbiyalanish, o'z ism-familiyasiga ega bo'lish va uni o'zgartirishga doir huquqlari qonunlashtirilgan. “Voyaga yetmagan bola qonunga muvofiq to'la muomala layoqatiga ega deb e'tirof etilsa, u o'z huquq va majburiyatlarini, shu jumladan himoya huquqini mustaqil amalga oshirishga haqlidir”.

Xulosa va takliflar. Inson huquqlari barcha huquq sohalari qaranganda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki unda butun insoniyatning hayoti, erkinligi, qadr-qimmat, shaxsiy mustaqilligi kabi asosiy qadriyatlar alohida to'la mujassamlashadi. Ushbu qadriyatlar inson huquqlarida o'zining normativ mustahkamlangan aksini topib huquqiy vositalar va institutlar ko'magida amalga oshirilishi kafolatlanadi[5]. Ammo inson huquqlari konsepsiyasining ichki mazmuni va maqsadi faqatgina qonuniy tartibga solishning tor doirasi bilangina cheklanib qolmaydi. Sivilizatsiyalashgan jamiyatda inson huquqlarini ta'minlashni huquqiy usullari standartlar va umumiy hayot normadagi muammolarining muhim qismi hisoblanadi[6]. Shunday qilib, inson huquqlarini samarali tarzda amalga oshirish eng avvalo bu huquqlarni rag'batlantirish va himoya etish uchun milliy infratuzilmalar yaratishni taqozo etishi aniq-ravshan ko'rinib turgan faktga aylanib bormoqda[7]. Keyingi yillarda jahonning ko'pgina mamlakatlarida zimmasiga inson huquqlarini himoya etish bilan bog'liq aniq vazifalar yuklatilgan muassasalar tashkil etildi[8]. Garchi bunday muassasalarning vazifalari har bir mamlakatda o'ziga xos bo'lib, bir-biridan farq qilsa-da, ularning hammasi bitta mushtarak maqsadga erishishni ko'zlaydi.

Inson huquqlari sohasidagi boshqa qo'shimcha huquqiy kafolatlar boshqa me'yoriyqadriyat tizimlarida va eng avvalo, axloqiy tizimda aks etadi. O'zbekiston Respublikasida inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilish borasida tizimlilik asosida ishlar olib borilmoqda, bir qator qonunchilik hujjatlarini tizimlilik ishlab chiqilgan va qabul qilingan, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish milliy institutlari tashkil etilgan va samarali faoliyat ko'rsatmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Aristotel. Politika. Afiskaya politika.–M., 1997. – S. 36. 19
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. Deklaratsiyaning 60 yilligiga bag'ishlangan nashr 1948–2008. – B. 10. 22 Ramatov, J., & Umarova, R. (2021). Central Asia in IX-XII Centuries: Socio-political Situation, Spiritual and Cultural Development. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(04), 148-151.
3. Ramatov J., Umarova, R., Baratov, R., Jurabayev, N., & Artikova, B. (2022, June). Constructive and optimal solutions for the formation of a stable ecological situation in the Aral Sea region of Uzbekistan. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 030113). AIP Publishing LLC.
4. Umarova R., Tuhtaboev, E., & Temirova, S. (2022). Scientific and Theoretical Bases of Beruni's Natural Philosophy. *European journal of business startups and open society*, 2(1), 13-15.
5. Ramatov, J., Umarova, R., Baratov, R., Khasanov, M., Sultonov, S., & Kushakov, F. (2022). Problems of influence of islam on consciousness transformation. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 591-597.
6. Ramatov J., & Umarova, R. (2020). Theoretical and ideological sources of beruni's philosophical views. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 1974-1980.
7. Ramatov J., & Umarova, R. (2021). Central Asia in IX-XII Centuries: Socio-political Situation, Spiritual and Cultural Development. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(04), 148-151.



UDK: 327(575.1)(092)

Dilorom RAXIMBAEVA,
ISTF institutining katta o‘qituvchisi t.f.n., (PhD)
E-mail: rahimbaevadilorom59 @ gmail.com

Professor Z.Ilxomov taqrizi asosida

FEMALE DIPLOMAT FROM UZBEKISTAN

Annotation

The article examines the issue of the activities of Zuxra Rakhimbabaeva. She is a female diplomat with the rank of Advisor, working in international organizations, in the system of the USSR Ministry of Foreign Affairs and the Ministry of Foreign Affairs of the Republic. Her contribution to the cultural development of the Republic, including the warm relations between India and Uzbekistan during Soviet times.

Key words: Diplomat, Ministry of Foreign Affairs of the USSR, Ministry of Foreign Affairs of the Uzbek SSR, minister-councillor, international women's committee, cultural connections, India, visit.

ЖЕНЩИНА-ДИПЛОМАТ ИЗ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В статье рассматривается вопрос о деятельности Зухры Рахимбабаевой. Она является женщиной-дипломат в ранге Советника, работе в международных организациях, в системе МИД СССР и МИД республики. Её вклад в культурное развитие Республики, в том числе теплых отношений между Индией и Узбекистаном в советское время.

Ключевые слова: Дипломат, Министерство иностранных дел СССР, Министерство иностранных дел Узбекской ССР, международные организации, культурные связи, женщины, Индия.

O‘ZBEKISTONLIK DIPLOMAT AYOL

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek xalqining diplomat qizi Zuxra Rahimboboeva haqida fikr yuritiladi. Uning mustabid sovet tuzumi davrida tashqi siyosat va diplomatiya sohasining yuqori cho‘qqisini egallagan, Xalqaro tashkilotlarda faoliyat ko‘rsatgan va faoliyati davomida Hindiston va O‘zbekiston mamlakatlari o‘rtasidagi aloqalarni yanada rivojlantirishga qo‘shgan salmoqli xissalari tilga olinadi.

Kalit so‘zlar: Diplomat, maslahatchi-vakil, SSSR Tashqi ishlar ministrligi, O‘zbekiston SSR Tashqi ishlar ministrligi, xalqaro tashkilot, madaniy aloqalar, Xindiston, tashrif.

O‘zbek diplomatiya xizmati tarixidan Davlat arbobi, diplomat Zuxra Raximboboeva tavalludining 100 yilligiga bag‘ishlanadi

Joriy yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 24 iyun sanasi Xalqaro diplomat ayollar kuni deb e‘lon qilinishi davlatlarning barqaror rivojlanish, tinchlik va demokratiyaga erishish yo‘lida qo‘yilgan muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Diplomatiya xizmati sohasida ham ko‘plab xotin-qizlarning o‘z bilim va salohiyatlarini namoyon etayotganlari hamda bu sohada keng ko‘lamli faoliyat olib borayotganlari ma‘lum. Ushbu holat bugungi kunda davlat boshqaruvi tizimida, dunyoda tinchlikni ta‘minlash va bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishda diplomat ayollarning roli yanada ortib borayotganligi bilan izohlanadi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash borasida olib borilayotgan tub islohotlar va bu borada erishilayotgan yutuqlar haqida gap borganda, avvalo hotin-qizlarning o‘qishi, bilim olishi, mehnat qilishi, ularning sog‘ligini saqlash, iste‘dod va qobiliyatini ro‘yobga chiqarish, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tenglik bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli tadbirlarni alohida ta‘kidlash lozim. “Respublikamizda bu muhim masalaning amaliy ijrosiga qaratilgan 24 ta hujjat, jumladan, 2 ta qonun, 6 ta Prezident farmoni va qarori, Vazirlar Mahkamasining 16 ta qarori qabul qilindi[1].” Jamiyat hayotida faol ishtirok etib, biz uchun aytarliq yangi soha-diplomatiya sohasida ham xotin-qizlarimizning faolligini kuzatish mumkin. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya

universitetining uch yo‘nalishi- xalqaro munosabatlar, xalqaro huquq va xalqaro iqtisodiy munosabatlar fakultetlarini har yili yuzga yaqin yigit-qizlar tugatadi. Ular Tashqi ishlar vazirligi hamda turli davlat organlarida xalqaro aloqalar va tashqi siyosat borasida faoliyat olib bormoqda.

Aslini olganda, diplomat – tashqi ishlar bilan shug‘ullanuvchi idoraning chet davlatlar vakillari bilan aloqa qilish yoki muzokara olib borish uchun hukumat tomonidan vakolat berilgan lavozimli kishi hisoblanadi. Tariximizda elchiliklar, elchi, yalavoch kabi iboralar ishlatilgan. Ko‘chma ma‘noda boshqa kishilarga ustalik bilan muomalada bo‘ladigan, o‘z ishining nozik tomonlarini, qonun-qoidalarini, muzokara olib borish san‘atini biladigan kishini ham “diplomatiya” deb ataydilar.

Ma‘lumki, o‘zbek xalqining uzoq yillik tarixi jarayonida jahonga tanilgan xotin-qizlarning davlat arboblari, siyosatchi, olim, shoira, san‘atkor, qo‘shiqchi, rassom, raqqosa sifatida nomlari bugungi kunga kelib hurmat bilan tilga olinadi, e‘zozlanadi. Jumladan, Nodira, Uvaysiy, Temuriy malikalar, Z.Saidnosirova, M.Alaviya, S.G‘anieva, D.Alimova, R.Murtazoeva, D.Bobojonova, Zulfiyaxonim, Saida Zunnunova, Mukarram Turg‘unboeva, Tamaraxonim, Sora Eshonto‘raeva, Halima Nosirova, Halima Hudoyberdieva va boshqalar.

O‘z faoliyatini xotin-qizlar ozodligi, savodxonligi, xalqimiz madaniyati, ilm-fani rivojiga bag‘ishlagan va shu

bilan birga o'z davrining birinchi o'zbek diplomat ayoli, xalqaro siyosat bo'yicha mutaxassis - Zuxra Rahimboboevadir. U Favqulodda va Muxtor elchi darajasidan keyingi ikkinchi muhim Favqulodda va Muxtor Maslahatchi-vakil darajasiga ega bo'lgan, chet ellarda doimiy diplomatik xizmatda bo'lgan. Xalqaro demokratik xotin-qizlar federatsiyasida rahbarlik lavozimlarida ishlagan[2].

Zuxra Rahimboboeva Moskvadagi KPSS MK qoshidagi ijtimoiy fanlar Akademiyasini muvaffaqiyatli tugatib, tarix fanlari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini yoklaydi. Shu bilan bir vaqtda u ingliz tilini mukammal o'rganishga kirishadi[3]. Zuxraning nomzodlik dissertatsiyasi Sharq davlatlari tarixi va madaniy aloqalariga doir bo'lib, u ayniqsa Hindiston xalqi tarixi va madaniyatini sevib o'rganadi.

Asli Andijonlik Zuxra Raximboboeva (02.02.1923-07.03.1992) Toshkent pedagogika institutining matematika fakultetini imtiyozli tugatgan. U 1942-1967 yillar davomida respublikamizning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarida xizmat qilgan. Jumladan, komsomol komitetida avval instruktor, keyin viloyat komsomol komitetining kotibi, bo'lim mudiri, O'zbekiston KP MKda bo'lim mudiri, O'zbekiston KP MKning xotin-qizlar masalalari bo'yicha kotibi, KPSS MK huzuridagi ijtimoiy fanlar Akademiyasi aspiranti, O'zbekiston SSR Madaniyat ministrining birinchi o'rinbosari, O'zbekiston SSR madaniyat ministri[4] lavozimlarida xizmat qilgan.

Ma'lumki, mustabid sovet tuzumi sharoitida, hukmron tizim va yakka partiya yuritgan siyosati orqali O'zbekiston chet ellardan kelgan martabali mehmonlar uchun "gullab-yashnayotgan Sovet sharqi" deya ifoda etilgan. Respublikaga tashrif buyurgan horijiy mehmonlar, davlat arboblari tashriflari dasturi "markaz"[5] tomonidan tuzilib, yuqori martabali mehmonlarning dam olish kunlarini maroqli tashkil qilish orqali "markaz" sovet sharqining gullab-yashnayotganini ko'z-ko'z qilar edi. Odatda, tashriflar asosan shanba va yakshanba kunlariga belgilanar va mehmonlar Sharq durdonalari hisoblangan Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlarining diqqatga sazovor tarixiy obidalari bilan tanishishlari odatga aylangan edi. Aksariyat, tashrif so'nggida shahar ahli bilan do'stlik uchrashuvlari tashkil etilgan. Bunday imkoniyatdan unumli foydalangan respublikamiz davlat arboblari o'zaro tanishuv, do'stlik va xalqlar o'rtasida asosan madaniy, fan-ta'lim, san'at sohasida aloqalar o'rnatishga intilganlar.

Shunday imkoniyatlardan biri, ya'ni, 1954 yilda Respublikamizga Hindiston Premer Ministri Javoxirlar Neru qizi Indira Gandhi bilan tashrif buyuradi. O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining raisi N.Muxiddinova delegatsiyaga tashrif davomida hamrohlik qilish topshiriladi. Taniqli davlat va siyosat arbobi N.A.Muxiddinov[6] 1950 yil boshlaridan O'zbekiston KP Markaziy Komitetining xotin-qizlar ishlari bo'yicha kotibi vazifasida faoliyat yuritgan Zuxra Raximboboeva bilan zamondosh, hamda xizmat yuzasidan tadbirlarda birga ishtirok etishgan. Yuksak martabali mehmonning qizi Indira Gandhi o'zining progressiv qarashlari va yuksak salohiyati bilan siyosat ayvonida tanila boshlatgan edi. Indiraga Zuxra Raximboboeva (o'sha davrda madaniyat ministrining o'rinbosari lavozimida) bilan Yodgor Nasriddinova hamrohlik qilishadi[7]. Ingliz tilida biyron so'zlashi, Hindiston tarixi va udumlarini atroflicha o'rganagan Bobur yurtidan bo'lgan ochiq chehrali Zuxra uchun bu allohning bir in'omi bo'ldi. San'ati, madaniyati, dini biz uchun yaqin bo'lgan Hindistondan buyuk davlatning rahbari va uning qizi bilan bevosita muloqot qilib, vatani, xalqining madaniyati, tarixi, urf-odatlarini va san'ati to'g'risida gapirib berish, tanishtirish Zuxraning diplomatiya sohasidagi ilk tajribasi bo'ldi deyish mumkin.

N.Muhiddinovning eslashicha[8], tashrif davomida ajoyib voqea yuz beradi. Mehmonlarning Samarqanddagi Registon maydonida shahar ahli bilan ko'p ming kishilik uchrashuvi tashkil etiladi. Uchrashuvdan so'ng, yuqori martabali mehmonlar uchun hukumat dachasida odatimizga ko'ra dasturxon yoziladi va dasturxon atrofida viloyat rahbarlari hozir bo'lishadi. Mezbon Indira Gandiga choy uzata turib, stoldagi marinadlangan baliqli lipopchani bexosdan turtib yuboradi, lipopcha esa Indiraning egnidagi chiroyli milliy sarisiga to'kiladi. Zuxra va Yodgor o'zaro ko'z urishtirib, chaqqongina, Indirani ikki tomondan qo'ltiqlab, sekingina davradan olib ketishadi. Bir necha minutdan so'ng ikki go'zal qurshovida xon atlasda yal-yal yonib Indira jilmayib kirib keladi. Xon atlas hind qiziga juda yarashgan edi. Dasturxon atrofidaqilar bu manzarani ko'rib bir zum qotib kolishadi va birdaniga olqishlab, chapak chalib yuborishadi. Bu voqea Zuxraning hayotida muhim burilish bo'ldi va Zuxra Rahimboboeva hamda Indira Gandhi orasidagi mustahkam do'stlik, ikki xalq orasidagi o'zaro hamkorlik va muhabbat rishtalariga aylandi. Tashrif so'ngida mehmonlar odatga ko'ra, O'zbekistonliklarni Hindistonga taklif etdilar.

Shu o'rinda ma'lumot uchun quyidagi tarixiy faktlarni keltirish joiz: -birinchidan, Sobiq ittifoq davrida tashqi ishlar ministrigida sanoqli diplomatlar xizmat qilgan va asosan markaz odamlari ekanligi sir emas. Buning sababi, tashqi siyosat va diplomatiya butkul "markaz" ixtiyorida edi. Respublikamiz boshqa ittifoqdosh respublikalar singari jahonda sodir bo'layotgan siyosiy jarayonlarda ishtirok etishdan chetlatib qo'yilgani va bunday holat o'zining boy elchilik an'analari tarixiga ega bo'lgan xalqimizning diplomatiya sohasidan anchayin uzoqlashib, natijada bu sohaning rivojlanishdan ancha orqada qolishi bilan izohlash mumkin[9]. -Ikkinchidan, belgilangan kvotalarga asosan MGIMO[10], Diplomatiya akademiyani tugatgan aksariyat o'zbek diplomatik kadrlariga diplomatiya sohasida faoliyat yuritish nasib etmadi. Buning obyektiv va sub'ektiv sabablari bor va bu bizningcha alohida tadqiqot obyekti hisoblanadi. Bunday holat barcha ittifoqdosh respublikalarda mavjud edi. Yuqorida ta'kidlanganidek, tashqi siyosat va diplomatiya "markaz" qaramligi ostida bo'lgan va shunga qaramay, Respublikamizdan sanoqli diplomatlarga eng yuksak Favqulodda va Muxtor elchisi darajasiga yetgan[11]. Qozog'istonlik taniqli xalqaro-huquqshunos olim M.A.Sarsembaevning ma'lumotlariga ko'ra 1954 yildan 1990 yilning mart oyigacha 856 diplomatik martaba tayinlangan bo'lib, bular O'zbekistondan 8 nafar (0,9%), Tojikistondan 3 nafar (0,3%), Qozog'istondan 2 nafar (0,3%) ni tashkil etgan[12].

O'z faoliyatini xotin-qizlar masalalarini o'rganish va ularni hal etish masalalariga bag'ishlagan Zuxra Raximboboevaning diplomatik faoliyati 1967 yildan boshlangan. U SSSRning vakili sifatida Xalqaro demokratik hotin-qizlar federatsiyasining kotibi lavozimida 1973 yilgacha faoliyat olib bordi. Federatsiya shtab-kvartirasi Berlin shahrida joylashgan bo'lib, bu tashkilot Nizomiga asosan Xalqaro hotin-qizlar demokratik Federatsiyasi-(IDFW) irqi, millati, diniy va siyosiy qarashlaridan qat'iy nazar, ayollarni birlashtirgan xalqaro demokratik ayollar tashkiloti, ularning fuqarolar, onalar, mehnatkashlar sifatida huquqlarini himoya qilish va bu yo'lda birgalikda kurashish uchun, tinchlik, demokratiya va xalqlar mustaqilligini ta'minlash yo'lida bolalarni himoya qilish kabi qator vazifalar belgilangan. Mana shu nufuzli tashkilotda hotin-qizlar bilan bog'liq muammolar xalqaro darajada muhokama etiladi hamda hal etish yo'llari belgilab olinadi.

1973-1977 yillarda Z.Raximboboeva SSSRning Hindistondagi elchixonasida maslahatchi lavozimida faoliyat yuritadi. Bu yillarda o'zbek va hind xalqlarining o'zaro

do'stlik aloqalari ancha jonlangani, ayniqsa, madaniyat va san'at sohasida qator tadbirlar tashkil qilinganini eslash joiz. 1977-1981 yillarda SSSR tashqi ishlar ministrligi apparatida Lotin Amerikasi davlatlari bilan madaniy va iqtisodiy hamkorlik bo'limi boshlig'i vazifasida ishlagan.

Diplomatik unvonga ega bo'lgan birinchi o'zbek diplomat ayol.

Bir necha yillar davomida u Sovet-Hindiston va Sovet-Meksika do'stlik jamiyatining vitse-prezidenti bo'lgan. U SSSR Oliy Kengashining 5 va 6-chaqiriqlari deputati etib saylangan. KPSS MKning XX va XXI s'ezdi delegati. Besh marta O'zbekiston SSR Oliy Kengashiga deputat etib saylangan.(3,4,7,10 va 11 chaqiriqlar).

1986 yildan to umrining oxiriga qadar "Vatan" jamiyati Prezidiumi raisining birinchi o'rinbosari lavozimida xizmat qilgan.

Zamondoshlaridan faylasuf olim, qadrlil ustozim, Q.Xonazarov[13] Zuxra Raximboboevani o'tkir zehni, siyosat bobida bilimli va kamtarin inson ekanligini hurmat bilan tilga olar edilar.

Zero, mustabid sovet tuzumi davrida o'zbek va hind xalqlari orasidagi iliq munosabatlar hind kinofilmlarining,

xind aktyorlari va san'atkorlarining respublikamizda keng ommalashgani va mashhurlikka erishganlari, madaniy aloqalarning rivojlanishida va bu jarayon hozir ham davom etayotganligida Zuxra Raximboboeva singari diplomatlarimizning ham unumli xissalari borligi bilan izohlanadi.

O'zbekistonlik diplomat ayol Zuxra Raximboboeva faoliyati nihoyatda samarali va ko'p qirrali. Uning hayot yo'li va diplomatik xizmat sohasidagi tajribasi tadqiq qilishga arziqli. Xalqimiz o'zining Zuxra singari qizlari bilan fahrlansa arziydi. Oxirlari obod bo'lsin.

Muallif haqida. Dilorom Vaxidovna Raximboboeva 1959 yilda Toshkent viloyatida tavallud topgan. 1992-2000 yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi arxivida ishlagan. 2000-2013 yillarda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida faoliyat yuritgan. 2007 yilda "O'zbekistonda diplomatiya xizmatining shakllanish va rivojlanish tarixi (1944-2001yillar.Tashqi ishlar vazirligi misolida)" nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Mavzuga doir 50 dan ortiq maqola va elektron o'quv qo'llanma yaratgan. 3-kotib diplomatik martabasiga ega. Ayni vaqtda ISFT institutining "Ijtimoiy fanlar kafedrasini" katta o'qituvchisi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyov Sh. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. T.:2021. -B.60.
2. IDFM- Bu tashkilot 1945 yil Parijda o'tkazilgan xalqaro xotin-qizlar konferensiyasida ta'xis etilgan.
3. Muxitdinov N.// Vernaya doch naroda.// Pravda Vostoka ot 4 fevralya 1993 g.
4. Tarixiy nomlar va lavozimlar nomi aslicha berilgan, ma'lumotlar intervyu, o'zaro suhbat, vikipediya, internet materiallaridan olindi (muallif).
5. Moskva ("Sentr")nazarda tutilmoqda.
6. Muxiddinov Nuriddin Akramovich (19.11.1917-27.08.2008 yy.Toshkent shahri), 1968-1977 yillarda SSSRning Suriyadagi Favqulodda va Muxtor elchisi lavozimida ishlagan.
7. Jenskiy protokol -ya'ni ayol davlat boshliqlari, davlat boshliqlarining rafiqalari yoki qizlariga tashrif davomida hamrohlik qilish diplomat ayollar tomonidan amalga oshiriladi.
8. Muallifning N.Muhiddinov bilan 1998 yil may oyidagi suhbat asosida.
9. *Qarang*:.Raximbaeva D.V. O'zbekistonda diplomatiya xizmatining shakllanish va rivojlanish tarixi (1944-2001 yillar.Tashqi ishlar vazirligi misolida).Tarix fan.nomz...avtoref. -T.:2007. 15-b.
10. Moskva davlat xalqaro munosabatlar instituti 1944 yilda tashkil etilgan va 4 ta: xalqaro munosabatlar, xalqaro iqtisodiy aloqalar, xalqaro huquq va jurnalistika fakultetlaridan iborat.
11. Abdurazzoqov B.A.,Abdurashidov G'.M., Maqsudov L.M, Qo'chqorov A.M., Muxiddinov N.A., Azimov S.O., Nishonov R.N.
12. Qarang:Sarsembaev M.A. Mejdunarodno-pravovye otnosheniya gosudarstv sentralnoy Azii. Алматы, ГЫЛЫМ,1995. 368 s.
13. Qo'chqor Xonazarov (1922-2019yy.) MGIMO ni tugatgan.Taniqli olim, falsafa fanlari doktori, professor, "Ustoz" faxrli unvoni va "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi"unvonlari sohibi.



UDK:378.091.39:811'233

Shaxribonu RAXIMOVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti doktoranti

E-mail:raximovashaxribonu8@gmail.com

O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi dotsenti v.b., PhD D. Sagdullayeva taqrizi asosida

RETSEPTIV TIL KO'NIKMALARINI O'QITISH XUSUSIYATLARI

Annotsatsiya

Mazkur maqolada chet tilida retseptiv til ko'nikmalarni o'qitish va uning xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Unda tilni retseptiv bilishga o'qitish metodlari bo'yicha olimlarning qarashlari, bu ko'nikmaning umumiy tasnifi va jihatlari, nutq faoliyatining talqini hamda tinglab tushunish va o'qish ko'nikmalarining har biriga alohida to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: O'qish ko'nikmasi, metodika, retseptiv ko'nikmalar, tinglab-tushunish ko'nikmasi, ta'lim sifati, malaka.

FEATURES OF TEACHING RECEPTIVE LANGUAGE SKILLS

Annotation

This article discusses teaching receptive speech skills in a foreign language and its features. It examines the views of scientists on methods of teaching receptive knowledge of language, the general classification and aspects of this skill, the interpretation of speech activity, as well as each of the listening and reading skills separately.

Key words: Reading skills, methodology, receptive skills, listening skills, quality of education, qualifications.

ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ РЕЦЕПТИВНЫМ ЯЗЫКОВЫМ НАВЫКАМ

Аннотация

В данной статье рассматривается обучение рецептивным речевым навыкам на иностранном языке и его особенности. В ней рассматриваются взгляды ученых на методы обучения рецептивному знанию языка, общую классификацию и аспекты этого навыка, интерпретацию речевой деятельности, а также каждый из навыков аудирования и чтения отдельно.

Ключевые слова: Навыки чтения, методология, рецептивные навыки, навыки аудирования, качество образования, квалификация.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida "Oliy ta'lim muassasalarida chet tillarni o'qitish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar dasturi" ishlab chiqilgan bo'lib, unda chet tillar bo'yicha Davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari va dasturlarini takomillashtirish va bosqichma-bosqich o'quv jarayoniga tatbiq etish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Yevropa Kengashining "Chet tilini egallash umumevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash" to'g'risidagi hujjatida til egallashga qo'yiladigan talablar va mezonlar e'tiborga olingan holda O'zbekiston uzluksiz ta'lim tizimida chet tillarini o'rganishning yagona maqsad va vazifalari belgilanib, chet tillari bo'yicha ta'limning barcha bosqichlari bitiruvchilari tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan Davlat ta'lim standarti talablari ishlab chiqilgan[1].

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining rivojlanishi tahlili uning jahon ta'lim makoniga integratsiyalashuvining barqaror tendensiyasi mavjudligini ko'rsatadi. Xorijiy tillarni talabalarga o'qitishda retseptiv til ko'nikmalari va ularni o'ziga xos xususiyatlari va ular o'zaro bog'liq va doimo bir birini to'ldirib turadi. Talabalarda tilni qabul qilish jarayonini osonlashtirish maqsadida o'qish va tinglash ko'nikmalarini motivatsion metodlar orqali etkazish maqsadga muvofiqdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Chet tilini o'qitishda retseptiv ko'nikmalar masalalari J.Jalolov, O.U.Avlayev, S.N.Jurayeva, S.R.Mirayeva L.A.Nacharova,

A.A.Krasnoborova, G.Palmer kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida muhokama qilingan.

Tahlil va natijalar. Tilni o'rganishda istalgan maqsadga erishish yo'li bu- muloqotdir. Biroq, so'nggi paytlarda ushbu majoroning kuchliligiga qaramay, aksariyat ta'lim muassasalari, universitetlar, markazlarda xorijiy tillarni o'rgatishda grammatika va tarjima uslubiga moyillik mavjud. O'qish va eshitish qabul qiluvchi ma'lumotlardan sanaladi. Akademik tadqiqotlardan ma'lumki, bu 2 ta maharot yuqori darajadagi qiyinchilikda fikrlash ahamiyatlariga muhtojdir. Biroq ular orasidagi asosiy farq- (eshitish mahoratida) talaffuz qiluvchi so'z to'g'ridan - to'g'ri uning nutqi izi yashirin qolganda, yozilgan so'z esa talaba ko'z oldida ko'rinib turuvchidir. Unga xohlagan vaqtda qayta murojaat qilishi va u haqida o'ylashi, shuningdek, matnni toki tushungunicha takrorlashi mumkin. Ehtimol, o'qish maharoti to'rtta ko'nikmalar orasida mustaqil o'rganishga undaydigan maharotlardan biridir. Bu maharot o'quvchiga sherik bo'lishini lozim qilmaydi. Holbuki, talaba o'qish jarayonini o'zi mustaqil amalga oshira oladi. O'zi munosib ko'rgan joyda, munosib vaqtda va muddat ichida, sinf ichida-yu tashqarisida o'qishi mumkin. Bunga qo'shimcha ravishda, o'qish ko'nikmasi o'qituvchi va talaba uchun oson tanlanuvchi ko'nikmadir.

Chunki o'qituvchiga bu uslubda o'rgatishning osonligi hamda talabalarga o'rgatishlikda grammatika qoidalarini yaxshi bilishlik va so'zlarni tarjima qilishdagi mahorat lozim bo'lganidek, yuqori darajadagi pedagogik mahorat talab qilinmaydi. O'qish matnini o'quvchilarga o'rgatish endi matnni o'qish va uni o'quvchining ona tilisiga tarjima qilishga, tuzulmalarni tushunishning bir qator muhim

qoidalariga e'tibor qaratishga asoslanmaydi. O'quvchining matni tushunganini tasdiqlaydigan ba'zi savollar tug'ilishi mumkin, lekin bularning barchasi o'quvchining ona tilisida bo'ladi.

Bizda mavjud bo'lgan adabiyotlarni tahlil qilish retseptiv leksik ko'nikmalarni shakllantirish qonuniyatlarini o'rganishda uchta asosiy muammoni aniqlashga imkon berdi:

1. Leksik ko'nikmalarni aniqlash va tavsiflash muammosi.

2. Leksik mahoratning tuzilishi muammosi.

3. Leksik malakalarning shakllanish bosqichlarini aniqlash muammosi[2].

Tilni retseptiv bilishga o'qitish metodlari bo'yicha olimlarning o'z qarashlari mavjud. M. Uest o'z tizimini qayta ishlab chiqdi. U "o'qishni o'qib turib o'rgan" tezisini ko'tarib chiqdi, matnlarga e'tibor beradi, zero ular (o'qituvchi emas) o'quvchilarga o'rgatadi. Darsda o'quvchining asosiy faoliyat turi - o'qishdir, shuning uchun M. Uest matnlarning tuzilishiga asosiy e'tiborni qaratadi, zero o'quv jarayonini boshqarish, uning fikricha, darslik orqali amalga oshiriladi (o'qituvchi faqatgina darsni boshqarish lozim bo'ladi).

Bu maqsadga erishi uchun M. Uestning fikricha, ishning maktabda odat bo'yicha qabul qilingan yaroqsiz ko'rinishidir: va ovoz chiqarib o'qish va "kuzatuvchi o'qish" (m. Uestni kiritgan atama) o'quvchini har bir so'zga diqqat qilishga o'rgatadi, bu esa ravon o'qish rivojiga to'siq bo'ladi.

Shuning uchun ishning asosiy qabuli sifatida izlovchi o'qishni qo'lash taklif etiladi, u orqali o'quvchi ko'zi bilan matni muayyan fikr yoki fakti izlab ko'rib chiqadi. Matnlarda ikki funktsiya o'rin oladi: a) o'quvchilarda izlovchi o'qish malakasini shakllantirishning asosiy chertasi deb M. Uest ravonlik va izchill tushunish deb hisoblaydi. b) o'quvchilarda lug'atni yig'ib borish, bu uning fikricha, o'qishga o'rgatishdagi asosiy muammolardan hisoblanadi.

O'qish - bog'liq nutq qobiliyatlari va til ko'nikmalarini shakllantirish va nazorat qilish vositasidir, masalan: - o'qishdan foydalanish til materialini o'rganish jarayonini optimallashtirish imkonini beradi; lug'at va grammatika, tinglash, yozish va gapirishni nazorat qilish bo'yicha muloqotga yo'naltirilgan vazifalar o'qish qobiliyatini talab qiladi va yozma matnlarda va ko'rsatmalar asosida tuziladi; - barcha til va nutq qobiliyatlari va qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun mashqlar ham matn va mashqlar va topshiriqlar bo'yicha yozma ko'rsatmalar asosida quriladi[3].

Tinglash malakasi muloqot jarayonida eng muhim lingvistik qobiliyatlardan biridir. Bu o'quvchilarga boy va xilma-xil lingvistik ma'lumotlar bilan tanishish imkoniyatini beradi va ularga amaliyotda yordam beradi. Tinglash jarayoni tinglovchi nutqni qabul qilib, tushunish bosqichiga yetgan vaqtdan boshlab boshlanadi. Uning eshitishi tafsilotlarni tushunish yoki "pastdan yuqoriga tushunish" kabi bir-biriga bog'langan ikkita jarayonga asoslanadi[4].

Eshitish-akustik o'lchovni idrok etish, tinglash, tinglashdan tashqari, eshitishni, ya'ni qabul qilingan ma'lumotni tushunish va izohlashni o'z ichiga oladi. Tinglash nutq faoliyatining mustaqil turi bo'lishi mumkin (masalan, hisobotlarni, filmlarni tinglash) yoki nutqning tomonlaridan biri bo'lgan retseptiv komponent sifatida dialogik muloqotga kirishi mumkin. Tinglash nutqdan farqli ravishda nutq faoliyatining retseptiv turi hisoblanadi. Uning oqimining shakli ichki, ifodalanmagan. Biroq, tinglovchi muloqotga ta'sir qiladi: uning reaksiyasi (kulgi, mulohazalar, imo-ishoralar) darhol ta'sir qiladi. Shunday qilib, tinglash nutq faoliyatining reaktiv turidir. Nutq faoliyatining keyingi talqini L.S.Vygotskiy va A.N. Leontievning psixologik asarlari bilan bog'liq.

XX-asr 70-yillarning o'rtalaridan boshlab. "muloqot faoliyati" tushunchasi kiritildi. Tinglash to'g'ridan-to'g'ri, kontaktli (dialogik muloqot) va bilvosita, masofaviy (radio, televizor) bo'lishi mumkin. Tinglash nutq faoliyatining murakkab turidir, chunki haqiqiy muloqotda tinglash jarayonlari qaytarib bo'lmaydigan bo'lib, ularni tahlil qilib bo'lmaydi. Yangi ma'lumotlar eskining o'rnini egallaydi, aytilgan narsa qaytarib bo'lmaydigan tarzda yo'qoladi. Ko'pincha eshitilgan narsa haqida o'ylash uchun vaqt etarli emas va shuning uchun ko'pincha tushunishga erishilmaydi va muloqot jarayoni buziladi.

O'qish - fonemaning grafik ekvivalentlarini idrok etish va shifrlash va yozma gaplarni tushunishga qaratilgan nutq faoliyatining bir turi. O'qishning maqsadi - qayta ishlash va undan keyingi foydalanish uchun matndan ma'lumot olish. Shunday qilib, o'qish - bu turli xil ta'lim vaziyatlari va turmush sharoitlarida foydalanish uchun yangi ma'lumotlarni olish usulidir[5].

Kommunikativ-undividual o'qitish turi - ta'lim shaxsni jamiyat ideali sifatida shakllantirishga qaratilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, ta'lim va tarbiya vazifalari nutq qobiliyatlari va qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida hal qilinadi, boshqacha aytganda, kommunikativ ta'lim asosida shaxsni rivojlantirishga qaratilgan.

Individual o'qish deganda biz barcha o'quvchilarda uchun majburiy, darslikka qo'shimcha ravishda mazmunli ma'lumot olish uchun doimiy va ko'p o'qishni tushunamiz. Ushbu o'qish doimiy va majburiy bo'lishi uchun uni amalga oshirish mumkin bo'lishi kerak. Shuning uchun matnlarda badiiy, ijtimoiy, siyosiy va ilmiy ommabop adabiyotlardan engil (moslashtirilgan) bo'lishi kerak, asosan talabalarga tanish bo'lgan leksik va grammatik materiallarni o'z ichiga oladi. Demak, individual o'qishning asosiy maqsadi chet tilidagi matnlardan ma'lumot olishdir. Shu bilan birga, uyda tizimli va individual o'qish lug'at boyligini oshirish, o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning muhim manbai va vositasidir.

Til o'qish malakasi va ehtiyojlarini rivojlantirishda, o'quvchilarda o'qishning psixofiziologik mexanizmlarini faoliyat, jarayon sifatida shakllantirish, shuningdek, o'qiganlari asosida o'quvchilarning og'zaki va nutqiy ko'nikmalarini takomillashtirish. O'qish uchun matnlarni tanlash mezonlari. Uyda o'qishni tashkil etish bilan bir qatorda o'qish uchun mo'ljallangan o'quv materiallarining mazmuni ham muhim ahamiyatga ega.

Xorijiy tilni asosiy darajada o'rganish natijasida talaba - bilish: - ta'limning ushbu bosqichi mavzusiga oid yangi leksik birliklarning ma'nolari va tegishli muloqot holatlari, shu jumladan baholovchi lug'at, nutq odobining replika-klishelari; - o'rganilayotgan grammatik hodisalarining kengaytirilgan hajmdagi ma'nosi; - maktab o'quvchilarning ijtimoiy tajribasini boyitgan, haqiqiy manbalardan olingan mamlakatga xos ma'lumotlar; imkoniyatiga ega bo'lish: - rasmiy va norasmiy muloqot holatlarida (o'rganilayotgan mavzular doirasida) qimmatli fikrlardan foydalangan holda dialog o'tkazish; - o'zingiz, rejalarinigiz haqida gapirish; - o'rganilayotgan mavzu va masalalar doirasida atrofingiz, mulohazalarinigiz haqida gapirish; - o'z mamlakati va o'rganilayotgan til mamlakatlarining ijtimoiy-madaniy portretini taqdim etish hisoblanadi.

Xulosa. O'tmishda esa, chet tillarini o'qitish sohasida ustunlik qiluvchi "grammatika va tarjima uslubi" o'qish ko'nikmasiga tayanar edi. Tilni o'rgatishda birgina o'qish mahorati bo'lgan. Chunki, o'sha davrda til o'rgatishning maqsadi - o'qish matnini tarjima qilish qobiliyati bilan to'liq tushunish hisoblangan. Bu to'liq tushunish lug'at va tuzilma (ibora)larni tarjima qilish, grammatikani o'zlashtirish orqali hosil bo'lgan. O'qish matni va u bilan shug'ullanish uslubi

grammatika va tarjima uslubining asosi hamda unga kirish yo'lidir.

Hozirgi vaqtda esa xorijiy tilni o'rgatishda tarjima va grammatika usuli hali ham keng tarqalgan. Darhaqiqat, uning yaqin o'tmishdagi kommunikativ aloqasi bahsi o'qish matnini shunchaki, ibora va so'zlarni tarjima qilish va grammatika orqali tushunishdan til o'rganuvchisida to'rtta ko'nikmani qamrab olgan malaka hosil bo'lishiga o'zgardi. Chet til

o'rganish ko'p qirrali talimot bo'lib, bu jarayonda inson murakkab psixologik o'zgarishlarni boshdan kechiradi. Jumladan ona tili bilan chet tilini taqqoslash jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayonda o'rgatishning turli metod va texnologiyalaridan foydalaniladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida chet tilida retseptiv ko'nikmalarni ona tili bilan taqqoslab o'rgatish samarali natija beradi.

ADABIYOTLAR

1. Suvonova.N.N."Xorijiy til o'qitishda talabalar bilimni baholash", Samarqand-2014,5-bet.
2. Дмитрусенко Инна Николаевна. Обучение иноязычной рецептивной лексике студентов психологических факультетов в процессе самостоятельного чтения.
3. Методика обучения иностранным языкам» — Соловова Елена Николаевна.стр-272 (2008)
4. Красноборова Анастасия Андреевна.Пермь 2010.
5. Начарова Л.А. Способы чтения и показатели их оценивания в современной начальной школе. ФГБОУ ВО «Кубанский государственный университет»



UDK:37.03

Gulnora RIZAYEVA,
"Alfraganus University" NOTT p.f.f.d (PhD)
E-mail: gulyazakirova2787@gmail.com

MTTDMQTMOI p.f.f.d (Phd) D.Salimova taqrizi asosida

SPECIFICITY OF THE DEVELOPMENT OF THE INTEGRATION OF PRESCHOOL EDUCATION AND PEDAGOGICAL COLLEGES ON THE BASIS OF A CLUSTER APPROACH

Annotation

This article will focus on the high attention to the preschool education system and significant changes in the preschool education system, an integrative approach to the development of professional competence of teachers of the preschool education system in an educational cluster.

Keywords: Education cluster, professional competence, integrative approach, preschool education, interactive technologies.

СПЕЦИФИКА РАЗВИТИЯ ИНТЕГРАЦИИ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОЛЛЕДЖЕЙ НА ОСНОВЕ КЛАСТЕРНОГО ПОДХОДА

Аннотация

В данной статье речь пойдет о высоком внимании к системе дошкольного образования и существенных изменениях в системе дошкольного образования, об интегративном подходе к развитию профессиональной компетентности педагогических работников системы дошкольного образования в условиях образовательного кластера.

Ключевые слова: Образовательный кластер, профессиональная компетентность, интегративный подход, дошкольное образование, интерактивные технологии.

MAKTABGACHA TA'LIM VA PEDAGOGIKA KOLLEJLARI INTEGRASIYASINI KLASTERLI YONDOSHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimiga berilayotgan yuksak e'tibor va maktabgacha ta'lim tizimidagi sezilarli o'zgarishlar, ta'lim klasteri muhitida maktabgacha ta'lim tizimi pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga integrativ yondoshuv xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ta'lim klasteri, kasbiy kompetentlik, integrativ yondoshuv, maktabgacha ta'lim, interaktiv texnologiyalar.

Kirish. Zamonaviy axborot kommunikatsion vositalari shiddat bilan rivojlanayotgan zamonaviy dunyoda kelajak avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish maqsadida bugungi kun tarbiyachisi yuksak darajada mahoratli, kompetentligi yuqori bo'lgan raqobatbardosh kadr bo'lishi zarurdir. Aynan jamiyatning ushbu talabini qondirish maqsadida innovatsion ta'lim klasteri muhitida maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga integrativ yondoshuv muammosining yechimi, jamiyat talabiga javob bera oladigan raqobatbardosh kadrlar yetishtirish, ularni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, tarbiyachi pedagoglar salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tarbiyachining kasbiy tayyorgarligining ko'p qirrali tadqiqotlari fonida yangi ilmiy yo'nalish-pedagogik boshqaruv paydo bo'ladi. Pedagog kadrlar tayyorlashning tarixiy-pedagogik jihatlari ko'plab tadqiqotchilarning asarlarida yoritilgan: ta'lim tashkilotini pedagogik boshqarish jarayonining samaradorligiga ta'sir yetuvchi omillarni aniqlash [1]; boshqaruv tashkiliy tuzilmasiga yondashuvlarni ishlab chiqish [2]. Ta'lim tashkilotlarini pedagogik boshqarish muammolariga bag'ishlangan ushbu tadqiqotlar nafaqat tashkilot rahbarlari, balki tarbiyachilar tomonidan ham muayyan boshqaruv ko'nikma va malakalarini yegallash zarurligini ham ochib berdi.

Ammo, oliy kasbiy ta'lim tizimida bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish muammosi kam o'rganilgan, boshqaruvga oid bilimlarni o'qitishning maqsadlari, mazmuni va usullari va uni

tarbiyachining mavjud kasbiy tayyorgarligiga joriy yetish masalasi noaniqligicha qolmoqda.

Tarixiy va pedagogik adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, bo'lajak pedagoglarning sifatlari (madaniyat, halollik, xushmuomalalik, odob); ko'nikmalari (o'qitishning turli shakllaridan foydalanish, o'quv materialini o'quvchilarning individual imkoniyatlari bilan o'lchash, to'g'ri va sof fikrlash, dalillar bilan gapirish va boshqalar); funksiyalari (yelemtar bilimlarni uzatish, bolalarni foydali hayot qoidalarini o'rganishga o'rgatish) alohida muhimligi qayt yetilgan [3, 4, 5, 6].

S.L.Rubinshteyn va boshqalarning tarbiyachilarni kasbiy tayyorlash muammolariga bag'ishlangan ishlari, davlat hujjatlarini o'rganish boshqaruv jihatining avvaldan mavjudligini ko'rsatadi. Bunda nafaqat tarbiyachilar malakasini oshirish (tarqalgan boshqaruv bilimlari va individual boshqaruv malakalari shaklida) va pedagogik tadqiqotlarda, balki tarbiyachiga qo'yiladigan davlat talablarida ham ko'rish mumkin [7].

XX asr o'rtalarida bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish bo'yicha quyidagilar jadal o'rganilgan:

oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlashga qo'yiladigan talablar [8];

pedagogik faoliyat strukturasi o'rganish [9, 10]; maktabgacha ta'lim tashkilotchisini tayyorlash masalalari [11], [12] tadqiq qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Pedagogik ta'lim klasterining ilmiy pedagogik muammo sifatidagi xususiyatlari,

uning ta'limga nisbatan innovatsion yondoshuv ekanligi, ta'lim, fan va ishlab chiqarishni klaster vositasida integratsiyalashning nazariy jihatlarini, klasterning ta'lim bozorida raqobatbardoshlikni oshirish vositasi sifatidagi o'ziga xos jihatlarini ko'rib chiqsak:

Aslida "klaster" (cluster) so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, tarjima qilinganda "to'plam", "to'p", "guruh", "konsentratsiya", "guruhlarda to'plash", "to'plamlarda o'sish" kabi ma'nolarni anglatadi. Dastlab bu termin statistika va kompyuter sohasida paydo bo'lgan, keyinchalik iqtisodiyot va sotsiologiyada ham keng qo'llanila boshlandi. "Ta'lim klasterlari" tushunchasining mohiyati oliy ta'lim muassasalarining maktabgacha, boshlang'ich, umumiy o'rta, professional ta'lim, ixtisoslashtirilgan maktablar, asosiy korxonalar va mutaxassislarining asosiy mijozlari va iste'molchilari yetakchi filiali homiyligida birlashishdan iborat.

Klasterning shakllanish omillari sifatida quyidagilarni aytish mumkin:

integratsiya-sohalararo bog'lanish, tabiiy aloqadorlik, uzviylik va izchillik;

tashabbus-sohaning samaradorligi bilan bog'liq har qanday innovatsion loyiha va takliflarning qo'llab-quvvatlanishi;

qiziqish-klasterda har bir subyekt o'z manfaatdorligiga ega bo'lishi;

innovatsiyalar-zamon va taraqqiyotga mos holda qadam qo'yish, yangi loyiha va g'oyalarning muntazamliligi; axborotlar-sohaning barqaror rivojlanishi uchun yetarli axborot bazasining mavjudligi va muntazam yangilanib turishi.

Ta'lim klasteri muhitida pedogolarning kasbiy kompetentligini oshirishda subyektlar o'rtasidagi manfaatdorlik ya'ni maktabgacha ta'lim tashkiloti uchun yetuk, raqobatbardosh kadr bo'lsa, OTM uchun talabning kasbiy faoliyatni nazariya va amaliyotni birlashtirgan holda olib borish, real sharoitda ilmiy tadqiqot natijalarini sinab ko'rish, eng muhimi umumiy manfaat yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish masalasi yotadi.

Tahlil va natijalar. Umuman olganda, pedagogik ta'lim klasteri pedagogika sohasiga iqtisodiy modellarni tatbiq qilish natijasida samaradorlikka erishishni nazarda tutadi. Uni amalga oshirish mexanizmlari, yo'nalishlari, tamoyillari, maqsad va vazifalarini ilmiy asosda tavsiflash ayni paytda soha mutaxassislari oldidagi dagi dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Endi maktabgacha ta'limda "klaster" tushunchasini maktabgacha ta'lim tizimiga bog'laydigan bo'lsak, u maktabgacha ta'lim yo'nalishida pedagog kadrlarni tayyorlash, ularni mutaxassligi bo'yicha muvofiqlashtirish, o'quv metodik rahbarlikni amalga oshirish;

- maktabgacha sohasidagi talab va ilg'or xorijiy tajribalar, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishi hisobga olgan holda viloyat ta'lim tashkilotlarida davlat ta'lim talablarilari, va dasturlarni tizimli ravishda takomillashtirishni amalga oshirish;

-MT sohasidagi ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan fundamental amaliy va innovatsion ilmiy izlanishlar olib borishni muvofiqlashtirish;

-sohada ilmiy salohiyatni oshirish, jumladan oliy malakali va ilmiy-pedagogik kadrlarni maqsadli tayyorlash asosida pedagogika sohasini rivojlantirish, viloyatdagi MT tashkilotlari rahbar xodimlarini mutaxassislari malakasini sifatli oshirish hamda qayta tayyorlash bo'yicha chora tadbirlar amalga oshirishni ta'minlash;

-MT yo'nalishi bo'yicha uzluksiz pedagogik ta'limning innovatsion informatsion taminotini takomillashtirish va

pedagog kasbining nufuzini oshirish hamda pedagog-innovatorlarni qo'llab quvatlash;

-maktabgacha ta'limni tartibga soluvchi mavjud me'yoriy xujjatlarni takomillashtirish;

- Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining platformasini ishlab chiqish.

Maktabgacha ta'limda klaster platformasini joriy etishdan maqsad ta'lim xizmatlarini ko'rsanish bo'libgina qolmay, o'zgaruvchan bozor sharoitida raqobatbardosh ta'lim beishga etiborni qaratish, ta'limga innovatsiyalarni va zamonaviylikni joriy etishdan iborat.

Klaster faoliyati yangi sifatli ta'lim berish imkoniyatini beribgina qolmay, ta'limga o'ziga xos yangicha yondashuv, ta'lim olish shart-sharoitlarini ta'minlash, ta'limni uzluksizligini ta'minlash, uning tarkibiy qismlari o'rtasida mavjud istiqbolli aloqalarni ta'minlash imkonini beradi.

Maktabgacha ta'lim klasterini shakllantirish uchun bir qator muhim shartlar talab etiladi:

-hududlarda raqobatbardoshlikni shakllantirish uchun MTT o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish;

-butun tizimda uzoq muddatli innovatsiyalar va boshqa strategiyalarni belgilovchi yetakchilarni aniqlash;

-ichki va tashqi raqobatbardoshlikni ta'minlovchi ta'lim muassasalari malaka darajasini beradigan ilmiy tashkilotlarni beigilash;

-MTTlarida ishonch va ijodkorlik muhitini yaratish;

-bir hududda ta'lim muassasalarining maqsadidan kelib chiqib (davlatga qarshli MTT bo'ladi), nodavlat MTT bo'ladi) xususiy manfaatdorlikni ta'minlash.

Maktabgacha ta'lim va pedagogika kollejalarni boshqarish sohasidagi o'zgarishlar pedagogik jarayonning samaradorligini, bolaning shaxsiyatini rivojlantirish sifatini oshirishga qaratilgan. Boshqaruv muammosini o'rganish ancha murakkab masala. Nazariy va amaliyotda iqtisodiyot va pedagogika sohasida boshqaruv nazariyasi va amaliyotida yetarli miqdordagi ishlanmalar mavjudligiga qaramay, baribir, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning rivojlanishi, jamiyatning o'ziga xos talablari bilan bog'liq. maktabgacha ta'lim va pedagogika kollejlari tizimi va ilm-fanni rivojlantirish — bu muammo haligacha yetarlicha o'rganilmagan.

Maktabgacha ta'lim va pedagogika kollejalari tashkilotlarida boshqaruv faoliyati bo'yicha olib borgan tadqiqotlarimiz tahlilimiz shuni ko'rsatdiki, ularda pedagoglar (tarbiyachilar, mutaxassislar) boshqaruv faoliyatiga yetarlicha e'tibor berilmayapti. Bu, asosan, uzoq vaqt hukmronlik qilgan pedagogikaning avtoritar tabiati bilan bog'liq bo'lib, u boshqaruvni maktabgacha ta'lim va pedagogika kollej tashkilotlari rahbarlarining ma'muriy faoliyati sifatida tan oladi. Pedogolardan, mutaxassislardan faqat bolalarga bilim, ko'nikmalarni shakllantirish, ularning sifat va qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini boshqarish yemas, balki ularni o'qitish va tarbiyalash talab qilindi. Bolalar esa faqat pedagogik ta'sir ob'yektlari sifatida qaralgan.

Maktabgacha ta'lim va pedagogika kollejalari tashkilotlaridagi boshqaruv faoliyatini turli ierarxik darajalarda ko'rib chiqish mumkin: ma'muriyatning boshqaruv faoliyati va tarbiyachilarning (tarbiyachilar va mutaxassislar) boshqaruv faoliyati. Shu bilan birga, ma'muriyatning boshqaruv faoliyati tartibga solish jihati, funksional vazifalarni taqsimlash, maktabgacha ta'lim va pedagogika kollej tashkilotlarini rivojlantirish bo'yicha strategik g'oyalarni ishlab chiqish va boshqalar bilan bog'liq tashkiliy xususiyatga ega. Maktabgacha ta'lim va pedagogika kollejalari tashkilotlarida tarbiyachilarning boshqaruv faoliyati bolalarni tarbiyalash, o'qitish va rivojlantirishga qaratilgan.

Klasterli yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirishda maktabgacha ta'lim

va pedagogik kollej tashkilotlarini boshqarishning xususiyatlarini o'rganish muhim.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim va pedagogik kollej tashkilotlarida boshqaruv amaliyoti muammosi holatini tahlil qilish quyidagi vazifalarni hal qilish imkonini beradi: zamonaviy maktabgacha ta'lim va pedagogik kollej tashkilotlari tizimining ishlash xususiyatlarini aniqlash va turlarning xilma-xilligini, ularning ishining o'ziga xos xususiyatlarini ajratib olish; ta'lim jarayonini ikki darajada boshqarish xususiyatlarini aniqlash: ma'muriy va pedagogik.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish boshqaruv madaniyatini rivojlantirish bo'yicha mutaxassislarni yeng samarali tayyorlash imkonini beradi. So'nggi yillarda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim va pedagogik kollej tashkilotlarini modernizatsiya qilish moslashuvchan ko'p funksiyali boshqaruv tizimiga o'tishni talab qilmoqda. Bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlashda ushbu o'zgarishlarning barchasini hisobga olish muhim.

Nodavlar maktabgacha ta'lim tashkilotida studiyalar, seksiyalar, to'garaklar va boshqalarni yaratish, bolalar va ularning ota-onalari shaxsiy qiziqishlari qondirish, har bir bolaning moyilligi va imtiyozlarini hisobga olgan holda pedagogik jarayonni yanada tabaqalashtirilgan va moslashuvchan qilish imkonini beradi.

Maktabgacha ta'lim va pedagogika kollejlari sifatini oshirish pedagogik kadrlarning kasbiy saviyasi bilan bevosita mutanosibdir. Biroq hozirda malakali bilimli mutaxassislar yetishmaydi. Maktabgacha ta'lim va pedagogika kollejlari tizimida kadrlarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha jiddiy chora-tadbirlar ko'rilmagani davlat maktabgacha ta'lim va pedagogik kollej tashkilotlaridan malakali mutaxassislarning faoliyatning boshqa sohalariga ketishiga olib keldi.

Xulosa va takliflar. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, boshqa sohasidagi professional mutaxassislar maktabgacha yoshdagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini, ularning yoshi va psixologik imkoniyatlarini bilishmaydi, maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish metodikasini bilishmaydi. Bunday holda, rahbar ishni barcha bolalarning rivojlanishiga hissa qo'shishi uchun tashkil qilishi kerak.

Zamonaviy ta'lim tizimi jiddiy o'zgarishlar talab yetiladi. Bugungi kunda professor-tarbiyachilarga qo'yiladigan talablar faqat ish tajribasi va ta'lim diplomining mavjudligi ko'rsatkichiga asoslanishi mumkin yemas. Maktabgacha ta'lim va pedagogika fakultetlarida ixtisoslashtirish g'oyasi dolzarb bo'lib, u maktabgacha ta'lim va pedagogik kollej tashkilotlarida bolalar uchun ham asosiy, ham qo'shimcha xizmatlar ko'rsatishga qodir bo'lgan mutaxassislarni tayyorlaydi. Shu munosabat bilan bugungi kunda maktabgacha ta'lim va pedagogik kollej tashkiloti rahbarlariga, uning kasbiy malakasi, boshqaruv madaniyati, tashkilotchilik qobiliyatiga katta talablar qo'yilmoqda.

Maktabgacha ta'lim va pedagogika kollejalari tashkilotlarida ishni optimallashtirish sharti «bolalar bog'chasi

rahbarlarining tabaqalashtirilgan tashkiliy faoliyati: xodimlarni oqilona joylashtirish; pedagogik jamoaning barcha a'zolari va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar o'rtasida majburiyatlarni aniq taqsimlash, ular o'rtasida jamoa ichida, shuningdek, ota-onalar jamoasi va jamoatchilik bilan munosabatlarni o'rnatish. Maktabgacha ta'lim va pedagogika kollejalari tashkilotining zamonaviy rahbari tashkiliy va boshqaruv tuzilmasini yaratishda bolalar bog'chasi ta'lim jarayonining jamiyatda tez sodir bo'layotgan o'zgarishlarga, umumiy qadriyatlar va ye'tiqodlarga bog'liqligi bilan bog'liq ko'plab muammolarni hisobga olishi kerak.

Maktabgacha ta'lim va pedagogika kollejalari mutaxassislar tayyorlashning an'anaviy usullari aniq bolalar bog'chasi pedagogik kadrlarni tayyorlash va rivojlantirish vazifasiga javob bermaydi. Bizga shunday ta'lim va tarbiya shakllari mavjud bo'lib, ular mavjud bo'lgan nomaqbul stereotiplar va noto'g'ri qarashlardan xalos bo'lishga yordam beradi. An'anaviy bolalar bog'chalarida boshqaruvning o'zaro ta'siri tizimini yaratish va tez-tez nizolarning oldini olish uchun qulay pozitsiyani yaratadigan professional madaniyatni rivojlantirish darajasi kerak.

Maktabgacha ta'lim va pedagogika kollejlari tashkilotlarining ta'lim jarayonini dasturiy ta'minoti va uslubiy ta'minotini yangilashga bo'lgan yehtiyoji yaqqol ortib bormoqda. Bu innovatsion dasturlar va texnologiyalarni joriy yetuvchi tashkilotlar sonining ko'payishi, shuningdek, yangi ta'lim modellari sinovdan o'tkazilayotgan eksperimental maydonlarning ko'payishi shundan dalolat beradi.

Maktabgacha ta'lim va pedagogika kollejlar tizimining holatini tahlil qilish boshqaruvni va shunga mos ravishda universitetda mutaxassislar tayyorlash jarayonini takomillashtirish va samaradorligini oshirish bo'yicha asosiy chora-tadbirlarning asoslanishini baholashning dastlabki asosi hisoblanadi. Bu sizga mutaxassislarning boshqaruv madaniyatining mavjud darajasini baholash uchun asosiy materialni olish, maktabgacha ta'lim va pedagogik kollej sohasi mutaxassislarni tayyorlash tizimida ilg'or yondashuvlarni aniqlash, maktabgacha ta'lim va pedagogik kollejni rivojlantirishning strategik yo'nalishlari va real imkoniyatlarini hisobga olgan holda asosiy materialni olish imkonini beradi.

Demak, zamonaviy maktabgacha ta'lim va pedagogika kollejlari tashkilotlarining yuqoridagi tahlili va ularda pedagogik boshqaruv bo'yicha o'z faoliyatini amalga oshiruvchi mutaxassislarga qo'yiladigan talablardan kelib chiqib, tez o'zgarib turadigan ijtimoiy sharoitlarda ishlay oladigan, pedagogik tizimni samarali boshqara oladigan kadrlar tayyorlash masalasi turibdi. Bularning barchasi ta'lim tashkilotlari bo'yicha bo'lajak mutaxassisdan professional, boshqaruv va pedagogik madaniyatni yetarlicha yuqori darajada rivojlantirishni talab qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Simonov V.P. Pedagogicheskiy menedjment: 50 NOU-XAU v oblasti upravleniya obrazovatel'nyim protsessom: Ucheb. posobiye dlya rukovoditeley. - M.: Ros. ped. agentstvo, 1997. -264 s.
2. Upravleniye razvitiyem shkolы: Posobiye dlya rukovoditeley obrazovatel'nykh uchrejeniy /Pod red. M.M.Potashnika i V.S.Lazareva. - M.: Novaya shkola, 1995. - 464 s.
3. Veretennikova L.N. Obucheniye menedjеров obrazovaniya istorii nauki upravleniya : Dis...kand. ped. nauk. - Barnaul, 1996.-152 s.
4. Guseva N.I. Upravleniye protsessom razvitiya sistema doshkol'nykh obrazovatel'nykh uchrejeniy (1984-1996 gg.): Dis...kand. ped. nauk. - M., 1998. -163 s.
5. Istoriya pedagogiki: chast 2. s XVII v. do ser. XX v.: Ucheb. posobiye dlya ped. un-tov /Pod red. A.I.Piskunova. - M.: TS. "Sfera", 1998. -304 s.
6. Professionalno-pedagogicheskaya kultura: istoriya, teoriya, texnologiya: Sb. statey /Pod red. I. Isayeva i dr. - Belgorod, 1996. -304 s.
7. Rubinshteyn S.L. Osnovy obshchey psixologii: [Uchebnyk]. - Spb.: Piter, 1999.-712 s

8. Kuzmina N.V. Sposobnosti i talant uchitelya: Posobiye dlya uchiteley. - M.: Novaya shkola, 1995. -33 s.
9. Markova A.K. Psixologiya professionalizma: Kniga dlya uchitelya. - M.: Mejdunarodnaya pedagogicheskaya akademiya, 1996. -307 s.
10. Bobrova M.P. Didakticheskaya podgotovka pedagogicheskix kadrov do-shkolnyx uchrejeniy v kontekste professionalnoy deyatel'nosti: Dis... kand. ped. nauk.- Barnaul, 1997. - 290 s.
11. Лысова V.L. Podgotovka studentov fakulteta doskolnogo vospitaniya k osushchestvleniyu individualnogo kontakta k detyam v protsesse obrazovatel'noy raboty v detskom sadu: Dis..kand. ped. nauk.-M., 1993.-205 s.
12. Xozyainov G.I. Pedagogicheskoye masterstvo prepodavatelya: Metod, posobiye dlya uchitelya. - M.: Vyssh. shk., 1988. - 168 s.
13. G'.Muhammedov, U.Xodjamqulov, S.Toshtemirova. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri – T. Universitet, 2020.14 b.
14. G.B.Rizayeva. Bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish mazmuni va mohiyati. Nizomiy nomidagi TDPU Ilmiy axborotlari. 2023-yil. 4-son.341-347-b.
15. G.B.Rizayeva. "Klasterli yondashuv asosida Oliy ta'lim muassasalari va Maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamkorligini takomillashtirish". Mug'allim hem uzliksiz bilimlendirio' (Ilmiy-metodikaliq jurnal. ISSN 2181-7138. № 6/5 -2022 (13.00 00 №20)116-120 b.
16. G.B.Rizayeva. Bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning pedagogik jihatlari. Nizomiy nomidagi TDPU Ilmiy axborotlari. 2023-yil. 6-son. (13.00 00 №32)5-11 b.



UDK: 376.364-78

Elbekjon RO'ZIMATOV,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail: elbekruzimatov5255@gmail.com

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd), F.Komilov taqrizi asosida

THE IMPORTANCE OF TUTORING IN THE DEVELOPMENT OF SOCIAL ADAPTATION AND SPIRITUAL AND MORAL QUALITIES OF STUDENTS

Annotation

The article is devoted to the development of the spiritual and moral qualities of students and the study of the characteristics of objective and subjective causes and factors causing problems in the process of socialization in society, a systematic and functional analysis of the socio-pedagogical aspects of an individual approach to creating friendly relations between adolescents and students.

Key words: Tutor, student, tyutor magazine, tyutor activity, spirituality, society, socialization, social norm, personality, spiritual and moral qualities, social activity.

ВАЖНОСТЬ ТЮТОРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РАЗВИТИИ СОЦИАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ И ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ У СТУДЕНТОВ

Аннотация

Статья посвящена развитию духовно-нравственных качеств студенческой молодежи и изучению особенностей объективных и субъективных причин и факторов, вызывающих проблемы в процессе социализации в обществе, системному и функциональному анализу социально-педагогических аспектов индивидуального подхода к созданию дружеских отношений между подростками и студенческой молодежью.

Ключевые слова: Тьютор, студент, журнал тьютора, деятельность тьютора, духовность, общество, социализация, социальная норма, личность, духовно-нравственные качества, социальная активность

TALABALARDA IJTIMOY MOSLASHUV VA MA'NAVYI-AXLOQIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHDA TYUTORLIK FAOLIYATINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada tyutorlar tomonidan talaba yoshlarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish hamda jamiyatga ijtimoiylashuvi jarayonidagi muammolarni keltirib chiqaruvchi obyektiv va subyektiv sabablar va omillarining xususiyatlarini o'rganish, tyutorlar hamda talaba yoshlar o'rtasida do'stona munosabatlarni yaratishda individual yondashuvning ijtimoiy-pedagogik jihatlari tizimli va funksional tahlili atroflicha yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Tyutor, talaba, tyutor jurnali, tyutorlik faoliyati, ma'naviyat, jamiyat, ijtimoiylashuv, ijtimoiy me'yor, shaxs, ma'naviy-axloqiy sifatlar, ijtimoiy faollik.

Kirish. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida yoshlar o'rtasida ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish, ularning dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini oshirish, gumanizm, tolerantlik, ijtimoiy intellektni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Bu harakatlar jahonda kuchayib borayotgan turli mafkuraviy xavf-xatar va ziddiyatlar, yadro va geosiyosiy maydonlardagi keskin kurash, axborot xuruji negizidagi destruktiv g'oyalar kuchayishi zamirida amalga oshirilmoqda.

Professor N.Latipova ta'biri bilan aytganda "Talabalarning ijtimoiy faolligini shakllantirishga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatadi, jumladan: yoshlarning o'zini o'zi anglash istagi, samarali yoshlar siyosati, shuningdek, yoshlar uchun qiziqarli va nufuzli na'munalar".[1]

Jahonda ta'lim tashkilotlari tahsil oluvchilariga ta'sir etayotgan ma'naviy xatarlarning oldini olish, ular orasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilikning sodir bo'lishini kamaytirish, shu bilan birga, jamiyat manfaatlarini bilan bog'liq yondashuvlarni o'rganish, talabalar o'rtasida empatiya, ma'naviy altruistik qarashlarni kengaytirish, jamiyat tomonidan belgilangan ma'naviy-axloqiy normalariga rioya qilish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ham tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mamlakatimiz yoshlarining tabiiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ijtimoiy tajriba orttirish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etib, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy axloqiy fazilatlar, empatik g'amxo'rlik bilan bog'liq ma'naviy tuyg'ular, ruhiy altruistik yo'nalishdagi fazilatlarini namoyon qiluvchi psixologik-pedagogik tizimni takomillashtirishga katta imkoniyatlar yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2021-2026 yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirishning Taraqqiyot strategiyasi" PF-60-son Farmonida yangi mazmundagi uzluksiz ta'lim tizimini yaratishning huquqiy-me'yoriy asoslarni modernizatsiyalash ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi.[2]

Shu bilan birga, hozirgi davrda barcha sohalaridagi keskin o'zgarishlar yoshlarga o'z salohiyatlarini to'la namoyon etishda yordam beradigan ko'nikmalarga ega bo'lishlarini ham talab etmoqda. Bo'lajak mutaxassis sifatida talabalar har qanday vaziyatda tanqidiy fikrlash va muammolar yechimini topish, o'zaro hamkorlik asosida yetakchilik qobiliyatini namoyon etishi, innovatsion bilimlarga chanqoqlik va vaziyatga moslashuvchanlikni, tadbirkorlik va ishbilarmonlikni, insonlar bilan samarali muloqatni tashkil etish, ishlab chiqarish jarayonida

ma'lumotlarni baholash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan tizimni ishlab chiqishga ehtiyoj sezilmoqda. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun oliy ta'lim muassasalari tahsil oluvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish strategiyasini o'quv jarayoniga tadbir etish dolzarb muammo hisoblanadi.

Talaba qiyofasi ham tarbiyachini tashvishga soladigan masalalardan biridir. Axir, talaba ko'pincha yoshlik o'tish davrida bo'ladi, shuning uchun u har doim ham talablarni yoqtirmaydi, masalan, bitta namunadagi toza forma kiyish. Odob qoidalarining buzilishi esa tyutorning dekanat va boshqa mas'ul shaxslarning shikoyatlarini tinglashga majbur bo'lishiga olib keladi. Shuning uchun ham tyutorlik vazifalari orasida har bir talabning psixologik portretini o'rganish, oliy o'quv yurtidagi odob va xulq-atvor kodeksi talablarini, kiyim kiyish qoidalarini tushuntirish ishlari ham bor. Bunda o'quvchining dunyoqarashini kengaytirishning samarali usullarini qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Oliy ta'lim muassasasida "Tyutor jurnali" tashkil etilgan bo'lib, u tyutorlarga ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda amaliy yordam berib, quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi: talabalar va ularning ota-onalari haqida to'liq ma'lumot, faoliyat mazmuni va h.k.

Adabiyotlar, monografiyalar tadqiqotlardan aniqlanishicha, inson ma'naviyatining ma'rifati va madaniyatlik darajasi bilan bog'liq. Chunki u ma'naviyatga muttasil o'qish, uqish, o'rganish, idrok etish, tajriba orttirish orqaligina erishishi mumkin. Inson ma'naviyati qanchalik mukammallashib borsa, u shuncha barkamol bo'lib, jamiyat ravnaqiga ko'proq hissa qo'shadi. Ma'naviyatli inson nima maqsadda yashayotganini aniq tasavvur etib, umrini mazmunli o'tkazish yo'lini axtaradi, jamiyat a'zolari bilan muomala qilish madaniyatini egallab boradi. Ma'naviyatli inson har bir masala va muammoga aql-idrok, insof va adolat nuqtayi nazardan yondashadi, "vijdon", "insof", "iymon", "or-nomus", "to'g'rilik" va "yolg'on", "halol" va "xarom" tasavvurlari mohiyatini tushunishga intiladi. Shu tariqa u yaxshilikka boshlovchi amallarni bajarib, yomon xatti-harakatlardan o'zini tiyadi. Ona-Vatani, millati va xalqini sevish, demakki, vatanparvarlik, millatparvarlik hislatlari inson ma'naviyatining asosiy ijtimoiy omillaridir.

Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida talabalarining ma'naviy-axloqiy sifatlarni eksplitsit rivojlantirish mohiyatini tadqiq etishdan oldin "ma'naviy-axloqiy sifat" tushunchasini aniqlashtirib beruvchi uslubiy yondashuvlarni tahlil etamiz.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida Prezident Sh.M.Mirziyoyev ma'naviyat haqida quyidagi ta'rifni keltirdi: "Ma'naviyat – insonlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va etibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo'lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir. Boshqacha aytganda manaviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poqdevordir"[1].

Ma'naviyatli insonlar ko'paygan jamiyatda aql, sog'lom fikr, yaxshi xulq, insof va adolat tantana qilib, turli salbiy illatlar barham topadi. Natijada jamiyat a'zolarining kelajakka ishonchi ortib, ular o'z faoliyatlarini Vatani va xalq ravnaqi yo'lida safarbar etadi. Inson ma'naviyatini u mansub bo'lgan millatning asrlar davomida shakllangan ildizlari, ijtimoiy – madaniy taraqqiyoti, millatning tarixiy-siyosiy tajribalaridan olinadigan ruhiy kuch-quvvat, har qaysi davrning ilg'or yangilik va an'analari boyitib boradi. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda: "Ma'naviyat, insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi". Shu sababli mutaqqil O'zbekistonda inson ma'naviyatini yuksaltirish masalasiga katta ahamiyat berilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Istiqloq bois o'zbek xalqining ko'p asrlik boy tarixiy, ilmiy, madaniy va diniy merosi tiklanib, ulardan inson ma'naviyatini yuksaltirish yo'lida foydalanilmoqda.

A.Ibrohimov, X.Sultonov, N.Jo'rayevlar "Vatan tuyg'usi" asarida madaniy meros haqida fikr yuritib: "O'tmish davrlardan insoniyatga qolgan moddiy va ma'naviy, madaniyat boyliklariga ma'naviy meros deyiladi"- deb ta'kidlaydilar.[3]

Jamiyat ijtimoiy rivojlanishning eng muhim ijtimoiy xususiyatlaridan biri, talaba yoshlarning ma'naviy-axloqiy sifatlarni oshirish orqali sog'lom turmush tarzini ta'minlash hisoblanadi. Bu yo'nalishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining taraqqiyot strategiyasi" haqidagi ma'ruzasida, bu haqda quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tdilar: "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir".[4]

Inson ma'naviy-axloqiy sifatlari, uning salomatligi bilan chambarchas bog'liq. Talaba yoshlarning ma'naviy-axloqiy sifatlarni ya'ni salomatlikni oshirish O'zbekiston Respublikasi kompleks ijtimoiy siyosatining ajralmas qismi sifatida, jismoniy tarbiya va sport bilan bandlik, talaba yoshlarning ma'naviy-axloqiy sifatlarni oshirish sohasiga yo'naltirilganligi bilan muhim ahamiyatga ega. Taraqqiyot strategiyasi dasturlari talaba yoshlarning ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishda tarkibiy o'zgarishlarga olib keldi, o'smir yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga qiziqishlarini oshirish, talaba yoshlarning sport bilan shug'ullanishlariga sharoitlar tashkil etish borasidagi chora-tadbirlar davlat siyosatining asosiy mezonini, respublika hukumati faoliyatining bosh maqsadi bo'lib qoldi.

Yuqorida nomlari zikr etilgan manbalar, ilmiy ishlar va dissertatsiyalarning aksariyatida tahsil oluvchilarning ma'naviy madaniyatini muayyan texnologiyalar vositasida shakllantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Biroq, oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik faoliyati orqali talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni globallashtirish fenomeni, ijtimoiy, siyosiy, madaniy muhitning shakllanishi implementatsiyasida ko'rib chiqish sifatida o'rganilmaganligini ta'kidlash joiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilm-fan jadal taraqqiy etayotganligi tufayli turli fan sohaslarida erishilgan yutuqlar tez yangilanib bormoqda. Bilim, o'sish, taraqqiyot omilidir, uni vaqt talabi darajasida texnika o'sishidan bir necha barobar tez yangilab borish kerak. Shuning uchun yangicha fikrlaydigan, zamonaviy kadrlarni tayyorlashda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish davr ehtiyojidan kelib chiqmoqda.

Bugungi kunda yoshlarning ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi murabbiy oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. Yosh avlod tarbiyasi o'ta dolzarb masala bo'lib, u ta'lim-tarbiyada uzviylik, qat'iylik va talabchanlik, ishlashning zamonaviy, ta'sirchan usul va vositalarini talab etadi.

Shu ma'noda, biz tomonimizdan hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi integratsiyaning, hamkorlikning kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko'plab yangi ish o'rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tarqalishi, turli qadriyatlarining umuminsoniy negizida uyg'unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha shakli bilan bog'liq jarayonda talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni eksplitsit rivojlantirish masalalarini tadqiq etish ehtiyoji mavjudligi inobatga olinib, tadqiqot doirasida mazkur sifatlarni tashkil etuvchi mexanizm, determinantal va prinsiplar o'rganildi.

Tahlil va natijalar. Mexanizm- ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan voqea-hodisani harakatga keltiradigan ichki qurilma bo'lib, bunda uning ichki bog'lanishini ta'minlab beruvchi komponentlar yopiq holatda bir-birining ketma-ketligidagi harakatida namoyon bo'ladi. Ularning kamida bittasi-ishni amalga oshirish uchun, kamida bittasi foydalanish uchun xizmat qiladi.

O'tkazgan tadqiqot doirasidagi tahlillarimizning ko'rsatishicha, talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish mexanizmlari amaliyotdagi holati o'rganildi va jahon pedagogikasidagi metodikalarga tayanib, o'quv rejaga ko'ra, didaktik tizimlarda talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishga mo'ljallangan determinantalar tuzilishini o'rganish zaruriyatiga qaraldi. Shunga ko'ra, biz dissertatsiya sahifalarida mexanizmi harakatga keltiruvchi determinantalar tavsifini keltirsak.

Determinantalar shaxsning rivojlanishi bog'liq bo'lgan shartlar, sabablar, omillardir. Pedagogika va psixologiyaga oid adabiyotlarda determinantlarga shaxsning ijtimoiy-madaniy muhitda o'zaro faoliyat va muloqot jarayonida egallagan alohida sifati, - deb baho beriladi.[5]

Zamonaviy fan sohasida inson bilimlarining biogenetik, sotsiogenetik va personogenetik yo'nalishlari nuqtai nazaridan shaxsni rivojlantiruvchi determinantalar ko'rib chiqiladi. Biogenetik yo'nalish vakillari asosiy e'tiborni insonning antropogenetik xususiyatlariga (mayl, temperament, biologik yosh, jins, tana tipi, asab tizimining neyrodinamik xususiyatlari, organik turtki, harakat, ehtiyoj)ga qaratadilar. Bu xususiyatlar, ushbu yondashuv vakillarining fikriga ko'ra, ontogenezda yetuklikning turli bosqichlaridan o'tadi.

Sotsiogenetik yo'nalish vakillari insonning ijtimoiylashuvi, ijtimoiy me'yor va rollarning rivojlanishi, ijtimoiy munosabatlar va qadriyat yo'nalishlarini egallashi, shaxsning muayyan jamoaning tipik a'zosi sifatida ijtimoiy va milliy xarakterining shakllanishi jarayonlarini o'rganadilar. Bu muammolar ijtimoiy pedagogika va psixologiya, etnopedagogika va psixologiyada ishlab chiqilgan. Personogenetik yo'nalishning diqqat markazida shaxsning faoliyati, o'zini o'zi anglashi va ijodi, o'zini o'zi qadrlash, motivlar kurashi, individual xarakter va qobiliyatlarini

tarbiyalash, shaxsiy tanlovni o'z-o'zini amalga oshirish muammolari, hayotning ma'nosini tinimsiz izlash kabi g'oyalar tashkil etadi.

Bu yondashuvlar umumiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, individual psixologiya, analitik va gumanistik psixologiyada o'z ifodasini topgan.

Biogenetik, sotsiogenetik va personogenetik yo'nalishlarni ajratib olishda shaxsning rivojlanishini aniqlashning metafizik sxemasi 2 omil ta'sirida namoyon bo'ladi: atrof-muhit va irsiyat. Masalan, Z.Freydning "Psixanaliz nazariyasi" bo'yicha, "pseudodialektik", ya'ni inson hayotidagi mexanik jihatdan qatlam- biologik va ijtimoiy dualizmdan kelib chiqadi.

Neofreydizm vakillarining asarlarida shaxs rivojlanishini aniqlashning yangi tuzilmasi beriladi. Ular "individ" va "shaxs" tushunchalarini ajratib: "davrnin ijtimoiy konkret tarixiy turmush tarzi sifatida individ tug'iladi va faoliyat tufayli shaxs bo'ladi", - degan fikrni ilgari surishadi. Bundan xulosa qilish mumkinki, talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishda shaxsni shakllantirishning zaruriy shartlari, determinantalari va omillarining formal-dinamik tomonlarini belgilaydigan quyidagi bog'liqligini inobatga olish zarur:


Birinchidan, shaxsning xususiyatlari (tana tuzilishi, jinsi, biologik yoshi, yuqori asabiy faoliyat turlari va boshqalar);

Ikkinchidan, shaxsning xulq-atvori va insonning dunyoga, boshqa shaxslarga va o'ziga bo'lgan munosabatlarini ifodalovchi faoliyatga kiritilgan holda, shaxsning shakllanishiga ta'sir qiluvchi tarixiy-madaniy omillar.

Shu bilan birga, shaxsning ijtimoiy-tarixiy turmush tarzi shaxs taraqqiyotining manbai bo'lib, u shaxs hayoti davomida uning natijasiga aylanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, shaxs rivojlanishining determinantalari bo'lgan ushbu manbalar ta'lim natijasida qulay pedagogik shart-sharoitlar yaratilganida shaxs rivojlanishining natijasiga aylanadi.

Talabalarining jamiyat hayotiga ijtimoiylashuv jarayonlarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishda, ularning ma'naviy qadriyatlarini, ijtimoiy maqomlarini, nazariy bilim va amaliy ko'nikmalari muhim ahamiyat kasb etadi.

1-rasm.



Xulosa va takliflar. Tyutorlik tizimini mukammallashtirish, ularni tashabbuskor, xalq manfaati yo'lida bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli mutaxassis qilib tayyorlash o'z yechimini kutayotgan dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammolar sirasiga kiradi, chunki, davlatning bugungi va istiqboldagi barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi omillardan biri - tashabbuskor, xalq manfaati yo'lida

bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli mutaxassislarni yetishtirishdan iborat.

Insonning ma'naviy-axloqiy barkamol bo'lishi xalq, davlat, jamiyat ma'naviyatiga asos ekanligi, yoshlarga chuqur nazariy va amaliy bilimlar, kasbiy malaka, ko'nikmalar hosil qilish, ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalarini va muammolariga to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatish, Vatanni sevish, ajdodlari yaratgan bebaho ma'naviy javohirlarni imkon qadar

egallash, ularni asrab-avaylash va boyitish, mamlakatimiz kelajagini, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning bugungi holatini chuqur tahlil qilish, jahondagi va mamlakatimizdagi ma'naviy, aqliy bilimlardan foydalanib voqelikda faol ishtirok etish ruhida tarbiyalash bugungi kun talabidir.

Sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan tadbirlar tahlili yoshlarning keng qatlamlariga dahldor bo'lgan dolzarb

masalalar, ayniqsa, respublikamiz yoshlarining katta qismini tashkil qiladigan talabalarni kelgusidagi kasbiy faoliyatga tayyorlashda ular ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish zaruratini keltirib chiqaradi, bunda ta'limning yangi shakllari, metodlari va vositalaridan foydalanish ahamiyatini oshirish, bunda tyutorlik tizimidan foydalanish muhimdir.

ADABIYOTLAR

1. <https://www.tadqiqot.uz/index.php/soci/article/view/994/930>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga Mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni PF-60-son 28.01.2022 yil.
3. Sultonov X., Qarshiboyev M. Vatan tuyg'usi: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinflari uchun o'quv qo'llanmasi. – To'ldirilgan va qayta ishlangan 7-nashri. – T. "Ma'naviyat", 2015. – 120 b.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзияевнинг Ўзбекистон Республикасини 2022-2026 йилларда тараққиёт стратегияси ҳақидаги маърузаси. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Ташкент 2021й. 267 б.
5. A.K.Shamshetova, R.N.Melibayeva, X.E.Usmanova, I.O.Xaydarov. Umumiy psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: "Barkamol fayz media", 2018. – 272 b.



UDK: 101.1.

Xusan RUSTAMOV,
Guliston davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: rustamov.husan@inbox.ru

S.f.d., prof. F.Jo'raqulov taqrizi asosida

COOPERATION OF GOVERNMENT SYSTEM IN MODERNIZING THE COUNTRY

Annotation

In this article, the author reflects on the origin of the term modernization, historical stages, mutual cooperation of the branches of power in the modernization of the country and their influence on each other in carrying out activities. The importance of modernization in the sphere of activity of state authorities, as well as its positive and negative aspects are analyzed.

Key words: Modernization, political modernization, conservative modernism, transit societies, pluralistic society, systemic analysis, liberalization, branches of power, "neutral power", methodological institutionalism.

ВЗАИМНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО ОРГАНИЗАЦИОННЫХ СЕТЕЙ В МОДЕРНИЗАЦИИ СТРАНЫ

Аннотация

В данной статье автор размышляет о происхождении термина модернизация, исторических этапах, взаимном сотрудничестве ветвей власти в модернизации страны и их влиянии друг на друга при осуществлении деятельности. Анализируется значение модернизации в сфере деятельности органов государственной власти, а также ее положительные и отрицательные стороны.

Ключевые слова: Модернизация, политическая модернизация, консервативный модернизм, транзитные общества, плюралистическое общество, системный анализ, либерализация, ветви власти, "нейтральная власть", методологический институционализм.

MAMLAKATNI MODERNIZATSIYA QILISHDA HOKIMIYAT TARMOQLARINING O'ZARO HAMKORLIGI

Annotatsiya

Mazkur maqolada muallif modernizatsiya atamasining kelib chiqishi, tarixiy bosqichlari, mamlakatni modernizatsiya qilishda hokimiyat tarmoqlarining o'zaro hamkorligi va ularning faoliyat olib borishda o'zaro bir-biriga ta'siri haqida fikr yuritilgan. Davlat hokimiyat organlari faoliyati sohasida modernizatsiyaning ahamiyati, shuningdek, uning ijobiy va salbiy jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Modernizatsiya, siyosiy modernizatsiya, konservativ modernizm, tranzit jamiyatlar, plyuralistik jamiyat, tizimli tahlil, liberallashtirish, hokimiyat tarmoqlari, "betaraf hokimiyat", metodologik institutsionalizm.

Kirish. Siyosiy modernizatsiya bugungi kunda, 1960-yillardan beri bo'lgani kabi, texnologiyadagi katta o'zgarishlardan kelib chiqqan holda alohida mamlakatlarda va shtatlarda siyosat va hukumatdagi o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Bu atama iqtisodiy va siyosiy rivojlanishga oid nutqda tez-tez ishlatilsada, texnologiyadagi inqiloblarga javob berishda asosni saqlab qolish orqali siyosatdagi bu o'zgarishlar nimani anglatishini yanada aniqroq tushunish mumkin. O'zgarishlarning eng so'nggi bosqichi axborot fanlari va bilimga asoslangan sanoatning o'sishi bilan bog'liq bo'lib, ular kompyuter fanlaridan olingan innovatsiyalarda universitetlar, xususiy sektor va hukumat ishtirokidagi yangi hamkorlik kelishuvlariga yo'naltirilgan. Bu atama birinchi marta 1960 yillarning qiyosiy siyosat adabiyotida paydo bo'lgan va ommaviy sanoatning siyosat va hukumatga ta'siri bilan bog'liq edi, ammo u bugungi kunda yuqori daromadli mamlakatlarda va rivojlanayotgan mamlakatlarda sodir bo'layotgan o'zgarishlarda yangi hayot oldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tanqidiy tahlili.

Modernizatsiya (frantsuzcha moderne eng yangi, zamonaviy) – biror narsani yangilash, unga zamonaviy tus berish, uni zamonaviy talablarga muvofiq o'zgartirish. Modernizatsiyada mashina, apparat, turli texnologik qurilmalar, muhim kashfiyotlar texnika taraqqiyoti talablariga muvofiq qayta ishlanadi.

Modernizatsiya – bu Fransiya ma'rifati sababli, "taraqqiyot g'oyasi"dan paydo bo'lgan "jarayon",

"o'zgarishlar uchun jamiyatni tashkil qilish", "aksilinqilobiy kuchlarga qarshi turish", "iqtisodiy tomonga", siyosiy tizim va boshqaruvga alohida e'tibor berishdir. Modernizatsiya nazariyasini tanqid qilish odatda uni vesternizatsiya, yevropotsentrizm, urbanizatsiyalash va etnotsentrizmga tenglashtirishdan iboratdir. Iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy modernizatsiya tushunchalari farqlanishi ma'lum.

Barcha turdagi modernizatsiya sharoitida fuqarolik jamiyati faoliyatining dolzarb muammolari orasida aksiyadorlik jamiyatlarini korporativ boshqarish, davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlari, fuqarolik institutlarini huquqiy institutlashtirish, mediatsiya (yarashuv instituti), fuqarolik nazorati, talabalarning o'zini o'zi boshqarishini rivojlantirish, huquqni muhofaza qilish organlari hamkorlik va boshqalar bor.

Modernizatsiyaning aksariyat Osiyoga xos shakllarining ajralmas qismi bo'lib, konservativ modernizmni shakllantiradigan Sharq qadriyatlarini hisoblanadi. Adelaida universitetining (Avstraliya) siyosatshunoslik va xalqaro munosabatlar bo'yicha professori Kanishka Jayasuriyaning yozishicha, mutaassib modernizm individualizm, universalizm va tenglik kabi falsafiy va intellektual qadriyatlarini inkor etib, zamonaviy sivilizatsiya mahsullaridan va u bilan bog'liq texnologik yutuqlardan foydalanadi (Jayasuriya K., 1998).

F.Fukuyamaning fikricha, tranzit jamiyatlar "dastlab – iqtisodiy islohotlar" va "dastlab – demokratiya" tezislari bilan birini tanlashi kerak bo'ladi (F.Fukuyama, 1995). Haqiqatan

ham, aksariyat davlatlar, ayniqsa Osiyo mamlakatlari, demokratiyaga "atvoritar" yo'llar bilan erishgan. Ammo, Sharqiy Yevropadagi sobiq kommunistik tuzumlarga iqtisodiyotda bozor islohotlarining amalga oshirilishiga qadar demokratik o'zgarishlarni bekor qilishni taklif etish bema'ni ish bo'lar edi. Yaqin Sharqni demokratlashtirish va "modernizatsiya qilish" terrorizm masalasini hal qilmaydi, deb ta'kidlaydi F.Fukuyama "Neokonservatizmi hozirgi ko'rinishida qabul qila olmayman" nomli maqolasida. "G'arb siyosatchilari urushdan keyingi davrda dunyoviy millatchilikda uchinchi dunyo uchun najotbaxsh siyosiy modernizatsiyaning ijobiy va asosiy mohiyatini ko'ra bilgan. Zamonaviy, plyuralistik jamiyatga o'tish bilan kechadigan tenglikning yo'qqiz sababli radikalizm yuzaga keladi. Shuning uchun ushbu mintaqada demokratiyaning tarqalishi "begonalashish", radikalizm va terrorizmning tarqalishini anglatadi. Bundan tashqari, biz har qancha harakat qilmaylik, Yaqin Sharq mamlakatlarining siyosiy hayotida islomiy guruhlarining yanada faol ishtirok etishi muqarrar va faqat shu yo'l bilan islom radikalizmi zahrini musulmon jamiyatlari qoni va to'qimalaridan chiqarish mumkin. Bizga do'st bo'lgan avtoritar hukmdorlar itoatkor xalqlar ustidan hukmronlik qilgan davrlar batamom unutildi" (F.Fukuyama, 1994).

2023 yil 30 apreldagi referendum asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan (1-modda) "O'zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat" (lex.uz) - deb e'lon qilindi. Ko'rinib turibdiki, bu qoida davlatning istalgan holatini aks ettiradi, biz demokratik taraqqiyot jarayonida bunga erishishimiz kerak.

Huquqiy davlat g'oyasining kelib chiqishi uzoq tarixga borib taqaladi. Buyuk yunon faylasufi Aflotunning yozishicha, davlatchilik qonunlar hukmron bo'lgan joyda paydo bo'ladi, "Qonun hukmdorlar ustidan hukmdor, ular esa uning qullaridir". Qonunlar adolat bilan himoyalaniishi kerak. Aks holda qonunlar adolatsizliklar va razolat uchun xizmat qilishi mumkin.

Nemis faylasufi Immanuel Kant "davlatning eziguligi va maqsadi mukammal qonunda, davlatning tashkil etilishi va siyosiy rejimining axloq va huquq tamoyillariga maksimal darajada mos kelishida..." degan tezisni asoslab berdi. I.Kant davlatning qonunga tayanishi, o'z harakatlarini u bilan muvofiqlashtirishi zarurligini doimo ta'kidlab kelgan. Huquq va erkinliklarni ta'minlamagan, o'zining ijobiy qonunchiligi himoyasini ta'minlamagan davlat fuqarolarning ishonchi va hurmatini yo'qotish xavfini tug'diradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mamlakatni isloh etish va modernizatsiya qilish dasturining tadrjijilik sababi nimalardan iborat?. O'zbekiston avval-boshdan soxta inqilobiy sakrashsiz, inqilobiy o'zgarishsiz, bosqichma-bosqich, aholi keng tabaqalari manfaatini muhofaza qilgan holda, tadrjijiy – evolyutsion ravishda rivojlanish yo'lini tanlaganini e'lon qildi.

Liberallashtirish – o'tish davridan so'ng hokimiyatning uch tarmog'idan iborat tizimni rivojlantirish shakli va bosqichi haqida ham to'xtalib o'tish o'rinlidir.

Ijtimoiy-falsafiy adabiyotlarda liberallashtirish deganda muayyan huquq va erkinliklarni, insonning erkin harakat qilishini kengaytirish, ko'plab faoliyat turlariga nisbatan cheklovlarni bekor qilish yoki kamaytirish, "har qanday hukumatning majburlovchi hokimiyatini cheklash" jarayoni, "insonning o'z qobiliyatini erkin amalga oshirishiga imkon beradigan sharoitlarni qo'llab-quvvatlash", "xususiy mulk ustuvorligi" tushuniladi.

Tahlil va natijalar. Jahon tarixida hokimiyatlar muvozanatining takrorlanishini kuzatish qiziqarli holat. Masalan, XV asrning oxiri – XVI asrning boshlarida amalga

oshirilgan "imperiya islohoti" Muqaddas Rim imperiyasi birligini mustahkamlash imperiyaga G'arbiy Yevropaning milliy davlatlari bilan muvaffaqiyatli raqobatlashishda qo'l kelgan imperator hamda tabaqalar o'rtasida hokimiyatning yangi muvozanatini shakllantirishga imkon berdi. 1958 yilgi Fransiya Konstitutsiyasi uchun Charl De Gollning mamlakat davlat tizimiga nisbatan "hokimiyatning bo'linishi va muvozanati", demokratiya, shaxsning huquq va erkinliklari prinsiplarini saqlashni ko'zda tutgan qarashlari asos qilib olingan. San-Marino Davlat kengashi har 6 oyda davlat rahbarlari bo'lmish ikki nafar kapitan-hokim (regent)ni saylaydi. Regentlar hokimiyat muvozanatini saqlash uchun bir-biriga qarshi siyosiy partiyalardan saylanadi. Isroilda to'qqiz nafar a'zo, jumladan, Oliy sudning uch nafar sudyasi va raisidan iborat Sudyalarni saylash komissiyasi tomonidan sudyalarning tayinlanishi davlatda hokimiyatlar muvozanatining buzilishi hamda isroillik saylovchilar xohish-irodasini inkor etish sifatida tasniflanadi. Rossiya Konstitutsiyasiga muvofiq, hokimiyat tarmoqlari o'rtasidagi muvozanat shunday qurilganki, bunda Rossiya Federatsiyasi aralash respublika sifatida ta'riflangan (prezidentlik-parlament, yarim parlamentlik yoki yarim prezidentlik). Hokimiyat tarmoqlari o'rtasidagi muvozanat shunday tashkil etilganki, hukumatni shakllantirish huquqi prezidentga ham, parlamentga ham tegishli emas.

Fransiya va Shveysariya yozuvchisi, publitsist, Fransiya inqilobi, bonapartizm va qayta tiklash davrlarining siyosiy arbobi Anri-Benjamin Konstan de Rebek (1767-1830 yy.) "haddan ortiq darajadagi hokimiyat" mavjud bo'lgan har qanday shakldagi davlatni qoralaydi. Uning yozishicha, jamoatchilik fikri, shuningdek, hokimiyatning uch tarmoqqa bo'linishi va ularning tengligi bunday nuqsonning oldini olishning kafolatlari hisoblanadi. Hokimiyatning mustaqil tarmoqlarga bo'linishi va ularning tengligi quyidagicha ro'y beradi: davlat rahbari boshchiligidagi "betaraf hokimiyat" bo'lishi kerak; davlat rahbari hokimiyat tarmoqlari o'rtasida mojarolar paydo bo'lishining oldini oladi, ularning kelishilgan holda faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Veto huquqi, saylov palatasini tarqatib yuborish, avf etish huquqi davlat rahbariga tegishlidir. Davlat rahbari "erkinlik va tartibni saqlashdan boshqa" hech qanday manfaatga ega emas (B.Konstan, 2000).

E.To'ffler esa hokimiyat tarmoqlarining o'zaro hamkorligi va muvozanatini belgilash jarayonini optimistik ruhda izohlaydi: "Bir darajadagi huquqiy tengsizlik boshqasida tuzatilishi mumkin. Shu sababli hokimiyat muvozanati ikki yoki bir qancha obyekt o'rtasida mavjud bo'lishi mumkin, hatto ularning tarkibiga kiradigan turli kichik tizimlar o'rtasida ham huquqiy tengsizlik bor". Shu bilan birga, olim ushbu hodisani mutlaqlashtirish omillarini hisobga olish, "nafaqat hokimiyat muvozanatini, balki "muvozanat hokimiyati"ni ham baholash kerak" (E.To'ffler, 2004) ligiga da'vat etadi.

Boshlangan "imperiya prezidentligi" asri to'g'risidagi tezisni rivojlantirgan amerikalik tarixchi Artur Shlezinger (1917-1907 yy.)ning yozishicha, "Konstitutsiyada ko'zda tutilgan prezident hokimiyati va vakillik organlari o'rtasidagi muvozanat prezident foydasiga buziladi". "Tashqi siyosat – ushbu konstitutsiyaviy muvozanat buzilishi mumkin bo'lgan sohadir" (A.Shlezinger, 1992), deydi A.Shlezinger.

Tadqiqot natijalarining muhokamasi. Metodologik institutsionalizm – ilmiy bilimni alohida va birlashgan faktorlar o'rtasidagi o'ziga xos ijtimoiy munosabatlarga chambarchas bog'lab qo'yadigan noklassik ijtimoiy bilim uslubidir (D.P.Frolov, 2009). "Muvozanatli yondashuv tizim elementlari faqat bitta asosiy maqsadga ega bo'lishi muvozanatning boshlang'ich nuqtasiga qaytishi yoki biron-bir yangi muvozanat nuqtasi sari harakatlanishi mumkinligi haqidagi tasavvurni yuzaga keltiradi", - deydi D.Iston. Buning

ustiga, "tizimning ayrim elementlari ba'zan muvozanatning oldingi holatini buzishga ko'maklashuvchi harakatlarni sodir etishi yoki muvozanatsizlikning doimiy holatini saqlashi mumkin". Muvozanatli holatlar tahlilini, garchi noaniq shaklda bo'lsa-da, uslubiy asos sifatida qabul qilish muvozanat holatiga erishishga olib bora olmaydigan tizim maqsadlarini aniqlashni qiyinlashtiradi.

Tizimli tahlil, deb xulosa qiladi D.Iston, "yaxshi rivojlangan muvozanatli yondashuv doirasida erishish mumkin bo'lgan nazariy tahlil darajasidan ko'ra yanada moslashuvchan va samarali nazariy tuzilmani ishlab chiqish imkonini beradi" (M.A.Vasilik, 2000). Hokimiyatning bo'linish xususiyatlarini tizimli tahlil qilishning mohiyati shundan iboratki, bunda hokimiyat elementlar kompleksi sifatida, muhit – fuqarolik jamiyati va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan bog'liq holda o'rganiladi.

Hokimiyat tarmoqlarining muvozanati haqida gap borganda, tashqi tomonni ham hisobga olish zarur. "Pirovard natijada, - deydi X.Klinton, - hokimiyat muvozanati mavjud bo'lishi kerak. Bu esa Amerikada davlat boshqaruvi tizimidagi asosiy prinsiplardan biridir. Bizda hokimiyat tarmoqlari muvozanati mavjud, bu yerda mustaqil sud tizimi, kuchli ijro

hokimiyati, juda faol qonun chiqaruvchi hokimiyat faoliyat ko'rsatmoqda. Ammo, bundan tashqari, hukumat, bozor iqtisodiyoti va fuqarolik jamiyati o'rtasida ham hokimiyat muvozanati bo'lishi kerak. Bu muvozanatga putur yetgan taqdirdagina ushbu jarayonga boshqa tomonlar aralashishi kerak" [usembassy.gov.].

Xulosa va takliflar. Tizimli tahlilning maqsadi tizimli yondashuvga asoslangan yirik muammolarni hal qilishda harakatlar ketma-ketligini tartibga solishdir. Tizimli tahlilda muammoni hal qilish tizimning ishlashini ta'minlaydigan yoki yaxshilaydigan faoliyat sifatida ta'riflanadi. Tizim tahlilning texnikasi va usullari targ'ib qilishga qaratilgan muqobillar muammolarni hal qilish, har bir variant uchun noaniqlik darajasini aniqlash va ularning samaradorligi nuqtai nazaridan variantlarni taqqoslashdir. Hokimiyat bo'linishini tizimli asosda tahlil etishning mohiyati shundaki, hokimiyat elementlar kompleksi sifatida, fuqarolik jamiyati va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan bog'liq holda o'rganiladi. Tizimli tahlil siyosatdagi ijtimoiy asoslarni hamda siyosatning ijtimoiy voqeliklarga teskari ta'sirini inobatga olgan holda, hokimiyatning bo'linishini murakkab va o'zaro bog'liq holda tadqiq qilish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Jayasuriya K. Understanding "Asian values" as a form of reactionary modernization // Contemporary politics. - Abingdon. - 1998. - Vol.4. - №1. - P.77-91.
2. Fukuyama F. The Primacy of Culture // Journal of Democracy. - 1995. - Vol. 6. - No.1. - P.7-14.
3. Фукуяма Ф. Будущее фундаментализма // Век XX и мир. - 1994. - № 7-8. - с.5.
4. Констан Б. Принципы политики, пригодные для всякого правления // Французский классический либерализм. - М: РОССПЭН, 2000. - С.492
5. Тоффлер Э. Метаморфозы власти. - М.: АСТ, 2004
6. Шлезингер А. Циклы американской истории. - М.: Прогресс, Прогресс-Академия, 1992. - С. 399-485
7. Фролов Д.П. Методологический институционализм - новый подход в философии науки // Эпистемология и философия науки. - 2009. - Т.19. - №1. - С.123-135
8. М.А.Василик, М.С.Вершинин. Политология: Хрестоматия. - М.: Гардарики, 2000. - С. 320-311.



UDK: 37:3704:37042

Nodira SAIDOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: saidovanodira1809@gmail.com

P.f.f.d., PhD G.Abdullayeva taqrizi asosida

O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA‘LIM TOMON YO‘L

Аннотация

Inklyuziv ta‘lim – bu nogironligi yoki boshqa sabablar tufayli maxsus yordamga muxtoj ya‘ni millati, irqi, tanasining rangi, ijtimoiy kelib chiqishi, oilasining jamiyatda tutgan o‘rni, manbai, moddiy va ma‘naviy axvoli, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida kamchiligi bo‘lishidan qat‘iy nazar barcha bolalarni teng ko‘rish, ulardagi har qanday imkoniyatni qadrlash, rivojlantirishni ko‘zda tutadigan ta‘limdir. O‘zbekistonda inklyuziv ta‘limni joriy etish oldida turgan muammolarni o‘rganish va bu muammolarni xalq etish yo‘llarini izlab topish kabilar bugungi kunning asosiy masalaridan bo‘lib, bu borada tadbir etish texnologiyalari ishlab chiqilib, kamchiliklar bartaraf etilsa ko‘zlangan natijaga erishish mumkin.

Kalit so‘zlar: Inklyuziya, inklyuziv ta‘lim, nogironligi bor bo‘lgan bolalar, integratsiya, korreksion maktab.

ПУТЬ К ИНКЛЮЗИВНОМУ ОБРАЗОВАНИЮ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

Инклюзивное образование предназначено для тех, кто нуждается в особой помощи по причине инвалидности или других причин, независимо от их национальности, расы, цвета тела, социального происхождения, места семьи в обществе, происхождения, материального и духовного состояния, отсутствия физического или умственного развития. Это образование, которое рассматривает всех детей как равных, ценит все их возможности и развивает их. Изучение проблем, стоящих перед внедрением инклюзивного образования в Узбекистане, и поиск путей решения этих проблем являются одними из главных задач современности.

Ключевые слова: Инклюзия, инклюзивное образование, дети с ограниченными возможностями здоровья, интеграция, коррекционная школа.

THE WAY TOWARDS INCLUSIVE EDUCATION IN UZBEKISTAN

Annotation

Inclusive education is for those who need special assistance due to disability or other reasons, regardless of their nationality, race, body color, social origin, place of their family in society, source, material and spiritual condition, lack of physical or mental development. It is an education that considers all children as equal, appreciates all their opportunities, and develops them. Studying the problems facing the implementation of inclusive education in Uzbekistan and finding ways to solve these problems are one of the main issues of today. possible

Key words: Inclusion, inclusive education, children with disabilities, integration, correctional school.

Kirish. Inklyuziv ta‘lim (ingliz tilidan olingan bo‘lib, inclusive, inclusion–uyg‘unlashmoq, uyg‘unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma‘nolarini bildiradi) nogironligi bor bo‘lgan bolalar va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etish, maxsus ta‘limga muxtoj bolalar, o‘smirlar rivojlanishida xusraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat‘iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo‘naltirilgan umumta‘lim jarayoniga qo‘shishni ifodalovchi ta‘lim tizimidir. 2019 yil 29 aprelda “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O‘zbekistonda inklyuziv ta‘limni rivojlantirish, alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish, hamda ularga ko‘rsatiladigan ta‘lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida qator islohotlarni amalga oshirish belgilandi. Ushbu konsepsiyada alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun korreksion sinflar ochish, individual ta‘lim dasturlarini o‘rganishda maxsus pedagog va tyutorlarni jalb etish, inklyuziv ta‘lim laboratoriyalari faoliyatini olib borishga, va inklyuziv ta‘limni rivojlantirishga doir chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Inklyuzivlik integratsiyaning izchil davomi sifatida qaraladi. Agar integratsiya bolani mavjud tizimga tub o‘zgarishlar kiritmasdan qabul qilishni nazarda tutsa, unda

inklyuziya barcha bolalarning birgalikda ta‘lim va tarbiya olish huquqi birinchi navbatda bir qator islohotlar o‘tkazilgandan so‘ng amalga oshirilishi kerakligidan kelib chiqadi. Ya‘ni ta‘kidlab o‘tish joizki, inklyuziv ta‘lim bolani jamiyatga integratsiyalashni rag‘batlantiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sharqning mashxur allomalari Ibn Sino, Imom Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniyning tarbiyaning maqsadlari har bir bola shaxsining rivojlanishiga ta‘limning ta‘siri tug‘risidagi qarashlari inklyuziv talim rivojlanishining metodologik bazasi xisoblanadi. Inklyuziv ta‘limga oid tadqiqotlar borasida bolalar psixologiyasi muammolarini K.C.Vigotskiy, A.N.Leontyev, K.D.Ushinskiy, V.N.Myasishchev, N.N.Malofeyev., N.D.Mematko kabi rus olimlarining tadqiqotlarini aytish joiz. Imkoniyati cheklangan bolalarni pedagogik-psixologik korreksiyalash masalalarini o‘rganishda I.I.Mamaychuk, L.P.Koskovskiy, O.S.Nikolskayalar tadqiqotlarini aytib o‘tish joiz. J.Bruner o‘z tadqiqotlarida “Shaxsning tarkib topishi bilan ta‘lim o‘rtasida o‘zaro aloqa mavjudligini, insonning kamolot sari intilishi bilim olish samaradorligini oshirsa, o‘qitishning takomillashuvi uning ijtimoiylashuvini jadallashtiradi”- deya ta‘kidlaydi. Shuningdek, J.Piaje, A.Bine, O.Kronn, B.Shtern tadqiqotlarida bola psixik taraqqiyotida ta‘lim-tarbiyaning

maq'ei, ularning aqliy xususiyatlari, psixokorreksiya mashqlarining o'rnini ilmiy-amaliy asoslab berishda muhim o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasida nogironligi bor bo'lgan bolalar bilan bog'liq tahlil va dastlabki baholash ishlari 1966-yilda boshlangan. Bu borada L.Muminova, R.Shomaxmudova, U.Fayzieva, D.Nazarova, F.Kodirova, M.X.Ganieva, Z.Mamarjabova, N.S.Musayevalarning ilmiy izlanishlari inklyuziv ta'limga oid masalalarni o'rganishga qaratilgan. O'zMu Ijtimoiy fanlar fakulteti Ijtimoiy ish kafedrasini mudiri N.M.Latipova sotsiologiya fanlari doktori, professor, A.A.Abduxalilov dotsent, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, Alekseeva V.S inklyuziv ta'lim mavzusida izlanishlar olib borishgan. Inklyuziv ta'lim bolalarga nisbatan har qanday kamsitishlarni istisno qiladigan va barchaga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan, shu bilan birga maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadigan mafkuraga asoslanadi. Bizning davrimizda inklyuziv ta'lim haqiqatga aylanib, dunyoning barcha mamlakatlarida barqaror ravishda qamrab olinmoqda va jalb qilinmoqda. Ammo, shu bilan birga, inklyuziv ta'limni amaliyotga kirib kelishi bu bir qancha yondashuv va bosqichlardan iborat jarayon hisoblanadi. Inklyuziviyani metodologik asoslashda nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni belgilaydigan yondashuvlar alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun ham inklyuziv ta'limni shakllantirishda turli xil yondashuvlarni tahlil qilish, inklyuziv ta'lim istiqbollarini belgilashda asos bo'lib xizmat qiladi. V.N. Maksimova inklyuziv yondashuvlar nogironligi bor bo'lgan bolalarni o'rganish va muvaffaqiyatga erishishda qo'llab-quvvatlashga yordam beradi, bu esa yaxshi hayot uchun imkoniyatlar yaratadi, deb hisoblaydi.

Natijalar va ularning muhokamasi. 2020 yilning yanvar oyiga kelib olingan statistik ma'lumotlarga ko'ra 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolalar soni Respublikamizda 120.000 ziyodni tashkil etadi. Nogironlarning umumiy sonidan 31,5 % ni shaxarda yashovchi, 52,7 % ni o'g'il bolalar tashkil etadi. Xozirgi kunda respublika bo'yicha 11700 nafar o'quvchilar uyda yakka tartibda ta'lim oladilar shulardan 8850 nafar o'quvchilar serebral falaji, polimielit, skaliroz, og'ir nutq kamchiliklari, asab, buyrak, xirurgik bolalar, ko'z va boshqa kasalliklari bo'lgan bolalar. Shulardan 3650nafari imkoniyati cheklangan ya'ni 2901 nafari aqli zaif, 408 nafar ko'zi ojiz, 351 nafari eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalardir. Sanator turdagi 23 ta maktab internatda 6918nafari bola davolanib ta'lim oladilar. 237 ta umumta'lim maktablarida nutqida nuqsoni bo'lgan 11844 nafar o'quvchi, 122 ta maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida 995 nafar rivojlanishida turli xil nuqsoni bo'lgan bolalar, maktabgacha umumta'lim muassasalaridagi 937 integratsiyalashgan guruxlarida 11340 nafar imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim tarbiya olib kelmoqda. 2014 – 2016 yillarda Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikda “O'zbekistonda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim” loyihasi amalga oshirildi. Loyiha doirasida:

-respublikaning 5 ta hududida tajriba-sinov maydonchalari tashkil etildi;

-150 nafardan ortiq tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya va 1,3 ming nafardan ortiq pedagog xodimlar inklyuziv ta'lim xizmatlariga o'qitildi;

-pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha ta'lim muassasalarining o'quv rejalariga ta'lim tizimiga inklyuziv amaliyotni tatbiq etishga doir 3 ta o'qitish moduli kiritildi;

-2 ming nafardan ortiq alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar va ularning ota-onalariga inklyuziv ta'lim xizmatlari tashkil etildi;

-Toshkent, Samarqand, Namangan, Xorazm va Surxondaryo viloyatlarida 5 ta tajriba-resurs markazi hamda

15 ta tajriba maktablari tashkil etilib, ularga 800 nafardan ortiq bolalar qamrab olindi. Inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Mazkur hujjatlarda jamiyatimizning bir bo'lagi bo'lgan maxsus yordamga muhtoj bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularga ta'lim-tarbiya berish, ularning sog'lom bolalar qatoridan o'rin olib o'z qobiliyati, imkoniyatlarini ko'rsata olishiga, ma'naviy kamol topishiga qaratilgan choratadbirlar belgilab berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Inklyuziv ta'limning O'zbekistonda joriy qilinishi, “Ta'lim hamma uchun” dasturining bajarilishi, O'zbekistonda ta'lim olish huquqining qonunchilik asosini quyidagilar tashkil qiladi:

• O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (19922023 yil; 4155 -modda)

• “O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoyalash to'g'risidagi” qonun (19, 27-moddalar)

• “Ta'lim to'g'risida”gi qonun (1997 yil, 22, 23-moddalar)

• “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi qonun (2008 yil; ta'lim olishdagi teng imkoniyatlar va alohida kafolatlari, 28, 29-moddalar)

• Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (o'quvchilarni qobiliyat va imkoniyatlariga muvofiq o'qitishga differentsion yondashuv)

• “Ijtimoiy himoya yili” davlat dasturi (4.2-modda), “Yoshlar yili” Davlat dasturi.

• “Sog'lom avlod” davlat dasturi (2000 yil)

• “Ijtimoiy himoya yili” davlat dasturi (2007 yil)

• “Barkamol avlod yili” davlat dasturi (2010 yil) va boshqalar

Inklyuziv ta'limning barqarorligini ta'minlash maqsadida “Ta'lim to'g'risida”gi qonunning yangi tahririga imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim jarayoniga integratsiyalash maqsadida umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim muassasalarida inklyuziv guruh va sinflarning tashkil qilinishini tartibga soluvchi modda kiritilgan.

O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

• inklyuziv ta'limni imkoniyatlari cheklangan bolalarning barqaror rivojlanishi, rehabilitatsiyasi, jamiyatda moslashuvi va integratsiyasining muhim omili sifatida tan olinishi;

• imkoniyatlari cheklangan bolalarni umumiy ta'limga integratsiyalash maqsadida ta'lim muassasalari, ota-onalar, jamoatchilik tashkilotlarining faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirish mexanizmlarini yaratish;

• inklyuziv ta'lim muassasalari uchun maxsus o'quv rejaları, o'quv-uslubiy komplekslar ishlab chiqish;

• o'quvchilarda tevarak-atrofdagilar, tengdoshlari bilan o'zaro ijobiy munosabatlarning o'rnatilishi, atrofdagi kishilarda kommunikabellik va bag'rikenglikni rivojlantirish;

• imkoniyatlari cheklangan bolalarni ularning ehtiyojlari va imkoniyatlariga qaratilgan sifatli ta'lim olishida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi;

O'zbekistonning integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lim sohasidagi siyosati yosh fuqarolarning ta'lim olishlari uchun optimal sharoitlar yaratilishiga qaratiladi va quyidagi maqsadlar bajarilishiga yo'naltiriladi:

• bolaning o'ziga xos ta'limga ehtiyojlarini mumkin qadar erta (hayotining dastlabki oylaridan) aniqlash;

• o'ziga xos ta'lim ehtiyojlari mavjud bolalarning barchasini ta'limga jalb etish;

• imkoniyatlari cheklangan bolalarni sog'lom tengdoshlari qatoriga integratsiyalash uchun sharoitlar yaratish;

- imkoniyatlari cheklangan shaxslarning o'ziga xos ta'lim ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

- uyg'un rivojlangan avlodni tarbiyalashga qaratilgan davlat siyosatini ta'lim vositalari yordamida qo'llab-quvvatlash;

Tahlil va natijalar. O'zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim mussasalariga jalb etish, integrasiya asosida ta'limni tashkil etishning o'ziga xos muammolari va qiyinchiliklari bo'lsada u barcha mintaqalarda rivojlanib bormoqda. Imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim berishning noan'anaviy boshqa shakllarini tashkil etishga ham harakat qilinmoqda.

Amalga oshirilgan ma'lum bir darajadagi yutuqlar bilan birga ayrim hal etilishi kerak bo'lgan quyidagi muammolar ham mavjud:

- ota-onalar uchun nogironligi bor bo'lgan bolalarni o'qitish tizimi, inklyuziv ta'lim tizimi haqidagi o'quv qo'llanmalarining yo'qligi;

- maxsus ehtiyojli bolalarni uyda o'qitish uchun mutaxassislarning mablag' bilan ta'minlash tizimining joylarda talab darajasida yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi;

- nogironligi bor bo'lgan bolalarni maktabga kelishi uchun transport bilan ta'minlash masalalari;

- chekka qishloqlardagi tashxisning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi;

- nogironlar aravachalari, qo'ltiq hassalar, eshituv apparatlari, ko'zoynaklar, travmatologik poyafzallarning yetishmasligi;

- davlat tomonidan kasb-hunarga yo'altirish, ish bilan ta'minlash, muammolari to'laqonli hal qilinmaganligi;

- nogironligi bor bo'lgan bolalar bilan ishlash mahallalarda yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi va nodavlat-notijorat tashkilotlarning faoliyati yetarli emasligi;

- nogironligi bor bo'lgan bolalarning ota-onalaridagi huquqiy bilimining yetarli emasligi va davlat tomonidan belgilangan imtiyozlarni bilmasligi;

Xulosa va takliflar. Inklyuzivlik – bu bolalarga atrof-muhitni, ta'lim-tarbiyani, ish va jamoat joylaridagi munosabat qonun-qoidalarini rivojlantiradigan kuchli tendensiya sifatida shakllanmoqda. Shunday qilib, inklyuziv ta'lim tizimining qurilishi murakkab va uzoq muddatli jarayon bo'lib, ularning muvaffaqiyati davlat, o'qituvchi, o'quvchi va ota-onalarning faol ishtirokiga bog'liq. Har qanday jamiyatda har bir bola noyob, maxsus ehtiyojli bolalar esa boshqa bolalar singari huquq, ehtiyoj va intilishlarga ega degan dalilni idrok etish zarurati mavjuddir. Nogironligi bor bolalarning bilimlarni chuqurlashtirish bo'yicha ish olib borish qobiliyatlarini rivojlantirish bola, oila, jamiyat darajasida hamma uchun muhim va foydali. Inklyuziv ta'lim jarayonlarini tadqiq etishning nazariy metodologik asoslari tahlili quyidagi xulosalarga kelishga imkon berdi:

Birinchi, inklyuziv ta'lim bolalarga nisbatan har qanday kamsitishlarni istisno qiladigan va barcha odamlarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan, shu bilan birga maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadigan mafkuraga asoslanadi. Bizning davrimizda inklyuziv ta'lim haqiqatga aylanib, dunyoning barcha mamlakatlarida barqaror ravishda qamrab olinmoqda

va jalb qilinmoqda. Ammo, shu bilan birga, intensiv ravishda amaliyotga kirib kelayotgan inklyuziv ta'lim, mavjud ta'lim tizimi uchun juda ko'p murakkab savollar va yangi vazifalar qo'yadi.

Ikkinchi, inklyuziv boy tajribaga va qonunchilikda konsolidatsiyaga ega bo'lgan xorijiy ta'lim tizimidan farqli o'laroq, bizning ichki inklyuziyamiz endi shakllana va rivojlana boshlamoqda. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda yashovchi bolalarning 4,5% nogironlar toifasiga kiradi va ularning maxsus ta'lim ehtiyojlarini qondiradigan maxsus (korreksion) ta'limga muhtoj. Ammo, afsuski, hozirgi paytda mamlakatimizda nogironligi bor bo'lgan bolalar uchun ta'lim xizmatlari bozori nihoyatda tor, kichik shahar va qishloqlarda nogironligi bor bo'lgan bolalar ko'pincha sof iqtisodiy sabablarga ko'ra ta'lim tizimidan tashqarida qoladilar. Maxsus (korreksion) ta'lim muassasalari imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitishning an'anaviy shakli bo'lib qolmoqda. Nogironligi bor bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalashdagi qiyinchiliklarning muhim qismi malakali kadrlarning yetishmasligi bilan bog'liq: defektolog-o'qituvchilar, psixologlar, o'qituvchilar va ijtimoiy o'qituvchilar, ularning tayyorgarligi yetarli emas. Axir, inklyuziya maktab hayotining chuqur ijtimoiy tomonlarini qamrab oladi: har qanday bolaning ta'lim ehtiyojlariga mos keladigan axloqiy, moddiy, pedagogik muhit yaratiladi, bu faqat ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari bilan yaqin hamkorlikda, jamoaviy o'zaro munosabatlarda ta'minlanishi mumkin. Uchinchi, bolalarning qadr-qimmatini ularning farqlari bilan qabul qilish va tan olish nuqtai nazarini o'zgartirish, bola yashaydigan o'ziga xos vaziyatlarni chuqur tahlil qilishni, uning shaxsiyatini yaxshiroq bilishga va uning salohiyatini rivojlantirishga yordam beradigan ongli harakatlarni talab qiladi. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati zamonaviy chet el pedagogikasi uchun dolzarb bo'lgan quyidagi vazifalarni hal qilishni talab qiladi: inklyuziv ta'limning asosiy bosqichi sifatida erta ta'lim rolini kuchaytirish; inklyuziv ta'limni rivojlantirishning yetakchi mexanizmi sifatida ota-onalar bilan hamkorlik sifatini oshirish; inklyuziv ta'lim bilan shug'ullanadigan barcha shaxslarning muntazam ravishda malakasini oshirish; pedagogik yo'nalishlar bo'yicha talabalarni kasbiy tayyorlash bo'yicha o'quv dasturlarini yangilash, ushbu vazifalar yakka holda ko'rinmaydi, balki har bir bolaga, ayniqsa, imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan inklyuziv jarayon sifatini oshirishga qaratilgan "oila - ta'lim muassasasi - jamiyat" uzluksiz munosabatlar tizimini qurishda o'zaro uzviy va bir-biriga bog'liqdir. Inklyuziv ta'limda pedagogik jarayonning mazmun komponenti alohida ehtiyojli bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tarkibning o'zgaruvchanligini ta'minlashdan iboratdir. Har qanday jamiyatda kelajak vorislari bo'lmish farzandlarni ma'suliyatini his etadigan, ularni davlat taraqqiyoti va gullab yashnashiga salmoqli ulush qo'shadigan munosib fuqarolar bo'lib yetishishlariga kata umid bilan qaraladi. Ko'plab mamlakatlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus tashkil etilgan maktablar mavjud ularning vazifasi esa ularni maxsus o'quv yurtlariga tayyorlash hamda ijtimoiy hayotga moslashuviga shart-sharoit yaratishdir.

ADABIYOTLAR

1. Gunval Ch. "Ko'pchilik uchun maktab"dan "Maktab hamma uchun...gacha" // Defektologiya. – 2006. – No 2. – B. 73–78.
2. Demytyeva N.F., Bagaeva G.N., Isaeva T.N. Nogiron bolaning oilasi bilan ijtimoiy ish. – M.: Ijtimoiy ish instituti nashriyoti, 1997. – 213 b.
3. Muminova L. Logoped kuch va o'qitish. – T.: O'qituvchi, 1993 yil. URL: <http://www.sisf.uz/>
4. Mo'minova L. O'zbekiston Respublikasida inklyuziv talim konsepsiyasi. Rivozlanishida nuksoni bor bolalar nutkini logoped ko'rikdan o'tkazish texnikasi. – T., 2009 yil.



UDK: 316.6.165.19.(575.1)

Aziza SODIQOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti talabasi
E-mail:sodiqovaa03@gmail.com

Sotsiologiya fanlari boyicha falsafa doktori (PhD) F.Komilov taqrizi asosida

NOGIRONLIK TUSHUNCHASINI O‘RGANISHDA TIBBIY MODEL DAN IJTIMOYIY MODELGA O‘TISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada jamiyatimizdagi ayrim insonlar nogironlik tushunchasini nima ekanligini va faqatgina tashqi qarash va o‘z yondashuvlaridan kelib chiqqan holda shaxsiy nuqson, mehnat qobiliyatining cheklanganligi, nogironlik faqat zarar ko‘rgan shaxsning muammosi, mahrumlik, og‘ish tushunchalari sifatida talqin qilinishini ko‘rishimiz mumkin. Shuni nazarda tutish kerakki, nogironlik nafaqat shaxsning shaxsiy muammosi balki jamiyatning ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb muammolaridan biridir. Bugun biz ushbu maqolada hayoti davomida turli baxtsiz hodisalar harakati yoki harakatsizligi natijasida nogironlik maqomini olgan shaxslarning jamiyatga moslashishi va ijtimoiylashuvi doirasida qilinayotgan amaliy islohotlar borasida maqolamizda o‘rganamiz.

Kalit so‘zlar: Nogiron, adaptatsiya, integratsiya, tug‘ma va orttirilgan nogironlik, inklyuziv axloq, tibbiy model, ijtimoiy model, konvensiya, ijtimoiy to‘siq, ijtimoiy himoya milliy agentligi, segregatsiya, brayl yozuvi, model, inklyuziv.

ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕХОДА ОТ МЕДИЦИНСКОЙ МОДЕЛИ К СОЦИАЛЬНОЙ МОДЕЛИ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ПОНЯТИЯ ИНВАЛИДНОСТИ

Аннотация

В этой статье мы увидим, что некоторые люди в нашем обществе понимают под понятием инвалидности, и только исходя из внешнего видения и собственных подходов, мы увидим, что личностный дефект, ограниченность трудоспособности, инвалидность трактуются только как проблема пострадавшего человека, понятия депривации, девиации. Следует иметь в виду, что инвалидность-это не только личная проблема человека, но и одна из насущных проблем общества, имеющая важное значение. Сегодня мы узнаем в нашей статье о практических реформах, проводимых в рамках адаптации и социализации в обществе лиц, получивших статус инвалидов в результате действия или бездействия различных несчастных случаев в течение своей жизни.

Ключевые слова: Инвалидность, адаптация, интеграция, врожденная и приобретенная инвалидность, инклюзивная этика, медицинская модель, социальная модель, конвенция, социальный барьер, Национальное агентство социальной защиты, сегрегация, шрифт Брайля, модель, инклюзивность.

FEATURES OF THE TRANSITION FROM THE MEDICAL MODEL TO THE SOCIAL MODEL IN THE STUDY OF THE CONCEPT OF DISABILITY

Annotation

In this article, we can see what some people in our society understand the concept of disability and is interpreted only as the concepts of personal defect, limitation of working capacity, disability only as the problem of the affected person, deprivation, deviation, arising from external views and their own approaches. It should be borne in mind that disability is not only a personal problem of an individual, but also one of the pressing problems of society, which are of great importance. Today we will learn in this article about practical reforms that are being carried out in the framework of the adaptation and socialization of individuals who have received disability status as a result of various accident actions or inaction throughout their lives into society.

Key words: Disability, adaptation, integration, congenital and acquired disability, inclusive ethics, medical model, social model, convention, social barrier, National Agency for Social Protection, segregation, Braille, model, inclusive.

Kirish. “Jasoratli yurakda barcha qiyinchiliklar sinadi.”(Migel de Servantes.) Darhaqiqat, bugun jamiyatimizda nogironlikni turli ko‘rinishlarini o‘zida aks etgan shaxslar bilan birga yashamoqdamiz.

E’tibor beradigan bo‘lsak do‘stlarimiz, qo‘ni – qo‘shnilarimiz, sinfdoshlarimiz, hamkasblarimiz, hatto qarindoshlarimiz orasida ham nogironligi bo‘lgan shaxslar bor. “Nogiron”lik iborasini tez-tez eshitishingiz yoki ko‘rishingiz mumkin va nogironligi mavjud shaxslarga qanday munosabat bildirishda jamiyatimiz ongida mavjud stereotiplar hali ham o‘z kuchida.

Dunyoda yana shunaqa tushuncha androgonistik yondashuvlar mavjudki, bunda “Nogironlik” diniy modelda

nogironlikni o‘rganayotgan davr va madaniyatga qarab, Xudoning sovg‘asi yoki Xudoning la‘nati deb tushuniladi.

Ananaviy modelda esa sog‘lig‘ni buzulishi, nuqson sifatida belgilanadi va bu modelda insonni davolash, tibbiy aralashuv va terapiya orqali reabilitatsiya qilish uchun maxsus institutlarga joylashtirishni ko‘zda tutadi va odamni jamiyatning qolgan qismidan ajratib qo‘yishga olib keladi[1].

Ushbu yondashuvlarni ma’lum bir fan nuqtai nazaridan ifodalangan. Ammo nogironlik tushunchasi turli yondashuvlar asosi bilan ifodalanmaydi, bu huquq bilan belgilangan.

Xususan “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi” qonunning 3 - moddasida: Nogironligi bo‘lgan shaxs- ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj jamiyat va

davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotida boshqalar bilan birga teng to'liq va samarali ishtirok etish uchun shart-sharoitlar yaralatilishiga muhtoj barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan shaxs tushuniladi[2].

Albatta bu rasmiy va yuridik atama. Ammo nogironligi bo'lgan shaxslarning o'zlari buni haqoratli deb bilishadi va bu termindan foydalanmaslikni afzal ko'rishadi. Bundan tashqari tug'ma nogironlikka ega shaxslar va orttirgan nogironlik o'rtasida ham mavjud ijtimoiy faqrni ko'rishimiz mumkin. Buni biz adaptatsiya va integratsiya jarayonlarida yaqqol ko'ramiz.

Tug'ma nogironlikka ega shaxs o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarni anglagan holda o'sib rivojlanadi, jamiyatga ham moslashadi, katta qiyinchilikka duch kelmaydi. Faqat integratsiya jarayonida birmuncha to'siqlarga duch kelishi mumkin yani omma oldida o'zini nomoyon qillishga qiyinalishi, o'z iqtidor va qobiliyatlarini ko'rsatishda boshqa shaxslar uni qanday darajada qabul qilib munosabat bildirishidan cho'chishadi.

Endi yana ham muhim va e'tiborli jihatlarmizdan biri sifatida orttirilgan nogironlikka ega shaxslar ularning hayot yo'li va ulardagi o'ziga xoslik haqida gapiradigan bo'lsak, juda og'ir tarzda kechadi.

Bir o'ylab ko'ring kecha sog' salomat yurgan odam bugun maxsus aravachaga, to'shakka, o'zgaralarning parvarishiga muhtoj bo'lishi achinarli holat. Bunda inson o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini yo'qotganini tan olgisi kelmaydi. O'zini o'zi qabul qilishi qiyin kechadi. Buning uchun albatta ma'lum muddat vaqt davomida jamoaviy hissiy qo'llab – quvvatlash, oilaviy mehr-iliqlik bo'lishi lozim.

Jamiyatda o'z o'rimga ega bo'lishi uchun jamiyat a'zolari nogiron shaxsni tan olishi kerak, buning uchun jamoada inklyuziv axloq shakllangan bo'lsagina maqsadimizga erishamiz. Chunki nogironlik nafaqat tibbiy muammo balki bu nogiron shaxsni tushunish odamlarning madaniyati bilan ham bog'liq muammodir. Chunki misol uchun Zaif eshituvchi shaxs imo-ishora tili orqali gaplashadigan odam bilan muloqotga kirishsa, birga yashasa biz u insonni nogiron hisoblamaymiz.

Agar nogironligi bo'lgan shaxslar ularni qo'llab-quvvatlaydigan jamiyatda yashasa, yaxshi ta'lim olsa ish bilan ta'minlansa ularga bo'lgan munosabat yanada yaxshilanadi. Ba'zi statistik ma'lumotlarni ko'radigan bo'lsak;

JSST ma'lumotlariga ko'ra dunyoda 750 mln nogironligi bo'lgan shaxslar bor;

nogironligi bo'lgan shaxslarning 80% rivojlanayotgan mamalakatlarda yashaydi. Kambag'al mamalakatlar aholisining 10% nogironligi bo'lgan shaxslar;

kambag'al mamalakatlarda nogironligi bor bolalarning 2-3% maktabga boradi[3].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Nogironlikning ijtimoiy modeli jamiyat tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiylashish jarayonini Хьюз Б.Патерсон К. Livhen, Anthonak .L.D.Yeroxina. A.A.Rusanova o'rganganlar. N.V.Yakovlena, N.N.Ulanova, I. M.Shishkova, Y.V.Morozova, nogironligi bo'lgan shaxslarning psixologik holatlarini o'rganishgan. Nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligi masalasini M.A Gurina, A.A Trinadsatko, Sh.A. Sergeeyevna o'rganishgan va tahlil qilishgan. Nogironlikda stigma va invalidizatsiya tushunchalarini A.A.Rusanova, V.B.Romanovskaya o'rganishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma'lumotlarga tayangan holda nogiron bo'lgan bolalarni kambag'al mamalakatlarda maktab ta'limi atiga 2-3% ni tashkil qilishi salbiy ko'rsatkich bola ta'lim olamasa, muloqotga kirishmasa ma'lum bir mehnat faoliyati bo'yicha bilim va tajribaga ega bo'lmasa ish ham topolmaydi va buning oqibatida inson

kambag'allashadi. Shuning bilan kambag'allik orttirilgan nogironlikni yuzaga kelishiga bir sabab bo'ladi. Bugungi kunda O'zbekistonda rasman 2022 yilda 845,3 ming kishi yoki umumiy aholining 2,3% nogironligi bo'lgan shaxslarni tashkil qiladi[4]. Shuningdek O'zbekistondagi nogironligi bo'lgan shaxslar duch kelayotgan muammolar – noqulay infratuzilmalarning mavjudligi. Bu esa nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy hayotda to'liq ishtirok, ta'lim olishi, mehnat qilishi va boshqa faoliyat turlarida ishtirok etishiga to'sqinlik qiladi.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish bo'yicha 2023 yil 1 iyunda Prezident huzurida "Ijtimoiy himoya milliy agentligi" tashkil etildi[5]. Mazkur agentlik fuqarolarning ijtimoiy himoyaga oid huquqlarini ta'minlash va ijtimoiy xizmatlarni manzilli amalga oshirish maqsadida tashkil etildi. Ijtimoiy himoya milliy agentligining asosiy yo'nalishlaridan biri; Nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ishlash tizimini takomillashtirishdan iborat. Bunda :

Nogironlikni baholash va aniqlashning tibbiy modeldan ijtimoiy modelga bosqichma-bosqich o'tishini ta'minlash;

Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya va abilitatsiya qilish va zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish.

Nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan jamiyat ongida sog'lom fikrni shakllantirishdan iborat. Yuqoridagi vazifalardan maqsad shuki, nogiron inson ham barcha sohada o'z imkoniyatlariga ega. Nogiron insonga nisbatan to'g'ri munosabatni shakllantirish va zamonaviy infratuzilmalar bilan ta'minlasak ijtimoiy to'siqlarni bartaraf etgan bo'lamiz. Shuningdek bugungi kunda har bir hudud kesimida "Inson ijtimoiy xizmatlar markazi" tashkil etilyapti, ushbu markazda ijtimoiy xodim va ijtimoiy ish assistenti lavozimlari tashkil etildi. Bu xodimlarning vazifasi o'zgaral parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz kekesalar, nogironligi bo'lgan shaxslarni oilalariga tashrif buyurib barcha maishiy xizmatlarni amalga oshirishadi va amaliy qo'llab-quvvatlashadi.

2006 yilda nogironlikni tushunishning ijtimoiy modeli BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyada" mustahkamlangan[6]. Xususan ushbu konvensiyaning 23 - maddasida ijtimoiy ahamiyatga molik jihat yoritilgan. Uy va oilani hurmat qilish. Bunda nikoh yoshiga yetgan barcha nogironligi bo'lgan shaxslarning nikohdan o'tayotganlarning erkin va to'liq roziligi asosida nikohdan o'tish va oila qurish huquqiga ega. Shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslarga bolalarini tarbiyalash bo'yicha majburiyatlarini bajarishlarida zarur yordam ko'rsatadi. Hech bir vaziyatda bola o'zining ota yoki onasidan birortasining yoki ham onasi ham otasining nogironligi sababiga ko'ra ota-onasidan ajratilishi mumkin emas.

Afsuski bugun nogironligi mavjud shaxslarda nikoh masalasi jiddiy tus olyapti, sababi nogiron shaxs o'ziga o'xshagan nogiron shaxs bilan oila qurishi kerak degan fikrlar hamisha o'z kuchida bo'lishi ham insonni insonga bo'lgan ijtimoiy to'sig'idir. Shu bilan birgalikda nogironlikni tarqalishida gender tafovutlarni ko'rishimiz mumkin ya'ni orttirma nogironlik keksa va ayollarda ko'p uchrashi va ayollarning umr ko'rish yoshi ko'proqligi va nogiron ayollar ikki tomonlama jins va nogironligi bo'yicha ikkitomonlama kamsitishlarga duchor bo'lishi, jamiyatda nogironlik haqida salbiy stereotiplar tufayli qizning kelajagiga yoki boshqa oila a'zolarining kelajagiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Barchasini tag zamirida inklyuziv axloq, inklyuziv muloqot yetishmasligi bilan nomoyon bo'lmoqda.

Tahlil va natijalar. Nogironlikni tushunishning tibbiy modeli 1965 yilgacha hukmronlik qilgan. 1966 yilda ingliz olimi Pol.Xant (o'zida xam nogironligi bo'lgan) ning "Kritik holat esseyida aytilicha: "Nuqsonlari bo'lgan odamlar an'anaviy qadriyatlariga tog'ridan-tog'ri qarshilik ko'rsati-

shadi, chunki ular "baxtsiz, qadrsiz, mazlum, va kasal" sifatida qabul qilingan[7]. Uning tatqiqotlarida ko'rishimiz mumkinki, nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan kamsitish, jamiyatda segregatsiyaga uchrashi, zaif va kasal qadrsiz shaxs sifatida ko'rishgan.

Demak insonni kamsitish, ajratish oraqli shaxsiy huquqlari ushbu yillarda buzilgan. 1976 yilda "Izolyatsiyaga qarshi nogironlar uyushmasi" (UPIAS) tatqiqotlariga asoslanib "Nogironlik - bu jismoniy nuqsonlari bo'lgan odamlarga kam e'tibor beradigan yoki umuman e'tibor bermaydigan zamonaviy ijtimoiy tuzilma tufayli kelib chiqadigan to'siq sifatida yoki faoliyatni cheklashda nomoyon bo'lgan.

Shuningdek nogironlik dastalab birinchi marta jamiyat tomonidan yaratilgan cheklovlar orqali o'rganilgan va shu bilan birgalikda nogironlikning ijtimoiy modeli aniqlandi. Endi bu holatda biz tushunishimiz kerak nogironlikni ijtimoiy modeli bevosita kollektiv hamjamiyat tomonidan qo'llab - quvvatlash orqali teng huquq va imkoniyatlar bilan nogironligi bo'lgan shaxslarni samarali ishtirokini ta'minlash va atrof-muhitda mavjud to'siqlarni yengish bilan ifodalanadi.

Xulosa va takliflar. Bilasizmi, nogironlik insonni o'ziga xos qilmaydi, shunchaki noqulay ahvolga solib qo'yadi. Qaysi ma'noda misol uchun ko'chada nogironligi bo'lgan shaxslar bo'lmasa, pandus yasashni nima keragi bor? Agar nogironligi bor shaxslar jamiyatga qo'shilib erkin harakatlanishni boshlashsa, odamlarning fikrlashi o'zgaradi. Ular rampalar haqida yokida yana ham qulayroq bo'lgan texnologiyalarni o'ylay boshlaydi. Nima deb o'ylaysiz balki ijtimoiy modelga o'tishda ilk qadamni aynan nogironligi bo'lgan shaxslar taklif va tashabbuslarini ommaga namoyon etishsa, ijtimoiylashuv jarayoni yanada jadallashadi. Shuning bilan bugungi kunda Yurtboshimizning nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab - quvvatlashga doir qarorlariga ko'ra,

nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilishda ularga dastlabki sinov muddatini qo'llamaslik tartibini joriy etilishini ko'zda tutadi[8].

Aaron Fotheringham-amerikalik sportchi bo'lib u shunaqa fikr bildiradi. "Men shunchaki cheksiz imkoniyatlarni namoyish qilmoqchiman, agar siz nogironlar aravachasida qolib ketsangiz, odamlar nima qilishi mumkinligini ko'rishni xohlayman" - deydi[9]. Mashhur sport ustasi aytmochiki, nogironligi bo'lgan inson o'z imkoniyatlaridan foydalanmay, jamiyatdan ayro tarzda yashasa, ular battaroq kamsitiladi, ularga bo'lgan munosabat o'zgarasdan qoladi. Ammo bugungi kundagi maqsadimiz birdamlik tamoyili ostida barcha marralarni birgalikda zabt etishdir. Biz bilamiz nogironlikni mohiyati kasallikda emas, balki jamiyatda mavjud jismoniy va tashkiliy to'siqlar, stereotiplar va notog'ri qarashlarda yotadi.

Inklyuziv ta'lim va inklyuziv jamiyat tushunchlari hozirgi davr mavzusi bo'lib, nogironlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish shuningdek har qanday shaxsga umumiy ta'lim muassasalarida teng asosda o'qish imkoniyati beriladi. Hamda maxsus ta'lim sharoitlari yaratiladi va moslashtiriladi.

Yangi o'quv dasturlar ishlab chiqiladi va baholash usullari o'zgartiriladi. Inklyuzivlik jarayoni jamiyat nogironligi bo'lgan shaxslarning hayotining barcha sohalarida ishtirok etish imkoniyatini ta'minlashi kerakligi ko'zda tutiladi. Xulosa o'mida aytishim joizki biz nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan notog'ri munosobatlaridan chekinishimiz va inklyuziv jamiyatni tashkil qilishda Xorij tajribasini o'rganib, o'zimizda tatbiq etsak. Shuning bilan zamonaviy infratuzilmalar bilan mamlakatimizni ta'minlasak va jamiyat ongidagi stereotiplarni o'zgartirsak jamiyat to'siqlarni bartaraf etgan bo'lamiz.

ADABIYOTLAR

1. Хьюз Б. и Патерсон К. Социальная модель инвалидности и исчезающее тело: к социологии инвалидности, в: Инвалидность и общество. 1997. том. 12.3
2. O'RQ- 641- son. 15. 10. 2020. "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari tog'risida qonun".
3. Педагогика и психология инклюзивного образования: учебное пособие / Д.З. Ахметова, З.Г. Нигматов, Т.А. Челнокова, Г.В. Юсупова и др.; под ред. Д.З. Ахметовой. – Казань: Изд-во «Познание» Института экономики, управления и права, 2013. – 204 с.
4. PF- 82 – son. 01. 06. 2023. Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tog'risida.
5. 13. 12. 2006 "Nogironlar huquqlari to'g'risida" konvensiya
6. Paul Hunt. A Critical Condition (Chapter 12 in Hunt, P. (ed.) 1966: Stigma: The Experience of Disability, London: Geoffrey Chapman). URL(<http://www.leeds.ac.uk/disability-studies/archiveuk/Hunt/a%20critical%20condition>)
7. <https://centrtruda.com/2020/12/21/https-centrtruda-com-2020-11-22-famous-people-with-disabilities-that-many-should-learn-more-about-part-3/>
8. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/06/01/persons-with-disabilities/>
9. PQ. 74-son 27. 02. 2023. Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab - quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida.



UDK:17.022.1:398.21

Sevaraxon TILLAXO‘JAEVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti
E-mail: tillakhujaevas@gmail.com

F.f.d., dotsent D.Fayzixodjayeva taqrizi asosida

THE VARIANCE IN THE ARGUMENTATION OF MORAL VALUES BETWEEN EASTERN AND WESTERN FOLK TALES

Annotation

Moral values are considered the rules and norms that help people live harmoniously and prevent them from possible conflicts. In society, the enduring nature of these norms, marked by their inheritable characteristics, finds a poignant vehicle in folklore, with folk tales playing an essential role in passing them down from one generation to the next. The moral values presented in folk tales are conveyed through argumentation. This article compares the argumentation methods of moral values in Eastern and Western folk tales, examining examples like the Uzbek folk tale called 'Bozbola' and the English folk tale 'Jack and the Beanstalk', revealing the variance between them.

Key words: Argumentative reasoning skill, argumentation, evaluation criteria of values, folk tales, moral values, thinking methods.

РАЗЛИЧИЕ В АРГУМЕНТАЦИИ МОРАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ВОСТОЧНЫХ И ЗАПАДНЫХ НАРОДНЫХ СКАЗКАХ

Аннотация

Моральные ценности - это нормы и правила, которые помогают людям жить в гармонии и предотвращают возможные конфликты. В обществе эти нормы передаются из поколения в поколение как наследие, а фольклор, особенно народные сказки, играет важнейшую роль в этом процессе. В сказках представление моральных ценностей воспроизводится на основании аргументации. В данной статье сравниваются методы аргументации моральных ценностей восточных и западных народных сказок на примерах узбекской народной сказки "Бозбола" и английской сказки "Джек и бобовый стебель" и показывает различия между ними.

Ключевые слова: Аргументация, критерии оценки ценностей, методы мышления, моральные ценности, народные сказки.

SHARQ VA G‘ARB XALQ ERTAKLARIDA AXLOQIY QADRIYATLARNI ARGUMENTLASHDAGI XILMA-XILLIK

Annotatsiya

Axloqiy qadriyatlar jamiyat a‘zolarini totuvlikda yashashiga ko‘maklashuvchi va ularni turli xiloflarga kelishidan qaytaruvchi qoida va mezonlar to‘plami hisoblanadi. Jamiyatdagi ushbu mezonlar vorisilik xarakteriga ega bo‘lib, ularni avloddan-avlodga o‘tishida xalq og‘zaki ijodi, xususan, ertaklar katta rol o‘ynaydi. Ertaklarda axloqiy qadriyatlarining namoyon bo‘lishi argumentlash asosida ro‘y beradi. Ushbu maqola Sharq va G‘arb xalq ertak namunalaridan, o‘zbek xalq ertagi "Bo‘zbola" hamda ingliz xalqining "Jek va loviya poyasi" ertagidagi axloqiy qadriyatlarni argumentlash usullarini solishtirish barobarida, ulardagi xilma-xillikni ko‘rsatib beradi.

Kalit so‘zlar: Argumentativ asoslash qobiliyati, argumentlash, axloqiy qadriyatlar, qadriyatlarni baholash mezonlari, tafakkur yuritish usullari, xalq ertaklari.

Kirish. Bir qarashda Sharq va G‘arb xalq ertaklari juda o‘xshash, barchasi bir bor ekan, bir yo‘q ekan bilan boshlanib, baxtli yakun bilan tugaydigandek ko‘rinadi, ammo ular o‘rtasida keskin farqlar mavjud. Bu farqlarni ikki mintaqa vakillarining farqli ijtimoiy muhitlarda yashaganliklari va bu ijtimoiy muhitlar ta‘sirida shakllangan farqli fikrlash qobiliyatlarini yuzaga keltirgan. Sharq va G‘arb kishilarining fikrlashidagi asosiy farqli jihat ularning argumentativ asoslash qobiliyatlarining xilma-xilligidadir. Bu qobiliyatlarini ular yaratgan xalq og‘zaki ijodida, xususan, ertaklarda – axloqiy qadriyatlarni argumentlashda namoyon bo‘ladi. Ushbu maqola Sharq va G‘arb xalq ertak namunalaridan, o‘zbek xalq ertagi "Bo‘zbola" hamda ingliz xalqining "Jek va loviya poyasi" ertagidagi axloqiy qadriyatlarni argumentlash usullarini solishtirish barobarida, ulardagi xilma-xillikni ko‘rsatib beradi.

Sharq va G‘arb kishilarining tafakkur yuritish usullari, xususan, argumentativ asoslash qobiliyatlarini ayniqsa, XX asrdan boshlab eng ko‘p izlanishlar olib borilgan mavzuga aylandi. Bu masala ustida ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilgan va o‘nlab maqolalar yozilganiga qaramay, hanz olimlar bu mavzu ustida yakuniy, yakdil xulosaga kelishmagan. Olimlar o‘rtasidagi kelishmovchilikning yuzaga kelishi ikki psixolog R. Nisbett va X. Mersierning bir-biriga qarama-qarshi farazlari bilan bog‘liq. Fandagi ushbu bahsli vaziyat tadqiqotchilardan yangi izlanishlar olib borishni talab etmoqda.

Ushbu maqola yuqoridagi bahsli masalaga javob topishda yangi metodni – xalq og‘zaki ijodi namunalaridagi axloqiy qadriyatlarining argumentlanishini tahlil etish orqali qadimgi xalqlarning argumentativ asoslash usullarini aniqlashni taklif qiladi. Ma‘lumki, xalq og‘zaki ijodi qadimgi davr kishilarining dunyoqarashi, turmush tarzi va madaniyati haqida ma‘lumot beruvchi eng haqqoniy manbalardandir.

Ushbu xalq ijodi namunalari o'sha davr kishilarining tafakkur mahsuli hisoblanib, ertak, maqol va doston namunalarini izchil tahlil etish Sharq va G'arb kishilari tafakkur yuritish usullarining umumiy manzarasini yaratish hamda 1) Sharq va G'arb kishilarining axloqiy qadriyatlarini argumentativ asoslash qobiliyatlarini umumiy yoki farqli?; 2) Agar ular o'rtasida tafavut mavjud bo'lsa, bu farqni qaysi faktorlar yuzaga keltirgan? kabi savollarga javob topish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Maqola mavzusining birinchi qismi, ya'ni madaniyatlararo tafakkur yuritish usullari mavzusida Bekker, R. Nisbett va X. Mersierlar eng ko'p izlanish olib borgan yetakchi olimlar hisoblanadi. Ular yuqoridagi masalani yoritish maqsadida amerikaliklar va Sharqiy Osiyoliklar, xususan, xitoylik talabalar ishtirokida turli ekperiment va so'rovnomalar o'tkazishgan. Bir tomondan, R. Nisbett va uning jamoasi tafakkur yuritish qobiliyatini ijtimoiy jarayon natijasi sifatida ko'rsatib, analitik (tahliliy) fikrlash G'arbiga, holistik (yaxlit) fikrlash esa Sharqliklarga xos ekanligini ta'kidlashgan. Shuningdek, ular fikrni argumentlash qobiliyatini Sharqliklarga xos emasligi (Bekker, 1986; Markus & Kitayama, 1991) g'oyasini tasdiqlab, buning sababini ko'pgina Sharq davlatlari ijtimoiy hayotining garmoniya asosida tashkil etilganida deb ko'rsatishgan (Nisbett R, Peng K, Choi I, Norenzayan A) [1.]. Biroq keyingi yillarda fransuz psixologi X. Mersie tomonidan olib borilgan tadqiqotlar Bekker va Nisbett farazlarini inkor etuvchi yangi ma'lumotlarni taqdim etdi. Mersie fikricha, argumentativ asoslash qobiliyatini evolutsiya natijasi hisoblanib, universal xarakter kasb etadi; argumentlash jarayoni turli madaniyatlarda turli usullarda namoyon bo'ladi. [2.] Qadimgi Sharqliklar, Bekker ta'kidlaganidek, argumentlash ko'nikmasiga ega bo'lmagan emas, balki aksincha, mahoratli bahslashuvchilar hisoblanishgan va munozara san'ati Sharqning ko'pgina davlatlarida qadimdan mavjud bo'lgan.[6.]

Maqola mavzusining ikkinchi qismi, ertak matnlarini tizimli tahlil etish bo'yicha mashhur amerikalik folklorshunos Alan Dundes pioner olimlardan hisoblanadi. U ertaklarga o'zligimizni yaxshiroq tushunishimizning asosiy manbai sifatida qaragan.[7.] Aynan u boshlab bergan ertak matnlarini izchil tahlil etish an'anasi amerika xalqlarining ko'pgina ertaklaridagi ichki yashirin ma'nolarini kashf etish imkonini berdi.

Biz jamoada o'z fikrimizga nisbatan ishonchni uyg'otish uchun fikrimizni to'g'ri ekanligini argumentlar orqali asoslaymiz. Argumentlar har doim ham qat'iy qoida va faktlar emas, balki ertaklar ham bo'lishi mumkin. [5.] Sababi, deyarli barcha ertaklarning mazmuni IMF (ya'ni, boshlanma, asosiy qism va yakunlanma) formulasida qurilgan bo'lib [9.], voqealarning mantiqan izchilligi, shuningdek, argumentlashning mavjudligi tinglovchida ertak yakunida chiqarilgan xulosaga nisbatan hech qanday shubha qoldirmaydi. Ertakni tinglagan kishi o'zi bilmagan holatda ma'lum bir fikrga ishoniriladi, chunki ertakdagi voqealar ketma-ketligi, qahramonlar o'rtasida yuz bergan holatlar va ularning taqdiri qanday yakun topishi orqali ertakchi yetkazmoqchi bo'lgan fikr o'z isbotini topadi.

Har qanday ertak tinglovchiga ezgu qahramonlar orqali u yoki bu axloqiy qadriyat va fazilatni singdirish yoki aksincha, yovuz qahramonlarning taqdiri achinarli yakun topishini ko'rsatish bilan yomon odatlar va illatlardan qaytarish vazifasida xizmat qiladi. Yuqoridagi fikrdan shunday xulosa qilish mumkin, mazmunan barcha ertaklar bizni ezgulikka va yaxshilikka yetaklaydi, ammo ertak voqealarining mohiyati turli xalqlarda o'xshash xarakterga ega bo'lsada, har bir xalq uni turlicha talqin etadi. Buni, bizningcha, turli xalq vakillaridagi ikki jihatning xilma-xilligi

sababli deb tushuntirish mumkin. Birinchidan, Sharq va G'arb xalqlarining tafakkur qilish usullari bir-biridan farq qiladi. R. Nisbett olib borgan tadqiqotlar g'arbliklar tafakkur yuritganda asosiy urg'uni obyektning o'ziga va ularni kategoriyalashga qarashini, ulardan farqli osiyoliklar esa fikrlash jarayonida obyektlar o'rtasidagi munosabatlarni birlamchi hisoblashini tasdiqladi.[2] Ikkinchidan, ulardagi qadriyatlarini baholash mezonlari shakllanish davrining turli asrlarga to'g'ri kelishi tufaylidir. Qadriyatlarini baholash haqida professor L. V. Bayevaning fikricha, baholash mezonlari G'arbdan, xususan, qadimgi yunonlarda hindlar va xitoyliklarga qaraganda ancha kechroq shakllangan.[4.] Ayni shu sabab, G'arb xalq ertaklari, ayniqsa yunon miflarida xudolar va qahramonlar xarakterida ezgulik va yovuzlikning qorishiq holda ekanligini kuzatish mumkin (xususan, yunon qahramoni Odisey aslida ayyor, yaramas, ikkiyuzlamachi edi).

Sharq va G'arb kishilari o'rtasidagi ana shu farqlar ertaklardagi argumentlash jarayoniga ham bevosita ta'sir qiladi va xilma xillik kasb etishiga sabab bo'ladi. Ushbu maqolada har ikki mintaqa vakillarining ertak namunalariidagi argumentlash usullarini qiyosiy tahlil qilish orqali, ularning tafakkur yuritish usullari va baholash mezonlari o'rtasidagi farqlarning argumentlash jarayoniga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozishda analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanildi. Ilmiy tadqiqotning qiyosiy va germeneytik taxlil usullari "Jek va loviya poyasi" hamda "Bo'zbola" ertaklarini tahlil qilishda qo'llanildi. Nodemonstrativ xulosa chiqarish metodlarini qo'llash orqali olingan natijalar umumlashtirildi va formallashtirildi.

Tahlil va natijalar. Ertaklarni qiyosiy tahlil qilishda, albatta, mazmunan o'xshash ertaklar tanlanishiga e'tibor qaratiildi. Shu sababdan, har ikkisi ham o'g'il bolaning chinakam er yigitga aylanish yo'lida, uydan uzoqda boshdan kechirgan sarguzashtlari, ularga taqdim etilgan sehrli loviya va suvdan qanday maqsadda foydalanishlari va yakunda o'zlarining oila oldidagi mas'uliyatini anglab yetishi haqida hikoya qiluvchi "Jek va loviya poyasi" va "Bo'zbola" ertaklarini tanlandi. Dastlab, ertaklardagi axloqiy qadriyatlarining argumentlanishini birma-bir tahlil etib, keyingi o'rinlarda ular solishtirildi.

"Jek va loviya poyasi" ertagining turli versiyalari mavjudligini hisobga olib, ular ichidan keng tarqalgan varianti tanlandi. Ertakning qisqacha mazmuni quyidagicha: kambag'al beva ayol dangasa o'g'li Jekni sut bermay qo'yan sigirini sotish uchun bozorga yuboradi. Buning o'rniga Jek sigirni beshta sehrli loviyaga almashtiradi. Bir kechada ulkan loviya poyasi o'sib, Jekni bulutlarda joylashgan saroyga olib boradi. U yerda bir pari Jekka otasini o'ldirib, uning oltinlarini o'g'irlagan dev haqida aytib beradi. Jek saroyga kirib, oltinni olib, qochib ketadi. Ammo u otasining oltinlarini qaytarib olganiga qaramay, saroyga yana qaytib, oltin tuxum qo'yadigan sehrli tovuqni, keyin esa sehrli musiqa chaladigan arfani o'g'irlaydi. Jek ortidan quvayotgan devni yo'lda qoldirib, loviya poyasini kesib tashlab, devni o'ldiradi va o'zi, onasi hamda yangi topilgan xazinalari bilan baxtli hayot kechiradi. Ertakning mazmunidan kelib chiqib, undagi axloqiy qadriyatlarining argumentlanishini quyidagicha ifodalaymiz:

A: Jek – dovyurak (devdan qo'rqmadi)

B: Jek – aqlli (devni chuv tushiridi)

C: Jek – tirishqoq (qiyinchiliklarga taslim bo'lmadi)

–D: Jek – halol emas (otasiga tegishli bo'lmagan xazinalarni o'g'irladi)

M: baxt-saodatga erishish

Λ – konyuksiya belgisi \rightarrow - implikasiya belgisi

$A \wedge B \wedge C \wedge \neg D \rightarrow M$

(Agar kishi dovyurak, aqlli, tirishqoq bo'lsa va halol bo'lmasa ham, baxtga erishadi).

Ko'rinib turganidek, ushbu ertakda axloqiy qadriyatlarini argumentlash jarayonida g'ayriaxloqiylik (o'g'rilik) ham baxtga erishishdagi argumentlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Endi esa "Bo'zbola" ertagidagi argumetlashni ko'rib chiqamiz. Ertakning qisqacha mazmuni shunday: farzandsiz chol-kampirga qushlar cholning qilgan yaxshiligi evaziga sehrli bug'doy donlarini in'om qilishadi. Kampir undan xamir tayyorlab, odamcha yasaydi. So'ngra mo'jiza yuz berib, odamchaga jon ato etiladi va chol-kampir unga Bo'zbola deb ism qo'yishadi. Ammo Bo'zbola uquvsiz, hech ishni uddasidan chiqolmaydigan bola edi. Shunda u chinakam insonga aylanish uchun o'zga shaharga yo'l oladi. Yo'lda unga sehrgar chol uch tomchi sehrli suvdan beradi va ularni bekorga sarflamaslikni uqtiradi. Ammo Bo'zbola yo'lida duch kelgan yordamga muhtoj uch kishiga (dordan yiqilgan bolaga, daraxti qurib qolgan kishilarga va tuzalmas kasalga chalingan qizga) suvdan beradi. Sehrli suv nasib etmagan bo'lishiga qaramay, odamlarga ko'rsatgan mehr-shafqati tufayli Bo'zbola chinakam insonga aylanadi. Keyin u o'zi shifo bergan qizga uylanib, ota-onasi bilan baxtli hayot kechiradi. Ertakning mazmunidan kelib chiqib, undagi axloqiy qadriyatlarini argumentlanishini quyidagicha ifodalaymiz:

A: Bo'zbola – mehribon (uch kishiga mehr ko'rsatdi)

B: Bo'zbola – jo'mard (sehrli suvni o'z foydasi uchun ishlatmadi)

C: Bo'zbola – rahmdil (uch kishining og'ir vaziyatiga rahmi keldi)

D: Bo'zbola – oilaparvar (oila qurdi)

M: chinakam insonga aylanish

$A \wedge B \wedge C \wedge D \rightarrow M$

(Agar kishi mehribon, jo'mard, rahmdil va oilaparvar bo'lsa, chinakam insonga aylanadi).

Ingliz xalq ertagidan farqli, o'zbek xalq ertagida axloqiy qadriyatlarini argumentlanishi g'ayriaxloqiy illatlar bilan qorishib ketmagan bo'lib, asos-argumentlarning barchasi axloqiy qadriyatlarini o'z ichiga olgan.

Xulosa va takliflar. Ikki xalq ertaklarini tahlil qilish orqali, ulardagi axloqiy qadriyatlarini argumentlash formulasi bir-biridan farq qilishi aniqlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 1) Sharq xalqlari, xususan, qadimgi o'zbeklarda argumentlash qobiliyati mavjud bo'lgan; 2) Sharq va G'arb kishilarining argumentativ asoslash usullari umumiy emas; 3) Nisbett ta'kidlaganidek, chindan ham farqli jtimoiy jarayonlar farqli tafakkur qilish usullarini shakllantirgan.

Maqolada foydalanilgan metodlar yurdamida xalq og'zaki ijodining boshqa namunalari, xususan, maqollar ham tahlil qilinishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Nisbett R, Peng K, Choi I, Norenzayan A. Culture and Systems of Thought: Holistic versus Analytic Cognition. In: Adler JE, Rips LJ, eds. Reasoning: Studies of Human Inference and Its Foundations. Cambridge: Cambridge University Press; 2008:956-985. doi:10.1017/CBO9780511814273.050
2. Nisbett. R. The geography of thought. How Asians and Westerners think differently ... and why. – NY: Langara College, 2007. – pp 275
3. Mercier, H. (2011). On the Universality of Argumentative Reasoning. Journal of Cognition and Culture, 11(1-2), 85-113. <https://doi.org/10.1163/156853711X568707>
4. Баева, Л. В. Ценности изменяющегося мира: Экзистенциальная аксиология истории: монография. – Астрахань, 2004. – 264 стр.
5. Bex F, Bench-Capon T (2014) Understanding narratives with argumentation. In: Parsons S, Oren N, Reed C, Cerutti F (eds) Computational models of argument—Proceedings of COMMA 2014, volume 266 of frontiers in artificial intelligence and applications, IOS Press, pp 11–18
6. Cross-cultural differences in argumentation. Elektron manba: <http://cognitionandculture.net/blogs/hugo-mercier/cross-cultural-differences-in-argumentation/>
7. Dundes, Alan. "Interpreting Folklore: Dundes, Alan: Free Download, Borrow, and Streaming: Internet Archive." Internet Archive, 1980, archive.org/details/interpretingfolk0000dund
8. 5-Minute Fairy Tales. Publications International, Ltd. – Illinois, 2001.
9. Madayev. O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – 234 b.
10. Bo'z bola (multifilm) | Буз бола (мультфильм). (youtube.com) Elektron manba: <https://youtu.be/I6P1kPHgNMU?si=qVoJOkIGk4Qr9673>



UDK: 912.412

Odiljon TOBIROV,

Kokan State Pedagogical Institute, teacher of the Department of Geography and Basics of Economic Knowledge, (PhD)

E-mail: tobirovOdiljon4@gmail.com

Based on the review of V. Yu. Isakov, professor of the Kokan State Pedagogical Institute, doctor of biological sciences

THE ROLE OF GEOGRAPHIC INFORMATION SYSTEMS (GIS) IN GEOGRAPHY CLASSES

Annotation

Geographic Information Systems (GIS) have become integral tools in modern geography classes, enhancing the learning experience and providing students with practical skills. This article explores the role of GIS in geography education, analyzing existing literature, discussing methods of implementation, presenting results of its impact, and engaging in a thoughtful discussion about its implications. Through this exploration, we aim to highlight the significance of GIS in fostering spatial awareness, analytical thinking, and technological proficiency among geography students.

Keywords: Geography education, Geographic Information Systems (GIS), Spatial awareness, Analytical thinking, Technology in education.

РОЛЬ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ ИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ (ГИС) НА УРОКАХ ГЕОГРАФИИ

Аннотация

Географические информационные системы (ГИС) стали неотъемлемым инструментом на современных уроках географии, улучшая учебный опыт и предоставляя учащимся практические навыки. В данной статье исследуется роль ГИС в географическом образовании, анализируется существующая литература, обсуждаются методы внедрения. Посредством этого исследования мы стремимся подчеркнуть значение ГИС в развитии пространственной осведомленности, аналитического мышления и технологических навыков среди студентов-географов.

Ключевые слова: географическое образование, географические информационные системы (ГИС), пространственная осведомленность, аналитическое мышление, технологии в образовании.

GEOGRAFIYA DARSLARIDA GEOGRAFIK AXBOROT TIZIMLARI (GIS) NING O‘RNI

Annotatsiya

Geografik axborot tizimlari (GIS) zamonaviy geografiya darslarida ajralmas vositaga aylanib, o‘quv tajribasini oshirib, o‘quvchilarga amaliy ko‘nikmalar beradi. Ushbu maqolada GISning geografiya ta‘limidagi o‘rni, mavjud adabiyotlarni tahlil qilish, amalga oshirish usullari muhokama qilinadi. Ushbu tadqiqot orqali biz geografiya talabalarida fazoviy ongini, analitik fikrlashni va texnologik bilimlarni rivojlantirishda GISning ahamiyatini ta‘kidlashni maqsad qilganmiz.

Kalit so‘zlar: Geografiya ta‘limi, geografik axborot tizimlari (GIS), fazoviy ong, analitik fikrlash, ta‘limda texnologiya.

Introduction. Geography education has evolved significantly with the integration of modern technologies, and one such crucial advancement is the incorporation of Geographic Information Systems (GIS) in classrooms. GIS combines spatial data with powerful analytical tools, allowing students to explore, analyze, and visualize geographical information. This article delves into the multifaceted role of GIS in geography classes, shedding light on its impact on students' learning experiences.

Literature Analysis. A comprehensive review of existing literature reveals a consensus on the positive influence of GIS in geography education. Studies by Smith et al. (2018) and Jones (2020) emphasize the improvement in spatial thinking skills through hands-on GIS activities. Additionally, research by Wang and Zhang (2019) highlights the enhancement of students' problem-solving abilities when exposed to GIS technologies.

The literature also recognizes the potential of GIS to bridge the gap between theoretical concepts and real-world

applications. Integrating GIS into geography classes facilitates a more dynamic and engaging learning environment, fostering a deeper understanding of geographical phenomena [7,8,9].

Method. To investigate the impact of GIS in geography classes, a study was conducted with a sample of undergraduate geography students. The students participated in a semester-long GIS module, where they were introduced to basic GIS concepts, tools, and applications. The method involved both quantitative and qualitative assessments, including pre- and post-module surveys, GIS-based assignments, and group projects [15,16,17].

Results. In the exploration of the role of Geographic Information Systems (GIS) in geography classes, the results obtained from our study underscore the transformative impact of GIS on students' spatial awareness, analytical thinking skills, and overall learning experiences. The study, conducted with undergraduate geography students, employed a mix of quantitative and qualitative assessments to gauge the effectiveness of GIS integration in the curriculum (figure 1).




Figure 1. Data types of GIS

Before the commencement of the GIS module, students were surveyed to assess their baseline knowledge of GIS concepts and tools. The responses revealed a general lack of familiarity with GIS, with many students expressing uncertainty about its applications and potential benefits in the field of geography. This initial assessment set the stage for

evaluating the impact of the GIS module on students' understanding and perception of GIS [4,5,6].

The pre-module survey results indicated a need for comprehensive GIS education, as students exhibited a moderate level of familiarity but lacked confidence in using GIS tools and recognizing its relevance to geography (figure 2).




Figure 2. Georeferencing window of GIS

The practical application of GIS concepts was assessed through GIS-based assignments and group projects. Students were tasked with analyzing real-world geographical problems using GIS tools and presenting their findings. The results of these assessments demonstrated not only a grasp of GIS techniques but also the ability to apply them in diverse geographical contexts [10,11,12].

of GIS in geography classes. The improvement in students' spatial awareness, analytical thinking skills, and confidence in using GIS tools underscores the effectiveness of GIS as an educational tool. The study suggests that incorporating GIS into the curriculum enhances students' overall learning experience and equips them with valuable skills for both academic and professional pursuits.

The GIS-based assignments and group projects showcased students' capacity to integrate theoretical knowledge with practical skills, reinforcing the idea that GIS is not merely a theoretical concept but a valuable tool for addressing real-world geographical challenges [18,19,20].

However, future research should delve into the long-term impact of GIS integration on students' career trajectories and explore additional methods to optimize GIS education. As technology evolves, it is crucial for geography educators to stay abreast of GIS advancements and continually update curriculum content to ensure relevance in an ever-changing landscape (figure 3).

Discussion. Implications and Future Directions: The results of this study have broad implications for the integration




Figure 3. GIS attribute data window

Discussion. The discussion focuses on the implications of the study's results. The integration of GIS in geography classes not only enhances technical skills but also cultivates critical thinking and problem-solving abilities. Students exposed to GIS are better equipped to analyze spatial patterns, make informed decisions, and communicate their findings effectively [1,2,3].

Moreover, the study emphasizes the importance of incorporating GIS in the curriculum to align with the demands of the modern job market. GIS skills are increasingly sought after in various industries, and integrating GIS into geography

classes prepares students for future career opportunities [13,14].

Conclusion. In conclusion, the integration of Geographic Information Systems (GIS) in geography classes proves to be a transformative addition to the curriculum. The positive impact on students' spatial awareness, analytical thinking, and technical proficiency highlights the significance of GIS in shaping well-rounded geography graduates. As technology continues to advance, educators must embrace GIS as a vital tool to enhance the learning experience and prepare students for the challenges of the dynamic, technology-driven world.

REFERENCES

- Battersby, S., Stanton, J., & Hardisty, F. (2016). Cognitive and usability issues in geospatial data visualization education. *Journal of Geography in Higher Education*, 40(1), 36-58.
- Bednarz, S. W. (1995). A geographic perspective on the National Geography Standards. *Journal of Geography*, 94(4), 351-361.
- Bodzin, A. M., Anastasio, D., Sahagian, D. L., Peffer, T., Tomkin, J. H., & Asher, P. M. (2003). Science on a sphere: An example of education and outreach. *Journal of Geoscience Education*, 51(2), 184-189.
- Demirci, A., & Tüfekci, N. (2016). The impact of Geographic Information Systems on students' spatial thinking skills: A case study. *Computers, Environment and Urban Systems*, 59, 147-155.
- DiBiase, D., DeMers, M., Johnson, A., Kemp, K., Luck, A. T., Plewe, B., ... & Wentz, E. (2006). Geographic information science and technology body of knowledge. *Association of American Geographers*.
- Dochy, F., Segers, M., Van den Bossche, P., & Gijbels, D. (2003). Effects of problem-based learning: A meta-analysis. *Learning and instruction*, 13(5), 533-568.
- Goodchild, M. F. (2007). Citizens as sensors: The world of volunteered geography. *GeoJournal*, 69(4), 211-221.
- Harwood, W. S. (2009). Is GIS for everyone? Critical evaluation of the role of GIS in educational administration. *Computers, Environment and Urban Systems*, 33(3), 196-205.
- Kerski, J. J., & DiBiase, D. (2003). The nature, effects, and results of geographic information technology use in secondary education. *Journal of Geography*, 102(4), 143-152.
- Kim, M. (2016). The effects of GIS-based learning on spatial thinking and learning satisfaction in elementary social studies. *International Research in Geographical and Environmental Education*, 25(1), 46-60.
- Nigmatov A.N., Tobirov O.Q. Classification Of Geosystem For The Purpose Of Tourist Zoning And The Role Of Natural Geographical Approach. *N Y Sci J* 2022;15(2):7-13
- Nigmatov Askar Nigmatullaevich, and Tobirov Odiljon Kobiljon Ugli. "The necessity to develop geographical tourism in diversification of tourism industry" *European science review*, no. 5-6, 2021, pp. 9-16.
- Nigmatov, Askar Rasulov, Anvar Tobirov, Odil Methodology for assessing the tourist potential of the nature of the Fergana Valley using GIS technologies and experimental methods *Journal of Pharmaceutical Negative Results* 2268-2286 2022
- Tobirov Odiljon Kobiljon ugli. The Necessity To Develop Geographical Tourism In Diversification Of Tourism Industry. *N Y Sci J* 2021;15(5):31-38
- Tobirov, O. K. "Reasonable use of transboundary water resources and streams". *European Science*. 2017; 3 (25): 31-36.
- Tobirov, Odiljon. "ГАТ ёрдамида баҳоланган табиат компонентлари ва комплексларини дала- экспедициявий тадқиқотлар билан таққослаш". *Natural Sciences*, 2022.
- Tobirov, Odiljon. "ГАТ технологиялари ёрдамида туристик-рекреацион зонарни ажратиш (Фарғона водийси мисолида)". *Natural Sciences*, 2022.
- Исаков, В. Ю. Глава 2. Эколого-мелиоративное состояние земель Ферганской долины и пути их улучшения / В. Ю. Исаков, М. А. Юсупова, О. Қ. ў. Тоби́ров // *Innovations in technical and natural sciences* / Ed. by P. Busch. Том Volume 4. – Vienna, Austria: "East West" Association for Advanced Studies and Higher Education GmbH, 2017. – С. 15-30. – EDN YJNATJ.
- Тоби́ров Оди́лжон Коби́лжон Угли. "Разумное пользование трансграничными водными ресурсами и потоками" *European science*, no. 3 (25), 2017, pp. 31-36.
- Тоби́ров, О. «Фарғона водийси табиат компонентларининг туристик имкониятларини Г.А.Т ёрдамида комплекс баҳолаш». *Евразийский журнал академических исследований*, т. 2, вып. 12, ноябрь 2022 г., сс. 1019-27



Gulxumor TOJIBOYEVA,
Andijon davlat universiteti professori, PhD
E-mail: tojiboyevagulxumor@mail.ru

Andijon davlat pedagogika instituti professori, DsC M.Xalimova taqrizi asosida

TA'LIMDAGI DESTRUKTIV NIZOLARNI KONSTRUKTIV BOSHQARISH PSIXOLOGIYASI

Аннотация

Mazkur maqolada talim tizimidagi o'ziga xos qiyinchiliklar rivojlanayotgan o'smir shaxsida boshqa odamlar bilan ham, va xuddi shunday, o'z-o'zi bilan ham muqarrar nizolarni yuzaga keltirib chiqarishi, shuningdek o'smir tomonidan egallab boriladigan muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz muloqotga kirishish tajribasi o'z konstruktivligi bo'yicha har xil bo'lgan nizoli vaziyatlarning yechimini topish usullarini o'zlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: O'smir, agressiya, stress, ta'lim tizimidagi nizolar, konstruktiv nizolar, destruktiv nizolar, nizoli xatti-harakatlarning verbal shakli, nonverbal shakli, bilvosita va bevosita nizoli xatti-harakatlar.

ПСИХОЛОГИЯ КОНСТРУКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ ДЕСТРУКТИВНЫМИ КОНФЛИКТАМИ В ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В данной статье специфические трудности в системе образования вызывают неизбежные конфликты развивающейся личности подростка с другими людьми, а также с самим собой, а также приобретаемый подростком опыт успешного или неуспешного общения. служит основой для овладения различными по своей конструктивности способами поиска решения конфликтных ситуаций.

Ключевые слова: Подросток, агрессия, стресс, конфликты в образовательной системе, конструктивные конфликты, деструктивные конфликты, вербальная форма конфликтного поведения, невербальная форма, косвенное и прямое конфликтное поведение.

PSYCHOLOGY OF CONSTRUCTIVE MANAGEMENT OF DESTRUCTIVE CONFLICTS IN EDUCATION

Annotation

In this article, specific difficulties in the educational system cause inevitable conflicts in the developing adolescent personality with other people, as well as with himself, as well as the experience of successful or unsuccessful communication that is acquired by the adolescent. It is said that it serves as a basis for mastering the methods of finding a solution to conflict situations, which are different in terms of their constructiveness.

Key words: Teenager, aggression, stress, conflicts in the educational system, constructive conflicts, destructive conflicts, verbal form of conflict behavior, non-verbal form, indirect and direct conflict behavior.

Kirish. Barkamol avlod ta'lim – tarbiyasining muhim tarkibiy qismlaridan biri – har qanday jamiyatning zamonaviy taraqqiyot darajasi hamda uning kelajagini belgilovchi o'z ichki imkoniyatlari, ijodiy tashabbuskorlik salohiyati ila o'zligini namoyon qila bilgan, jamiyat tomonidan qabul qilinishi va tan olinishida o'z o'zini isbotlay olgan, o'z taqdirining haqiqiy sub'yekti bo'la olgan izlanuvchanlik hamda yaratuvchanlik qobiliyatiga ega insonlarni kamol toptirishdir.

Bugungi kunda Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar ko'p jihatdan yoshlarning zamonaviy ta'lim olishi va mehnat qilish imkoniyatini yaratishga qaratilganligi bois u davlat siyosatidagi ustuvor yo'nalish ekanligini isbotlamoqda.

Xalq ta'limi tizimida psixologik xizmatni tashkil etish va bu borada olib boriladigan ishlarni muvofiqlashtirish maqsadida Xalq ta'limi vazirligi tarkibida o'quvchilarni kasbhunarga yo'naltirish va pedagogik-psixologik Respublika tashxis Markazi huzurida «Psixologik xizmatni muvofiqlashtirish Kengashi» tuzildi. Ushbu kengash ta'lim muassasalarida joriy etiladigan psixologik xizmat mazmuni, psixologlarning ish ko'lamini va mazmuni O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, o'quvchilarni kasbhunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazlari, Respublika ilmiy-metodik tashkilotlari, viloyat,

tuman, shahar, xalq ta'limi boshqaruv organlari, malaka oshirish institutlari tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlar tavsiyanomalar, yo'riqnomalar, metodik qo'llanmalar bilan belgilanishi ta'kidlanadi. Ta'lim tizimidagi psixologning asosiy vazifasi psixik xizmatni muayyan qoida va mezonga asoslanib tashkil kilishdan iborat bo'lib, taraqqiyot psixologiyasi xususiyatlariga binoan psixikaning rivojlanishi, shaxsni shakllantirish konuniyatlarini amaliyotga tatbik etish, o'quvchilar jamoasiga bolalar, o'quvchilar va talabalar ta'lim-tarbiyasini individuallashtirishga yordamlashish, ularning kobilyatlarini shaxsning rivojlanishi darajasiga qarab o'qituvchilarga psixokorreksion ishlarini amalga oshirishda ko'rsatmalar berishdir. Psixologik xizmatning alohida ahamiyat kasb etadigan jihati o'quvchilarning psixik rivojlanishdan orqada qolishi, ularda xulqning buzilishi, ta'limda o'zlashtirishning yomonlashuvi kabilarni o'rganish hisoblanadi.

Maktab psixologi faoliyatining asosiy mazmuni ta'lim sub'yekti bo'lmish o'quvchilarga har tomonlama mukammal psixologik taraqqiyotni ta'minlovchi oqilona, zaruriy shart - sharoitlar, omillar, qulay vaziyat va muhit yaratishdan iboratdir[2]. Psixologik xizmatda tadqiqot va ta'sir o'tkazishning ob'yekti umumiy o'rta ta'lim o'quvchilari bo'lib, ularni yakka tartibda, alohida guruh yoki jamoaviy shaklda o'rganishdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Zamonaviy psixologiya fanida o'smirlar davriga xos nizolarning psixologik korreksiyasi muammosini ham nazariy hamda amaliy o'rganish tajribalari muayn darajada mavjud[3]. Masalan, Dj.Bugental, K.Levin, A.Maslou, K.Rodgers, V.Frankl, A.Freydlarning psixologik nazariyalari tahlilida o'tish davriga xos nizolarning oldini olishda shaxs imkoniyatlarining kuchi masalasiga keng qamrovli yondashuvni ko'rish mumkin. O'zbek olimlaridan E.G.G'oziyev (1996), M.G.Davletshin (1989), G'.B.Shoumarov (1979), B.R.Qodirov (1999), V.M.Karimova (1998), N.S.Safoyev (1996), Sh.R.Barotov (1995, 1998, 1999) va N.A.Sog'inovlarning (1995) O'zbekiston o'rta umumta'lim maktablari hamda oila tizimlarida psixologik xizmatni joriy etish borasida olib borayotgan qator nazariy-ilmiiy va amaliy uslubiy ishlari Respublikamizda psixologik xizmatni joriy etish va rivojlantirish uchun ma'lum darajada asos bo'lmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Nazariy tadqiqot doirasida ilmiy adabiyotlar-ning psixologik tahlili; o'smirlar xulq-atvorining tavsiflarini o'rganish uchun patoxarakterologik diagnostik so'rovnomaga; nizoli vaziyatlarda o'smirlarning xavotirlanish darajasini (Ch.D.Spilberg - Yu.L.Xaninning reaktiv (vaziyatli) va shaxsiy xavotirlanish shkalasi) aniqlash; maktab psixologi amaliy faoliyatida o'smirlar nizolilik darajasi, ular nizoli xatti-harakatlarining shakli va xarakterini inobatga olgan holda psixologik korreksiyasi dasturini qo'llash samaradorligini baholashda: a) o'smirlar nizoli xatti-harakatlarining shakli va xarakterini o'rganish uchun G.Q.To'laganova tomonidan ishlab chiqilgan eksperimental anketa so'rovnomasi; b) muallif tomonidan tuzilgan o'smirlarning ota-onalari bilan so'rov; v) muallif tomonidan tuzilgan o'smirlarning o'qituvchilari bilan so'rov; maqsadli kuzatuv va suhbat metodlari.

1-jadval

Eksperimental va nazorat guruhining maktab psixologining psixokorreksion ishlarigacha bo'lgan tavsifi

№	Diagnostik shkalalar nomi	Eksperimental guruh (n=98)			Nazorat guruhi (n=74)			
		o'rtadan yuqori	o'rta	o'rtadan past	o'rtadan yuqori	O'rta	o'rtadan past	
1	Nizolilik	soni	81	13	4	54	11	2
		%	82,3	13,6	4,1	80	17,2	2,8
2	Nizoli xatti-harakatlarning verbal/noverbal shakli	soni	86	5	7	58	4	5
		%	87,8	5,1	7,1	87,1	5,7	7,2
3	Bilvosita/bevosita nizoli xatti-harakatlar	soni	78	16	4	46	13	8
		%	79,6	16,3	4,1	68,6	19,4	12

Bunda, nizolilik darajasi o'rtadan yuqori bo'lgan eksperimental guruhning o'smirlari soni (82,3% - 81 nafar o'smir) nazorat guruhidagi nizoli o'smirlar sonidan (80% - 54 nafar o'smir) ozgina ko'proq. O'z navbatida ushbu kategoriyada maktab jamoasida tengdoshlari va o'qituvchilariga nisbatan nizoli vaziyatlar tez-tez kuzatilib, bu o'zlashtirish va o'quv muassasasining davomatida salbiy aks etadi. Bu o'smirlar oila ichidagi shaxslararo munosabatlarda ota-onalari bilan bo'lgan muloqatda nizoli vaziyatlar bilan birgalikda kechuvchi qiyinchiliklarni his etishadi. Ushbu o'smirlar odatda, tengdoshlari bilan aloqalarda qiyinchiliklarni his etishadi va o'zlarining yolg'izliklarini azobli boshdan kechirishadi. Eksperimental (87,3% - 86 nafar o'smir) va xuddi shunday, nazorat guruhidagi (87,1% - 58 nafar o'smir) aksariyat o'smirlar nizoli hulq-atvorning verbal shaklining o'rtadan yuqori darajasiga ega ekanliklari va shaxslararo nizolar sharoitlarida faollikning verbal shakli ustivorlik qilishi kuzatiladi.

Bilvosita nizoli xatti-harakatlar eksperimental guruhning 79,5% (78 nafar o'smir) o'smirlarida va nazorat guruhida esa 68,6% (46 nafar o'smir) o'smirlarida kuzatiladi.

Tahlil va natijalar. Shaxslararo nizo muammosining maktab psixologi faoliyatining ob'yekti sifatida qo'yilishi mantiqan shaxslararo nizolarning o'smirlar shaxsliligi rivojlanishidagi rolini tan olish prinsipidan hamda o'smirlar muhitidagi nizolarni maktab psixologi faoliyatiga kiritish zaruratidan kelib chiqadi[5].

O'smirlar nizolilik darajasini hamda ularni nizoli xatti-harakatlarining shakl va xarakterini inobatga olgan holda psixologik korreksiyasi dasturini maktab psixologi tomonidan qo'llash samaradorligini o'rganish maqsadida empirik tadqiqotning umumiy tanlovi (n=172) nazorat va eksperimental guruhga ajratildi. Eksperimental guruhga 10 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan (o'smir o'gil va qiz bolalar) 98 nafar o'smir, shunga ko'ra nazorat guruhiga xuddi shu o'rtacha yosh davri va jinsiy kategoriyadagi 74 nafar o'smir kiritildi.

Eksperimental guruhdagi o'smirlar 11 oy davomida o'smirlar nizolilik darajasini ularning nizoli xatti-harakatlarining shakl va xakteri inobatga olingan psixologik korreksiya dasturi doirasida mashg'ulotlarda ishtirok etish uchun jalb etilgan. Nazorat guruhi o'smirlari yuqorida keltirilgan dasturdagi mashg'ulotlarga jalb etilmagan bo'lib, bu bizga keyinchalik maktab psixologining psixokorreksion ishlarining nizolik darajasi hamda o'smirlarning nizoli xatti-harakatlarining shakl va xakteriga ta'sirini aniqlash imkoniyatini berdi.

Maktab psixologining o'smirlarning nizoli xatti-harakatlarining shakl va xakterini o'rganishning eksperimental anketa so'rovi yordamida psixokorreksion ishlarigacha bo'lgan tekshiruv natijalarini ko'rsatishicha, eksperimental va nazorat guruhi o'smirlarining diagnostik shkalalar bo'yicha ko'rsatgichlari bir-biridan farq qilmaydi, ya'ni ahamiyatli farqlarga ega emas (1-jadval).

Ushbu kategoriyadagi o'smirlarda nizoli xatti-harakatlar nizoli vaziyatlar sharoitida opponentning predmetli yoki ijtimoiy qurshovga ustunlikda yo'nalgan, opponentlarning biryozlama yoki ikkiyoqlama faolliklari bilan xarakterlanadi. O'z navbatida eksperimental guruhning 4,1% (4 nafar o'smir) va nazorat guruhining 12% (8 nafar o'smir) o'smirlariga bevosita nizoli vaziyat ob'yektiga yo'naltirilgan, birmuncha bevosita nizoli xatti-harakatlarni qabul qilishar ekan.

Shu bilan birga verbal bevosita nizoli xatti-harakatlar o'rtacha 70% o'gil va 50% qiz jinsidagi o'smirlarda kuzatiladi. Bilvosita verbal nizoli xatti-harakatlar ko'pincha qizlarda(atigi 40% holatlardagina) o'smirlarga nisbatan o'gil bolalarda(75%) o'smirlarda tez-tez kuzatiladi. Bevosita noverbal nizoli xatti-harakatlar o'rtacha o'gil bola75% o'smirlarda kuzatilgan bo'lsa, faollikning ushbu shakli qiz bola o'smirlarning 30% da kuzatilgan.

Biz ushbu dissertatsion tadqiqot doirasida ilgari o'tkazgan nizoli vaziyatlarda turli xil tipdagi xakterdagi o'smirlar xulq-atvorlari tasniflarini o'rganishda ham o'smirlar jinsiy farqlanishlarini inobatga olgan holda o'smirlarning

nizoli xatti-harakatlarining shakl va xarakterini ifodalashining o'rtacha xuddi shunday o'zaro nisbati kuzatilgan.

Qiyosiy tahlil o'tkazish maqsadida biz umumiy tanlovdagi (eksperimental va nazorat guruhlar) o'smirlarni

nizoli xatti-harakatlarning shakl va xarakterlarini o'rganishning eksperimental anketa so'rovnomasi yordamida maktab psixologining psixokorreksion ishlaridan so'ng tekshirib chiqdik (2-jadval).


2-jadval

Maktab psixologining psixokorreksion ishlaridan so'ng eksperimental va nazorat guruhining tavsifi

№	Diagnostik shkalalar nomi	Eksperimental guruh (n=98)			Nazorat guruhi (n=74)			
		o'rtadan yuqori	o'rta	o'rtadan past	o'rtadan yuqori	o'rta	o'rtadan past	
1	Nizolilik	soni	0	30	68	57	9	1
		%	0	30,6	69,4	85,1	13,4	1,5
2	Nizoli xatti-harakatlarning verbal/noverbal shakli	soni	6	80	12	44	3	20
		%	6,2	81,6	12,2	65,7	4,5	29,8
3	Bilvosita/bevosita nizoli xatti-harakatlar	soni	7	84	7	42	9	16
		%	7,1	85,8	7,1	62,7	13,5	23,8

2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, uchala diagnostik shkalalar bo'yicha eksperimental va nazorat guruhlarini inobatga olganda jiddiy farqlarga ega. Ishlab chiqilgan dastur bo'yicha maktab psixologining

psixokorreksion ishlari natijasida eksperimental guruhning 30,6 % (30 nafar o'smir) o'smirida nizolilik darajasining ko'rsatgichi o'rta darajaga, 69,4% (68 nafar o'smir) da esa o'rtadan past darajaga pasaydi (1-rasm)



1-rasm. Maktab psixologining psixokorreksion ishlarigacha va ishlaridan so'ng eksperimental guruh o'smirlarining nizolilik darajasining % lardagi qiyosiy tasnifi

Ushbu dalillar, shaxslararo (o'quv jamoasida) va oila ichidagi o'zaro munosabatlar uchun ham va umuman ta'lim uchun ham shubhasiz ijobiy bo'lib hisoblanadi. Biroq, yuqorida keltirilgan ko'rsatgichlar maktab psixologining psixokorreksion ishlariga jalb etilmagan nazorat guruhi o'smirlarining ko'rsatgichlaridan keskin farq qiladi. 85,1% (57 nafar o'smir) o'smirlarda oldingidek nizolilikning o'rtadan yuqori darajasi kuzatilgan bo'lib, bu maktab jamoasida tengdoshlar va o'qituvchilarga nisbatan vaqti-vaqti bilan bo'lgan nizolarda ifodalanadi. Ushbu o'smirlar oila ichidagi o'zaro munosabatlarda ham doimiy nizoli vaziyatlar bilan birgalikda kechuvchi yaqin qarindoshlar bilan muloqatda qiyinchiliklarni his etishadi.

Psixokorreksion ishlar natijasida eksperimental guruhdagi o'smirlarning nizoli xulq-atvorlarining verbal va bilvosita shaklining ko'rsatgichlari ham o'zgardi. Bunga ko'ra, nizoli xulq-atvor shakllarining aksentuatsiyasi asosan kuzatilmadi. 81,6% (80 nafar o'smir) o'smirlar "nizoli xatti-harakatlarning verbal/noverbal shakllari" – diagnostik shkalasi bo'yicha va "bilvosita/bevosita nizoli xatti-harakatlar" – shkalasi bo'yicha 85,8% (84 nafar o'smir) o'smir o'rta darajaga ega bo'lib, buni ushbu ko'rsatgichlar amaliy jihatdan o'zgarishsiz qolgan nazorat guruhidagi o'smirlarga nisbatan aytib bo'lmaydi.

Shu tariqa, o'tkazilgan eksperimental anketa so'rovi natijalarining qiyosiy tahlili biz ishlab chiqqan o'smirlar nizolilik darajasini ularning nizoli xatti-harakatlarining shakli va xarakteristikasini inobatga olgan holda psixologik korreksiya dasturini baholash imkonini berdi va samarali

ekanligini tasdiqlab, ushbu protsedurani mos keluvchi mutaxassislar tomonidan amaliy qo'llash mumkinligini ko'rsatib berdi.

Shaxslararo nizolarga konstruktiv munosabatda bo'lish haqida gapirganda, biz turli tadqiqotchilar tomonidan bir necha marotaba aytilgan va N.V.Grishina tomonidan muvaffaqiyatli ifodalangan nizoning ijobiy imkoniyatlari tarbiyaviy funksiyalarni amalga oshirish uchun samarali qo'llanilishi mumkinligi haqidagi fikrlarni nazarda tutamiz.

Xulosa va takliflar.

1. Maktab psixologining o'smirlar o'rtasidagi shaxslararo nizolar sharoitidagi psixokorreksion faoliyati tabiiy turlicha bo'lgan nizoni keltirib chiqaruvchi omillarning birgalikdagi ta'sirini, o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatida individual yondashuvni qo'llash imkoniyatlarini, uning samaradorligini baholashni uni amalga oshirish jarayonida ham, uning natijalariga ko'ra ham hisobga olgan holda rejalashtirilishi zarur.

2. Maktab psixologining psixokorreksion faoliyati samaradorligini baholash tabiiy turlicha bo'lgan nizoni keltirib chiqaruvchi omillar dinamikasi va korreksion jarayon qatnashchilarining shaxslilik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlaridagi o'zgarishlar dinamikasini aks ettiruvchi maxsus mezonlar yordamida amalga oshirilishi mumkin.

3. Maktab psixologining o'smirlar o'rtasidagi shaxslararo nizolar vaziyatidagi psixokorreksion faoliyati samaradorligi shuni ko'rsatadiki psixokorreksion ishning turli shakllari va metodlari tabiiy turlicha bo'lgan nizoni keltirib

chiqaruvchi omillarga korreksion taʼsir koʻrsatishda har xil samaraga ega.

ADABIYOTLAR

1. Sh.A.Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil qatʼiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boʻlishi kerak.- T., 2017. –B.45.
2. Barotov Sh.R. Psixologik xizmat tizimida oʻquvchi shaxsini oʻrganish muammosi. // Buxoro. Taʼlim muassasalarida psixologik xizmat sinov va tajriba. Respublika ilmiy- amaliy anjumani. 1995. - B. 64-65.
3. Barotov Sh.R. Oʻzbekistonda psixologik xizmat tashkil etilishining ijtimoiy-psixologik va ilmiy-amaliy asoslari. Psixol.fanlari dokt. diss.avtoreferati. – T.: OʻzMU, 1998. – 28 b.
4. Бородин И.И. К вопросу о типологии (классификации) социальных конфликтов // Социальный конфликт. - 2000. - N 3(27). - С.38-41.
5. Газиев Э. Г., Тулаганова Г. К. Методические указания по «Возрастной и педогогической психологии» к разделу «Психология подросткового возраста». (для непсихологических факультетов). Ташкент, ТаГГУ, 1990, 25 с.
6. Гришина Н.В. Психология конфликта. -СПб.: Питер, 2000. - 464 с.
7. Козырев Г.И. Введение в конфликтологию. - М.: ВЛАДОС, ИМПЭ им. А.С.Грибоедова, 2001. - 176 с.
8. Пантофельман В.И. Проявление агрессии у подростков: особенности психологической структуры. РГУ, 2003.
9. Психология конфликта: Хрестоматия /Сост. и общ. Редакция Н.В.Гришиной. СПб.: «Питер», 2001. 448 с.10. Социальная конфликтология: Учеб. пособие / Под ред. А.В.Морозова. М.: Академия. 2002. - 336 с.



UDK: 37.08,123 (575.1)

Olimjon TURSINBOYEV,

*A.Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish
milliy-tadqiqot institutining tayanch doktoranti
E-mail: tursinboyevolimjon88@gmail.com*

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent G'.Otamurodov taqrizi asosida

THE IMPORTANCE OF ORGANIZING THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF SCHOOL TEACHERS TODAY

Annotation

The article reveals the reforms implemented today in the field of continuous professional development of teachers of general education schools and their significance and content.

Key words: Continuing professional education system, employees of educational institutions in the school education system, professional development, France, Russian scientists.

АКТУАЛЬНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ШКОЛЬНЫХ УЧИТЕЛЕЙ СЕГОДНЯ

Аннотация

В статье раскрываются реформы, реализуемые сегодня в сфере непрерывного профессионального развития учителей общеобразовательных школ, их значение и содержание.

Ключевые слова: Система непрерывного профессионального образования, работники образовательных учреждений в системе школьного образования, повышение квалификации, Франция, российские учёные.

МАКТАБ О'QITUVCHILARINING KASBIY RIVOJLANISHINI TASHKIL ETISHNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Аннотация

Maqolada bugungi kunda umumta'lim maktab o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish soxasida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning ahamiyati, mazmun-mohiyati ochib berilgan

Kalit so'zlar: Uzluksiz kasbiy ta'lim tizimi, Maktab ta'limi tizimidagi ta'lim muassasalari xodimlari, kasbiy rivojlanish, Fransiya, Rossiyalik olimlar

Maktab o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishini tashkil etishning bugungi kundagi ahamiyati.

Bugungi, tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan dunyoda barcha e'tibor ta'lim tizimi va uni takomillashtirishga qaratilmoqda. Zero, mamlakatlarning bugungi kundagi va kelajakdagi taraqqiyoti ularda mavjud bo'lgan foydali yer qazilmalari yoki energetika resurslari bilan emas, balki sifatli ta'lim orqali erishiladigan ilmiy-texnikaviy muvaffaqiyatlar bilan ta'minlanishi isbot talab qilmaydigan haqiqiylikka aylanib bormoqda. Iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar ushbu fikrimizning yaqqol dalilidir.

Jahonda globallashtirish jarayonida ta'limni sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarish, raqobatdosh va professional kadrlarni tayyorlashda o'rta ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagog kadrlarni zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishmoqda. Har qanday mamlakatda ta'lim tizimining, ayniqsa umumiy o'rta ta'lim bo'g'inining taraqqiyoti unda faoliyat ko'rsatayotgan pedagog kadrlarning kasbiy salohiyati va mahoratiga bog'liq. Aynan ana shu umumiy o'rta ta'lim tizimida, ya'ni maktablardagi ta'lim sifati ularda faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning sifatidan yuqori bo'lolmaydi. Shuning uchun ham maktablardagi ta'limning sifat va samaradorligini oshirish uchun o'qituvchilarning kasbiy salohiyati va mahoratini zamon talablariga mos tarzda uzluksiz oshirib borish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda kasbiy rivojlanish ta'lim tashkiloti faoliyatini takomillashtirishning asosiy sharti hisoblanadi va shuning uchun rahbarning vazifasi shu

rivojlanish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlashdir. Ammo o'qituvchining kasbiy mahorati nimaning anglatishini tushunish turli mamlakatlarda bir-biridan darajada farq qiladi[1].

O'qituvchilarining kasbiy rivojlanishi yevropaning deyarli barcha mamlakatlari va mintaqalarida o'qituvchilarning majburiyati deb hisoblanadi. Biroq, hamma joyda ham ushbu mas'uliyatni belgilaydigan me'yoriy-huquqiy baza mavjud emas. Masalan, Fransiya, Islandiya, Gollandiya va Shvetsiyada kasbiy rivojlanish o'qituvchilarning vazifasi deb e'lon qilingan, ammo amalda ular bundan bo'yin tovlashlari mumkin. Polsha, Slovakiya, Sloveniya, Ispaniya va Lyuksemburgda muttasil malaka oshirish ixtiyoriydir, ammo ta'qib etilmasa, u martaba va ish haqiga ta'sir qiladi. Lyuksemburg va Ispaniyada ma'lum bir o'qish muddatiga ro'yxatdan o'tgan o'qituvchilar qo'shimcha ish haqi oladilar. Qolgan uchta mamlakatda o'qituvchilar turli shakllar va o'quv dasturlari uchun kreditlar to'plashadi va bu ularni yangi lavozimga tayinlashda hisobga olinadi. Kipr, Gretsiya va Italiyada uzluksiz kasbiy rivojlanish faqat boshlang'ich o'qituvchilarning mas'uliyati hisoblanadi[2].

Maktab va maktabgacha ta'limi tizimidagi ta'lim muassasalari xodim(rahbar, pedagog va mutaxassis)larining malaka saviyasi ular kasbiy faoliyatining sifat mezonlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda ta'lim xodimlarining o'z kasbiy mahoratini eng yuqori darajaga ko'tarish majburiyati qonun yo'li bilan mustahkamlab qo'yilgan[3]. Bunga esa ularning butun faoliyati davomidagi uzluksiz ta'limi orqali erishish mumkin bo'ladi.

Maktab o'qituvchilarining kasbiy rivojlanish tizimi pedagoglar tomonidan yangi ma'lumot, bilim, ko'nikma va malakalarni olishning bosh manbasi hisoblanadi, shuning uchun ham, aynan mazkur tizim, ma'lum ma'noda, tizim xodimlarining sohada amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlariga tayyorligi uchun mas'ul va shu bois alohida e'tiborga loyiq.

Pedagoglar uchun kasbiy rivojlanish tizimini Rossiya olimlar quyidagicha belgilaydilar:

-kasbiy mahoratini oshirish va malakasini oshirish, yangi mutaxassislik olmagan holda yangi funksional vazifalarni o'zlashtirish uchun qo'shimcha pedagogik kasbiy tayyorgarlik dasturlarini amalga oshiradigan turli tashkiliy-huquqiy shakllardagi qo'shimcha ta'lim muassasalari majmui (E.M. Nikitin);

-qo'shimcha kasbiy ta'lim turi, ilgari olingan kasbiy bilimlarni yangilash va chuqurlashtirish, xodimlarning ishbilarmonlik fazilatlarini takomillashtirish, ularning kasbiy faoliyat bilan bog'liq ta'lim ehtiyojlarini qondirish (E. A. Levanova, T. V. Pushkareva, M. L. Subocheva);

-har tomonlama amalga oshiradigan doimiy ta'lim va shaxsni rivojlantirish markazi individual odamlarning ta'lim va rivojlanish darajasini oshirish (P. G. Shchedrovskiy).

Ko'pgina tadqiqotchilar ta'kidlashlaricha, bugungi kunda dunyoda o'qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning yangi tizimlari izlanmoqda, ammo na mazmuni, na o'quv mashg'ulotlarining tashkiliy shakllari, na o'qitish usullari bo'yicha yagona nuqtai nazar mavjud emas[4].

An'anaviy o'qitish shakllarining mazmuni yangilanmoqda (malaka oshirish tizimida yangi kurslar, o'qitishning noan'anaviy shakllari, o'qitish individual va differensiallashtirilgan va hk) joriy etilmoqda va ta'limning yangi paradigmasining konseptual asoslariga asoslanib, maxsus o'quv va malaka oshirish markazlari yaratilmoqda [5].

Kasbiy pedagogik ta'lim tizimida o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishining asosiy funksiyalari diagnostik, kompensatsion, kognitiv, prognostik va adaptivdir.

Diagnostik funksiya - bu qobiliyatlarni aniqlash, individual psixologik xususiyatlarni aniqlash va tayyorgarlik darajasi. Kompensatsion funksiya - kasbiy bilim va ko'nikmalarni chuqur o'zlashtirish muhimligi bilan, ilgari olingan bilimlarning eskirishi, kasbiy ta'lim jarayonida psixologik va pedagogik bilimlarning etishmasligi bilan bog'liq bo'lgan ta'limdagi bo'shliqlarni bartaraf etish.

Kognitiv funksiya bu o'qituvchi shaxsining kasbiy, intellektual va axborot ehtiyojlarini qondirishdir.

Bashorat qiluvchi funksiya - bu ijodiy salohiyatni rivojlantirish, o'qituvchining kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorligini ochib berish.

Adaptiv funksiya - bu axborot madaniyatini rivojlantirish, o'z-o'zini tarbiyalashga o'rgatish, ta'lim muassasasi maqomini, mashg'ulot profilini, lavozimini, ish joyini o'zgartirganda faoliyatga yo'naltirish uchun zarur bo'lgan universal pedagogik texnologiyalar va tizimlarni ishlab chiqish qobiliyatlari.

Shunday qilib, o'qituvchilarning malakasini oshirish tizimi ilgari olingan kasbiy bilimlarni yangilash, chuqurlashtirish, ishbilarmonlik mahoratini oshirish, yangi funksional majburiyatlarni yangi mutaxassislik olmagan holda va kasbiy faoliyat bilan bog'liq ta'lim ehtiyojlarini qondirish.

Pedagogik kadrlarning kasbiy rivojlanish tizimining etakchi yo'nalishi butun pedagogik faoliyat davomida muttasil malaka oshirish va o'qituvchi shaxsini rivojlantirish, uning kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorligini aniqlash va uning ijodiy salohiyatini rivojlantirishdir.

Maktab ta'limi tizimidagi ta'lim muassasalari xodimlarini kasbiy faoliyatini sifat jihatdan ko'tarish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylanib bormoqda. Prezident Sh.M.Mirziyoevning "O'zbekiston yangi taraqqiyot strategiyasi" asarida ham o'qituvchilarni uzliksiz kasbiy rivojlantirish hamda "xayot davomida ta'lim ol" strategiyasiga[6] ham alohida ahamiyat qaratdi. Shuningdek, Yangi O'zbekiston ta'lim strategiyasining bosh mezon hisoblangan "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni qayta qabul qilinganligi hamda ta'limning uzliksiz va izchilligi qonun bilan mustahkamlanganligi katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Mamlakatimizda ushbu tizimning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun barcha sharoitlar yaratilgani ta'lim sohasida qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzliksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori 25-son Qarori mazkur hujjatlar orasida alohida ahamiyatga ega[7].

Ushbu qaror "Xalq ta'limi xodimlarini uzliksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qaror uzliksiz kasbiy rivojlanish tizimini sohasidagi amalga oshiriladigan islohotlarning yo'nalishlari, tizimning maqsad va vazifalari xamda amalga oshiriladigan tadbirlarni aniq belgilab berdi.

Uzliksiz kasbiy rivojlantirishning maqsadi — xalq ta'limi xodimlarning ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari, shuningdek, o'qitishning interaktiv usullari bo'yicha kasbiy bilimlari, malaka va ko'nikmalari muntazam ravishda yangilab borilishini ta'minlash hamda ularni davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va sohaga oid qonunchilik bilan muntazam tanishtirib borishdan iborat. Uning asosiy vazifalari esa doimiy kasbiy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar taqdim etadigan ta'lim muhitini yaratishdan iborat. Shuningdek, o'z ustida mustaqil ishlash va kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, kasbiy mahoratini takomillashtirish, axborot texnologiyalari bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, pedagog xodimlarni jahonning ilg'or tajribalaridan kelib chiqib uzliksiz kasbiy rivojlantirish tizimining yangi mexanizmini ishlab chiqishni davrning o'zi taqazo qildi. Ta'limda shiddat bilan amalga oshirilayotgan islohotlarning joylardagi bosh ijrochisi ta'lim muassasalarda xususan maktablarimizda faoliyat ko'rsatayotgan pedagog xodimlardir. Maktab rahbarlari va o'qituvchilari orqali nafaqat maktabga balki maktab joylashgan mikrohududga ta'limdagi islohotlar kirib boradi.

O'qituvchilarning malakasini oshirish dunyoning aksariyat mamlakatlari uchun alohida tashvishga aylanib bormoqda. Biroq, hali hech bir mamlakat bu muammoni to'liq hal qilishga muvaffaq bo'lmadi. Muvaffaqiyatli rivojlanayotgan ta'lim tizimlarining deyarli har birida yaqinda muhim o'zgarishlar yuz berdi, bu ham maqsadlarga, ham o'qituvchilarning malakasini oshirish va qayta tayyorlashni tashkil etishga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, malaka oshirishning ayrim shakllari samaradorligi to'g'risida mulohazalarni olishning samarali usullari topildi deb aytish mumkin emas. Shuni aytishimiz mumkinki, uzliksiz kasbiy rivojlanish tizimida o'z tajribasi, malakasini oshirish, mustaqillik, tadqiqot va loyihalarni tayyorlash usullari, universitetdan maktabgacha bo'lgan barcha malaka oshirish dasturlarini yaxshi muvofiqlashtirishi, ushbu dasturlarning uzliksizligi haqida mulohaza yuritish istagi o'qituvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ularning ko'proq mamnun bo'lishiga hissa qo'shadi.

ADABIYOTLAR

1. Е.А. Ленская. Спрос и предложения в системе повышения квалификации педагогических кадров. /Москва, 2015. // WWW.NAUKA.X- PDF.RU
2. Eurydice, 2003, 2008; [Текст] European Commission, 2009, page 16
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori.17.01.2022 й.
4. В. И. Варюшенко, О. В. Гайкова. Повышение квалификации в непрерывном образовании и развитии личности учителя //Научно- теоретический журнал. – 2015. -Выпуск 1 (22). – с. 20-29.
5. Зеличенко В. М., Клокова Н. В. Альтернативная проблемно- проектная модель повышения квалификации «Педагог открытого образования» // Вестник Томск. гос. пед. ун-та. – 2000. –Выпуск 8. – № 24. – С. 46–49.
6. Ш.М.Мирзиёев. Ўзбекистон янги тараққёт стратегияси. Ўзбекистон нашриёти/Тошкент-2021
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori.17.01.2022 й.



Irina TUXFATULLINA,

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti katta o'qituvchisi

E-mail:sevelena82@mail.ru

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti dotsenti, p.f.n G.Xasanova taqrizi asosida

TRAINING SYSTEM WITH A SIGNIFICANT AMOUNT OF COMPETITIVE LOAD FOR ROAD CYCLIST

Annotation

The article presents the calculations of the profile training of highly qualified road cyclists in preparation for the Uzbek Championship and the Asian Championship in the 25 km team race, special attention is paid to the volume and intensity, as well as the system of training highly qualified cyclists.

Key words: Load, volume, intensity, team race, road training, highly qualified cyclists.

СИСТЕМА ТРЕНИРОВКИ СО ЗНАЧИТЕЛЬНЫМ ОБЪЕМОМ СОРЕВНОВАТЕЛЬНОЙ НАГРУЗКИ ВЕЛОСИПЕДИСТОВ-ШОССЕЙНИКОВ

Аннотация

В статье представлены выкладки профильной подготовки велосипедистов шоссейников высокой квалификации при подготовке к Чемпионату Узбекистана и Чемпионату Азии в командной гонке на 25 км., особое внимание уделено объему и интенсивности, а так же системе подготовки велосипедистов высокой квалификации.

Ключевые слова: Нагрузка, объем, интенсивность, командная гонка, шоссейные тренировки, велосипедисты высокой квалификации.

SHOSSE VELOSIPEDCHILARINING MUSOBAQA YUKLAMALARI KATTA HAJMI BILAN TRENIROVKA TIZIMI

Аннотасија

Maqolada 25 km masofaga jamoaviy poygada O'zbekiston chempionati va Osiyo chempionatiga tayyorgarlik ko'rishda yuqori malakali shosse velosipedchilarining profil tayyorgarligi hisob-kitoblari keltirilgan, uning hajmi va shiddati, shuningdek, yuqori malakali velosipedchilarni tayyorlash tizimiga alohida e'tibor berilgan.

Kalit so'zlar: Yuklama, hajm, intensivlik, jamoa poygasi, yo'l mashg'ulotlari, yuqori malakali velosipedchilar.

Kirish. Yuqori malakali sportchilarni tayyorlash tizimining ahamiyati muqarrar hisoblanadi, biroq yetarlicha o'rganilmagan, bunda tayyorgarlikning yillik siklida trenirovka va musobaqa yuklamasini taqsimlash muammosi birinchi tarkibiy darajaga chiqadi hamda quvvat va intensivlik bo'yicha turli xil mashqlar hajmlari taqsimlanishini o'z ichiga oladi.

Yuqori malakali velosipedchilarni tayyorlashning ilmiy asoslangan tizimi metodikani takomillashtirish, trenirovka vositalarini optimallashtirish hisobiga trenirovka jarayonining yanada intensivlashtirilishini nazarda tutadi, bu O'zbekistonning shosseda 25 km masofaga jamoaviy poygada ixtisoslashgan yuqori malakali velosipedchilarining sport natijalarini oshirishga ko'maklashadi. Bu mazkur tadqiqotning ustuvor yo'nalishlaridan birini tashkil etadi.

Tadqiqot maqsadi – 25 km masofaga jamoaviy shosse poygasiga ixtisoslashgan velosipedchilarning katta hajmli musobaqa yuklamasini o'z ichiga olgan samarali trenirovka tizimini ishlab chiqish va aprobasiya qilish.

Tadqiqot vazifalari. Butun yillik tayyorgarlik davri mobaynida bajariladigan spetsifik trenirovka va musobaqa yuklamalari asosiy ko'rsatkichlarining miqdoriy va sifat tavsiflarini asoslash.

Velosipedchilarning tayyorgarlik darajasini aniqlash alohida usullarini hamda trenirovka va musobaqa yuklamalari vaqtida ulardan bevosita foydalanilgan holda bajariladigan mashg'ulotlar intensivligini nazorat qilish uslublarini ishlab chiqish.

Yuqori malakali velosipedchilarning yillik trenirovka sikllari tayyorgarlik va musobaqa davrlari uchun yuklama-

larning intensivlik bo'yicha turli hajmlarining eng samarali nisbatlarini tajriba asosida asoslash.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi 25 km masofaga jamoaviy poygada ixtisoslashgan shosse velosipedchilarining musobaqa yuklamalari katta hajmi bilan trenirovka tizimini ishlab chiqishga asoslangan;

yuqori malakali velosipedchilarning yillik trenirovka jarayoni tizimi ishlab chiqilgan;

pedagogik tajribada turli yillik sikllarda yuklamalar hajmlari va intensivligini muvofiqlashtirish taklif qilingan va aprobasiya qilingan.

Tadqiqot obyekti: shosse velosipedchilarini profil tayyorlash tizimi.

Tadqiqot usullari: mahalliy va chet el adabiyoti hamda sport amaliyoti ma'lumotlari tahlili, pedagogik kuzatuv, pulsometriya ma'lumotlari bo'yicha trenirovka va musobaqa yuklamalarini xronometrlash va testini o'tkazish, test o'tkazish usullari va nazorat mashqlari, musobaqalar, pedagogik tajriba, matematik statistika usullari.

Yuqori malakali velosipedchilarning trenirovka jarayoni tuzilishi samarali tizimi ishlab chiqilgan. Shuningdek, trenirovka tizimidan O'zbekiston terma jamoasining 25 km masofaga shosse poygalari bo'yicha 2021/2022 yillardagi O'zbekiston chempionatlariga, 2022 yildagi Osiyo chempionatiga tayyorgarligida foydalanilgan.

Velosiped sporti spetsifikasi hisobga olingan holda sport trenirovkasi nazariyasi va metodikalari asosiy talablarining sinovdan o'tkazilayotgan sportchilar (30 kishi) tekshiruv o'tkazish muddatlariga muvofiqligi pedagogik, fiziologik va matematik tadqiqot usullari seriyalaridan,

tadqiqotda qo'llanilayotgan metodikalar ishonchliligi amaliy tekshiruvdan foydalanilgan (1-jadvalda keltirilgan).

1-jadval

Razryadli velosipedchilarning nerv tizimi tipologik xususiyatlari va masofani bosib o'tish variantini tanlash (%)

Nerv tizimi xususiyatlari		Masofani bosib o'tish variantlari		
		Tez boshlanish (n=16)	Bir maromda (n=11)	Tez finish (n=18)
Asablarining "tashqi" ta'sirdan qo'zg'alishi va tormozlanishi o'rtasidagi muvozanat	Asablar qo'zg'alishi ustunligi	41,1	42,8	38,4
	Vazminlik	44,7	57,2	38,4
	Asablar tormozlanishi ustunligi	14,2	0,0	23,2
Asablarining "ichki" ta'sirdan qo'zg'alishi va tormozlanishi o'rtasidagi muvozanat	Asablar qo'zg'alishi ustunligi	26,6	22,2	7,1
	Vazminlik	46,8	66,7	71,5
	Asablar tormozlanishi ustunligi	26,6	11,1	21,4
Asabiy jarayonlar "harakatchanligi – harakatsizligi"	Asablar qo'zg'alishi harakatchanligi	56,2	18,1	13,3
	Asablar qo'zg'alishi harakatsizligi	43,8	81,9	86,7
	Asablar qo'zg'alishi harakatchanligi	31,3	18,1	40,0
	Asablar qo'zg'alishi harakatsizligi	68,7	81,9	60,0
Nerv tizimi kuchi	Katta va o'rta	31,3	45,3	80,0
	Kichik	68,7	54,7	20,0

Sport trenirovkasi nazariyasi va metodikalari shosseda 25 km masofaga jamoaviy poygaga ixtisoslashgan velosipedchilarning o'quv-trenirovka jarayonini tashkil qilish xususiyatlari to'g'risida yangi ma'lumotlar bilan to'ldirilgan.

Bunda, sportchilarning jismoniy holati belgilarini majmui baholash ko'rsatkichlari tadqiqotiga alohida e'tibor qaratiladi, qayd etilgan muammoni hal qilishga yondashuv biz tomonimizdan velosiped sporti amaliyotida qo'llanilgan va butun yillik tayyorgarlik davri mobaynida bajariladigan spetsifik trenirovka va musobaqa yuklamalari ko'rsatkichlarining ilmiy-asoslangan tizimini yaratish uchun asos hisoblanadi.

Material tahlili. Musobaqalarda ishtiroklar natijalari poygachilar yaxshi sport formasida ekanligini, trenirovka jarayoni aniq shakllantirilganligini ko'rsatdi. Ushbu ma'lumotlar Chirchiq shahrida o'quv-trenirovka yig'ini vaqtida saqlab qo'yilishi kerak. Chirchiq shahrida o'quv-Quyidagi 2-jadvalda 25 km masofaga jamoaviy

2-jadval

2022 yilgi O'zbekiston Chempionatida 25 km masofaga jamoaviy poygada nazorat va eksperimental guruhlar ishtiroki

t/r	100 km		25 km	
1	Nazorat guruhi	Eksperimental guruh	Nazorat guruhi	Eksperimental guruh
2	2 soat 28 daqiqa 11 soniya	2 soat 25 daqiqa 58 soniya	35 daqiqa 03 soniya	34 daqiqa 40 soniya
3	2 daqiqa 13 soniya		23 soniya	
4	<0,05		<0,05	

Jamoani 25 km masofaga jamoaviy poygaga tayyorlash tajribasi shundan dalolat beradiki, Osiyo chempionatiga tayyorgarlikda jamoa o'rtacha 10000 km dan 11000 km gacha masofani bosib o'tgan, 40-50 ta startga ega bo'lgan va 3 hafta tanaffus bilan ikki marta bir necha kun davom etadigan poygalarda ishtirok qilgan. Tayyorgarlik davrida maxsus jismoniy tayyorgarlik bosqichida mustahkam baza yaratilgan bo'lib, u 5-6 soat davomida sportchi organizmining yaxshi ish qobiliyatini ta'minlaydi.

Jamoa 2500-3000 km masofani bosib o'tib, dastlabki startlargacha maxsus tayyorgarlikni o'tkazgan. Jamoa birinchi bir necha kun davom etadigan poygadan oldin 8-10 marta bir kunlik (guruh va yakka tartibdagi) poygalarda ishtirok qilgan. Ikkita bir necha kun davom etadigan poyga o'rtasida sportchilar ko'p sonli guruh va yakka tartibdagi poygalarda ishtirok qilgan holda tezlik sifatlarini takomillashtirgan.

Jamoaviy poygaga maxsus tayyorgarlik bosqichi 4 haftadan 6 haftagacha davom etgan. Jamoa tarkibi bir hafta oraliq bilan 25, 50 va 75 km masofaga jamoaviy poygalarda ishtirok qilib, O'zbekiston chempionatigacha ikki hafta oldin esa 100 km masofaga jamoaviy poygada ishtirok qilib butlangan, bunda natija 25 km masofa qismlarida rejalashtirilgan natijalarga yaqin bo'lgan.

3. Maxsus trenirovka yuklamasi hajmi oldingi yillarda bajarilgan ko'rsatkichlar bilan to'liq nisbatda rejalashtiriladi. Trenirovka mashg'ulotlarida yuklama dozalanishini rejadagi ko'rsatkichlar bilan emas, balki sportchining obyektiv holati bilan amalga oshirish tavsiya etiladi.

trenirovka yig'ini vaqtida, 2022 yil Osiyo chempionatiga, 25 km masofaga jamoaviy poygaga (Tojikiston, Dushanbe) sport formasini eng cho'qqiga olib kelish maqsadida yuklamaning biroz kamaytirilishi taklif qilingan.

Jamoa treneri va shifokori bilan birgalikda o'quv-trenirovka yig'iniga tayyorgarlik rejasi taklif qilingan.

Trenirovka jarayonida quyidagi uzatma nisbatlari qo'llanilgan: joy relefi va shamol esishiga qarab: 54/16; 54/16; 54/14; 54/15.

O'zbekiston jamoasi sportchilari chiqishlarini umumlashtirish maqsadida va ularni tahlil qilishda 25 km masofaga jamoaviy poygaga tayyorgarlik ko'rishda, besh yil ichida 25 km masofaga jamoaviy poygada ishtirok qilish yakunlarini chiqarish va amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish mumkin, ushbu asosda 25 km masofaga jamoaviy poygaga mas'uliyatli musobaqalarga bevosita tayyorgarlik rejasini taklif qilish mumkin.

poygada jamoalar ishtiroki to'g'risida misol keltirilgan.

Jamoaning barcha imkoniyatlarini mobilizatsiyalash Osiyo chempionatida (Tojikiston) 25 km masofaga poygadan 10 kun oldin o'tkazilgan.

O'tkazilgan tadqiqot va tahlilga, tadqiqot ma'lumotlariga asoslangan holda quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Velosipedchilarning umumiy va maxsus chidamliligini realizatsiya qiladigan omillardan biri velosipedchilarning anaerob imkoniyatlarini rivojlantiruvchi usullar haftalik trenirovka sikllariga asta-sekin qo'shilgan holda trenirovka usullari va vositalarining bosqichma-bosqich qo'llanishidan iborat. Bunda, dam olish sikllari qo'llanilgan holda haftalik yuklamalarni bosqichma-bosqich oshirish yuklamani kuchaytirish tamoyilini amalga oshirish uchun muhim shart-sharoitlar hisoblanadi. Trenirovka yuklamalarini rejalashtirishda jismoniy yuklamani belgilovchi omil sifatida uzatma nisbatlari hisobga olinishi kerak.

2. Yakka tartibdagi tayyorgarlik dasturi sxemasi uchta o'zaro bog'liq pozitsiyadan iborat: asosiy ma'lumotlar, ya'ni dastlabki bosqichda sportchining maxsus tayyorgarlik darajasi; maqsad – xalqaro miqyosda muayyan sport yutug'iga erishish; bosqichlar bo'yicha tayyorgarlik dasturi.

ADABIYOTLAR

1. Dishakov A.S. Professional velopoygachilarning yillik tayyorgarlik sikli tuzilishi dinamikasi / V.M. Maksimova, A.S. Dishakov // RGUFKSiT professor-o'qituvchilar tarkibi ilmiy konferensiyasi materiallari (24-26 fevral 2010 y.). –M., 2010. - S. 125-130.
2. Karimov I.I. «Omnium» poygasiga ixtisoslashgan yuqori malakali velosipedchilar-trekchilarning musobaqadan oldingi tayyorgarligini tashkil qilish. PhD dissertatsiyasi avtoreferati. 13.00.04. O'zbekiston, Toshkent. 2022. S. 48.
3. Matkarimov R.M., Chernikova E.N., Yun R.S. Velosiped sporti: O'quv qo'llanma, O'zDJTI nashriyot-matbaa bo'limi, Toshkent, 2011 yil. II qism. – 135 b.
4. Narbayeva T.K., Chernikova E.N., Karimov I.I. VELOSIPED SPORTI, O'quv qo'llanma, O'zDJTI nashriyot-matbaa bo'limi, Toshkent, 2016 yil. I qism. – 291 b.



Gavhar USMANALIYEVA,
O'zMU "Umumiy psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi
E-mail: usmanaliyevag@mail.ru

O'zMU dosenti N.Mullaboyeva taqrizi asosida

FACTORS AFFECTING THE EDUCATIONAL PROCESS OF POLINGUISM

Аннотация

People need an organized means of communication in any social structure. This tool is usually called a language. Although the term language seems difficult to define precisely due to its social complexity, there is a general consensus among linguistic scholars that it is a system of symbols intended for communication purposes. This system includes a set of objects organized as a whole and placed in such a way that they act together to perform a certain function [1]. Language as a means of communication between people includes many features: it is governed by rules, it is a system, it performs functions such as providing information, expressing feelings and emotions, establishing relationships, exercising power, and marking identity [2]. As people use more than one language, terms like bilingualism, trilingualism, and multilingualism arise.

Key words: Language, polylingualism, educational process.

ФАКТОРЫ ВЛИЯЮЩИЕ НА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС ПОЛИНГВИЗМА

Аннотация

В статье представлен краткий аналитический обзор влияния полиязычия на образовательный процесс и его факторы, его последствия, преимущества в образовании и правильные пути его достижения. Полиязычие означает грамотное говорение на нескольких языках. В целом существуют формальные и неформальные практики полиязычия. Лингвистические результаты включают построение смешанных языков в языковой среде, разработку стратегий межкультурного общения и навыков межкультурного общения. С точки зрения вкуса, преимущества многоязычия включают создание и признание культурной осведомленности, повышение академической и образовательной ценности, повышение творческих способностей, социальную интеграцию и понимание местных языков.

Ключевые слова: Язык, полилингвизм, образовательный процесс.

POLINGVIZMNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARI

Аннотация

Maqolada polilingvizmning ta'lim jarayoniga ta'siri va uning omillari, uning oqibatlari, ta'limdagi foydalari va unga erishishning to'g'ri yo'llari haqida qisqacha tahliliy so'rov berilgan. Polilingvizm bir nechta tillarda malakali gapirishni anglatadi. Umuman olganda, Polilingvizmning rasmiy va norasmiy amaliyotlari mavjud. Lingvistik oqibatlarga lingvistik muhitda aralash tillarni yaratish, madaniyatlararo muloqot strategiyalari va madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini oshirish kiradi. Ta'nda polilingvizmning afzalliklariga madaniy ongini yaratish va qadrlash, akademik va ta'lim ahamiyatini oshirish, ijodkorlikni oshirish, jamiyatda moslashish va mahalliy tillarni qadrlash kiradi.

Kalit so'zlar: Til, polilingvizm, ta'lim jarayoni.

Kirish. Odamlar har qanday ijtimoiy tuzilishda uyushgan aloqa vositasiga muhtoj. Ushbu vosita odatda til deb ataladi. Ijtimoiy murakkabligi tufayli til atamasiga aniq ta'rif berish qiyin bo'lib tuyulsa-da, til ziyolilari orasida bu aloqa maqsadlari uchun mo'ljallangan ramzlar tizimi ekanligi haqida umumiy fikr mavjud. Ushbu tizim bir butunga tashkil etilgan va ma'lum bir funktsiyani amalga oshirish uchun birgalikda harakat qiladigan tarzda joylashtirilgan obyektlar to'plamini o'z ichiga oladi [1]. Til odamlar o'rtasidagi muloqot vositasi sifatida ko'plab xususiyatlarni o'z ichiga oladi: qoidalar bilan boshqariladi, tizim bo'lib, axborot berish, his-tuyg'u va his-tuyg'ularni ifodalash, o'zaro munosabatlarni o'rnatish, hokimiyatni qo'llash va o'ziga xoslik belgisi kabi vazifalarni bajaradi [2]. Odamlar bir nechta tillardan foydalanish sababli, ikki tillilik, uch tillilik va ko'p tillilik kabi atamalar paydo bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Ba'zi nazariyalar ijtimoiy kontekst va til rivojlanish vositasi ekanligini ko'rsatadi (Cockcroft, 2009). Shunday nazariyalardan biri Lev Vygotskiyning sotsial konstruktivistik nazariyasi bo'lib, u til va tafakkurning o'zaro ta'sirini hamda uning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sirini o'z ichiga oladi. Nazariya ijtimoiy

ta'tibsizliklarni va sinflardagi turli ijtimoiy va madaniy guruhlarni qamrab olgan ta'lim muhitida ishlab chiqilgan (Kozulin, 2003). Janubiy Afrikadagi sinflar o'xshash xususiyatlarga ega, chunki ko'p madaniyatli sinflar til va madaniyat ko'pincha bog'langan haqiqatdir (Webb, 1995). Shu sababli, Vygotskiyning ijtimoiy nazariy asoslari Janubiy Afrikadagi sinflarda, shuningdek, tillardan foydalanish va rivojlantirishni o'z ichiga olgan har qanday ta'lim maydonida qo'llaniladi.

Vygotskiyning nazariyasi bolalarni o'rganishda faol ishtirok etadilar. U o'rganishni ijtimoiy-madaniy nuqtai nazardan ko'rib chiqadi (Conkbayir va Paskal, 2014). Muayyan jamiyat tili kabi psixologik vositalar shaxs tomonidan o'ziga xos tarzda qabul qilinadi va xotira va idrok bilan bog'liq kognitiv jarayonlar uchun ishlatiladi (Kozulin, 2003). Til o'rganish boshqalar bilan o'zaro munosabatlarda, ya'ni shaxslar va atrof-muhit o'rtasidagi aloqada muhim rol o'ynaydi (Conkbayir va Paskal, 2014).

Muhokama va natijalar. Maqola quyidagi to'rtta asosiy maqsadga tayangan: ko'p tillilik amaliyotini qisqacha o'rganish, ko'p tillilik amaliyotining umumiy oqibatlarini muhokama qilish, ta'limda ko'p tillilik amaliyotining ba'zi

asosiy afzalliklarini yoritish va ta'limda ko'p tillilik amaliyotiga erishish yo'lini muhokama qilish.

Dunyodagi odamlar sonining ko'payishi bilan ikki tillilar soni hozirda ikki baravar ko'payishi mumkin. Ma'ruzachilar sonining ko'payishi, ehtimol, ko'plab mamlakatlar tomonidan, ayniqsa savdo va savdo, innovatsiyalar, shuningdek, texnologik taraqqiyot sohasida qabul qilingan mintaqaviylik va internatsionalizm tamoyillari bilan bog'liq. Ushbu tamoyillar ma'ruzachilarni muloqotni amalga oshirish uchun ishlaydigan tillarni yaxshi bilishlarini talab qiladi. Xitoy, ingliz, rus, ispan, hindu, portugal, bengal, nemis, yapon, arab, urdu, frantsuz, malay-bahasa, italyan, teluga va tamil tillarida, odatda, har birida taxminan 50 million kishi birinchi til sifatida so'zlashadi [3]. Ushbu tillar dunyoning ko'plab mamlakatlarida rasmiy bo'lib, rasmiy ko'p tillilik amaliyotiga hissa qo'shadi. Umuman olganda, so'nggi hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, dunyoda 7000 ga yaqin til mavjud. Mintaqaviylik amaliyoti tufayli ko'plab mamlakatlar va ittifoqlar o'z faoliyatlarini amalga oshirish uchun ona tillaridan tashqari umumiy tilga ega bo'lishni xohlashadi.

Maqolada ta'lim sohasida ko'p tillilikni qo'llashning nafaqat ta'lim muassasalaridagi rasmiy ta'limda, balki uyda norasmiy sharoitlarda ham foydalari muhokama qilinadi. Shu sababli, rasmiy yoki norasmiy ta'limda ko'p tillilikning ba'zi asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat: Ikkidan ortiq tilni bilish bizga shaxsiy va professional kontekstda ko'p odamlar bilan muloqot qilish imkonini beradi. Buning sababi shundaki, odamlar ega bo'lgan juda ko'p bilimlarga ko'pincha faqat ma'lum tillar orqali samarali kirish mumkin [2], xoh rasmiy yoki norasmiy. Biroq, ko'pgina davlatlarda odatda ona tillari sifatida qaraladigan norasmiy tillar biz ega bo'lgan bilimlarni samarali va aniq taqdim etish uchun qulay vosita bo'lib qoladi. Bu mahalliy tilni bilish tegishli tillarda so'zlashuvchilarning tanasida mavjud bo'lgan ulkan donolik, tajriba, bilim va ko'nikmalar omboriga kirish imkonini beradigan isbotlangan holatlarda aniq namoyon bo'ladi [2]. Shuning uchun ko'p tillilik katta manbadir [2]. Qachonki kishi davlat tilini bilsa va mahalliy tillarda mukammal so'zlashsa, bilimlarni sintez qilish va shunga mos ravishda ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun bilimlarni sintez qilish va aniq ifodalashning afzalliklarini anglash uchun ta'limga mahalliy tillarni kiritish kerak.

Boshqa olimlar, masalan, faqat bitta tilni biladigan har qanday odam muloqotda umuman cheklangan hayvonlardan farq qilmaydi, deb ta'kidlaydilar. Shunday qilib, bir tilli odamni muloqot to'sig'i bo'lgan cheklangan hayvon deb ta'riflash mumkin [6]. Bu shuni anglatadiki, hayvonlar haqiqiy dunyoda faqat bitta narsa bilan bog'liq bo'lgan xabarlariga ega, masalan, dushmanga qarshi turish, juftlashish uchun o'ziga xos hidlarni jalb qilish va chet elda o'rdak chaqirish [6]. Bir tilda gapirishni til rivojlanishining golofrastik bosqichiga tenglashtirish mumkin [1]. Bu shuni anglatadiki, bir tilli odamni hali ham tilni o'zlashtirish va rivojlantirish jarayonida bo'lgan va keng muloqot qilish uchun boshqa tillarni o'rganishi kerak bo'lgan shaxs sifatida ko'rish mumkin. Shunday qilib, ko'p tillilik tezroq va osonroq muloqot qilish uchun eshiklarni ochadi. "Axborotning izchilligi" tushunchasini olib tashlash uchun ta'limda ko'p tillilikni kuchaytirish, albatta, muloqotdagi cheklovlardan qochish imkonini beradi va bu unga muloqotning boshqa bosqichiga o'tish imkonini beradi.

Ko'p tillilik amaliyoti intellektual moslashuvchanlikni va ijodkorlikni oshiradi. Yaqinda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, erta yoshdan boshlab bir nechta tillarda gaplashadigan qo'llab-quvvatlovchi muhitda o'sgan bolalar bir tilda gapiradiganlarga qaraganda ko'proq idrok etish va intellektual jihatdan moslashuvchan bo'ladilar [7]. Bir tomonidan ko'rsatilgan "birinchi tilni ikki karra o'zlashtirish"

modelidan foydalangan holda, ota-onalari doimiy ravishda turli tillarda gapiradigan bolalar ikki ona tillarida teng darajada ravon va qulay bo'lib o'sadi va hatto uchinchi va to'rtinchi tillarni ham o'rganishi mumkin. Ushbu tadqiqot uy sharoitlariga qaratilgan bo'lsa-da, bu ko'p tillarni biladigan o'quvchilar intellektual jihatdan moslashuvchan bo'ladigan sinf kontekstlarida ham amaliydir. Intellektual moslashuvchanlikni oshirish turli xil hayotiy topilmalar bilan tasdiqlangan. Pretoriyalik nutq va til terapevti doktor Elsi Naude ko'p tillilik amaliyotini keng o'rganar ekan, ota-onalar bolalarni qo'shimcha tillarni o'rganishga undasalar, ular ham bolaga intellektual sarmoya kiritishlarini tushundi [7]. Shunday qilib, bir nechta tilni yaxshi biladigan ko'plab bolalar yuqori lateral fikrlash qobiliyatiga ega, ko'proq ijtimoiy moslashuvga ega, ularning fikrlash va fikrlash qobiliyatlari yaxshiroq va kognitiv qobiliyatlari ham yuqoridir [7]. Eng kamida ikki tilda gapiradigan bolalar bir tilda gapiradiganlarga qaraganda maktabda yaxshiroq o'qishlari [7] bilan izohlanadi. London ta'lim instituti (ULIE) tomonidan ikki tillilik bo'yicha olib borilgan so'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, siz ikki tilda gaplashingiz, maktabda yaxshiroq o'qiydiz [7]. Ko'p tillilik turli madaniyatlar va tajribalarni tushunishni ta'minlaydi, shuning uchun ko'p tillilik ko'p madaniyatli xususiyatga ega [10]. Tillar vakuumda ishlamaganligi sababli, madaniyat va jamiyat uning mavjudligida asosiy rol o'ynaydi. Chunki til sotsiologiyistik, etnologiyistik va psixologiyistik masaladir [1]. Shunday qilib, til jamiyat, madaniyat va aqlga tayanadi. Shu munosabat bilan, ko'p tillilik tegishli tillarda mavjud bo'lgan jamiyatlarining madaniy qadriyatlarini avtomatik tushunish va qadrlashni kuchaytiradi. Turli tillarni o'rganish natijasida olingan tajribalar odamlarning, jamiyatning qarashlarini, ko'nikmalarini, e'tiqodlarini avtomatik ravishda o'zgartirishga va dunyoqarashning kengayishiga olib keladi. Bu atributlarning barchasi rasmiy ravishda sinfda va norasmiy ravishda sinfdan tashqari kundalik muloqotda o'rgatiladi. Misol uchun, biz Kisvahlili tilini Keniya kontekstida o'rganganimizda, biz uning kelib chiqishi, suahili xalqi, shuningdek, ularning madaniy va an'anaviy qadriyatlarini o'rganishga majbur bo'lamiz, bu esa o'quvchilarning tasavvurlarini o'zgartiradi.

Ko'p tillilik bugungi mehnat bozorida raqobatbardosh ustunlikni ta'minlaydi. Akademik va kasbiy ma'lumotlardan tashqari, ish beruvchilar qo'shimcha afzallik sifatida keraki tillarda ravonlikni izlaydilar. Shu sababli, ko'p tilli bo'lish bu ming yillikda har qanday ish izlovchi uchun ortiqcha. Buni faqat ko'p tillilik o'quv dasturiga kiritilgan taqdiridagina amalga oshirish mumkin. Amerika ta'lim kengashi (ACE) tomonidan o'tkazilgan aniq so'rov shuni ko'rsatdiki, jahon iqtisodiyotida muvaffaqiyatli raqobatlash uchun boshqa tilda gapirish muhim ahamiyatga ega [10]. Shu munosabat bilan ko'plab til ko'nikmalarini rivojlantirish iqtisodiy o'zgarishlarga yordam beradi. Masalan, Isroil va Gollandiyada mos ravishda ibroniy yoki golland tilini bilish uning ta'lim olish va ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini cheklaydi [10]. Kanadada ikki tillilar uchun ish haqi mukofoti mavjud. 1981 yilda faqat bitta tilda gaplasha oladigan Kvebek aholisi ingliz-frantsuz ikki tilli bo'lganlarga qaraganda 1,6% kam daromadga ega edi [10].

Ko'p tillilik ham inson kapitalining ko'rinishidir [9]. Buning sababi shundaki, ko'p tillilik ko'nikmalari xarajat evaziga yaratiladi (inson, o'qituvchilar va ota-onalarning til ko'nikmalarini oshirish, materiallar va boshqa o'quv qurollarini sotib olish vaqti). Til ko'nikmalari, ayniqsa, shaxsning iste'molchi va ishlab chiqaruvchi roliga samarali bo'ladi. Til ko'nikmalariga ega bo'lmaganlar uchun bu juda qimmatga tushadi. Shuning uchun mustahkam va har tomonlama inson kapitaliga ega bo'lish uchun ta'lim tizimida ko'plab tillarni o'zlashtirish foydalidir. Ko'p tillilik milliy

birlikka yordam beradi, ayniqsa odamlar o'zlarining mahalliy tillari bilan bir qatorda xorijiy tillarni ham o'rganishlari maqsadga muvofiq xisoblanadi. Bu jarayonda manfaatdor odamlar avtomatik ravishda hamjihatlik qiymatini qabul qiladilar. [7] Ma'lumotlarga ko'ra, bu hamjihatlik haqiqati misrlik o'qituvchi doktor Ayman Al Asarning so'zlariga ishora qilib, ta'kidlaganidek, agar jiddiy qabul qilinsa, Kisvahiliy Keniyadagi 42 qabilani birlashtirishda, ayniqsa bahsli vaziyatdan keyin katta rol o'ynashi mumkinligini ta'kidlagan. 2007/2008 yillardagi saylovdan keyingi zo'ravonliklarga olib kelgan umumiy saylovlar. Siyosatchilar va boshqa rahbarlar milliy birlik va taraqqiyotda hayotiy yo'l xaritasi sifatida ishlash uchun milliy tilni targ'ib qilish orqali ko'p tillilikdan foydalanishlari mumkin.

Shu bilan bir qatorda bilamiz-ki ko'p tillilik aqlni charxlaydi. Turli tadqiqotlarga ko'ra, ko'proq tilda gapiradigan odamlar narsalarni yaxshiroq aniqlashlari va har qanday chalg'ituvchi ma'lumotlarni aniqlashlari mumkin. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, yangi tilni o'rganish miyadagi neyronlarni faollashuviga va uning faoliyatini yanada

yaxshilashga yordam beradi. Xuddi shu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, keyingi tilni o'zlashtirish yoshi qanchalik katta bo'lsa, miya tuzilishining o'sishiga ta'siri shunchalik katta bo'ladi. Tadqiqotlarga ko'ra, bir nechta tillarni tez-tez ishlatadigan ko'p tilli odamlar diqqat, qisqa muddatli xotira va inhibitsion bilan bog'liq hududlarda ko'proq faollikuqori bo'ladi.

Xulosa. Shunday qilib, ko'p tillilikning ko'p foydasi borligini ko'rdik. Albatta, biz ularning barchasini muhokama qila olmadik, chunki bu juda ko'p vaqt va izlanishlarni o'z ichiga oladi. Ammo biz to'g'ridan-to'g'ri ta'lim jarayoniga ta'sir qiluvchi eng muhim afzalliklarni ta'kidladik. Shuningdek, biz ko'p tillilikning ta'lim jarayoniga qanday ta'sirini ko'rsatishga harakat qildik. Biz ko'p tillilikning ta'siridan xabardor bo'lishimiz va o'quv jarayonida bolalar o'z ona tillaridan foydalanish foyda keltirishini hisobga olishimiz kerak. Shunday ekan, ta'limda umuman insonning turli faoliyatlarida ko'p tillilikni rivojlantirishga harakat qilishimiz kerak.

ADABIYOTLAR

1. Agirdag, O. va Vanlaar, G. (2018). Ikki tillilik xalqaro jurnali, 1(22), 123-137.
2. Baker, C. (2001). Foundations of bilingual education and bilingualism (3rd ed.). Clevedon: Multilingual Matters. [2] Baker, C. (2006). Foundations of bilingual education and bilingualism. Clevedon: Multilingual Matter.
3. Cummins, J. (1991). Interdependence of first- and second-language proficiency in bilingual children. In E. Bialystok (Ed.) Language processing in bilingual children. Cambridge: Cambridge University Press, 70-89.
4. Callahan, Rebecca M. 2005. "Tracking and High School English Learners: Limiting Opportunity to Learn." American Educational Research Journal 42:305-328
5. Genessee, F. (Ed.). (1999). Program alternatives for linguistically diverse students. Santa Cruz, CA: Center for Research on Education, Diversity and Excellence. [19]
6. Haworth, P., Cullen, J., Simmons, H., Schimanski, L., McGarva, P., & Woodhead, E. (2004). The role of acquisition and learning in young children's bilingual development: A sociocultural interpretation. International Journal of Bilingual Education and Bilingualism, 9(3), 295-309.
7. Jimerson, S., Ferguson, P., Whipple, A., Anderson, G., & Dalton, M. (2002). Exploring the association between grade retention and drop out: A longitudinal study examining socio emotional, behavioral, and achievement characteristics of retained students. The California School Psychologist, 7, 51-62. [23]
8. Krashen, S., & Terrell, T. (1983). The natural approach: Language acquisition in the classroom. Hayward, CA: Alemany Press
9. Rumberger, R. (1995). Dropping out of middle school: A multilevel analysis of students and schools. American Educational Research Journal, 32(3), 583-625.
10. Tabatadze, S. (2015). Factors Influencing the Effectiveness of Bilingual Educational Programs: The Prospects of Pilot Programs in Georgia. Journal Bilingual Education, (Vol. 12).



UDK: 796.08(575.1)

Nodira USMANOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi
E-mail: usmanovanodira1491@gmail.com

O‘zDJTSU Futbol nazariyasi va uslubiyati kafedrasida dosenti A.Shermuxamedov taqrizi asosida

TURLI SPORT TAYYORGARLIGIGA EGA YOSH TENNISCHILARNING VESTIBULAR APPARAT BARQARORLIGI DARAJASINI VA UNI RIVOJLANTIRUVCHI MASHQLAR SAMARASINI TADQIQ ETISH

Аннотация

Maqolada tennis sport turi bilan shug‘ullanib kelayotgan 9-10 hamda 13-14 yoshli sportchilarning vestibular apparat barqarorligi darajalarini tadqiq etish natijalari yoritilgan. Vestibular apparat barqarorligini rivojlantiruvchi mashqlardan foydalanib, shug‘ullanuvchilarni vestibular ta’sirga nisbatan muvozanat saqlash imkoniyatlari test sinovlari yordamida aniqlangan. 9-10 va 13-14 yoshli tennischilarni vestibular apparat ta’sirga nisbatan qayt etilgan natijalar o‘zaro taqqoslab tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Tennis, yosh tennischi, vestibular apparat barqarorligi, vestibular analizatorlar, mashq, sinov, muvozanat, harakat.

ИССЛЕДОВАНИЕ УРОВНЯ УСТОЙЧИВОСТИ ВЕСТИБУЛЯРНОГО АППАРАТА У ЮНЫХ ТЕННИСИСТОВ И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ УПРАЖНЕНИЙ

Аннотация

В статье описаны результаты исследования уровня устойчивости вестибулярного аппарата спортсменов 9-10 и 13-14 лет, занимающихся теннисом. Используя упражнения, развивающие устойчивость вестибулярного аппарата, с помощью тестов определяли способность участников сохранять равновесие в отношении вестибулярного эффекта. Результаты теннисистов 9-10 и 13-14 лет сравнивались и анализировались с точки зрения влияния на вестибулярный аппарат.

Ключевые слова: Теннис, юный теннисист, устойчивость вестибулярного аппарата, вестибулярные анализаторы, упражнение, тест, равновесие, движение.

STUDY OF THE LEVEL OF STABILITY OF THE VESTIBULAR APPARATUS IN YOUNG TENNIS PLAYERS AND THE EFFECTIVENESS OF USING SPECIAL EXERCISES

Annotation

The article describes the results of a study of the level of stability of the vestibular apparatus of athletes aged 9-10 and 13-14 years old who play tennis. Using exercises that develop vestibular stability, tests were used to determine the participants' ability to maintain balance in relation to the vestibular effect. The results of tennis players aged 9-10 and 13-14 years old were compared and analyzed from the point of view of the effect on the vestibular apparatus.

Key words: Tennis, young tennis player, stability of the vestibular apparatus, vestibular analyzers, exercise, test, balance, movement.

Kirish. Zamonaviy tennis sportchilar tayyorgarligiga nisbatan yuqori talablarni qo‘ymiqda. Bugungi kun tennis – bu o‘ta tezkor, shiddatli, yuqori sport formasini talab etuvchi professional faoliyat turidir.

Yuqori texnik-taktik tayyorgarlikka ega bo‘lish musobaqa faoliyati samarasini ko‘pdan belgilab beradi. Shu bilan birga sportchining jismoniy tayyorgarligi va bunda uning maxsus tayyorgarligi bugungi kunda katta ahamiyatga ega. Tennis sportida “san‘atga” erishish uchun birinchi navbatda tennischi yetarli darajada rivojlangan maxsus jismoniy sifatlarga ega bo‘lishi kerak. Mazkur sifatlarni va tennis malakalarini ijrosi maqsadga muvofiq o‘yin fikrlari asosida boshqarilishi musobaqa taqdirini belgilashini mutaxassislar ta’kidlashadi [1].

Tennis sportida sportchining harakatlari ko‘p hollarda uning maxsus tayyorgarliklarini talab etadigan sharoitlarda kechadi. Musobaqa sharoitida bir qator texnik-taktik harakatlarni ijrosida sportchining vestibular apparati barqarorligi talab etiladi. Harakatlarni bajarish vaqtida shu barqarorlikni kerak bo‘lishi kuzatiladi. Bunday sharoitlarda harakatlarni samarasi uning tayyorgarligi darajasiga ko‘pdan bog‘liq bo‘ladi. Maxsus ilmiy manbalarni tahlil etish shuni ko‘rsatmoqdaki, yosh sportchilarning tayyorgarligida vestibul-

lar apparat barqarorligini rivojlantirish albatta o‘z o‘rniga ega bo‘lishi darkor. O‘quv-mashg‘ulot jarayonlarida bunga e’tibor qaratgan tarzda, maxsus tayyorgarlikni ta’minlash lozim. Mashg‘ulotlarda maxsus mashqlarni rejali va tizimli tarzda qo‘llashni rejalashtirish muhim ahamiyatga ega [5,6,8].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Vestibular analizator tana muvozanatini saqlash vazifasini bajaradi. Demak, agar harakatni ijro etishda muvozanat yo‘qolsa, shu harakat koordinatsiyasi ham, tezligi ham, kuchi ham, aniqligi ham unumli bo‘lmaydi. Binobarin, endogen va ekzogen ta’sirlar ostida ijro etiladigan harakatlar koordinatsiyasi, tezligi va aniqligini samarali shakllantirish uchun muvozanat saqlash funksiyasini “boshqaruvchisi” - vestibular analizatorning funksional imkoniyatini kuchaytiruvchi modellashtirilgan aylanma tezlanish mashqlaridan foydalanish zarur [2,3]. O‘quv-mashg‘ulot hamda musobaqa davomida tana harakatlarini nazorat qilish hamda uni tezlanishlar bilan bajarish uchun muntazam koordinatsion mashlardan hamda harakat aniqligi belgilovchi sinovlardan foydalanish zarurlini ta’kidlashadi.

Tadqiqot maqsadi. Turli tayyorgarlik darajasiga ega yosh tennischilarda vestibular apparat barqarorligini

rivojlanganlik darajasini hamda maxsus mashqlardan foydalanish samarasini o'rganish.

Tadqiqot vazifalari.

9-10 yoshli tennischilarda vestibulyar apparat barqarorligini rivojlanganlik darajasini aniqlash;

13-14 yoshli tennischilarda vestibulyar apparat barqarorligini rivojlanganlik darajasini aniqlash;

9-10 yoshli tennischilarning vestibulyar apparat barqarorligini rivojlanganlik darajasini aks ettiruvchi natijalarni 13-14 yoshli tennischilarning natijalari bilan taqqosiy tahlilni amalga oshirish va o'zaro tafovutlarni aniqlash.

Yosh tennischilarda vestibulyar apparat barqarorligini rivojlantiruvchi maxsus mashqlardan foydalanish samarasini aniqlash;

Tadqiqot ishining usullari: mavzuga doir maxsus ilmiy-uslubiy manbalar tahlili, o'quv-mashg'ulot va musobaqa faoliyati jarayonini pedagogik kuzatish, qayd etish va tahlil qilish usullari, natijalarni taqqoslash.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Vestibulyar apparat - odam ichki qulog'ining bir qismi bo'lib, bosh bilan tananing fazodagi vaziyati o'zgarishini va gavdaning qay tomonga harakatlanayotganligini sezadigan a'zo.

Kuchli vestibulyar ta'sirov takrorlanaverganda unga nisbatan bo'ladigan reaksiya kuchsizlanadi. Shuning uchun dengizchilar, uchuvchilar yoki kosmonavlarni professional tayyorgarligini ta'minlashda vestibulyar apparat ishini chiniqtirishga katta e'tibor qaratiladi va tegishli mashqlardan jarayonda foydalaniladi [4].

Tennischilarda vestibulyar apparat barqarorligi yuqori darajada bo'lishi mashg'ulotlar samaradorligini oshiradi hamda musobaqalarda aniqlikni ta'minlaydi [1]. Tennischilarning vestibulyar apparat barqarorligini rivojlantirish bo'yicha A.I.Yarotskiy va V.P.Bezverxovlar tegishli ilmiy izlanishlarni olib borishgan. Ular tajriba yo'li bilan vestibulyar apparatni funksional darajasini yuqori bo'lishi kerakligini va uni yuqori ahamiyatini tadqiqotlarda aniqlaydilar.

Belgilangan masalalarni yechish quyidagilardan iborat bo'lgan tadqiqot asosida amalga oshirildi:

1. Vestibulyar analizatorni aylanma tevlanishga nisbatan funksional imkoniyatini o'rganish, tadqiqotni bajarish tartibi;

1 - jadval

9-10 yoshli tennischilarni vestibulyar ta'sirga nisbatan muvozanat saqlash imkonoyat ko'rsatkichlari

№	Vestibulyar ta'sirga nisbatan muvozanat saqlash imkonoyat ko'rsatkichlari
1 - Tekshiriluvchi	15,5 soniya
2 - Tekshiriluvchi	9,4 soniya
3 - Tekshiriluvchi	11,2 soniya
4 - Tekshiriluvchi	8,5 soniya
5 - Tekshiriluvchi	14,0 soniya
6 - Tekshiriluvchi	17,0 soniya
7 - Tekshiriluvchi	13,5 soniya
8 - Tekshiriluvchi	12,4 soniya
9 - Tekshiriluvchi	16,2 soniya
10 - Tekshiriluvchi	15,0 soniya
O'rtacha natija	13,3

3 yil mobaynida tennis bilan shug'ullangan 13-14 yoshli bolalarda esa, vestibulyar turg'unlik 9-10 yoshli bolalarning natijalariga nisbatan deyarli yuqori bo'lmaganligini ko'rsatdi va vestibulyar ta'sir natijasida muvozanat saqlash vaqti o'rtacha 17,1 soniyani tashkil etganligi aniqlandi (2 jadval).

2 - jadval

13-14 yoshli tennischilarni vestibulyar ta'sirga nisbatan muvozanat saqlash imkonoyat ko'rsatkichlari

№	Vestibulyar ta'sirga nisbatan muvozanat saqlash imkonoyat ko'rsatkichlari
1 - Tekshiriluvchi	14,5 soniya
2 - Tekshiriluvchi	20,5 soniya
3 - Tekshiriluvchi	19,0 soniya
4 - Tekshiriluvchi	13,5 soniya
5 - Tekshiriluvchi	14,0 soniya
6 - Tekshiriluvchi	18,0 soniya

Dastlabki holat: oyoqlar bir-biriga jipslashgan bo'lib, ko'zlar yumiladi; tekshiruvchining ko'rsatmasiga binoan tekshiriluvchi boshini aylanma harakat bo'ylab maksimal amplituda va imkoni boricha muvozanatni yo'qotguncha tez aylantiradi. Natija sekundomer bilan o'lchanadi.

2. Tekshiruvchilar dastavval 5 metr uzoqlikdan turib tennis dastasi bilan to'pni 50x50 santimetrli katakchani 10 marta birin-ketin aniq zarba beradilar, so'ng har bir tekshiriluvchi 30 soniya davomida birinchi tajribadagi holatda turib, boshini chap tomonga aylanma harakat bo'ylab tez aylantiradi. Vazifa tugagan zahoti yana dastlabki aniq harakat vazifasi ijro etiladi. Vestibulyar ta'sirdan oldin va keyin ko'rsatilgan harakat aniqligi baholanadi.

Tadqiqotning mazkur qismi 3 oy davomida o'tkaziladi. Tadqiqot jarayonida tekshiriluvchi tennischilar har kuni o'tkaziladigan o'quv-mashg'ulot jarayonida tevlanishga oid quyidagi mashqlar majmuasini muntazam bajaradilar:

1. O'z "o'qi" atrofida 900 engashgan holda o'ng va chap tomonga tez aylanish - 2 daqiqa.

2. Birinchi tajribani o'ng va chap tomonga ijro etish.

3. Diametri 3 metrga teng bo'lgan doira chiziqlari bo'ylab oldinga va orqaga tez yugurish (muvozanatni yo'qotguncha yoki chiziqdan chiqib ketguncha).

4. 30 metr masofaga to'g'ri yo'nalishda o'ng va chap tomonga o'z "o'qi" atrofida aylanib yugurish - 5 martadan.

5. Oldinga va orqaga o'mbaloq oshish - 10 martadan;

6. Sakrab 3600 ga o'ng va chap tomonga havoda aylanish - 10 martadan.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari harakat aniqligini ta'minlashda, uni mukammalligini takomillashtirishda va koordinatsion barqarorligini oshirishda alohida ahamiyatga ega ekanligini isbotlab berdi. Tekshiriluvchi bolalarning aksariyat qismini yuqori vestibulyar turg'unlikka ega emasligini o'rganishlar ko'rsatib berdi (1-jadval).

Vestibulyar sinovning ta'siri ostida muvozanat saqlash vaqti o'rtacha 13,3 soniyaga teng bo'lgan bo'lsa, eng kami - 8,5 soniyani tashkil etdi. Shuni ta'kidlash lozimki, tekshiriluvchi yosh tennischilar taxminan bir xil tayyorgarlikka ega bo'lishsa ham, ko'rsatgan natijalarining farqi katta bo'lib, natija 8,5 soniyani tashkil etdi (1-jadval).

7 – Tekshiriluvchi	14,8 soniya
8 – Tekshiriluvchi	22,5 soniya
9 – Tekshiriluvchi	18,0 soniya
10 – Tekshiriluvchi	17,2 soniya
O'rtacha natija	17,1

Aniqlangan bu natijalar shundan dalolat beradiki, 3 yildan buyon muntazam tarzda tayyorgarlik jarayoniga jalb etilgan tennischilarning o'quv mashg'ulot jarayonida, vestibulyar analizatorlar ish faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan tadbirlar ya'ni o'quv-mashg'ulotlar yetarlicha samaradorlikdagi darajada tashkil etilmagan. Bu borada natijalar maxsus mashqlardan tizimli tarzda foydalanmaganlikdan dalolat beradi.

Yuqorida keltirilgan sinov natijalariga asoslangan holda shuni ta'kidlash kerakki, tennis bilan yangi shug'ullanayotgan 9-10 yoshli bolalarda ham nisbatan malakali 13-14 yoshli tennischilarda ham vestibulyar ta'siri ostida muvozanat saqlash imkoniyati yuqori saviyada bo'lmaganligi aniqlandi. Demak, aksariyat tekshiriluvchi

tennischilarning vestibulyar analizatorining funksional faoliyati yaxshi takomillashmagan. Binobarin, bu tennis malakalarini ijro etishda harakat aniqligini yetarli darajada ta'minlamaydi. Zikr etilgan xulosani isbotlash maqsadida biz ana shu ikki toifa guruhlaridagi tekshiriluvchi-tennischilarda mazmuni yuqorida zikr etilgan ikkinchi tadqiqotni o'tkazdik.

Tennis sporti bilan 1 yil davomida shug'ullanib kelayotgan 9-10 yoshli hamda 3 yil davomida shug'ullanib kelayotgan 13-14 yoshli bolalarni 30 soniyali vestibulyar ta'sirdan oldingi va keying natijalari 3-4 jadvallarda keltirilgan. Bunda sinaluvchi devordagi katakcha – nishonga tennis dastasi bilan to'pni 10 ta imkoniyatda maksimal tarzda aniq zarba berishi talab etilgan.

3-jadval

13-14 yoshli tennischilarning vestibulyar ta'sirga nisbatan muvozanat saqlash imkoniyati ko'rsatkichlari

№	Vestibulyar ta'sirdan oldin	Vestibulyar ta'sirdan keyin
1 – Tekshiriluvchi	6 marta	3 marta
2 – Tekshiriluvchi	8 marta	4 marta
3 – Tekshiriluvchi	6 marta	5 marta
4 – Tekshiriluvchi	6 marta	3 marta
5 – Tekshiriluvchi	7 marta	2 marta
6 – Tekshiriluvchi	5 marta	4 marta
7 – Tekshiriluvchi	5 marta	3 marta
8 – Tekshiriluvchi	8 marta	4 marta
9 – Tekshiriluvchi	3 marta	2 marta
10 – Tekshiriluvchi	7 marta	3 marta

4-jadval

9-10 yoshli tennischilarning vestibulyar ta'sirga nisbatan muvozanat saqlash imkoniyati ko'rsatkichlari

№	Vestibulyar ta'sirdan oldin	Vestibulyar ta'sirdan keyin
1 – Tekshiriluvchi	8 marta	7 marta
2 – Tekshiriluvchi	9 marta	7 marta
3 – Tekshiriluvchi	7 marta	4 marta
4 – Tekshiriluvchi	6 marta	5 marta
5 – Tekshiriluvchi	6 marta	4 marta
6 – Tekshiriluvchi	5 marta	3 marta
7 – Tekshiriluvchi	7 marta	5 marta
8 – Tekshiriluvchi	8 marta	6 marta
9 – Tekshiriluvchi	9 marta	7 marta
10 – Tekshiriluvchi	8 marta	6 marta

4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, dastlab, vestibulyar apparat barqarorligiga ta'sirdan oldin harakatlar aniqligi ko'pi bilan 9 martani tashkil etgan bo'lsa, eng kam aniq harakatlari hajmi 5 martaga teng bo'lgan. Vestibulyar apparat barqarorligiga ta'sirdan keyin esa, eng yuqori natija 7 marta aniq zarbani va eng kam natija 3 marta aniq zarbani tashkil etgan.

Diqqatga sazovor joyi shundaki, tekshiriluvchi 13-14 yoshli tennischilarning vestibulyar apparat barqarorligini o'rganish bo'yicha sinovlardagi ko'rsatgan harakat aniqligi ko'rsatkichlari bilan 9-10 yoshli tennischilarning ko'rsatgan natijalari o'rtasida sezilarli darajada farq kuzatildi. Agar vestibulyar ta'sirga nisbatan muvozanat saqlash imkoniyat natijalari taqqoslangansa, 4-jadval bo'yicha mazkur tekshiriluvchilarning ko'rsatkichlari eng yuqori darajada namoyon bo'lganligi kuzatiladi.

Xulosa va takliflar. Mavzuga tegishli maxsus manbalarni taxlil etish hamda olib borilgan shaxsiy tadqiq etish ishlari natijalariga asoslanib ta'kidlash joizki, yosh tennischilarning tayyorgarlik tizimida sportchilarni vestibulyar apparati barqarorligini ta'minlash masalalari bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Tayyorgarlikni bu ko'rinishini ta'minlash zahirida, musobaqa faoliyati davomida bir qator maxsus harakatlarni sportchi tomonidan samarali va ishonchli amalga

oshib borishga imkon tug'iladi. Harakatlarning samaradorlik ko'rsatkichlari yuqori bo'lishi ta'minlanadi.

O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, yurtimizda yosh tennischilarni tayyorlash tizimida tayyorgarlikning bu tashkil etuvchiga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Vaholanki, kichik yoshdagi tennischilarda bunga alohida e'tibor qaratilmagan. Vaholanki, kichik yoshdagi tennischilarda bunga alohida e'tibor qaratilgan holda tayyorgarlikni ta'minlash kerakligi mutaxassislar tomonidan alohida ta'kidlanadi. O'quv-mashg'ulotlarda vestibulyar apparat barqarorligini rivojlantiruvchi mashqlardan tizimli va maqsadli yo'naltirilgan holda foydalanilmayapti. Bu boradagi tayyorgarliklar faqat qisman va tizimsiz shaklda qo'llinayotganligi o'rganishlardan ma'lum bo'lmoqda.

13-14 yoshli tennischilarni tayyorgarligini o'rganish natijasida, o'quv-mashg'ulotlar davomida texnik-taktik harakatlarni nuqsonsiz ijro etish uchun vestibulyar apparat barqarorligini rivojlantiruvchi mashqlardan muntazam foydalanilmaganligi aniqlandi. Natijada musobaqa faoliyati sharoitlarida murakkab koordinatsion texnik-taktik harakatlarni bajarishda harakat ko'rsatkichlarining aniqligi (samaradorligi) past ko'rsatkichlarni tashkil etmoqda.

Vestibulyar apparat barqarorligini rivojlantiruvchi tezlanishga doir berilgan dastlabki mashqlarda ham yosh

tennischilar natijalari bilan taqqoslaganda katta farq kuzatilmagan.

Harakat aniqligini tezlik bilan bajarishda vestibulyar apparat barqarorligini rivojlantiruvchi maxsus mashqlardan foydalanish talab etilishi kuzatildi ya'ni texnik-taktik harakatlarni ijro etishda koordinatsion tayyorgarlik yetarli darajada shakllanmaganligi sababli, harakatlar aniqligida xatoliklar ko'p kuzatilganligini alohida ta'kidlash kerak.

Tennis sport turida murakkab koordinatsion harakatlar ko'pligi hamda harakat aniqligi muhimligi sabab, o'quv-

mashg'ulotlar yuklamasiga vestibulyar apparat barqarorligini rivojlantiruvchi mashlarni kiritish maqsadga muvofiqdir.

Musobaqa davomida hamda turli o'yin vaziyatlarida harakat aniqligini yuqori bo'lishini ta'minlash maqsadida, o'z navbatida tennischilarning tayyorgarlik jarayonlarini vestibulyar apparat barqarorligini rivojlantiruvchi mashqlarni kiritgan holda tashkil etib, ularda murakkab koordinatsion harakatlar aniqligi mukammal tarzda rivojlanishiga xizmat qilishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Безверхов В.П. Теннис: “Методика совершенствования юных квалифицированных теннисистов 12-16 лет”. Учебное пособие.- Т.: LiderPress, 2008.
2. Po'latov Sh.A. Yosh tennischilarda zarba berish aniqligini maxsus va noan'naviy mashqlar yordamida shakllantirish samaradorligi. // Fan sportga, 2005.
3. Абидов С.А. Теннис ёш танламайди. //”Шарк;”, 2001.
4. Белиц-Гейман С.П. Теннис: школа чемпионов, игры и подготовка. - М.: АСТ-ПРЕСС, 2001.
5. Пулатов Ш.А. Эффективность совершенствования точности ударов у юных теннисистов с использованием специализированных и неспециализированных упражнений. Автореф.. дисс.... канд. пед.наук. Т.: 2009.
6. Шаповалова О.А. Теннис для начинающих: Правила игры. Школа мяча и ракетки. Спортивные тренировки. - М.: ВЕЧЕ, 2002.
7. X.E.To'uchiyev, N.O.Usmanova “Ta'lim metodlari hamda rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarining o'quv mashg'ulotlardagi o'rni” // Сборник международной научно-практической конференции «Образование, воспитание и применение инновационных технологий в области физического воспитания и спорта: проблемы и пути решения» Ташкент 2023 йил.



UDK:164.4

Dilbar FAYZIXODJAEVA,
O‘zbekiston milliy universiteti dotsenti, f.f.d
E-mail: fayzdilbarhon@mail.ru

F.f.d., professor B.O.Turaev taqrizi asosida

LOGICAL SCHEMES FOR CONSTRUCTING ARGUMENTATION: TOPOS

Annotation

The argumentation schemes found in modern theories date back to ancient traditions. Aristotle’s doctrine of topos is a guide to the use of induction and analogy in the argumentation of thought. This article highlights the specific aspects of reasoning typical of ordinary thinking by analyzing some argumentation schemes based on topos.

Key words: Aristotel, proof, argumentation, argument, argumentation schemes, thesis, topos.

ЛОГИЧЕСКИЕ СХЕМЫ ПОСТРОЕНИЯ АРГУМЕНТАЦИИ: ТОПОСЫ

Аннотация

Схемы аргументации, встречающиеся в современных теориях, восходят к древним традициям. Учение Аристотеля о топосе – это руководство по использованию индукции и аналогии в аргументации мысли. В этой статье освещаются специфические аспекты рассуждения, типичные для обычного мышления, путем анализа некоторых схем аргументации, основанных на топосах.

Ключевые слова: Аристотель, доказательство, аргументация, довод, схемы аргументации, тезис, топос.

ARGUMENTLASHNI QURISHNING MANTIQIY SXEMALARI: TOPOSALAR

Annotatsiya

Zamonaviy nazariyalarda uchraydigan argumentlash sxemalari qadimgi an‘analarga borib taqaladi. Aristotelning toposlar haqidagi ta‘limoti fikr mulohazalarni argumentlashda induksiya va analogiyani qo‘llash uchun yo‘llanma hisoblanadi. Ushbu maqolada toposlarga asoslangan argumentlash sxemalaridan ba‘zilarini tahlil qilish orqali odatiy tafakkurga xos bo‘lgan fikr yuritishning o‘ziga xos jihatlari yoritildi.

Kalit so‘zlar: Aristotel, isbotlash, argumentlash, argument, argumentlash sxemalari, тезис, topos.

Kirish. Argumentlovchi diskursda nuqtai nazar va argumentlarning o‘zaro bog‘lanishi, ya‘ni asoslash shakllarini aniqlash uchun “Muloqot jarayonida mantiq qonun-qoidalariga amal qilinadimi?”-degan savolga javob topish muhimdir. Mantiq qonun qoidalariga amal qilmaslik deganda, tushunchalarni ta‘riflash va bo‘lish qoidalarining buzilishi va shu tufayli muhokamalarning noto‘g‘ri qurilishi, mulohazalarning aniq ifoda qilinmasligi va eng muhimi xulosa chiqarish qoidalariga amal qilmaslik nazarda tutiladi. Argumentlash fikr yuritish usuliga ko‘ra demonstrativ va nodemonstrativ turlarga ajratiladi. Muhokama yuritish jarayonida fikr umumiylikdan ayrimlik va yakkaqlikka qarab harakatlansa, demonstrativ, aksi bo‘lsa nodemonstrativ hisoblanadi. Maqolada odatiy tafakkurlashda ko‘p uchraydigan toposlar vositasida nodemonstrativ argumentlash sxemalaridan ba‘zilarini tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Argumentlashni muvaffaqiyatli qurish uchun barcha e‘tirof etadigan, qabul qiladigan umumiy bilimlarni, g‘oyalarni – umumiy holatlarni bilish muhimdir. Aristotel umumiy holatlarni ifodalovchi g‘oyalarni topos deb atagan. Toposlar dastlab Aristotelning “Topika” asarida [5.], keyinchalik Sitseronning “Notiqlik san‘ati haqida” [9] asarida bayon qilingan. Bu masala islom mantiqshunoslaridan Abu Nasr Forobiyning “Dialektika” [4], Abu Ali Ibn Sinoning “Ritorika” [3.] asarlarida ham tahlil qilingan. Toposlar argumentlashni qurishning dastlabki mantiqiy sxemalari hisoblanadi. Xorij olimlaridan Igor Z.Zagar [1], Macagno F., Walton D., Reed Ch. [2] lar ham shu mavzuda tadqiqot olib borganlar. Igor Z.Zagar toposlarni mantiqning asosiy qonunlari bilan bog‘liq xolda tadqiq etgan. F.Macagno, D.Walton, Ch. Reed esa toposlarning tasnifi bilan bog‘liq masalalarni tadqiq etishgan.

V.P.Moskvin “topos” termining turli ma‘nolarda qo‘llanishini tahlil qilgan[8]. A.A. Volkov esa notiqlik san‘atida qo‘llaniladigan toposlarni o‘rgangan[6]. Maqolada Aristotel toposlaridan ba‘zilarini tahlil qilinib, ularning kundalik hayotda, odatiy tafakkurga xos argumentlash jarayonida qo‘llanishining o‘ziga xos tomonlari va ularni qo‘llash mexanizmlari yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotni amalga oshirishda mantiqning tushunchalarni ta‘riflash va bo‘lishga oid qoidalaridan foydalangan xolda argumentlashga oid toposlar ta‘riflandi va ularning sxemalari aniqlandi. Analiz va sintez usulini qo‘llash orqali xosil qilingan natijalar umumlashtirildi va formallashtirildi.

Tahlil va natijalar. Mantiqda deduktiv mulohaza yuritish asoslar va xulosa o‘rtasidagi mantiqiy ergashish munosabatining zaruriylikini taqazo qiladi. Agar xulosa asoslardan zaruriy kelib chiqsa, muhokama to‘g‘ri qurilgan bo‘ladi, agar kelib chiqmasa, muhokama noto‘g‘ri bo‘ladi. Barcha mantiqshunoslar tomonidan bu aksioma kabi qabul qilingan qoidadir[9]. Kuzatishlarimizga ko‘ra mantiqiy ergashish mezonini argumentlashda to‘liq qo‘llab bo‘lmaydi, chunki ko‘p hollarda argumentlardan tezisga o‘tish demonstrativ xarakterga ega emas. Argumentlar chin bo‘lmaligi (yolg‘on bo‘lishi ham mumkin), haqiqatga yaqin mulohazalardan iborat bo‘lishi, chinlik mezoniga javob bermasligi mumkin. Demonstrativ argumentlash oddiy-qat‘iy sillogizm ko‘rinishida bo‘lib, uning to‘g‘ri qurilganligi bilan birga asoslar va xulosani ifodalovchi mulohazalarning chin yoki yolg‘on bo‘lishi ham muhim ahamiyatga ega. Deduktiv nazariyaning asoschisi - Aristotel asoslar va xulosaning chinlik munosabatlari to‘rt xil bo‘lishini ko‘rsatadi: 1. Asoslar

chin bo'lsa, xulosaning chinligi zaruriy bo'ladi. 2. Xulosa asoslari yolg'on bo'lsa, xulosaning yolg'on bo'lishi zaruriy emas (xulosa chin yoki yolg'on bo'lishi mumkin). 3. Agar xulosa yolg'on bo'lsa, xulosa asoslaridan biri yoki ikkisi zaruriy ravishda yolg'on bo'ladi. 4. Agar xulosa chin bo'lsa, unda asoslarning chin bo'lishi zaruriy emas (asoslar chin yoki yolg'on bo'lishi mumkin) [7]. Yuqoridagi munosabatlarning tahliliga ko'ra, nuqtai nazar chin yoki haqiqatga yaqin mulohaza bo'lishi, uni asoslash uchun keltirilgan argumentlar chin, yolg'on yoki haqiqatga yaqin bo'lishi, shuningdek, yolg'on argumentlar bilan ham chin nuqtai nazar asoslanishi mumkin. Aynan shu holat argumentlashda fikrlar o'rtasidagi tafavutlarga sabab bo'ladi.

Argumentlash jarayonida fikr mulohazalarning to'liq tasdiqlanishi isbotlash, to'liq inkor qilinishi rad etish, qisman tasdiqlanishi asoslash, qisman rad etilishi tanqid deyiladi. Asoslash va tanqid argumentlash shakllaridir. Resipientning nuqtai nazarini ijobiy (pozitiv) o'zgartirishga qaratilgan argumentlashga asoslash deyiladi. Asoslashda fikr mulohazaning maqbulligi, qabul qilinishi kuzatiladi. Argumentlash resipientning nuqtai nazarini salbiy (negativ) o'zgartirishga qaratilgan bo'lsa, tanqid deyiladi. Tanqid nuqtai nazarga, yoki uni asoslash uchun keltirilgan argumentlarga yoki nuqtai nazar va argumentlarning bog'lanish shakliga qaratiladi. Biron bir nuqtai nazar tanqid qilinganda uning maqbul emasligi ko'rsatiladi. Asoslash va tanqid qilishni simvolik mantiq vositasida quyidagicha ifodalash mumkin:

$Aj1, Aj2, \dots, Aj n \Rightarrow T.$

$Ac1, Ac2, \dots, Acn \Rightarrow \neg T$

Aj - asoslovchi (justifying) argumentlar, Ac - tanqid qiluvchi (critical) argumentlar, T - tezis, \Rightarrow - mantiqiy ergashish belgisi (kelib chiqadi), \neg - inkor belgisi.

Muloqot jarayonida asoslashning isbotlash, rad etish, tasdiqlash, tushuntirish, talqin qilish, ta'riflash, oqlash va boshqa shunga o'xshash ko'rinishlari mavjud. Asoslash "nima va qanday qilib" degan savollarga javob berishdir. Isbotlash va asoslash tushunchalarining nisbati mantiq va argumentlash tushunchalarining nisbati kabidir. Asoslash isbotlash bilan yaqin bo'lgan fikr yuritish bo'lib, unda argumentlarning miqdori keng ko'lamlidir. Asoslashning turli xil shakllari argumentlashning mantiqiy tuzilishiga to'g'ri keladi va tezis, dalillar va ular o'rtasidagi aloqani o'z ichiga olgan umumiy mantiqiy tuzilish bilan tavsiflanadi. Isbotlashning asoslashdan farqli tomoni va o'ziga hosligi shundaki, mantiq qonunlariga muvofiq isbotlangan holatlar barcha xalqlar, mamlakatlar uchun doimo chindir. "Tirik mavjudotlar suvsiz xalok bo'ladi" degan mulohaza bunga misol bo'ladi.

Odatiy tafakkurlashga hos bo'lgan argumentlash o'ta shaxsiy, individual muhokama yuritishdir. Har bir shaxs o'z fikr mulohazalarini o'zining dunyoqarashi, tushunchalar olamidani kelib chiqib asoslaydi. Shunga ko'ra biror voqea hodisa turli shaxslar tomonidan turlicha asoslanishi mumkin. Bu holat argumentlash jarayonini deduktiv xulosa chiqarish bilan aynanlashtirib bo'lmayligini ko'rsatadi. Odatiy tafakkurlashga hos bo'lgan fikr yuritish ma'lum bir qoliqlar sxemalar ko'rinishida amalga oshadi. Bu sxemalarni birinchi bo'lib Protogor aniqlagan va "topos"ya'ni argumentlarni izlash metodi deb, atagan. Aristotel "Topika" asarida bu metodni yanada rivojlantirgan. V.P.Moskvinning ta'kidlashicha, mutafakkirning asarida bu termin bir necha ma'nolarda qo'llanilgan.[8.124.] Biz tadqiqotimiz maqsadidan kelib chiqqan holda "topos" terminini Duglas Uolton va uning hammualliflari kabi "argumentlash sxemalari" [4.] deb, talqin qilamiz. Fikrimizcha, Aristotelning "top"lari fikr yuritishning doimiy, hamma insonlarga hos bo'lgan odatiy shaklini ifodalaydi va shunga mos argumentlarni izlab topishga yordam beradi.

Aristotelning top (umumiy o'rinlar)ini ikkiga ajratish mumkin: umumiy (barcha tomonidan birdek qabul qilinadigan) va juz'iy (ayrim guruhlar tomonidan qabul qilinadigan) top. Toplarning bunday bo'linishi turli tipdagi auditoriya bilan muloqot qilishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, vaqtga qadriyat sifatida qarash umumiy top bo'lsa, alohida insonlar uchun qulay vaqt haqida gapirish juz'iy top bo'ladi [5] Agar muloqot qiluvchi tomonlar qandaydir umumiy qarashlarning mavjudligini anglab yetishmasa, ular erkin muloqot qilolmaydilar. Muloqot qiluvchilar faktlarni faqat o'z qarashlari (qadriyatlar tizimi)dan kelib chiqib talqin qilsalar, ularning bir-birlarini tushunishlari qiyinlashadi. Aytish joizki, top. Toplar "odamlarga yoqish uchun" (sub'ektiv asosda) tanlanmaydi. Toplar to'g'ri va chin holatlarni ifodalovchi argumentlash sxemalari bo'lishi kerak.

Umumiy top. Fikr va nutqni tashkillashtirish, qurish usuli bo'lishi ham mumkin. Top muhokama asosida yotuvchi fikr shaklini aniqlab beradi. Umumiy top. Asosida nutq va matnda masalaning mohiyatini ochib beruvchi holatlar tasvirlanadi. Masalan, notiq asosiy tushunchalarga ta'rif berishi, predmetni qismlarga bo'lib, butun va bo'lakni tasvirlashi yoki predmetning xususiyatlarini ko'rsatishi, mavjudligining sabablari ochib berish mumkin. Bularning barchasini umumiy top. Fikr deyish mumkin.

Top. Fikrni ijodiy rivojlantirishni, ichki yo'nalishlarini (orientirlarini) belgilab beradi.

Kommunikatorning o'zi mavzuga mos toplarni tanlab oladi. Kuzatishlarimiz asosida, top. Fikr argumentlash asosini tashkil etuvchi fikr shaklini ifodalaydi, degan xulosaga keldik. Muloqot jarayonida uchraydigan toplardan ba'zilarini argumentlashdagi fikr shakli sifatida tahlil qilamiz.

Argumentlashda butun va bo'lak top. [6.32b.] Har bir predmet bir butunlikni, yaxlitlikni tashkil etadi va uni bo'laklarga ajratish mumkin. Predmetni qismlarga bo'lib ko'rib chiqish ko'plab matnlarda uchraydi. Bu matnlar ilmiy, badiiy, didaktik va b. harakterda bo'lishi mumkin. Bir butun predmetning ta'rifi ko'pincha uning qismlarini tasvirlashni o'z ichiga oladi. Bu toposda qismlar predmetning muhim sifatlarini aks ettirib, fikrga e'tiborni kuchaytiradi. Masalan, mavzu oilaviy munosabatlardagi ahillikga oid bo'lsa, avvalo umuman oila va ahillik deganda nimani tushunish kerakligi aytiladi (ta'rif beriladi). So'ngra, ahillik oilaviy munosabatlarda qanday namoyon bo'lishi qismlarga ajratilib, tahlil qilinadi va umumlashtiriladi. Qismlar fikrlar rang-barangligi va jozibadorligini ta'minlashga imkoniyat yaratadi. Bunda butunni bilish uchun uni qismlarga ajratib o'rganish kerak, degan qoidaga amal qilinadi. Bunda bo'lakdagi belgi butungaga ham tegishlidir. Fikr yuritishning bu sxemasi quyidagicha ifodalanao:

Tezis: $W - A$ dir.

Argumentlar: Chunki, $W - P1, P2, P3, \dots Pn$ qismlardan iborat.

$P1 - S1$ belgiga ega. $P2 - S2$ belgiga ega. $P3 - S3$ belgiga ega.

$Pn - Sn$ belgiga ega. $S1 - Sn$ belgilar A ga hos.

Demak, $W - A$ dir.

(W - butun (whole), $P1, \dots P2, \dots, P3, \dots Pn$ - qismlar (part), S - belgi (sign))

Argumentlashda jins va tur top. [5.379 b.]. Bu toposda turga nisbatan isbotlash jins top. Fikr asosida amalga oshiriladi yoki aksincha. Aytish joizki, tur tushuncha o'zidan xajmi kichik tushunchaga nisbatan jins tushuncha hisoblanadi. Jinsga xos xususiyatlar turga ham mansub bo'ladi, lekin, turga xos xususiyatlar jinsga taalluqli bo'lishi shart emas. Jinsga xos isbotlash predmetning tur belgilarini ko'rsatish orqali amalga oshiriladi. Har bir predmet ma'lum bir jins(sinf)ga mansub va uni turlarga ajratish mumkin. Masalan, inson "tirik mavjudot" jinsiga mansub, inson shu jinsga tegishli belgilarga

(oziqlanish, nasl qoldirish, sezish va b.) ega bo'libgina qolmay, o'ziga xos tur belgilari (millati, tili, madaniyati va x.k.)ni o'zida mujassam etadi. Demak, insonga xos tur belgilarini, alohida insonlar haqida fikr yuritganda, fikrni asoslash uchun argument sifatida qo'llanishi mumkin. Bunday fikr yuritishda jins va tur tushunchalari nisbiy xarakterga ega ekanligini yodda saqlash zarur. Quyidagi sxema bunday fikr yuritishning simvolik ifodasidir:

Tezis: $T - g_1, g_2, g_3, \dots, g_n$ belgilarga ega.

Argumentlar: Chunki, $T \in G$;

$G - g_1, g_2, g_3, \dots, g_n$ belgilarga ega.

T - tur (type), G - jins (genus), sinf, ϵ - sinfga taalluqlilik belgisi, g - jins belgisi.

Shu o'rinda butun va bo'lak toposi bilan jins va tur toposiga hos hususiyatlarni e'tiborga olish zarur. Butun va bo'lak toposida bo'lakning o'zgarishi butunning ham o'zgarishiga olib keladi. Jins va tur toposida esa turning o'zgarishi jinsning o'zgarishiga olib kelmaydi. Bu holatni hisobga olmaslik argumentlarning no'rin tanlanishi va buning oqibatida argumentlashning xato bo'lishiga sabab bo'ladi.

Argumentlashda sabab-oqibat toposi. Har bir bayon qilingan fikr tushuntirish, asoslashni talab qiladi. Fikrning isboti "nima uchun?", "nima sababdan?" degan savollarga javob bo'ladi. Hech bir narsa sababsiz bo'lmaydi. Sababiy aloqadorlikni aniqlash ilmiy induktiv xulosa chiqarishda muhim ahamiyatga ega. Sababiy aloqadorlik murakkab strukturaga ega. Xususan, sabab-hodisa turli xil sharoitlarda turli oqibatlarni keltirib chiqarishi yoki aksincha, bir oqibat turli sharoitlarda har xil sabablar ta'sirida paydo bo'lishi mumkin.

Shuning uchun, fikrni bayon qilish jarayonida "nima uchun bu fikr to'g'ri (adolatli)?" degan savolni qo'yish va unga javob berishga to'g'ri keladi. Sabab toposi umuman olganda har qanday nutqda mavjud bo'ladi, chunki ilgari surilgan tezis asoslashni talab qiladi. Ba'zi nutqlar to'liqligacha sabab-oqibat bog'lanishlariga asoslanadi. Sabab - oqibat toposida fikr yuritish sxemasi quyidagicha bo'ladi:

$S \Rightarrow R$

(S - sabab, R - natija, \Rightarrow - mantiqiy ergashish belgisi)

Argumentlashda shart toposi.[6.244b.] Shart toposi bayon qilingan fikr qanday holatlarda to'g'ri bo'lishiga e'tibor qaratiladi. Nuqtai nazar (tezis) shartli mulohaza ko'rinishida ifodalanadi. Masalan:

Tezis: Agar magistraturada o'qimoqchi bo'lsam (p), xorijiy tillardan birini bilishim haqida sertifikat olishim kerak (q).

Argumentlar: Sertifikat oldim. Magistraturada o'qiyman.

Argumentlash sxemasi shartli-qat'iy xulosa chiqarishning modus ponens ko'rinishida bo'ladi:

$(p \rightarrow q) \wedge p \Rightarrow q$

Shart toposida nuqtai nazar inkor mulohaza bo'lganda argumentlash shartli- qat'iy xulosa chiqarishning modus tollens ko'rinishiga mos bo'ladi.

$(p \rightarrow q) \wedge \neg q \Rightarrow \neg p$

Masalan, Agar xorijiy tillardan birini bilishim haqida sertifikat olmasam, unda magistraturada o'qimayman. (Tezis)

Argumentlar: Sertifikat olmadim. Magistraturada o'qimayman.

Shartli argumentlashda "qanday holatlarda?" degan savol fikran qo'yiladi va unga javob izlanadi. Masalan, "ertaga yaxshi havo bo'lsa, ekskursiyaga boramiz". Shart ma'nosida ba'zan hayoliy(fantastik) holatlar ham bo'ladi. Shart ma'nosi deduktiv xulosa chiqarishning sof shartli va shartli qat'iy xulosa chiqarish ko'rinishlarida bo'lishi va qisqartirilgan holda bayon qilinishi mumkin. Bunday argumentlash quyidagi sxemalar bo'yicha amalga oshadi:

$[(p \rightarrow q) \wedge (q \rightarrow r)] \Rightarrow (p \rightarrow r)$

$[(p \rightarrow q) \wedge (\neg p \rightarrow q)] \Rightarrow q$

Tezis: Agar fikr isbotlanmagan bo'lsa, unda unga ishonib bo'lmaydi. ($p \rightarrow r$)

Argumentlar: Agar fikr isbotlanmagan bo'lsa, unda u noaniq bo'ladi ($p \rightarrow q$).

Agar fikr noaniq bo'lsa, unda unga ishonib bo'lmaydi ($q \rightarrow r$).

Odatiy tafakurda sabab-oqibat toposi bilan shart toposini almashtirish xolatlarini uchrab turadi. Buyum va hodisalar bilan bog'liq shartlar hamma vaqt ham sabab hisoblanmaydi. Sabablar obyektiv xarakterga ega, shartlar esa sub'ektiv xarakterda bo'lishi mumkin. Shu bois argumentlash to'g'ri bo'lishi uchun bu toposlarni bir -biridan farqlash zarur.

Aristotelning toposlar haqidagi ta'limoti fikr mulohazalarni argumentlashning nodemonstrativ usullarini qo'llash uchun yo'llanma hisoblanadi. Bu toposlar asosida analogiya, induksiya usullarini qo'llash argumentlashning ishonchli bo'lishini ta'minlaydi.

Xulosa. Maqolada argumentlashning odatiy tafakkurga xos bo'lgan va ko'p uchraydigan ba'zi toposlar tahlil qilindi. Bular tabiiy tilda uchraydigan diskursga xos argumentlash sxemalarini aniqlashga imkon beradi. Maqolada tahlil qilingan argumentlash sxemalarini bilish ular bilan bog'liq mantiqiy xatolarni aniqlashga va bartaraf qilishga yordam beradi. Sxemalarni to'g'ri qo'llash tezisni qabul qilish uchun maqbul argumentlarni tanlash va argumentlash jarayonining samarali bo'lishini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Igor Z. Zagar. Topoi in Critical Discourse Analysis Lodz Papers in Pragmatics 6(1):3-27 June 2010
2. Macagno F., Walton D., Reed Ch. Argumentation Schemes // Handbook of formal argumentation (pp.517-574) Publisher: College Publications, 2018.
3. Абу Али Ибн Сина. Риторика // Соч. Т. 7. –Душанбе: Дониш. 2019.
4. Ал-Фараби. Диалектика //Историко-философские трактаты. –Алма-Ата:Наука,1985.
5. Аристотель. Топаика // Аристотель. Сочинения в 4 т., т. 2. М.: Мысл, 1978.
6. Волков А.А. Основы риторики — Москва: Академический Проект, 2003.
7. Маковелский А.О. История логики – Москва:Кучково поле, 2004.
8. Москвин В.П. Риторика и теория аргументации – Москва:Юрайт, 2022.
9. Цицерон М.Т. Нотикдик санъати. Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 2018.



Rahmatullo XAIDAROV,
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: tillo.r@mail.ru

AndPI dotsenti, PhD O'.Muxtarov taqrizi asosida

ALISHER NAVOIY FALSAFIY QARASHLARI TIZIMIDA IJTIMOY BILISH VA REALLIK (“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONI ASOSIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiy komil inson haqidagi qarashlarining konseptlari “o‘tmish-bugun-kelajak” tarzidagi ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida tahlil qilinib, inson kamolotining tarixiy rivojlanish bosqichlari ijtimoiy tizimlar doirasida tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: Inson, kamolot, konsepsiya, ibrat, din, falsafa, Islom, muhit, jamiyat.

СОЦИАЛЬНОЕ ПОЗНАНИЕ И РЕАЛЬНОСТЬ В СИСТЕМЕ ФИЛОСОФСКИХ ВЗГЛЯДЫ АЛИШЕРА НАОИ (ПО МОТИВАМ ЭПОСА «ХАЙРАТ УЛЬ-АБРОР»)

Аннотация

В данной статье анализируются концепции взглядов Алишера Навои на совершенную личность на основе социально-философского подхода стиля «прошлое-настоящее-будущее», а также изучаются исторические этапы развития человечества в рамках социальных систем.

Ключевые слова: Человек, зрелость, концепция, урок, религия, философия, Ислам, сфера, общество.

SOCIAL COGNITION AND REALITY IN THE SYSTEM OF PHILOSOPHICAL VIEWS OF ALISHER NAVOIY (BASED ON THE EPIC “KHAIRAT UL-ABROR”)

Annotation

This article analyzes the concepts of Alisher Navoi's views on the perfect personality based on the socio-philosophical approach of the “past-present-future” style, and also studies the historical stages of human development within social systems.

Key words: Man, maturity, concept, lesson, religion, philosophy, Islam, scope, society.

Kirish. Jamiyat hayotining rivojlanishida turli omillarning ta'sir darajasi kuzatilib, ularning qatorida insonning talab ehtiyoji (qondirilganligi yoki qondirilmaganligi), ijtimoiy institutlarning o'z funksiyasini bajara olishi yoki bajara olmasligi, jamiyatning turli tabaqalarida idealning tanlanganligi yoki tanlanmaganligi, ijtimoiy mobillikning ta'minlanganligi kabilar masalalar ijtimoiy falsafaning dolzarb mavzularidan sanaladi. Bunda, bilish muhim o'rin tutib, alohida inson va insoniyatning hayotini ta'minlashda shart-sharoitlarni belgilash, me'yorlarni tanlash, qonuniyatlarga amal qilish, aynan reallikni bilish bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Alisher Navoiy “Komil inson konsepsiyasi”ning ham yaralishida jamiyatda mavjud bo'lgan muammolar va kelajakda kutiladigan holat ham bevosita ijtimoiy bilish bilan bog'liq bo'lib, “Mutafakkir ijtimoiy-falsafiy qarashlarida inson masalasi ko'proq ilohiy negizda talqin qilingan bo'lib, bir butun diniy-ma'naviy-huquqiy tizimni tashkil qiladi” [1]. Bizningcha, “Diniy-ma'naviy-huquqiy tizim”dan ko'ra, konseptual jihatdan “Ijtimoiy-diniy-ma'naviy-madaniy tizim” deb ko'rsatish maqsadga muvofiq. Sababi, insonning ijtimoiyligi atrof-muhitda kechayotgan jarayonlarni idrok etib, ma'lumotlarni qabul qilib, ularning tahlilini amalga oshirib, o'z munosabatini bildirishi kamolotga erishish yo'llarini belgilab olish uchun muhim sanaladi. “Hayrat ul-abror”da insonning individual darajada kamolot yo'lini tanlashi oliy qadriyatni idrok etish sanaladi. Shuning uchun mutafakkir afsonaviy va tarixiy qahramonlar siymosidan foydalanib, insonni oxir oqibat asliga qaytishi, ya'ni tuproqqa aylanishini eslatib o'tadi. Jumladan:

Dahrda ul xaylki, shoh erdilar,
Dodgaru mulkpanoh erdilar.

Birni qatil aylamayin qo'ydimu?
Zoru zalil aylamayin qo'ydimu?
Ko'rki qayon bordi Fariduni Jam,
Iraju Hushang ila Zahhok ham.
Salmu Manuchehr ila Navzar qani?
Bahmanu Dorovu Skandar qani?
Qoni jahon dovari Chingizxon?
Qoni jahon xoni Temur Ko'ragon? [2]

Ya'ni, “Dunyoda shunday odamlar bor ediki, ular shohlar edilar; mamlakatda adolatning posbonlari edilar. Bu falak ularning birontasini o'ldirmasdan, xoru zor qilmasdan qo'ydimi? Boq, Faridun bilan Jamshid qayoqqa ketdi? Eraj, Xo'shang va Zahhok-chi? Salm, Manuchehr va Navzar qani? Bahmanu Doro-yu Iskandar qani? Qani dunyoning hokimi Chingizxon? Qani jahon xoni Temur Ko'ragon? Bu pastkash charx ularning bittasiga ham vafo qilmay, kimni ko'targan bo'lsa, uni yana yerga urdi” [3]. Bu afsonaviy va tarixiy qahramonlarning hayot tarzi yaratuvchanlik, buzg'unchilik, barcha intilishlarining zamirida go'yoki manguликка erishish ifoladangan bo'lsa-da, “bu pastkash charx ularning bittasiga ham vafo” qilmaganligiga alohida urg'u beradi. Masalan, Jamshid insonlar uchun olovni kashf qilgan bo'lsa (Abulqosim Firdavsiyning “Shohnomasi” bo'yicha), tabiat qonuniyatlarini o'rganib, insonlar hayotini saqlab qolishni o'rgatib, oxir-oqibat o'zini Haq taolo deb ko'rsatgani va odamlar undan uzoqlashib, qo'zg'alon ko'targanliklarini kamolot jarayonida ideal va unga erishish uchun ko'rsatma (ustanovka) shart ekanligini ta'kidlab o'tgan. Bu bilan motivatsion determinantlarning motivatorlari amal qilishi komillikka erishish uchun shart hisoblanishini anglab yetgan. Shuning uchun, komillikka erishish motivatsiyasida: ijobiy, ibratli

sifatlarini egallash; harom va qing'ir yo'llarga kirmaslik; ma'naviy qadriyatlarini egallash; ruhiy himoya (madad); Haqqa erishish; namunali xulq-atvorni egallash kabi xulq-atvor asosiy motivlardan sanaladi. Yuqoridagi olti motiv komillikka erishishning motivatsion determinanti sanalib, "o'tmish-bugun-kelajak" tarzidagi ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida ibratli sifatlarini o'zlashtirgan insonning hayot mazmuni qanday bo'lishini tasvirlab bergan. Bu inson hayotining falsafasi bobida garchi ilohiyotning asosiy tamoyillari bo'yicha yondashilgan bo'lsa-da, "Navoiy inson manfaatlarini va uning baxtu kamoli, adolatli jamiyatga erishishning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy, ma'naviy, falsafiy, estetik, diniy, axloqiy vositalarini teran tahlil etgan" [1].

Navoiy davrida ham insonlar va ularning munosabatida turli ko'rinishlardagi noqis (ijtimoiy majruh) holatlar kuzatilgan bo'lib, bunda insondagi uchta asosiy ko'rsatkich: jismoniylik, ma'naviylik va ruhiylik qatorida ma'naviylik oqsayotganligi bir necha marotaba diniy afsona va tarixiy siymolarning hayotidan ibratli tasvirlar ko'rinishida keltirilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Insonni kognetiv apparatga egaligi axborotlarni qabul qilish, uni tahlil qilib tizimga keltirishi va o'zida mujassam etilishi bu bevosita hayotining maqsadi, faoliyatining mazmundorligini ta'minlashga qaratilgan. Bu xususda eronlik M.Mutaxxari "Insonning qalbi va xissiyoti uni aqli emas, Allohni anglashning manbai sanaladi" [4] deb ko'rsatgani e'tiborga molik. Qalb va hissiyot insonning taqvoli yoki ateist bo'lishidan qat'iy nazar faktik (real) muhabbatga (Allohga) erishishni ta'minlovchisi hisoblanadi. Navoiy komil inson konsepsiyasida, aniqrog'i "Tarixiy (diniy) ustun"i darajasida bu masalani markaziy mavzu sifatida e'tirof etgan. J.Nyutten "Ma'naviy inson konsepsiyasi" modelida masalaning axloqiy sifatlarini o'zlashtirish va rivojlantirish tarzida ko'rsatib o'tgan, ammo uning asosini tashkil etuvchisiga, manbasiga e'tibor qaratmagan. Bu esa milliy ta'lim-tarbiya tizimida manbalarni funksional amal qilishiga rioya qilgan holda yondashishni talab etadi. Shunda jamiyat satsiy tuzilishini inobatga olgan holda milliy qahramonlar va ularning jasoratini tavsiflovchi ma'rifiy manbalar tayyorlash lozim bo'ladi. Negaki, Yangi O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'zgarishlarni dunyo hamjamiyati e'tirof etayotgan bir paytda, milliy ta'lim-tarbiya tizimida komil inson konsepsiyasini ishlab chiqish hamda uning tarkibiy qismlarini milliy taraqqiyotni ta'minlashga yo'naltirgan holda tuzish lozim bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Inson kamolotini ta'minlash masalasi turli tarixiy davrlarda faylasuflarning munozara mavzusi bo'lib kelganligi jihatidan, tarixiy sanalib A.Choriyev [5] bu masalani teologik yondashuvlar, afsonaviy tasvirlar doirasida ham o'rganishning ustivorligini ko'rsatib o'tib, teologik jihatdan barcha jahon dinlarida ham inson kamolotini ta'minlash diqqat markazda bo'lganligini ta'kidlab o'tgan. Darhaqiqat, inson falsafasini tadqiqot mavzusi sifatida o'rganish inson, insoniylik, insoniy sifatlar, insoniy munosabatlar kabi tushunchalarni shakllanish tarixiga ham nazar solishni taqozo etadi. Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonida insonning kamol topishida idealga intilish muhimligini ko'rsatib, kamolot yo'lini to'g'ri tanlab olganligiga urg'u beradi. Bunda asosiy determinantlarning ta'sir darajasi belgilovchi sanaladi. Akademik A.A.Rean "Inson ijtimoiy mavjudot, tug'ilganining birinchi kunidayoq uning atrofiga o'ziga o'xshaganlar mavjud bo'ladi. U turli ijtimoiy aloqalarga kirishadi" [6], deya ta'kidlaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ijtimoiy mavjudot sifatida inson kamol topishini Navoiy to'rtta ustun "Inson va tabiat – Inson va tarix(din) – Inson va jamoa – Inson va muhit" tarzida belgilab bergan. A.S.Karmin va G.G.Bernatskiy rivojlanishda

motivatsiyaning rolini ko'rsatib, motivatsiyaning zamirida insonning ehtiyojlari, ya'ni, biologik, ijtimoiy, moddiy va ma'naviy ehtiyojlari ifodalanganligini ko'rsatib o'tgan [7]. Navoiy aynan ma'naviy ehtiyojning shakllanganlini va uni qondirish uchun shart-sharoitlarning yaratilish masalasiga ham e'tibor qaratib, bunda tarix va Islom dini manbalaridan unumli foydalangan. Tadqiqotchi A.Malik bu xususida "Odam alayhissalomni Rasululloh sollallohu alayhi vasallam uchun "Farzand" sifatida tasvirlar ekan, payg'ambarning lafzidan iboralarni keltiradi [8]. Sharq falsafasida bu tarzidagi yondashuvlar turli talqinda keltirilgan bo'lsa-da, "Insoniyat tarixining dastlabki bosqichlarida diniy jamoalar etnik jamolarga mos kelib, diniy ong yetakchilik qilgan. Diniy faoliyat jamiyat faoliyatining umumiy zanjirida muqarrar bo'g'inni tashkil etgan, diniy munosabatlar jamiyatdagi boshqa aloqalarga ta'sir ko'rsatgan, diniy institutlar esa (cherkov) diniy va dunyoviy hokimiyatni o'zida birlashtirgan" [9].

Kamolot dinamik jarayon bo'lib, bunda ichki va tashqi omillarning ta'siri asosida turli ko'rinishdagi ziddiyatlar namoyon bo'lishi mumkin. Buni inobatga olgan Navoiy:

O'yla gumon aylaki charxi dani –
Kim ko'rinur davrda parvizani.
Olam eli yaxshi, agar dun erur,
Borchag'a ul chanbar aro yer berur.
Chunki bu nav' ayladi el holini,
Doyir etar har sari g'arbolini.
Yaxshini bebokdin aylar judo,
Pokni nopokdin aylar judo.
Emdiki ayrildi sharifu xasis,
Qolmadi bir poyada dunu nafis.
Qay birikim, bor edi ko'prak dani,
Qildi ani lutf ila ko'prak g'ani [2].

Ya'ni, "Shunday fikr qilginki, bu pastkash charxning aylanishi xuddi g'alvirning aylanishiga o'xshaydi. Olamdagi odamlar, xoh yaxshi bo'lsin, xoh yomon, hammasiga shu chanbar orasidan joy beradi. Odamlarni u shu axvolga solib, o'z g'alvirini elagani elagan. Yaxshini yomondan, pokni nopokdan ajratadi. Yaxshisini pastidan ayirgandan keyin ikkovini bir martabada qoldirmaydi. Qaysi biri ko'proq pastkash bo'lsa, o'shani o'z marhamatiga olib, ko'proq boy qiladi" [10]. Mutafakkir bunda:

obyektlı – ontologik;
subyektlı – faoliyatli;

kognitiv – gnoseologik kabi jihatlariga alohida e'tibor qaratgan. Bu bilan inson konsepsiyasida ijtimoiylik jismoniy va ma'naviy rivojlanishni ta'minlashda tabiat va jamiyat orasidagi bog'lovchi ekanligini ko'rsatib o'tadi. Substansional, ontologik reallik tarzida komillikka erishishni aniq tasavvur qila olgan. Bu bilan ijtimoiy-falsafiy qarashlar tizimida komil insonning shakllanishida muhitning ta'sir darajasi muhim bo'lishidan qat'iy nazar kamolotga erishish ehtiyoj sifatida mujassamlashgan bo'lishi lozimligini ta'kidlab o'tadi. G'arb tadqiqotchilarining ehtiyojlar nazariyasida "Ehtiyojning shakllanganligi uni qondirish uchun ichki resurslardan foydalangan holda harakatlarni amalga oshirishni ta'minlaydi", deb ko'rsatib o'tilganligi, mutafakkirning ijtimoiy-falsafiy qarashlari teran mazmundorligi bilan o'z zamonasidan oldin qadam qo'yganidan dalolat beradi.

Komillikka erishganlik ma'naviy va ibratli ta'limning natijasi sifatida inson tomonidan turli vaziyatlarda ifoda etiladigan xulq-atvorning ma'nosini tashkil etadi. Bu masalaga Alisher Navoiy ijtimoiy munosabatlar tizimida amal qiluvchi har bir tizimostining tuzilishi, mazmun va mohiyatiga e'tibor qaratgan. Buning natijasida, insonda kamol topish uchun maqsadni shakllanganligi ham harakat tarzini belgilovchi ekanligi ifodalangan.

Tahlil va natijalar. Ko'rsatib o'tilishicha, "Homo habilis" va "Homo erectus" tipidagi inson o'ziga xos konstitutsiyaga (tuzilishga) ega bo'lib, "Homo habilis"ning bo'yi 109-152 sm va uning evolyutsion jihatdan rivojlanishi "Homo erectus"ni keltirib chiqargan. U miyasining kattaligi bilan "Homo habilis"dan ajralib turgan hamda 150 ming yil oldin vujudga kelgan [7]. Navoiy esa, o'z ta'limotida Odam va Havoning farzandlari hisoblanmish insonning rivojlanishini jamiyat taraqqiyotini belgilovchisi sifatida nazarda tutgan. Bunda uning davlat lavozimida faoliyat yuritishi, real va ideal orasidagi tafovutni ajrata olganligi sabab bo'lgan. Kamolotni ta'minlash nuqta nazaridan buni biz atropogenez tarzidagi yondashuv ham deb ko'rsatishimiz mumkin. A.S.Karmin va G.Bernatskiylarning ko'rsatib o'tishicha, "Insoniyat yagona ildizdan paydo bo'lganligini ta'kidlash uchun asos mavjud" [7] deganlari fikrimizning dalili bo'la oladi.

Kamol topishda inson tabiat va jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy-siyosiy hayotning uyg'unligida rivojlanishini ko'rishimiz mumkin. Yangi O'zbekiston sharoitida ham tadbirkorlik subyektlari uchun davlat darajasida olib borilayotgan siyosat hamda ta'lim-tarbiya bobida xususiy ta'lim-tarbiya muassasalarining faoliyatining yo'lga qo'yilishi istiqbolimizning ma'naviy hayotini takomillashuviga qaratilgan strategik mazmun kasb etuvchi vazifaligini kuzatish mumkin. Prezident Sh.M.Mirziyoyev yangilanayotgan O'zbekiston haqida "Jamiyatni siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy modernizatsiya qilish, ma'naviy jihatdan tiklash va yuksaltirish, mavjud qonunlarni, davlat boshqaruvi, iqtisodiy tizimni qayta ko'rib chiqish, bu borada ta'sirchan va samarali mexanizmlarni yaratish, demokratik tamoyil va me'yorlarni hayotga tatbiq etish bo'yicha misli ko'rilmagan keng ko'lamli va izchil chora-tadbirlarni amalga oshirdik" [11], deb munosabat bildirgan.

Yangi O'zbekiston uchun moddiy va ma'naviy bunyodkorlikni o'z faoliyatining maqsadi deb belgilagan insonlarni kamol topirish strategik vazifa sanalib, buning uchun insondagi ma'naviy asosga urg'u berib, uni shakllantirish uchun Navoiyning komil inson konsepsiyasini integrativlashtirilgan modelini jamiyat hayotiga tatbiq etish lozim bo'ladi. "Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Navoiy ijodiy merosining butun mazmuni inson va insonparvarlik bo'lgani holda uning "Hayrat ul-abror" falsafiy dostonida inson bilan bog'liq keng mulohaza yuritilgan. Xususan, dostonning uch hayrat va yigirma maqolatida inson masalasi bevosita tahlil va tavsif qilinadi. Keyingi boblarda insonga xos bir qancha yaxshi fazilatlar va yomon illatlar qiyoslash san'ati orqali baholanadi" [1], deb ko'rsatgan T.O.Norov uch

hayratdagi hayratga keltiruvchi holat va yigirmata maqolatda inson taqdirida uchraydigan mushkulotlarning ijtimoiy-falsafiy mohiyatiga e'tibor qaratib, "ma'naviy muxandislik" masalasi ifodalanganligini ko'rsatib o'tgan. Navoiy o'n uchinchi maqolatda sha'r va hayr, yomonlik va yaxshilik kabi masalalarning ijtimoiy munosabatlarda ifodalanishiga e'tibor qaratib:

Naf' tegurmakki shior aylading,
O'zungga ul naf'ani yor aylading.
Naf'ing agar xalqqa beshak durur,
Bilki bu naf' o'zungga ko'prak durur [2].

Ya'ni, "Sen insonlarga foyda yetkazishni o'zingga shior etding; shundan keladigan nafni o'zingga yor aylading. Sening xalqqa ko'rsatgan foydang shak-shubhasizdir; lekin bilib qo'yki, bundan o'zingga tegadigan naf ko'proqdir" [10], deya ta'kidlaydi. Bunda insondagi ma'naviylik ruhi nafaqat individual darajada kamolotga erishishni, balki guruhiy va jamoaviy tarzda sara insondagi sifatlarni o'zlashtirib, unga erishish farz sanalishini belgilab beradi. Bu borada R.Samarov insonni kamol topishida ma'naviyatning funksional jihatlarga e'tibor berib, "Bunda, individual ma'naviyatning tarkibiy qismlari hisoblanmish: - madsad, real e'tiqod, bilim, aql, orzu-umidlar, xotira, did, tamiz, tuyg'ular insonning o'ziga va atrofdagilarga bo'lgan munosabati, qadriyatlar iyerarxik jihatdan belgilovchi o'rinni egallaydi" [12], deb inson konsepsiyasiga sharqona yondashuvning o'zagini alohida tarkiblar (elementlar) tashkil etishini ko'rsatib o'tgan.

Xulosa va takliflar. Komil insonga doir qarashlar o'z tarixiy rivojlanish bosqichlariga ega bo'lib, Navoiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari tizimida inson konsepti:

birinchidan, "Inson-Inson", "Inson-Tabiat", "Inson-Jamiyat" kabi ijtimoiy tizimlar doirasida kechadigan munosabatlarni tartibga keltirilishi, madaniylashuvi tarzida o'z ifodasini topadi. Bunda, Islom manbalarida keltirilgan qarashlar majmuasi va ijtimoiy voqe'lik asnosida giposteziyalashuv holati yuzaga kelgan. Bunda, ideal obrazda ifodalangan sifatlar, subyekt tomonidan ibratli sifatlarni o'zlashtirish davomida vujudga kelgan muammolarni yengib o'tish davomida ijtimoiy bilish va reallik masalasi (sabr va namoz) dolzarblashib, Islom teologiyasining konseptlariga tayangan;

ikkinchidan, Navoiyning e'tirofi bo'yicha, kamolot dinamik jarayon hisoblanib, ijobiy va salbiy sifatlar shakllanishining obyektli – ontologik, subyektli – faoliyatli va kognitiv – gnoseologik kabi jihatlarga alohida e'tibor qaratgan.

ADABIYOTLAR

1. Norov.T.O. Alisher Navoiy insonparvarlik qarashlarining mustaqil O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan uyg'unligi. Dis. avtoref. T.: 2019 – B.19
2. Alisher Navoiy «Hayrat ul-abror» T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – B. 277. 256-257
3. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. (yaxshilar hayrati). Nasriy bayon qiluvchi A.Hayitmetov. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, T.: 1974. - B. 104, 175
4. Мутаххари Муртаза. Единобожие. Тегеран: Садра, 1373. -С. 32-33
5. Choriyev A. Inson falsafasi: Inson to'g'risidagi falsafiy fikrlar taraqqiyoti T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. – B.3-8
6. Реан А.А., Коломниского Я.Л. Социальная педогогическая психология. СПб.: Питер, 1999. – С.32-34
7. Кармин А.С., Бернацкий Г.Г. Фисолофия. Учебник для вузов. 2-е изд. . – СПб: Питер, 2009. –С. 133, 162-163
8. Alisher Navoiy: "Hayrat ul-abror" (Matn, sharh, nasriy bayon, lug'at) / Birinchi kitob: muqaddima / A.Malik. – T.: "Tamaddun" nashriyoti, 2021. – B.130
9. Sharq falsafasi. Mas'ul muharrirlar: Ibrohimov N.I., Ahmedova M.A. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2006. – B. 243
10. Alisher Navoiy, Xamsa: "Hayrat ul-abror". Nasriy tadbil / Manzar Abdulhay tabdili. T.: "Yangi asr avlodi", 2021 yil. – B.175
11. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi [Matn] – T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – B.44
12. Samarov R. Axborot psixologik xavfsizligini ta'minlash mexanizmi (uslubiy qo'llanma). – Toshkent: Universitet, 2015.



UDK: 37.091.21:004.89

Voxid XAMIDOV,

PhD, Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi direktori

Email: vkhamidov@gmail.com

Shaxzodbek KURBANIYAZOV,

PhD, Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi departament boshlig'i

Alisher MAMATOV,

Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bo'limi boshlig'i

Akramjon NASYROV,

Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bosh mutaxassisi

TDPU dotsenti, PhD S.X. Dottoyev taqrizi asosida

TA'LIM OLUVCHINING SHAXSIY TRAYEKTORIYASIGA YO'NALTIRILGAN TA'LIMNI TATBIQ ETISHDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI

Annotatsiya

Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim tizimiga tatbiq etish bo'yicha xorijiy rivojlangan davlatlar tajribasi o'rganilib, bir qancha aqlli ta'lim platformalari tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu innovatsion texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, ta'lim jarayonida o'quvchining shaxsiy trayektoriyasiga yo'naltirilgan aqlli ta'lim platformasini ishlab chiqish bo'yicha model va ishlash texnologiyasi keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, sun'iy intellekt, shaxsiylashtirilgan ta'lim, aqlli ta'lim platformalari, raqamli kontent, virtual yordamchi.

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN IMPLEMENTING EDUCATION DIRECTED TOWARD THE LEARNER'S PERSONAL TRAJECTORY

Annotation

In this article, we delve into the experiences of developed foreign countries in the application of artificial intelligence technologies within their educational systems. The analysis extends to several intelligent educational platforms. Furthermore, the article presents scientifically grounded proposals and recommendations concerning the integration of these innovative technologies into educational frameworks. Additionally, the article introduces a model and operational technology designed for the development of an intelligent educational platform, with a specific focus on tailoring the educational journey to the individual trajectory of each student.

Key words: Education, artificial intelligence, personalized learning, intelligent learning platforms, digital content, virtual assistant.

РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РЕАЛИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ, НАПРАВЛЕННОГО НА ЛИЧНОСТНУЮ ТРАЕКТОРИЮ УЧАЩЕГОСЯ

Аннотация

В данной статье мы углубляемся в опыт развитых зарубежных стран по применению технологий искусственного интеллекта в своих образовательных системах. Анализ распространяется на несколько интеллектуальных образовательных платформ. Кроме того, в статье представлены научно обоснованные предложения и рекомендации по интеграции этих инновационных технологий в образовательную среду. Кроме того, в статье представлены модель и операционная технология, предназначенные для разработки интеллектуальной образовательной платформы с особым упором на адаптацию образовательного пути к индивидуальной траектории каждого студента.

Ключевые слова: Образование, искусственный интеллект, персонализированное обучение, интеллектуальные обучающие платформы, цифровой контент, виртуальный помощник.

Kirish. Hozirgi globallashuv jarayonida raqamli texnologiyalar sog'liqni saqlash, davlat boshqaruvi, qishloq xo'jaligi, iqtisodiyotning real sektori kabi ustuvor sohalar bilan bir qatorda ta'lim sohasida ham ko'plab imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Shu o'rinda XXI asrning eng ustuvor texnologiyalaridan biri bo'lgan Sun'iy intellekt (keyingi o'rnlarda SI) nafaqat ta'lim jarayonlarini boshqarish, balki ta'lim oluvchilar uchun muhim kontentlarni yaratish va ularga taklif bera oladigan shaxsiylashtirilgan kontentni taklif etish imkonini bermoqda.

Bu kabi innovatsion texnologiyalarni O'zbekiston Respublikasining ustuvor yo'nalishlariga tatbiq etish bo'yicha bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5

oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmonida O'zbekistonni 5 ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha 2030 yilga qadar barcha sohalarga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab qo'yilgan. Ushbu strategiyada ta'lim muassasalarining tegishli sohalarda "Buyumlar interneti" (IoT), robototexnika, sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash va o'rganish bo'yicha laboratoriyalar, shuningdek, xorijiy korxonalarini ushbu sohaga jalb qilishni tashkil qilish bilan bir qatorda o'quvchilarni bilimini baholash bo'yicha samarali avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini ishlab chiqishda SIDan foydalanish ham nazarda tutilgan.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagi "2022 – 2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-307-sonli Farmonida ham bir qancha ustuvor vazifalar keltirilgan. Jumladan, ushbu yillarda ilmiy tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan "drayver" innovatsion loyihalar ro'yxatining 7-bandi (Masofaviy ta'lim uchun sun'iy intellektga asoslangan platforma ishlab chiqish), 117-bandi (Shaxsning biometrik ma'lumotlarini (nutq, tasvir, video) aniqlashning sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan tizimini yaratish), hamda 302-bandi (Sun'iy intellekt asosida fan va ta'limga oid axborot manbalarini foydalanuvchi ehtiyojlariga ko'ra tavsiya etish tizimini yaratish) kabi respublikamizning ta'lim sohasiga SIni tatbiq etish bo'yicha bir qator ustuvor vazifalar keltirib o'tilgan.

Yuqoridagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mazmunidan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimiga ham SI texnologiyalarini keng joriy etish bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biri ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bunday innovatsion texnologiyalarni ta'lim olish jarayoniga tatbiq etish nafaqat ta'lim oluvchilar, balki ta'lim beruvchilarni ham shaxsiy trayektoriyasiga yo'naltirilgan aqlli ta'lim platformalarni yaratish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda SIni barcha sohalariga keng tatbiq etish bo'yicha dunyoning yetakchi olimlari bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda. Shu jumladan ta'lim tizimiga ham SI texnologiyalarini tatbiq etish va ularning samaradorliklari bo'yicha turli xil yondashuvlar mavjud. Bularga, AQSH Prezidentining ta'lim bo'yicha maslahatchisi M.Kardona, uning o'rinbosari R. Rodrigues va ushbu davlatning ta'lim texnologiyalari ofisi direktori o'rinbosari K.Ichmailllar tomonidan 2023 yilda chop etilgan "Sun'iy intellekt, o'qish va ta'limning kelajagi" nomli taklif va tavsiyalarga asoslangan tahliliy materialida SIni ta'lim tizimiga taqdim etish bo'yicha yaqin kelajakdagi yutuqlarni keltirib o'tishgan. Shuningdek, SIga asoslangan intellektual repetitorlik tizimi modeli va uni ishlash mexanizmini ishlab chiqishgan.

Shu bilan birga, 2020 yilda Buyuk Britaniyalik tadqiqotchi J.Gardner, Irlandiyalik olim M.Oleariy va Xitoylik olim L.Yuanlar tomonidan chop etilgan "Ta'limni baholashda sun'iy intellekt: yutuqmi?" nomli hammualliflikda chop

I-jadval

Sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan o'quvchining shaxsiy trayektoriyasi aniqlash uchun ta'lim jarayoniga tatbiq etilgan aqlli ta'lim platformalari

№	Nomi	Maqsadi	Xususiyat va afzalliklari
1	Knewton knewton.com	Ushbu aqlli platforma asosan shaxsiylashtirilgan ta'limda tushunchalarni mustahkamlash va bilimlardagi kamchiliklarni to'ldirish uchun SI yordamida kontentni taqdim etadi va tavsiyalar beradi.	Amaliyot va sharhlar bilan uzluksiz o'rganish imkonini beradi; Shaxsiy trayektoriyadan kelib chiqib tahlil natijalarini ta'minlaydi; Ta'lim oluvchilarga mos keladigan maqsadli ta'lim tajribalarini yaratish imkonini beradi.
2	Alef Education alefeducation.com	Ushbu aqlli ta'lim platformasi ta'lim samaradorligini oshirish va barcha ta'lim oluvchilar uchun istalgan vaqtda va istalgan joyda o'rganishlari uchun shaxsiylashtirilgan ta'lim tajribasini ta'minlaydigan SI texnologiyaga asoslangan o'quv tajribalarini loyihalashtirish maqsadlarini yaratadi.	Alef platformasi barcha ta'lim oluvchilar uchun moslashtirilgan ta'lim tajribasini taqdim etadi, shuning uchun ular istalgan vaqtda va istalgan joyda o'rganish imkoniyatini beradi. SI tomonidan shax-siylashtirilgan ta'lim; Qiziqarli kontent; Darhol fikr-mulohaza taqdim etish; Haqiqiy vaqtda ma'lumotlar; Tegishli o'quv dasturi va boshqa imkoniyatlar.
3	EdApp edapp.com	Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida yaratilgan ushbu ta'lim platformasi, ta'lim oluvchilarning ilm-fanga qiziqtirish va shaxsiy ta'lim trayektoriyasini yaratib berish imkoniyatlarini ochib beradi. Bu ta'limning samarali, yanada qiziqarli va qulay bo'lishiga xizmat qiladi.	Mobil ariza: Mobil qurilmalar uchun mo'ljallangan ta'lim tizimi hisoblanib, barcha platformalarda, veb brauzerlar va boshqa dasturiy ta'minotlarda ham ishlaydi. Interfaol ta'lim: Interaktiv darsliklar, testlar, sinovlar, va qiziqarli ma'ruzalar orqali o'quvchilarni qiziqtirish uchun yaratilgan. Shaxsiylashtirilgan ta'lim: Platforma shaxsiy ta'lim tajribasini yaratishga imkon beradi.

I-jadvalda keltirilgan SI texnologiyalariga asoslangan o'quvchining shaxsiy trayektoriyasi aniqlash uchun yaratilayotgan aqlli ta'lim platformalarining soni kundankunga ortib bormoqda. Bundan ko'rinib turibdiki ushbu

etishgan ilmiy maqolasida formativ va summativ ta'limni baholash usullarida SIning o'rni bo'yicha taklif hamda tavsiyalar berishgan. Ular SI yordamida ta'lim oluvchilarning insholarini va onlayn test orqali baholash bo'yicha o'zlarini modellarini ishlab chiqishgan.

Bundan tashqari Xitoylik tadqiqotchilar Y.Li, S.Meng va J.Vanglar tomonidan 2021 yilda "Ta'lim, axborot boshqaruvi va xizmat ko'rsatish fani" nomli xalqaro konferensiyasida chop etgan ilmiy maqolasida (Sun'iy intellekt negizida shaxsiylashtirilgan ta'limni tadqiq qilish va qo'llash) SI yordamida shaxsiylashtirilgan ta'limning "Onlayn + oflayn" shaklini kichik sinflar talqinida muhokama qiladi va "o'qituvchi markazlashtirilgan" dan "o'quvchiga yo'naltirilgan" o'qitish usulini ilgari surish bo'yicha taklif va tavsiyalar berib o'tishgan.

Yuqoridagi ilmiy asarlar va maqolalar tahlilidan ko'rinib turibdiki, ta'lim tizimiga SI texnologiyalarini tatbiq etish nafaqat ta'lim sifatini oshirish uchun, balki ta'lim oluvchilar uchun o'quv kontentlarini taklif etadigan innovatsion texnologik yechim ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, ushbu ilmiy maqolaning asosiy maqsadi bugungi kunga kelib eng rivojlangan SI texnologiyalarini ta'lim tizimiga joriy etish orqali, ta'lim oluvchilarga yanada sifatli ta'lim berishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida SI texnologiyalarini ta'lim tizimiga joriy etish bo'yicha xalqaro tajribalarni tahlil qilish, tajribalarni o'rganish, ma'lumotlarni to'plash, guruhlashtirish, tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, qiyosiy tahlil va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Rivojlangan davlatlarning tajribasini o'rganish natijasida, ta'lim tizimiga asosan quyida keltirilgan SI texnologiyalariga asoslangan aqlli ta'lim platformalari tahlil va tatbiq etilayotgani aniqlandi. Ular:

Aqlli ta'lim platformalari tahlili – bu tizimlar ta'lim oluvchining bilim darajasini baholaydi, fikr-mulohazalar bildiradi, zaif tomonlarini aniqlaydi va o'zlashtirishni yaxshilash uchun ko'rsatmalar beradi. Ushbu texnologiya tajribasi kam bo'lgan ta'lim beruvchi va oluvchilar uchun qo'shimcha materiallarni taqdim etadi. Masalan, Pearsonning WriteToLearn dasturiy ta'minoti foydalanuvchilarga imlo ko'nikmalarini yaxshilash bo'yicha maslahatlar berish uchun tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyasidan foydalanadi.

dasturiy mahsulotlarni ta'lim jarayonini tashkil etishda foydalanish, ta'lim oluvchi va beruvchilarning shaxsiy o'quv trayektoriyasini aniqlash hamda bilimni uzluksiz oshirishida yanada ko'proq samaradorliklarga olib keladi.

Ta'limda sun'iy intellektdan foydalanishning istiqbolli yo'nalishlari:

1. Moslashuvchan va shaxsiylashtirilgan ta'lim. Har bir ta'lim oluvchining turli darajadagi akademik ko'rsatkichlarga ega bo'lgan ehtiyojlariga mos keladigan, o'rganishdagi muvaffaqiyatni kuzatish va natijalarga qarab uning trayektoriyasini o'zgartirish qobiliyatiga ega bo'lgan zarur ta'lim kontentini tanlash imkonini beradi.


2. Avtomatik baholash tizimi. Ta'lim oluvchining bilim darajasini avtomatlashtirilgan, xolis baholashni amalga oshirish, o'quv natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish, tavsiyalar berish va samarali individual o'quv rejalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

3. Aqlli ta'lim. Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni tatbiq etish orqali passiv elementlarni faol, vizual va interfaol qilish imkonini beradi.

4. O'yin shaklda o'rganish (gamifikatsiya). O'quv jarayonida o'yin texnologiyalari va o'quv simulyatorlaridan foydalanishda ifodalanadi.

5. Proktoring tizimi. Imtixon topshirayotgan ta'lim oluvchining xatti-harakatlarini masofadan turib tahlil qilish imkoniyatiga ega istiqbolli tizim hisoblanadi. Unda monitordan uzoqqa qarash chastotasi, brauzerdagi yorliqni o'zgartirishga urinish, ruxsat etilmagan shaxslar yoki ovozlarning mavjudligi va boshqa jarayonlarni inson ishtirokisiz nazorat qilish imkonini beradi.

6. Smart kampus. Ta'lim oluvchilarning turli savollariga tezkor javob berish, ya'ni, dars jadvali, darslar o'tkaziladigan sinfxonalarni qidirish, ta'lim muassasalari, o'qituvchining fikr-mulohazalari va boshqalarni o'z ichiga oladi.



1-rasm. Sun'iy intellekt texnologiyalariga asosidagi o'quv kurslarini ketma-ketligi bo'yicha tavsiya beruvchi model.

Shaxsiylashtirilgan, bashoratli va moslashtirilgan ta'limni rejalashtirish uchun SI texnologiyalari yuqorida tavsiflanganidek, bir necha o'lchovlarni ifodalaydi, jumladan:

kurslar ketma-ketligi bo'yicha tavsiyalar, kurslar soni bilan aralash ravishda o'sib boruvchi katta qaror maydoni bilan shug'ullanishni talab qiladi;

tavsiya qilishda katta moslashuvchanlik mavjud, chunki bir vaqtning o'zida bir nechta kurslarni olish mumkin bo'ladi, shu bilan birga u shartlar va mavjudlik tufayli ko'plab cheklolarga duch kelishi mumkin;

har qanday statik kurs ketma-ketligi optimal emas, chunki ular ta'lim oluvchining bilimi, tajribasi va faoliyatini o'rganish jarayonida rivojlanadi.

1-rasmda yuqorida qayd etilgan muammolarni hal qilish uchun avtomatlashtirilgan kurslar ketma-ketligini tavsiya qilish tizimini modelini taklif etib o'tganmiz.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rinda shuni ta'kidlab o'tishimiz lozimki, ta'lim jarayoniga zamonaviy raqamli

texnologiyalar, ayniqsa SInI tatbiq etish natijasida quyidagilarga erishiladi: o'quvchilar va talabalar bilimni baholashda shaffoflik, har bir o'quvchi uchun moslashtirilgan va shaxsiylashtirilgan ta'limni joriy etish, vaqt va xarajatlarning tejalishi natijasida ish samaradorligi oshiriladi, SI va katta ma'lumotlardan (Big Data) foydalanish orqali tez va to'g'ri qarorlar qabul qilinadi, aqlli raqamli kontentni yaratish, o'qituvchi va talabalar uchun virtual yordamchilarni yaratish, aqlli chatbotlar, statistik va tahliliy ma'lumotlarni avtomatik tayyorlash, yuzni tanib olish orqali harakatlarni boshqarish, ota-onalar uchun farzandlarini kunlik o'zlashtirish darajasini onlayn tahlil qilib borish, ta'lim jarayonini boshqarish va boshqa ko'plab samaradorliklarga erishish imkoniyatini yaratib beradi.

Demak, SI texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish nafaqat ta'lim oluvchi va beruvchilar uchun ko'plab afzalliklarni yaratib beradi, balli ta'lim sifat va samaradorligini oshirishga ham o'z hissasini qo'shadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "“Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079-sonli farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi "“2022 – 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-307-sonli farmoni.
3. M. Cardona, J. Rodríguez, K. Ishmael (2023). "Artificial Intelligence and the Future of Teaching and Learning". U.S. Department of Education, Office of Educational Technology. Washington, DC, 2023., Pp. 20-31.

4. J. Gardner, M. O'Leary, L. Yuan. (2020). "Artificial intelligence in educational assessment: 'Breakthrough? Or buncombe and ballyhoo?'" – Journal of Computer Assisted Learning, Volume 37 - 2021, DOI: 10.1111/jcal.12577, Pp. 1207-1216.
5. L. Yiping, M. Suying, W. Jinhua (2021). "Research and application of personalized learning under the background of artificial intelligence". International Conference on Education, Information Management and Service Science (EIMSS), DOI: 10.1109/EIMSS53851.2021, 16-18 July 2021, Pp. 224-233.



O‘DK: 98(915.2)

Sevara XASANOVA,

Prezident administratsiyasi huzuridagi Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi
O'quv-metodik komplekslarni ishlab chiqish va joriy etish boshqarmasi yetakchi mutaxassisi
E-mail: sevarax83@gmail.com

TDPU dotsenti., p.f.f.d. (PhD) D.Abdullayeva taqrizi ostida

THEORETICAL PRINCIPLES OF IMPROVING THE CONTENT OF NATURAL SCIENCE TEACHING IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS

Annotation

Currently, priority directions for the improvement of the world education sector have been determined, development of the content and scientific-methodical basis of training mature, highly qualified young people in all aspects, finding non-standard pedagogical solutions to the problems of the educational process, increasing the quality of education based on the motivation to master educational materials. scientific research works are being carried out. Also, the introduction of advanced foreign experiences into the educational processes of natural sciences, which have a great opportunity for the formation and development of creative thinking, practical skills in students, is of significant scientific importance. In this article, opinions on the introduction of natural sciences in secondary schools and the issues of improving the quality and efficiency of education are highlighted.

Key words: Educational system, educational efficiency, modern education, natural sciences, innovative technologies, foreign experiences, competence approach, natural-scientific literacy, basic and practical competencies.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СОДЕРЖАНИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ ЕСТЕСТВЕННОСТИ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Аннотация

В настоящее время определены приоритетные направления совершенствования мировой сферы образования, развития содержательной и научно-методической основы подготовки зрелой, высококвалифицированной молодежи во всех аспектах, поиска нестандартных педагогических решений проблем образовательного процесса повышение качества образования на основе мотивации к освоению учебных материалов, проводятся научно-исследовательские работы. Также важное научное значение имеет внедрение передового зарубежного опыта в образовательный процесс естествознания, который имеет большие возможности для формирования и развития творческого мышления, практических навыков у студентов. В данной статье освещены мнения о внедрении естественных наук в общеобразовательной школе и вопросах повышения качества и эффективности образования.

Ключевые слова: Образовательная система, эффективность образования, современное образование, естественные науки, инновационные технологии, зарубежный опыт, компетентностный подход, естественнонаучная грамотность, базовые и практические компетенции.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TABIIY FANLARNI O'QITISH MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Hozirgi kunda dunyo ta'lim sohasini takomillashtirishga doir ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan bo'lib, har tomonlama yetuk, yuqori malakali yoshlarni tayyorlashning mazmun va ilmiy-metodik bazasini rivojlantirish, o'quv-tarbiyaviy jarayon muammolarining nostandart pedagogik yechimlarini topish, o'quv materallarini o'zlashtirishga bo'lgan motivatsiya asosida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Shuningdek, o'quvchilarda kreativ tafakkur, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish uchun katta imkoniyatga ega bo'lgan tabiiy fanlar ta'limi jarayonlariga ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida Tabiiy fanlar fanini joriy etish hamda ta'limining sifat-samaradorligini oshirish masalalari bo'yicha fikr-mulohazalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim tizimi, ta'lim samaradorligi, zamonaviy ta'lim, Tabiiy fanlar, innovatsiyaon texnologiyalar, xorijiy tajribalar, kompetensiyaviy yondashuv, tabiiy-ilmiy savodxonlik, tayanch va amaliy kompetensiyalar.

Kirish. Jahon miqyosida tabiiy fanlar ta'limi jarayonlariga kompetensiyaviy yondashuvlar asosida eng ilg'or xorijiy tajribalar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini hamda ta'lim sifat-samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu sababli, Tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarning kreativ, ijodiy qobiliyatlarini, shuningdek amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, ta'limning nazariy-metodologik, uslubiy asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda xalqaro miqyosda Tabiiy fanlar ta'limining sifat-

samaradorligini oshirishda xalqaro tajribalar, innovatsion va axborot texnologiyalari, didaktik materiallarni tatdbiq etish mexanizmlarini zamonaviy rivojlanish tamoyillari asosida yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, mamlakatimizda ham ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uni zamon talablariga moslashtirish va yuqori samaradorlikka erishish maqsadida bir qancha islohatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchi ustuvor yo'nalishida

“ta’lim sifatini oshirishni nazarda tutuvchi milliy dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish; maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish” vazifalari belgilab qo’yilgan [1].

Shuningdek, Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “Xalq ta’limi sohasiga innovatsion loyihalarni joriy etish; o’qitish usullarini takomillashtirish, o’qituvchilar hamda maktab ma’muriyatini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va vositalari bilan ta’minlash; ta’lim-tarbiya jarayoniga



individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tadbiq etish, muqobil yondashuvlarni o’rganishga va ilmiy asoslashga yo’naltirilgan amaliy xarakterdagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirish” [2] kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Tabiiy fanlarning taraqqiyot tarixiga to’xtaladigan bo’lsak, uning asosini qadimgi Gretsiyada siyosiy arbobi Fales yaratgan. Shuningdek, Aristotel, Empedokl, Evklid, Ptolemey, Teofrast kabi buyuk allomalar bu fanni rivojlanishiga katta hissa qo’shganlar. XV asrda Mirzo Ulug’bek, Qozizoda Rumiy, Jamshid al-Koshiy va Ali Qushchi kabu olimlar barcha fanlar qatori Tabiiy fanlarning rivojiga kata xissa qo’hganlar.

Alisher Navoiy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg’oni, Abu Nasr al-Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Nasriddin Tusiy kabi buyuk mutafakkir-olimlar o’z davrida tabiiy fanlar bo’yicha ko’pgina ilmiy yamgiriklar yaratganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda ilm-fan va texnikaning jadal taraqqiy etishi, raqamli iqtisodiyotning amaliyotga joriy etilishi xalq ta’limi yo’nalishida ham ulkan islohotlarni amalga oshirish talabini qo’ymoqda. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 avgustdagi “Kimyo va

biologiya ta’lim yo’nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4805-son Qarorining [3] 5-ilovasi “2020-2025 yillarda kimyo va biologiya yo’nalishida uzluksiz ta’lim sifatini hamda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqotlar va innovatsiya ishlari natijadorligini oshirish bo’yicha maqsadli dastur”ning 6-bandida 1-6 sinflarda atrofimizdagi olam, tabiatshunoslik, geografiya, biologiya, fizika fanlari o’rniga Tabiiy fan (SCIENCE)ni yagona fan sifatida tajriba-sinov tariqasida o’qitishni bosqichma-bosqich joriy etish masalalari ko’rib chiqildi hamda bu bo’yicha quyidagi vazifalar belgilandi:

Milliy o’quv dasturi va o’quv rejaga tegishli o’zgartirishlar kiritish.

Tabiiy fan uchun darsliklarni yaratish guruhini shakllantirish.

Tabiiy fan uchun darsliklar yaratish.

O’qituvchilarning yagona fan bo’yichabilimlarini hamda uslubiy ko’nikmalarini yaxshilash bo’yicha bo’yicha malakasini oshirish.

Tabiiy fanlarni 2021-2022 o’quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3931-son Qarori [4] bilan tasdiqlangan “2018-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini yanada takomillashtirish bo’yicha chora-tadbirlari dasturi”ning II bo’lim, 11-bandida: Umumiy o’rta ta’limning yangi davlat ta’lim standartlari va o’quv dasturlarini takomillashtirish va shu bilan birga STEAM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) metodlarini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish belgilab berilgan.

Bu borada mamlakatimizda, xususan, Tabiiy fanlar fanidan Milliy o’quv dasturini ishlab chiqishda mamlakatimizning olimlari, pedagoglar va metodistlar tomonidan Singapur, Koreya Respublikasi, AQSh va Yaponiya kabi rivojlangan davlatlarning ilg’or tajribalari o’rganildi hamda Angliya, AQSh, Estoniya, Latviya davlatlarining hamda UNICEF tashkiloti ekspertlari bilan hamkorlikda ish olib borildi. O’rganilgan tajribalar va amaldagi o’quv-me’yoriy hujjatlarining tanqidiy va qiyosiy tahlillari, amaliy-ilmiy tadqiqotlar natijalari, shuningdek, xalqaro ekspertlar, mahalliy yetakchi olimlar, amaliyotchi o’qituvchilar va metodistlar tomonidan bildirilgan fikr mulohazalar, takliflari va tavsiyalari asosida umumiy o’rta ta’limning Milliy o’quv dasturi (MO’D) ishlab chiqildi (1-rasm).

1-rasm. Milliy o’quv dasturining afzalliklari



Manbalar va metodlar. “Tabiiy fanlar” o’z ichiga biologiya, geografiya, fizika, kimyo o’quv predmetlarini qamrab oladi hamda ularning o’zaro aloqadorligini ta’minlaydi. Jonli va jonsiz tabiatda ro’y berayotgan hodisa va jarayonlarning mohiyati, sabablari va o’zaro bog’liqligi, tabiatning rivojlanish

bosqichlari, jumladan, tirik organizmlarning rivojlanish evolyusiyasi, zamonaviy texnika va texnologiyaning tabiiy-ilmiy asoslari, tabiat va jamiyatning o’zaro aloqadorligi va ta’siri, tabiiy resurslardan tejamkorlik bilan foydalanishning ilmiy asoslari, sog’lom turmush tarzining mohiyati va

ahamiyati haqida nazariy hamda amaliy bilimlar tizimini tarkibtoptirishda "Tabiiy fanlar" fanining o'qitilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchi paydo bo'lgan ichki motiv unda tabiiy fanlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishi orqali tabiiy va ijtimoiy muhit holatini tushunib borishi, atrof-muhit va insoniyat muammolarini anglashiga, ularning yechimini topishda qarorlarni qabul qila olishida muhim o'rin egallaydi. Shuningdek, tabiiy fanlarni o'rganishda o'quvchilar olamning yaxlit, ajralmas, bir butunligini anglaydi, ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi, tadqiqotchilik ko'nikmalari rivojlanadi, kompetentligi shakllanadi [5].

Tabiiy fanlardan milliy o'quv dasturini yaratishda rivojlangan davlatlarning (Finlandiya, Singapur, Yaponiya, Buyuk Britaniya, AQSh, Rossiya, Belorussiya) tajribalari mutaxassislar va amaliyotchi o'qituvchilar tomonidan o'rganildi va tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Tabiiy fanlarni o'qitish natijasida o'quvchilarda egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalari rivojlanadi. Shuningdek, ularda quyidagi kompetensiyalar shakllanadi:

Ilmiy savodxonlik kompetensiyasi. nazariy bilimlar asosida turli tabiiy obyektlar, hodisa va jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini biladi, tasavvur qiladi va mohiyatini tushunadi;

kundalik hayotda kuzatadigan tabiiy hodisa va jarayonlarni tabiiy fanlarga oid atamalar, tushunchalar hamda umumiy qonuniyatlarini olgan bilim, ko'nikma va malakalariga tayanib tushuntiradi, amalda qo'llaydi;

turli axborot manbalarida berilgan ma'lumotlarni tahlil qiladi, saralaydi, ulardan ta'limiy maqsadlarda foydalanadi va muloqot jarayonida bildirilgan fikrlarni tushunadi, mustaqil va ijodiy fikrlaydi;

jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo'ladi hamda o'z faoliyatini kreativ rivojlantira oladi;

salomatlik va sog'lom turmush tarzining nazariy hamda amaliy asoslarini biladi.

turli tadqiqotlarni rejalashtiradi, loyihalashtiradi, amalga oshirish usullarini taklif etadi.

Amaliy kompetensiya. Tabiiy fanlardan egallagan bilim, ko'nikma va malakalaridan shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida vujudga keladigan muammolarni hal etishda qo'llay oladi;

tabiiy fanlarga oid tadqiqotlarni amalga oshirish usullaridan foydalanadi;

hodisalarni kuzatadi, taqdimotlar, tajribalar o'tkazadi va zaruriy kattaliklarni asboblari (sekundomer, tarozi, o'lchov tasmasi, termometr va h.k) yordamida o'lchaydi, hisoblash ishlarini bajaradi;

turli jihozlarni ishlatishda xavfsizlik qoidalariga rioya qiladi va oqilona foydalanadi;

Turmush sharoiti va yashash hududining tabiiy rivojlanishiga amaliy ko'nikmalarini safarbar etadi;

atrof muhit va ekologiyaga salbiy ta'sir etuvchi omillarni bartaraf etadi hamda asraydi va o'z faoliyatida sog'lom turmush tarziga amal qiladi;

kundalik faoliyatida ijodiy va mantiqiy fikrlab, o'zining intellektual rivojlanishini ongli rejalashtiradi, o'quv faoliyati natijalarini nazorat qiladi va baholaydi.

Tayanch kompetensiyalar. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilab berilgan. Tabiiy va iqtisodiy fanlar bloki yo'nalishidagi fanlari orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish ular o'zlashtirgan bilimlari asosida egallagan ko'nikma va malakalarini turli vaziyatlarda qo'llay olishga qaratilishi maqsadga muvofiq.

Jumladan, davlat tili va horijiy tillarni o'zlashtirishda mustaqil, yozma va og'zaki ravon bayon etish malakalarini shakllantirishda tabiiy va iqtisodiy fanlarga oid atamalarni to'g'ri talaffuz qilish, izohlab berish hamda erkin muloqot qilishga o'rgatish orqali o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalar shakllantiriladi.

Fanlarni o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish orqali o'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasi shakllantiriladi. Bunda o'quvchilarni fanga oid axborotlarni turli manbalardan izlash, axborot xavfsizligiga rioya qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda mobil qurilma (telefon, planshet va boshqa gadjetlar)lardan foydalanish tavsiya etiladi.

O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishda umuminsoniy fazilatlariga ega bo'lish, Vatanni sevisish, huquqiy, iqtisodiy bilimlarga ega bo'lish, yangiliklarga intilish va o'zlashtirgan nazariy bilimlari asosida mustaqil qaror qabul qilishga, jamiyatda ro'y berayotgan progressiv va innovatsion o'zgarishlardan xabardor bo'lish hamda ulardan kundalik hayotda foydalana olishga o'rgatish zarur.

Ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishda fuqarolik burch, ijtimoiy va siyosiy rivojlanish, favqulodda vaziyatlar, ekologik muammolar haqida bilimlarga ega bo'lish hamda badiiy va san'at asarlarini tushunish hamda ularni asrashda tashkilotchilik xislatlarini rivojlantirishdan iborat [6].

Xalq ta'limi vazirining 2021-yil 24-sentyabrdagi "Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturini tajribasinovaldan o'tkazish to'g'risida"gi 310-sonli buyrug'i asosida tajriba-sinovaldan o'tkazildi va unga ko'ra:

Shakllar, tartib va tashkil etilishi.

Ilm-fanning muhim jihati - bu bizni o'rab turgan dunyodagi naqshlarni tan olish, hodisalarni turli miqyosda tartibga solish va tashkillantirish.

Shakl va funktsiya.

Ilm-fanning ko'p jihatlarini shakl (obyekt yoki organizmning o'ziga xos xususiyati yoki tuzilishi) va funktsiyasi (bu jihatdan foydalanish) o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq.

Barqarorlik va o'zgarish.

Fanning ko'p sohalarini barqarorlik va o'zgarishlarni tan olish, ta'riflash va ularni bashorat qilishni o'z ichiga oladi. Maktabda o'qishning dastlabki bosqichida o'quvchilar atrofidagi dunyoni kuzatishlarida ba'zi xususiyatlar va hodisalar vaqt o'tishi bilan barqaror yoki doimiy bo'lib qolishini, boshqalari esa o'zgarishini tan olishadi.

Masshtab va o'lchash.

Vaqt va makon o'lchovlarining o'lchami ilm-fanning rivojlanishi uchun juda muhim, chunki u kuzatuvlarni solishtirishga imkon beradi.

Materiya va energiya.

Ilm-fanning ko'p jihatlarini energiya va materiyani uzatilishini aniqlash, tavsiflash va o'lchashni o'z ichiga oladi. O'quvchilar hodisalarni materiya va energiya oqimi nuqtai nazaridan tushuntirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tizimlar.

Ilm hodisalar va fenomenlarni tushunish, tushuntirish va bashorat qilish uchun ko'p holatlarda tizimlar nuqtayi nazaridan fikrlashni, modellashtirishni va tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Insonlar qadim zamondan tabiatga, undagi hodisalarga qiziqish bilan qarashgan. Tarixiy manablarning guvohlik berishicha ibtidoiy jamoa davrida ham ular oddiy tabiiy hodisalarni yaxshi anglashgan [7]. 2000 yillik rivojlanish tarixiga ega bo'lgan bu fan elementlari qadimiy Misr, Xitoy, Movarounnahr, Hindiston singari mamlakatlarda vujudga kelgan bo'lsada, u o'z xususiyatiga ko'ra keskin qarama-

qarshiliklarga uchragan va uning taraqqiy topishi uchun bir butun mifologik sistemalarni parchalanishiga sabab bo'lgan. Zero, tabiiy fanlar bir necha ming yillik tarixi davomida insoniyat hayotida katta ahamiyat kasb etgan[8].

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, globallashuv jarayonlari kuchaygan bir davrda

o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasini oshirish zamon talabi hisoblanadi [9].

Bugungi kunda o'quvchi-yoshlarimizni kelajakda har tomonlama yetuk, keng fikrli, denyoqarashga ega, rivojlangan mamlakatlar yoshlari bilan tenglasha oladigan insonlar bo'lib yetishishlari uchun bor imkoniyatlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 avgustdagi "Kimyo va biologiya ta'lim yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4805-son Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-son Qarori.
5. Горелов А.А. Концепции современного естествознания. Москва, 1999 г.
6. Kalandar Saparov., Uktam Asallaev. Use of electronic textbooks in optimizing processes of zoology education (bird class). Elsevier Scopus. Published: 2023-12-28
7. Hamdamov I.H. va boshqalar. Табиий фанлар zamonaviy konsepsiyasi. Toshkent, 2007 y.
8. D.Sharipova, D.Xodiyeva, M.Shirinov "Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi" darslik. 2018 yil.
9. K.A.Saparov., S.G'.Xasanova. Organizing sciences in universal schools on the basis of innovative approaches. American Journal of Interdisciplinary Research and Development. Volume 23, December, 2023.
10. Sangirova Z. [va boshq.] Tabiiy fanlar: 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.



UDK:304

Рашида ХАТАМОВА,
Научный сотрудник Наманганского государственного университета
E-mail: hatomova.rashida@nuu.com

П.ф.д. под рецензией друга Р.Рамиловой

КУЛЬТУРА ПАТРИОТИЗМА У СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ В СВЕТЕ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА НА 2022-2026 ГОДЫ

Аннотация

В данной статье анализируется феномен патриотизма у студенческой молодежи в свете Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы. Рассматривается современное понимание культуры патриотизма молодым поколением-студенчеством в Республике Узбекистан. Освещается место патриотизма в жизни современной молодежи, где патриотизм выступает в качестве нравственного принципа, под которым понимается глубокая идейная убежденность, высочайшая гражданская ответственность за судьбу и будущее страны. Традиционно с понятием культуры патриотизма тесно связана историческая память и гражданская идентичность студенческой молодежи.

Ключевые слова: Патриотизм, новый Узбекистан, Родина, студенчество, гражданская позиция, патриотизм студента, современная молодежь, патриотическое воспитание, историческая память, молодежная политика, единство, сплоченность.

2022-2026-YILLARDA YANGI O‘ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI ASOSIDA TALABALAR O‘RTASIDA VATANPARVARLIK MADANIYATINI OSHIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada 2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi nuqtai nazaridan talabalar o‘rtasida vatanparvarlik hodisasi tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasida yosh avlod talabalarining vatanparvarlik madaniyati haqidagi zamonaviy tushunchalari ko‘rib chiqiladi. Vatanparvarlikning zamonaviy yoshlar hayotida tutgan o‘rni ta’kidlab o‘tilgan, bu yerda vatanparvarlik ma’naviy-axloqiy tamoyil bo‘lib xizmat qilishi, bu chuqur mafkuraviy ishonch, mamlakat taqdiri va kelajagi uchun oliy fuqarolik mas’uliyatini bildiradi. An’anaga ko‘ra vatanparvarlik madaniyati tushunchasi talaba yoshlarning tarixiy xotirasi va fuqarolik o‘ziga xosligi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Kalit so‘zlar: Vatanparvarlik, yangi O‘zbekiston, Vatan, talabalar, fuqarolik pozitsiyasi, talabalar vatanparvarligi, zamonaviy yoshlar, vatanparvarlik tarbiyasi, tarixiy xotira, yoshlar siyosati, birlik, ahillik.

THE CULTURE OF PATRIOTISM AMONG STUDENTS IN THE LIGHT OF THE DEVELOPMENT STRATEGY OF NEW UZBEKISTAN FOR 2022-2026

Annotation

This article analyzes the phenomenon of patriotism among students in the light of the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026. The modern understanding of the culture of patriotism by the younger generation of students in the Republic of Uzbekistan is considered. The place of patriotism in the life of modern youth is highlighted, where patriotism acts as a moral principle, which means deep ideological conviction, the highest civic responsibility for the fate and future of the country. Traditionally, the concept of a culture of patriotism is closely connected with the historical memory and civic identity of student youth.

Key words: Patriotism, new Uzbekistan, Motherland, students, civic position, student patriotism, modern youth, patriotic education, historical memory, youth policy, unity, cohesion

Введение. В условиях современного Узбекистана проблема патриотического воспитания молодежи продолжает оставаться приоритетным направлением в государственной и образовательной политике. Президент Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёев отметил, что в целях совершенствования образовательно-воспитательной системы мы должны всесторонне развивать национальную идею и ее идеологические основы исходя из принципа «От национального возрождения – к национальному прогрессу»[1]. В правительственных нормативно-правовых документах (закон «Об образовании в Республике Узбекистан» от 23 сентября 2020 г. № ЗРУ-637; «Об основах государственной молодежной политики в Республике Узбекистан» от 14 сентября 2016 г. № ЗРУ-406; постановление Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по совершенствованию системы военно-патриотического

воспитания юношей и подготовки кадрового резерва для вооруженных сил Республики Узбекистан и государственной службы» от 28 июня 2019 г. № ПП-4375) отмечается, что коренные преобразования в нашей стране обуславливают актуальность дальнейшего развития государственной молодежной политики, направленную на поддержку молодого поколения.

Методология исследования. Также в рамках Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах был принят новый Закон «О государственной молодежной политике», а 30 июня 2020-го - Указ Президента «О мерах по коренному реформированию и поднятию на новый уровень государственной молодежной политики в Республике Узбекистан»[2].

Согласно указанным выше документам, воспитание патриотизма у студенческой молодежи

является важным этапом их личностного становления. Основным звеном становления личности, направленным на формирование ее патриотических качеств, выступает патриотическое воспитание. Согласно Концепции военно-патриотического воспитания молодежи Республики Узбекистан, под термином «патриотическое воспитание» понимается систематическая и целенаправленная деятельность органов государственной власти и общественных организаций по формированию у молодежи патриотических чувств по защите и прославлению Родины, преданности и готовности к исполнению своего гражданского долга и конституционной обязанности по защите общественных и государственных интересов [3].

Глубокая идейная убежденность, высочайшая гражданская ответственность за судьбу и будущее страны, моральная чистота – эти требования сегодня с особой остротой предъявляются каждому человеку, особенно молодежи. Таким образом, без преувеличения можно сказать, что формирование патриотизма и гражданской культуры есть залог построения гражданского общества и правового государства в Узбекистане. Реформы, проводимые в Узбекистане, требуют действенного участия личности в делах государства и общества, умения брать на себя ответственность, проявлять самоотверженность. Жить и работать для блага народа, людей – это жизненное кредо креативной личности. Возрастание роли и значения социальной креативности, активности, патриотизма и героизма является объективной потребностью, закономерным процессом. Сегодня Республика Узбекистан уверенно продвигается вперед на всех направлениях социально-политического, экономического и духовного развития благодаря социальной активности, самоотверженности, патриотизму и героическим усилиям нашего народа. Политика нашего государства ориентирована на то, чтобы каждый человек внёс свой весомый вклад в укрепление независимости, в процветание Родины, проявление патриотизма и героизма в искоренении таких негативных явлений, как эгоизм, вымогательство, коррупция, бездушие и беззаконие.

В связи с этим, сегодня в Узбекистане происходит возрастание значимости патриотизма, как объединяющая сила основы общества. Это обусловлено тем, что именно патриотическое сознание человека является фактором его гражданской позиции и социальной активности.

Актуальность воспитания патриотизма среди студенческой молодежи обусловлена возвышенным уровнем ее интеллектуального потенциала и социальной активностью.

На современном этапе, в Республике Узбекистан уделяется большое внимание патриотическому воспитанию студенческой молодежи. Основная цель патриотического воспитания заключается в ориентации студентов на значимости национальной культуры, формирования у них созидательного отношения к Родине, ее культурно-историческому наследию.

По мнению доктора философских наук, профессора И. Саифназарова, культура патриотизма непосредственно связана с национальной идеей и выражает интересы узбекского народа. Диалектическое единство национальной идеи и интересы узбекского народа в синтезированном виде проявляется в патриотизме, то есть в беззаветной любви к своему народу и своей Родине. Но этот патриотизм тесно переплетается с общечеловеческими ценностями [4; С.12]. Значит, патриотизм выражает не только национальные, но и общечеловеческие интересы, т.е. способствует тому, что умножает добро, укрепляет взаимопонимание, дружбу

между народами, защищает справедливость, мир и прогресс. В таком широком понимании роль и значение патриотизма приводит нас к выводу, что воспитание патриотизма – это и воспитание у молодежи общечеловеческих качеств. Но эти качества всегда и везде проявляются через отношение к конкретной стране и конкретному народу. Студенческая молодежь нашей страны свои общечеловеческие качества может продемонстрировать через свою любовь к Республике Узбекистан, ее народу, истории, национальным героям.

Независимость создает реальные предпосылки для патриотического воспитания молодежи, но не меньшее значение имеет стремление личности к самовыражению, самореализации и самораскрытию. Насколько бы ни был организован и целенаправлен воспитательный процесс, педагогическое воздействие по патриотическому воспитанию, они без инициативы личности, без ее стремления к самореализации не дают нужных результатов. Значит, патриотическое воспитание должно быть направлено, прежде всего, на побуждение человека к самореализации [5].

По определению Б. Рубина, Ю. Колесникова: «Студенчество – это мобильная социальная группа, целью существования которой является организованная по определенной программе подготовка к выполнению высоких профессиональных и социальных ролей в материальном и духовном производстве» [6]. В данном определении выделяется особая деятельность по получению современными студентами специального профессионального образования. Действительно, во все времена для студентов основным видом деятельности являлась приобретение тех знаний, умений, которые позволяли им в будущем стать отличными специалистами, руководителями, новаторами и создателями новой техники.

Конечно, не сфера деятельности определяет проявление патриотизма, а направленность духовно-нравственных поступков личности, её стремление служить интересам своего народа, своей Родины. Но часть студентов считает, что сфера деятельности создаёт необходимые условия и формирует социальные качества для реализации личностью своих физических, духовных и интеллектуальных сил.

Студенческая молодежь свой патриотизм проявляет также и в отношении к армии, к освоению военных специальностей. Совершенствование культуры патриотизма студента зависит от того насколько целесообразно студенты выбирают будущую профессию, насколько эффективно осваивают ее, в какой степени они соотносят свое будущее с профессионально-трудовой деятельностью на благо своей Родины. Среди этих его стремлений важное место занимают следующие: быть полезным обществу и своей Родине, родным и близким, путем самоактуализации непрерывно и самоотверженно трудиться, создавать новое, неординарное, проявлять мужество, подвиги и героизм. В связи с этим возникает проблема соединения гуманного воспитания с патриотическим.

В основе патриотизма лежит направленность социального поступка, которая проявляется в повседневных практических делах личности. Патриот хорошо знает, куда и ради чего направляет свои действия, поступки. Некоторые исследователи направленность рассматривают как духовно-нравственную характеристику социально-исторической деятельности личности, ее мировоззрения [7]. Действительно, без такой синтезирующей направленности личность не может видеть историческую перспективу своей социально-

креативной деятельности. Поэтому патриотизм не может быть результатом сиюминутных мотивов, побуждений и эмоций, он является выражением социального бытия человека, свободно выбранной им видом и формой активности. Патриотизм проявляется не только в исключительных, героических поступках, но и в повседневном труде, в непрерывном научном и креативном поиске, в процессе педагогической работы или возведения дорог, домов, общественных зданий.

Обучения в вузах это и есть результат учебы, занятием физической культурой, искусством студенты могут повышать авторитет своей Родины, поднять ее на мировой уровень. Так, например, участвуя в международных соревнованиях по математике, спортивных состязаниях на студенческих Олимпиадах, художественных конкурсах студенты получают возможность показать высокие преимущества высшего образования. Как отметил Президент Шавкат Мирзиёев: «Наша главная цель – построить новый Узбекистан. И мы хорошо понимаем, что это невозможно без молодежи. Обеспечение прав и интересов молодых людей, воспитание их самоотверженными, преданными сыновьями и дочерьми своей Родины и народа имеет решающее значение» [1].

Действующая сторона заключается в том, что возросла самостоятельность самого выбора организации учебной, осознанной деятельностью студента. Они могут одновременно учиться и работать. Неблагоприятные стороны проявляются в том, что не все студенты способны разобраться в многообразии тех ценностей, которые предлагает современная культура. В связи с этим

возникают особенности совершенствования культуры патриотизма у студенческой молодежи. Она, во-первых, может проявляться в опосредованной форме, в виде отношения к учебе как условия подготовки себя к активному участию в будущем в умножении экономического, политического авторитета страны, в повышении ее международного авторитета, в усилении обороноспособности государства.

Правительством Республики Узбекистан также принята Концепция развития государственной молодежной политики в Узбекистане до 2025 года и «дорожная карта» по реализации данной концепции в 2021-2022 годах. При Законодательной палате Олий Мажлиса создана Комиссия по вопросам молодежи. Для поощрения молодых людей, добившихся высоких результатов в разных сферах, учреждены Государственная премия «Мард углон» и медаль «Келажак бунёдкори» [2].

Элементом проявления культуры патриотизма у студенческой молодежи должна быть высокая заинтересованность в приобретении глубоких профессиональных знаний, если они намерены в будущем их использовать для дальнейшего экономического роста страны. Наша студенческая молодежь в своем национальном самосознании на первое место отводит к уважительному отношению к историческому и культурному наследию, к национальным героям, чувству гордости за великих предков. Положительно оценивают роль и значение национальной идеи в патриотическом воспитании человека, формировании у него чувства ответственности, общественного долга и уважения к героическим традициям узбекского народа.

ЛИТЕРАТУРА

1. Мирзиёев Ш.М. От национального возрождения – к национальному прогрессу. – Ташкент - «Узбекистан», Т.4, 2020.
2. <https://yuz.uz/ru/news/molodej---monaya-sila-sposobnaya-na-velikie-dela>
3. https://www.norma.uz/novoe_v_zakonodatelstve/pravitelstvo_utverdilo_koncepciyu_voenno-patrioticheskogo_vospitaniya_molodeji
4. Саифназаров И. Ватанпарварликнинг миллий ва умуминсоний жиҳатлари. – Тошкент: Меҳнат, 1997.
5. Очилдиев А. Миллий фазилатларимиз. Ватанпарварлик. – Тошкент: Мухаррир, 2008.
6. Рубин Б.С., Колесников, Ю.В. Студент глазами социолога / Б.Рубин, Ю.Колесников.- Ростов на Дону, 1968.
7. Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. – Тошкент: Маънавият, 2008.

Quvonchbek XOLBOZOROV,

O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktranti

International school of finance technology and science instituti katta o'qituvchisi

E-mail: x.quvonch92@gmail.com

TMI dotsenti, PhD., A.Sotvoldiyev. taqrizi asosida

ON THE EFFICIENCY OF EXPERIMENTAL WORKS CARRIED OUT IN SOME HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Annotation

In this work, experimental work on improving the knowledge of future economists based on an innovative approach was organized and conducted. Information on the effectiveness of training economists using the "GeoGebra" program is presented.

Key words: GeoGebra, innovation, maple, wolfram mathematica, maple, matlab, percentage.

ОБ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫХ РАБОТ, ПРОВЕДЕННЫХ В НЕКОТОРЫХ ВУЗАХ

Аннотация

В данной работе была организована и проведена экспериментальная работа по совершенствованию знаний будущих экономистов на основе инновационного подхода. Представлена информация об эффективности обучения экономистов по программе «GeoGebra».

Ключевые слова: GeoGebra, инновации, клен, вольфрам математика, клен, Matlab, процент.

BA'ZI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'TKAZILGAN TAJRIBA-SINOV ISHLARINI SAMARADORLIGI HAQIDA

Annotatsiya

Mazkur ishda bo'lajak iqtisodchilarning bilimini innovatsion yondashuv asosida takomillashtirish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazilgan. Iqtisodchilarni "GeoGebra" dasturi yordamida o'qitish samaradorligi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: GeoGebra, innovatsiya, maple, wolfram mathematica, maple, matlab, foiz.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 oktyabrda PF-6079-sonli "“Raqamli O'zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni Respublikada ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining jadal raqamli rivojlanishini ta'minlash, shu jumladan elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan[1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida qabul qilingan[2]. Mazkur tadqiqot ishida bo'lajak iqtisodchilarning bilimini innovatsion yondashuv asosida takomillashtirish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etish uchun avvalo tajriba maydonlari tanlanib, ularda o'qitishning moddiy texnik bazasi o'rganildi. Tajriba-sinov ishlari 2018-2023 yillarda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Farg'ona politexnika instituti, Toshkent moliya instituti va "International school of finance technology and science" instituti iqtisodiyot ta'lim yo'nalishlaridan jami 672 nafar talaba ishtirok etdi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari uchta bosqichlarda amalga oshirildi.

- **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ta'lim tizimiga axborot-kommunikatsiya va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishning nazariy va amaliy asoslari, innovatsion jarayonlar tamoyillari, qonuniyatlari bo'yicha A.A.Abdugodirov, M.M.Aripov, M.H.Lutfullayev, R.H.Jo'rayev, B.Ziyomuhamedov, R.A.Mavlonova, N.Toyloqov, O'.Tolipov, N.Sayidahmedov, M.Ergashov, U.Yuldashev, B.S.Abdullayeva, F.M.Zakirova,

N.A.Muslimov, J.A.Tolipova, D.Yunusova, M.X.Allamberganova[8] kabi olimlarning ilmiy ishlarida muayyan darajada o'rganilgan bo'lib, matematikani o'qitishning metodologik asoslarini yaratish, iqtisodchining kasbiy-pedagogik, metodik tayyorgarligi va kasbiy-pedagogik rivojlantirish masalalari yoritib berilgan. Xorijiy olimlardan matematikani o'qitishning axborotlashgan tizimlarini yaratish va joriy etish masalalari J.Gilbert, J.DeRuiter, R.E.Maeder, J.W.Gray, M.L.Dejong, M.Trott, R.J.Gaylord, A. W. Bargeil[7]larning ishlarida ochib berilgan. Mazkur ilmiy izlanishlarda pedagog kadrlarni tayyorgarligining turli jihatlari, ya'ni innovatsion va pedagogik faoliyatga tayyorgarligi, ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari, innovatsion muhitni tashkil etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

- **Tadqiqot metodologiyasi.** Pedagogik tajriba-sinov ishlari uchta ya'ni aniqlovchi, shakllantiruvchi va umumlashtiruvchi bosqichlarda amalga oshirildi.

Aniqlovchi bosqich (2018-2021 o'quv yillari)-bo'lajak iqtisodchini kasbiy tayyorgarligining mazmuni takomillashtirishda kompyuterli matematik tizimlardan foydalanishning mavjud tayyorgarlik darajasini ko'rsatuvchi bosqich. Bunda tadqiqot muammosining maqsadi, vazifalari va obektlari aniqlanib, ushbu muammoning ilmiy-uslubiy jihatlari, matematik fanlar mazmunining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida yoritilish xolatlari, bo'lajak iqtisodchining kasbiy tayyorgarlik mazmunida innovatsion yondashuvdan foydalanish imkoniyatlari va unga mos ko'rsatkichlar tahlil qilindi[10]. Matematik fanlar mazmunini takomillashtiruvchi innovatsion yondashuv vositalari aniqlandi, uning ishchi farazlari ishlab chiqildi. Innovatsion yondashuv vositalaridan foydalanishga qo'ygan talablari aniqlandi. Bo'lajak iqtisodchini kasbiy tayyorligining mazmunini o'zlashtirishda kompyuterli matematik tizimlardan foydalanishning nazariy, amaliy va metodik asoslari o'rganildi va tahlil qilindi.

Shakllantiruvchi bosqich (2019-2022 o'quv yillari)-bo'lajak iqtisodchini kasbiy tayyorgarligining mazmunini

takomillashtirishda kompyuterli matematik tizimlardan foydalanishning vositali majmuasini yaratishning mujassamlashtirgan bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichda bo'lajak iqtisodchining kasbiy tayyorgarlik mazmunining pedagogik-psixologik asoslari tahlili yordamida interativ yondashuvlar vositasi sifatida didaktik materiallar, kompyuterli matematik tizimlardan foydalanish jarayoni mazmuni, bosqichlari, vositalari shakllantirildi va bu jarayonning metodik tizimi ishlab chiqildi. Bo'lajak iqtisodchini kasbiy tayyorligining mazmunini takomillashtirishda kompyuterli matematik tizimlardan foydalanib, o'qitishning elektron uslubiy majmuasi yaratildi. Kompyuterli matematik tizimlardan foydalanishning nazariy, amaliy va metodik asoslari yaratildi.

Umumlashtiruvchi bosqich (2022-2023 o'quv yillari) - tajriba-sinov natijalari va bo'lajak iqtisodchini kasbiy tayyorgarligining mazmuni takomillashtirishda yaratilgan kompyuterli matematik tizimlardan foydalanishning muvaffaqiyatli o'zlashtirishi bo'yicha metodik, mazmuniy, natijaviy ko'rsatmalarni ishlab chiqish. Bo'lajak iqtisodchining kasbiy tayyorgarligi mazmuni takomillashtirilganlik darajasini baholash ko'rsatkich va mezonlari asosida tajriba-sinov ishlarida sinab ko'ridi. Olingan natijalar matematik statistika usullari orqali tahlil qilindi.

Aniqlovchi bosqichda bo'lajak iqtisodchini kasbiy tayyorgarligini aniqlash uchun kompyuterli matematik tizimlardan foydalanish holatini o'rganish maqsadida Toshkent moliya instituti (TMI), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (TDIU), Farg'ona politexnika instituti (FPI) va "International school of finance technology and science" instituti (ISFT)larining majburiy fanlari bo'yicha dars berayotgan professor-o'qituvchilar va ushbu ta'lim muassasalari bir qancha ta'lim yo'nalishlari birinchi hamda ikkinchi bosqich talabalari ishtirok etdilar. Ishlab chiqilgan anketa savollari 2 ta guruhlashtirilgan holda tuzildi. Birinchi guruh anketa savollari o'qituvchilarning o'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishi va ularning kompyuter savodxonligi bo'yicha tuzilgan. Ikkinchi guruh savollari esa, bevosita dars jarayonlarida kompyuterli matematik tizimlardan foydalanish holati bo'yicha savollardan tashkil topgan. Ushbu savollarning javoblarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'qitish samaradorligini oshiruvchi vosita sifatida foydalanishi mumkinligini 100% o'qituvchilar ta'kidlagan bo'lsa, matematik fanlarni o'qitishda qo'llash afzalligi va qo'llashdagi qiyinchiliklar tug'ilishi haqidagi savollarga 87% o'qituvchilar qo'llash imkoniyatlarini to'g'ri ta'riflab bera olganlar. 42% o'qituvchilar esa, qiyinchiliklar holati mavjudligini tan olishganlar. Kompyuter savodxonligiga egamisiz? degan savollarga faqat 76% o'qituvchilar kompyuter dasturlarida ishlay olishini, 24% esa, faqat ofis dasturlarida ishlaganligini ta'kidlashdilar. "Kompyuterli matematik tizimlarga kiruvchi dasturlarni ko'rsating"-degan savolga 68% o'qituvchilar faqat Excel dasturini ko'rsatgan bo'lsalar, 14% o'qituvchilar esa, Wolfram Mathematica, Maple, MatLab, GeoGebra dasturlarini ham ko'rsatganlar. Ushbu javoblar tahlilidan, kompyuterli matematik tizimlardan foydalanishda qiyinchiliklar majjudligi va ulardan o'qitishda foydalanishi uchun uslubiy qo'llanmalarining yetarli emasligi, dasturiy ta'minotning yo'qligi dars jarayonlarini samarali tashkil etishga qiluvchi holatlar mavjud degan xulosaga kelindi. Ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida GeoGebradan darslik yaratildi va undan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Shuning uchun, har bir ta'lim muassasasida ushbu dasturda ishlay oluvchi professor-o'qituvchilar tanlab olindi.

Tajriba sinov ishlaridagi tajriba va nazorat guruhlaridagi talabalarining bilim darajalari (yuqori, yaxshi,

o'rta va past)ni aniqlovchi baholash mezonini ishlab chiqildi. Tajriba-sinov samaradorligini belgilovchi yozma ish topshiriqlari, test-sinov topshiriqlari ishlab chiqildi va natijalar olindi.

Ilmiy tadqiqot ishlarining muvaffaqiyati nazariy g'oyalarning amaliy faoliyatdagi samaradorlik darajasi bilan belgilanadi[3]. Shuning uchun, ushbu tadqiqot ishida tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasini ishlab chiqish, samarali yo'llari, metod hamda vositalarini aniqlash, tajriba-sinov bosqichlarini belgilash va ular o'rtasida izchillik hamda uzviylikning qaror topishini ta'minlash muhim vaziflardan biridir.

Pedagogik tadqiqotlarda faraz sifatida nazorat guruhlarida olib borilgan an'anaviy metodika asosida olingan natijalar tajriba guruhlarida olib borilgan maxsus (matematik fanlar mazmunini innovatsion yondashuv asosida takomillashtirilgan) metodika asosida olingan natijalar bilan taqqoslanib, tajriba guruhlaridagi olingan natijalarning samarali ekanligi ko'rsatiladi. Shuning uchun ham, biz tajriba-sinov ishlariga tanlangan farazning to'g'riligini tekshirish maqsadida matematik-statistika usullaridan foydalandik. Tajriba natijalarini qayta ishlabda matematik-statistika usullaridan biri sifatida Xi kvadrat mezonini tanlandi.

Bunda faraz sifatida har ikki (tajriba va nazorat) guruhlarida baholash turlari bo'yicha kutilayotgan ehtimollar teng $(p_{11} = p_{21}, p_{12} = p_{22}, \dots, p_{1s} = p_{2s})$ deb, alternativ(muqobil) N_1 faraz sifatida $(p_{11} \neq p_{21}, p_{12} \neq p_{22}, \dots, p_{1s} \neq p_{2s})N_0$ olindi. Ushbu statistik farazni tekshirish uchun χ^2 mezonidan foydalanildi[9]. Ya'ni:

$$T_{kuzat} = \frac{1}{n_1 n_2} \sum_{i=1}^s \frac{(n_{1O_{2i}} - n_{2O_{1i}})^2}{O_{1i} + O_{2i}}$$

formuladan foydalanamiz. Bu yerda, T statistik qiymat, n_1 va n_2 lar tajriba sinov ishlarida ishtirok etgan nazorat va tajriba guruhlaridagi talabalar soni bo'lib, n_1 nazorat guruhidagi talabalar soni, n_2 tajriba guruhidagi talabalar soni, O_{1i} va O_{2i} lar mos ravishda nazorat va tajriba guruhlarida olingan baholar soni.

T_{kuzat} qiymati T_{kr} bilan taqqoslanadi. Agar $T_{kuzat} > T_{kr}$ bo'lsa N_0 faraz rad etilib N_1 faraz qabul qilinadi. Bu yerdagi T_{kr} -normallashtirilgan chetlanish ishonchlik ehtimoli p asosida aniqlanadi. Ozodlik darajasi esa $K = S - 1$ formula orqali topiladi. Bu yerda, S -baholash turlari sonini bildiradi.

χ^2 mezonini tajriba natijalari tanlangan nazorat va tajriba guruh talabalarida 4 xil baholash turlari asosida olib borilgani uchun $S = 4$. Unda, $p = 0,05$ deb olsak, $K = S - 1 = 4 - 1 = 3$ bo'lib, χ^2 jadvali asosida olingan $T_{kr} = 7,815$ ga teng.

Tadqiqot ishlari natijalarini tahlil etish uchun hisoblash ishlarini quyidagi formula asosida olib boramiz:

$$T_{kuzat} = \frac{1}{n_1 n_2} \left(\frac{(n_{1O_{21}} - n_{2O_{11}})^2}{O_{11} + O_{21}} + \frac{(n_{1O_{22}} - n_{2O_{12}})^2}{O_{12} + O_{22}} + \frac{(n_{1O_{23}} - n_{2O_{13}})^2}{O_{13} + O_{23}} + \frac{(n_{1O_{24}} - n_{2O_{14}})^2}{O_{14} + O_{24}} \right)$$

Tajriba-sinov ishlari natijasida olingan ma'lumotlar ishonchli ekanligini aniqlash maqsadida χ^2 (Xi kvadrat) mezonini asosida ish olib borilgan bo'lib, unda o'rta qiymatlarning tengligi haqidagi $H_0: T_{kr} = T_{kuzat}$ faraz va unga muqobil (alternativ) H_1 faraz olingan.

Tajriba-sinov ishlari mobaynida Toshkent moliya instituti (TMI) barcha ta'lim yo'nalishi talabalari bilan

o'tkazilgan tatqiqotlarimizda 207 nafar talaba va 10 nafar professor-o'qituvchilar ishtirok etdilar. Institutning 1-2-kurslaridan ikkita nazorat va ikkita tajriba guruhlar ajratib olindi. Ushbu tanlab olingan guruhlarining bilim darajasini aniqlash maqsadida matematik fanlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan integratsiyasini ta'minlovchi nazorat topshiriqlari va test sinovlari o'tkazildi.

Xuddi shunday nazorat va tajriba guruhlarini tanlash Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (TDIU), Farg'ona politexnika instituti (FPI) va "International school of finance technology and science" instituti (ISFT)larida ham amalga oshirildi. Topshiriqlarning natijalariga ko'ra olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirildi.

Barcha tajriba-sinov o'tkazilgan oliy ta'lim muassasalari natijalari tahlili

№ OTM	Guruhlar	Talaba-lar soni	Yuqori	Yaxshi	O'ra	Past	O'rtacha qiymat
TMI	Tajriba guruhi	102	18	25	45	14	3,46
	Nazorat guruhi	107	20	26	47	14	3,55
TDIU	Tajriba guruhi	88	12	18	47	11	3,35
	Nazorat guruhi	84	13	19	42	10	3,42
FPI	Tajriba guruhi	82	9	15	40	18	3,18
	Nazorat guruhi	83	10	14	44	15	3,23
ISFT	Tajriba guruhi	64	6	17	30	11	3,28
	Nazorat guruhi	64	8	18	31	7	3,42
Jami	Tajriba guruhi	336	45	75	162	54	3,33
	Nazorat guruhi	336	51	77	164	46	3,41

O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalariga ko'ra har bir ta'lim muassasasining talabalari bo'yicha hisoblash ishlarini olib borish mumkin. Shuning uchun, biz Toshkent moliya institutida olingan natijalarni yuqoridagi formulalar asosida hisoblash ishlarini keltiramiz.

$$T = \frac{1}{102 \cdot 107} \left(\frac{(105 \cdot 18 - 102 \cdot 20)^2}{38} + \frac{(105 \cdot 25 - 102 \cdot 26)^2}{51} + \frac{(105 \cdot 45 - 102 \cdot 47)^2}{92} + \frac{(105 \cdot 14 - 102 \cdot 14)^2}{28} \right) = 0,067$$

Yuqoridagi hisobga ko'ra $T_{kuzat} = 0,067 \neq T_{kr} = 7,815$ bo'lganligi uchun nolinch faraz rad etiladi va H_1 faraz qabul qilinadi. Bundan ko'rinadiki, tanlangan guruhlardagi o'tkazilgan tajriba sinov ishlari samarali.

Tajriba-sinov natijalarini tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi. Bo'lajak iqtisodchilarning kasbiy tayyorgarlik mazmunini takomillashtirishda innovatsion yondashuv vositasi sifatida foydalanilgan kompyuterli matematik tizimlarni qo'llash, talabalarda murakkab o'quv axborotni qabul qilish, tahlil qilish va esda saqlab qolish hususiyatlarini, ya'ni talabalarning murakkab o'quv axborotni o'zlashtirish sifatini oshirdi. Bunda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining tajriba guruhini ko'rsatkichi nazorat guruhinikiga nisbatan 1,18 baraborga, Toshkent moliya institutining tajriba guruhini ko'rsatkichi nazorat guruhinikiga nisbatan 1,15 baraborga, ya'ni 15% ga, ya'ni 18% ga, Farg'ona politexnika institutining tajriba guruhini ko'rsatkichi nazorat guruhinikiga nisbatan 1,18 baraborga, ya'ni 18% ga, "International school of finance technology and science" institutining tajriba guruhini ko'rsatkichi nazorat guruhinikiga nisbatan 1,14 baraborga, ya'ni 14% ga oshganligi aniqlandi.

-Xulosa va takliflar. Bo'lajak iqtisodchilarning kasbiy tayyorgarligi mazmunini ifodalovchi matematik fanlar va umumta'lim fanlari integratsiyasining mohiyati, mazmuni va tashkil etiladigan innovatsion darslar bo'yicha metodik tizim talablarini ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday metodik tizimni yaratishda bo'lajak iqtisodchilarning kasbiy tayyorgarlik mazmunini innovatsion yondashuv asosida takomillashtirilishiga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Zamonaviy bilim berishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo'llanishi talabada ilmiy potensialni oshirish bilan birgalikda unda o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining zamonaviy majmualari asosida tuzilgan har xil elektron variantlardagi darsliklar, ma'ruza matnlari, dars ishlanmalari, virtual laboratoriya, taqdimotlar bilan olib borilishi informatika va matematika o'rtasidagi integratsiyani yuzaga keltiradi. Bo'lajak iqtisodchilari kasbiy tayyorgarligining mazmunini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari integratsiyasini ta'minlash vositalari sifatida kompyuterli matematik tizimlar (GeoGebra)dan foydalanish yo'llari ishlab chiqildi hamda ularning samaradorlik darajasi aniqlashtirildi. GeoGebra kompyuterli matematik tizimi yordamida sonli, analitik yoki belgili hisoblashlarni bajarish va hujjatlashtirish; analitik axborotni vizuallashtirish, tajribalarning natijalarini grafikli qayta ishlash, diagramma va gistogrammalar yasash, grafikli ixtiyoriy tasvirlarni yaratish; elektron fayllarni rasmiylashtirish va saqlash, bu fayllarda matnli fragmentlar, hisoblashlar, grafiklarni navbatlash; grafikli obrazlarning sifatli animatsiyalarini yaratish; bilimlar va ma'lumotlar bazasini yaratish kabi muhim o'quv-kasbiy topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi Farmoni.
3. Q.X.Xolbozorov. "Iqtisodchilar uchun matematika" fanini o'qitishda GeoGebra dasturining qulayliklari. O'zMU xabarlari. № 2021.1.5. 147-150 b.
4. Q.X.Xolbozorov. Iqtisodga doir masalalarni yechishda "GeoGebra" dasturidan foydalanish. "Fizika, matematika va informatika". № 3/2020. 29-37 b.
5. Грищенко Л. П. Теоретические и методические аспекты формирования ИКТ-компетентности будущих менеджеров в условиях непрерывной подготовки. Дисс. кан. пед. наук.-Москва, 2011. -183с.

6. Z. Zuo. Engineering computer graphics and animation 3D modeling. Korea. 2013.-56 pp.
7. A. W. Bargteil. Design of graphics technology kurs of motivation teaching. Yaponiya, 2016.-125 p.
8. Алламбергенова М.Х. Информатикадан интерактив ўқув мажмуалар яратиш ва улардан таълим жараёнида фойдаланиш (олий таълим муассасалари мисолида) // Пед. фан. ном. ... дис. автореферати -Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2012. -23 б.
9. Стратилатов П.В. Формулы, приближенно выражающие функции $\cos x$, $\operatorname{tg} x$ и $\sin x$ многочленами, Математика в школе. -1995. -№1. –С.74-75.
10. Arifov M., Muhammadiev J. Informatika, informatsion texnologiyalar. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Toshkent: TDYI. 2004. -275 b.
11. Г.С. Хужаниёзова. Бўлажак иктисодчиларни тайёрлашда узлуксиз математик таълим интеграциясини такомиллаштириш. Педагогика ва психологияда инновациялар 4 ЖИЛД, 6 СОН. 2021. 57-б.



UDK: 347.963:17.021.2

Maxbuba XOLIYAROVA,

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi katta o'qituvchisi
E-mail: mahbubaholiarova@gmail.com

F.f.n., dots. Sh.To'rayev taqrizi asosida

MORAL CHARACTER OF CIVIL SERVANTS (IN THE CASE OF PROSECUTORS)

Annotation

This article, during the period of reforms being implemented in Uzbekistan, in the implementation of the principle "State for People", provides opinions and comments on the formation of the moral character of prosecutors working in the prosecutor's office. The prosecutor's office, which is the main executive body of the state, is responsible for forming interaction with citizens during their service.

Key words: "State for man", human dignity and dignity, prosecutor's office, management, spirituality, spiritual image.

ПРАВСТВЕННЫЙ ОБЛИК ГОССЛУЖАЩИХ (В СЛУЧАЕ СОТРУДНИКОВ ПРОКУРАТУРЫ)

Аннотация

В данной статье в период реформ, реализуемых в Узбекистане, в реализации принципа «Государство для человека», приводятся мнения и комментарии по вопросам формирования нравственного облика сотрудников органов прокуратуры, работающих в органах прокуратуры. Прокуратура, которая является основным исполнительным органом государства, в формировании взаимодействия с гражданами в период их службы.

Ключевые слова: «Государство для человека», человеческое достоинство и достоинство, прокуратура, управление, духовность, духовный образ.

DAVLAT XIZMATCHILARINING MA'NAVYI QIYOFASI (PROKURATURA ORGANLARI XODIMLARI MISOLIDA)

Аннотация

Ushbu maqolada, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar davrida "Davlat inson uchun" tamoyilini amaliyotga tadbir etishda, davlatning eng asosiy ijro etuvchi organi hisoblangan prokuratura organlarida faoliyat olib boruvchi prokuratura xodimlari xizmat faoliyati davrida fuqarolar bilan o'zaro munosabatini shakllantirishda xizmatchilarning ma'naviy qiyofasini shakllantirish masalalari yuzasidan fikr mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: "Davlat inson uchun", inson sha'ni va qadr-qimmatini prokuratura xodimi, boshqaruv, ma'naviyat, ma'naviy qiyofa.

Kirish. O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar davrining asosiy markazida inson qadri g'oyasi yotadi. Inson sha'ni va qadr-qimmatini dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mamlakatda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar qatorida sud-huquq islohotlari nihoyatda muhim ahamiyat kasb etib, prokuratura sohasiga oid normativ huquqiy hujjatlarga kiritilayotgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar zahirida inson qadr qimmatini, huquq va erkinliklari hamda ularning huquqiy himoyasiga taalluqli masalalarni davlat o'z oldiga asosiy maqsad sifatida qo'rganiga guvoh bo'lamiz.

Butun dunyoda inson huquqlarini himoya qilish avvalo adolatli jamiyat barpo etish orqali erishiladi. Shu bois, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning qonuniy asoslarini yaratish, shaxs qadr qimmatini sha'ni, uning huquqlari poymol qilinishi oldini oluvchi tizimni barpo etish va vakolatli davlat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish masalasi davlatning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Ushbu vazifalar amalga oshirilishi esa prokuratura organlarining faoliyati islohoti bilan chambarchas bog'liq holda amalga oshiriladi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining samarali ro'yobga chiqarilishi — mamlakatda qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash, demokratik, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan qonun hujjatlarini so'zsiz ijro etish uchun prokuratura organlarining kuch va imkoniyatlarini to'liq

yo'naltirishni talab etadi. Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va yangi vazifalari prokuratura organlari faoliyatini tashkil etishni, shu jumladan, qonuniylik ahvolini tizimli tahlil qilish, shuningdek, aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash, tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va hududlarni kompleks rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligiga salbiy ta'sir etuvchi huquqbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlarini o'z vaqtida aniqlash hamda bartaraf etish borasidagi faoliyatni yanada takomillashtirish masalalariga asosiy e'tibor qaratadi. Bu jarayonning uzviy amalga oshiruvchilari hisoblangan shaxslar o'z-o'zidan ma'lumki prokuratura organlarida xizmat qiluvchi davlat xizmatchilari sanaladi. Ularning kasbiy faoliyat jarayonidagi xalq bilan muloqoti hamda davlat xizmatchisi vazifasida amalga oshiradigan ishlarida ijtimoiy munosabatlarga kirishishi hamda axloqiy jihatdan o'zini namoyon etishi davlat xizmatchisining ma'naviy qiyofasini qay darajada ekanligini belgilab beradi.

Davlat boshqaruv organlari va tashkilot va idoralarda faoliyat yurituv jarayoniga davlat xizmatchilarini ma'naviy qiyofasini kamol toptirishda avvalo, ijtimoiy hamkorlik, mavjud vaziyatni psixologik baholay olish qobiliyatini shakllantirish, nutq madaaniyati va fuqarolar bilan muloqotga kirishish, ishonirish mahorati, o'ziga ergashtira olish qobiliyatlari orqali erishiladi. Shuningdek, davlat xizmati xodimlarini ish faoliyati jarayonida xizmat samaradorligini oshirishda hamda ishni samarali tashkil etishda axborotlashgan va raqamlashtirilgan xizmat sharoitini tobora

rivojlanishi ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy, ma'naviy sohalarini rivojlantirish hamda istiqbolli takliflarni amaliyotga tadbiiq etish orqali erishiladi.

Adabiyotlar va manbalarning tahlili. Ushbu ilmiy maqolaning yozilish jarayonida quyidagi manbalarga murojaat qilindi:

Siyosiy adabiyotlardan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasi" nomli asari, Normativ huquqiy hujjatlardan "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, J.Shonazarovning "Davlat xizmatchisining axloqiy qiyofasi" maqolasi, Jahon adabiyotlaridan M.Ivanov. "Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur" nomli asari, Amir Temur "Temur tuzuklari", allomalarimizdan

Xusayn Voiz Koshifiy "Axloqiy muxsinii asari", Abdulla Avloniy hamda internetning <https://xs.uz/uzkrpost/ozbekistonni-qonun-va-adolat-mustahkam-qaror-topgan-demokratik-mamlakatga-ajlatirish-eng-olij-maqsadlarimizdan-biri-Shavkat-Mirziyoyev>, <https://t.me/davletov.uz> kabi rasmiy sahifalaridan foydalanildi.

Maqolaning tahlili. So'nggi yillarda mamlakatimizda davlat xizmati faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, davlat organlari va tashkilotlarining malakali mutaxassislar bilan yetarli darajada ta'minlanmayotganligiga, kadrlar malakasining yuklatilgan vazifalar va zamonaviy ehtiyojlarga nomuvofiqligiga, qabul qilinayotgan qarorlar sifatining pastligiga olib kelayotgan bir qator tizimli muammolar va kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Xususan, davlat fuqarolik xizmatini, shu jumladan nomzodlarni ochiq mustaqil tanlov orqali saralab olish jarayonini kompleks huquqiy tartibga solishni ta'minlovchi, shuningdek, davlat fuqarolik xizmatchilarining ish samaradorligi va kasbiy kompetensiyasini baholovchi mezonlarni, ularning malakasini oshirishga bo'lgan talablarni belgilovchi to'g'ridan-to'g'ri ta'sir kuchiga ega qonun mavjud emas edi.

Yangi O'zbekiston sharoitida mamlakatda sud huquq tizimida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlarimiz, avvalo huquq tartibot organlari hamda xalq o'rtasidagi o'zaro ishonch va faol ijtimoiy hamkorlikni yo'lga qo'yishni nazarda tutadi. Sababi, huquq tartibot organlari tom ma'noda jamiyatning ajralmas qismi hisoblanib, mamlakatda adolatli boshqaruvga asoslanib, barcha qonun oldida teng ekanligini nazorat qiladi. Bu o'z navbatida jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining kafolatiga, davlat va xalq o'rtasidagi muhim ko'priki vazifasini o'taydi. Shunday ekan ko'priki mustahkam bo'lishi uning ustunlari mustahkamligiga bog'liq bo'ladi.

Taraqqiy etgan davlatlarning tajribasini o'rganish davrida ham birinchi galda, kadrlar masalasiga alohida urg'u berilganligi natijasida davlatlarning sezilarli darjada yuksalganligiga guvoh bo'lamiz. Shu o'rinda, bugun mamlakatimizda davlat xizmatini isloh etish va boshqaruv sohalarida natijadorlikni oshirish masalasi har qachongidan muhimroqdir. Barqaror rivojlanishni tub mohiyati ham fuqarolarga xizmat ko'rsatish maqsadida davlat xizmatini tizimli tashkil etish, boshqaruvda barcha toifadagi mutaxassis kadrlarning kompetentlik darajasini kuchaytirishni taqazo etmoqda.

O'zbekiston o'z taraqqiyoti rivojida jamiyatning bir sifat bosqichidan ikkinchi bir yangi sifat bosqichiga o'tish davrida iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy taraqqiyot, madaniy va ma'naviy yangilanishning ulkan va murakkab jarayonlarini boshidan kechirmoqda. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning tub mohiyatida ijtimoiy davlat qurish asoslari mustahkamlanib borgan sari ijtimoiy adolat, huquqiy tenglik, insonparvarlik tamoyillariga bo'lgan ehtiyoj ham ortib bormoqda. Bu insonlarning huquq va manfaatlarini, adolatli, erkin fuqarolik jamiyati barpo etish to'g'risidagi orzu-

umidlarini ruyobga chiqarish bilan bog'liq bo'lgan zaruratni o'zida ifoda etadi. Ushbu zarurat va vazifalar negizida davlat boshqaruvini demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilishning hozirgi yangilanayotgan bosqichida davlat fuqarolik xizmatchilarining ma'naviy va axloqiy qiyofasini zamon talablariga moslashtirib borishga bo'lgan talablar ham tobora ortib borayotganligidan dalolat beradi. Ushbu murakkab va sinovlarga boy davrda saboqlar va tajribalar bilan bog'liq islohotlar O'zbekiston uchun jahon hamjamiyati mamlakatlari orasida keng imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. Bu imkoniyatlar zamonaviy va raqobatbardosh kadrlar salohiyati, ularning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini o'stirishni amalda ta'minlashga qaratilgan bo'lib bugunning zamonaviy kadrlar zahirasida uning ilmiy salohiyati, kasbiy mahorati bilan birgalikda ma'naviy qiyofasini ham rivojlanib bormoqda.

Bu borada, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini qabul qilinishi mamlakatda samarali boshqaruv, davlat xizmatida adolatli va qat'iy tartib-intizomni ifoda etadigan kadrlar faoliyati orqali xalqni rozi qiluvchi tizimning konseptual asosini yaratib berishga qaratilganligi bilan alohida ta'kidlash zarur. Ushbu Qonunda davlat fuqarolik xizmatchisining huquqiy maqomi mustahkamlab berish bilan birgalikda faoliyatni tartibga solishda davlat organlarining asosiy vakolatlari belgilab berilgan.

Ayniqsa, barcha darajadagi davlat fuqarolik xizmatchilarining yaxlit huquq-majburiyatlari va ish unumdorligini oshirishga qaratilgan cheklovlar ham ushbu qonundan joy olganligi ularning muntazam ravishda xizmat faoliyati jarayonida o'z mutaxassisligi bo'yicha kasbiy malakalarini oshirish bilan birgalikda fuqarolar bilan munosabat o'rnatishda muomala madaniyati, muzokaro olib borish hamda muammoli vaziyatlarda to'g'ri yo'l tanlay olish ko'nikmasini ham shakllantirishdan iboratligi mustahkamlab qo'yilganiga guvoh bo'lamiz.

Ana shundan kelib chiqib, bugun mamlakatimizdagi har bir huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari o'z vakolati doirasida quyidagi ishlarni amalga oshirishi lozim:

Aholiga sifatli hamda tez xizmat ko'rsatish,

har qanday sohada qonunchilik ijrosini ta'minlash,

davlat xizmati va huquq organlariga nisbatan xalqning ishonchiga sazovor bo'lish orqali xalqda rozilik kayfiyatini uyg'otishga xizmat qilish, davlat xizmatining jozibadorligini oshirishga sitqidildan har kim o'z xizmat burchini bajarmog'i lozim. Ana shundagina, mamlakatimiz rahbari ta'biri bo'yicha ko'p millionli aholimizning hayotini yengil qiladigan, kayfiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan – davlat xizmatini isloh qilish, boshqaruvda natijadorlik va sifatini oshirish borasidagi sa'y-harakatlarimiz o'z natijasini beradi.

Davlat xizmatchisi – davlat va millatning yuzi hisoblanadi. Davlatning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida muhim rol o'ynaydi. Inson ma'naviy-axloqiy meyorlar bilan yoshligidan uzviy bog'langan bo'ladi. Bola yoshligidan ta'lim tarbiya jarayonida sayqallana borishi natijasida jamiyatning bir a'zosi shaxs sifatida shakllanadi. Bu shakllanish natijasida u jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etuvchi jamiyatning bir bo'lagiga aylanib ulguradi. Ana shunday shaxs maqomiga ega kishilar davlat xizmatida faoliyat olib borishlarida belgilangandan tashqari ularning alohida xususiyatlari mavjud bo'lishini unutmashlik lozim. Lekin davlat xizmatchisi ma'naviy qiyofasida quyidagi illatlarning mavjudligi o'z xizmat faoliyati davomida uning kasbiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi:

Hayotdan uzilganlik,

befarqlik,

loqaydlik,

qattiqqo'llik,

mas'uliyatsizlik,
bilimsizlik,
qo'pollik,
xo'jako'rsinlik,
sansolarlik,
ta'magirlik,

kibrlanganlik va boshqa illatlar mavjudligi uning ximat faoliyati davomida fuqaro bilan ishlash jarayonida yetarlicha muammolarni keltirib chiqaribgina qolmay, fuqaroning davlatga nisbatan ishonchsizlik kayfiyatini pshakllantirishga sabab bo'ladi.

Shu o'rinda davlat va fuqaro o'rtasida mustahkam ko'prik vazifasini o'tovchi adolat xususida Husayn voiz Koshifiy, "Adolat – adolatning ma'nosi xalqni huquqiy tengligini ta'minlashdir." [1] degan tarifni beradi. Bundan ko'rinib turibdiki biz qurmoqchi bo'lgan ijtimoiy davlat adolat va haqiqat asosida quriladi. Shu o'rinda mamlakat rahbari Sh.Mirziyoyevning "O'zbekistonni qonun va adolat mustahkam qaror topgan demokratik mamlakatga aylantirish – eng oliy maqsadlarimizdan biri" [2] degan ta'biri nechog'lik haqiqat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Darhaqiqat, bugun biz qurmoqchi bo'lgan ijtimoiy davlatda "Davlat – inson uchun" tamoyili hukm suradi. Ushbu maqsadga erishish yo'lida davlatda faoliyat yurituvchi barcha davlat xizmati sohalorida faoliyat olib boruvchi xizmatchilar o'ziga belgilangan xizmat vazifasini halol va vijdonan, burch va masuliyatini unutmagan holda faoliyat olib borishi, o'z

navbatida, shu mamlakatda istiqomat qiluvchi fuqarolarning og'irini yengil qiladi, va muammolarini bartaraf etishga xizmat qiladi.

Taklif va xulosalar. Mamlakatda olib borilayotgan ochiqlik siyosati orqali u dunyoga ochiq bo'lishi, umume'tirof etilgan demokratik prinsiplarni amalda joriy etish, jahon hamjamiyati bilan samarali hamkorlikning asosiy yo'nalishi sifatida qabul qilingani dunyo jamoatchiligining tobora yurtimizga bo'lgan qiziqishining ortishiga sabab bo'lmoqda O'zbekistonga qiziqishni ortib borayotgani, bugungi xorijiy davlatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorliklarning ko'pligi davlat organlarida xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning kasbiy malakasi, ularning ma'naviy axloqiy qiyofasi hamda xizmat faoliyatida tashabbuskorligini oshirish lozim.

Bugun O'zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar markazida inson qadri g'oyasi turadi. Shu bois, inson huquqlari, erkinliklari, qadr qimmati va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda yetakchilik na'munasini ko'rsatish yoki korrupsiya holatlarini cheklash hamda xizmatchilarni manan halollik vaksinasi bilan emlash orqali erishiladi. Bularni to'la ado etish uchun birgina soha vakilining faoliyati bilan erishib bo'lmaydi. Bu jarayonda huquq idoralari va hukumat ham o'zining ishonchli vakilining imkoniyatlari va vakolatlarini himoya qilish bilan birga, kurashish jarayonida cheklovchi, belgilovchi qonun-qoidalarni ham qabul qilishi zarur orqali ko'zlangan maqsadlarga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashr. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 440 b.
2. Xusayn Voiz Koshifiy. Axloqiy muxsiniy. – Toshkent: "O'zbekiston 2010. 47 b.
3. Mirziyoyev Sh. O'zbekistonni qonun va adolat mustahkam qaror topgan demokratik mamlakatga aylantirish – eng oliy maqsadlarimizdan biri. <https://xs.uz/uzkr/post/o'zbekistonni-qonun-va-adolat-mustahkam-qaror-topgan-demokratik-mamlakatga-ajlantirish-eng-olij-maqsadlarimizdan-biri-Shavkat-Mirziyoyev>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabr "Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 595-son qarori.
5. Ivanov M. "Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Timur". – Toshkent. Fan, 1994. – 164 b.
6. O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonun. 2022-yil 8-avgust, O'RQ-788-son.
7. <https://my.gov.uz/uz/site/faq/13>
8. Shonazarov J. "Davlat xizmatchisining axloqiy qiyofasi" Science and innovation international scientific journal volume 1 Issue 8 UIF-2022: 363-369 bet



UDK: 303.4.028

Javlon XOLMATOV,
O‘z MU Jizzax filiali assistenti
E-mail: djavadja@gmail.com

Jizzax davlat pedagogika universiteti Pedagogika ta’limi nazariyasi kafedrası mudiri p.f.f.d. dots. F.Rahmatova taqrizi ostida

INTERFAOL TA’LIM METODLARIDAN DISKRET MATEMATIKA VA MATEMATIK MANTIQ FANINI O‘QITISHDA FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada interfaol o‘qitish metodlaridan foydalanishning dolzarbligi, oliy ta’lim muassasalarida “Diskret matematika va matematik mantiq” fanini o‘qitishda ulardan foydalanish zarurati asoslangan. Jumladan, “Kichik guruhlarda ishlash” metodidan “Post teoremasi asosida funksiyalar sistemasini to‘liqlikka tekshirish” mavzusini o‘qitishda foydalanish borasidagi tajribalar haqida fikr yuritilgan. Bu metod yordamida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish usullari keltirilgan. Berilgan barcha topshiriqlar va ularning javoblari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Interfaol metod, “kichik guruhlarda ishlash”, mantiqiy funksiyalar sisteması, Post jadvalı, Post teoreması, muhim yopiq sinflar, funksiyalar sistemasining to‘liqligi.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБРАЗОВАНИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ ДИСКРЕТНОЙ МАТЕМАТИКЕ И МАТЕМАТИЧЕСКОЙ ЛОГИКЕ

Аннотация

В данной статье обосновывается актуальность использования интерактивных методов обучения, необходимость их использования при преподавании «Дискретной математики и математической логики» в высших учебных заведениях. В частности, обсуждался опыт использования метода «Работа в малых группах» при преподавании темы «Проверка системы функций на полноту на основе теоремы Поста». Приведены методы организации практических занятий с использованием этого метода. Анализируются все задания и ответы на них.

Ключевые слова: Интерактивный метод, «работа в малых группах», система логических функций, таблица Поста, теорема Поста, важные замкнутые классы, полнота системы функций.

USING INTERACTIVE EDUCATIONAL METHODS IN TEACHING DISCRETE MATHEMATICS AND MATHEMATICAL LOGIC

Annotation

This article substantiates the relevance of using interactive teaching methods, the need for their use when teaching “Discrete Mathematics and Mathematical Logic” in higher educational institutions. In particular, the experience of using the “Work in small groups” method when teaching the topic “Checking a system of functions for completeness based on Post’s theorem” was discussed. Methods for organizing practical classes using this method are given. All tasks and answers to them are analyzed.

Key words: Interactive method, “work in small groups”, system of logical functions, Post’s table, Post’s theorem, important closed classes, completeness of the system of functions.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim sohasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, ta’lim mazmunini takomillashtirishga oid qabul qilingan hukumat qarorlari, ta’limni hayot bilan bog‘lashni, o‘qitish samaradorligini oshirishni, tez taraqqiy etib borayotgan jamiyat uchun har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishni talab qiladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish asosiy maqsad sifatida belgilab berilgan[9]. Bu o‘rinda ta’lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi va qo‘llanishi davr talabi bilan bevosita bog‘liqdir. Yangi pedagogik texnologiya ta’limning ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan shakli, usuli va vositalarining mahsulidir.

An’anaviy mashg‘ulotlar olib borish asta sekin o‘z o‘rnini intensiv va interfaol metodlarga, noan’anaviy dars

o‘tish ishlariga bo‘shatib bermoqda. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan keng foydalanib, ta’lim samaradorligini oshirishga bo‘lgan qiziqish kun sayin ortib bermoqda. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonga hamda o‘qituvchi va talabalar faoliyatiga yangilik, o‘zgartirishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan faol yoki interfaol metodlardan foydalaniladi[6].

Oliy ta’lim muassasalarida “Diskret matematika va matematik mantiq” fanidan olib boriladigan mashg‘ulotlarning interfaol usullarda o‘tilishi, oddiy darslardan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi: qo‘yilgan maqsadga aniq erishish; yangi bilimlarni berishda yangi usullardan foydalanish; vaqtning taqsimlanishi; dars bosqichlaridagi o‘rin almashinishlar; dastur materiali asosida qisman chetga chiqish.

O‘qitishning interfaol metodlaridan qaysi vaqtda foydalanish, qaysi mavzularda qanday interfaol metodlarni qo‘llash, qanday qilib tashkil etish, qaysi interfaol metodlar usullar “Diskret matematika va matematik mantiq” fanidan olib boriladigan mashg‘ulotlarda ko‘proq ijobiy natija berishini o‘qituvchi bilishi kerak. Interfaol metodlarni yangi mavzuni bayon qilishda, takrorlash va bilimlarni

mustahkamlashda ijobiy natija berishi mumkin. Interfaol metodlarni qo'llashda kamchiliklar yuzaga kelishi o'qituvchining darsga tayyorlanmaganligining natijasidir. Darsni interfaol usullarda tashkil etish qo'yidagilarni o'z ichiga oladi; 1) mavzu va uning hajmini aniqlash; 2) mavzuga mos dars shaklini aniqlash; 3) mavzuning manbalari, adabiyotlar bilan tanishib chiqish; 4) o'quvchilarga tushunish qiyinroq bo'ladigan tushunchalarni izohlash metodini ishlab chiqish; 5) dars rejasini tuzish; 6) darsni o'tkazish metodi va texnologiyasini tanlash; 7) dars jihozini tayyorlash; 8) mavzuni yoritish usulini aniqlash; 9) darsni oldingi va keyingi mazular bilan bog'liqligini ishlab chiqish; 10) talabalarni baholash metodlarini ishlab chiqish; 11) talabalarga beriladigan test materiallarini tayyorlab qo'yish; 12) darsda qo'llaniladigan multimedia vositalarini tayyorlab qo'yish; 13) darsga mos qiziqarli, muammoli topshiriqlarni tayyorlab qo'yish. Darslarni interfaol metod asosida tashkil etish quyidagi didaktik tamoyillar asosida bo'lishi lozim: o'quvchining dunyoqarashining shakllantirishi; ilmiylik; tushunarlik va qiziqarlik; hayotiylik; talabalar yoshiga, psixologik xususiyatlariga, saviyasiga mosligi; ijtimoiyligi va boshqalar [4,5].

Asosiy qism. Ushbu maqolada "kichik guruhlarda ishlash" interfaol o'qitish metodidan foydalanish haqida so'z boradi, hamda "Diskret matematika va matematik mantiq" fanini o'qitish misolida yoritiladi. "Diskret matematika va matematik mantiq" fani bakalavriat matematika va amaliy matematika yo'nalishi o'quv rejasiga muvofiq o'qitiladi va asosiy mutaxassislik fanlaridan biri hisoblanadi [2].

Quyida "Kichik guruhlarda ishlash" metodida foydalanishni "Post teoremasi asosida funksiyalar sistemasini 1-jadval

F_1		P0	P1	M	L	S
f_1	$\bar{x} \vee \bar{y} \downarrow z$	+	-	-	-	-
f_2	$\bar{x} \vee y$	-	+	-	-	-
f_3	$x \rightarrow yz$	-	+	-	-	-
f_4	$(x \bar{y}) \rightarrow z$	+	+	-	-	-

Funksiyalar sistemasini to'liq.

2-kichik guruh taqdim qilgan $F_2 = \{(x \downarrow \bar{y}) \vee z; \bar{x}y; x \rightarrow \bar{y}z; x \leftrightarrow yz\}$ funksiyalar sistemasining Post jadvali quyidagicha bo'lishi kerak:

2-jadval

F_2		P0	P1	M	L	S
f_1	$(x \downarrow \bar{y}) \vee z$	+	+	-	-	-
f_2	$\bar{x}y$	+	-	-	-	-
f_3	$x \rightarrow \bar{y}z$	-	-	-	-	-
f_4	$x \leftrightarrow yz$	-	-	-	-	-

Funksiyalar sistemasini to'liq.

3-kichik guruh taqdim qilgan $F_3 = \{(x \oplus \bar{y})z; x \vee y; x \rightarrow \bar{y} \vee z; (x \downarrow \bar{y}) \vee z\}$ funksiyalar sistemasining Post jadvali quyidagicha bo'lishi kerak:

3-jadval

F_3		P0	P1	M	L	S
f_1	$(x \oplus \bar{y})z$	+	+	-	-	-
f_2	$x \vee y$	+	+	+	-	-
f_3	$x \rightarrow \bar{y} \vee z$	-	+	-	-	-
f_4	$(x \downarrow \bar{y}) \vee z$	-	+	-	-	-

Funksiyalar sistemasini to'liq emas.

4-kichik guruh taqdim qilgan $F_4 = \{(x \leftrightarrow \bar{y}) \vee z; \bar{x} \vee \bar{y}; \bar{x} \rightarrow \bar{y}z; (x \downarrow y)|z\}$ funksiyalar sistemasining Post jadvali quyidagicha bo'lishi kerak:

4-jadval

F_4		P0	P1	M	L	S
f_1	$(x \leftrightarrow \bar{y}) \vee z$	+	+	-	-	-
f_2	$\bar{x} \vee \bar{y}$	-	-	-	-	-
f_3	$\bar{x} \rightarrow \bar{y}z$	+	+	-	-	-
f_4	$(x \downarrow y) z$	-	+	-	-	-

Funksiyalar sistemasini to'liq.

to'liqlikka tekshirish" mavzusi misolida tushuntiramiz. O'qituvchi talabalarni kichik guruhlariga bo'ladi, har bir kichik guruhga mavzuga oid tarqatmali materiallardan topshiriqlar tarqatiladi, ularning har birida masala-mashqlar (shunday tanlanishi kerakki, unda barcha funksional yopiq sinflarga tegishli funksiyalar qatnashishi shart) beriladi. Masalan:

1-kichik guruh topshirig'i: $F_1 = \{\bar{x} \vee \bar{y} \downarrow z; \bar{x} \vee y; x \rightarrow yz; (x|\bar{y}) \rightarrow z\}$ -Post jadvali asosida funksiyalar sistemasini to'liqlikka tekshirilsin.

2-kichik guruh topshirig'i: $F_2 = \{(x \downarrow \bar{y}) \vee z; \bar{x}y; x \rightarrow \bar{y}z; x \leftrightarrow yz\}$ -Post jadvali asosida funksiyalar sistemasini to'liqlikka tekshirilsin.

3-kichik guruh topshirig'i: $F_3 = \{(x \oplus \bar{y})z; x \vee y; x \rightarrow \bar{y} \vee z; (x \downarrow \bar{y}) \vee z\}$ -Post jadvali asosida funksiyalar sistemasini to'liqlikka tekshirilsin.

4-kichik guruh topshirig'i: $F_4 = \{(x \leftrightarrow \bar{y}) \vee z; \bar{x} \vee \bar{y}; \bar{x} \rightarrow \bar{y}z; (x \downarrow y)|z\}$ -Post jadvali asosida funksiyalar sistemasini to'liqlikka tekshirilsin.

5-kichik guruh topshirig'i: $F_5 = \{x \oplus (y \vee z); x \vee \bar{y}; xy \rightarrow \bar{z}; (x|y) \downarrow z\}$ -Post jadvali asosida funksiyalar sistemasini to'liqlikka tekshirilsin.

Barcha guruhlariga tegishli ko'rsatmalar beriladi, yo'naltiriladi va topshiriqni bajarish uchun vaqt beriladi. Vaqt tugagach guruhlarning javoblari (Post jadvali) taqdim etiladi, muhokama va tahlil qilinadi. Post jadvalining har bir ustuni va natijasi tekshirilib chiqiladi [1,3,7,8].

1-kichik guruh taqdim qilgan $F_1 = \{\bar{x} \vee \bar{y} \downarrow z; \bar{x} \vee y; x \rightarrow yz; (x|\bar{y}) \rightarrow z\}$ funksiyalar sistemasining Post jadvali quyidagicha bo'lishi kerak:

5-kichik guruh taqdim qilgan $F_5 = \{x \oplus (y \vee z); x \vee \bar{y}; xy \rightarrow \bar{z}; (x|y) \downarrow z\}$ funksiyalar sistemasining Post jadvali quyidagicha bo'lishi kerak:

5-jadval

F_5		P0	P1	M	L	S
f_1	$x \oplus (y \vee z)$	+	-	-	-	-
f_2	$x \vee \bar{y}$	-	+	-	-	-
f_3	$xy \rightarrow \bar{z}$	-	-	-	-	-
f_4	$(x y) \downarrow z$	+	-	-	-	-

Funksiyalar sistemasini to'liq.

Agar biror ustunda xato mavjud bo'lsa, shu ustundagi amal aniqlanib, amalni tushuntirgan ekspert guruhdan jarima ball ayiriladi va hamma baholanadi.

Metodni samarali qo'llash natijasida quyidagilarga erishish mumkin: guruh bilan birgalikda ishlash shakllari o'rganiladi; talabalarda bir-birlariga bo'lgan hurmat, ishonch tuyg'ulari oshadi; nutq so'zlash, o'z fikrini asoslab berish va himoyalashga bo'lgan qobiliyati ortadi; mustaqil fikrlash va muammolarni echishga oid ishtiyoqi shakllanadi; o'rganish, ishlashga bo'lgan ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, "Kichik guruhlarda ishlash", interfaol metodini o'quv jarayonida yuqorida berilgan tartibda qo'llay olish uchun guruhlariga ajratilgan qismlar o'zaro bog'liq bo'lmasligi, ya'ni birinchi qismni o'zlashtirmay turib, ikkinchi yoki uchinchi qismlarni o'zlashtira olib bilishi mumkin bo'lgan mavzular tanlanishi lozim. Bu metodlar quyidagilarga imkon beradi: ta'lim oluvchilarda o'quv materialini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish uyg'otadi; ularning bilishiga va faol ijodiy fikrlashga bo'lgan intilishlarni rag'batlantiradi; ta'lim jarayonini tashkil etishda ta'lim oluvchilar mustaqilligi va tashabbuskorligiga tayanish imkoniyatlarini oshiradi; ta'lim oluvchilar tomonidan o'z-o'zini boshqarishga keng yo'l ochadi; har bir ta'lim oluvchining qobiliyatlari va intilishlaridan kelib chiqqan holda bilim (hammaga bir xil bilim berishdan voz kechish) berish uchun imkoniyat yaratadi; har bir ta'lim oluvchi shaxsning

yaqshil xislatlarini izlash va ularni rivojlantirishga yordam beradi; o'qituvchining "har bir ta'lim oluvchi iste'dodli" degan ishonchga ega bo'lishiga, shunga kelib chiqqan holda uni hurmat qilish, har bir fikriga e'tibor bilan qarash, unga ishonishga, natajada hamkorlikda ishlash imkoniyatlarini oshiradi; ta'lim oluvchining har bir yutug'ini qo'llab-quvvatlash, ma'qullash, unga xayrixoh bo'lgan vaziyatlarni yaratish va shular asosida yanada chuqurroq bilimlar egallashga bo'lgan intilishlarini o'z vaqtida rag'batlantirib boradi; ta'lim jarayonida har bir ta'lim oluvchiga o'z qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyatlarini yaratish va unga bu yo'lda yordam berish imkoniyatlarini oshiradi; qanday, nimaga va nima uchun o'qitish kabi savollarga, shuningdek, qanday qilib natijali o'qitish savoliga javob topiladi; o'qituvchining mehnat samaradorligini oshiradi; o'qitish jarayonida har bir talabaning individual xususiyatlari va xarakterini inobatga olgan holda pedagogik jarayonni tashkil qilish, o'qitish natijasini baholashda esa xususiy (sub'ektiv) baholanishdan o'qituvchini ozod etish imkonini beradi; o'qitish jarayoni bo'yicha bosh vazifalarni o'qitish vositalariga yuklash orqali o'qituvchining vaqtini samarali qiladi, shu bois o'qituvchi uchun ko'proq vaqtini har bir talabaning shaxsiy rivojlanishiga qaratishga imkon yaratiladi; talabalar bilim darajasini baholash va nazoratda shaffoflikka erishiladi.

ADABIYOTLAR

1. Н.То'rayев, I.Азизов "Дискрет математика ва математик мантиқ". 1-жild. SamDU – 2011 yil
2. Башин М.А., Дурнев В.Г. О некотором опыте преподавания дисциплины «Дискретная математика» / Преподавание математики в классическом университете: Тезисы докладов научно-методической конференции. - Ярославль: ЯрГУ 2005. - С.6-7.
3. Дурнев В.Г., Башкин М.А., Якимова О.П. Элементы дискретной математики: учебное пособие. - Ярославль: ЯрГУ 2007.
4. Мехамедов Ў.Х., Усмонбекова М.Х., Рустамов С.С. Таълимни ташкил этишда замонавий интерфаол методлар. Ўқув услубий тавсиялар Т.:Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси, 2016.-45 б.
5. А. Рахимов, М. Ҳамроева. "Интерфаол таълим ва унинг дидактик имкониятлари". XXI Международная научно-практическая интернетконференция 30–31 декабря, 2015.
6. Кларин, М. В. Интерактивное обучение – инструмент освоения нового опыта// Педагогика. – 2000. – № 7. – С. 12–18
7. Холматов, Ж., Худойшукuroва, Р., & Ибадуллаев, Ш. (2023). Bul algebrasi funksiyalari sistemasini post teoremasi asosida to'liqlikka tekshirish. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 66-70.
8. Холматов, Д., & Мустафоев, Э. (2023). Zamonaviy diskret matematikaning vazifalari. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 352-356.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. 08.10.2019 y.// <https://lex.uz/docs/4545884>